CADP

DEMOKRATIK JARAYONLARNI TAHLIL QILISH MARKAZI
CENTER FOR ANALYSIS OF DEMOCRATIC PROCESSES

“YANGI O‘ZBEKISTONDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 1-may, Toshkent

THE COLLECTION OF MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC

“TRANSFORMATION OF VALUES IN THE NEW UZBEKISTAN”

May 1, 2025 Tashkent



UO‘K: 316.422(575.1)(06)
KBK: 66.1(5O‘)ya73

Yangi O‘zbekistonda qadriyatlar transformatsiyasi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to‘plami (2025-yil 1-may). – T.: “ZILOL BULOQ”, 2025. – 360 b.

Ushbu to‘plam Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekistonda qadriyatlar transformatsiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan iborat bo‘lib, unda zamonaviy jamiyatda sodir bo‘layotgan qadriyatlar evolyutsiyasi, milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi transformatsiyasi, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va ma’naviy islohotlar, an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanat, O‘zbekistonda oila instituti va ayollar nufuzining yuksalishi, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari, yoshlar qadriyatlaridagi yangilanish jarayonlariga global ta’sirlar va innovatsion yondashuvlar aks ettirilgan maqola va tezislar o‘rin olgan.

To‘plamga xorijiy ekspertlar, yurtimizdagi tahlil markazlari ekspertlari, oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanishlar olib borayotgan doktorantlar, tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Ma’sul muharrir – A.K. Pardayev

Tahrir hay’ati:
y.f.d., dotsent F.T. Buranov,
PhD, N.X. Axmedov,
PhD, Sh.T. Rashidov,
PhD, S.I. Botirov,
U.A. Ro‘ziyev,
A.A. Ikramov,
D.O‘. A’zamov,
Y.H. Sodiqov

Taqrizchilar:
s.f.d., prof. Q.A. Jo‘rayev,
PhD, G.Sh. Jiyanmurotova

ISBN 978-9910-09-199-5
© “ZILOL BULOQ”, 2025

MUNDARIJA

Kirish.....4

I. O‘zbekistonda ijtimoiy va ma’naviy islohotlar: zamonaviy jamiyatda qadriyatlar evolyutsiyasi.....8

F.T. Buranov Yangi O‘zbekistonda inson qadrining ulug‘lanishi.....10

Sh.O. Madayeva O‘zbek identikligining qadriyatiy tamoyillari va zamonaviy identiklik tanazzuli muammosi.....12

I.N. Islomov O‘zbekistonda siyosiy qadriyatlarning transformatsiyalashuvida internetning roli.....16

A.S. Ibrahim Abdelrahman Osman The importance of religious rites in New Uzbekistan.....20

R. Rashidov O‘zbekistondagi ijtimoiy-ma’naviy yangilanishlar jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishish masalalari.....24

N. Dexkanov, M. Sodirjonov Ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida inson kapitalini rivojlantirish.....28

M. Darmonova Yangi O‘zbekistonda siyosiy qatag‘on qurbonlari xotirasining abadiylashtirilishi.....33

S.I. Botirov An’anaviylik va zamonaviylik: avlodlar qadriyatlaridagi farq va o‘xshashliklar.....38

Sh. Toshpo‘lotov Yangi O‘zbekistonda dunyoviylik va diniy bag‘rikenglik.....44

M. Ubaydullayev O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning zamonaviy jamiyat qadriyatlari evolyusiyasiga ta’siri.....49

D. Xaydarova Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning jadid islohotlari bilan uyg‘unlashuvi.....52

A.A. Abdumatov, I.B. To‘ychiboyev Navro‘z bayrami udumlari va hozirgi zamon.....56

S. Tursunova Integration of values and cognitive modeling in modern society.....59

II. Milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi transformatsiyasi: an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanat.....63

N. Egamberdiyeva Yangi O‘zbekistonda oila instituti: islohot va istiqbollar.....63

L. Taegeun Living between two cultures.....68

L.Muxamedjonova Globalizatsiya sharoitidagi axloqiy muloqot.....70

A. Egamberdiyev, I. Shukurova Diniy fonni aniqlash indikatorlari.....73

Sh. Bobojonov Etnografik turizmning milliy qadriyatlar va an’analarni saqlab qolishdagi o‘rni.....76

X. Jurabekova Globallashuv jarayonining milliy qadriyatlar va an’analarga ta’siri va ularni mustahkamlash mexanizmlari.....80

B.B. To‘ychiboyev *I.B. To‘ychiboyev* “Alpomish” dostoni – milliy udumlar va o‘lmas qadriyatlar manbai.....83

M.Y. Atadjanov Global qadriyatlar transformatsiyasi va boqimandalik.....88

A. Azizov Milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirishda xalq o‘yinlarning ahamiyati.....91

A. Isabayeva Jadid adabiyoti nasriy asarlari orqali milliy qadriyatlarni o‘qitishda an’anaviy va zamonaviylik muvozanatini ta’minlash.....96

X. Abduniyazov Milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi transformatsiyasi: an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanat.....99

Y. Karimov Globallashuv sharoitida milliy tilni asrash muammolari.....103

Sh.Tangirberdiyev Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalari.....106

A. Oripov Milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi transformatsiyasi: an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanat…….....115

O. Karimov Milliy qadriyatlar va shaxsiy gigiyena masalalari.....119

Sh. Valiyev Zamonaviy texnologiyalar va milliy qadriyatlar muvozanati: sun’iy intellektning ta’siri.....121

III. O‘zbekistonda oila instituti va ayollar nufuzining yuksalishi: tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari……125

V.S. Alekseyeva Женщины о себе: положение, ожидания и перспективы.....125

A.H. Elg How Finland supports families with children.....130

D. Kitaoka Family values in japanese and uzbek cultures.....133

D. Safarov Nikoh – oila munosabatlari mustahkamligi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar obyekti sifatida.....137

Y. Abdullayeva Xorijiy davlatlarda gender masalasidagi tendensiyalar.....142

F. Ro‘ziqulov Ajrashgan oilalardagi er-xotinlar oilaviy qadriyatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....149

R. Komilov Nikohdan tashqari munosabatlarning amoralistik sabablarini falsafiy tahlili.....154

B. Ganiyev Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida ayollar tengligi konsepsiyasining milliy xususiyatlari.....158

K. Rustamov O‘zbek jamiyatida oilaviy qadriyatlarning modernizatsiyasi: gender rollari, an’anaviylik va davlat siyosati o‘rtasidagi muvozanat izlanishlari.....162

X. Karimov O‘zbek oilalarida shaxslararo nizolarning kelib chiqish sabablari va ularning oqibatlari.....166

N. Saydaliyeva Ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishi va gender tengligi: O‘zbekiston tajribasi.....170

F. Rajabova O‘zbek oilalarida er-xotin munosabatlarida gender tenglikni ta’minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....175

A. Ruziqulov O‘zbekistonda oila instituti va ayollar nufuzining yuksalishi: tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari.....179

E. Ulug‘murodov Yangi O‘zbekistonda gender siyosatining ijtimoiy asoslari.....184

Z. Alimardonova Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning o‘rni va roli Surxondaryo viloyati misolida.....189

X. Raxmonov O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi masalalari.....193

R. Alimardonova O‘zbek oilalaridagi yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashda kelin-kuyovlar o‘rtasidagi oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari.....198

O. Tursunova O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlashda xotin-qizlar huquqlarining ta’minlanishi.....204
Y.T. Ismoilova Konfliktni hal etishda oilaning ijtimoiy-ma’naviy roli.....207
D. Kesimov O‘zbek oilalarida gender munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....211
R. Raximova Yangi O‘zbekistonning bunyodkor ayollari.....216
Y. Xoliqov Nikohning axloqiy-estetik mohiyati, tasnifi va vazifalari.....222
M. O‘rolova Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni.....227
IV. Yoshlar qadriyatlaridagi yangilanish: global ta’sirlar va innovatsion yondashuvlar.....231
I. Saifnazarov Talaba yoshlar dunyoqarashida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirishda ijtimoiy fanlarning roli.....231
M.Y. Alptekin The transformation of values among contemporary uzbek youth: a comparative analysis with Turkiye.....237
P. Kumar Yangi Uzbekistan: a new spirit in professional development among youth.....242
N.S. Rasulova O‘zbekiston siyosiy partiyalarining yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi o‘rni.....247
M. Pardayeva Yoshlar qadriyatlarining o‘zgarishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etishning innovatsion usullari.....252
A. Yunusov Yangi O‘zbekistonda yoshlar qadriyatlarining sotsiologik tahlili.....257
A. Xudaybergenov Globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy qadriyatlarga nisbatan o‘zgarishlar masalalari.....265
A. Tolipov Yoshlar xulq-atvorida deviant va kriminal submadaniyatning namoyon bo‘lishi.....267
N. Achilova Jaholatparastlik – ma’rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi kuch.....271
M. Kurbanbayeva Yoshlar qadriyatlarini shakllantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati.....276
M. Sayidov Globallashuv yoshlar qadriyatlariga axloqiy tahdid sifatida.....280

G‘. Sapayev Globallashuv va axborot makonida yoshlar ma’naviyatiga tahdidlar: muammo va ularga qarshi kurashishda zamonaviy yondashuvlar.....283
U. Musayev Global o‘zgarishlar davrida yoshlarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish xususiyatlari.....287
J. Jurayev Globallashuv davrida yoshlarning marginallashuvi va uning jamiyat xavfsizligiga ta’siri.....291
N. Rustamova Milliy qadriyatlarning transformatsiyasi va raqamli avlod: o‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-madaniy identiteti shakllanishida Tiktok va Instagram omili.....297
Z. Nadirova Non-linear thinking and intuition.....301
G‘. Abdiyev Yangi O‘zbekiston jamiyatida yoshlar faolligini rivojlantirishning ma’naviy omillari.....304
H.X. Ashirmatov Yoshlar qadriyatlaridagi yangilanish: global ta’sirlar va innovatsion yondashuvlar.....306
X. Xolmurotov Yoshlar qadriyatlaridagi yangilanish: global ta’sirlar va innovatsion yondashuvlar.....313
X. Dusbekova Markaziy Osiyo davlatlari yoshlar siyosatida IT ta’limni rivojlantirish tendensiyalari: mintaqa yoshlari uchun yangi imkoniyatlar (O‘zbekiston va Qozog‘iston tajribasi).....320
O.O. Yusupaliyev Milliy qadriyatlar va yoshlar ma’naviy kamoloti.....328
A. Abduraxmonov Yangi O‘zbekiston o‘quvchi – yoshlarida vatanparvarlikni shakllantirish strategiyasida oilaviy qadriyatlarning o‘rni.....331
G. Niyetova Atrof-muhit muhofazasining tarbiyaviy asoslari.....337
J. To‘xtayev Yoshlar qadriyatlariga global ta’sirlar: zamonaviy tahdidlar va imkoniyatlar.....340
Y. Ismoilova Alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda oilaning o‘rni.....344
Z. Rakhimov Educator-metocognitive in management of employees pedagogical-psychological mechanisms.....348
Sh.B. Rashidova O‘smirlarda me’yoriy ijtimoiylashuv jarayonidan og‘ish omillari.....351
S. Janadilova O‘zbekiston yoshlarining siyosiy faolligini oshirish davr talabi.....359

KIRISH

Hammamizga ma’lumki, bugungi globallashgan zamonda dunyoning istalgan chetidagi voqea-hodisalardan bir zumda boshqa chetidagi insonlar xabardor bo‘la oladi. Texnologik taraqqiyot natijasida bugun mintaqalar, davlatlar orasida o‘zaro aloqa yuqori sur’atga chiqdi. Bu holat kishilik jamiyati tarixida shakllangan turli millat va xalqlarning o‘ziga xos qadriyatlariga ham daxl qilayotgani sir emas. Boshqacha aytganimizda, bugun dunyo hamjamiyatida qadriyatlarning o‘ziga xos evolyutsiyasiga guvoh bo‘lyapmiz.

Bu borada davlatimiz rahbari 2021-yildagi YUNESKO Bosh konferensiyasidagi nutqida *“Globallashuv va raqamlashuv jarayonlari turli millatlar va xalqlarning madaniyati, an’analari va qadriyatlarini asrab-avaylash masalasini yanada dolzarb qilayotgani”*ni alohida ta’kidlagan.

Darhaqiqat, jamiyatdagi qadriyatlar evolyutsiyasi — bu uzluksiz jarayon bo‘lib, u ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy hayot va ma’naviyat sohasidagi islohotlar davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki ma’naviy sohani ham qamrab olmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti faqat moddiy omillar bilan emas, balki ma’naviy qadriyatlarning takomili bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Ijtimoiy islohotlar — bu inson hayoti sifatini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, tenglik, adolat va insonparvarlik prinsiplarini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda aholi farovonligini oshirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, kam ta’minlangan aholi qatlamiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish borasida keng qamrovli dasturlar qabul qilindi.

Birgina ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’limni olganimizda, maktabgacha ta’lim tizimida qamrovning deyarli 80 foizga, OTMlar sonining oshishi va qamrovning 40 foizdan oshgani juda katta natija deyish mumkin.

Shuningdek, ta’lim kreditlari bo‘yicha imkoniyatlarning kengaytirilishi, magistraturada tahsil oluvchi xotin-qizlar kontrakt to‘lovlarining davlat byudjeti hisobidan qoplanishi jamiyatda ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi.

Bunday islohotlar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, inson qadrini ulug‘lash va pirovardida mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ijtimoiy masalalarni hal qilish barobarida jamiyatda ma’naviy muhitni yaxshilash, uni yanada rivojlantirish ham qadriyatlarning asrab-avaylanishida hayotiy muhim hisoblanadi.

Ma’naviy islohotlar yangi qadriyatlar tizimining shakllanishida bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviyat – jamiyatning ruhiy poydevori hisoblanadi. O‘zbekistonda ma’naviy tiklanish va rivojlanishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi ma’naviy hayotda yangi bosqichni boshlab berdi. Bunda milliy an’analar, tarixiy meros, buyuk ajdodlar merosi bilan bir qatorda zamonaviy falsafa, axloq va tafakkur ham mustahkamlanmoqda. Ma’naviy islohotlar doirasida quyidagi yo‘nalishlar dolzarbligini ta’kidlamoqchiman:

- axloqiy tarbiyani kuchaytirish va yoshlarda fuqarolik mas’uliyatini yuksaltirish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish;

- internet va ommaviy axborot vositalari orqali ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish;

- ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik va mehnatsevarlik ruhini mustahkamlash.

Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishlarda samarali natijalarga erishishda zamonaviy usul va vositalardan foydalanishga ham e’tibor qaratish lozim. Qadriyatlarning o‘zgarishi jamiyatdagi modernizatsiya (zamonaviylashtirish) jarayonlarining tabiiy natijasidir. Ilgari shaxsdan jamoa manfaati ustuvor bo‘lgan jamiyatda hozir inson huquqlari, erkinlik va shaxsiy taraqqiyot muhim qadriyat sifatida e’tirof etilmoqda. Bu o‘zgarishlar faqat tashqaridan emas, balki jamiyatning ichki ehtiyojidan kelib chiqqan holda yuzaga kelmoqda.

Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga ularni zamonaviy talablarga moslashtirish ham muhim. Mana shu jarayonda ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘z so‘zini ayta olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ijtimoiy va ma’naviy islohotlar keng qamrovli, tizimli va strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda inson omili, uning qadri va taraqqiyoti markaziy o‘rinda turibdi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarimizning evolyutsiyasi jarayoni ham kechmoqda. Bu jamiyatning yangi bosqichga ko‘tarilishi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va barqaror taraqqiyotning ta’minlanishiga xizmat qilishi, shu boisdan, har bir fuqaro islohotlar jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘z mas’uliyatini his etishi va milliy taraqqiyotga munosib hissa qo‘shishi lozim.

Azamat Pardayev,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi direktori

I. O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY VA MA’NAVIY ISLOHOTLAR: ZAMONAVIY JAMIYATDA QADRIYATLAR EVOLYUTSIYASI

Buranov Farhod Tojiboyevich,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
direktori o‘rinbosari, y.f.d., dotsent

YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON QADRINING ULUG‘LANISHI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlarning mazmuni, xususan, ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalaridagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ma’naviy va madaniy hayotda inson qadrining ifodasi, fuqarolik jamiyati institutlarining bu jarayondagi o‘rni ham yoritiladi. Maqola inson qadrini ulug‘lash Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti va xalq farovonligining muhim omili ekanligi asoslanadi.*

♦ ***Abstract:*** *The article analyzes the essence of the reforms carried out in recent years under the principle of “For the dignity of man,” with a particular focus on changes in the fields of social protection, education, and healthcare. It also highlights the expression of human dignity in spiritual and cultural life, as well as the role of civil society institutions in this process. The article substantiates that honoring human dignity is a key factor in the development of New Uzbekistan and the well-being of its people.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *inson qadri, Yangi O‘zbekiston, “O‘zbekiston – 2030”, strategiya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ma’naviyat.*

♦ ***Keywords:*** *human dignity, New Uzbekistan, “Uzbekistan – 2030”, strategy, education, healthcare, spirituality.*

Yangi O‘zbekiston shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan, o‘z kelajagiga katta ishonch bilan qadam qo‘yayotgan mamlakatdir. Bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning zamirida, avvalambor, inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash, farovon hayotini yaratish kabi ezgu maqsadlar mujassamdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 31-avgust kuni o‘tkazilgan mustaqillik bayrami tadbirida mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning ruhi va mazmuniga “Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!” degan ezgu g‘oya chuqur kirib borayotganini ta’kidladi [1].

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini

kafolatlovchi mustahkam huquqiy asos yaratildi. Konstitutsiya va qabul qilingan qonunlar har bir fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati, hayotga bo'lgan huquqi, so'z erkinligi, vijdon erkinligi kabi fundamental huquqlarini muhofaza qiladi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida esa bu tamoyillar yanada chuqurlashtirilib, amaliy ifodasini topmoqda [2]. Jumladan, Yangi O'zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi muhim hujjat – "O'zbekiston 2030" strategiyasi mamlakatning barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirishni maqsad qiladi. Ushbu strategiyaning asosiy g'oyalaridan biri va eng muhim ustuvor yo'nalishi, shubhasiz, inson qadrini ulug'lash, har bir fuqaroning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi inson qadrini ulug'lash konsepsiyasini keng qamrovli tarzda ifodalaydi. Bu nafaqat fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashni, balki ularning munosib turmush tarzini ta'minlash, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, shuningdek, ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishni ham o'z ichiga oladi.

Strategiyada belgilangan maqsadlarga erishish uchun bir qator muhim yo'nalishlar belgilangan. Xususan, davlat boshqaruvining insonparvarligini kuchaytirish g'oyasi. Davlat organlarining xalq bilan muloqotini yaxshilash, byurokratiyani kamaytirish, qarorlar qabul qilishda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash orqali har bir fuqaroning ovozi eshitilishiga erishish ko'zda tutilgan. "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil strategiyaning asosiy g'oyalaridan biridir.

Bundan tashqari, ijtimoiy sohani rivojlantirish Yangi O'zbekistonning eng asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini barcha uchun birdek ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali har bir insonning munosib turmush kechirishiga sharoit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar Strategiyada alohida belgilangan [3].

Shu bilan birga, hukumatimiz inson kapitalini rivojlantirishga ham katta urg'u berayotgani kuzatilmoqda. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallagan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, yoshlarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun imkoniyatlar yaratish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan investitsiyalar ko'zda tutilgan.

Qolaversa, ma'naviy, madaniy sohalarda rivojlanishga erishish masalasi ham davlatimizning doimiy diqqat-e'tiborida. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, boy tarixiy merosni o'rganish va targ'ib qilish, madaniyat va san'atni rivojlantirish orqali insonlarning ma'naviy olamini boyitish, ularning estetik va axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, davlat siyosatining markaziga inson manfaatlarini qo'yish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish,

kambag‘allikni qisqartirish kabi yo‘nalishlar inson qadrini ulug‘lashning yorqin namunalaridir. “Inson qadri uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan bu kabi islohotlar har bir fuqaroning o‘z salohiyatini to‘liq namoyon qilishi, jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash – bu nafaqat davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi, balki jamiyatimizning barcha a’zolarini birlashtiruvchi, umumiy maqsad sari yetaklovchi muhim qadriyatdir. Bu yo‘ldagi sa’y-harakatlar mamlakatimizning yanada taraqqiy etishiga, xalqimizning farovon va baxtli hayot kechirishiga xizmat qiladi.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33-yilligiga bag‘ishlangan tadbirdagi ma’ruzasi (https://president.uz/uz/lists/view/7520)

2. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (https://lex.uz/ru/docs/6600413)

3. https://uza.uz/uz/posts/inson-qadri-uchun-tamoyili-islohotlarning-asosiy mezoni_631135

Shahnoza Madayeva,
O‘zbekiston Milliy universiteti
falsafa kafedrasi professori, f.f.d.

O‘ZBEK IDENTIKLIGINING QADRIYATIY TAMOYILLARI VA ZAMONAVIY IDENTIKLIK TANAZZULI MUAMMOSI

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola zamonaviy o‘zbek identikligining ming yillar davomida shakllangan qadriyat tizimi va bugungi kundagi global jarayonlar ta’sirida o‘zgarayotgan jihatlari tahliliga bag‘ishlangan. Ushbu ilmiy yondashuvdan asosiy maqsad, identiklik millat, fuqaro va davlatni ijtimoiy borliqning qanday o‘zaro aloqadorlik tamoyillarida bog‘laydi, degan masalaga oydinlik kiritishdir.*

♦ ***Abstract:*** *This article aims to analyze various aspects of modern Uzbek identity that have been shaped over the course of millennia, and are undergoing changes under the influence of contemporary global processes. The primary objective of this research is to examine how identity ties a nation, citizen, and state through principles and patterns in social processes.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *Millat, identiklik, global, qadriyat, davlatchilik, simulyakr, simulyatsiya.*

♦ ***Keywords:*** *Nation, identity, global, value, statehood, simulacrum, simulation.*

Biz XXI asrda – Maykl Xardt va Antonio Negri ta’biri bilan aytganda urushlar va demokratiyalar xilma-xilligi davrida yashayapmiz [3. 17]. Bir tomondan O‘zbekiston o‘ttiz yildan oshiq vaqt davomida mustaqil davlat sifatida o‘z taraqqiyot yo‘lini ketma-ket tizimlashtirayotgan, ushbu mavqeni saqlab qolishda turli usul va metodlarni qo‘llab, butun potensial imkoniyatlarni ishga solayotgan bo‘lishiga qaramasdan, butun dunyo xaos va imperial tortishuvlar jarayoni milliy davlatlari kabi O‘zbekistonni ham o‘z muammolari domiga tortayotgan bir davrda yashamoqdamiz.

Zamonaviy global dunyoning taraqqiyot tamoyillari aslida sekin astalik bilan millat, milliy davlatchilik, milliylik kabi tushunchalarni parchalash, ularning madaniy, siyosiy, ma’naviy ahamiyatini yo‘qotish, ularning o‘rniga transmilliy korparatsiyalar siyosati yo‘lida global taraqqiyot uchun qulay bo‘lgan identiklik stereotiplarini asta sekinlik bilan shakllantirish oqimida kechmoqda. Yer yuzi tobora torlashib, chegaralar yuvilib, ijtimoiy muammolar umumiylashib borishi dunyo xalqlarining milliy identikliklarining o‘zgarishi, identiklik tanazzuli jarayonida xalq, millat, insonning o‘zini anglash kontentini o‘zgartirish hisobiga yuz bermoqda.

Bunday sharoitda millatning o‘zlikni anglashi, identiklik hodisasini takomillashtirish, uni ana shunday xavf-xatardan himoya qilishda aksiologiyaning rolini oshib borayotganligi mazkur yo‘nalishda tadqiqotlarni rivojlantirishni taqozo etadi.

Dunyo institutlarida globallashuvning avj olayotgan sharoitida “zamonaviylik” bilan “an’anaviylik” o‘rtasidagi muvozanatni yo‘qolib borishi jarayonining yuzaga kelishi, ayniqsa zamonaviylikni milliy zaminlar asosiga emas, balki tashqi ta’sirlar asosida shakllanayotganligi oqibatida milliy madaniyatimizda yuzaga kelayotgan “ommaviy madaniyat”ga xos salbiy ko‘rinishlar: taqlidga o‘chlik, fikrda sayozlik, manfaat asosida yengil-yelpi maqsadlar yo‘lida yashash kabi stereotiplarning oldini olish ehtiyojini oshib borayotganligi identiklikda qadriyat tizimi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekistonda milliy identiklikning murakkab shakllanish jarayoni kechayotgan bir davrda aksiologik jihatdan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy yo‘nalishlarda institutsional tizimlarda permanent vaziyat kuzatilsada, ijtimoiy ongning davlatchilik asoslari bo‘lmish, ilm-fan, oila, Vatan va milliy qadriyatlariga bo‘lgan munosabatida muayyan destruktiv siljishlar ro‘y berayotgani kuzatilmoqda. Milliy taraqqiyotning tub ildizlarida mustahkam mental segmentlar hosil qilgan Zardushtiylik, Islom, tasavvuf, Ilk o‘rta asr Renessansi davridagi ilm-fan va bilimning kuchli fenomenal asosi va O‘rta asr uyg‘onish davridagi Alisher Navoiy gumanizmi va vatanparvarlik falsafasi kabi noyob madaniy hodisalar o‘zbek xalqi mentalitetida qanday kuchli hodisa bo‘lgan bo‘lsa, hozirda esa zamonaviy oqim va ta’sirlar natijasida identiklik kontenti o‘z sifat mohiyatini sezilarli yo‘qotib bormoqda. Ushbu xatarli jarayon aslida millatni kelajagi bilan bog‘liq siyosiy mohiyat kasb etadi. Shuning uchun ham milliy identiklikning yangi paradigmal shaklini yaratish uchun davlat miqyosida kuchli g‘oyaga tayangan mafkuraviy tizim va mexanizm vujudga kelishi taqozo etilmoqda. Innovatsion faoliyatning sotsial, institutsional va milliy mexanizmlari jamiyatning identiklashuvi jarayoni va aksiologik tamoyillarining shakllanishiga ham tatbiq etilishi zaruriy hodisa

sifatida yuzaga chiqyapti.

Identiklik nazariyasida bu jarayonning o‘zak asosi bo‘lgan yadro ichki intilish ruhi yoki kuchidir. Ichki rivojlantiruvchi kuch oddiy individdan milliy fenomengacha o‘sib o‘tadi. Emerson “Tabiat haqida” (“Nature”, 1836) nomli birinchi kitobida, “O‘zingga ishonch” (Self-Reliance, 1841) nomli essesida va ilmiy va publitsistik ishlarida - “biz barcha bizga tegishli bo‘lmagan dahshatlarga qarshi tura oladigan ichki kuchimizga, “men”imizga, o‘z “men”imizga ishonishni boshlaganimizdagina yashashni boshlaymiz. Inson tabiati deb atalgan narsa tabiiy inson kuchini notabiiy borliqqa burkab tashlaydigan – tashqi qobiq, xulq-atvorlar qoplamasidir”[4], deydi. Emerson falsafasida uchta bir biriga bog‘liq jihat bor:

1) ruh yagona real narsa, unda ilohiyot haqidagi immanent fikr tabiatda bo‘lgani kabi jonda ham bor;

2) jonning markaziy metafizik mohiyati qadriyat va haqiqatning manbasi ekanligidir; falsafa esa inson ruhida vujudga keladigan dunyoning tuzulishi haqidagi qarashdir;

3) butun tabiatni jonli yoki uning ruhiy absolyut ekanligini anglash: barcha narsa tabiat va tabiat barcha narsadir, shuningdek, jon ham, ruh esa jonning oliy ko‘rinishi. Shaxsning reprezentetivligining yuqoriligi uning ruhan kuchli bo‘lishiga bog‘liqdir.

Bu degani uning absolyut haqiqatga yetishishi oson bo‘ladi. Emerson bu ta’limoti tub mohiyati bilan Sharq falsafasi ildizlariga yaqinlasha bordi. Emerson qarashlari G‘arb jamiyatini tubanlikka torta boshlagan pragmatizm soyasida yangi va umid beruvchi ta’limot sifatida okean orti mamlakati filosoflarining nazariga tusha boshladi. Ular uni o‘zlariga ma’naviy rahnamo sifatida qaray boshladilar. Bu jarayon XX asr Amerika falsafasiga tamal toshi qo‘ydi. Amerika falsafasidagi bu ruhiyat tezlik bilan nemis filosoflari F.Nitshe va A.Bergsonlar ta’limotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Emerson Benjamin Franklin o‘limidan keyin millatning ma’naviy otasi sifatida e’tirof etilgan. Unga hatto rus prozasining otasi bo‘lmish L.N.Tolstoy “xristian diniy falsafasi”ning allomasi, degan yuqori bahoni beradi. Tahlilning markazida turgan ichki yo‘naltiruvchi kuch milliy identiklikning ming yillik rivojida tarixiy yo‘l, qadriyatlar, milliy mental ongning o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘zligini topishdagi iroda quvvati, kontentining sifat darajasidir. Identiklikning kontent asosi esa millatning iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy, siyosiy qadriyat tizimidir. Unda fransuz olimi J.Bodriyar nazariyasida ko‘rsatilgan simulyakr va simulyatsiya [1] – jarayon va kontentning: soxtaligi, yasamaligi, sayozligi, o‘z funksiyasini bajara olmasligi kabi holatlar mavjud bo‘lsa, bu sistema ko‘rinishidan milliylikni namoyon etsada, aslida o‘z ildizlarining kushandasiga aylanadi.

Identiklik – milliy, etnik, kasbiy, hududiy, diniy-konfessional, gender va boshqa turlarga bo‘linib, ushbu turlar o‘z qamrovidagi insonlarni iqtisodiy, siyosiy, maishiy, ma’naviy, madaniy, mental jihatdan hayot tarzida ma’lum stereotiplar hosil qilishi, fikrlash, xulq-atvor, psixologik holatlar o‘xshashligi natijasida ijtimoiy guruh yoki qatlamlarni yaratishi bilan xarakterlidir. Identiklikning qanday xarakter yoki xususiyatga egaligi yoki qaysi turga mansubligidan qat’iy nazar shu

identiklikka mansub individ o‘zining funksional yoki vizual amaliyotida biror bir guruhga mansubligini namoyon etadi. Ijtimoiy antropologiyada identiklik turlarga bo‘linishidan qat’iy nazar tabiiy va sun’iy identikliklarga ham bo‘linadi. Tabiiy identiklikka milliy, diniy, gender identikliklari mansub bo‘lib, ular inson faoliyati va istaklaridan qat’iy nazar mavjud va ularni o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan holatlar bilan asoslanadi.

Sun’iy yoki notabiiy identikliklarga esa kasbiy, madaniy identikliklarni misol qilish mumkin. Bu kabi identikliklar insonning istagi va faoliyati zaruratidan kelib chiqib o‘zgarishi mumkin. Ularning mavjudlik sharti inson yoki identiklik guruhidan shu identiklikni ushlab turishga alohida bog‘liqlik, madad va istakni talab etadi .

“Identiklik qadriyatiy mezonlarni, etnik, milliy, diniy qarashlar simbiozlashgan fikrlarni shakllantiradi. Qadriyatiy munosabat va identiklik asosidagi stereotip fikrlar identiklik guruhlarining ijtimoiy, iqtisodiy va hayotining boshqa sohalari tizimlashtiruvchi, ularning sifati va darajasini belgilovchi kuchga egadir” [2, 3.].

“Identiklik o‘zida mifologik dunyoqarashdan tortib zamonaviy ongni namoyon etgan, individual, kollektiv, ontogenetik, sotsiogenetik asoslarni ifodalagan murakkab fenomen, murakkab psixologik reallikdir” [3].

Identiklik bo‘yicha izlanishlarning ildizlari aksariyat tadqiqotlarda millat tushunchasi bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Chunki identiklikning markaziy kognitiv yadrosida o‘zlikni anglash orqali aynanlashuv jarayoni yuzaga keladi. Millat haqidagi nazariyalarda ham millat barqarorligi, uning abadiyligini ta’minlashning asosiy omili millatning botiniy- ma’naviy salohiyatida deb belgilanadi. Millat ichki ma’naviy-ruhiy qobiliyati yaratuvchanlik salohiyati, tinimsiz mehnati matonati, o‘ziga xosligi tarzida tadbirkorligini rivojlantirish zamirida hozirgi davr sivilizatsion taraqqiyoti yuzaga kelgan.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Бодрияр Дж. Симулякры и симуляция, Тула: Тульский полиграфист, 2013. — ISBN 978-5-88422-506-0.

2. Madayeva Sh.O. O‘zbek mentalitetida demokratik tafakkur shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Fals.fan.d. diss. 2009. 92-bet.

3. Madayeva Sh. Identiklik antropologiyasi, - Toshkent: Nishon noshir. 2015.

4. Michael Hardt. Antonio Negri. Empire. Harvard University Press. Cambridge, Massachusetts. London, England. 2000.

5. Ralf Uold Emerson ijodida shaxs reprezentativligi tushunchasi uning 1849-yilda yozilgan “Inson reprezentativligi haqida esse”(“Essays on representative men”) asarida tugal shakllantirilgan bo‘lib, uning asosi “Tabiat” (“Nature”) asarida (1836), “Esselar” (Essays) da 1841 – 1844) yaratilgan.

Islomov Ilyos Normamatovich,
Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi professori, t.f.d.

O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYALASHUVIDA INTERNETNING ROLI

♦ ***Annotatsiya:*** *Internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatdagi qadriyatlarning shakllanishi va o‘zgarib borishida muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu maqolada, Yangi O‘zbekistonda siyosiy qadriyatlarning mazmuni, ularning transformatsiyasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar va bu jarayonlardagi internetning roli tahlil qilingan.*

♦ ***Abstract:*** *The rapid development of internet technologies plays a significant role in the formation and transformation of societal values. This article analyzes the essence of political values in the New Uzbekistan, the key factors influencing their transformation, and the role of the internet in these processes.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *siyosiy qadriyatlar, transformatsiya, internet, axborot texnologiyalari, demokratiya, jamoatchilik fikri, feyk xabarlar.*

♦ ***Keywords:*** *political values, transformation, internet, information technologies, democracy, public opinion, fake news.*

Globallashuv davrida Internet texnologiyalarining tez rivojlanishi jamiyatdagi siyosiy qadriyatlarning shakllanishi va transformatsiyasida asosiy omillardan biriga aylangan. Chunki, internet tarmog‘idan foydalanuvchilar soni yil sayin oshib bormoqda. 2025-yilning yanvar oyi holatida dunyo aholisining 67,9 %i ya’ni, 5,56 milliard kishi, jumladan, O‘zbekistonda ham 33 mln.dan ortiq abonentlar tarmoq imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda [1].

Innovatsion texnologiyalar orqali ma’lumot olish, fikr bildirish va siyosiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlari kengayib, ijtimoiy munosabatlar va siyosiy odatlarni yangilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, Internet orqali siyosiy jarayonlarda shaffoflik va jamoatchilik fikrining rolini kuchaytirish imkoni paydo bo‘lmoqda.

Siyosiy qadriyatlar kategoriyasiga turli yondashuvlar mavjud. ***Siyosiy qadriyatlar*** – bu hodisalar, g‘oyalar va harakatlarni siyosiy manfaatlar va ehtiyojlar nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradigan mezonlar bo‘lib, ular siyosiy tizimning yaxlitligi va barqarorligini ta’minlovchi asosiy tushunchalar (masalan, demokratiya, bag‘rikenglik, erkinlik va boshqalar) hisoblanadi [2, B 80]. Boshqa bir ta’rifda, siyosiy qadriyatlar – fuqarolarning mavjud siyosiy tizim doirasida muayyan xulq-atvorga moyilligini shakllantiradigan ahamiyatli mezonlardir. *Siyosiy madaniyat* – fuqarolarning siyosiy tizimga nisbatan bilimi, his-tuyg‘ulari va baholashlari

asosida shakllanib, ularning siyosiy faolligi, ishtirok darajasi va siyosiy jarayonlarga munosabatiga ta’sir ko‘rsatadi [3, B. 13].

Yuqoridagi ta’riflardan xulosa qilganda, siyosiy qadriyatlar jamiyat a’zolarining siyosiy voqealarga munosabatini shakllantiradigan asosiy mezonlar bo‘lib, ular siyosiy tizimning barqarorligi va yaxlitligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ular fuqarolarning siyosiy faolligi, xulq-atvori va qarorlariga yo‘nalish bersa, siyosiy madaniyat esa ana shu qadriyatlarni o‘zlashtirish, baholash va amaliyotda namoyon etish jarayonini ifodalaydi. Demak, siyosiy qadriyatlar va siyosiy madaniyat o‘zaro bog‘liq bo‘lib, jamiyatda barqaror va samarali siyosiy muhitni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Fikrimizcha, ushbu ta’riflar siyosiy qadriyatlarning jamiyatdagi rolini anglashda muhimdir. Ular har bir davlat va jamiyatning o‘ziga xos madaniyati, qadriyatlari va qoidalarini ifoda etadi. Zamonaviy rivojlanish bosqichida, internet va axborot texnologiyalari mazkur qadriyatlarning shakllanishi va o‘zgarishida muhim rol o‘ynaydi. Qaysi qadriyatlar ko‘proq o‘zgarishga uchrashi va qaysilari mustahkamlanishi mumkinligi masalasida, quyidagi fikrlarni bildirish mumkin: Hozirgi vaqtda demokratiyaga oid qadriyatlar – fuqarolik huquqlari, erkin saylovlar, jamoatchilik fikri, hokimiyatning ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligi kabi qadriyatlar transformatsiya jarayonida asosiy rol o‘ynamoqda. Internet orqali bu qadriyatlarning shakllanishi va mustahkamlanishi tezlashmoqda. Masalan, ijtimoiy media platformalari orqali fuqarolarning fikr bildirishi, siyosiy jarayonlarga onlayn ishtirok etishi kengaymoqda.

Mamlakatimizda internet orqali siyosiy qadriyatlarning transformatsiyasi jarayonini tahlil qilganimizda bu ko‘p qirrali masala ekanligi ko‘rindi. Chunki bu jarayon axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji, fuqarolarimizning siyosiy faolligi va turli axborot tahdidlarining ta’sirlariga ham bevosita bog‘liqdir. Internet tarmog‘i orqali transformatsiyaga uchrayotgan asosiy siyosiy qadriyatlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Siyosiy ishtirokning virtuallashuvi: fuqarolarimiz avvalgi davrda asosan saylovlarda va rasmiy tadbirlarda ishtirok etgan bo‘lsa, hozirgi davrda Internet orqali onlayn petitsiyalar, ijtimoiy tarmoqdagi muhokamalar, elektron so‘rovlar orqali siyosiy faolligi oshmoqda. “Mening fikrim” veb-portaliga [4] fuqarolar jamoaviy murojaatlar orqali o‘z manfaatlarini ifoda etmoqda va siyosiy qarorlarga ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

2. So‘z erkinligi va axborotga egalik: axborotni erkin va moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, foydalanish va saqlash huquqlariga egalik darajasi oshdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarga mustaqil axborot olish va uni tarqatish imkoniyati kengaydi.

3. Hukumatga ishonch darajasi oshmoqda, ochiqlik va oshkoralik qadriyati mustahkamlanmoqda: Elektron hukumat, ochiq ma’lumotlar portallari va raqamli muloqot platformalari orqali ishonchni mustahkamlash tendensiyasi kuzatilmoqda [5]. O‘zbekistondagi virtual qabulxonalar fuqarolar va

tadbirkorlarning davlat organlariga, xususan, Prezident va Bosh vazir nomiga murojaatlarini osonlashtirish uchun yaratilgan onlayn platformalardir.

4. Fuqarolik jamiyati faollashuvi: Internet orqali mustaqil faol guruhlar, blogerlar, kraudfanding va virtual jamoalar siyosiy tashabbuslarni ilgari sura boshladi.

5. Siyosiy ong: Internet orqali dunyodagi turli siyosiy modellar, qarashlar va trendlar bilan tanishish, ularni taqqoslash va qabul qilish jarayoni tezlashgan.

6. Yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvi faollashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, videobloglar, podkastlar orqali yoshlar mustaqil ravishda siyosiy bilim va pozitsiyasini shakllantirmoqda.

7. Muloqotlar orqali siyosiy madaniyat oshmoqda. Rasmiy uchrashuvlar va ma’ruzalar asosidagi bir tomonlama muloqotlar o‘rnini, onlayn forumlar, Facebook, Telegram, YouTube va boshqa platformalar orqali ko‘p tomonlama, interaktiv siyosiy muloqot egalladi.

Yuqorida keltirilgan masalalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda internet tarmog‘i siyosiy qadriyatlarning mazmun va shakl jihatidan yangilanishiga olib kelmoqda. Siyosiy ishtirok virtual muhitga ko‘chmoqda, fuqarolar axborotga nisbatan faol va mustaqil pozitsiyani egallamoqda, hukumat bilan ochiq muloqot va ishonchni mustahkamlash imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati va yoshlar siyosiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan yangi subyektlar sifatida shakllanmoqda. Internet vositasida interaktiv siyosiy madaniyat, global siyosiy ong va faol muloqot muhiti rivojlanib, demokratik qadriyatlar jamiyatda yangi pog‘onaga ko‘tarilmoqda.

Shuningdek, internet orqali tarqalgan radikal fikrlar, ekstremizm va radikallashuv xavflarini ham oshishiga olib kelishi mumkin. Demokratik qadriyatlar, jamiyatdagi madaniy va siyosiy muvozanatni saqlash uchun, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ham hisobga olish lozim. Ijobiy tomonlariga:

- internet orqali fuqarolarning fikr bildirishi, jamoatchilik muhokamalari orqali siyosiy jarayonlarga jonli ishtirok etishi, shaffoflikning oshishi;
- axborotning tez va keng tarqalishi, jamiyatda siyosiy madaniyat va fuqarolik mas’uliyatini oshirish;
- davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni kengaytirish va demokratik jarayonlarni rivojlantirish;
- elektron hukumat, onlayn muloqot platformalari va ochiq ma’lumotlar portallari orqali davlat boshqaruvi organlari mutasaddilarining axborotini eshitish va hisobdorlik muhiti rivojlanmoqda. Bu davlat organlari faoliyatini shaffoflashtiradi va fuqarolarning ishtirokini ta’minlaydi;
- forumlar, ijtimoiy tarmoqlar, videobloglar va podkastlar turli siyosiy qarorlarni muhokama qilish, ularni o‘zgartish va ilgari surish uchun kuchli vositaga aylanayotganligi kabilarni kiritish mumkin.

Salbiy jihatlar sifatida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- feyk xabarlar, axborotning manipulyatsiyasi va senzura natijasida siyosiy muhitda ziddiyatlarning yuzaga kelishi;
- radikal fikrlar, ekstremizm va hukmronlikni o‘rnatishga qaratilgan harakatlar;
- internet orqali tarqalgan hujumlar, xavfsizlik va maxfiylik masalalari;
- internetdagi ma’lumotlar tez tarqalayotgani sababli, yolg‘on ma’lumotlar, tashviqot va manipulyatsiyalar ham osonlik bilan tarqaladi. Bu fuqarolarning noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishlariga va salbiy siyosiy ta’sirga olib kelishi mumkin.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash o‘rinliki, Internet va axborot texnologiyalari siyosiy qadriyatlarni shakllantirish va o‘zgartirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda ham ushbu jarayon tezlashmoqda, ammo ularning ijobiy va salbiy ta’sirlarini muvozanatda saqlash, ularga samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga, davlat va jamiyat hamkorligida, siyosiy madaniyatni yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha mexanizmlar va infratuzilma yaratish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Digital 2025: Главные цифры и тренды, которые меняют интернет // https://vc.ru/marketing/1794885-digital-2025-glavnye-cifry-i-trendy-kotorye-menyayut-internet. (мурожаат қилинган сана 2025 йил 23 апрель).

2. Мустафин А.А. Политология: словарь современных терминов и выражений // Ангарск: АГТА, 2012 – 168 с.

3. Almond G. A., Verba S. The Civil culture. Boston: Litl, Brown, 1965. – 247 p.

4. “Mening fikrim” veb-portali – https://petition.gov.uz/uz/pages/about.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyati bilan bog‘liq nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori. 2019-yil 19-fevral // https://lex.uz/docs/4208064 (murojaat qilingan sana 2025-yil 25-aprel).

Dr. Ahmed Saad Ibrahim Abdelrahman Osman (El-Damnhoury),
Al-Azhar academic,
currently a teacher at the Imam al-Bukhari Higher Islamic Institute
and an expert at the Imam al-Maturidi International
Center for Scientific Research

THE IMPORTANCE OF RELIGIOUS RITES IN NEW UZBEKISTAN

♦ ***Abstract:*** *The author proposes ten key initiatives to further Islamic education and counter extremism, including collaboration with Al-Azhar University and the introduction of "Islamic Culture" as a subject in schools. The address expresses optimism for Uzbekistan's future role in global Islamic leadership and calls for international support in fostering religious knowledge and cultural identity.*

♦ ***Annotatsiya:*** *Muallif diniy ta'limni rivojlantirish va ekstremizmga qarshi kurashish uchun o'nta asosiy tashabbusni ilgari suradi, jumladan, Al-Azhar universiteti bilan hamkorlikni kengaytirish va "Islom madaniyati" fanini maktab va universitet dasturlariga kiritishni taklif etadi. Maqolada O'zbekistonning kelajakda jahon islom hamjamiyatida yetakchi o'rin egallashiga umid bildiradi hamda diniy bilim va madaniy o'zlikni rivojlantirishda xalqaro hamkorlikka chaqiriq qilinadi.*

♦ ***Keywords:*** *Uzbekistan, Islamic identity, religious reform, Transoxiana, Imam Maturidi, Al-Azhar University, Islamic education, religious tolerance, moderate Islam, Islamic civilization, Qur'an studies, theological schools, counter-extremism, cultural heritage, Imam Bukhari, Naqshbandi order, Maturidi school, Hanafi jurisprudence, international cooperation.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *O'zbekiston, islomiy o'zlik, diniy islohotlar, Movarounnahr, Imom Moturidiy, Al-Azhar universiteti, islom ta'limi, diniy bag'rikenglik, mo'tadil Islom, islom sivilizatsiyasi, Qur'on ta'limoti, kalom maktablari, ekstremizmga qarshi kurash, madaniy meros, Imam Buxoriy, Naqshbandiy tariqati, Moturidiy maktabi, hanafiy fiqhi, xalqaro hamkorlik.*

Introduction

Dear friends at the Center for Democratic Process Analysis, It is an honor to be with you today. I sincerely thank you for your generous invitation to attend this important forum, which I pray will be successful in achieving its noble objectives. I have come to know some of your great efforts through your website.

As an Egyptian professor from Al-Azhar who has been living in Uzbekistan since late 2020, serving as a lecturer in the Department of Islamic Civilization at the International Islamic Academy of Uzbekistan and as an expert at the Imam Maturidi International Research Center, I am pleased to share with you my

personal observations and experiences from my life among the kind Uzbek people.

First: Transoxiana – Past and Present

In the Islamic world, Transoxiana is known as a land of civilization, knowledge, and science. It is the birthplace and residence of great scholars who contributed immensely to human thought and civilization. The Islamic world still benefits from their legacy in both religious and worldly sciences, which were traditionally taught side by side in mosques and Islamic universities.

Unfortunately, this region's shining light dimmed due to political upheavals, especially during the Russian occupation and its repressive policies. However, under President Shavkat Mirziyoyev, we witness a revival. He has shown great commitment to reconciling with Uzbekistan’s rich Islamic heritage, aiming to combine authenticity with modernity. He understands that a nation cannot progress without embracing its identity. This identity can be uncovered by answering key existential questions:

Who am I? Why am I here? Where did I come from? Where am I going?

These questions form what is known as an "epistemological model" that influences all aspects of life—knowledge, arts, customs, and traditions—whether one is aware of it or not. The Uzbek people answered these questions over 1,300 years ago by willingly choosing Islam as their faith, civilization, identity, and culture.

Although Muslim answers to these questions are generally clear, cultural expressions may differ across the Islamic world. This diversity within unity is a distinctive feature of Islam, which allows flexibility in some areas while upholding core tenets. As the Prophet Muhammad (peace be upon him) said: "Indeed, Allah has set boundaries, so do not transgress them; and He has kept silent on certain matters out of mercy, not forgetfulness—so do not pursue them."

Islam addresses the needs of the body, mind, and heart. Jurisprudence satisfies and disciplines the body, theology addresses the intellect, and Sufism nurtures the heart. These three dimensions—Islam, Iman, and Ihsan—are all mentioned in the hadith of Gabriel. Thus, different interpretations and traditions emerged, such as legal schools, theological doctrines, and Sufi paths, which reflect the unique cultural expression of each Muslim nation.

In Uzbekistan, the Hanafi school is followed in jurisprudence, the Maturidi school in theology, and the Naqshbandi order in Sufism. These three components form the foundation of the Uzbek Islamic identity—providing both shared values with the broader Islamic world and a distinct national character.

Second: New Uzbekistan and Reconciliation with Islamic Identity

The Uzbek people chose their Islamic identity over a millennium ago and have shown remarkable perseverance in preserving it. Despite colonial oppression, they continued to teach their children prayer and Qur’an, upheld traditional marriage, valued modesty, and cherished Islamic customs.

Once independence was regained, the people quickly returned to their

roots. The current government's policies, under President Mirziyoyev, reflect this public will. His actions align with the dreams and historical choices of a people who never abandoned their faith, even in the darkest times.

Since my arrival nearly four years ago, I have witnessed several commendable religious reforms. I was invited by the Presidential Administration to attend the international conference on Imam Maturidi and his school of thought in Samarkand, the Imam's hometown, in early March 2020. The event was attended by leading scholars from the Muslim world, including the Grand Imam of Al-Azhar, Dr. Ahmed El-Tayeb.

These initiatives represent a significant shift: a reconciliation with Uzbekistan's Islamic heritage. This is evident in the adoption of a new law on "freedom of belief and religious institutions" in 2021. This law aligns with international human rights standards, including the Universal Declaration of Human Rights and the International Covenant on Civil and Political Rights.

The government emphasizes religious moderation and tolerance, warning against extremism while reviving traditional Islamic schools and celebrating the legacy of renowned scholars like Imam Maturidi, Imam Bukhari, Uwais Al-Qarni, Imam Tirmidhi, and others.

Several institutions have been established to foster this renaissance:

- Imam Tirmidhi International Research Center (Termez, 2017)
- Imam Bukhari International Research Center (Samarkand, 2017)
- Center for Islamic Civilization in Uzbekistan (Tashkent, 2017)
- International Islamic Academy of Uzbekistan (2018)
- Imam Maturidi International Research Center (2020)

These institutions organize international conferences, such as:

- Islamic Solidarity: The Uzbekistan-Azerbaijan Example (October 19, 2017, Tashkent)
- Imam Maturidi and the Maturidi Teachings: Past and Present (March 3–4, 2020, Samarkand)
- Islam: A Religion of Goodness and Peace (October 15–16, 2024, Tashkent)
- Maturidism: A School of Tolerance and Moderation (April 29–30, 2025, Samarkand)

Educational initiatives include:

- Mir Arab High School at the Bahauddin Naqshband Complex (Bukhara, 2017)
- Hadith Studies School (Samarkand, 2019)
- Imam Tirmidhi Islamic Secondary School (Termez, 2019)
- Planned Schools: Sufism School (Bukhara), Kalam School (Qashqadarya), Fiqh School (Fergana)

The International Islamic Academy of Uzbekistan in Tashkent offers Master's and Ph.D. programs. The Imam Bukhari Institute in Tashkent recently launched a graduate program in Islamic theology and Hadith, where I am

honored to serve on the teaching faculty.

Third: The Moderate Direction of Religious Reforms

These reforms reflect the spirit of Islam, which respects all religions. They do not come at the expense of other faiths. While the President and most of the government are Muslim, and Uzbekistan is active in Islamic organizations like the OIC and ICESCO, religious freedom is guaranteed for all.

As of today, Uzbekistan hosts 2,342 registered religious organizations representing 16 denominations, including 2,146 Islamic and 196 non-Islamic institutions.

In the past six years, about 100 new mosques and 23 churches were opened. Around 300 mosques and 10 churches were renovated. Thirteen Islamic educational institutions operate alongside active Orthodox and Evangelical Christian institutions.

The country places great emphasis on countering extremism. More than 20,000 individuals who were once influenced by extremist ideologies have been rehabilitated and reintegrated into society with social support.

Fourth: Hopes and Aspirations

The Uzbek people have a deep love for knowledge. They thirst for learning from qualified scholars who represent a great Islamic legacy. There is a strong public desire to build more mosques and religious schools to meet this need. To respond, the government has launched Qur’an recitation and Tajweed courses, but they remain insufficient.

To protect the spiritually curious from extremist influence, more legally governed centers should be established. Collaboration with Al-Azhar University in Egypt has already brought knowledgeable scholars known for their moderation and scholarly rigor.

We propose adding a mandatory subject in general and higher education: “Islamic Culture”, to teach the basics of Islamic belief and practice and to instill pride in Uzbekistan’s Islamic heritage.

By leading Islamic education within legal frameworks, we block the paths of extremists. Egypt's experience with Al-Azhar institutes and integrating their graduates into national institutions is a model worth emulating.

In my role at the Imam Maturidi Center, I have helped train imams and preachers and taught Islamic theology. I hope this outreach can extend to the general public, including university students and government employees, to deepen their awareness of Uzbekistan’s rich religious heritage.

These reforms prove that New Uzbekistan is capable of reviving Islamic sciences and reclaiming its historical leadership in Islamic civilization, just as it did in the past.

The Uzbek people are happy with these changes and eager for more. They love the Qur’an, Islamic sciences, and the Arabic language. Let us support them in fulfilling their aspirations—this is our sacred duty in both this world and the next.

I long to see the establishment of an International Islamic University in the name of Imam Maturidi, to restore Uzbekistan’s global status as a beacon of Islamic knowledge and a center of truth, goodness, and moderation.

I am optimistic that this great nation will soon regain its place among the world's leading countries—thanks to your sincere efforts for goodness, truth, beauty, and human dignity.

And here is a summary of the main aspirations I propose, presented as key points:

1. Establish new legally recognized centers for Islamic education to counter religious extremism.
2. Expand cooperation with Al-Azhar University to bring in well-qualified and moderate Islamic scholars.
3. Introduce "Islamic Culture" as a core subject in both university and pre-university education.
4. Empower the state to lead religious education in order to block extremist influences.
5. Benefit from Egypt's experience with Al-Azhar's educational model and integrate its graduates into public service.
6. Broaden public awareness of renowned Islamic scholars and their civilizational identity, especially through universities and schools.
7. Support the Uzbek people's desire to learn the Qur'an and Arabic, and to build mosques and religious schools.
8. Establish an international Islamic university named after Imam Al-Maturidi.
9. Contribute to the spread of goodness, moderation, and truth both locally and globally.

Work toward restoring Uzbekistan's global standing in the field of Islamic sciences.

Rustam Rashidov,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i,
harbiy fanlar doktori, DSc

O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-MA'NAVIY YANGILANISHLAR JARAYONIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGIGA ERISHISH MASALALARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma'naviy yangilanishlar jarayoni va bu jarayonda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalalari tahlil etilgan. Prezident nutqidan iqtibos keltirilgan holda ma'naviy tahdidlar va loqaydlikning xavflari ta'kidlangan. Shuningdek, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, so'rovnomalar va targ'ibot ishlari misolida jamiyatdagi qadriyatlar muvozanatiga munosabat o'rganilgan. Xususan, or-nomus,*

vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar yuksak baholangan bo‘lsa-da, mehr-shafqat va murosa kabi qadriyatlarga nisbatan e’tibor pasayib borayotgani qayd etilgan.

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the ongoing process of socio-spiritual renewal in Uzbekistan in recent years, with particular focus on the harmonization of national and universal values within this transformation. The speech of the President is quoted to highlight the risks posed by spiritual threats and public indifference. Additionally, the article examines the role of the Institute of Socio-Spiritual Research in conducting surveys, studies, and awareness-raising activities aimed at assessing society’s value system. While values such as honor, patriotism, and diligence are highly rated, it is noted that attention toward compassion and tolerance is gradually decreasing.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy-ma’naviy yangilanish, ma’naviy muhit, ma’rifat, ijtimoiy tahlillar, ma’naviy tahdidlar.*

♦ ***Keywords:*** *national values, universal values, socio-spiritual renewal, spiritual environment, enlightenment, social analysis, spiritual threats.*

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar va yangilanishlar jarayoni jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy o‘zgarishlar bilan chambarchas tarzda kechmoqda. Buni xalqimiz ongida va tafakkuridagi intiluvchanlik va harakatchanlik, bunyodkorlik va yaratuvchilik, izlanuvchanlik va taraqqiyotga nisbatan qarash hamda yondashuvlardagi ijobiy o‘zgarishlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu jarayonda xalqimizning milliy qadriyatlari bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlarga e’tibor qaratish, ularni ham jamiyatimizda munosib o‘rin egallashi va milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga erishish, shu orqali jamiyatimizda mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etish, turli xil johillik holatlari va ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada fikr bildirar ekan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrida bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan majlisidagi nutqida jumladan, shunday degan edi:

Hayot bor ekan – jaholat ham, ma’naviy tahdidlar ham bo‘lishi tabiiydir. Ammo eng xatarlisi – yurt kelajagiga loqaydlik, **ezgu qadriyatlar**ga nisbatan beparvolikdir.

Milliy qadriyatlarni asrash, ularni hozirgi davr murakkabliklari sharoitida jamiyatimizda mavjud bo‘lishini ta’minlash borasida keyingi yillarda katta ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bular qatorida jamiyatimizning quyi bo‘g‘ini hamda milliy qadriyatlarimiz shakllanadigan, mustahkamlanadigan **oila**ni asrash, oilalarda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlanishiga erishish, shuningdek asl qadriyatlarimiz beshigi bo‘lmish **mahalla** tuzilmasiga butkul zamonaviy talab

va shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda qarash hamda amaliy ishlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ulkan sa’y-harakatlarni ta’kidlab o‘tish joiz. Zero, **oila va mahalla milliy qadriyatlarimiz shakllanadigan va ularning mavjudligi ta’minlanadigan tengi yo‘q ijtimoiy-ma’naviy makonlardir**.

Bugungi kunda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan ham milliy qadriyatlarimizni atroflicha o‘rganish, ularning holati va jamiyatimizda barqaror saqlab qolish, shuningdek ijtimoiy-ma’naviy yangilanishlar jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu ishlarni quyidagi uch yo‘nalishda olib borilayotganligiga e’tibor qaratmoqchimiz.

Birinchidan, mavzu yuzasidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari (magistrlik, falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) dissertatsiyalari), turli loyihalar va davlat grantlari doirasida bajarilib kelinayotgan ishlar, shuningdek respublika miqyosida an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda anjumanlarni ko‘rsatib o‘tmoqchimiz.

Ikkinchidan, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan ijtimoiy-ma’naviy yangilanishlar jarayonining borishi, jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning holati hamda mavzuga aloqador masalalar yuzasidan aholi orasida o‘rganishlar olib borilmoqda, turli so‘rovnomalar o‘tkazib kelinmoqda.


Uchinchidan, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti jamoasi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tizimidagi boshqa tashkilotlar hamda respublikamizdagi ziyolilar, ma’naviyat-ma’rifat sohasi fidoyilari bilan birgalikda mavzu yuzasidan mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan turli targ‘ibot tadbirlari, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlarda faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Shu o‘rinda Sizning e’tiboringizga Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan o‘tgan 2024-yilda mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilgan so‘rovnomalar va ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan respondentlarning munosabati aks etgan tahlillarni havola etishni joiz deb bildik. Jumladan, “qaysi qadriyatlarni bugungi kunda eng kerakli deb hisoblaysiz?” degan savolga berilgan javoblarni 1-diagrammadan ko‘rish mumkin. Ushbu diagrammada or-nomus, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar bugungi kunda jamiyatimizda yetakchi qadriyat sifatida baholanganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, keltirilgan barcha qadriyatlar bugungi kunda kerakli ekanligi to‘g‘risida qariyb 9 foiz respondentlar fikr bildirishgan. Afsuski, murosa, mehr-shafqat va andisha kabi chin ma’nodagi milliy qadriyatlarimizga nisbatan so‘rovnoma ishtirokchilarining past baho berganliklari orqali mamlakatimiz fuqarolarining bugungi davr shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda qadryaitlarimizga nisbatan munosabati ham o‘zgarayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, azaldan har bir masala yoki muammoga nisbatan murosa-yu madora yo‘lini tanlagan ota-bobolarimizga qaraganda bugungi kunda murosasizlik, o‘zini haq deb bilish, boshqa fikr va qarashni inkor etishning oshganligi, shuningdek mehr-shafqatning pasayishi, andishalilik

o‘rnini esa betgachoparlik kabi salbiy illatlar egallab borayotgani to‘g‘risida ushbu so‘rovnoma natijalaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkin (1-diagramma).

Ushbu so‘rovnomada keltirilgan qadriyatlarning aksariyati umuminsoniy qadriyatlar ekanligi va ularga nisbatan ham respondentlarning bahosi nisbatan pastligi nuqtayi nazaridan qarasak, ayni paytda mamlakatimizda milliy qadriyatlarimiz qatorida umuminsoniy qadriyatlarni ham yuqori darajada qabul qilinishiga erishish lozimligi ayon bo‘ladi.

Shunday ekan, bugungi kunda mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-ma’naviy yangilanishlar jarayonida ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlarni ijobiy baholagan va ularning davomiyligini ta’minlash zarurligini qayd etgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishish ham muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor ta’kidlash lozim. Zero, bunday yondashuv jamiyatimizning umumiy barqarorligini ta’minlashda, jahon hamjamiyati bilan bo‘ladigan pragmatik va konstruktiv munosabatlarimizda ijobiy rol tutishini ta’kidlab o‘tmoqchimiz.



1-diagramma. Qaysi qadriyatlarni bugungi kunda eng kerakli deb hisoblaysiz?

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bugungi kunda o‘z milliy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini teran anglagan, uni e’zozlagan, asrab-avaylagan, undan faxrlana oladigan kishi chinakam xalqparvar, millatparvar sanaladi. O‘z navbatida jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy mezonlar majmuasi, ya’ni umuminsoniy qadriyatlarni ham o‘zida aks ettira olgan insonni bugungi davr kishisi, deb atash o‘rinli bo‘ladi. Ana shu o‘rinda yuqoridagi ikkila qadriyatlarni, ya’ni ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida jamlay olgan insonni **“taraqqiyparvar inson”**, ta’bir

joiz bo‘lsa **“komil inson”**, deya tariflagan bo‘lar edik.

Shunday ekan bugungi kunda mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-ma’naviy yangilanishlar va ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘un holda mavjud bo‘lishiga erishish mamlakatimizning keyingi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Narimon Dexkanov,
Siyosiy fanlar doktori, professor
Muxriddin Sodirjonov,
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

IJTIMOIY TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

♦ ***Annotatsiya:*** *Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida ijtimoiy transformatsiya jarayonlari jamiyatning har bir jabhasiga ta’sir etmoqda. Ushbu jarayonlarning samaradorligi inson kapitalining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Inson kapitali – bu shaxsning bilim, malaka va sog‘liq holati kabi jihatlarining jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘rni bilan bog‘liq tushunchadir. Mazkur maqolada ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida inson kapitalini rivojlantirish muhimligi va uning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.*

♦ ***Abstract:*** *In the current context of globalization and technological advancement, social transformation processes are affecting every aspect of society. The effectiveness of these processes is closely linked to the development of human capital. Human capital refers to the concept that encompasses an individual's knowledge, skills, and health status in relation to their role in the economic and social development of society. This article analyzes the importanc e of developing human capital in social transformation processes and outlines its main directions.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *inson kapitali, ta’lim va innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, raqamli texnologiyalar, mehnat bozori, kasbiy kompetensiya, bilim iqtisodiyoti, innovatsion taraqqiyot, ijtimoiy muhit, davlat siyosati, rivojlanish strategiyasi, intellektual salohiyat, globalizatsiya, barqaror rivojlanish.*

♦ ***Keywords:*** *human capital, education and innovation, economic development, digital technologies, labor market, professional competence, knowledge economy, innovative development, social environment, state policy, development strategy, intellectual potential, globalization, sustainable development.*

Ehtiyojlarning kapitalga aylanib borish jarayonida insonlar mavjudligini ta’minlash zarurati asosiy rol o‘ynaydi. Kishilarga mehnat qilishlari uchun hamma vaqt ham ijodkorlik va yangilik shart emas. Qayta ishlangan va o‘zlashtirilgan ehtiyojlar universal ahamiyat kasb etmaydi, shuning uchun ham unda dinamik transformatsiyalashuvni kuzatish mumkin. Jumladan, bir vaqtlar asosiy iste’mol ehtiyoji biologik talablar bilan amalga oshirilib, u yashash komponentini aks ettirgan bo‘lsa, bugungi davr kishisi uchun axborotga bo‘lgan ehtiyojning zaruratini so‘z bilan ba’zida ifodalab bo‘lmaydi. Axborotga tashnalik na biologik va yoki na ruhiy taskin rolini o‘ynamasligi mumkin, ammo unga bo‘lgan bog‘liqlik, ba’zida qaramlik bugunning eng asosiy ehtiyoji sifatida ijtimoiy kapitalga aylanib bormoqda.

“Yangi O‘zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o‘sayotgan va inson kapitali yuqori bo‘lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta’minlash – barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun va mohiyatini tashkil etadi”[1. – B.206]. Ijtimoiy aloqalar negizini tashkil qiluvchi ushbu hodisalarning asosi bo‘lgan “inson omili”, “inson kapitali” hamda “insoniy munosabatlar”ga bo‘lgan ilmiy yondashuvlar yangicha mazmun-mohiyat kasb etib, milliy va etnomadaniy xususiyatlarning ijobiy transformatsiyalashuvi esa o‘z navbatida muayyan bir makonda istiqomat qilayotgan aholining turmush tarzidagi sifat o‘zgarishlari bilan izohlanadi. Shuning uchun ham inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyoj davlat siyosati va jamiyat manfaatlari asosida barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va uning etnosotsiologik xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining turmush sifati, inson resurslarini boshqarish, inson omili va inson taraqqiyoti kabi masalalarga jiddiy e’tibor qaratishmoqda. Ilmiy adabiyotlarda aholi, shu jumladan, “inson kapitali”, “inson salohiyati” va “inson omili” munosabatlarini tavsif hamda tahlil qilish uchun strukturali-funksional talqin va tizimli yondashuv amaliyoti yetarli darajada shakllantirilmagan. Ijtimoiy fanlardagi zamonaviy kognitiv taraqqiyot ko‘plab yangi konsepsiyalarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Ammo, ilgari surilgan g‘oya va ta’limotlarda ko‘pincha an’anaviy muammolarni rivojlantirish hamda kengaytirish uchun imkoniyatlar ko‘proq bo‘ladi[2. – C. 16.].

Inson kapitali samaradorligini negizi hisoblangan “kapital” so‘zining qomusiy talqini – kapital (fransuzcha, inglizcha “capital” va lotincha “capitalis” so‘zlaridan – “bosh, asosiy”) “daromad keltirishga qodir bo‘lgan yoki odamlar tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun yaratilgan resurslar”[3. – S.271.] dir.

Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, “kapital” – bu inson faoliyatining turli xil shakllari (tadbirkorlik, tijorat, ishlab chiqarish va boshqalarda aks etadi) asosida qo‘shimcha qiymat keltiradigan zaxira hisoblanadi. Ijtimoiy kapitali asosida, “inson kapitali”ga iqtisodiy talqin asosida munosabat bildirilsa, unda kishilarning o‘zlaridagi insoniy fazilatlardan kelib chiqib daromad olish qobiliyatlaridagi o‘lchov indekslari tushuniladi. Unda ma’lumot darajasi va ayniqsa, malaka alohida ajralib

turadi.

Har qanday imkoniyat kapital timsolida ehtiyojlar uchun moslashtirilishga yo‘naltirilmasin, unda salohiyatga muhtojlik bo‘ladi. Shuning uchun ta’kidlash mumkinki, inson faoliyati barcha tarkibiy qismlarni o‘ziga moslashtiradi. Inson kapitali o‘z tarkibida bir qator ijtimoiy-biologik yaxlitlik komponentlarini qamrab oladi va uni sotsiumga yo‘naltirib boradi. Bular: demografik, sog‘liqni saqlash, ta’lim, mehnat, madaniy, fuqarolik, ma’naviy-axloqiy, axborotlarga egalik komponenti va shu kabilardan iborat. Belgilangan tarkibiy qismlarning har biri kapital sifatida ijtimoiy zarur faoliyat turlari va funksional imperativlarga mos keladi[4. – S. 447-458.]. Masalan, demografik komponent yangi avlodlar uchun ijtimoiy kapital shakllarini belgilab bersa, sog‘liqni saqlash komponenti jamiyatning jismoniy va ruhiy salomatligini tiklashga qaratilgan tadbirlarni tashkillashtiradi, ta’lim kapitali esa bilim hamda tajriba, mehnat ishlab chiqarishning moddiyoti va turli xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni o‘zida namoyon qiladi.

Har bir shaxs o‘z hayot faoliyati mobaynida guruhli hamda guruhdan tashqari ehtiyojlarni yaratish uchun ijtimoiy transformatsiyalashgan (ijtimoiy islohotlar, inqiloblar va h.k.) hodisalarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ijtimoiy transformatsiyalar jarayonida shaxs va guruhlarning ayni damda sotsium uchun “keraksiz”, “zararli” bo‘lgan ehtiyojlari bostiriladi yoki boshqa shaklga ko‘chiriladi. Tabiiyki, ularning o‘rnida jamiyat rivoji hamda taraqqiyotiga “kerak” va “foydali” bo‘lgan yangi ehtiyojlar turkumi shakllantiriladi.

Bugungi global dunyoda ijtimoiy transformatsiya tushunchasi tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Ijtimoiy transformatsiya – bu jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy tuzilmalari o‘zgarishi jarayonidir. Ushbu jarayon har xil omillar ta’sirida ro‘y beradi va jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy transformatsiya turli jamoalar, ijtimoiy tizimlar, ijtimoiy institutlar va boshqa ijtimoiy massalarning ijtimoiy o‘zgarish jarayonida qo‘llaniladigan ibora sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ko‘pincha “ijtimoiy o‘zgarishlar” tushunchasi “rivojlanish” tushunchasi bilan aniqlashtiriladi. Shuningdek, faylasuf va sotsiologlar tomonidan “transformatsiya” atamasi o‘tgan asrning ikkinchi yarmigacha juda kam foydalanilgan. Jamiyatdagi o‘zgarishlar, tarixdagi “taraqqiyot”, “evolyutsiya”, “inqilob” va “islohot”lar kabi tushunchalar yordamida qo‘llanilgan. Zamonaviy sotsiologiyada “ijtimoiy transformatsiya” atamasi “innovatsiya” va “modernizatsiya” tushunchalarining modifikatsiyasi sifatida ham tadqiqotlar olib boriladi.

Ijtimoiy transformatsiya quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

1. Iqtisodiy transformatsiya – iqtisodiy tizimlarning o‘zgarishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, sanoatlashtirish va texnologik innovatsiyalar.

2. Siyosiy transformatsiya – demokratiyalashuv, davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi.

3. Madaniy transformatsiya – an’anaviy qadriyatlarning o‘zgarishi, globallashuv ta’siri va zamonaviy madaniy trendlarning shakllanishi.

4. Ijtimoiy stratifikatsiya o‘zgarishlari – ijtimoiy tabaqalanish, gender tengligi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari.

Ijtimoiy transformatsiya jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayonning har bir jamiyat uchun o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, u turli nazariy yondashuvlar bilan izohlanadi. O‘zbekiston misolida olib qaraganda, ijtimoiy transformatsiya nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki madaniy va ijtimoiy jabhalarda ham muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Kelajakda bu jarayonning samaradorligi innovatsiyalar, islohotlar va barqaror rivojlanish strategiyalariga bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy transformatsiya jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy tuzilishida tub o‘zgarishlarni anglatadi. Bu jarayon jamiyatning rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lib, unda yangi qadriyatlar, ijtimoiy institutlar va innovatsion yondashuvlar shakllanadi.

Innovatsion taraqqiyot yo‘li mamlakatning inson kapitali rivojiga yo‘l ochish bilan birga insonlardan fikrlash tarzini, ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy qarashlarini o‘zgartirishni talab qiladi va pirovardida butun jamiyatning modernizatsiyasi va yangi sifat holatiga transformatsiyasiga olib keladi.

Jamiyatning transformatsiyalashuvi jarayonida ijtimoiy kapital sifatida jamoatchilik fikrini o‘rganib borish, monitoring qilish davlat organlari va jamiyat faoliyati uchun muhim bo‘lgan boshqaruv masalalariga oid muhim qarorlarni qabul qilishda muhim sanaladi. Har qanday ijtimoiy fikr sotsiumdagi subyektlarning qiziqishlari va tanlovidan kelib chiqib, ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Aynan ijtimoiy fikr inson salohiyatini inobatga olishda qiziqish va ehtiyojlarning holatini belgilab beradi. Shakllangan ijtimoiy fikr uzoq muddat o‘zgarmas bo‘lib qolishi mumkin. Shu bois, inson kapitali omilining ijobiy tomonga burilishida jamoatchilik fikrini inobatga olish muhimdir.

Ijtimoiy transformatsiya jarayonlari inson kapitalining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Inson kapitali esa ushbu transformatsiyani samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, inson kapitalining innovatsion rivojlanishi globallashuv transformatsiyalari sharoitida barqaror iqtisodiy rivojlanish modelini yaratishda asosiy omil hisoblanadi, chunki u insonga sarmoya kiritish orqali shakllantiriladi. Investitsiyalarning samaradorligi innovatsion mehnatga, ijodkorlikka va ijodkorlikka ega bo‘lgan shaxsning ishlab chiqarish qobiliyatlari rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi sharoitida inson kapitali rolining o‘sishi uni baholash, shakllantirish va rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni qo‘llashni talab qiladi.

Inson kapitalini rivojlantirishni davlat tomonidan boshqarib

borishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish – inson kapitali sifati, innovatsion salohiyatini oshirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratib, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan ustuvor vazifadir.

Hududlar miqyosida olinsa, mamlakatimizda oxirgi vaqtlarda urbanizatsiya jarayonlarining miqdori sezilarli darajada oshib bormoqda va bu tabiiyki, inson kapitali masalalarida muhim rol o‘ynaydi. Hududlar doirasidagi shaharlarning ijtimoiy-madaniy muhitida ikkita o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy olam birlashtirilgan bo‘ladi. Bir tomondan, “kishilik” dunyosi va ikkinchisi – “jism va g‘oya”lar olami. Albatta, bu nisbiy mazmun kasb etib, soddalashtirilgan taqdimot ma’nosida keladi. Bu jarayonda madaniyat omilining o‘rni alohida bo‘lib, doimiy harakatdagi jarayonlarni ijtimoiy transformatsiyasiga olib keladi. Unda madaniyat omili alohida mazmun kasb etadi. G‘oyalar esa dastlabki baholash, odamlarning individual va qo‘shma faoliyati jarayonida muloqot qilish, ular o‘rtasida o‘zaro almashish va shu kabilarni tashkil etadi. Shu bois, urbanizatsiyaning muhim elementi migratsiya jarayonlarida yanada faollashadi.

Axborotlashgan jamiyatda ma’lumot berish va axborot olish har doim bilimga asoslangan, lekin ular o‘rtasida keskin farqlar mavjud. Xususan, sotsiumda moslashuvchan texnologiyalar vujudga kelib, jamiyatning axborotlar tizimini paydo qilishi postindustrial jamiyatga o‘tishi sharoitida yaqqol kuzatiladi. Internet, interaktiv televideniye, kibermakon, sotsial tarmoq va boshqa axborot texnologiyalarining inson kapitalini ta’minlashga asos vazifasini bajaruvchi vositaga aylanishi kuzatiladi. Olingan axborot natijasida inson kapitalining transformatsiyalashuvi bilimlar mazmunini o‘zgartiradi.

Bundan tashqari, ilmiy-texnika taraqqiyoti va insonlarning innovatsion faoliyati, tabiiy va moddiy resurslar madaniy ishlab chiqarish, shu jumladan, madaniy qadriyatlarga katta ta’sir etadigan hodisa bo‘lib bormoqda. Ushbu ta’sir bir-biriga zid bo‘lishi mumkin, ammo asosan, mazkur jamiyatning umumiy taraqqiyoti, ma’naviy qadriyatlarni modernizatsiya qilish, ijtimoiy hayotni insonparvarlashtirish, o‘zaro hamkorlik va turli etnik hamda madaniy ildizlarga ega odamlarning yaqinlashishi davlatlar orasida ko‘p millatli jamoalarning yanada uyg‘un, kam ziddiyatli hayoti uchun shart sifatida xizmat qiladi[5]. Aholining etnik-madaniy xilma-xilligi asosida har bir davlat odamlarning iqtisodiy hamda madaniy xulq-atvori tizimida yanada murakkab milliy-madaniy majmualar va an’analarni shakllantiradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, har qanday inson kapitalining rivojlanganlik va mukammalligi asosiy komponent hisoblanadigan ta’lim sifatiga va davomiyligiga bevosita bog‘liq. Zamonaviy oliy ta’limga alohida urg‘u berilar ekan, endi diplomli mutaxassis emas, balki raqobatbardosh, malakali va irodasi mustahkam, yangicha davr ruhiga mos fazilatlar (bosiqlik, vazminlik, diplomatiya, muloqot madaniyati, ijobiy xarakter va shu kabilar)ga ega kadrlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlar va korporatsiyalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki- universitetda olingan ta’lim pragmatik belgilarni ifodalovchi darajaga qarab joylarda

bandlik darajasining nafaqat miqdori, shu bilan birga sifatini ham oshiradi.

Ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida inson kapitalini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va raqamli texnologiyalar kabi sohalarda samarali islohotlarni amalga oshirish orqali inson kapitalining sifatini oshirish mumkin. Bu esa ijtimoiy transformatsiyani yanada samarali va barqaror qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, – 2021. – B.206

2. Дятлов С. А. Основы теории человеческого капитала. – СПб.: Изд-во УЭФ, 1994. – В. 16.

3. Экономическая энциклопедия /Гл. ред. Абалкин Л.И. – М., 1999. – С.271.

4. *Содиржонов М. М. Мониторинг вопросов исследования человеческого капитала в этносоциальных процессах и социальные тенденции //Социальная политика и социальное партнэрство. – 2021. – №. 6. – С. 447-458.*

5. *Sodirjonov M.M. Inson kapitali rivojlanishining etnosotsial xususiyatlari. [Monografiya]. – Namangan: “MASHRAB” nashriyoti, 2025. – 164 b.*

Mashhuraxon Darmonova,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

YANGI O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASINING ABADIYLASHTIRILISHI

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida siyosiy qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan davlat siyosati, amalga oshirilayotgan tashkiliy-huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy chora-tadbirlar tahlil etiladi. Xususan, mustabid tuzum davrida nohaq qatag‘on qilingan vatanparvar ziyolilarning nomini tiklash, ularning hayot va faoliyatini o‘rganish, yosh avlod ongida tarixiy xotirani mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar qamrab olinadi.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the state policy in New Uzbekistan aimed at perpetuating the memory of the victims of political repression, as well as the organizational, legal, spiritual, and educational measures being implemented in this regard. In particular, it covers the efforts to restore the names of patriotic intellectuals who were unjustly repressed during the totalitarian*

regime, to study their lives and activities, and to strengthen historical memory in the minds of the younger generation.

Kalit so‘zlar: *siyosiy qatag‘on, xotirani abadiylashtirish, tarixiy adolat, qatag‘on qurbonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, abadiy xotira.*

♦ ***Keywords:*** *political repression, commemoration, historical justice, victims of repression, national values, historical memory, eternal remembrance.*

So‘nggi yillarda chor Rossiyasi mustamlakachiligi hamda sovet mustabid tuzim davrida jabr-u zulm ko‘rgan, “aksilinqilobchi”, “xalq dushmani” sifatida nohaq qatag‘on qilingan vatandoshlarimiz, ma’rifatparvar ziyolilarimizning xotirasini abadiylashtirish, ularning ibratli hayoti va ilmiy-adabiy merosini yanada chuqur o‘rganish borasidagi ishlar yangi bir pog‘onaga ko‘tarildi. **Yangi O‘zbekistonda siyosiy qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatini o‘rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish borasida keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda.**

2017-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan, yurtimizdagi ilk matbaachilardan biri, bir necha tilni mukammal bilgan, ma’rifatparvar alloma Is’hoqxon To‘ra Ibrat xotirasini abadiylashtirish maqsadida, Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida Is’hoqxon Ibrat nomidagi yodgorliklar majmuasi barpo etildi [1].

2019-yili esa, o‘zbek romanchiligiga asos solgan, vatanparvar va ulkan qalam sohibi Abdulla Qodiriy xotirasiga ehtirom ramzi sifatida, Toshkent shahridagi Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i hududida adibning ijod maktabi hamda muzeyi tashkil etildi. Bog‘ga kiraverishda buyuk yozuvchining haykali o‘rnatildi.

Shuningdek, 2017-yil 31-avgust – “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning muzeyga tashrifi chog‘ida, u mazkur muassasani “muzeylarning muzeyi” deb atab, unga yuksak baho berdi. Shu bilan birga, mazkur muzeyning viloyatlarda ham bo‘limlarini tashkil etish yuzasidan taklif bildirdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlardagi 13 ta oliy ta’lim muassasasi tarkibida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi F-5598-sonli “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi qabul qilinishi, bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu hujjat tarixiy adolatni tiklash, o‘tmishda qurbon bo‘lgan vatanparvar insonlar xotirasini abadiylashtirish sari qadam tashlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, 2020-yili milliy ozodlik va taraqqiyot yo‘lida fidokorona xizmat ko‘rsatgan, milliy ta’lim va tarbiya tizimining asoschilaridan bo‘lgan Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

2020-yili Toshkent shahridagi Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘

hududida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Adiblar xiyoboni” barpo etildi. Ushbu xiyobon milliy ma’naviyatimiz va adabiyotimiz rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, mustabid tuzum davrida qatag‘on etilgan buyuk ma’rifatparvarlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgani bilan ahamiyatlidir.

Xiyobon hududida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi jadid harakatining namoyandalari bo‘lgan, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surgan va shu yo‘lda hayotlarini fido qilgan adib va ziyolilarimizning haykallari o‘rnatildi. Bu nafaqat ularning ma’naviy merosini ulug‘lash, balki yangi avlodni vatanparvarlik va tarixiy xotira ruhida tarbiyalashga qaratilgan muhim ma’rifiy qadam hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PF-5598-sonli “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [2] farmoyishi qabul qilinishi mamlakatimizda tarixiy adolatni tiklash, milliy xotirani asrab-avaylash va qatag‘on qurbonlari merosini chuqur tadqiq etish ishlarini yangi, sifat jihatdan yuksak bosqichga ko‘tardi.

Ushbu farmoyish doirasida 2021-yili davlat rahbarining topshirig‘iga muvofiq, Qarshi shahridagi tarixiy Odina masjidi binosida Qashqadaryo viloyati Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi yangitdan tashkil etildi. Muzey tarixiy haqiqatni qayta tiklash, mahalliy aholi va yosh avlodni ma’rifiy ruhda tarbiyalashda muhim maskanga aylandi.

Farmoyish ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika ishchi guruhi tomonidan “Qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va ular xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Mazkur yo‘l xaritasining 10-bandida ilmiy tadqiqotlar jarayonida aniqlangan, ayrim sabablarga ko‘ra hanuzgacha reabilitatsiya qilinmagan shaxslar nomini oqlash bo‘yicha belgilangan tartibda takliflar kiritish vazifasi belgilangan.

Shu asosda, qatag‘on qurbonlarining huquqiy reabilitatsiyasi masalasi yuzasidan tegishli tahlil va o‘rganish ishlari amalga oshirildi hamda taqdim etilgan ma’lumotlar Respublika ishchi guruhiga ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish uchun taqdim etildi.

Qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va ularning tarixiy merosini tiklashga qaratilgan ishlar doirasida Qoraqalpog`iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida jami 14 ta “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitoblari tayyorlandi. Ushbu kitoblarga 40 mingga yaqin qatag‘on qurboniga aylangan vatandoshlarimiz haqidagi arxiv ma’lumotlari, tarixiy hujjatlar va shaxsiy ma’lumotlar kiritildi.

Ayniqsa, 2022-yilda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar alohida e’tiborga loyiqdir. Yil davomida 10 ga yaqin qatag‘on qurbonlariga va ular faoliyat ko‘rsatgan tarixiy davrga bag‘ishlangan ilmiy-ommaviy va tarixiy-muhtaj kitoblar nashr etildi. Ularda nafaqat qurbonlar hayoti va faoliyati yoritilgan, balki totalitar tuzumning mafkuraviy mexanizmlari ham tahlil etilgan [3].

Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi faoliyati doirasida, totalitar sovet tuzumi davrida asossiz ravishda ta’qib etilgan va ma’lum sabablarga ko‘ra haligacha reabilitatsiya qilinmagan vatandoshlarimizni oqlash borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Ushbu sa’y-harakatlar natijasida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan bir necha qarorlar qabul qilinib, quyidagi sana va raqamlarda jami 856 nafar shaxs oqlandi: 2021-yil 25-avgust – 115 nafar, 2022-yil 6-yanvar – 120 nafar, 2022-yil 19-dekabr – 173 nafar, 2023-yil 19-aprel – 208 nafar, 2023-yil 24-avgust – 240 nafar.

Xususan, 2021-yil 25-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining protest asosida, Oliy sudning Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan bir nechta tarixiy jinoyat ishlari qayta ko‘rib chiqilib, quyidagi shaxslar oqlandi [4]:

1. Nosirxon to‘ra va boshqalar (92 nafar): Ayblovlar tazyiq va zo‘ravonlik asosida olingan ko‘rsatmalarga tayanilgan bo‘lib, sud jarayonlarida yuzlashtirish o‘tkazilmagan, barcha ko‘rsatmalar so‘roq bayonnomalarigagina asoslangan.

2. Ibrohimbek Chaqaboyev va boshqalar (16 nafar): 1932-yildagi OGPU bayonnomasida faqat otish qarorining qabul qilingani qayd etilgan bo‘lib, jinoyat ishi sud tomonidan ko‘rib chiqilmagan, rasmiy hukm mavjud emas.

3. Teregulov Usmon Igmatulovich va boshqalar (4 nafar): 1922-yilda ma’muriy qaror asosida konslagerlarga yuborilgan yoki otishga hukm qilingan. Ushbu holatlar jinoyat huquqiy tartibida emas, ma’muriy choralar bilan amalga oshirilgan.

4. Daminov Latif: SSSR Oliy sudi harbiy hay’atining 1938-yilgi hukmi bilan otuvga hukm qilingan, mol-mulki musodara qilingan. Hukm ijrosi amalga oshirilgani arxiv hujjatlarida qayd etilgan.

5. Sultonov G‘afur: 1930-yilda “Uchlik kengashi” qarori bilan O‘zbekiston SSR JKning 58-modda 2-qismi va 59-modda 3-qismiga muvofiq aybdor deb topilib, otuvga hukm qilingan.

6. Kiramov Kivam: SSSR Oliy sudi harbiy hay’atining 1938-yil 9-oktabrdagi hukmi bilan JKning 58, 64 va 67-moddalari bo‘yicha ayblanib, otish va mol-mulk musodarasiga hukm qilingan.

Ushbu jinoyat ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosari tomonidan belgilangan tartibda Oliy sudga rasmiy protestlar kiritilgan va ular ijobiy ko‘rib chiqilib, tarixiy adolat tiklangan.

2021-yil 25-avgust kuni ushbu jinoyat ishlari Oliy sud raisi o‘rinbosari Ikrom Muslimov raisligida o‘tkazilgan ochiq sud majlislarida ko‘rib chiqilib, keltirilgan protestlar qanoatlantirildi va O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan jami 6 ta jinoyat ishi bo‘yicha 115 nafar shaxs oqlandi.

Mamlakatda milliy mustaqillikni mustahkamlash, tarixiy haqiqatlarni tiklash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan muhim islohotlar doirasidagi tashabbuslardan biri – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish

borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi [5] qaroridir.

Ushbu qaror qatag‘on qurbonlari hayoti va merosini yanada chuqurroq o‘rganish, jamiyatda tarixiy xotirani mustahkamlash, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari ishtirokida keng qamrovli ma’rifiy va tadqiqot ishlarini amalga oshirishga huquqiy va tashkiliy asos yaratdi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, tarixiy xotirasiz, o‘z o‘tmishidan bexabar va ajdodlarining jasoratiga bee’tibor millatning kelajagi bo‘lmaydi. Bu borada O‘zbekiston mustaqillik yillarida tarixiy adolatni tiklash, milliy qadriyatlar va ma’naviy merosni asrab-avaylash yo‘lida ulkan ishlar amalga oshirdi. Mamlakatimizda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy an’analarga hurmat, jamiyatda tarixiy xotirani mustahkamlash yo‘lidagi ishlar samarasida xalqimizning ko‘p asrlik orzu-umidlari amalga oshmoqda. Eng muhimi, yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik sharoitida inson shaxsi, uning xotirasi va qadr-qimmati yuksak darajada ulug‘lanmoqda. Bu esa yurtimizda o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun beqiyos ma’naviy meros, yuksak ibrat va kelajakdagi mas’uliyatni anglatadi. Bularning barchasi O‘zbekistonning inson sha’ni, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etiladigan demokratik va adolatli jamiyatga aylanayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yilning 5-sentabrdagi “To‘raqo‘rg‘on tumanida Is’hoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 698-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5598-son farmoyishi.

3. 2009-yildan buyon nashr etib kelinayotgan “Tarixning noma’lum sahifalari” (mas’ul muharrirlar: B.Xasanov, N.Karimov) to‘plamini alohida qayd etib o‘tish joiz. 2022-yili mazkur to‘plamning 10-kitobi, 2024-yili 11-kitobi nashrdan chiqarildi.

4. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi joriy arxivi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-270-son qarori. https://www.lex.uz/docs/7027939

Sarvar Botirov,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
bo‘lim boshlig‘i, PhD

AN’ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK: AVLODLAR QADRIYATLARIDAGI FARQ VA O‘XSHASHLIKLAR

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekistonda turli yoshdagi avlodlar o‘rtasidagi qadriyat, dunyoqarash va madaniy qarashlar farqi orqali shakllanadigan avlodlar ziddiyati tahlil qilinadi. G‘arb va an’anaviy Sharq madaniyati ta’sirida vujudga kelayotgan tafovutlar, texnologiyalar ta’siri, oilaviy va ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlar asosiy tahlil obyekti sifatida qaraladi. Shuningdek, yangi va keksa avlod o‘rtasidagi qarashlar to‘qnashuvi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga qanday ta’sir o‘tkazayotgani yuzasidan xulosalar beriladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the generational conflict arising from differences in values, worldviews, and cultural perspectives among different age groups in Uzbekistan. It focuses on the influence of Western and traditional Eastern cultures, the impact of technology, and the transformations in family and social relationships. The article also explores how the clash of perspectives between the younger and older generations affects social stability and development in the country.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *avlodlar ziddiyati, qadriyatlar farqi, G‘arb madaniyati, Sharq an’analari, texnologiya ta’siri, ijtimoiy o‘zgarishlar, O‘zbekiston, yoshlar, keksa avlod, madaniy transformatsiya.*

♦ ***Keywords:*** *generational conflict, value differences, Western culture, Eastern traditions, impact of technology, social changes, Uzbekistan, youth, older generation, cultural transformation.*

Ma’lumki, avlodlar qarama-qarshiligi – bu turli avlod vakillari o‘rtasidagi qadriyatlar, e’tiqod, turmush tarzi va madaniyatidagi farqlarni tavsiflovchi tushuncha hisoblanib, har bir avlod o‘ziga xos tarixiy, ijtimoiy-madaniy va texnologik kontekstlarda shakllanishi natijasida ularning dunyoni idrok etishi va yashash tarzidagi farq bilan belgilanadi. Bunday qarama-qarshiliklarga misol sifatida an’analar, urf-odat, yashash tarzi, ish va kareraga bo‘lgan munosabat, ijtimoiy muammolar va siyosatga qarashlarni keltirish mumkin.

E’tiborlisi, mazkur mavzuning o‘rganilishi jamiyat dinamikasini, mafkuralarning madaniy taraqqiyotga ta’sirini tushunishga, shuningdek,

strategiyalarini turli avlodlarga moslashtirishga yordam beradi.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, zamonaviy jamiyatda quyidagi avlodlar shakllangan, xususan:

- 1944 – 1964-yillar oralig‘ida tug‘ilgan aholi **bebi-bumer** avlod vakillari bo‘lib, ularning shakllanish davri II jahon urushi, urushdan keyingi qiyinchiliklarga to‘g‘ri kelgani sababli, bu ularning fe’l-atvorlarida aks etgani bilan tavsiflanadi;
- 1965 – 1980-yillar oralig‘ida tug‘ilgan aholi **X avlod** vakillari bo‘lib, ular pragmatizm, mustaqillik, hokimiyat tizimi va turli institutlarga nisbatan skeptik qarashlar bilan tavsiflanadi;
- 1981 – 1996-yillar oralig‘ida tug‘ilgan aholi **millenial avlod** vakillari hisoblanib, ular texnologik bilimdonlik, ta’lim va ijtimoiy munosabatlarni yuqori qadrlash, barqarorlik va ijtimoiy adolatga intiluvchanlik bilan tavsiflanadi;
- 1997 – 2012-yillar oralig‘ida tug‘ilgan aholi **Z avlod** vakillari hisoblanib, ular raqamli avlod deya nomlanib, yangi texnologiyalarga yuqori moslashuvchanlik, inklyuzivlik va xilma-xillikka intiluvchanlik bilan tavsiflanadi [1].

Mazkur avlod vakillari qarashlari va qadriyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar asosan quyidagi masalalarda ko‘zga tashlanadi:

- ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid qarashlar (ta’lim-tarbiya, tenglik, inson huquqlari, davlat hokimiyatiga ishonch va boshqalar);
- texnologiya va turmush tarzidagi o‘zgarishlarga munosabat;
- oila, nikoh, oilaviy va milliy qadriyatlarga munosabat;
- ish va kareraga munosabat;
- diniy e’tiqod va ma’naviy qarashlar;
- moda va tushmush tarziga oid qarashlar.

O‘rganishlar davomida, O‘zbekiston jamiyatida “avlodlar to‘qnashuvi” muammosi G‘arb mamlakatlarida bo‘lgani kabi avlodlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik shaklida emas, balki aholi turmush tarzida sharqona qadriyatlar va qarashlarning kuchliligi sababli aksariyat hollarda ma’lum masalalarga yondashuvda farqlanishi kuzatildi.

Jumladan, manbalarda mavjud sohaga oid ma’lumotlar tahlilidan kelib chiqib, quyidagi holatlar mavjudligini qayd etish mumkin:

Birinchidan, aksariyat yoshlar va keksa avlod vakillari ishtirokida o‘tkaziladigan uchrashuvlar, ommaviy hamda targ‘ibot tadbirlarida keksa avlod vakillari o‘z zamondoshlari va ulardan oldingi avlod yutuqlarini ifodalab, hozirgi avlodni maqsadsizlikda, odob-axloq normalari va qadriyatlarga nisbatan hurmatsizlikda, ilm olishda sustkashlik, mehnat faoliyatida yetarli natijalarga erishmayotganlikda tanqid qiladilar.

Ikkinchidan, taqqoslash va qiyoslash jarayonida bebi-bumer avlod olimlari va mutaxassislarining erishgan yutuqlari va hayot yo‘llari misol qilib ko‘rsatiladi va hozirgi avlodni bunday natijalarga erisha olmayotganlikda ayblaydilar.

Uchinchidan, bebi-bumer avlod vakillarida o‘zlari yashagan va

moslashgan siyosiy tuzum va undagi qarashlarni yoqlash, hozirgi jamiyat munosabatlariga nisbatan keskinlik mavjudligi kuzatiladi.

To‘rtinchidan, keksa avlod vakillarida o‘zlari yashagan davr va jamiyat undagi munosabatlardan kelib chiqib, yosh avloddan aynan ana shu davrga xos harakatlarni amalga oshirishni talab qilish holatlari mavjud.

Beshinchidan, yosh avlod vakillarida o‘zlaridan avvalgi avlod vakillari qarashlarini eskirganligi, qadriyatlar borasidagi tushunchalarning dogmatik ekani borasidagi fikrlar shakllangan.

Oltinchidan, axborot almashinuvi tez ekanligi, internet va globallashuv natijasida dunyo yoshlarining ayni vaqtdagi harakatlari integratsiyalashuvi tezlashib, madaniyatlar va qarashlarda uyg‘unlashuv sezilarli darajada oshgan.

Shuningdek, o‘zbek jamiyatiga xos bo‘lgan sharqona odob-ahloq, kattalar tomonidan yoshlarga tarbiya berishda mazkur jihatlarga beriladigan e’tibor masalasida ham o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Xususan, bugungi kunda milliy qarashlar, oilaviy tarbiya jarayonida “keksalar gapirganda “xo‘p” deyish kerak” degan tushunchani ilgari surilishi aksariyat yoshlar tomonidan stereotip sifatida qaralmoqda. Hozirgi yosh avlod vakillari keksalar, kattalar gapirganda faqat “xo‘p” deyish emas, balki noto‘g‘ri bo‘lsa munosabatlarini ko‘rsatishlari lozim deb hisoblamoqdalar. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” iborasi bilan bog‘liq sharqona jamoaviy tarbiyalash tamoyiliga nisbatan ham tanqidiy qarashlar shakllangan bo‘lib, aksariyat yoshlar qatlami, bugun shaxsiy hayotlariga begonalarning aralashuvini ma’qullamaydilar.

Shuningdek, “**Muslima.uz**” nashrida e’lon qilingan maqolada olimlar qarashlarida “otalar va bolalar muammosi” nazariyasi paydo bo‘lgani, zamonaviy oilalarda kattalar va kichiklarning, ya’ni otalar va bolalarning, onalar va qizlarning murosasi kelishmasligi kuzatilayotgani, bunga dunyoqarash sabab bo‘layotgani tanqid qilingan. Maqolada keltirilgan diniy soha mutaxassislari fikricha, yuqoridagi masalada islom aqidalariga to‘laqonli amal qilish “avlodlar to‘qnashuvi”ga olib kelmaydi. Xususan, Sharq oilalarida bu muammoning bo‘lishi mumkin emasligi, chunki, bolalar kichikligidanoq kattalarni hurmat qilish, gap qaytarmaslik, har bir ishda maslahat so‘rash ruhida tarbiya qilinishi, millat odobida ota-ona chaqirganda har qanday ishni tashlab, “labbay” deb borish, nima buyursa ham “uf” tortmay bajarish, qarib yordamga muhtoj bo‘lganida har tomonlama mehr-muhabbat ko‘rsatish, hatto davrada ulardan yuqoriga chiqmaslik, beruxsat so‘zlamaslik, ko‘chada oldlariga tushib yurmaslik talab etilishi kabi qoidalar borligi keltirilgan.

Ta’kidlanishicha, “G‘arb madaniyati ta’sirida ulg‘aygan kimlargadir bular bolaning “hurriyatini bo‘g‘ish”, “erkiga tajovuz” bo‘lib tuyulishi mumkin. Ammo kattalar va kichiklar o‘rtasida yo‘q yerdan muammo yasab olgan G‘arb bugun bizdagi otalar va bolalar o‘rtasidagi yaxshi munosabat va mehr-oqibatni ko‘rib, havas qilishdan o‘zga chora topolmay yuribdi” deyilgan [2].

Shuningdek, mamlakatdagi tarbiyaviy qadriyatlar va qarashlarga nisbatan xorij davlatlarida yashayotgan yoki yashab qaytgan oilalar ta’siri ham sezilmoqda.

Xususan, bunday fuqarolarda G‘arb madaniyati unsurlarining shakllanishi milliy qarashlarga nisbatan nomutanosiblikni uyg‘otishi kuzatilib, bu kabi holatlar farzand tarbiyasi, unga tashqi muhit ta’siri masalasida ko‘zga tashlanmoqda. Aksariyat xorijda bo‘lib turgan va yashab qaytgan fuqarolar G‘arbdagi ijobiy jihatlardan biri “Odamlar nima deydi” degan tushunchaning yo‘qligi, farzandlarini o‘zlari xohlaganday tarbiya qila olishlari, bunda qarindoshlar, buvi va bobolari, ayrim urf-odatlarning ta’siri kam bo‘lishi ijobiy ekanini ilgari surmoqdalar.

Mutaxassislar fikricha, bunday qarashlar, mamlakat yosh avlod vakillari o‘rtasida ham ommalashib, yillar davomida keksa avlod vakillarida shakllanib kelgan qadriyatlar va mentalitet bilan bog‘liq jihatlarga nisbatan aks ta’sirni ifodalamoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bebi-bumer va X avlod vakillar o‘z davrida davlatdan kafolatlangan ish o‘rni va ish haqi, jamiyatdan umumiy qo‘llab-quvvatlov istagan bo‘lsalar, bugungi zamon yoshlari hisoblanuvchi Z avlod vakillari esa davlat hokimiyati va jamiyatga nisbatan munosabatlari oldingi avlod vakillaridan farqlanadi.

Jumladan, bir qator mutaxassislar va yoshlarning davlat hokimiyati va jamiyatga nisbatan munosabatlari aks ettirilgan bir internet tarmoqlaridan biridagi kontentda [3] ko‘pchilik yoshlar davlatdan erkinlik va qonun ustuvorligini ta’minlashni, jamiyatdan esa shaxsiy hayotga “burun suqmaslik”ni xohlashi bildirilgan.

“Avlodlar to‘qnashuvi” haqida fikr bildirilarkan, ko‘rsatuv ishtirokchilari “ota-ona bilganni farzand bilmaydi, ota-ona farzandi uchun eng yaxshi narsani beradi” degan tushunchalar bugun kun yoshlari uchun to‘g‘ri kelmasligini ta’kidlagan.

Shuningdek, yosh va katta avlod vakillarining davlat va jamiyatga nisbatan qarashlarida ham bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligi kuzatiladi.

Jumladan, bugungi kunda tarmoqlarda o‘zining davlat va jamiyatdagi adolatsizliklarga nisbatan fikrini oshkor bildira oladigan, tanqidiy fikrlovchi avlod vakillari shakllanmoqda. Ulardan avvalgi avlod vakillari esa, mazkur shakllanayotgan qatlamni noshukurlik, vatanparvarlik yetishmasligi, ishtiyoqsizlik va dangasalikda ayblamoqdalar.

Misol uchun, siyosiy partiyalardan birining internet-sahifasida “**Yoshlar jamiyatdan norozi bo‘lib gapirishni xush ko‘radiganlarning “nusxasi” bo‘lib yetishmasin**” sarlavhasi bilan maqola joylanib, unda “Ma’lumki, bugungi kunda institutga kira olmagan yoshlar qurilish ishlariga, qurilish firmalari va odamlarning uy-joylaridagi qurilishlarga, ya’ni naqd pul beriladigan ishlarga borishni afzal ko‘rishyapti. Nega deganda u yerlarda kuniga ishlab 100 ming so‘mdan pul topish mumkinligini bilishadi. Ularning ayrimlari chet elga ishlash uchun ketishga shay. Chet elga ketishni istovchilar men-u siz o‘ylagandan ko‘proq hamdir. Endi, masalaga boshqacha yondashadigan bo‘lsak, yoshlarimiz shu ishlayotgan ishlaridan, kasblaridan ko‘ngli to‘ladimi? Ana shu yerda muammo chiqadi. Kasbidan, ishidan

ko‘ngli yorishmasa o‘zi yashaydigan jamiyat haqida norozi bo‘lib gapirishni yaxshi ko‘radigan odamlarning aynan “nusxasi” bo‘lib chiqishga majbur” – degan fikr keltirilgan [4].

Ushbu qarash, keksa avlod vakillari yoshlarning o‘z fikrlarini bildirishlarini norozi bo‘lib gapiradigan qatlam vakillari sifatida baholashlari ifodasi sifatida ko‘zga tashlangan.

Tadqiqotlarga ko‘ra oila, nikoh va turmush qurish bilan bog‘liq masalalarida avlodlar qarama-qarshiligi va fikrlardagi xilma-xillik sezilmoqda**.**

Jumladan, mamlakat aholisining aksariyat qismi nikoh masalasida ota-onalarning xohish-irodasi muhimligini qayd qilib, munosib juft tanlashda ularning rolini ijobiy baholaydi. Shu bilan birga, diniy soha vakillari tomonidan ham nikoh va juft tanlash masalasida ota-onaning hal qiluvchi roli islomiy qadriyat sifatida targ‘ib qilinishi kuzatiladi. Aksariyat hollarda ushbu masala jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi an’ana va qadriyat sifatida yuqori baholanib, amal qilinadi.

Shunday bo‘lsada, bugungi kunda yosh avlod vakillari o‘rtasida juft tanlash masalasi erkin bo‘lishi, har kim o‘zi uchun munosib juftni tanlashi lozimligi, bunda ota-ona va yaqinlar tanlovi muhim emasligi borasidagi fikrlar kuchayib borayotgani kuzatilmoqda.

O‘rganishlar davomida, milliy urf-odat va an’analar atrofidagi stereotiplar (to‘y tadbir va marosimlarini o‘tkazish) bilan bog‘liq masalalarda ham avlodlar to‘qnashuvi mavjudligi kuzatilmoqda.

Jumladan, “Oyina.Uz” internet nashri nashrida milliy urf-odatlar bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yengib o‘tgan yoshlarning bu boradagi qarashlari va tajribalari yoritilgan [5].

Maqolada yoshlar fikridan kelib chiqib qayd qilinishicha, “O‘zbeklar ham, O‘zbekiston ham pulni bir kunlik to‘y-tadbirga sarflab, qolgan kunlari och-nahor, muammolar qurshovida va qarz olib yashayapti”. Shuningdek, ta’kidlanishicha, bugungi kunda yoshlar tomonidan serhasham urf-odatlarni to‘xtatish, keraksiz an’anaga chek qo‘yish, kamxarj to‘y qilib, keraksiz stereotiplar zanjirini uzish zarur. Chunki, bu kabi tadbirlar ijtimoiy hayotda insoniy munosabatlarni iliqlashtirish o‘rniga sovuqlashtirishga sabab bo‘layotgani kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, maqolada katta avlod vakillari “urf-odatlarni to‘la-to‘kis qilish”ga intilishi, bu yoshlarning kelgusi hayoti uchun ahamiyatga ega emasligi, qaynona-kelin munosabatlarida kelinning “sepi va qimmatbaho bumlari”ga ahamiyat berilishi oilaviy turmushda ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgani yoshlar nomidan tanqid ostiga olingan.

Kuzatuvlar davomida ta’lim tizimi bilan bog‘liq masalalar ham o‘rganilib, yosh va katta avlod vakillarining bu boradagi qarashlarida farq borligi aniqlandi.

Jumladan, ta’lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilayotgan, sohada ijobiy natijalarga erishilayotgan bo‘lsada, sohada mavjud muammolar yoshlar qarashlariga salbiy ta’sir qilayotgani kuzatilmoqda.

Xususan, ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar va

ekspertlaridan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, yoshlar hozirgi maktab ta’limini eski tizimda qolib ketgan deb hisoblaydilar. Ular ayrim fanlarni o‘zlarining keyingi hayotida kerak emasligini, maktabdagi ayrim majburiyatlar noto‘g‘ri ekanini ilgari suradilar.

Aksariyat katta avlod vakillari esa maktab formasi majburiy bo‘lishi lozimligini, an’anaviy darslar o‘tilishini yoqlaydilar, yosh avlod vakillari esa o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun forma masalasi erkin bo‘lishi, darslar ham zamonaviy formatda o‘tilishi tarafdori ekanligini bildirganlar.

Buning natijasida, maktablardagi keksa avlod pedagoglari va yosh pedagoglar o‘rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Shu sababli, aksariyat iqtidorli yosh pedagoglar xususiy ta’lim sektorini tanlamoqdalar.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda maktablarda jamoaviy hashar, o‘quvchilarni mehnatga yo‘naltiruvchi jarayonlar to‘xtab qolgan, bu bevosita bolalarning majburiy mehnatdan himoyalash bo‘yicha islohotlarning natijasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ushbu masalaning mohiyatini noto‘g‘ri talqin qilish bilan ifodalangan. Natijada, ushbu masalada ham qarama-qarshiliklar yuzaga kelmoqda.

Ta’kidlash kerakki, davlat ta’limidan farqli o‘laroq xususiy sektorda o‘quv xonalarini jamoaviy tarzda tozalash, darslarni o‘zlashtirmaganlik uchun jazo sifatida shunday mehnat faoliyatiga jalb qilish ijobiy qabul qilinmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, avlodlar qarama-qarshiligi har bir davrda jamiyatdagi muhit, qarashlar va mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan kelib chiqib kuzatilgan.

O‘zbekiston sharoitida esa milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analar, diniy-e’tiqodiy masalalar, inson ma’naviyati va kamoloti, oilada tarbiya masalalariga alohida urg‘u qaratilishi, bu bo‘yicha amalga oshirilgan tizimli islohotlar bu qarama-qarshiliklarning xavfini nisbatan kamaytirgan. Shunday bo‘lsa-da, globallashuv, global internet tarmog‘i va “ommaviy madaniyat” kabilar ta’siri mamlakatda avlodlar qarama-qarshiligining kuchayishiga xizmat qilayotgani kuzatilmoqda.

Undan tashqari, davlat hokimiyatiga va jamiyatga nisbatan og‘ir-bosiq munosabatli katta avlod vakillaridan farqli, o‘z e’tirozi va noroziligini ochiq namoyish qilish tabiatiga ega yosh avlod shakllanib borayotgani ko‘zga tashlanmoqda. Shuningdek, Z avlod vakillarining “qaror qabul qilish”da mustaqillikka intilishlari, oila, nikoh, oilaviy va milliy qadriyatlarga, mehnat va kareraga munosabatlarda katta avlod kabi yondashmasliklari ko‘rinmoqda.

Yuqoridagi holatlar milliy qadriyatlar, an’analar, diniy-e’tiqodiy qarashlarda uyg‘unlik va birdamlikni saqlab qolish, o‘zaro hurmat, mehr-muruvvat, daxldorlik hislarini shakllantirish borasidagi ishlarni kuchaytirish lozimligini, shuningdek, kelgusida avlodlar qarama-qarshiligining jiddiy bosqichlarga chiqishi va jamiyat hayotida qarashlardagi keskinliklarni kelib chiqishi xavfini oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar qo‘llash zaruratini ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Конфликт поколений в современном обществе: основные причины, характеристики и вызовы. – электронная библиотека КиберЛенинка (cyberleninka.ru)*
2. *https://www.muslima.uz/index.php/uz/mening-oilam/ota-ona/238-otalar-va-bolalar*
3. *https://www.youtube.com/watch?v=gHYwoE62KNA*
4. *https://adolat.uz/news/yoshlar-zhamiyatdan-norozi-bolib-gapirishni-hosh-koradiganlarning-nushasi-bolib-etishmasin*
5. *http://serquyoshsolnomasi.oyina.uz/kiril/article/2263*

Shohijahon Toshpo‘lotov,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, PhD

YANGI O‘ZBEKISTONDA DUNYOVIYLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda dunyoviylik (sekulyarizm) va diniy bag‘rikenglik tamoyillarining ijtimoiy va siyosiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek mamlakatimizdagi diniy siyosat va dunyoviylik prinsiplari tandemi orqali, umumiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikka erishish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari maqolada davlat va dinning o‘zaro munosabatlari, vijdon erkinligi dinning davlatdan ajratilishi va fuqarolarning teng huquqliligi kabi prinsiplari tahlil qilingan.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the social and political significance of the principles of secularism and religious tolerance in New Uzbekistan. It also explores how the combination of the country's religious policy and secularism can serve as a pathway to achieving general progress and social stability. Furthermore, the article examines the principles of the relationship between the state and religion, freedom of conscience, separation of church and state, and equality of citizens' rights.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *dunyoviylik, diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi, din va davlatning ajratilishi, fuqarolarning teng huquqliligi, diniy siyosat, ijtimoiy barqarorlik, Yangi O‘zbekiston.*

♦ ***Keywords:*** *secularism, religious tolerance, freedom of conscience, separation of church and state, equality of citizens' rights, religious policy, social stability, New Uzbekistan.*

Bugun dunyoda va mintaqamizda dunyoviylik (sekulyarizm) tamoyili ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning birlamchi manbaiga aylanib ulgurdi. Yangi O‘zbekistonimizning barqaror rivojlanishiga sezilarli ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri ham din va jamiyat o‘zaro munosabatlaridagi konkret xulosalarga tayanishdir.

Bunda avvalo, dunyoviy (sekulyar) va diniy davlatning umumiy va o‘ziga xos tomonlarini siyosiy-sotsiologik, yemririk nuqtayi nazardan tahlil qilish, umumiy va o‘ziga xos tomonlarini asoslash orqali “oltin o‘rtalik”ni torib, samaradorlikka erishish mumkin. Shu o‘rinda “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi”[1]ning qabul qilinishi ham jamiyatdagi barcha din vakillarining qarashlari, xohish-istaklarining aks yetishini ta’minlash, xususan davlatda diniy bag‘rikenglikni ta’minlashda dinlar va diniy konfessiyalararo O‘zaro uyg‘un va alohida jihatlarni tartibga solinishidan mujda beradi.

Mazkur konsepsiyaning yana bir yutug‘i, unda u yoki bu dinga mansub va umuman biror dinga e’tiqod qilmaydigan fuqarolarni yagona Vatan g‘oyasi atrofida birlashishini ta’minlovchi aniq, manzilli dasturlarning ishlab chiqilganidir. O‘zbekiston jamiyatining dinga, diniy soha vakillariga dunyoviylik tamoyilidan kelib chiqqan holda tolerant munosabatda bo‘lishi har qachongidan ham muhim. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan turli diniy konfessiya vakillarining jamiyatning teng huquqli a’zosi o‘laroq yashashlari, mehnat qilishlari, yagona O‘zbekistonning umumiy taraqqiyoti, barqarorligi va jahon hamjamiyatidagi o‘rnini belgilab beradi. Yana bir asosiy jihat, mintaqada xavfsizlikni ta’minlashda ham tolerant munosabatlar asosiy vazifani bajaradi. Shu sababdan jamiyatda dunyoviylik tamoyili asosida normal tolerant munosabatlarni o‘rnatish, bu yo‘lda uchraydigan to‘siqlarni olib tashlash oldimizda turgan muhim vazifalardandir.

Shuni alohida qayd etish kerakki, konsepsiyada o‘z aksini topgan 6 ta tamoyil jahon andozalariga mos zamonaviy liberal davlat belgilarini o‘zida to‘liq jamlagan.

Masalan:

1. Qonuniylik prinsipi. O‘zbekistonda diniy siyosat konstitutsiyaviy normalar va qonunlarga asoslangani, mamlakatimizda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” (eski va yangi tahrirda)gi qonun hamda Konstitutsiyamizning 35-moddasi [2] diniy erkinlikni ta’minlay olishi va bu yondashuvlar diniy tashkilotlarning faoliyatini huquqiy asosda tartibga solib, ekstremizm va noqonuniy diniy harakatlarning oldini olishini ko‘rsatadi. Tan olish kerakki, so‘nggi yillarda diniy tashkilotlar davlat ro‘yxatidan o‘tib, qonuniy faoliyat yuritishi uchun soddalashtirilgan tartib joriy etildi [3, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunining 14-24-moddalari] va konsepsiyada yana bir bor har qanday holatda ham diniy partiyalar tuzilmasligi qat’iy mustahkamlandi.

2. Vijdon erkinligi. Har bir fuqaro o‘z e’tiqodiga ega bo‘lish yoki hech qanday dinga ishonmaslik huquqiga ega. Davlat hech kimni ma’lum bir

dinga e’tiqod qilish yoki qilmaslikka majburlamaydi. Xususan, bu to‘g‘risida Birlashgan Milatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo‘yicha Bosh komissiyasining rasmiy veb-saytida: “Bizning eng asosiy burchimiz – har bir insonning erkin tanlov huquqi, xususan, fikr, vijdon, din yoki e’tiqod erkinligini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishdan iboratdir[4],” – deya alohida ta’kidlanishi ham vijdon erkinligi prinsipining naqadar yuksak ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Islohotlarga mos ravishda 2021-yil 5-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 6-bob, 35-moddadan iborat bo‘lib, uning diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rishimiz mumkin. Uning mantiqiy davomi bo‘lgan mazkur konsepsiya barobarida esa, biror dinga mansubligi uchun diskriminatsiya yoki bosim o‘tkazishga qarshi kurashish uchun maxsus qonuniy choralarni kuchaytirilmoqda. Bu o‘z navbatida turli din va e’tiqodlarga mansub fuqarolarimiz o‘rtasida konstruktiv muloqotning yangi rakursga ko‘tarilishi va har jihatdan yagona Vatan shiori asosida umr kechirayotgan 136 millat vakillarining tinch-totuvlikda emin-erkin yashashi uchun muhim qadamdir.

3. Dinning davlatdan ajratilganligi. O‘zbekistonda din va davlat bir-biridan ajratilgan. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi, biroq ularning qonun doirasida harakat qilishini nazorat qiladi, ularning o‘z faoliyatlarini qonun doirasida rivojlantirishlari uchun sharoitlar yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, Inson huquqlar umumjahon deklaratsiyasining(1948), 18-moddasi[5] (Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. bu huquq o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zgartirish erkinligini va ta’limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o‘z dini yoki e’tiqodiga yakka o‘zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o‘z ichiga oladi) va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning(1966-yil) 18-moddasi, 2-bandida[6] (Hech kim o‘z tanloviga binoan din yoki e’tiqodga ega bo‘lish yoki uni qabul qilish erkinligini buzuvchi majburlovga duchor etilmasligi kerak) jam bo‘lgan, umuminsoniy, purviqor tamoyillarga tayanilganining yorqin isbotidir.

Yurtimizda diniy ta’lim va davlat ta’lim tizimi ham alohida yuritiladi. Oliy ta’lim muassasalarida diniy fanlar mustaqil yo‘nalish sifatida o‘qitilmasa-da, ijtimoiy va huquqiy kontekstda dinshunoslik fanlari o‘rgatiladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 4 ta oliy islom ta’lim muassasasi, 10 ta o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi, jumladan, 2 ta ayollar madrasasi, shuningdek pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Dunyoviy va diniy bilimlarni uyg‘unlashtirish, diniy sohada kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning yagona tizimini shakllantirish maqsadida 2018-yilda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi.

4. Tenglik. Barcha diniy tashkilotlar qonun oldida tengdir. Hech bir diniy guruh boshqalaridan ustun yoki zaif deb qaralmaydi. Konsepsiyada aks

etgan tenglik prinsipi jamiyatda diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Zero inson boshqalarning qadriyatlari va O‘ziga xosligini bilmasdan, tushunib yetmasdan turib ularga murosasiz munosabat bildirishi mumkin emas[7]. Bugun ko‘plab madaniy meros obyektlari, jumladan masjidlar, cherkov binolari diniy tashkilotlarga foydalanish uchun berilgan bo‘lib, u yerda fuqarolar diniy marosimlarni emin-erkin ado etib kelmoqda. Turli diniy konfessiya vakillari diniy bayramlarni erkin o‘tkazmoqda. Shuningdek ziyorat turizmini sifatli tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. O‘zbekiston uchun haj kvotasi 3 barobar oshirildi, umra ziyoratiga kvotalar to‘liq bekor qilindi. Natijada Saudiya Arabistoniga qariyb 800 ming musulmonlar haj va umra ziyoratini amalga oshirish uchun bordi. Shuningdek 10 mingdan ziyod xristianlar, yahudiylar, baxoiylar, krishnaviylar, buddaviylar Rossiya, Turkiya, Italiya, Armaniston, Isroil, Hindiston, Koreya Respublikasi, Gruziya va Gretsiyadagi diniy ziyoratgohlarga tashrif buyurishdi.

Shu jihatdan, turli diniy va konfessiyaviy guruhlarning qoidalari, o‘ziga xos jihatlarini bilish, ularning qadriyatlar tizimini o‘zaro idrok etish va o‘zaro hurmat qilish orqali jamiyatlarda diniy bag‘rikenglikni joriy etish va ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu vaziyatdagina jamiyatda dinlararo bag‘rikenglik, ijtimoiy birdamlik va o‘zaro hamjihatlik tamoyillari qaror topadi. Jamiyatda dunyoviylik prinsipi barqarorlashuvining yana bir muhim jihati esa, barcha diniy konfessiya vakillari mamlakatda yaratilgan qonunchilikdan xabardor bo‘lishlari, o‘z huquq va manfaatlarini anglash bilan birga o‘zlariga yuklatilgan vazifalar, majburiyatlarni to‘la anglab etishlari ham muhim ahamiyat kasb yetadi. Bundan tashqari, tenglik prinsipiga muvofiq fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida teng bo‘lib, bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘ladi. Fuqarolarga biror-bir dinga e’tiqod qilishi yoki e’tiqod qilmasligidan kelib chiqib imtiyozlar berishga yoki ulardan mahrum qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Qonunlar diniy e’tiqodidan yoki biror-bir dinga e’tiqod qilmasligidan qat’i nazar, barcha fuqarolarga nisbatan bir xilda qo‘llaniladi.

5. Erkin fikrlash. Diniy erkinlik faqat e’tiqod qilish yoki qilmaslik bilan cheklanmay, balki insonlarning diniy masalalarda mustaqil fikrlash huquqini ham o‘z ichiga oladi. Bu prinsip ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy hayotda erkin fikrlashga zamin hozirlaydi[8]. Xususan, bugun mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub 2 300 dan ortiq diniy tashkilot erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat tomonidan 7 tilda ta’lim olish imkoniyati yaratilganligi, 12 tilda teleradiodasturlar efirga uzatilayotganligi, 14 tilda gazeta va jurnallar chop etilayotganligi, 155 ta milliy madaniy markaz erkin faoliyat yuritayotganligi millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik muhitining amaldagi namunasi hisoblanadi.

6. Dinlararo muloqot va o‘zaro tushunish. O‘zbekiston turli din vakillari o‘rtasida muloqot va hamkorlikni rag‘batlantiradi. Bu yondashuv diniy nizolarni oldini olish va millatlararo totuvlikni mustahkamlash uchun zarur. Yurtimizda turli din vakillarini birlashtiruvchi anjuman va tadbirlar muntazam o‘tkazilib

kelinmoqda. Konsepsiyaning 4-bob, 17-18-bandlariga ko‘ra, davlat organlarining diniy tashkilotlar bilan o‘zaro aloqasi va hamkorligini vakolatli davlat organi orqali muvofiqlashtirish, konfessiyalararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashda davlat organlari, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ziyorat turizmi, boshqa diniy rasm-rusumlar va marosimlarni xavfsiz o‘tkazishni ta’minlash masalalari bo‘yicha fuqarolar, diniy tashkilotlar va davlat organlarining hamkorligini ta’minlash, davlat ro‘yxatidan o‘tgan diniy ta’lim muassasalarida diniy tashkilotlar uchun yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga ko‘maklashish, dinlarning ilmiy-madaniy merosini o‘rganish, xorijiy va mahalliy olimlar, diniy konfessiyalar bo‘yicha malakali ekspertlar ishtirokida diniy sohadagi dolzarb muammolarni o‘rganishga oid ilmiy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish, ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan radikallashuvga, ekstremizmga va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro, mintaqaviy va milliy miqyosda ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutilgani ham fikrimizga dalil bo‘la oladi. Ayniqsa, tashkilotlardagi “Dinlararo bag‘rikenglik haftaligi” kabi tashabbuslar diniy tushunmovchiliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “dunyoviylik – daxriylik emas” shiori ostidagi siyosati xalqimizning diniy erkinligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, kelgusida ham bu prinsiplarni yanada takomillashtirish, xalqaro tajribani o‘rganish va diniy erkinlikni yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bugun dunyoda kechayotgan murosasizliklarning asosiy qismi diniy radikal guruhlar hissasiga to‘g‘ri kelishini hisobga oladigan bo‘lsak, O‘bekistonda yashaydigan turli din vakillariga yurtimizning dunyoviy davlat sifatidagi hayotida dunyoviylik diniy e’tiqod uchun hech qanday to‘siq vazifasini bajarmasligini aksincha, dunyoviylik barcha dinlar uchun teng imkoniyat berishini amalda ko‘rsatib berilganligi ham konsepsiyaning konstruktiv ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekistonning diniy sohani tartibga soluvchi yangi konsepsiyasi doirasida amalga oshirilajak mushtarak vazifalar jamiyatimiz a’zolarining diniy va dunyoviy tafakkurini oshirish, yurtimiz tinchligi va barqarorligini ta’minlashga sezilarli darajada xizmat qilishi barobarida, mamlakat ichkarisi va xalqaro maydonda turli radikal-ekstremistik tahdidlarni bartaraf yetishning ham imkonini beradi. Zero, taraqqiyotga erishgan va erishishni istagan mamlakatlar aynan dunyoviylik prinsipi asosida yashamog‘i va yashnamog‘i mumkinligi kundek ravshan bo‘lib bormoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi” https://lex.uz/docs/-7404923

2. O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 35-modda https://lex.uz/docs/-6445145

3. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Vijdon erkinligi va

diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunining 14-24-moddalari https://lex.uz/docs/-5491534

4. United Nations Human rights office of the High Comissioner https://www.ohchr.org/en/faith-for-rights/faith4rights-toolkit/module-1-freedom-conscience

5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 18-modda https://constitution.uz/oz/pages/humanrights

6. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, 18-modda https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights

7. Britaniya eksiklopedik lug‘ati https://www.britannica.com/topic/equal-opportunity

8. https://www.coe.int/en/web/freedom-expression/freedom-of-expression-and-information

Muhammadali Ubaydullayev,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Namangan viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN IJTIMOIY VA MA’NAVIY ISLOHOTLARNING ZAMONAVIY JAMIYAT QADRIYATLARI EVOLYUTSIYASIGA TA’SIRI

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning zamonaviy jamiyatda qadriyatlar evolyutsiyasiga ta’siri tahlil qilingan. Maqola doirasida islohotlarning asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, yoshlarning roli, axborot texnologiyalarining ta’siri va globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash kabi qadriyatlar evolyutsiyasining asosiy jihatlari ko‘rib chiqilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the impact of ongoing social and spiritual reforms in Uzbekistan on the evolution of values in modern society. Within the scope of the article, the main directions of the reforms are examined, as well as key aspects of the evolution of values such as the harmony between national and universal values, the role of youth, the influence of information technologies, and the preservation of national identity in the context of globalization.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *ijtimoiy islohotlar, ma’naviy islohotlar, qadriyatlar evolyutsiyasi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, yoshlar, axborot texnologiyalari, globallashuv.*

♦ ***Keywords:*** *social reforms, spiritual reforms, evolution of values, national values, universal values, youth, information technologies, globalization.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatda ijtimoiy va ma’naviy sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda, barqaror rivojlanishga erishishdir. Zamonaviy jamiyatda qadriyatlarning evolyutsiyasi jarayonida ushbu islohotlarning rolini tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekistondagi ijtimoiy va ma’naviy islohotlarni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tavsiflashimiz mumkin. Xususan, milliy o‘zlikni anglash (O‘zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosini tiklash va rivojlantirish, yosh avlodni milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy an’analar va urf-odatlarni saqlash va rivojlantirish), ma’naviy-axloqiy tarbiya (yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish, jamiyatda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik kabi insoniy fazilatlarni targ‘ib qilish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash), ijtimoiy himoya (aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish va aholining turmush darajasini oshirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish), ilm-fan va ta’lim (zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ilmiy-tadqiqot muassasalarini qo‘llab-quvvatlash), madaniyat va san’at (milliy madaniyat va san’atni rivojlantirish, madaniy meros obyektlarini asrash va tiklash, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash) yo‘nalishlaridagi ijtimoiy-ma’naviy islohotlar jamiyatdagi qadriyatlar shakllanishining asosini tashkil etmoqda.

O‘zbekistondagi qadriyatlar evolyutsiyasi jarayoni murakkab va ko‘p qirralidir. U milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi, yoshlarning rolining oshishi, axborot texnologiyalarining ta’siri va globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash kabi bir qator omillar ta’sirida kechmoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyati davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining hamkorligiga bog‘liqdir.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bir rivojlanish bosqichidan boshqasiga o‘tilganida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy sohalarda o‘zgarish bo‘lgani singari, qadriyatlar sohasida ham o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bunda aslo barcha qadriyatlar yo‘qotib ketmaydi, balki yangi davrning ijtimoiy tizilishiga va zamona realliklarining talablariga mos keladigan, eskidan farq qiladigan yangi qadriyatlar tizimi shakllanadi [3, 59 b.].

O‘zbekiston o‘z milliy madaniyati va an’analarini saqlab qolish bilan birga zamonaviy dunyoga integratsiyalashayotganini ijobiy baholash lozim.

Ammo, shu bilan birga, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, soxta qadriyatlarning tarqalishi, yoshlarning bandligi va ma’naviy tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar, raqamli tengsizlik va kiberxavfsizlik masalalari, milliy til va madaniyatni rivojlantirishdagi qiyinchiliklar kabi muammo va kamchiliklar ham mavjud[4,112 b.].

Hozirda avlodlar to‘qnashuvi masalasi har doimgidanda jiddiy ko‘rinish olmoqda. Buning sababi, bir avlod boshqasini almashtirayotgani bilan emas, an’anaviy davr o‘rniga raqamli davr va raqamli avlodning yuzaga kelayotgani bilan izohlanmoqda.

Ayni paytda, o‘rta va keksa avlod ham o‘zlari qanday fikrlasalar, hayotlarida nimani qadriyat deb qabul qilgan bo‘lsalar, yangiliklar bilan hisoblashmasdan, ularni yoshlarning zo‘rma-zo‘raki qabul qilishiga urinishlari, yoshlarning ong va tafakkuridagi yangicha g‘oya va tushunchalarni qabul qilmaslik, uni inkor etish bilan bog‘liq ayrim holatlar ham avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Zamondosh sifatida o‘rta va keksa avlod ham hayotiy qarashlarida yoshlar ongi va tafakkuridagi o‘zgarishlar, ular hayotida amal qilayotgan yangi g‘oya va tushunchalarga ijodiy qarashlari, zamon va uning istiqboli nuqtayi nazaridan baholashlari kerak[2, 8 b.].

Bugun globallashuv sharoitda dunyo mamlakatlarining aksariyatida diniy-e’tiqodiy qarashlar, qadriyatlar tizimi borasidagi muammolarning mavjudligi avlodlar qarama-qarshiligining keskinlashuviga, buning jamiyat hayotida yaqqol aks etishiga olib kelmoqda.

Misol uchun, Koreyada har 10 kishidan 4 tasi mehnat faoliyatida avlodlar qarama-qarshiligi kuchayib borayotganini ifodalamoqdalar. Ular Z avlodi va keksa avlod o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar mavjudligini bildirmoqdalar.

Hindistonda mamlakat ekspertlari “mamlakatda ikkita Hindiston bor: biri – uyatchan, tobe va sotsialist bo‘lib o‘sgan keksa avlod Hindistoni; ikkinchisi – yirtiq jinsi kiyib, “kola” ichadiganlarning kapitalist Hindistoni” – deb, hisoblaydilar[6].

Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, madaniy almashinuvlarni rivojlantirish, yoshlarning bandligini ta’minlash va ma’naviy tarbiyasini kuchaytirish, raqamli tengsizlikni bartaraf etish va kiberxavfsizlikni ta’minlash, tilni rivojlantirish va milliy madaniyatni qo‘llab-quvvatlash kabi yechimlarni amalga oshirish zarur[1, 45-56 b.].

Mamlakatda milliy madaniy meros obyektlarini asrash va tiklash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim sifatini oshirish va yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish kabi chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. O‘zbekistondagi qadriyatlar evolyutsiyasi jarayoni bir qator muhim misollar va faktlarda o‘z aksini topmoqda.

Birinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan moddiy madaniy meros obyektlari sonining ortishi (Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar), milliy festivallar va bayramlarning keng nishonlanishi (Navro‘z, Mustaqillik kuni va boshqalar) hamda xalqaro hamkorlikning kuchayishi buning dalilidir.

Ikkinchidan, yoshlarning rolining oshishi sezilarlidir. Ta’lim sohasidagi islohotlar, jumladan, Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi, oliy ta’lim qamrovining kengayishi, “Bir million dasturchi” loyihasi va IT sohasiga alohida e’tibor qaratilishi bunga misol

bo‘la oladi[5, 6-8 b.].

Uchinchidan, axborot texnologiyalarining ta’siri kuchaymoqda. Internet va mobil aloqaning keng tarqalishi, raqamli xizmatlarning rivojlanishi, jumladan, davlat xizmatlarining elektron shaklga o‘tkazilishi, elektron tijorat va onlayn platformalarning rivojlanishi buning yorqin misollaridir.

To‘rtinchidan, globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Milliy madaniyat va an’analarni rivojlantirish, milliy adabiyot va san’atni rivojlantirish, tilni rivojlantirish kabi chora-tadbirlar buning tasdig‘idir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va ma’naviy islohotlar jamiyat qadriyatlari evalyutsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Islohotlar natijasida jamiyatda demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat tamoyillari tobora mustahkamlanib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning barqaror rivojlanishi, fuqarolarning farovonligi va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev I. O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy islohotlarning o‘ziga xos xususiyatlari // Ijtimoiy fanlar jurnali. – 2022. – № 3. – B. 45-56.

2. Daniyarov B.X., Rahimov A.E., Jabborov F.H. Axborot asrida ta’lim-tarbiya. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 8 b.

3. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 59 b.

4. Rasulov T. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning qadriyatlarga ta’siri // Iqtisodiyot va jamiyat jurnali. – 2017. – № 6. – B. 112–123.

5. Xudoyqulov X.X., Xolov O.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Termiz, 2020. – B. 6-8.

6. https://ziyouz.uz/ajoyibotlar/indiston-yoshlari-kecha-va-bugun/ (murojaat sanasi: 23.03.2025).

Dilorom Xaydarova,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY VA MA’NAVIY ISLOHOTLARNING JADID ISLOHOTLARI BILAN UYG‘UNLASHUVI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning jadid islohotlari davrida yuz bergan ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlar, ularning ijobiy va salbiy tomonlari, jadidlarning erkinlik, ma’rifat,*

ijtimoiy adolat va taraqqiyot g‘oyalarini globallashuv sharoitida qadriyatlar milliy ongni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi chuqur tahlil qilinadi.

♦ ***Abstract:*** *This article provides an in-depth analysis of the social and spiritual transformations taking place in New Uzbekistan, drawing parallels with the changes that occurred during the Jadid reform period. It examines both the positive and negative aspects of these reforms and highlights the significance of the Jadids' ideas of freedom, enlightenment, social justice, and progress in strengthening national consciousness and values in the context of globalization.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *jadidizm, jadidizm g‘oyalari, globallashuv, modernizatsiya, ijtimoiy ong, demokratik yondashuvlar, qadryatlar.*

♦ ***Keywords:*** *jadidism, jadid ideas, globalization, modernization, social consciousness, democratic approaches, values.*

Globallashuv sharoitida qadriyatlar milliy ongni mustahkamlash jaded isohotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidizmning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini yangi O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasida uyg‘unlashtirish zamonaviy tadqiqotchilar va jamoatchilik e’tiborini tortadigan dolzarb mavzudir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo‘lgan jadidizm jamiyatni, ayniqsa ta’lim va madaniyat sohasida yangilash va modernizatsiya qilish harakati edi. Uning g‘oyalari an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilish, o‘qitishning yangi usullarini joriy etish va dunyoviy fanlarni rivojlantirishga qaratilgan.

- ta’lim *sohasidagi* islohotlari [1], jadidlar yangi o‘qitish usullari va yangilangan o‘quv dasturlarini joriy etish orqali ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga intildilar. Ular dunyoviy fanlarni o‘rganish va tanqidiy fikrlash muhimligini ta’kidladilar. Yangi O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasi doirasida ushbu g‘oyalar ta’lim sifatini oshirish va innovatsion usullarni birlashtirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim islohotlarida o‘z aksini topmoqda. Bu sohada quyidagi fikrlarni havola qilamiz: “*Jadidizmning* O‘zbekiston tarixiga *qo‘shgan* hissasini inobatga *olish mumkin e*mas, chunki u mamlakat ta’lim tizimidagi keyingi o‘zgarishlarga sezilarli ta’sir va uning madaniy landshaftini shakllantirish”[2].

Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasini isloh qilishda o‘rta Osiyo jadidlari g‘oyalarining rolini tahliliy-qiyosiy tahlil qilishga jadidchilik O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan islohot harakatini asos qilib olamiz. U ijtimoiy o‘zgarishlarning keng doirasini qamrab oldi, ammo ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratildi. Jadidlar eskirgan an’anaviy ta’lim tizimini yangilashga va o‘qitishning yangi usullarini joriy etishga intildilar. Bugungi kunda yangi O‘zbekistonning strategik rivojlanishi sharoitida jadid g‘oyalari ta’lim tizimini isloh qilishda o‘z aksini topmoqda;

birinchidan, ta’lim islohotlarida jadidlarning tarixiy roli. Jadidlardan

oldin O‘rta Osiyoda an’anaviy ta’lim tizimi an’anaviy madrasa va maktablarga asoslangan bo‘lib, u yerda asosiy e’tibor diniy matnlarni o‘rganish, arab tili grammatikasi va xattotlikka qaratilgan edi. Bunday ta’lim muassasalari zamonaviy jamiyatga integratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni ta’minlamadi. Jadidlarning ta’lim islohotlariga qo‘shgan hissasi “usul-i-jadid”ni (o‘qitishning yangi usuli) joriy etishdi, unga quyidagilar kiradi, ilmiy fanlarni o‘z ichiga olgan zamonaviy darsliklardan foydalanish;

ikkinchidan, dunyoviy fanlarning kiritilishi. Matematika, geografiya, tarix. Mantiq va tahlil usullaridan foydalangan holda ona tilida o‘qitish. Ismoil Gasprali[1]harakatning asoschilaridan biri bo‘lib, ta’limni yangilash zarurligini ta’kidlagan. Mahmudxo‘ja Behbudiy [2] va Abdulla Avloniy [3] o‘quv qo‘llanmalarini yaratdilar va ta’lim tizimini isloh qilishni yoqladilar;

uchinchidan, O‘zbekistonda zamonaviy ta’lim islohoti va uning jadidizm bilan aloqasi bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim sohasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda, ularning aksariyati jadid g‘oyalarini aks ettiradi;

to‘rtinchidan, yangi texnologiyalar va o‘qitish usullarini joriy etish O‘zbekistonning zamonaviy ta’lim tizimida jadid tamoyillariga mos keladigan interaktiv o‘qitish usullariga o‘tish kuzatilmoqda. Ta’limni raqamlashtirish - elektron darsliklar, onlayn kurslar va masofaviy ta’lim yaratish;

beshinchidan, dunyoviy ta’limni rivojlantirish Jadidlar singari, bugungi islohotchilar ham dunyoviy ta’limga e’tibor qaratmoqdalar. Jadidlarning asosiy vazifasi bo‘lgan fan va texnologiyalarni o‘qitishni kuchaytirish;

oltinchidan, xorijiy tillarni o‘qitish va zamonaviy kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlash jadidlar dunyo bilimlaridan foydalanish uchun chet tillarini o‘rganish zarurligini ta’kidladilar. Bugungi kunda O‘zbekistonda ingliz tilida o‘quv dasturlari, shu jumladan universitet kurslari faol rivojlanmoqda. Yetakchi xorijiy OTMlari bilan almashinuv va sheriklik dasturlari, shuningdek, jadidlarning global ta’lim makoniga qo‘shilishning ahamiyati haqidagi g‘oyalarini aks ettiradi;

yettinchidan, ta’limdagi gender tengligini kafolatlash. Jadidlar XX asr boshlarida inqilobiy yondashuv deb hisoblangan ayollarning ta’limi uchun kurashdilar. Bugungi kunda O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim sohasida ayollarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Gasprinskiy g‘oyalarining yangi O‘zbekistondagi islohotlar uchun dolzarbligi O‘zbekistondagi bugungi islohotlar kursi asosan Gasprinskiy g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Ta’limni rivojlantirish va o‘qitish usullarini modernizatsiya qilish. Interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, yangi o‘quv dasturlarini joriy etish davom etmoqda, bu jadidning “usul-i-jadid” konsepsiyasiga mos keladi. Jahon ilm-faniga qo‘shilish uchun chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o‘rganishga e’tibor qaratilmoqda.

Milliy o‘zlikni anglashni qo‘llab-quvvatlash. Gasprinskiyning “Tildagi birlik, fikrlar va ishlar” g‘oyasi ruhida milliy o‘ziga xoslikni

mustahkamlash, madaniy merosni saqlash va turkiyzabon dunyoni rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Matbuot va axborotning ochiqligi roli. Ijtimoiy muloqot va jamiyatni modernizatsiya qilish vositasi sifatida mustaqil ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

Gender tengligi va ayollarning jamiyatdagi roli. O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini, shu jumladan ta’lim va ilm-fanni kengaytirish bo‘yicha faol siyosat olib borilmoqda, bu esa Gasprinskiyning e’tiqodlariga mos keladi.

Jadid islohotlarining asosiy yo‘nalishlariga:

ta’lim, an’anaviy maktablardan Yevropa pedagogik usullariga asoslangan yangi maktablarga o‘tish (Abdulla Avloniy, Ismoil Gasprinskiy);

gender islohotlari, ayollar ta’limini rivojlantirish va ularning jamiyatdagi rolini kengaytirish;

milliy *identiklik(o‘ziga* xoslikni anglash)da, yagona turkiy va musulmonlik doirasida o‘zini o‘zi anglashni shakllantirish, mustamlaka qaramligiga qarshi kurash;
iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy munosabatlarni modernizatsiya qilish. Jadidlar islohotlarni an’analarni yo‘q qilish emas, balki ularni zamon muammolariga moslashtirish usuli sifatida ko‘rib chiqdilar, bu esa O‘zbekistondagi zamonaviy islohotlarni eslatadi.

Tahlillarimizga asoslanib, ushbu o‘xshashliklar shuni ko‘rsatadiki, jadid islohotlari zamonaviy islohotlarning o‘ziga xos kashshofi bo‘lgan, ammo bugungi modernizatsiya ko‘proq global jarayonlar va xalqaro standartlarga asoslanadi.

Jadidchilik harakati o‘z davrida millatning ma’rifiy va siyosiy uyg‘onishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida ushbu g‘oyalar yanada rivojlanib, davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Jadidchilik faqat tarixiy hodisa emas, balki ijtimoiy ong, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyot falsafasi sifatida bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ushbu g‘oyalarni zamonaviy O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish jarayonida ta’lim, madaniyat, fuqarolik jamiyati, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi kabi muhim sohalarda yangi tamoyillar shakllanmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Феруза Усарова, Ранохон Турсунова. Образовательная реформа джадидов и их опыт в коренном реформировании образования в новом Узбекистане. // Материалы V традиционной международной научно-практической онлайн-конференции проведённой 14-15 июня, 2024 года на тему: “Инноватций в системе образования: новые горизонты для молодежи в науке, технологиях и бизнесе”. - С. 39-45.

2. Пулатов К.А. Философский анализ движения джадидизма в Туркистане и её роль в истории Узбекистана. // Межд/-й научный журнал № 17 (100), часть 1 “Научный импульс” Января , 2024. - С. 502-506.

3. Исмаил Гаспринский и Туркестан. Сборник статей. - Ташкент: Шарк, 2005. - С. 230.

4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999. - S.18-19, 146-150.

5. Фитрат А. Рассказы индийского путешественника / Звезда Востока, 1990, №7. - С. 134.

A. A. Abdumatov,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
I. B. To'ychiboyev,
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

NAVRO'Z BAYRAMI UDUMLARI VA HOZIRGI ZAMON

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada Navro'z va u bilan bog'liq ko'plab xalq udumlari, ularning kelib chiqishi va mohiyati "Alpomish" dostoni misolida ochib berishga harakat qilingan.*

♦ ***Abstract:*** *This article explores Navruz and the numerous folk traditions associated with it, their origins and significance, using the epic Alpomish as an illustrative example.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *Navro'z, yilboshi, Old Osiyo, Siypantosh, Saymalitosh, otashparastlar, Siyovush, Asha (Asha – ezgulik), Vaxishata.*

♦ ***Keywords:*** *Navruz, New Year, Ancient Near East, Siypantosh, Saymalitosh, fire worshippers, Siyavush, Asha (Asha – goodness), Vakhishata.*

Navro'z – Yaqin Sharq hamda Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi bayramlaridan biri hisoblanib, u qariyb 4000 ming yillik tarixga ega. Uning ildizlari, dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligining shakllanishi bilan bahorgi tengkunlik an'analari sifatida miloddan avvalgi 10 ming yillikda Old Osiyoda, miloddan avvalgi 6-7 ming yilliklarda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan [7.; 3. B. 3-7; 4. B. 14-23]. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish jarayonida ziroatchi va chorvadorlar tabiat qonuniyatinini, xususan, quyosh faoliyatini o'rganishlari asosida ajdodlarimiz tomonidan ilk taqvimlar, bahorgi va kuzgi teng kunliklar aniqlangan. Bu kun turkiyda yilboshi, forsiyda Navro'z deb nomlangan. Xo'sh, bu qadimiy bayram haqida nimalarni bilamiz? Uning mohiyati nimalardan iborat?

Bugungi kunda Navro'z – Yilboshi o'ttizdan oshiq mamlakatlarda, bir necha dinlarga e'tiqod etuvchi xalqlar tomonidan bayram qilinadi, o'ndan ortiq davlatlarda Navro'z rasmiy bayram maqomida nishonlanadi. 2009 yili YUNESKO Navro'zni insoniyatning nomoddiy merosi ro'yxatiga kiritdi,

2010-yili esa BMT 21 martni xalqaro Navro‘z kuni deb e’lon qilgan [12]. Xalqimiz necha ming yilliklardan beri har ko‘klamda dala-dashtlarga, tog‘u toshlarga chiqib, yorug‘lik va ezgulikning g‘alabasi, yangilanish va yasharish pallasi, tenglik va bag‘rikenglik bayramini nishonlaydi. Tarixiy manbalarda, jumladan Beruniy [6], Narshaxiy [2], Firdavsiy [1], Umar Xayom [8] va boshqalarning asarlarida qadimiy bayram, Navro‘z haqida qiziqarli ma’lumotlar beriladi.

Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida yozishicha, Navro‘z bayrami go‘yo Eron hukmdorining o‘g‘li, Turon hukmdori Afrosiyobning kuyovi Siyovushni xotirasini eslash maqsadida paydo bo‘lganmish. Manbada berilishicha, “Siyovushga atab Buxoro otashparastlari har yili uning qabriga xo‘roz so‘yishgan, unga atab marsiyalar aytishgan. Shu voqeaga 3000 ming bo‘ldi deb yozadi Narshaxiy. Narshaxiy yashagan davrdan keyin esa yana ming yil o‘tdi”[2]. Shu ma’noda Navro‘z 4000 yillik tarixga ega.

Beruniy Navro‘zni Eron shohi Jamshid bilan bog‘laydi. Bunday fikr Firdavsiy va Umar Xaymda ham bor. Beruniy rivoyatlaridan birida aytilishicha, “Sulaymoi ibn Dovud uzugini yo‘qotgach, podshohligi qo‘ldan ketdi. So‘ngra qirq kundan keyin uzugi o‘ziga qaytarilib, ravnaqi ham qaytib keldi. Podshohlar uning xuzuriga keladilar, shunda eronliklar “Navro‘z omad”, ya’ni “Yangi kun keldi” dedilar”. Natijada shu kun “Navro‘z” deb atalgan ekan. Boshqa o‘rinda Beruniy: “Navro‘z farishtalar ulug‘lagan kundir, chunki ular shu kunda yaratilganlar, uni payg‘ambarlar ham ulug‘ tutganlar, chunki Quyosh bu kunda yaratilgan va uni podshohlar ham ulug‘lagan chunki zam-nning birinchi kunidir”, deb qayd etadi. Meri Boys ma’lumoticha Navro‘z bayramini paydo bo‘lishi zardushtiylik bilan bog‘liqdir.

Zardusht yaratgan 7 mo‘jizaga (-uv, tuproq, havo, olov, o‘simlik, sigir va odam) mos ravishda 7 ta bayram joriy qilingan. Shundan olov va ezgulik homiysi Asha (Asha – ezgulik) – Vaxishata sharafiga bag‘ishlangan bayram Navro‘zdir [11].

Sharqona yangi yil – Navro‘z to‘g‘risida gap ketar ekan, uning ildizlari Beruniy, Firdavsiylardan ham qadimiy ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Inson ongli mavjudot o‘laroq vaqtni – kun, oy va yilni qachondan anglay boshlagan? Arxeologik, jumladan qoyatosh suratlar ham qadimgi ajdodlarimizning ilk taqvimlar haqida ma’lumotlar beradi. Masalan, mezolit davriga oid Siypantosh (Hisor tog‘ tizmasi, Qashqadaryo) petroglif yodgorligida, ibtidoiy munajjimlar tomonidan tushirilgan 28-30 kunni ko‘rsatuvchi belgilari aniqlangan. Bu rasmlar qadimgi odamlar Yer sayyorasi yo‘ldoshi Oyning harakatini kuzatganliklari va har oyning o‘ttiz sutkaga ajratganliklaridan dalolat beradi. Yana bir petroglif yodgorligi, Saymalitosh (Farg‘ona tog‘ tizmasi, Qirg‘iziston) manzilidagi, besh ming yillik chizmalarda, o‘n ikki nurli quyosh ma’budi va omoch tortayotgan qo‘sh ho‘kiz tasvirlangani bu davrga kelib ajdodlarimiz vaqt o‘lchov birligi sifatida yilni ham kashf qilganini bildiradi. Ushbu manzarani Yilboshi – Navro‘zning bugungacha ajralmas qismi bo‘lib kelayotgan qo‘sh haydash marosimi aks etgan dastlabki suratlardan deyish mumkin.

Qadimgi odamlar yilni yoz va qishga ajratgan, ikki fasl doimo o‘zaro

raqobatda yashashiga ishonilgan. Navro‘zda qahraton mag‘lub bo‘lgan. Mehrjonda esa jaziramaning kuchi kesilgan. 21-dekabrda tunning qudrati zavolga yetgan. 22-iyunda esa kunning quvvati avjiga chiqqan. Yorug‘lik ham, qorong‘ilik ham kamoldan so‘ng darhol zavolga ketgan. Markaziy Osiyo xalqlari yashab turgan hududi iqlimiga qarab yilning muhim to‘rt sanasidan birida o‘tkaziladigan bayramlarga ko‘proq e’tibor qaratganlar. Bularning ichida eng mashhuri – bahorgi tengkunlik bo‘lib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqlim shuni taqozo etgan. Ya’ni qahraton qahridan qutulgan xalq ko‘klam nafasidan ruhi yayrab, yangi mehnat mavsumini boshlagan. Qishda qishloqda qisilib yashagan odamlar maxsus marosimlar o‘tkazib, zulmat yukidan xalos bo‘lishgan. Keyin yozda yoyilib yayrash maqsadida yozloq (yayloq, yaylov)ga, dala-bog‘larga ko‘chishgan. Kuzda esa xirmon ko‘tarilib, hosil bayrami nishonlangan. Ayozli kunlarga tayyorgarlik ko‘rilgan. Bularning barchasi ko‘hna mifologik tafakkurdan ildiz olgan irim-sirimlar, urf-odatlarga omixta kechgan.

Xalqimiz ma’naviy hayotida Navruz bilan bog‘liq ko‘plab udumlar asrlar osha yashab kelmoqda. Bularni biz kundalik hayotimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

✓ Navro‘zda – tevarak atrof tozalanib, obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan,

✓ bahorgi teng kunlikda tug‘ilan farzandlarga Navro‘z ismi qo‘yilgan,

✓ Navro‘zda yil davomida xafalashgan odamlar yarashgan,

✓ Navro‘z bayrami nishonlanishi arafasida marhumlar yo‘qlangan, ruxlari xotirlangan,

✓ Navro‘zda aybdorlar avf etilgan,

✓ Navro‘zda urushlar to‘xtatilgan.

✓ Navro‘z saylida odamlar olovdan xatlashib poklanishgan.

✓ Navro‘zda bug‘doy maysasi undirilgan.

✓ Navro‘zda sumalak pishirilgan.

✓ Navro‘zda go‘ja (7 xil dondan: jo‘xori, bug‘doy, arpa, tariq, guruch, loviya va mosh) pishiriladi.

✓ navro‘z dasturxoniga 7 xil daraxt: majnuntol, zaytun, behi, anor, bodom, pista, yong‘oq mevalari tortilgan.

✓ Navro‘zda lola sayllari o‘tkazilgan.

✓ Navro‘zda sust xotin, suv xotin udumlari o‘tqazilgan.

✓ Navro‘zda “Qo‘sh oshi”, “Chigit qadash” amallari bajarilgan.

✓ Navro‘z sayllarida xalinchak (xalganchak) uchilgan, varraklar uchirilgan va shu kabi yana ko‘plab qadimiy udumlar amalga oshirilgan.

Xalqimizning qadimiy bayrami bo‘lgan Navro‘z o‘z tarixi davomida qiyin davrlarni ham o‘z boshidan o‘tqazdi. Masalan, XX asr 80-yillarining o‘rtalarida mustabid sovet tuzimi tomonidan Navro‘zni bayram sifatida nishonlashga qarshilik qilindi. 1985 – 1987-yillarda Navro‘z bayrami deyarli nishonlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Navro‘zni o‘rniga Navbahor deb nomlangan sun’iy bayram yaratishga harakat qilindi. 1989-yil O‘zbekistonda Navro‘z qayta tiklandi. 1991-yil 12-fevralda

“Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish haqida”gi Farmoni asosan Respublikamizda Navro‘z bayrami rasman bayram va dam olish kuni deb belgilangandi. Mustaqillik milliy qadriyatlarimizni saqlab qolinishida katta imkoniyat yaratdi. Mustaqillik sharofati bilan ma’naviy qadriyatlarimizning sarasi bo‘lmish Navro‘zni umumxalq bayrami sifatida nishonlanish imkoniyati, xalqimizga katta ruhiy kuch bag‘ishladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012. – 188 b.

2. Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent: Kamalak, 1995, 130 b.

3. Alibekov U. Navro‘zi olam kechmishidan // Fan va turmush. 1993. №3-4. B.Z;

4. Alibekov U. Istiqlol va Navro‘z. / Mustaqillikning yetti Navro‘zi - istiqlolning oydin yo‘li. Ma’ruzalar to‘plami. - T.:Sharq, 1999. 14-23 b.

5. Bahor bayramlari. Navro‘z hikmatlari. Navro‘z dasturxoni. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1994.

6. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. -Tanlangan asarlar.- T.:Fan, 1968. 250 b.

7. Снэсарев Г.П. Реликти домусульманских вэрований и обрядов у узбеков Хорезма. - М.:Наука. 1969.

8. Umar Xayyom. Navro‘znoma. -T.: Mehnat, 1990.

9. Navro‘z. (Navro‘z bilan bog‘liq qo‘shiqlar. Afsonalar, odatlar va irimlar). -T.: Fan, 1992.

10. Madayev O. Navro‘z – yangilanish va ezgulik timsoli. “Postda”. 07.03.15. №10. 10-bet.

11. Мэри Бойс. Зороастрийцы. Вэрования и обычаи. – М.: Главная редакция восточной литэратуры издательства Наука, 1987.

12. Jabborov F. Ma’naviy hayot, 2022-yil, 1-son.

Sevara Tursunova,
Asian University of Technologies,
assistant lecturer, PhD student

INTEGRATION OF VALUES AND COGNITIVE MODELING IN MODERN SOCIETY

♦ ***Abstract:*** *This article talks about the need to correct teaching methods in the school’s educational system. In particular, it is proposed to use the research method of learning information. The effectiveness of the proposed training option is explained by the peculiarities of the functioning of the human brain.*

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada maktab ta'lim tizimidagi o'qitish usullarini to'g'rilash zaruriyati, ayniqsa, ma'lumotlarni tadqiq qilish usulini qo'llash taklif qilingan. Taklif etilgan o'qitish usulining samaradorligi inson miyasining faoliyati xususiyatlari bilan izohlangan.*

♦ ***Keywords:*** *children's thinking, cognitive educational technologies, schoolchildren, research teaching methods, reproductive teaching methods, educational and cognitive competencies.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *bolalar tafakkuri, kognitiv ta'lim texnologiyalari, maktab o'quvchilari, tadqiqot o'qitish usullari, reproduktiv o'qitish usullari, ta'lim va kognitiv kompetensiyalar.*

The question before modern education is one that has long been influenced by its systemic properties. On one hand, the development of science requires an increase in the volume of information that students need to assimilate, which allows us to talk about the dominance of reproductive learning activities. On the other hand, the dynamically developing science, society, and social structures set completely different tasks for modern education. Society needs mobile people with a broad outlook, people who can and know how to think creatively and make unconventional decisions in critical situations within tight deadlines. In our situation, there is no opportunity to form such a personality using the methods available to schools. This raises the question of what methods are needed to nurture a creatively thinking person, and most importantly, what constitutes a thinking person. Following G. P. Shchedrovitsky, we will understand a thinking person as an individual capable of managing their thought activity and, in a situation of uncertainty, creating such a mental construct that ensures the success of the activity. First and foremost, such a person must be able to analyze, model, design, and plan, that is, possess the basic package of all thought operations. To master such rather complex competencies requires very significant time and mental efforts from both the learner and the teacher, who is required to solve problems of a different nature than those typically addressed in educational institutions. This involves teaching thinking as a conscious and purposeful intellectual activity, which implies the use of cognitive procedures for mastering reality each time. The complexity of the task facing the teacher is due to the peculiarities of modern school education. Firstly, all the knowledge to be assimilated is divided into separate subjects, which are essentially reflections of individual sciences as perceived by the school. These scientific subjects studied in school are isolated from each other and built on separate thought procedures that are not interconnected [1, p. 182].

Therefore, in schools, students think only within the limits of the subjects they study, that is, within the permissible boundaries. Secondly, the situation is complicated by the focus of school education on merely reproducing information that has been discovered and accumulated by humans over a

lifetime. Naturally, this form of educational activity cannot solve the task of teaching thinking. The assimilation of intellectual competencies is possible only through the analysis of ways to solve educational problems by establishing, discovering, and understanding the processes occurring in reality and their characteristics, that is, during the investigation of the educational problem, which represents one of the four universal types of thought activity most adequately corresponding to the sociocultural mission of education. Thus, the research method in education involves organizing the process of generating and assimilating new knowledge. This method is based on the development of key educational and cognitive competencies aimed not only at increasing knowledge but also at mastering methods of cognitive activity, developing creative thinking, and independence in educational activities. This includes organizing goal-setting, analysis, reflection, planning, self-assessment of educational and cognitive activities, as well as mastering creative skills for productive activities, that is, extracting knowledge directly from reality, mastering methods of action in non-standard situations, and solving complex problems. As educational and cognitive competencies are assimilated, they integrate into the student's personality, transforming into mental experience, which is interpreted in modern science as the formed mental and psychological structures of a person, ensuring the storage, ordering, and transformation of information, as well as the realization of processes of cognition of reality in the student's consciousness [3, p. 172].

In addition, reproductive teaching methods are the most economical ways of transmitting systematized experience accumulated by humanity to the younger generations. The most well-known reproductive method is the explanatory-illustrative method. This method involves the teacher conveying ready-made information through various means. However, this method does not allow the formation of practical skills and abilities. Only another method of this group, the "reproductive" method, allows the next step to be taken. It provides the opportunity to form skills and abilities through exercises. Acting according to the proposed example, students acquire skills and abilities in using knowledge. The real predominance of reproductive methods in modern education, sometimes referred to as traditional, causes numerous protests from many scientists and practitioners. This criticism is largely justified, but while noting the importance of introducing productive teaching methods into the practice of modern schools, one should not forget that reproductive methods should not be considered unnecessary. It is recognized that cognition encompasses such mental processes as perception, thinking, memory, evaluation, planning and organization of the thought process [2, p. 323].

In the theory of teaching, it is customary to consider the "partially exploratory" or "heuristic" method as a preliminary stage before using the "research" method. From a formal point of view, this is true, but one should not think that in real educational practice, the sequence should be strictly followed: first, the "partially exploratory" method is used, and then the "research" method. In education, situations involving the "partially exploratory" method may imply significantly higher

mental loads than many variants of teaching based on the research method. For example, the “partially exploratory” method involves such complex tasks as developing the ability to see problems and ask questions, build one’s own arguments, draw conclusions from presented facts, make assumptions, and plan their verification. One variant of the “partially exploratory” method is also considered the path of breaking down a large task into a complex of smaller sub-tasks, as well as constructing a heuristic conversation consisting of a series of interconnected questions, each of which is a step towards solving the overall problem and requires not only the activation of existing knowledge but also the search for new ones.

Currently, the “research” method of teaching should be considered one of the main ways of cognition, most fully corresponding to the nature of the child and modern educational tasks. Its basis is the child’s own research search, not the assimilation of ready-made knowledge presented by the teacher or instructor. Thus, the research method can include or be supplemented by other teaching methods that also belong to cognitive technologies. They contribute to the development of a broad outlook for the student. The learner independently strives to seek the truth, critically perceives contradictory ideas. They are capable of analyzing and designing their activities, acting independently in conditions of uncertainty, acquiring new knowledge; they possess a stable desire for self-improvement; they strive for creative self-realization. The knowledge and opportunities obtained through the research method of teaching contribute to the development of a high level of intelligence, the formation of creative potential, the accumulation of practical experience, the formation of methodological thinking necessary in new educational conditions.

References / Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fomenko Svetlana Leonidovna. Когнитивные технологии в образовательной практике. “Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlarning ta’lim amaliyotiga tatbig‘i” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Samarqand 2024-yil,14-iyun. (18-22).

2. Громыко Ю.В. Мыследеятельностная педагогика: теоретико-практическое руководство по освоению высших образцов педагогического искусства. Минск: Технопринт, 2000. 376 с.

2. Фрейджер Р. Личность, теории, упражнения, эксперименты / Р. Фрейджер, Дж. Фрейдимен. СПб.: Прайм. ЕВРОЗНАК, 2008. 704 с.

3. Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования. СПб.: Питер, 2002. 272 с.

4. Щедровицкий Г.П. Принцип «параллелизма формы и содержания мышления» и его значение для традиционных логических и психологических исследований. Режим доступа: http://www.fondgp.ru/gp/biblio/rus/6 (дата обращения: 18.01.2019)

II. MILLIY QADRIYATLARNING GLOBALLASHUV SHAROITIDAGI TRANSFORMATSIYASI: AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT

Nodira Egamberdiyeva,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor

YANGI O'ZBEKISTONDA OILA INSTITUTI: ISLOHOT VA ISTIQBOLLAR

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda oila institutini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati, amalga oshirilayotgan islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va institutsional tashabbuslar tahlil qilingan. Farog'atli oilalarni shakllantirish, ajralishlarning oldini olish, zo'ravonlikka qarshi kurash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan choralar va yutuqlar yoritilgan. Shuningdek, demografik holat, statistik ma'lumotlar va jamiyatda oilaning ahamiyati tahlil etilgan. Maqolada mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha strategik takliflar ham ilgari surilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the state policy in New Uzbekistan aimed at strengthening the family institution, as well as the reforms, legal frameworks, and institutional initiatives being implemented. It highlights the measures and achievements in forming prosperous families, preventing divorces, combating domestic violence, and preparing youth for family life. The paper also examines demographic trends, statistical data, and the role of the family in society. Furthermore, existing problems are discussed, and strategic proposals for their resolution are presented.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *oila instituti, davlat siyosati, ajralishlar, oilaviy qadriyatlar, zo'ravonlik, gender tenglik.*

♦ ***Keywords:*** *family institution, state policy, divorces, family values, violence, gender equality.*

Yangi O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan bo'lib, bu borada qator islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi doirasida normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, oilani himoya qilishga qaratilgan yangi qonunlar ishlab chiqilmoqda, huquqiy va institutsional

asoslari takomillashtirilib borilmoqda, shuningdek, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilada sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda shuningdek, oilalarga ta’sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko‘rsatishning samarali tizimi yaratilmoqda, ushbu islohotlardan asosiy maqsad – barqaror, baxtli va farovon oilalarni shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratishdir.

Jamiyatda oilaning barqarorligi va uning demografik hamda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari jamiyatning rivojlanishi va farovonlik darajasining asosiy mezonlaridan biri bo‘lib, statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi 37,5 mln. kishini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 8,6 foizga o‘sgan, 2024-yilda mamlakatda oilalar soni 10 053,9 mingtani tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 1342,6 mingga ko‘paygan. Shuningdek, tug‘ilishning yuqori darajada saqlanib qolayotganligi o‘z navbatida oilalar sonining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda xususan, 2024-yil davomida mamlakatimizda 926,4 mingta tug‘ilish qayd etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 10,1 foizga ortgan.

O‘zbekistonda oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan so‘nggi 9-yilda (2016-2025) jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilalarni mustahkamlash bo‘yicha, qator yangi qonun hujjatlari va islohotlar amalga oshirildi jumladan, 2016-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi e’lon qilinishi, shuningdek, “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish to‘g‘risida”, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-208-son Farmoni bilan Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar va PQ-401-sonli Qarori oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlar hisoblanadi.

Ushbu qarorga muvofiq 2030-yillarga mo‘ljallangan batafsil “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Yo‘l xaritasida oilani mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini va bandligini oshirish, oilaviy ajralishlarning oldini olish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kabi yuzlab amaliy bandlar belgilandi. Mazkur strategik hujjat “Yangi O‘zbekiston” sharoitida 2030-yilgacha oilalar barqarorligini ta’minlash bo‘yicha kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 103-sonli qarori yana ham yuqori bosqichga ko‘targan amaliy va huquqiy asos bo‘ldi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar farovon oilalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, oilaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, oila a’zolarining jismoniy, aqliy va ma’naviy-axloqiy rivojlanishi uchun zarur

shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda qabul qilingan konsepsiya, qonun va qarorlar zamirida oilalarni ijtimoiy himoya qilish, ularga huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish hamda oilaviy qadriyatlarni yangi davr talablariga mos ravishda asrab-avaylash ustuvor vazifa ekani ko‘rinadi.

Oila institutini mustahkamlash masalalarida yagona davlat siyosatini olib borish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi – Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda ushbu yo‘nalishdagi ishlarni ilmiy-uslubiy va axborot-tahliliy jihatdan ta’minlash maqsadida “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Institut tomonidan zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekistonda erta nikoh va erta tug‘ruq holatlari hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish bo‘yicha multimedia mahsulotlari yaratildi, “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash” veb-platformasi ishga tushirildi, Aholiga qulaylik yaratish maqsadida “Mening oilam” mobil ilovasi ishlab chiqildi va unga 50 dan ortiq aholi uchun foydali bo‘lgan ma’lumotlar, videorolik, buklet va flayerlar joylashtirildi.

Oilalarning baxtlilik darajasini aniqlash orqali ular bilan yakka tartibda ishlash, nizoli vaziyatlarni erta aniqlash va individual yondashuvni tizimli yo‘lga qo‘yish maqsadida xalqaro baxtlilik indikatorlarini o‘rganish hamda oilalarning baxtlilik indikatori ishlab chiqildi. “Yoshoila.uz” veb-sayti (elektron platforma) faoliyatini takomillashtirish va mobil ilovasini ishlab chiqildi. O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan demografik barqarorlik Konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar tayyorlandi. Oila institutini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish, bunga yoshlarni jalb qilish maqsadida “Oila demografiyasi” ilmiy-o‘quv laboratoriyasi tashkil etildi.

Respublika darajasida oilalarning hayotiy tajribalarini ommalashtirish maqsadida oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan oilalar uchun “Ibratli oila” ko‘krak nishonini ta’sis etildi, bu esa namunali oilalarni rag‘batlantirishga xizmat qildi.

Oilaviy ajrimlarning oldini olishda mediatorlik institutining roli kuchaytirildi, natijada nizoli oilalar vakillari bilan individual ishlash mexanizmi joriy qilindi, shuningdek, nikohi rasmiylashtirilmagan oilalarni qonuniylashtirish mexanizmi yo‘lga quyildi, bu esa ularning huquqiy maqomini mustahkamladi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari faoliyatini takomillashtirildi, notinch va kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Oilaviy sayohat” turistik paketlar joriy etildi, oilalarni har tomonlama “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” qo‘llab-quvvatlash tizimlari orqali oilalarning turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida imtiyozli ipoteka kreditlari tizimi joriy etildi, oilalarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish uchun oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar amalga oshirildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga davlat tomonidan moddiy yordam ko‘rsatildi, ijtimoiy nafaqalar to‘landi va ijtimoiy xizmatlar takomillashtirildi.

Shunday bo‘lsa-da, bugungi kunga kelib oila institutini yanada mustahkamlash borasida o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, shu jumladan:

So‘nggi besh yil mobaynida qayd qilingan nikohlar soni kamayib, aksincha nikohdan ajralishlar soni ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yilda 271,7 mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, 2020-yilga nisbatan 8,1 foizga kamaygan. Respublikada oilaviy ajralishlar soni 2024-yilda 45,1 ming nafarni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 59,9 foizga ortgan, 1 nafar farzand bilan nikohdan ajralishlar soni 12 ming 906 tani (28,6 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, farzandsizlik sababli nikohdan ajralishlar soni 21 ming 726 tani (48,1 foiz) hamda 2 va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajralishlar soni 10 ming 503 tani (23,3 foiz) tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi erkaklar uchun 35,4 yoshni, ayollar uchun 32,1 yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo‘lgan ajralayotgan ayollar to‘g‘ri kelgan, ya’ni jami nikohdan ajrashganlarning 64,6 foizini tashkil etgan.

So‘nggi yillarda oilaviy zo‘ravonlik holatlari oshgani kuzatilmoqda masalan, 2024-yilda ayollarga nisbatan qariyb 20 mingga yaqin maishiy zo‘ravonlik holati qayd etilganligi ma’lum qilingan. Ayrim tahlillarga ko‘ra, 2022-yilda zo‘ravonlikka oid jinoyatlar soni avvalgi yilga nisbatan 140 foiz oshgan.

Yillar davomida oilaviy zo‘ravonlik va xotin-qizlarga nisbatan tazyiq holatlari borasida avvallari rasmiy statistik ma’lumotlar deyarli olib borilmagan bo‘lsa, 2019-yildan boshlab bu ko‘rsatkichlar hisobga olinmoqda bu, bir tomondan, zo‘ravonlik holatlarining ko‘payganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, avvallari yashirin qolgan ko‘plab holatlar endi yuzaga chiqib, fuqarolar huquqiy yordamga murojaat qilayotganini ham anglatadi. Chunki ilgari oiladagi zo‘ravonlik “ichki ish” deb qabul qilinib, ko‘p ayollar sukut saqlagan bo‘lsa, hozirda davlat himoyasi mexanizmlari (himoya orderi va boshqalar) mavjudligi ularga murojaat qilishga zamin yaratmoqda.

Gender tenglik va zo‘ravonlik statistikasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda qonuniy asos yaratilgani bois bu masalalar endi ochiq qayd etilmoqda. Rasmiy ma’lumotlar muammoning kattaligini ko‘rsatib, undan kelib chiqib, hukumat tomonidan yangi choralar ko‘rilmoqda.

Butun dunyoda kuzatilayotgan zamonaviy tendensiyalar ayrim jamiyatlarda milliy qadriyatlarning, xususan oila institutining inqiroziga sabab bo‘layotgani kuzatilmoqda. Shuning uchun ham oila qurish masalasida xotin-qizlarning munosabatini o‘rganish o‘ta muhim bo‘lgan masala hisoblanadi.

Shu boisdan ham, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti jamoasi tomonidan 2024-yilning iyun–iyul oylarida xotin-qizlar o‘rtasida ularning hayotiy maqsadlari, qadriyatlari va muammolarini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra, aksariyat xotin-qizlar oila qurish masalasini juda muhim (65,8 foiz) va ko‘p jihatdan muhim (17,4 foiz) deya ijobiy baholashgan. Ammo shu bilan birga, respondentlarning 8,6 foizi oila qurish ayol kishi uchun umuman muhim

emas, 3,6 foizi esa u qadar muhim emas deb hisoblagan, 5 foizga yaqin ayollar esa ushbu masalada aniq fikr bildira olmagan.

Mazkur natijalar jamiyatda oila institutining muqaddasligi hamda uni saqlab qolish va inqirozini bartaraf etish maqsadida bu kabi salbiy yondashuvdagi va ikkilanuvchi toifadagi ayollar bilan oilaviy qadriyatlar masalasida ishlash lozimligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida oila institutini yanada mustahkamlash davr talabi hisoblanadi. Hukumat darajasida ham, mutaxassislar va jamoatchilik tomonidan ham kelgusida oilani asrash va rivojlantirish borasida bir qator strategik istiqbollar va takliflar ilgari surishimiz mumkin:

- oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro standartlarga mos ravishda milliy qonunchilik bazasini institutsional jihatdan rivojlantirish hamda uning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

- oilani huquqiy va ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish hamda uning asosiy funksiyalarini mustaqil va samarali amalga oshirishini ta’minlash uchun kompleks qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish;

- jamiyatda ibratli oila modelini shakllantirish, uning ijtimoiy ahamiyatini oshirish hamda oilaviy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish orqali barqaror oilaviy institutni rivojlantirish;

- oilada ijtimoiy-psixologik barqarorlikni ta’minlash, oila a’zolarining o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajarishiga ko‘maklashish hamda ularning ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirokini rag‘batlantirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- oilalardagi nizolar va ajrashishlarning oldini olish maqsadida huquqiy, psixologik va ijtimoiy profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyatini oshirish va ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki samaradorligini kuchaytirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- oilada tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish maqsadida xalqaro standartlarga mos keluvchi huquqiy, profilaktik va reabilitatsion mexanizmlarni ishlab chiqish hamda ularning samarali amalga oshirilishini ta’minlash;

- davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining oila siyosati sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish, uning ijrosini ta’minlash va tizimli muvofiqlashtirish maqsadida huquqiy, institutsional va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish hamda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Lho Taegeun,
Professor at Kimyo International University in Tashkent

LIVING BETWEEN TWO CULTURES

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu chiqishda professor Lxo Tegin O‘zbekistondagi ikki yarim yillik tajribasi orqali Koreya va O‘zbekiston madaniyatlari o‘rtasidagi farqlar haqida so‘zlaydi. U oilaviy qadriyatlar, dars jarayonidagi odob-axloq, ovqatlanish madaniyati va vaqtga munosabat kabi mavzularda o‘z kuzatuvlari bilan o‘rtoqlashadi. Har bir farq ortida insoniylik, mehr va madaniy boylik yotganini ta’kidlaydi..*

♦ ***Abstract:*** *In this speech, Professor Lho Taegeun shares his two and a half years of experience living in Uzbekistan and reflects on the cultural differences between Korea and Uzbekistan. He discusses key topics such as family values, classroom manners, food culture, and attitudes toward time. He emphasizes that behind each difference lies a deep sense of humanity, warmth, and cultural richness.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *madaniy farqlar, O‘zbekiston, Koreya, oila, ta’lim*
♦ ***Keywords:*** *cultural differences, Uzbekistan, Korea, family, education.*

Introduction. Thank you for the opportunity to speak with you today. I'm really happy to be here and to share a bit about my personal experience living and working in Uzbekistan.

My name is Lho Taegeun, and I’ve been teaching at a university in Tashkent — KIUT — for about two and a half years now. During this time, I’ve not only taught students, but I’ve also learned a lot myself — especially about the cultural differences between Korea and Uzbekistan.

Today, I’d like to talk about some of those differences. I hope my story helps you understand how culture shapes the way we live, work, and relate to one another.

1. Family Values. The first big difference I noticed is the role of **family**. In Korea, it’s common for young people to move out and live alone once they finish school or get a job. Independence is highly valued. But here in Uzbekistan, family members tend to live together, even after they become adults. There is a strong feeling of responsibility and closeness.

One experience really showed this to me. It was during an exam. A student suddenly came up to me and said, “My parents are sick. I have to go home.” And then — she just left.

In Korea, leaving in the middle of an exam would be unthinkable unless it was a serious emergency. But here, no one seemed surprised. Everyone

understood. As the teacher, I could have marked her absent or failed her — but I didn't. Why? Because I realized how important family is in this culture. And I respected that.

2. Classroom Manners. The second difference I saw was in **classroom behavior**. In Korea, students usually sit quietly through the whole class. It's rare for someone to get up, even to use the restroom.

But in Uzbekistan, students sometimes leave during class — to take a phone call, go to the bathroom, or just step out briefly. At first, this surprised me. But over time, I began to understand: here, there's more flexibility. There's a respect for personal needs, even during formal situations like class.

This made me think: in Korea, we often focus on order, discipline, and efficiency. But here, people value **human needs**, **relationships**, and **kindness** more openly — even in academic settings.

I.Food Culture.

Another interesting difference is **food**. Korean meals are known for many side dishes and spicy flavors. We use chopsticks and spoons, and meals are often quiet and structured.

In contrast, Uzbek food is simple but hearty — full of meat, bread, and rice. People often eat together from a shared dish, sometimes even with their hands. At first, this felt unfamiliar to me. But now, I find it warm and friendly. It feels like a celebration of being together.

Food isn't just about eating — it's about **connection**. I learned that here.

II.Time and Punctuality.

Let's talk about **time**. In Korea, being on time is a big deal. If you're even a few minutes late to a meeting, people may feel disrespected. Time is strict.

But in Uzbekistan, time feels more relaxed. Meetings may start late, and that's okay. People care more about how you treat others than whether you're exactly on time.

At first, I found this difficult. But slowly, I realized: sometimes, being present with someone, and showing kindness, is more important than watching the clock.

What I Learned?

These experiences taught me a lot — not just about Uzbekistan, but also about myself.

From a **moral point of view**, I came to understand that sometimes, **caring for people** is more important than following rules strictly. From a **spiritual point of view**, life here feels softer, slower, and warmer. There is **less pressure** — and more **heart**.

Living in Uzbekistan has changed the way I see the world. It helped me see that culture is not about right or wrong — it's about different ways of living, thinking, and valuing what's important.

Conclusion

To finish, let me say this:

Yes, Korea and Uzbekistan are very different in many ways — in family life, classroom behavior, food, and time.

But at the same time, both cultures share something very special: They both care deeply about **love**, **respect**, and **community**.

Thank you very much for listening.

I hope my story gave you some insight into the beauty of cultural diversity.

Lalixon Muxamedjanova,
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti,
falsafa kafedrasi professori

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDAGI AXLOQIY MULOQOT

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada globalizatsiya davrida turli madaniyatlarga mansub jamiyatlar o‘rtasidagi axloqiy qarashlar va qadriyatlar almashinuvi, bu jarayonning jahon hamjamiyatiga ko‘rsatayotgan ta’siri hamda axloqiy muloqotning zamonaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Turli mutafakkirlar qarashlaridan iqtiboslar keltiriladi va axloqiy munosabatlarda muvozanatni saqlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the exchange of moral views and values among societies of different cultures in the era of globalization, as well as its impact on the world community and the modern significance of ethical communication. Quotations from various thinkers are provided, and practical recommendations are given on how to maintain balance in moral relations.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *globallashuv, axloqiy muloqot, madaniy almashinuv, qadriyatlar, axloqiy qarashlar.*

♦ ***Keywords:*** *globalization, ethical communication, cultural exchange, values, moral views.*

Kirish. Globallashuv jarayoni insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Texnologik taraqqiyot, axborot almashinuvi, iqtisodiy va ijtimoiy integratsiya tufayli dunyoning turli chekkalarida yashovchi odamlar o‘zaro uzviy bog‘lanib bormoqda. Ayniqsa, turli madaniyatlarga mansub jamiyatlar o‘rtasida axloqiy qarashlar va qadriyatlar almashinuvi kuchayib, global hamjamiyatda ma’naviy me’yorlar shakllanishida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Insoniyat tarixida turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar ko‘plab ziddiyatlar va hamkorlik misollari bilan boy. Al-Farobiy “Fozil odamlar shahri”[1] asarida kishilar o‘zaro muloqotda bo‘lish orqali komil jamiyatni shakllantirishi

haqida ta’kidlagan edi. Jamiyatlararo axloqiy qarashlar uyg‘unligi insoniyat taraqqiyotining ijobiy rivoji uchun zarurdir.

Ushbu maqolada globalizatsiya sharoitida yuzaga kelayotgan axloqiy almashinuv, uning jahon jamoatchiligiga ko‘rsatayotgan ta’siri hamda turli mutafakkirlar fikrlaridan kelib chiqib, axloqiy muloqotning istiqbollari yoritiladi. Shuningdek, mavzuga oid adabiyotlarning tahlili, tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar, hamda xulosa va amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Globalizatsiya va madaniy almashinuv masalalari yuzasidan ko‘plab adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda monografiyalar mavjud. Xususan, Samyuyel Xantingtonning “The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order” [2] asarida global darajadagi sivilizatsiyalar to‘qnashuvi konsepsiyasi ilgari surilgan bo‘lsa, Jan Bodriyar, Entoni Giddens kabi faylasuflar global jamiyatda axborot oqimining ta’sirini chuqur tahlil qilganlar. [3] Shuningdek, Islom madaniy merosida Al-Farobiy, Ibn Sino va Ab-u Rayhon Beruniy kabi mutafakkirlar asarlarida jamiyatlar o‘rtasidagi axloqiy aloqalar xususida turli iqtiboslar uchraydi.[4]

Imom al-G‘azzoliy o‘z asarlarida (“Ihyou ulumiddin”) insoniy fazilatlar, mehr-oqibat va adolat kabi axloqiy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, “Inson qadr-qimmati – uning axloqida, axloq esa o‘zaro hurmat va adolat bilan belgilanadi.”[5]

Zamonaviy tahlilchilar esa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivoji bilan global madaniy almashinuv tubdan o‘zgarganini ta’kidlashadi. Har bir jamiyat o‘z madaniy merosi va axloqiy qarashlarini dunyoga namoyon etishi, shu bilan birga, boshqalarning qadriyatlarini tezda o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ldi. Natijada, turli xil axloqiy me’yorlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Adabiy manbalarni o‘rganish: Globalizatsiya va axloqiy muloqotga doir ilmiy adabiyotlar, maqolalar, monografiyalar, shuningdek, tarixiy manbalar tahlil qilindi.

2. Qiyosiy tahlil usuli: Turli madaniyatlar va sivilizatsiyalarga oid axloqiy qarashlar o‘zaro taqqoslanib, globalizatsiya jarayonidagi o‘zgarishlar aniqlab chiqildi.

3. Mantiqiy-analitik yondashuv: Axloqiy almashinuvning sabab va oqibatlarini, shuningdek, ularning jahon hamjamiyatiga ta’sirini mantiqiy izchillikda o‘rganish orqali xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.

1. Madaniy xilma-xillik va axloqiy boylik. Globalizatsiya tufayli turli xalqlar o‘z madaniy meroslari va qadriyatlarini keng namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu xilma-xillik global hamjamiyatda axloqiy boylik hamda yangicha qarashlar uyg‘unligiga zamin yaratmoqda.

2. Qabul qilish va ta’sir o‘tkazish jarayoni. Turli jamiyatlar o‘z qadriyatlarini himoya qilish bilan birga, boshqalarning ham axloqiy qarashlaridan ta’sirlanmoqda. Bunda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va

turizm katta rol o‘ynamoqda.

3. Axloqiy mojarolar va konsensus izlash Ba’zi holatlarda turli jamiyatlardagi axloqiy qarashlar bir-biriga zid bo‘lib, nizolar kelib chiqishi ehtimoli bor. Bunday paytlarda, Imom al-G‘azzoliy qayd etganidek, “axloqiy birlik va hurmat orqali ixtiloflar bartaraf etilishi” lozim bo‘ladi. Xalqaro tashkilotlar, konferensiyalar va forumlar shu muvozanatni topishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

4. Milliy an’analar va global tamoyillar uyg‘unligi. Ayrim jamiyatlarda milliy an’analar saqlab qolinishi va ayni paytda global tamoyillarga moslashish ehtiyoji paydo bo‘lyapti. Bu esa har bir jamiyatda axloqiy muloqotning o‘ziga xos shaklini shakllantiradi. Bunda milliy qadriyatlar bilan global universal me’yorlar o‘rtasidagi muvozanatni topish muhim.

5. **Natijalar:**

- Axloqiy tushunchalarning kengayishi: Turli madaniyatlarga mansub jamoalar o‘rtasida muloqot rivojlanishi, axloqiy tasavvurlarning yanada kengayishiga sabab bo‘lmoqda.

- Yangi qadriyatlar paydo bo‘lishi: Globallashuv jarayonida umumjahon darajasida qabul qilinadigan yangi qadriyatlar (masalan, inson huquqlari, barqaror rivojlanish, bag‘rikenglik) shakllanib bormoqda.

- Ziddiyatlar vujudga kelishi: Qadriyatlar, e’tiqodlar va urf-odatlardagi farqlar ba’zan ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Buni hal etishdagi asosiy omil esa o‘zaro anglash va hurmatdir.

Xulosa. Globalizatsiya sharoitida turli madaniyatlarga mansub jamiyatlar o‘rtasidagi axloqiy qarashlar va qadriyatlar almashinuvi jahon hamjamiyatining rivoji va barqarorligi uchun zaruriy omil hisoblanadi. Turli tafakkur egalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va hurmat axloqiy nizolarning oldini olish, dunyo barqarorligini mustahkamlash va inson qadr-qimmatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Al-Farobiy, Imom al-G‘azzoliy va zamonaviy olimlarning fikrlari shuni ko‘rsatadiki, jamiyatlararo axloqiy muloqot qanchalik keng, adolatli va bag‘rikeng bo‘lsa, global taraqqiyot shunchalik barqaror kechadi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Ta’lim dasturlarini boyitish: Maktablar va universitetlarda turli madaniyatlar, ularning axloqiy qadriyatlarini qamrab oluvchi o‘quv dasturlarini joriy etish. Bunda ilmiy va badiiy manbalardan ham foydalanish tavsiya etiladi.

2. Madaniy almashinuv dasturlari: Turli davlatlar o‘rtasida talabalar, olimlar va mutaxassislar almashinuvini yo‘lga qo‘yish, bu orqali turli madaniyatlar bilan tanishish va axloqiy tajriba almashish.

3. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish: Globallashuv jarayonida axborot oqimi juda keng. Axloqiy muloqotda haddan tashqari ekstremistik yoki kamsituvchi mazmundagi axborotlarni cheklash, insonlar o‘rtasida konstruktiv munosabatlarni rag‘batlantirish zarur.

4. Bag‘rikenglik va hurmatni targ‘ib qilish: Har bir madaniyat vakili o‘z qadriyatlari va e’tiqodlarini boshqalarga majburlamasdan, ularni ham o‘zi kabi hurmat qilishga intilishi lozim.

5. Xalqaro hamkorlik va jamoatchilik nazorati: Axloqiy nizolar yuzaga kelganda, xalqaro miqyosdagi maslahatchi guruhlar, ekspertlar va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, muammolarni muloqot orqali hal qilishga erishish muhim.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri”. Toshkent: Ma’naviyat, 2000.

2. Huntington, S. (1996). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York: Simon & Schuster.

3. Giddens, A. (1990). The Consequences of Modernity. Stanford University Press.

4. Bauman, Z. (1998). Globalization: The Human Consequences. Columbia University Press.

5. Imom al-G‘azzoli. “Ihyo ulum ad-din”. Qohira: Dar al-Kutub, 1992.

Azizbek Egamberdiyev,
Andijon davlat pedagogika instituti professori, falsafa fanlari doktori,
Ilminur Shukurova,
Andijon davlat pedagogika instituti psixologiya fani o‘qituvchisi

DINIY FONNI ANIQLASH INDIKATORLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O‘zbekistonda diniy fon darajasini aniqlash bo‘yicha ishlab chiqilgan indikatorlar haqida so‘z boradi. Indikatorlar respondentlarning diniy bilim darajasi, diniy amallar va tolerantlik masalalari bo‘yicha qarashlarini aniqlashga xizmat qilishi ta’kidlab o‘tiladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article discusses the indicators developed for identifying the level of religious background in Uzbekistan. The indicators aim to assess respondents' levels of religious knowledge, religious practices, and attitudes towards tolerance.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *din, diniy, fon, so‘rovnoma, ijtimoiy barqarorlik.*

♦ ***Keywords:*** *religion, religious, background, survey, social stability.*

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-ruhiy muhitini o‘rganishda uning diniy fonini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy fon shaxs, guruh yoki jamiyatning diniy e’tiqodlari, urf-odatlari va diniy ta’sir ostida shakllangan dunyoqarashlar yig‘indisidir. Uni to‘g‘ri baholash jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni tushunish, diniy bag‘rikenglikni ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tahlil

qilishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotda diniy fonni aniqlash usullari va uning ijtimoiy indikatorlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur masala yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar, ularning metodologiyasi va olingan natijalar asosida muayyan xulosalar chiqariladi.

Diniy fon tushunchasi jamiyatning umumiy dunyoqarashi, diniy e’tiqodi va ibodatlari bilan bog‘liqdir. Jamiyatdagi diniy qarashlarni aniqlash va tahlil qilish shaxslar hamda ijtimoiy guruhlarning munosabatlarini to‘g‘ri baholashda muhim o‘rin tutadi.

Diniy fon jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy munosabatlariga qanday ta’sir etganini o‘rganish orqali diniy bag‘rikenglik, diniy e’tiqod va ibodatlarining jamiyatdagi ahamiyatini aniqlash mumkin.

Diniy fonni aniqlashda turli metodologik yondashuvlar mavjud. Ular orasida ijtimoiy-psixologik indikatorlar va sotsiologik tadqiqotlar asosiy vositalar hisoblanadi. Masalan, jamiyatdagi diniy bilim darajasi, ibodatlarga rioya qilish holati, diniy qarashlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri kabi omillar ushbu indikatorlar sirasiga kiradi.

Diniy fonni aniqlash uchun turli xalqaro va mahalliy tadqiqotlardan foydalanilgan. Ushbu tadqiqotda asosiy uslublar sifatida quyidagilar tanlangan:

1. **Centrality of Religiosity Scale (CRS)** – bu metod jamiyatda diniy e’tiqod va ibodat darajasini o‘lchashda keng qo‘llaniladi. 25 ta davlatda 100 000 dan ortiq ishtirokchi bilan sinovdan o‘tkazilgan.

2. **Rokeach Value Survey (RVS)** – Diniy va ma’naviy qadriyatlarni aniqlash uchun ishlab chiqilgan xalqaro metodologiya. Ushbu metod dunyodagi ko‘plab tadqiqotlarda qo‘llanilgan.

3. **Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotlari** – mahalliy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar asosida respondentlarning diniy fon darajasi baholandi.

So‘rovnomalarda 15 ta savol joylashtirilgan bo‘lib, ularning 11 tasi respondentlarning ibodatlari, diniy bilim darajasi va diniy qarashlarining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta’sirini baholash uchun mo‘ljallangan. Qolgan 4 ta savol esa umumiy fonni shakllantirish uchun qo‘shimcha ma’lumot yig‘ishga qaratilgan.

Savollar 4 ta blokdan iborat. 1-blok pasport qismi bo‘lib, unda respondentlar haqidagi ijtimoiy xususiyatga doir ma’lumotlar yig‘ib olinadi. 2-blokda esa so‘rovnoma ishtirokchilarining diniy bilimlariga oid savollar o‘rin olgan. 3-blokda diniy amallar va ijtimoiy faollikka oid ko‘rsatkichlar xususida savollar bor. 4-blok esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot determinantlari haqida respondentlarning tasavvurlarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga ushbu blokda tolerantlik masalalari bo‘yicha ham so‘raladi.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, jamiyatda diniy fon muhim ijtimoiy-ruhiy omil bo‘lib, uni o‘rganish jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. **Diniy ta’limning sifatini oshirish** – jamiyatda diniy bilim sifat darajasini oshirish uchun ta’lim muassasalarida diniy ma’rifiy tadbirlarni

tashkil etish zarur.

2. **Ommaviy axborot vositalarining roli** – televideniye va internetda diniy ma’rifiy kontentni ko‘paytirish, uning targ‘ibotini kuchaytirish lozim.

3. **Diniy bag‘rikenglikni oshirish** – jamiyatda diniy bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat muhitini shakllantirish uchun ijtimoiy dasturlarni yo‘lga qo‘yish kerak.

4. **Iqtisodiy munosabatlarda diniy qarashlarni hisobga olish** – moliyaviy munosabatlarda aholining diniy qarashlarini hisobga olgan holda mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari jamiyatda diniy fonni aniqlash va uning ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etib o‘tish kerakki, O‘zbekistonda diniy fonni aniqlash bo‘yicha tizimli tadqiqotlar natijalari keng ilmiy jamoatchilikka e’lon qilinmagan. Buning sababi yoki ushbu tadqiqotlar o‘tkazilmagan, yoinki o‘tkazilgan bo‘lsa ham tor doirada qolib ketgan.

Bizning fikrimizcha, hozirgi diniy faollik kuchaygan bir vaqtda, Afg‘oniston va Suriyada islomiy kuchlar siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritib, milliy va xalqaro darajada ta’sir doirasini kengaytirayotgan bir sharoitda diniy fonni aniqlash, uning indikatorlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Zero, diniy fon – aholining diniy bilimlari va amallari ma’lum bir beqarorlik elementi emas, agar bunday qarashlar siyosiylashsa va demokratik qadriyatlar asoslariga putur yetkazsagina xavfsizlikka tahdid darajasiga ko‘tariladi.

Hozirgi sharoitda esa bunday tendensiyalar qator yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘lib borayotganidan kelib chiqib bir qator masalalar bo‘yicha tashkil etilishi lozim bo‘lgan ishlar mavjud.

Birinchidan, ishlab chiqilgan indikatorlardan kelib chiqib, respublikaning diniy fon xaritasini ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, mavjud xaritadan kelib chiqib, joylardagi targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, diniy fonni aniqlash indikatorlarini muntazam takomillashtirish, bu jarayonga axborot texnologiyalari va sun’iy intellektni jalb qilish zarur.

To‘rtinchidan, esa diniy fonni xavfsizlik tizimining muhim elementi sifatida radikalizmga o‘tish chegaralarini aniqlash va bu boradagi “qizil” chegarani belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu esa kelgusida ekstremizm bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni to‘g‘ri malakalashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. What the World Believes: Analysis and Commentary on the Religion Monitor 2008. Edited by Bertelsmann-Stiftung. Gütersloh: Verlag Bertelsmann-Stiftung, 2009, pp. 17–51. [Google Scholar]

2. Bertelsmann Stiftung, ed. What the World Believes: Analysis and Commentary on the Religion Monitor 2008. Gütersloh: Verlag Bertelsmann-

Stiftung, 2009.

3. Richard Stark, and Charles Y. Glock. American Piety: The Nature of Religious Commitment. Los Angeles, CA: Berkeley University Press, 1968. [Google Scholar]

4. Stefan Huber. "Die Semantik des empirischen Systems. Archimedischer Punkt und Achillesverse der sozialwissenschaftlichen Religionsforschung." In Theologie im Gespräch mit empirisch arbeitenden Wissenschaften. Edited by Matthias Petzoldt. Leipzig: Evangelische Verlagsanstalt, 2012, pp. 13–34. [Google Scholar]

Shavkatjon Bobojonov,
Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (DSc),
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

ETNOGRAFIK TURIZMNING MILLIY QADRIYATLAR VA AN'ANALARNI SAQLAB QOLISHDAGI O'RNI

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada globallashuv davrida milliy qadriyat va an'analarni saqlab qolishda etnomadaniy turizmning ahamiyati yoritilgan. Turizmning ushbu yo'nalishi orqali xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi, hunarmandchilik an'analari hamda folklori asrab-avaylanib, dunyo jamoatchiligiga keng targ'ib etilayotgani ta'kidlangan. O'zbekistonda etnoturizm salohiyatiga ega hududlar, turizm qishloqlari va xalqaro e'tirof topgan madaniy markazlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article discusses the importance of ethnocultural tourism in preserving national values and traditions in the era of globalization. Through this type of tourism, the historical memory, spiritual heritage, handicraft traditions, and folklore of the people are preserved and widely promoted to the global community. Information about regions in Uzbekistan with ethnotourism potential, tourism villages, and internationally recognized cultural centers is also provided.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *etnoturizm, milliy qadriyatlar, hunarmandchilik, turizm qishloqlari, madaniy meros, folklor, etnomadaniy turizm, Shirin qishlog'i, Buxoro, YUNESKO, xalqaro turizm.*

♦ ***Keywords:*** *ethnotourism, national values, handicrafts, tourism villages, cultural heritage, folklore, ethnocultural tourism, Shirin village, Bukhara, UNESCO, international tourism.*

Bugungi globallashuv jarayonida xalqning qadriyatlari va milliy an'analarini saqlab qolish dolzarb vazifa bo'lmoqda. Virtual tahdidlar, yot g'oyalar, ommaviy madaniyat xalqning milliy o'zligiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Asrlar davomida shakllangan ma'naviy madaniyatning yo'qolib borishi, xalq

xotirasidan o‘chib borishiga olib kelmoqda. Xalq ma’naviy xotirasini saqlab qolishda turizm muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, etnografik turizm xalqning moddiy va ma’naviy madaniyati o‘rganish, saqlab qolish, qayta tiklash va keng targ‘ib etishga hissa qo‘shmoqda.

Etnomadaniy turizm (etnocultural tourism) turizmning qator turlari – etnik, etnografik, ekolo-etnografik, antropologik va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Etnomadaniy turizm nafaqat tarixiy xotirani shakllantiradi, balki fuqarolik madaniyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Etnoturizm – mahalliy aholining urf-odatlari, hunarmandchiligi, madaniyati, turmush tarzi, tarixi va folklori bilan tanishishdir. Etnoturizm muayyan millatning o‘ziga etnomadaniy tarixiga sho‘ng‘ish, uning hayoti va madaniyati haqidagi tushunchalarni kengaytirish imkonini beruvchi sayyohlik yo‘nalishidir. Turizmning mazkur yo‘nalishida ishtirok etuvchi sayyohlar boshqa xalqlar va madaniyatlarni o‘rganish natijasida dunyoning turli-tuman xalqlari xususida aniq va yaxlit tasavvurga ega bo‘lish, o‘z navbatida o‘zining noyob individ ekanligini anglash imkonini beradi[1]. Etnoturistlar boshqa madaniyatlarda odamlarning kundalik ishlarida bajaradigan faoliyatlarida ishtirok etadilar. Mahorat darslari, hunarmandchilik mahsulotlarini yasash, dalada ishlash, qishloqda bir kun yashash, o‘zgacha hayotda o‘zini tasavvur qilish va boshqalar shular jumlasidan. Mazkur turizm turi “madaniy meros turizmi”, “meros turizmi”, “diaspora turizmi” nomlari bilan ham ataladi.

An’analar bardavomiyligini ta’minlash, etnoslar madaniyatini boricha saqlash va rivojlantirish maqsadida respublikamizning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan 40 ta mahalla turizm xizmatlarini rivojlantirish belgilangan. Buloqboshi, Baxmal, G‘allaorol, Forish, Kitob, Shahrisabz, Xatirchi, Nurota, Boysun, Sariosiyo, Sherobod va Rishton tumanlarida 13 turizm mahalla (turizm qishlog‘i) tashkil etish rejalashtirilgan. Mamlakatimizdagi turizm salohiyatiga ega bo‘lgan fuqarolar yig‘inlariga “Turizm ovuli”, “turizm mahallasi”, “turizm qishlog‘i” maqomi berib kelinmoqda.

Yurtimizda etnoturizmni rivojlantirish va ulardan turizm tashrif obyekti sifatida foydalanish maqsadida Samarqand viloyatida 9 ta, Toshkent viloyatida 3 ta, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida esa 1 tadan mazkur turizm turiga ixtisoslashgan korxonalar ro‘yxati shakllantirilgan. Bu obyektlarda sayyohlarni qabul qilish uchun sharoitlar yaratilib, turistik tashkilotlar bilan hamkorlikda sayyohlik dasturlariga kiritilgan.

Hozirgi kunda respublikamizda 20 ga yaqin turizm qishlog‘i (turizm mahallasi) mavjud. Jizzax viloyatidagi “Duoba”, Navoiy viloyatidagi “Sentob”, “Langar”, Qashqadaryo viloyatidagi “Miraki”, Samarqanddagi “Konigil”, “Bog‘i baland”, “Tersak”, Surxondaryo viloyatidagi “Sangardak”, “Sina”, “Omonxona”, Toshkent viloyatidagi “Ovjazsoy”, “Ertoshsoy”, “Chashma”, “Kumushkon”, Namangan viloyatidagi “Nanay”, “Chodak”, Andijon viloyatidagi “Imom ota” turizm qishloqlari faoliyat ko‘rsatmoqda[2].

Mamlakatimizda 154 ta turizm va gastronomik ko‘chalar tashkil etilgan. 45 ta “turizm ko‘chasi” tashkil etilib, kun-u tun ishlaydi. Shu bilan birga,

“turizm ko‘chalari”da sayyohlar ehtiyoji uchun zarur barcha mahsulotlar savdosi, tungi mobil bozorlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi[3].

1500-yillik tarixga Shirin qishlog‘ida kulollik, kashtado‘zlik, zardo‘zlik, gilamchilik, patdo‘zlik, temirchilik, yog‘och o‘ymakorligi, jundan ip yigirish, mato to‘qish, milliy qo‘g‘irchoq yasash, miniatyura san’ati, savat to‘qish, qadimiy usulda namat tayyorlash kabi an’anaviy hunarmandchilik turlari davom etmoqda.

Buxoro viloyatining Vobkent tumani XX asrning 20-yillarida tashkil topgan. Tumanda 44 ta mahalla bo‘lib[4], shundan Shirin qishlog‘i etnoturizmga ixtisoslashgan. Qadimiy urf-odat va an’analar qayta tiklanayotgan ushbu hududda ko‘hna tosh tegirmonda bug‘doy va arpa uni chiqarish, katta doshqozonlarda qadimgi taomlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Qishloqda sho‘rdanak, shirinliklar va hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlash avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bobokasb sanaladi. Etnoturizm qishlog‘ida qishloq hayotini aks ettiruvchi qadimiy buyumlar muzeyi va milliy hunarmandchilik burchaklari tashkil etilgan. Shuningdek, qishloq atrofida joylashgan ko‘llarda baliq ovi, qadimgi sandal uylarda non yopish, sho‘rdanak va nisholda singari milliy taomlarimizni tayyorlash jarayonlari yo‘lga qo‘yilgan. Qishloqda tashrif buyurgan sayyoh hududning boy moddiy va ma’naviy madaniyati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Milliy qadriyatlarimizni sahna ko‘rinishlari orqali namoyish etuvchi “Navnihol” folklor jamoasining doimiy chiqishlari namoyish etib kelinmoqda.

Bugun O‘zbekistonda xalqaro “Sharq taronalari”, Baxshichilik san’ati, “Lazgi”, Jahon hunarmandlik, maqom, askiya san’ati, “Dunyo sado”lari milliy estrada san’ati, “Boysun bahori” folklor festivallari, “Ipak va ziravorlar”, “Atlas” bayramlari singari nufuzli anjumanlar, madaniyat kunlari, tasviriy va amaliy san’at ko‘rgazmalari hamda boshqa muhim tadbirlarni o‘tkazish tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Ma’naviy ma’rifiy loyihalar O‘zbekistonning jahon ahlini tinchlik-totuvlikka, qardoshlik va ahillikka chaqiradigan ezgu da’vat bo‘lib ham jaranglamoqda[5].

Me’morchilik an’analarimiz ham nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda mashhur. Malayziyadagi Islom san’ati muzeyini an’anaviy islom me’morchiligi uslubida bezash ishlarida o‘zbekistonlik ustalar ham qatnashishgan. Muzeyning koshin buzish, mozaika ishlarini eronlik ustalar ishlagan bo‘lsa, bino gumbazi ichki qismini bezash, naqshlarni chizish, bo‘yash va restavratsiyasi o‘zbekistonlik me’morlar tomonidan bajarilgan. Bugun Buxoroda restavratsiya maktabi faoliyat ko‘rsatmoqda. Hatto, Ozarbayjon, Qozog‘iston davlatlari vakillari o‘zlarining yosh ustalarini Buxoro restavratsiya maktabida o‘qitib berish taklifi bilan chiqqan[6]. Buxoroda milliy muhit, qadriyatlar, an’analarni yaxshi biladigan professional ta’mirlovchilar avlodi davom etmoqda. Ta’kidlash joiz XX asr boshlarida Buxoroda Usta Shirin Murodov nomidagi restavratsiya va ilmiy ishlab chiqarish ustaxonasida 300 ga yaqin professional mahalliy ustalar faoliyat ko‘rsatgan.

Bugun milliy an’analarimizni xalqaro darajada targ‘ib qilish, turizm oqimini ko‘paytirish va milliy hunarmandchilik mahsulotlari savdosiga

qiziqishni oshirish, mavjud imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish maqsadida tarixiy shaharlarimiz xalqaro maqomlarga ega bo‘lmoqda. 2024-yilda Xiva “Islom dunyosining turizm poytaxti”, Qo‘qon shahri Turkiy davlatlar tashkilotining “Ilk turizm poytaxti”, Shaxrisabz Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan “turizm poytaxti”, Samarqand “Jahon madaniy turizm poytaxti” maqomlariga ega bo‘ldi. Butunjahon hunarmandlar Kengashi tomonidan Buxoro “Butunjahon hunarmandlar shahri” ro‘yxatiga, YUNESKOning amaliy bezak va xalq san’ati yo‘nalishi bo‘yicha “Ijodkor shaharlar tarmog‘i” dasturiga kiritildi. Markaziy Osiyo davlatlari ichidan faqatgina Buxoro mazkur nomga ega bo‘lgan. Shuningdek, Buxoro – YUNESKOning Kreativ shaharlar tarmog‘iga qo‘shildi. Mazkur e’tirof O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga davlat tashrifi doirasida, BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YUNESKO) bosh direktori Odri Azule bilan uchrashuvida e’lon qilindi. YUNESKO Kreativ shaharlar tarmog‘i 2004-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u shaharlarning madaniy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda ijodiy sanoatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlaydi. Ushbu tarmoq 7 asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: adabiyot, kino san’ati, gastronomiya, hunarmandchilik va xalq san’ati, dizayn, media san’ati va musiqa. Buxoroning ushbu nufuzli ro‘yxatga kiritilishi shaharning boy madaniy merosi, san’at va hunarmandchilik an’analari, hamda ijodiy rivojlanish strategiyasi xalqaro miqyosda e’tirof etilganini anglatadi. Bu tarixiy voqea nafaqat Buxoro, balki butun O‘zbekiston uchun muhim qadam bo‘lib, turizm, hunarmandchilik va ijodiy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizning milliy madaniyatini, vohalardagi takrorlanmas an’ana va qadriyatlarni ko‘rsatish maqsadida bir qator xorijiy davlatlar aholisi uchun 40 dan ortiq transchegaraviy turistik marshrut ishlab chiqilgan. Turizm nafaqat madaniyat tashuvchilik vazifasini, ayni paytda iqtisodiy daromad manba sanaladi. Sayyohlik orqali topilgan daromadlarning 30 foizi odamlarning qo‘liga ish haqi bo‘lib bormoqda.

O‘zbekiston madaniyatini dunyoga keng miqyosida targ‘ib etish, etnomadaniy va sayyohlik imkoniyatlarimiz yaqindan tanishtirish maqsadida 2023-yilda Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi Samarqandda o‘tkazildi. YUNESKOning navbatdagi sessiyasini ham Samarqandda o‘tkazish rejalashtirilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning xorijdagi turizm imiji, milliy brendi yuksalib bormoqda. Jahon turizm tashkiloti O‘zbekistonni turizm xizmatlaridan tushgan tushumlar bo‘yicha dunyo bo‘ylab “ikkinchi eng yaxshi yo‘nalish” sifatida ko‘rsatdi. “Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi” tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekiston 2024-yilda “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha dunyoning eng faol mamlakati” deb topildi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) O‘zbekiston Respublikasini turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan 20 mamlakat ichida 4-o‘rinda e’tirof etdi. Rossiyaning “Russian traveler” jurnali tomonidan o‘tkazilgan milliy turizm mukofoti tanlovi natijasiga ko‘ra, 2024-yilda “O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi sayohat

yo‘nalishi” deb topildi.

2025-yilning 26-fevral kuni Nyu-York shahridagi BMT bosh qarorgohida O‘zbekiston tashabbusi bilan 2027-yil xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili deb nomlangan rezolyutsiya qabul qilindi. Hujjat Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023 yilning oktabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida turizm sohasining yangi muammolar va zamonaviy xatarlar oldida barqarorligi va moslashuvchanligi borasida bildirgan fikrlarga asoslangan.

Har bir xalq tarixi, urf-odat va qadriyatlari bilan tirik. Xalq o‘z madaniyatini saqlar ekan, ajdodlarning boy tarixi avlodga avlodga o‘tib boraveradi. Turizm esa ayni shu madanyatni kelgusi avlodga yetkazish, uni asl holicha saqlash, ommalashtirish, milliy madaniyatni dunyoga tanitishga yordam beradi. Sayyohlikning etnografik yo‘nalishi (etnoturizm) o‘zining ta’limiy, tarbiyaviy, kommunikativlik, tolerantlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning boqiy an’analarini o‘rgatish, hurmat ruhini shakllantirish, tarix bilan hozirgi zamonni bog‘lash va bag‘rikenglik fazilatlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

6. Nanakina Yu.S., Ramazonova L.R. Etnoturizm kak novoye napravleniye turindustrii: enacheniye i faktorы sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya // Sarskoselskiye chteniya. 2017. – S.324-325.

7. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari. 2025-yil, mart.

8. Shodiyev U. Turizm sohasidagi faoliyatni samarali va tizimli boshqarish // Yangi O‘zbekiston. 2025-yil 8 fevral. №28. 5-bet.

9. Komilov Z. Etnoturizm qishlog‘i maqomi berildi // www.UzA.uz. 29.11.2024 (Murojaat etilgan sana 25.03.2025)

10. Mahmudov N. Samarqanddan San-Remogacha yoxud mamlakatimizda turizmning yangi davri boshlanmoqda // Yangi O‘zbekiston. 2025-yil, 13 fevral. №31. 6-bet.

11. Bobomurodov B. Malayziyadagi muzey qurilishida faxr bilan ishlaganmiz // Yangi O‘zbekiston. 2025-yil 8 fevral. №28. 4-bet.

Xabiba Jurabekova,
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD

GLOBALLASHUV JARAYONINING MILLIY QADRIYATLAR VA AN’ANALARGA TA’SIRI VA ULARNI MUSTAHKAMLASH MEXANIZMLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada globallashuv jarayoni va uning milliy qadriyatlar va an’analarga ta’siri va kelajakda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashish borasida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan vazifalarga e’tibor qaratilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article focuses on the process of globalization and its impact on national values and traditions, highlighting the tasks that need attention in the future, particularly in the fight against "mass culture".*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *globallashuv, "ommaviy madaniyat", milliy qadriyatlar, o'ziga xoslik, Vatanga muhabbat.*

♦ ***Keywords:*** *globalization, "mass culture," national values, uniqueness, love for the homeland.*

Ma'lumki, bugungi kunda butun Yer kurrasi yagona bir makon sifatida, undagi turli millat va elat vakillari esa ulkan bir umumiy uyda istiqomat qilayotgan katta bir oila sifatida yagona axborotlar dunyosida yashamoqda.

Bu jarayonning asosiy sababi sifatida globallashuv jarayoni ekanligini barchamiz ko'rib-bilib turibmiz.

Globallashuv haqida gapirganda, biz nimani tasavvur qilamiz? Ko'pincha biz global dunyo, uning bizni o'rab turgan hamma narsaga ta'sir qilish kuchi haqida tasavvurga egamiz.

Globallashuv jarayoni haqida fikr yuritganimizda biz uning quyidagi ijobiy tomonlarini ko'rsatib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir:

1. Xalqlar va davlatlarning yaqinlashishi, insoniyatning ijtimoiy-madaniy birligining vujudga kelishi.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish.
3. Butun dunyo aholisi uchun ilg'or texnologiyalar, fan va san'at yutuqlaridan foydalana olish imkoniyatining mavjudligi.
4. Insonning o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini kengayganligi [1].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, globallashuv jarayoni faqatgina axborot va iqtisodiygina emas, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarida: iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda "globallashuv" so'zi nafaqat ijobiy nuqtayi nazardan qabul qilinmoqda. Bu atamaning "achchiq ta'mi" ham bor. Dunyodagi so'nggi voqealar globallashuvning o'zi va uning ta'siri, jumladan, an'anaviy madaniyatlar va o'ziga xosliklarga o'z izini qoldirmoqda. Ko'p olimlarning fikricha, globallashuv insonlarning o'ziga xosligiga kuchli ta'sir ko'rsatishi [2], shaxsning madaniy va milliy o'ziga xosligini yo'qotib qo'yishiga olib kelishi mumkin.

O'ziga xoslik deganda biz ma'lum bir o'tmish bilan uzviy bog'liqlik, ma'lum bir hudud doirasida rivojlangan an'analar, urf-odatlar, madaniy mansublikning mavjudligini tushunamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamondoshlarimizning juda ko'pchiligi hamma bilan bir xil bo'lishni istamaydi. Odamlar guruhlari boshqacha bo'lishni, o'zlarini ifoda etishni xohlaydi.

Globallashuvning o‘ziga xoslikka ta’siri muammosi etnik-madaniy o‘ziga xosliklar, muqaddas qadriyatlarning yemirilishi va milliy o‘ziga xoslik belgilarining yo‘qolishi asosida yotadi. Biz bugungi kunda globallashuv va uning ta’sirini inkor etmagan holda, milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz, etnik-madaniy o‘ziga xosligimizni saqlash choralarini ko‘rishimiz maqsadga muvofiqdir.

Globallashuv jarayonining o‘ziga xos tahdidlarini ko‘rsatib o‘tar ekan, muhtaram yurtboshimiz Birlashgan millatlar tashkilotining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir”, deya ta’kidlab o‘tdi [3].

“Ommaviy madaniyat” niqobi ostida xudbinlik, individualizm, zo‘ravonlik va ma’naviy buzuqlik g‘oyalarini tarqatish, buning natijasida ko‘plab xalqlarning ko‘p asrlik madaniyatiga mensimay qarash, ularning asoslarini buzishga urinish – bularning barchasi bizni hushyorlikka chaqirishi, chinakam ma’naviy qadriyatlarga hurmatsizlik bilan qarash, ularni o‘tmish yodgorliklari, insoniyat hayotining zamonaviy rivoji, oila asoslari va yoshlar tarbiyasiga jiddiy tahdidlarni oldini olish va jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish jamiyatning har bir a’zosining muqaddas burchi bo‘lishiga erishishimiz zarurdir.

O‘zbek xalqimiz o‘z mustaqilligi va ozodligi uchun azal-azaldan kurashib kelgan. Xalqimizning yana bir o‘ziga xosligi – bu milliy qadriyatlar va an’analarimizni ko‘z qorachig‘idek saqlash va uni yosh avlodga yetkazib berishdan iborat.

Bugungi kunda o‘z mustaqilligining 34-yilligida davlatimiz mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatining katta maydonida o‘z taraqqiyot yo‘lida mustahkam qadamlar bilan bormoqda.

Tarixiy ildizlarga, ajdodlarimizning bebaho madaniy merosiga, xalqning eng yaxshi an’ana va urf-odatlariga da’vat va shu asosda chuqur vatanparvarlik tuyg‘ularini, Vatanga muhabbatni tarbiyalash, o‘z mamlakatining tarixi, tili, dini, fan, adabiyoti va san’ati, folklor ijodi, zamonaviy yutuqlarini o‘rganish, milliy qadr-qimmat va o‘tmishdagi buyuk ishlar va zamondoshlarimiz erishgan yutuqlardan g‘ururlanish tuyg‘ularini rivojlantirish, milliy vijdon va or-nomusni uyg‘otish, umuminsoniy qadriyatlarni egallash zamonaviy insonparvarlikni shakllantirish, egoizm, individualizm, ma’naviyat etishmasligining halokatli oqibatlariga qarshi turish, yosh avlodni hushyorlikni tarbiyalash, xalqimiz tabiati va muqaddas urf-odatlariga yot g‘oyaviy oqimlardan asrash, yoshlarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish, zararli g‘oyalar va dushman kuchlarning xavfli rejalariga qarshilik – mustaqil O‘zbekistonning asosiy yo‘nalishlaridir.

Shuningdek, ekstremizm, fundamentalizm, millatchilik, shovinizm targ‘ibotchilari va ularning ortida turgan kuchlarning haqiqiy niyatlarini fosh etish, davlatimiz va uning boyliklari ustidan nazorat o‘rnatishga intilish ham davlatimizning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ponyatiye i formы globalizatsii. Ugrozы XXI veka (globalnыe problemы). https://umschool.net/library/obshhestvoznanie/ponyatie-i-formy-globalizaczii-ugrozy-xxi-veka-globalnye-problemy/

2. Ponarina N.N. Globalizatsiya: problema vliyaniya na kulturnuyu identichnost // Obщestvo: politika, ekonomika, pravo, . – № 3. – S. 28-33.

3. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi. http://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/political-news/5108-prezident-uzbekistana-shavkat-mirzijoev-vystupil-na-72-jsessii-generalnoj-assamblei-oon.html (murojaat qilingan sana: 30.03.2025).

B.B. To‘ychiboyev,
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n.
I.B. To‘ychiboyev,
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

“ALPOMISH” DOSTONI – MILLIY UDUMLAR VA O‘LMAS QADRIYATLAR MANBAI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada, “Alpomish” eposida ulug‘langan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy merosga bo‘lgan munosabat, ajdodlarimiz madaniyati, ma’naviy qadriyatlari va uning bugungi yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rnini ochib berishga harakat qilingan.*

♦ ***Abstract:*** *This article explores the national and universal values exalted in the “Alpomish” epic, the cultural heritage perspective, and the role of our ancestors' culture and spiritual values in the education of today’s youth.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *“Alpomish”, axloqiy-ma’naviy qiyofa, udumlar, tarixiy taraqqiyot, “kuyovlash”, “qiz yashirar”, “qiz izlar”, “boqon solish”, Bodom bikach, Qultoy, Barchin.*

♦ ***Keywords:*** *“Alpomish” moral-spiritual identity, traditions, historical development, “bride kidnapping” “girl hiding”, “girl searching”, “bachelor test”, Bodom Bikach, Qultoy, Barchin.*

Har bir xalqning udumlari, uning ma’naviy boyligini tashkil etuvchi asosiy omillardan sanaladi. O‘zbek xalqi dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri sifatida o‘zining axloqiy-ma’naviy qiyofasini aks ettiruvchi udumlarning butun bir tizimiga ega. Udumlar har bir millatning o‘zligini, boshqa etnoslardan ajralib turadigan jihatlarni anglatishi bilan ahamiyatlidir. Ehtimol, ayrim udumlarimiz o‘zga etnik qatlam vakillariga unchalik tushunarli bo‘lmasligi, o‘tirishmasligi mumkin. Lekin bu degani

o‘sha udumlarni saqlab qolmaslikni anglatmaydi. Biz o‘z udumlarimizga ehtirom bilan munosabatda bo‘lishimiz va ularning yashab qolishiga, yanada rivojlantirib, millat ma’naviyatining uzviy bo‘laklaridan biriga aylantirishimiz kerak.

O‘zbek xalq eposi “Alpomish” juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tgan. Ko‘p asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib xalq baxshilari xofizlar orqali bizgacha etib kelgan. Mustaqillik sharofati bilan xalqimizning milliy qadriyatari, hususan, ko‘hna, hamisha ezgulikka, diyonatga undaydigan, el-yurt manfaatini tarannum etuvchi “Alpomish” dostonini izchil o‘rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. “Alpomish” dostoni ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvadorlik axoli hayoti bilan bog‘liq [6. B. 398-406]. Bu doston asrlar osha xalqimizning milliy va ma’naviy meros bo‘lib kelmoqda. Bu o‘lmas asrni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o‘z iymon-e’tiqodidek asrab avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz “Alpomish” dostoni asosida tarbiya topgan, o‘zligini anglagan, ma’naviy kamolotga erishgan. “Alpomish” ming yillar davomida xalqimiz ma’naviy dunyoqarashini aks ettiruvchi udumlarini bugungi kunda ham yosh avlodga yetkazuvchi qudratli ma’naviyat manbai vazifasini bajaruvchi epos sifatida xizmat qilib kelmoqda.

O‘z vaqtida o‘zbeklarda orasida ancha keng tarqalgan “kuyovlash” udumi e’tiborga loyiqdir. Ma’lumki, o‘zbeklarda “sevgi erkinligi” ayb sanalgan. Bu erlarda balog‘atga yetgan yigit-qizning g‘arbdagi kabi sevgi sarguzashtlariga izn bo‘lmagani uchun yoshlar sevishgan taqdirlarida ham o‘zlarini emin-erkin tuta olmaganlar. Turkiy axloqqa ko‘ra, odamlarning intim munosabatlari pardali bo‘lishi kerakligi o‘zbeklar uchun ham majburiy axloqiy talab bo‘lgan. Lekin barcha yoshlar singari yigit-qizlar juda bo‘lmasa, unashtirilganidan keyin, barchaning ko‘zidan yashirin holatda bo‘lsa-da, bir-biri bilan uchrashib turishga, bir-birlarini bilishga, o‘zlarida bo‘lajak umr yo‘ldoshlari haqida tasavvur paydo qilishga uringanlar. Shuning uchun bo‘lajak kuyov unashtirilgan qiznikiga borib, u bilan uchrashib turishga intilganlar. Buning uchun kuyov kelinning yangasini sovg‘a-salom bilan o‘ziga og‘dirib olishi kerak bo‘lgan. Shundagina ular bu uchrashuvning “usul”larini ishlab chiqqanlar. Negaki, qiz-u yigitning uchrashuvi nafaqat boshqalar, balki birinchi navbatda, uy ichidagi erkaklardan bekitilishi kerak bo‘lgan [5]. E’tibor qilgan o‘quvchi “Alpomish” dostonida xalqimizning ana shunday udumi tasvirlanganining guvohi bo‘ladi:

Barchin shunday gajakdordi,
Hamma sizga intizordi,
Borib ko‘ring zulfakdordi.
O‘g‘rincha qalliqqa bormoq,
O‘zbek yurtida rasm bordi. [1,2,3]

Ma’lumki, dunyodagi barcha xalqlar hayotida to‘y muhim ahamiyat kasb etadi. To‘yga bog‘liq udumlarda u yoki bu millatning qiyofasi namoyon bo‘ladi. Oldinlari o‘zbeklarda to‘yga bog‘liq udumlar tamomila o‘zgacha shakl va mazmunga ega bo‘lgan. Uylanish to‘yida kuyov ikki o‘rtog‘i bilan to‘y kuni kelinnikiga

borgan. Ikki o‘rtoq “kuyovnavkar” hisoblangan. Kuyov, albatta, bu ikki yigit ortida, ko‘zga tashlanmayroq yurishga harakat qilgan. Kelinnikida bu uch yigit salobat bilan sekin-sekin qadam tashlab, har uch mayda qadamda bir bor sal egilib, salom solib borgan. Bu holatni to‘yxonadagi qiz-u bolalar qiziqish bilan tomosha qilishgan. Shundan keyin kelinnikida to‘qqiz tovoq qilinib, kuyo va uning jo‘ralari oldiga to‘qqiz xil yemak olib kirilgan. Kuyov va “kuyovnavkar”lar bu yemaklardan totinib, har bir tovoqqa uchchalasi ham pul tashlashgan. Bu udumning tashkilotchisi, ishtirokchisi va ijrochisi qiz chiqarayotgan oilaga yaqin ayollar, ko‘proq, kelining yangalari bo‘lishgan. Yangalar qancha gapga usta, topqir bo‘lishsa, kuyov tomondan shuncha ko‘p pul undirishgan va undirilgan pullar shu ayollar o‘rtasida bo‘lib olingan [5]. Ayni shunga o‘xshash udum tasviri o‘zbeklar hayotining badiiy qomusi bo‘lmish “Alpomish” dostonida shunday beriladi:

Boyvachchalar bekning girdin oladi,
Kuyovnavkar bo‘lib bunda turadi.
O‘zbekning rasimi shunday bo‘ladi:
Qiz-u juvon bari yig‘ilib keladi,
Kuyovning oldiga shunday boradi.
Opporg‘an taomin navkarlari yeb,
Tobog‘iga tanga-tilla soladi.
Ne bir xotinlar vaqti xush bo‘p boradi,
Ancha tanga bunda unum qiladi.
O‘rtaga o‘t yoqib qizlar turadi,
Salom solib, bekni boshlab boradi. [1,2,3]

To‘y udumlari orasida bugunga qadar ham unutilmagan “qiz yashirar”, “qiz izlar” kabilar kiradi [5]. “Alpomish” dostonidagi tasvirlarda o‘zbeklarning turmush tarzida bu udumini ko‘rish mumkin:

Barchinoyni bul o‘rtaga oladi,
Qadimgi rasimi shunday bo‘ladi.
Barchinoyni qiz opqochti qiladi,
Ne kelinlar yurib qizni so‘radi,
Bir yerdan bularni topib oladi.
Ikki vakil u mulladan keladi,
Kelib qizning ixtiyorin so‘radi,
Uyalgandan qabul qilmay turadi.
Qiz so‘ylatar degan rasm bo‘ladi,
Qiz gapirtgan ancha pulni oladi.
Barchin vakilini endi beradi,
Hakimbekni endi qabul qiladi. [1,2,3]

Kelin to‘ylaridagi “bolqon solish” udumi to‘ylarga ajib bir sirlilik, joziba baxsh etadi. Bunda kelin kelayotgan qishloq yoki ko‘chaning yosh yigitlari,

o‘smir bolalari, qizlari to‘yxonaga olib boradigan yo‘lning turli joylarida kelin olib ketilayotgan ulovning yo‘lini arqon yoki tayoq bilan to‘sib, kelin tomondagilardan ro‘molcha, do‘ppi, qiyiq singari siyliqlar olishadi. Bu bir jihatdan, qishloq bolalarining tashqaridan kelayotgan kelinga solgan o‘ziga xos “boj”lari bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kelin bo‘lib tushayotgan qizning chevarligi qandayligini bilib olish yo‘li ham bo‘lgan [5]. Ushbu udum qanday amalga oshirilgani “Alpomish” dostonida ham juda yorqin bo‘yoqlarda chizilgan:

Yuring, qizlar, borayiq deb,
Bek akamni ko‘rayik deb,
Chechani olib kelayik deb,
Qiz-u xotin borayotir,
Yo‘lda boqon solaylik deb,
To‘ppi, ro‘mol olaylik deb...
Akasiman ul ko‘rishib qoladi,
Ko‘p qizlar kelinni o‘rtaga oladi,
O‘tkazmaydi, yo‘lda boqon soladi,
Suqsur kaniz to‘ppi, ro‘mol beradi. [1,2,3]

O‘tgan asrning 70-yillarida ham kelin to‘ylarida "aytishuv" degan udum bor edi. Ma’lumki, bunga yaqin udum qozoq va qirg‘iz qardoshlarda hozir ham mavjud. Keyingi yillarda yoshlar kishidan ijodkorlikni talab qiladigan bu xil odatlarga “boshni qotiradigan” eskilik sarqiti tarzida qaray boshlaganidan, bu udum bizda deyarli yo‘qolib ketdi. Xuddi shu o‘rinda xalq og‘zaki ijodi namunalari milliy udumlarni asrab-avaylaydigan va keyingi avlodlarga yetkazib beradigan ulkan vosita hisoblanadi [5]. “Alpomish” dostonidagi Bodom bikach bilan Alpomishning aytishuvi shu jihatdan ahamiyatlidir:

Bodom bikach:
Soyi-soyi saykalay qo‘ydi boshlab, yoy-yoy,
Qalam qoshli yangalay o‘lan boshlab, yoy-yoy,
Qiziq-qiziq aytinglay, qiz-kelinlay, yoy-yoy,
Qizib ketsa Ultonbek tanga tashlay, yoy-yoy.
“Qultoy”:
Sari ko‘sam sarkalar qo‘yni boshlar, yor-yor,
Qalam qoshli yangalar o‘lan boshlar, yor-yor,
Qiziq-qiziq aytmanglar, qiz-kelinlar, yor-yor,
Alpomishdan qolgan molni Ulton kimga tashlar, yor-yor.
“Qultoy”:
Bizdan qolgan qo‘zilar qo‘y bo‘libdi, yor-yor,
Bizdan qolgan Barchinoy bo‘y bo‘libdi, yor-yor,
Bo‘y qiz bo‘lib juda ham to‘y bo‘libdi, yor-yor,
Bizdan qolgan qulunlar ot bo‘libdi, yor-yor,
Bizdan qolgan Barchinoy yot bo‘libdi, yor-yor.

Barchin:

O‘ylay-o‘ylay Barchinoy o‘y bo‘libdi, yor-yor,
Hozir gumon qilibsiz yot bo‘libdi, yor-yor,
Sizi bilan aytishib, mot bo‘libdi, yor-yor... [1,2,3]

O‘zbek to‘ylarda ham o‘z vaqtida shu kabi aytishuvlar bo‘lar, unda kelin yoki kuyov tomon yengilar, ko‘pincha, kelin tarafdorlari odob yuzasidan “yengilib” qo‘yardi. Kelin to‘ylaridagi aytishuvlar san’at darajasida ijro qilinib, aytishuvchilar bir-birlarining surat-u siyratlarini she’rga, kuyga aylantirar edilar. Aytishuv misralari, ko‘pincha, “yor-yor” so‘zlari bilan tugallanar edi. To‘g‘ri, yor-yor aytish g‘oyat nochor holda bo‘lsa-da, hozirga qadar bor. Ammo aytishuvlar hozirgi “yor-yor”lar singari radio-televizordan eshitib oldindan yodlab olingan qo‘shiqlardan iborat bo‘lmas, ular chinakam ijod namunalari edi. Afsuski, kishilarga son-sanoqsiz qulayliklar keltirayotgan taraqqiyot, urbanizatsiya jarayoni kishilar ko‘nglidagi ezgulikni namoyish etuvchi shu xildagi ma’naviy qadriyatlarni yo‘qotib yubordi va bu jarayon shiddat bilan davom etmoqda. Endilikda bu udumlarni milliy qadriyat bo‘lgani uchungina tiklab bo‘lmaydi. Negaki, bezovta qalbning, pokiza yurakning mahsuli o‘laroq o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan aytishuvni istak yoki topshiriq bilan yo‘lga qo‘yish mumkin emas. Ammo yaqin o‘tmishda ham o‘zbek to‘ylarida aytishuvlar bo‘lganligi, ular ekspromt bilan, o‘sha vaziyatning o‘zidan kelib chiqib, qatnashchilarning kimligiga qarab, joyida to‘qilgan [5].

Ajdodlar merosi ulug‘langan qadriyat sifatida, “Alpomish” eposining o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ulug‘langan nomoddiy madaniy merosga bo‘lgan munosabat tubdan yangilanib, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari tizimini keng ko‘lamda targ‘ib etishning misli ko‘rilmagan imkoniyatlari ochib berilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alpomish – o‘zbek xalq qahramonlik eposi, T., 1999.

2. Alpomish dostoni (turkiy xalqlar versiyalari) – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020. – 180 b.

3. Alpomish, T., 1998;

4. Bo‘riyev O. O‘zbek xalqi boqiy qadriyatlari. – Qarshi, 2005.

5. To‘ychiboyev B., Qashqirli Q. Zominning til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 400 b

6. Yo‘ldosheva S. “Alpomish” dostoni – ulug‘langan milliy qadriyat. XX asr o‘zbek folklorshunosligi. Antologiya. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. B. 398-406. – 592 b.

7.Sodiqova Z. M. “Alpomish” dostoni va yoshlar tarbiyasi. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1601

8. Sharipova M. O‘lmas an’ana va marosimlar-ma’naviyatimizning nodir xazinasi //SENTR NAUCHNЫX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. –

№. 1.

9. Sharipova M. B. “Alpomish” dostoni – badiiy barkamol asar. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601

Atadjanov Mamirjon Yusupovich,
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

GLOBAL QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI VA BOQIMANDALIK

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola zamonaviy o‘zbek identikligining ming yillar davomida shakllangan qadriyat tizimi va bugungi kundagi global jarayonlar ta’sirida o‘zgarayotgan jihatlari tahliliga bag‘ishlangan. Ushbu ilmiy yondashuvdan asosiy maqsad, identiklik millat, fuqaro va davlatni ijtimoiy borliqning qanday o‘zaro aloqadorlik tamoyillarida bog‘laydi, degan masalaga oydinlik kiritishdir.*

♦ ***Abstract:*** *This article discusses the unique characteristics of universal and global values, as well as the issues related to the transformation of global values and the threats they pose to national identity.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *umuminsoniy, global, transformatsiya, tahdid, demokratiya, gender, zo‘ravonlik, iste’molchilik, boqimandalik.*

♦ ***Keywords:*** *Universal, global, transformation, threat, democracy, gender, violence, consumerism, dependency.*

Milliy qadriyatlar bilan birga global darajada turli milliy madaniyatlar va jamiyatlar ijtimoiy ongiga ta’sir ko‘rsatadigan umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi mavjud. Ayni paytda hech qachon transformatsiyaga uchramaydigan, hamma davrlarda hamma millatlar uchun bir xil mazmun va mohiyatga ega tinchlik, do‘stlik, tenglik, ozodlik kabi umuminsoniy qadriyatlar bir qatorda muntazam transformatsiya bo‘lib, har bir davrda turli millatlar uchun turlicha mazmun va mohiyatga ega bo‘ladigan demokratiya, gender tengligi, zo‘ravonlik, mehnat, iste’molchilik, boqimandalik kabi global qadriyatlar ham mavjud bo‘lib, ularni bir xil standartga mos xolda qabul qilish yoki zo‘rlab ijtimoiy ong tarkibiga joylash milliy qadriyatlar uchun tahdid manbaiga aylantiradi.

XXI asrda transformatsiyalashgan global qadriyatlar tahdidi oqibatida milliy o‘ziga xoslik chegaralari silliqlanib millati, dini, irqidan qat’iy nazar barcha odamlarda bir xil turmush standartlari, iste’molchilikning turli ko‘rinishlari shakllanmoqda.

Moddiy asosga ko‘ra har qanday farovonlik jamiyatida to‘xtovsiz iste’mol uzluksiz ishlab chiqarishni ta’minlaydi, uzluksiz ishlab chiqarish

esa beto‘xtov iste’molni rag‘batlantiradi. Iste’molchilik kuchaygan sari insonning dunyoqarashida moddiy asos ustunlik qilishi oqibatida ma’naviy omil asta-sekin orqa o‘rinlarga suriladi, o‘z-o‘zidan milliy-ijtimoiy qadriyatlar tizimi buzilib, inson asta-sekin o‘zini, oila-a’zolarini, yaqinlarini moddiy farovonlik manbai bo‘lgan ishdan keyingi o‘ringa qo‘ya boshlaydi yoki shunchaki pul topishning oson yo‘llarini tanlaydi.

Ma’naviyat va axloq nuqtayi nazaridan iste’molchilik va uning oqibati sanalgan boqimandalik shaxsning erkinligi va o‘ziga xosligini ta’minlaydigan har qanday omilga nisbatan ochko‘zlik va ochofatligi, erkinlikni cheklaydigan har qanday omilga nisbatan esa betoqatligi belgisidir. Bunday xususiyat insoniyatning butun filogenez davomida erishgan eng buyuk qadriyati, demokratiyaning transformatsiya bo‘lishida ham namoyon bo‘lmoqda. Demokratiya odamlar uchun tenglik, farovonlik, huquq va erkinliklar kafolati bo‘lishi bilan birga uning ayrim salbiy oqibatlari ham bo‘lishi mumkinligi haqida Platon o‘zining “Davlat” asarida yozgan edi: “Demokratik davlatda fuqarolarning ruhi, hatto mayda-chuydalarga nisbatan ham nihoyatda sezgir bo‘lib qoladi, har qanday majburiylik ularda nomaqbul narsa sifatida g‘azabga sabab bo‘ladi, hech kim va hech narsa ular ustidan hokimiyatga ega bo‘lmasligi uchun ular hatto qonunlar bilan ham hisoblashishni to‘xtatadilar. Demokratik tuzumda erkinlik bahonasida ota-onani hurmat qilmay va ulardan qo‘rqmay qo‘yadilar”.[5]

Zamonaviy shaxs qurilmasida gedonizm-lazzatlanish bilan bog‘liq iste’molchilik psixologiyasining yangi ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda. Iste’molchilikning ana shunday ko‘rinishlaridan biri gender nazariyalari bilan bog‘liq. Gender g‘oyasini jinsiy iste’molchilik, tabiiy-biologik xususiyatlarni inkor qilish hisobiga bo‘lsa ham o‘z jinsiy fantaziyalarini ro‘yobga chiqarishga intilish, deb baholash mumkin. Gender nazariyasi qoidasiga ko‘ra, gender identifikatori biologik jins bilan bog‘liq emas, ya’ni “gender” tushunchasi “jins”» so‘zining sinonimi emas. Gender tushunchasi psixologik, madaniy va ijtimoiy farqlarga taalluqli bo‘lsa, jins tushunchasi faqat jismoniy, anatomik va fiziologik farqlarga taalluqlidir.

Zamonaviy gender nazariyalarida erkak genderi ramzi Marsning nayza va qalqoni, ayol genderi ramzi Venera oynasi, transgender identiklik esa o‘zida Venera oynasi va Marsning nayza va qalqonini birlashtirilishi ko‘rinishida ifodalanadi. Ayol o‘zini himoya qilish uchun har ikkala sifatni birlashtirishi, transgender bo‘lish kerak. Bu nazariya aslida transeksuallilik, bir jinsli nikohlarning mafkurasi bo‘lib xizmat qiladi. Gender nazariyalari genderni tanlash erkinligini tan olib, biologik jinsni inkor qiladi, bolalarga katta bo‘lganda o‘z genderini va shunga mos ravishda biologik jinsini erkin tanlash g‘oyasini targ‘ib qilib, lesbiyanlik va gomoseksualizmni, bir jinsli nikohlarni targ‘ib qiladi.

Zamonaviy kishilik jamiyati oldida ko‘ndalang bo‘lib turgan, iste’molchilik bilan chambarchas bog‘liq va uning bevosita oqibati bo‘lgan yana bir dolzarb muammo ijtimoiy va iqtisodiy boqimandalik muammosidir. Boqimandalik xudbinlikning hayotiy mafkurasi, kimnidir qo‘llab-quvvatlash, o‘zini ta’minlashni istamagan odamga yordam berish majburiyatini tan olish pozitsiyasidir. Boqimandalik,

qoida tariqasida, o‘zaro yordam, xayriya va oddiygina g‘amxo‘rlik shiori ostida yashiringan. Ijtimoiy boqimandalik soppa-sog‘ odamlarning hech narsa yaratmasdan iste’mol qilishini anglatadi. Bu sifat bolalikda, masalan, uy vazifasini yoki nazoratni boshqa birovga yozdirishda, boshqa odamlarning narsalariga tajovuz qilishda namoyon bo‘ladi va o‘g‘rilik, hasad va boshqa illatlarni qo‘zg‘atadi.

Zamonaviy shaxs qurilmasida iste’molchilikning yana bir ko‘rinishi axborot iste’molchiligi, axborotga nisbatan to‘xtovsiz ochlik, ehtiyoj va qaramlikni his qilishi bo‘lib qoldi. Hozir ko‘plab tadqiqotchilar raqamli dunyoda insonning mavjudligi, raqamlashtirishning shaxs qurilmasiga, ong va ong osti sohalariga, kognitiv jarayonlarga ta’siri masalasida o‘rinli xavotir bildirishmoqda. Raqamli muhitning inson uchun asosiy muammosi uning shaxs yaxlitligiga tahdidi hisoblanadi. Insonga xos bo‘lgan muhim xususiyatlarning aksariyati insonning yaxlit mavjudot sifatidagi g‘oyaga asoslanadi. Individual tushunchasi so‘zma-so‘z “bo‘linmas”", degan ma’noni anglatadi, bo‘linmas shaxs iroda erkinligining egasi, huquq subyekti, siyosiy va iqtisodiy faoliyatlar ishtirokchisi sifatida qaraladi. Psixologiyada yaxlitlikning kafolatlaridan birinchisi bu doimiy va o‘zgarmas, deb hisoblangan ruh tushunchasi bo‘lsa, ikkinchisi inson va dunyo o‘rtasidagi har qanday o‘zaro ta’sirni ta’minlaydigan va odamlarga bir-birini tanish imkonini beradigan vujud hisoblanadi. Masofadan deyarli bir zumda axborotni uzatishga qodir texnologiyalar – telegraf, radio, telefon, internet, televideniye va boshqa vositalar yordamida inson o‘z tanasining chegaralarini tark etmasdan, kosmosning boshqa nuqtasida "deyarli" bo‘lish va jismoniy jihatdan uzoqroq bo‘lgan boshqa odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lib qoldi.

Aloqalar sonining ko‘payishi va ma’lumotlar hajmining oshishi bilan sifat yomonlashib, yuzaki bo‘lib qolmoqda, olingan ma’lumotlar uzoq muddatli xotirada kamroq qayd etilmoqda. Odamlar yodlash o‘rniga raqamli xotiraning tashqi muhitiga ishonib ma’lumotlarning ko‘pini umuman eslamaslikni afzal ko‘rishmoqda, chunki ularni har doim internetda topish mumkinligiga ishonishadi. Shunday qilib, bilish tashqi muhit resurslaridan faol foydalangan holda kengaydi va xotira tashqi bo‘lib, sun’iy yordamchilarga topshirilmoqda.

Har qanday ta’limiy, tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy axborot ong qurilmasini transformatsiya qilish, kerakli mazmunni uning tarkibiga joylashtirishga yo‘naltiriladi. Zamonaviy odam bilim va tajribadan ko‘ra ko‘proq axborotga, turli manbalardan tarqatilayotgan g‘oyalarga tobe bo‘lib qolmoqda, unda axborotga ochlik hamda tashnalikka asoslangan axborot iste’molchiligi va xotirani zo‘riqtirmaslikka asoslangan axborot boqimandaligi shakllanmoqda. Bugun har qanday axborot-ma’lumot, hatto reklama-tijorat ma’lumoti ham ijtimoiy ongni shakllantiradigan g‘oyaga aylandi.

Millatlararo, dinlararo va xalqaro miqyosdagi davlatlararo zo‘ravonliklarning mohiyati barcha uchun bir xil mazmunga ega, shaxslararo va oilaviy munosabatlarda esa har doim etnik tusga ega bo‘ladi, shuning uchun zo‘ravonlik, deb talqin qilinadigan munosabatlar turlari har bir millatda

turlicha talqin qilinadi. Zo‘ravonlikning aynan shaxsiy va oila darajasidagi shakllariga universal mazmun berish uni milliy identiklik xavfsizligiga tahdidga aylantiradi. “Kutish omili” ga ko‘ra kim haqidadir salbiy yoki ijobiy axborot, ma’lumotga ega odam shu odamdan o‘zidagi idrok pattern modeliga mos xulqni kutadi, yoki uning xulqini shunday qabul qiladi. Behisob targ‘ibot, tashviqot tufayli xotin eridan, bola ota-onasidan, o‘quvchi o‘qituvchisidan zo‘ravonlikni kutishga, yoki uning xulqini zo‘ravonlik sifatida qabul qilishga ustanovka oladi. Natijada ajrimlar soni ko‘payadi, o‘quvchilarning o‘qituvchiga qo‘l ko‘tarishi, farzandlarning ota-onalarini sudga berishlari odat tusiga kiradi.

O‘tgan asrning 60-yillarida yoshlar ijtimoiy ongida qadriyatlar inqirozi, pessimistik kayfiyatlarning ustunligi, an’anaviy qadriyatlarni qayta baholash, davlatga, hokimiyatga va ijtimoiy institutlarga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish, muvaffaqiyatga erishishdan voz kechishda namoyon bo‘lgan ommaviy ong qirralari hozirda turli axborot platformalaridan zerikish, loqaydlik, maslaksizlik ko‘rinishida turli mamlakatlar yoshlari ijtimoiy ongi tarkibiga joylanmoqda, norozilik kayfiyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Mirziyoyev Sh.M. Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutq.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T. O‘zbekiston, 1997 - 326 b.

3. Platon. Gosudarstvo, Dialogi, Apologiya Sokrata Syeriya: Biblioteka izbrannых sochineniy, Izdatelstvo "Eksmo", Kol-vo stranis: 736, Data vыxoda: 6 maya 2024.

Ahrorbek Azizov,
Fanlar akademiyasi Tarix instituti
kichik ilmiy xodimi, PhD

MILLIY QADRIYATLARNI YOSH AVLODGA SINGDIRISHDA XALQ O‘YINLARNING AHAMIYATI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada yosh avlodga milliy qadriyatlarni yetkazishda shaxsiy sifatlarni shakllantirish jihatidan xalq o‘yinlarining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, jamiyatda o‘rnak bo‘la oladigan kishilarning xulq-atvori, o‘zini tutishi qanday bo‘lishi shartligi va insoniylik meyorlari qanday bo‘lishi xalq o‘yinlari qatnashchilari asosida tahlil etilgan. Maqolada qiyosiy tahlil etish orqali tarixiy manbalar, elshunoslik va tarix yo‘nalishidagi tadqiqotlar hamda dala tadqiqoti ma’lumotlariga tayangan holda muammoni yoritishga harakat qilingan. Bundan tashqari, milliy o‘yinlardagi qoidalar va talablar jamiyatning yosh avlodni tarbiyalashga*

qaratilgan qonunlar majmui sifatidagi o‘rni ko‘rsatilgan.

♦ ***Abstract:*** *This article reveals the importance of folk games in the formation of personal qualities, in the transfer of national values to the younger generation. Also, using the example of participants in folk games, the behavior and manners of people who can serve as role models in society, as well as standards of humanity, were analyzed. The article attempts to shed light on the problem through comparative analysis, relying on historical sources, ethnographic and historical research, as well as field research data. In addition, the rules and requirements of national games are shown as a set of laws of society aimed at educating the younger generation.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *pahlavon, shohmot, usta, oliya, chavandoz, mergan, o‘qchilik, Turon.*

♦ ***Keywords:*** *wrestler, chess, master, nobleman, horseman, shooter, archery, Turan.*

O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yar ekan, turli sohalar va yo‘nalishlar kundan kunga rivojlanmoqda. Ushbu yo‘nalishlar uchun mutaxassislar tayyorlash va ularni milliy ruhga ega inson sifatida shakllantirishda ta’limning o‘rni nihoyatda yuksakdir. Zamonaviy ta’lim usullari va tajribalariga ko‘ra, o‘yinlar orqali yosh avlodni samaraliroq tarbiyalash hamda ularda kerakli shaxsiy sifatlarni shakllantirish mumkin. Ayniqsa, xalq o‘yinlari ana shunday xususiyatga ega bo‘lib, bir paytning o‘zida bolalarni jismonan, aqlan, ruhan rivojlantirish bilan birgalikda, qator shaxsiy sifatlarni ham shakllantirishga yaqindan yordam beradi.

Turon o‘yin madaniyatida o‘yinlar muhim tarbiyaviy vazifani bajarib, yoshlarni oilada, jamiyatda, mamlakatda o‘z o‘rnini egallashga hamda ularni qo‘rmas, tartibli, yuksak insoniylikni saqlashga o‘rgatgan. Shuningdek, o‘yinlar orqali yigit va qizlarning ruhiyati mustahkam bo‘lishi, vatanga bo‘lgan sadoqatini shakllantirish, eng mahoratlilar taqdirlanishi esa, ularning ushbu mashqlar orqali jamiyatdagi eng ilg‘or qatlam vakili bo‘lishiga kafolat sifatida o‘zlariga ishonchni orttirgan hamda istakni uyg‘otgan. Eng mahoratli o‘yin ustalari xalq orasida qadrlangan va "polvon", "pahlavon", "usta", "oliya", "chavandoz", "mergan" kabi nomlar bilan atalib, ismlariga ushbu nomlar qo‘shib aytilgan.

Eng mahoratli o‘yin ustalari hamisha barchaga o‘rnak va yoshlar o‘zlarini o‘sha inson erishgan darajaga erishishni orzu qilib ulg‘ayganlar va o‘zlarini ustilarida astoydil ishlaganlar. Hukmdorlar tomonidan mahorat egalarining taqdirlanishi va ularga bo‘lgan e’tibor asnosida yoshlar o‘rtasidagi ushbu intilish yanada kuchaygan. Xususan, kurash musobaqalarida, uloq-ko‘pkari bellashuvlari va o‘qchilik o‘yinlarida yoshlarni tarbiyaviy jihatdan jarayonga nisbatan bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish uchun o‘yin boshlanishida yosh qatnashchilar uchun alohida davra qilib berilgan. Ularga bellashuv shartlari uqtirilib, raqibga nisbatan do‘stona

munosabat hamda insoniylik eng asosiy g‘oya ekanligi uqtirilgan[1, 159 b.; 2, 97 b.; 3, 52 b.]. Uchrashuv so‘nggida yoshlar mahoratlariga yarasha taqdirlanganlar. Katta bellashuvlar va sayllarda o‘yinlarni boshlab berishda yoshlarga maxsus davra qilib berilishi o‘zbek madaniyatining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, deyarli barcha sport turlari musobaqalarida ushbu an’anaga amal qilingan.

Tarbiyaviy jihatdan aqliy o‘yinlar harakatli o‘yinlardan aslo kam bo‘lmagan xususiyatga ega. Xususan, shohmot o‘yinida mahoratli bo‘lish turkiy xalqlarda bahodirlarga qadimdan muhim talab sifatida qo‘yilgan [4, 136 b.]. Shuningdek, 9 – 12-yuzyilliklarda davlat elchilariga kamon otish, chavgon o‘yini va shohmot o‘yinida mahoratli bo‘lish talab sifatida belgilangan [5, 85-86 b.]. Shuning uchun yoshlarni tarbiyalashda ham harakatli o‘yinlar ham aqliy o‘yinlar birdek muhim sanalgan.

Turonda shakllangan o‘yin turlari bo‘yicha har bir davrda yetuk mahoratli o‘yin ustalari shakllangan. Ushbu ustalarning nomlari, yaratgan o‘yindagi usullari, o‘yinga olib kirgan yangiliklari avlodlar xotirasida yuzyilliklar davomida saqlanib keladi hamda keyingi avlodga yetkaziladi. Xususan, el ichida eng taniqli kishilar va ularning mahorati yuzyilliklar davomida turli tarixiy hamda badiiy asarlarga, xalq og‘zaki ijodiga ko‘chadi. Ana shunday mahoratli o‘yin ustalari sifatida manbalarda 100 dan ortiq shaxslar tilga olingan. 11 – 20-yuzyillar oralig‘ida Qurbon pahlavon, Pahlavon Mahmud, Hazrati Bahouddin, u kishining pirlari Hazrat Amir Kulol, pahlavon Sodiq, pahlavon Kulol, Hoji Muhammad pahlavon, pahlavon Shodmon, pahlavon Muhsin [1, 158 b.], 16-yuzyillikda Nusrat Olmalig‘iy [6, 154 s.], Jonibek duldoy [7, 40 b.], Pahlavon Muhammad Busaid [7, 141 b.], Pahlavon Sodiq, Do‘st Yasin Hayr, Pahlavon Lahuriy [7, 267 b.], Pahlavon Avadiy [7, 277 b.], 18 – 20-yuzyillik boshlarida yashagan mashhur pahlavonlardan Egamnazar pahlavon, uning o‘g‘li Shernazar polvon, Shernazar o‘g‘li Elnazar, Elnazar o‘g‘li Xo‘janazar, Azimxo‘ja Podshoh xoji o‘g‘li, Muzaffar Asrorquliboy o‘g‘li, Ne’matillo Ismatillo o‘g‘li, Sarimsoq Mirroziq o‘g‘li, Abdullo Toshmuhammad o‘g‘li, Toshmuhammad Orifboy o‘g‘li, Ohunjon hoji pahlavon, Usmon pahlavon, Do‘st pahlavon, Ahmad Topilboy o‘g‘li, Rustam Mavlon o‘g‘li, Ali Mirzakarim o‘g‘li, To‘ychi Rahimboy o‘g‘li, O‘rinboy Mirza o‘g‘li, Mulla O‘sar Botir o‘g‘li, Nadmiddin Muhiddin o‘g‘li va boshqa bir qancha polvonlar bo‘lgan [1, 158 b.]. Deyarli har bir o‘yin turi bo‘yicha bunday mahoratli kishilar har bir davrda mavjud bo‘lgan. qadriyatlarga ko‘ra, ularning ismlari yangi tug‘ilgan saqaloqlarga havas qilinib, shunday mahoratli kishilardek bo‘lishi niyat qilib qo‘yilgan. Turli sayl va tomoshalarda esa bunday polvonlardan farzand uchun duo olish odati mavjud bo‘lgan [8]. Insonlarning ishonchiga ko‘ra, polvon duo qilgan yigitlar kelajakda shu kishilardek baquvvat, kuchli bo‘ladi. Bundan tashqari, mahoratli qaliy o‘yin egalari nomlari ham yuzyilliklar osha bugungi kungacha yetib kelgan. Ular: 9 – 10-yuzyilliklarda Turonlik eng taniqli shohmot ustalari Jobir Kufiy, Abdulja’far Ansoriy, Naim Xadim va xorazmlik Zayrab Katanlar bo‘lishgan [9, 11 s.]. Keyingi yuzyillikda ham Turon hududida Sulton Mahmud G‘aznaviy [10, 25 s.], Amir Temur davrida shohmot o‘yini yanada ommalashgan va

hukmdorlarning o‘zlari homiylik qilish bilan birgalikda ushbu o‘yinda ancha mohir bo‘lganlar. Shuningdek, Turon hududi shakllangan ilmiy va ijodiy muhit tufayli Muhammad ibn Uqayl Haymiy, Zayn Yazdiy, Alouddin Tabriziy (o‘z davrining "birinchi shohmotchi"si deb atalgan) [11, 57-58 b.], Xoja Isfaxoniy, Alisher Navoiy [7, 139 b.], Kamoliddin Binoiy [12, 52 b.], Mavlono Sohib [13, 52 b.], Mavlono Muhammad Tolib [13, 57 b.], Mavlono Vasliy [13, 79 b.], Mavlono Fazlullo [13, 97 b.], Mir Murtoz [7, 138 b.], Darvesh Muxammad tarxon [14, 45 b.] kabi o‘nlab mashhur shohmot ustalari bo‘lgan. Shayboniylar davrida Do‘stiy va Barnocha ismli shohmotchilar o‘yinchilar orasida tengsiz bo‘lganlar [12, 45 b.]. 19-yuzyillikka kelib ham shohmot o‘yini mohir ustalari Turkiston hududida mavjud bo‘lgan. Ular orasida 1877 yilgi Samarqanddagi musobaqada bellashgan Nasrullohboy Abdurahmonov va Mulla Shamsiddin Najmiddinovlar kabi shohmot ustalari talaygina bo‘lgan [15, 269 s.]. Turli davrlarda ismlari manbalarda qayd etilgan ushbu shaxslar turli tabaqalarga mansub bo‘lganlar va turli vazifalar bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Ularning bir qismi harbiylar, shahzodalar yoki o‘z davrining olimlari edilar.

Milliy tarbiya tizimida o‘yinlardan sabr, to‘g‘ri qaror qabul qilish, har qanday favqulodda holatga tayyor turish kabi xislatlarni shakllantirishda ham foydalanilgan. Xususan, farzandlarga o‘q otish, otda yurish, yakkakurashga shart deb qaralgan [16, 262 s.]. Shu tarzida ularni jasur va qo‘rqmas qilib tarbiyalash mumkin deb hisoblangan.

Shohmot, o‘qchilik yigitlarni sabrli bo‘lishga va yaxshilab fikr qilib, qaror qabul qilishga o‘rgatuvchi o‘yin hisoblangan. Ayniqsa, o‘qchilik yigitlarni sabrli qilib tarbiyalashda muhim mashq sifatida qayd etilgan [17, 75 s.; 18, 28 b]. Umuman, o‘qchilik va harbiy o‘yinlar shahzodalar yoshlikdan yoqtirgan jarayon sifatida manbalarda talqin etilgan [19, 13 s.]. Xususan, o‘q yoyni yaxshi qo‘llash bilish yaxshi tarbiya tufayli deb qaralgan. Shuningdek, mahoratli bo‘lgan o‘qchilar o‘qchilikka ko‘p vaqt sarflasalar, hech narsaga muhtoj bo‘lmasligiga ishonilgan [20, 34-35 b.]. Mahoratini oshirib borgan kishilar qadrlangan hamda jamiyatda muhim o‘ringa ega bo‘lganlar.

O‘yinlar orqali yigitlarni Vatanni himoya qilish, odamlarning og‘irini yengil etish yoki ularga yaxshilik qilish g‘oyalari uqtirilgan yoki targ‘ib etilgan. Yigitlar kurash tushganlarida shuhrat yoki mol-dunyo haqida o‘ylamaganlar, balki. or-nomus, o‘z hududining sharafi uchun bel olishganlar yoki musobaqalashganlar [21, 54 b.]. Shuning uchun ham o‘yinlar orqali yigitlik, erkaklik, o‘z hududining nomusi uchun kurashuvchilik xislatlari shakllantirilgan.

Bugungi kunda yoshlarni globalizatsion jarayonlar ta’siriga qaramay milliy ruhda va qadriyatlarni singdirgan holda shakllantirish maqsadida xalq o‘yinlaridan turli fanlarni o‘qitishda faol qo‘llab kelinmoqda. Ushbu majmuadan shuningdek, turli bayramlar va tantanalarda hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda. Yosh avlod vakillari nafaqat milliy bellashuvlar, balki, ellararo musobaqalarni kuzatish orqali milliylik, vatanparvarlik kabi tushunchalarni anglab kelmoqdalar. Natijada, farzandlarimizni milliy o‘yinlarga jalb etishimiz va ularga o‘yinlarning asl

mohiyati hisoblangan qoidalarni, talablarni singdirish orqali ularning shaxsiy sifatlarini ham shakllantirish imkoniyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ega bo‘lamiz mumkin. Shuning uchun ham milliy o‘yinlarni o‘tkazilishini yanada kengaytirish va ushbu jarayonlar orqali yoshlarni yanada jismonan va ruhan tetiklantirishimiz eng maqbul yo‘llardan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Ro‘ziyev A., Azizov N. O‘zbek milliy bel olish kurash tarixidan. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 512 bet.*
2. *Yo‘ldoshev S.V. Uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonida xalq o‘yinlarining tarixiy, ilmiy pedagogik asoslari. – Farg‘ona, 2020. 226 bet.*
3. *Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2000. 288 bet.*
4. *Bo‘ronov A. Oltoylar. – Toshkent. Muharrir nashriyoti, 2017. 184 bet.*
5. *Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga eltuvchi bilim). – Toshkent: Cho‘lpon, 2007. 200 bet.*
6. *Джамал ал-Карши. ал-Мулхакат би-с-сурах. I том. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. 416 с.*
7. *Zahriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2008. 288-bet.*
8. *Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Oltiariq tumani. 2017-yil.*
9. *Юдович М. Рассказы о шахматах. – Москва: Физкультура и спорт, 1959. 201 с.*
10. *Орбели И., Тревер К. Шатранг книга о шахматах. – Ленинград: Издание государственного Эрмитажа, 1936. 197 с.*
11. *Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. I kitob. – Toshkent: Mehnat, 1992. 57-58-betlar.*
12. *Zayniddin Mahmud Vosifiy. Badoye’ul vaqoye’. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1979. 41-bet.*
13. *Alisher Navoiy. Majolis un-Nafois (I- qism) library.ziyonet.uz/ 113 bet. (07.09.2024)*
14. *Zahriddin Muxammad Bobur. Kulliyot. 4-jild / Boburnoma (Voqe’oti Boburiy). Farg‘ona davri voqealari. Toshkent. 2021. 45-bet.*
15. *Черневский А. Шахматы въ Туркестане // Шахматный Листок. 1877. №9 – 10. – С. 268 – 270.*
16. *Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Том I. книга первая. – Москва: Издательство академии наук СССР, 1952. 316 с.*
17. *Gerkaves A.N. Codex Cumanicus. – Almaty: Baur, 2015. 65 – 120 p.*
18. *Ab-u Bakr ar-Roziy. Kasalliklar tarixi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. 256-bet.*
19. *Yazdi Sharaf ad-Din Ali. Zafarname. – Tashkent: San’at, 2008. 486 s.*

20. Umar Xayyom. Navro‘znoma. – Toshkent: Mehnat, 1990. 79 bet.
21. Xoja Samandar Termiziy. Dastur ul-muluk. – Toshkent: Sharq, 2001. 352 bet.

Asida Isabayeva,
Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

JADID ADABIYOTI NASRIY ASARLARI ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI O‘QITISHDA AN’ANAVIY VA ZAMONAVIYLIK MUVOZANATINI TA’MINLASH

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada jadid adabiyoti nasriy asarlari orqali milliy qadriyatlarni o‘qitishning pedagogik ahamiyati tadqiq qilingan. Globallashuv sharoitida o‘quvchilarda adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish va milliy o‘zlikni mustahkamlash masalalari o‘rganilgan. Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon asarlari misolida ushbu asarlarning an’anaviylikni saqlash va zamonaviylikka moslashishdagi o‘rni tahlil qilinib, jadid adabiyoti asarlarini o‘quv jarayoniga samarali joriy qilish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article investigates the pedagogical significance of teaching national values through the prose works of Jadid literature. It examines the development of literary competencies and the reinforcement of national identity among students in the context of globalization. Using the works of Abdulla Qodiriy and Cholpon as examples, the study analyzes their role in preserving tradition and adapting to modernity. Practical recommendations are provided for effectively integrating Jadid literature into the educational process.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *jadid adabiyoti, milliy qadriyatlar, globallashuv, an’anaviylik, zamonaviylik, adabiy ta’lim, pedagogika.*

♦ ***Keywords:*** *Jadid literature, national values, globalization, tradition, modernity, literary education, pedagogy.*

Globallashuv davrida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. O‘zbekiston o‘z boy madaniy merosiga ega bo‘lib, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonida o‘z o‘ziga xosligini yo‘qotmaslikka intilmoqda. Jadid adabiyoti ushbu masalada muhim o‘rin tutadi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Fitrat kabi jadid yozuvchilarining nasriy asarlari an’anaviy qadriyatlar bilan islohotchilik g‘oyalarini uyg‘unlashtiradi.

Ushbu maqolada jadid adabiyoti asarlari orqali milliy qadriyatlarni o‘qitish va globallashuv sharoitida an’anaviylik bilan zamonaviylik muvozanatini ta’minlash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bundan maqsad jadid adabiyoti

nasriy asarlarini 10-11 sinf o‘quvchilariga o‘qitish orqali milliy qadriyatlarni rivojlantirish va globallashuv sharoitida an’anaviylik bilan zamonaviylik muvozanatini ta’minlash imkoniyatlarini tahlil qilishdir. Bunda Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon asarlari asosida amaliy yondashuvlar taklif etiladi.

Jadid adabiyoti XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan muhim ijtimoiy-madaniy harakat sifatida shakllandi. Bu davrda mintaqa feodal tuzumdan chiqib, kapitalizmga o‘tish jarayonini boshdan kechirayotgan, shu bilan birga Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati ostida edi. Jadid yozuvchilari, xususan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Fitrat, milliy ongni uyg‘otish va xalqni ma’rifatli qilish maqsadida faoliyat yuritdilar. Ularning nasriy asarlarida milliy qadriyatlar – oilaviy munosabatlar, axloqiy tamoyillar, mehmondo‘stlik va jamiyatdagi adolat tuyg‘usi – muhim o‘rin egallaydi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida o‘zbek xonadonidagi an’anaviy hayot tarzi, oilaviy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlar batafsil tasvirlanadi. Romandagi Otabek va Kumushbibi obrazlari orqali muhabbat, sadoqat va oilaviy mas’uliyat kabi qadriyatlar namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, muallif feodal jamiyatdagi eski odatlar – ayollarning erkinligini cheklash, taqdirga tan berishni tanqid qiladi[1, 45 b.]. Bu asarni o‘qitish orqali o‘quvchilar o‘z madaniy ildizlari bilan bog‘lanib, tarixiy kontekstni tanqidiy baholash imkoniga ega bo‘ladilar.

Jadid nasrining milliy qadriyatlarni o‘qitishdagi ahamiyati shundaki, u o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy o‘zligini aks ettirib, o‘quvchilarda o‘zlikni anglash hissini kuchaytiradi. Bu asarlar orqali o‘quvchilar nafaqat o‘tmishdagi qadriyatlar bilan tanishadi, balki ularning bugungi kundagi dolzarbligini muhokama qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Globallashuv jahon miqyosida madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarayotgan jarayon sifatida milliy qadriyatlarga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu davrda o‘zbek jamiyatida yangi madaniy normalar – individualizm, g‘arb uslubidagi ta’lim va texnologiyalarga asoslangan hayot tarzi – keng tarqalmoqda. Bu esa an’anaviy qadriyatlar bilan to‘qnashuvga olib kelib, ularning saqlanishi va rivojlanishi masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Jadid nasri ushbu muammoga yechim sifatida xizmat qila oladi, chunki u an’anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi qahramonlar ta’lim olish va shaxsiy erkinlikka intilish orqali o‘z taqdirlarini o‘zgartirishga harakat qiladilar. Bu g‘oyalar zamonaviy jamiyatdagi ta’lim va individual rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojga mos keladi. Shu bilan birga, asarda o‘zbek an’analari – oilaga sadoqat, jamiyatdagi o‘zaro yordam – ham muhim o‘rin tutadi[5, 67 b.].

Globallashuv sharoitida jadid nasridan foydalanish o‘quvchilarga milliy qadriyatlarning o‘zgaruvchan tabiatini tushunishga yordam beradi. Ular o‘zbek madaniyatining asosiy tamoyillarini saqlab qolish bilan birga, uni zamonaviy

talablarga moslashtirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishlari mumkin. Bu jarayonda jadid adabiyoti an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni talqin qilish uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi. Xususan, Abdurauf Fitratning “Sayyohiy Hind” asarida o‘zbek milliy o‘zligini saqlash bilan birga, ta’lim va ma’rifat orqali zamonaviylikka erishish g‘oyasi ko‘tarilgan. Asarda muallif o‘zbek jamiyatining o‘sha davrdagi madaniy va ijtimoiy muammolarini ochib berib, ularni isloh qilish uchun ta’limning muhimligini ta’kidlaydi[3, 45 b.].

Jadid nasriy asarlarini o‘quv jarayoniga joriy qilish o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish bilan birga, adabiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi[4, 112 b.]. 10-11 sinf o‘quvchilari uchun bu asarlarni o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish samaralidir. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidan parchalarni tahlil qilish orqali o‘quvchilar milliy ramzlar – an’anaviy kiyimlar, oilaviy munosabatlar, ma’naviy qadriyatlar – ni aniqlab, ularning bugungi kundagi ahamiyatini muhokama qilishlari mumkin.

O‘qitish jarayonida guruhli muhokamalar va qiyosiy tadqiqotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Misol uchun, o‘quvchilar “O‘tkan kunlar”dagi oila tasvirini zamonaviy o‘zbek oilasi bilan solishtirib, qadriyatlarning o‘zgarishi va saqlanishini ko‘rib chiqishlari mumkin. Bu usul nafaqat adabiy tahlil ko‘nikmalarini oshiradi, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi[2, 112 b.]. Yana bir amaliy yondashuv – o‘quvchilarga jadid asarlari asosida esse yoki taqdimot tayyorlash vazifasini berish. Masalan, “Cho‘lpon asarlarida ta’lim qadriyati qanday aks etgan?” mavzusida yozish orqali ular ta’limning milliy va zamonaviy ahamiyatini mulohaza qilishlari mumkin. Bu usullar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning madaniy o‘zlikni anglash darajasini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyoti nasriy asarlari globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni o‘qitish va saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot davomida isbotlandi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi yozuvchilarning asarlari o‘zbek xalqining madaniy va ma’naviy merosini aks ettirib, o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash hissini kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu asarlardagi islohotchilik g‘oyalari – ta’lim, erkinlik, adolat – zamonaviy jamiyat talablariga mos kelib, an’anaviylik bilan zamonaviylik o‘rtasida muvozanat yaratish imkonini beradi.

Yuqori sinf o‘quvchilariga ushbu asarlarni o‘qitish orqali nafaqat adabiy kompetensiyalar rivojlanadi, balki ularning madaniy merosga munosabati va globallashuv jarayonidagi o‘rni haqidagi tushunchalari chuqurlashadi. Interaktiv o‘qitish usullari – matn tahlili, muhokama va qiyosiy tadqiqotlar – bu jarayonda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Natijada, jadid nasri o‘quvchilarga o‘z qadriyatlarini qadrlash bilan birga, ularni jahonlashuvga moslashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ushbu tadqiqot jadid adabiyotining ta’limdagi o‘rnini yanada kengroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusida jadid she’riyati va dramasini o‘qitish usullarini tahlil qilish orqali milliy qadriyatlarning estetik va ijtimoiy jihatlarini chuqurroq o‘rganish mumkin. Jadid adabiyoti milliy qadriyatlarning asosiy tayanchi

sifatida zamonaviy ta’limda o‘z dolzarbligini saqlab qoladi.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar: roman / A. Qodiriy. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2015. – 300 b. 1

2. Sobirov B. O‘rta maktablarda adabiyot o‘qitish usullari / B. Sobirov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 200 b. 2

3. Fitrat A. Tanlangan asarlar: 2 jildli / A. Fitrat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – J. 1. – 250 b.

4. Xoliqov A. Jadid adabiyoti va zamonaviy ta’lim / A. Xoliqov. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2017. – 180 b.

5. Cho‘lpon. Tanlangan asarlar / Cho‘lpon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2008. – 150 b. 3

Xusan Abduniyazov,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Jizzax viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

MILLIY QADRIYATLARNING GLOBALLASHUV SHAROITIDAGI TRANSFORMATSIYASI: AN’ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK O‘RTASIDAGI MUVOZANAT

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitida transformatsiyasi, an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanat o‘rganilgan. Shuningdek, globallashuv umumbashariy madaniy qadriyatlarning tarqalishiga qanday hissa qo‘shishi, bu noyob madaniy an’analar va o‘ziga xosliklarni tenglashtirishga olib kelishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article examines the transformation of national values in the context of globalization, focusing on the balance between tradition and modernity. It also explores how globalization contributes to the spread of universal cultural values and how this can lead to the homogenization of unique cultural traditions and identities.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *globallashuv, integratsiya, ma’naviy yangilanish, ma’rifiy, madaniy, qadriyat, an’anaviylik, milliy qadriyatlar.*

♦ ***Keywords:*** *globalization, integration, spiritual renewal, educational, cultural, values, tradition, national values.*

Mamlakatimiz jahonda o‘zini namoyon eta olishi, uning globallashuv, demokratlashuv, modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarida faol ishtirokini taqozo etadi. Globallashuv sharoitida millat manfaatlarini himoya qilishning strategik yo‘li jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy yangilanishidan iborat. Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g‘oya va tahdidlardan asrash, ularni o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1]. Yangilanish jarayoni jamiyatdan globallashuvga qo‘shilishning progressiv milliy mexanizmlarini ishlab chiqish, uning imkoniyatlaridan pragmatik foydalanish, globallashuvning dinamikasi va tendensiyalariga moslashib borish hamda salbiy oqibatlariga qarshi kurasha olish potensialini yuzaga chiqarishni taqozo etadi. Jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari iqtisodiy islohotlarni, milliy qadriyatlarni innovatsion taraqqiyot bilan uyg‘unlashuvini, moddiy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyatning ma’naviy qo‘llab-quvvatlanishini talab qiladi. Bu nuqtayi nazardan globallashuv sharoitida jamiyatning ustuvor yo‘nalishlari iqtisodiy va siyosiy sohalar bilan bir qatorda ma’naviyat sohasining yangilanishini o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Globallashuv obyektiv tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga keldi. Uning ildizlari insoniyat tarixining boshlariga borib taqaladi. Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida ham global o‘zgarishlar tendensiyalari namoyon bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda dunyo ijtimoiy makoni va jamiyat hayotining barcha sohalarini bu jarayon qamrab olgan[2].

Globallashuvga munosabatidan va xohishidan qat’i nazar, barcha mamlakatlar va xalqlar bu jarayonning ishtirokchisiga aylandilar. Ular globallashuvning ijobiy natijalari va salbiy oqibatlarini his etmoqdalar. Shunga ko‘ra, barcha davlatlar va millatlar oldida savol tug‘iladi: globallashuvning imkoniyatlari va natijalaridan qanday foydalanish zarur, qanday qilib unga moslashish va salbiy oqibatlaridan himoyalanish mumkin?

Integratsiya globallashuvning asosi bo‘lib, dastlab u tabiiy yo‘l bilan amalga oshib kelgan. Globallashuvga, integratsiyadan farq qilgan holda, iqtisodiy, harbiy va geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirmoqchi bo‘lgan davlatlar va siyosiy kuchlarning aralashuvi sababli bu jarayon sun’iy xususiyatlar kasb etib, ayrim subyektlarning boylik orttirish manbaiga aylanib qoldi[3]. Natijada, ma’lum sabablarga ko‘ra, globallashuvda faol ishtirok eta olmayotgan bir qator mamlakatlar va xalqlar iqtisodiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy tazyiq ostida qolmoqdalar. Suriya, Ukraina, Afg‘oniston, Venesuelada yuz berayotgan hodisalar ana shular jumlasidan. Bularning oqibatida ko‘plab davlatlar o‘zlari tayyor bo‘lmagan tanlovga duch kelmoqdalar.

Globallashuv sharoitida demokratiya va modernizatsiya jarayonlari milliy ma’naviyat bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshishi zarur. Milliy ma’naviyat nisbatan konservativ va izchil mohiyatga ega bo‘lib, uning an’analari mustahkam, o‘tmish bilan kuchli bog‘langan va makoni cheklangan. Global ma’naviyat o‘zgaruvchanlik, nobarqarorlik va ochiqlik xususiyatlariga ega bo‘lib,

ko‘proq kelajakka yo‘nalgan. Global ma’naviyat turli-tumanlikka asoslangan bir xil ma’naviyat.

Mamlakatimiz tarixiy davrlarining har biri o‘ziga xos ma’naviyat tizimiga ega. Davr ruhini belgilab bergan obyektiv hodisalar, jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti, inson salohiyatining o‘sishi asosida muayyan ma’naviyat tizimi shakllanadi, o‘tmish va kelajakning o‘zaro bog‘liqligi va evolyutsiyasi ta’minlanadi. Ma’naviyatning yangilanib borishi uni globallashuv sharoitida yashashining ifodasi bo‘lib, bu globallashuvning ziddiyatli ta’siriga ma’naviyatning javobi, moslashuvi va tahdidlarga qarshi kurashini anglatadi.

Globallashuv muammolarining ma’naviy sohaga ta’siri ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga nisbatan murakkab hisoblanadi. Chunki bunday ta’sir natijasida, uning mohiyati iqtisodiy yoki siyosiy tus olishidan qat’i nazar, insonning ma’naviy ongi o‘zgarib boradi. Bunday ta’sirning kuchayib borishi milliy ma’naviyat makoni va o‘zini namoyon eta olish imkoniyatlarining kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan unifikatsiya natijasida tanlash imkoniyati kamayib boradi. Millatlar oldida o‘z ma’naviy identifikatsiyasini himoya qilish, qadriyatli tanlov imkoniyatlarini kengaytirish va jahon madaniy dialogida teng huquqli subyekt sifatida ishtirok etish bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi [4].

Milliy va global ma’naviyatni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Global ma’naviyat uchun tarixiy xotira, avlodlar ma’naviy merosi, an’analar, milliy qadriyatlar emas, balki iqtisodiy taraqqiyot, investitsiyalar, texnologik va ilmiy qadriyatlar muhimdir. Globallashuvning iqtisodiy potensiali va jadal sur’atlari milliy ma’naviyatga mos kelmaydi.

Milliy va global ma’naviyat imkoniyatlari nuqtayi nazaridan farq qiladi. Milliy ma’naviyatning o‘ziga xosligi uni global ma’naviyatning ulkan axborot makoniga kirishini murakkablashtiradi.

Global ma’naviyat iqtisodiy va ilmiy-texnologik asosga, shuningdek, agressiv mexanizmga ega bo‘lib, milliy ma’naviyat milliy qadriyatlarga va tarixiy-evolyutsion mexanizmga ega.

Milliy ma’naviyatga nisbatan konservativlik (din), izchillik va barqarorlik xos bo‘lib, u an’anaviy tartib-qoidalarga amal qilishni talab etadi. Global ma’naviyatga kuchli dinamika, o‘zgaruvchanlik, o‘ta tolerantlik va gedonistik xususiyatlar xos bo‘lib, u shaxsdan mobillikni talab etadi[5].

Milliy va global ma’naviyat turlicha funksiyalarni bajaradi: birinchisi, subyektlarni iqtisodiy va ilmiy-texnologik asosda birlashtiradi; ikkinchisi, milliy ma’naviy qadriyatlar asosida birlashtiradi. Ma’naviyatning dinamikasi va mohiyati turlicha bo‘lgan ikkala shakli ham insonning o‘sib borayotgan moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Milliy ma’naviyat qisman yopiq, barqaror tizimga ega bo‘lib, global ma’naviyat ochiq, sinergetik va integratsion tizimga ega. U turli-tumanlik asosidagi birxillikdan tashkil topgan.

An’anaviy madaniyat va ma’naviyat kuchli bo‘lgan joylarda, albatta, globallashuvning ta’siri kamroq. Ma’naviyat globallashuvning ta’sirini cheklash va ma’lum me’yorlarga solish potensialiga ega. Lekin ma’naviy sohaning barqarorligi ham xavf ostida. Hatto milliy-ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish va tarbiyalash tizimi hisoblangan ta’lim sohasining o‘zi ham bugun globallashuvning ta’sirida qolgan. G‘arb davlatlari ta’lim tizimiga moslashishga intilish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash kabi yangicha yondashuvlar globallashuv olib kelayotgan yangilikdir. Bunday holat ma’naviyatning barqarorligiga ta’sir etmoqda. Ma’naviyat muntazam yangilanib borish va yangilanish omillarini shakllantirish muammosiga duch kelmoqda. Milliy ma’naviyat mexanizmi globallashuvning bunday chaqiriqlariga javob bera olmaydi [6].

Ma’naviy yangilanishning asosiy ikki xil omilini ko‘rsatish mumkin: birinchisi, milliy qadriyatlar, an’analar, mentalitet, axloqni o‘z ichiga oladi. Ikkinchisi, globallashuv natijasida tarqalayotgan ma’naviyat elementlari tizimidan tashkil topgan. Unga innovatsion qadriyatlar, kreativlik, tashabbuskorlik, axborot madaniyati, faol hayotiy pozitsiya, innovatsion dunyoqarash va faoliyat, zamonaviy xulq-atvor qoidalari va boshqalar kiradi. Ular globallashuv natijasida shakllanayotgan va progressiv mohiyatga ega bo‘lgan omillar bo‘lib, milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi sanaladi.

Ma’naviy yangilanish quyidagilarni taqozo etadi:

- Ma’naviyat sohasida shaxsning madaniy degradatsiyasiga olib keluvchi oddiy (primitiv) moddiy ehtiyojlarning jamiyat ongida asosiy o‘rinni egallab olishiga yo‘l qo‘ymagan holda, yuksak ma’naviy ehtiyojlarni shakllantirish;

- Shaxs ma’naviy potensialini, ayniqsa, yoshlarning intellektual va ma’naviy potensialini yuzaga chiqara olishi va realizatsiya qilishi uchun imkoniyatlar yaratish, mazkur potensialni saqlab qolish va rivojlantirish.

Globallashuvning inson va uning ma’naviyatiga ziddiyatli ta’sirini inkor etmagan holda, globallashuv, asosan, ijobiy xarakterga ega, deb xulosa qilamiz. Globallashuv ruhida tarbiyalangan inson:

- Dinamik va mobillik xususiyatiga ega bo‘lib, faol bo‘ladi va bir vaqtning o‘zida “shu yerda va hamma joyda” bo‘lish imkoniga ega;

- Ongi turli madaniyatlar sintezini ifoda etgani sababli, uning ratsional va tanqidiy tafakkuri darajasi yuqori bo‘lib, unda realizm, kreativlik, pragmatik yondashuv his-tuyg‘uga nisbatan ko‘proq;

- O‘z ma’naviyatigina emas, boshqa ma’naviyatni ham o‘zlashtirishi natijasida, u milliy ma’naviyat tizimiga jamiyat taraqqiyoti va manfaatlariga xizmat qiluvchi ilg‘or elementlarni olib kelishi mumkin;

- O‘z intellektual salohiyatini rivojlantirib borishi sababli, u o‘z ma’naviyatini boshqa ma’naviyatlar bilan solishtirish va unga tanqidiy qaray olish, milliy qadriyatlarni real baholash va zarur bo‘lganda qayta ko‘rib chiqish salohiyatiga ega[7].

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi

transformatsiyasi an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanat asosida taraqqiy etadi. Ma’naviy yangilanish ma’naviyatning globallashuv chaqiriqlariga javobi va hozirgi sharoitda yashay olishining usuli hisoblanadi. Shu sababdan, ma’naviy yangilanish ma’naviyatning dialektik taraqqiyotini belgilab beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi. 2020-yil 30-sentabr.

2. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatlari. – T.: Ma’naviyat, 2006. 7-b.

3. Erkayev A. Ma’naviyatning uch qonuni. Birinchi maqola.//Tafakkur – Toshkent. 2017. № 2. – B.21.

4. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. –Toshkent: Akademiya, 2006. - 20 b.

5. Yuldasheva F.X. Globallashuv va milliy ma’naviyat. Monografiya. - Andijon: Hayot, 2011. - 14 b.

6. Otamurodov S. Globallashuv va millat. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008 yil. - 46 bet.

7. Yuldasheva F.X. Integratsiya va modernizatsiya globallashuvning jihatlari sifatida.// FarDU. Ilmiy xabarnoma, -Farg‘ona, 2009. № 3.-B.

8. Adilxodjayeva S.M. Globalizatsiya i vopros ustoychivogo razvitiya gosudarstva. // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 2008 № 3. - S.55..

9. Kuznetsov V. Geokultura. Osnovы geokulturnoy dinamiki bezopasnosti v mire XX1vek: kultura set. M., Kniga i Biznes, 2003.

Yo‘ldosh Karimov,
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TILNI ASRASH MUAMMOLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada globallashuv sharoitida milliy tillar mavqeining pasayishi, bunga sabab bo‘ladigan omillar, tahdidlar va shuningdek, buning oldini olish va ta’sirini yumshatish bo‘yicha takliflar yoritilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article discusses the decline in the status of national languages in the context of globalization, the factors and threats contributing to this decline, and offers suggestions for preventing and mitigating its impact.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *Globallashuv, milliy til, “ko‘rinmas qo‘l”, «yumshoq kuch», milliy kontent.*

♦ ***Keywords:*** *globalization, national language, "invisible hand," "soft power," national content.*

Millat konstruksiyasining negizini uning tili tashkil qiladi. Til millatning hayotiyligi, Yer yuzida mavjudligini ta’minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Shu ma’noda qadriyatlarning poydevori va davomiyligi til orqali namoyon bo‘ladi. Xalqning tili uning tarixi, an’analari va qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Ammo globallashuv jarayonining jadal kechishi sharoitida ko‘plab millatlar o‘z ona tili va madaniyatining degradatsiyaga uchrash xavfi ostida qolmoqda. Shu ma’noda milliy til va madaniyatni asrashga dolzarb muammo sifatida qarashni taqozo qilmoqda.

Globallashuv dunyoni «katta qishloq»qa aylantirib jamiyatda birxillashuv jarayoni kechishini jadallashtirib yubordi. Bu holat milliy til va madaniyatlarni ham tahdid ostiga olmoqda. Dunyoda ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida keng tarqalmoqda. Nafaqat muloqot, balki, ilm-fan, ta’lim, OAV, Internetdagi kontent va ma’lumotlari salmog‘ining bo‘yicha ham reytingi baland.

Globallashuv va uning «ko‘rinmas qo‘li» ta’siridan hech kim muhofazalangan emas. “Madaniy nuqtayi nazardan esa globallashuv an’anaviy turk madaniyatiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ommaviy axborot vositalari va G‘arb madaniyatining keng tarqalishi natijasida yoshlar orasida turmush tarzi, kiyinish madaniyati, musiqa, kinofilmlar va hayot falsafasi sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. An’anaviy qadriyatlar va zamonaviy global madaniyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylanmoqda”. [2,114 b.]

Postsovet hududi sifatida O‘zbekiston sovet tuzumining ruslashtirish siyosati jabrini tortgan, milliy til faqat maishiy doirada ishlatilgan, rasmiy til sifatida rus tili ustunlikka ega bo‘lgan. Bu ham milliy tilning ma’lum o‘n yilliklar davomida cheklanishiga olib kelgan. Hozirgacha uning asoratidan xalos bo‘la olmayapti. O‘zbek tili davlat tiliga erishgan bo‘lsada haligacha ayrim rasmiy hujjatlar rus tilida yuritilish holatlari onda-sonda bo‘lsada uchrab turadi.

Milliy tilning maishiy til maqomida ekanligi, boshqa yetakchi tillar bilan ilmiy va texnika sohalarida raqobatlasha olmasligi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Tarixda turli ekspansiyalar ta’sirida milliy tillarga nisbatan tahdidlar bo‘lgan. Xususan o‘tgan yuz yillikda Rossiya bosqini va uning davomchisi sovet davlatining mafkuraviy siyosati milliy til va madaniyatga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatgan. Jamiyatda ma’lum tillarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining pasayishi oqibatida iste’moldan siqib chiqarilishi yoki o‘lik tilga aylanishiga sabab bo‘lganligiga tarixda misollar ko‘p. Masalan, ilk o‘rta asrlarda Zarafshon vohasida amalda bo‘lgan so‘g‘d tili tarixning keyingi bosqichlarida o‘lik tilga aylanganini ko‘rishimiz mumkin.

XX asrning 90-yillarida postsovet hududida mustaqil davlatlarning tashkil topishi, jumladan, O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiyot yo‘lini tanlaganligi o‘tgan davr mobaynida milliy tiklanish jarayonini boshdan

kechirganligi bilan tarixga kirdi.

Rivojlangan mamlakatlar kam taraqqiy etgan davlatlarga iqtisodiy yordam ko‘rsatish, investitsiyalar, zamonaviy texnika va texnologiyalar olib kirish orqali o‘zlarining tillarini ustunligini ta’minlamoqda. Bu jarayon oxir oqibatda millatlar assimilyatsiyasiga olib keladi. “Agar millatning ilg‘or vakillari bu jarayonni o‘z vaqtida anglab, uning oldini olishda yetakchilik qilish yo‘lida fidoyilik ko‘rsatmas ekanlar, u holatda eng avvalo, ko‘pgina milliy tillar yo‘q bo‘lishi va uning oqibatida dunyodagi juda ko‘p millatlarning o‘zgalarga assimilyatsiya bo‘lib ketish xavfi kuchayib boraveradi. Xuddi mana shu jarayonda milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishida millatparvarlarning fidoyiligi kuchli bo‘lsagina millatni bu xavf-xatardan asrash mumkin bo‘ladi”. [3,97 b.]

“...millat o‘zgalar tomonidan qo‘lga kiritilgan yutuqlarga tayanib, o‘zini asrab bo‘lmasligini anglab etmas ekan, u albatta o‘zgalarga “yem” bo‘lib ketishi muqarrardir. Chunki o‘zgalarning yutuqlari taraqqiyot yo‘lidan ketayotgan mamlakatlarga hech qachon “sof” holda emas, balki u bilan birga ma’naviyati, turmush tarzi, axloqi va ruhiyati ham kirib keladi. Ularning taraqqiyot yo‘lidan borayotgan millatlar hayotiga kirib kelishi, tabiiy ravishda, mavjud ma’naviyatning zaiflashuviga olib keladi. Shu tariqa milliy ma’naviyatning zaiflashish an’anasi kuchayib boradi” [1,448 b.]

Globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashib borishi bilan milliy til va madaniyatlarga ta’sirini ortib borishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu tahdid va tendensiyalarning oqibati va ta’sirini kamaytirish uchun quyidagilarga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, milliy tilni maishiy til doirasida qolib ketmasligi uchun ilm va fan tiliga aylantirish choralarini ko‘rish. Ingliz tilining “yumshoq kuch” sifatida dunyoda mavqeini yuqoriligi ilmiy hamjamiyatning muloqot tiliga aylanganligi va bu tilga raqobatlasha oladigan tilga aylantirishdek murakkab vazifani tushunish, milliy tilda ilmiy tadqiqotlar olib borish, uning sifati va salmog‘ini oshirish, kitoblar nashr etish yaxshi samara beradi.

Ikkinchidan, o‘zbek tilining mavqeini oshirish, milliy til bo‘yicha sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassislarga ish haqiga qo‘shimcha ustamalar to‘lash hamda boshqa ustuvorliklar belgilash maqsadga muvofiq;

Uchinchidan, internetda milliy kontentlar va ma’lumotlarni ko‘paytirish, kutubxonalarda kitob fondlarini boyitish, xorijiy tildagi ilmiy, ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjimasini ko‘paytirish, tarjimalar va noshirlarni qo‘llab-quvvatlash, buning uchun davlat va jamoatchilik mablag‘larini jalb qilish yaxshi samara beradi.

To‘rtinchidan, aholining kitobxonlik madaniyatini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni keng targ‘ib qilish orqali ularda tilga bo‘lgan hurmat, e’tiborni kuchaytirish mumkin.

Beshinchidan, biz har kuni foydalanadigan kompyuter, telefon va turli gadjetlarning dasturlari tillarini o‘zbekchalashtirish lozim. Milliy tilda

dasturiy ta’minot va mobil ilovalarni yaratish, xususan, ilovalar, saytlar va texnologik mahsulotlarni milliy tilda ishlab chiqish. Masalan kompyuter ekranidagi “Windows”ning “Microsoft Word” dasturining buyruqlar paneli va boshqalarni o‘zbek tilida yaratish.

Oltinchidan, milliy tilda televideniye va radio eshittirishlarini kengaytirish, sifatli kontent yaratish orqali xalq orasida ona tilidan foydalanishni oshirish. Ijtimoiy tarmoqlarda milliy tilni targ‘ib qilish, milliy tilda sifatli bloglar, maqolalar va videolar yaratish.

Yettinchidan, milliy tilni buzish holatlariga qarshi kurashish – noto‘g‘ri tarjimalar, buzib ishlatilgan yozuvlar va chet til so‘zlarini ortiqcha ishlatishga cheklovlar qo‘yish.

Milliy tilni himoya qilish har bir fuqaroning ma’suliyati bo‘lib, bu jarayonda davlat organlari, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va jamiyat hamkorlikda harakat qilishi lozim.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Otamurodov S. Globallashuv va milliy ma’naviy xavfsizlik. T., 2013. -456 b.

2. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. T., 2018. – 352 b.

3. Subhonov Sh. Globallashuv jarayonida til va madaniyatning o‘zgarishi. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” mavzusidagi ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. https://doi.org/10.5281/zenodo.14791776

Sherzod Tangirberdiyev,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

MARKAZIY OSIYO IJTIMOIY-FALSAFIY FIKRLAR TARIXIDA INSONPARVARLIK VA BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada insonparvarlik tushunchasining Uyg‘onish davri (birinchi va ikkinchi renessans) vakillari tomonidan talqin etilishi borasida so‘z yuritiladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article discusses the interpretation of the concept of humanism by representatives of the Renaissance periods (the First and Second Renaissances).*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *uyg‘onish davri, insonparvarlik tushunchasi, eng oliy qadriyat, gumanizm, Sharq va G‘arb Uyg‘onish davri.*

♦ ***Keywords:*** *Renaissance period, concept of humanism, highest value, humanism, Eastern and Western Renaissance.*

Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida “insonparvarlik” va “bag‘rikenglik” tushunchalari chuqur mohiyatga ega bo‘lib, turli millat,

madaniyat va xalqlarning o‘zaro hamjihat, farovonlik, ahillik, halollik asosida istiqomat qilish asosida hayot kechirishdir. Bu borada turli xil konsepsiyalar mavjud bo‘lib, ularni Ali Safiy merosi va dunyoqarashidagi “insonparvarlik” va “bag‘rikenglik” tushunchalari bilan uyg‘unligini kuzatish mumkin. Zamonaviy jamiyatda “insonparvarlik” va “bag‘rikenglik” tushunchalari mazmun va shakl jihatdan o‘zgarib, uning ahamiyati ham ortib borayotganligini tadqiq etib, shu bilan bog‘liq ravishda o‘rganish maqsadga muvofiq. Zero, jamiyatda bu tushunchalar o‘zaro mazmunan yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, lekin ular orasida o‘ziga xos jihatlari borligi, mavjudligi anglanadi.

“Insonparvarlik” va “bag‘rikenglik” tushunchalarining ratsional talqini yetuk mutaxassislar orasida ancha ommalashgan bo‘lishiga qaramasdan ularning tadqiqotlarida “insonparvarlik” va “bag‘rikenglik” tushunchalarining strukturaviy tavsiflaridan kelib chiqqan holda uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga urinish ustuvor tendensiya hisoblanishi ta’kidlanadi. “Insonparvarlik” va “bag‘rikenglik” tushunchalarining serqirra mohiyatini ochib berish uchun ratsional yondashuvning o‘zi yetarli emas. Shuning uchun, bu borada uning qadriyatli-aksiologik yondashuvga asoslangan talqinlarini bilish ham juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sharq va G‘arb Uyg‘onish davriga xos asosiy xususiyat turli xurofotlar va dogmalar - aqidalar cheklanishidan qutulib, insonparvarlik va uning ehtiyojidan kelib chiquvchi hurfikrlikning rivojlanishidir. Yevropada esa Uyg‘onish davri qishloq xo‘jaligiga asoslangan ijtimoiy tuzumning tanazzuli va uning o‘rniga sanoat ishlab chiqarishi (kapitalizm) bosqichining vujudga kelishi, inson madaniy manfaatlarining, mol-mulk to‘plashga qiziqishning kuchayishi va cherkov ta’sirining zaiflashuvi bilan bog‘liqdir, Sharqda esa ilm-fan gullab-yashnab, hurfikrlilik kuchaysa ham din va shariat zaiflashmadi. Aksincha, shariatga zid kelmaydigan tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlariga intilishdan iborat tasavvufiy ta’limotlarning kuchayishi - Sharqda moddiy nafs istak-xohishlarini, hoyu-havaslarini kamaytirib, ruhiy, ma’naviy kamolotga etishish, insonning poklanishiga xalaqit beruvchi turli-tuman ijtimoiy, axloqiy illatlardan qutulishga qasd qilishi – tasavvufning yassaviya, suxravardiya, mavlaviya, kubraviya, naqshbandiya kabi tariqatlarning dasturi bo‘lgan ta’limotlarda rivojlandi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar haqli ravishda Italiya Uyg‘onish davrida Inson – eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilganini aytadilar. Boshqa barcha narsalar - jamiyat, davlat, tarix, mol-mulk – insonga, uning ehtiyojlari va manfaatlariga aloqadorligi bilangina qimmatlidir, degan fikrlar ilgari suriladi. Bunday fikrning tug‘ilishiga o‘rta asrlarda cherkov tomonidan inson qadrining erga urilishi, uni faqat mol-dunyo bilan kibrlanuvchi maxluq, nafs ko‘yiga berilgan gunohkor deb qoralanishi sabab bo‘lgan edi. Tashqi olamni ham, insonni ham gunohdan faqat tarkidunyochilik poklaydi deb hisoblar edilar. Shuning uchun Italiya Uyg‘onish davri asarlarida buning aksi - inson his-tuyg‘ulariga, xoyu-havaslariga erk berish zarurligi birinchi o‘ringa chiqa boshladi. Mazkur qarashlarning ilk vakillari sifatida haqli ravishda F.Sakketti va J.Bokkachcho asarlarini ko‘rsatish mumkin.

Italiya Uyg‘onish davri mazmunining bunday talqinini Sharq Uyg‘onish davrini maxsus o‘rgangan atoqli sharqshunos N.I.Konrad qisman to‘g‘ri va qisman noto‘g‘ri deb hisoblaydi. To‘g‘riligi shundaki, Uyg‘onish davrida inson chindan ham birinchi o‘ringa chiqa boshladi. O‘rta asrlardagiga nisbatan Uyg‘onish davrida insonga boshqacha qaray boshladilar. Bunday talqinning noto‘g‘riligi shundaki, insonni birinchi o‘ringa chiqarishdan maqsad uning tabiatidagi barcha xususiyatlarni, jumladan, ayniqsa, xissiy intilishlariga erk berish emas edi. Gumanistlar insonning erkinligini faqat vujudiy his-tuyg‘ular erkinligidan iborat deb qaramaganlar, balki vujud va ruh uyg‘unligi, aqlning ustuvorligiga e’tibor berganlar. G‘arb Uyg‘onish davrining izlanishlari inson ruhini ezib turgan cherkov hukmronligiga, o‘rta asrlarga xos mutelikka, tarkidunyochilikka qarshi kayfiyatlarning tug‘ilishida yorqin ifodalangan edi. Shu ma’noda Uyg‘onish davrining asosiy yo‘li faqat qadimgi davr antik Gretsiya va Rim klassik (mumtoz) madaniyatni tiklashdagina emas, balki inson ruhini cherkovning qoloq mafkurasidan ozod qilishdan iborat edi.

Shunga ko‘ra, G‘arb Uyg‘onish falsafasida diniy ideallar o‘rniga dunyoviy ideallarga e’tibor kuchayadi, inson aql-idrokiga ishonch uning davlat tuzumi ham diniy dogmalar -aqidalar asosida emas, balki inson manfaatlaridan kelib chiqqan holda jamiyat qonunlari asosida rivojlanishi zarur, degan fikrlar Uyg‘onish davrining ko‘pchilik mutafakkirlari asarlarida uqdirila boshlandi. Mutafakkirlar falsafiy asarlarida fanlarning dindan mustaqilligi va erkinligini yoqlab chiqdilar. Falsafa ilmi diniy aqidalardan erkin, insonparvar davlat idealiga, ijtimoiy utopiyaga asoslandi va shu idealdan ilhomlandi. Masalan, Nikolo Makiavelli [1] diniy-cherkov arboblarining aqidalari va tasavvurlariga bog‘liq bo‘lmagan, dinga va axloq qoidalariga bo‘ysunmaydigan davlat siyosati g‘oyalarini ilgari surdiki, bu g‘oyalarni keyingi davr olimlari va davlat arboblari o‘zlariga asos qilib oldilar.

Mana shu maqsaddagi izlanishlar va intilishlar gumanizm – insonparvarlikda o‘z ifodasini topdi. Uyg‘onish davrining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi – insonparvarlik tamoyillarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash edi. Jamiyat, tabiat va inson hayotiga yangicha qarashlar bu davrda erkin va har tomonlama kamol topgan yetuk shaxslarni voyaga yetkazish ideali - orzusida o‘z aksini topdi. O‘rta asrga xos inson ideali - o‘z qiroli va sevgilisi oldidagi burchiga sadoqatli, itoatli jasur ritsar, uzlatga chekingan zohid ideali o‘rniga Uyg‘onish davrida ishbilarmon savdogar, ruh sir-asrorlariga, turli ilmlarga qiziquvchi olim ideali vujudga keldi; inson iroda erkinligi sohibi, unga buyuk qudratli aql-idrok berilgan, shu boisdan inson ma’naviy va aqliy jihatdan cheksiz kamol topish qobiliyatiga ega bo‘lgan, buyuk ishlarni ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan tabiat mo‘jizasidir, degan dadil g‘oyalar asosiy o‘rinni egalladi.

Insonga bunday yondashuv, uni e’zozlash, haq-huquqini himoya qilish Sharq mutafakkirlari Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd, Ab-u Homid al-G‘azzoliy falsafasida, shuningdek, Sa’diy, Xayyom, Xusrav Dehlaviy, Hofiz, Jomiy, Navoiy kabi buyuk shoirlar g‘azallari va dostonlarida aks etgan. Uyg‘onish

davriga xos bu g‘oyalar Yevropa mutafakkirlaridan uch-to‘rt asr avvalroq ilgari surilgan edi.

Shunday qilib, Uyg‘onish davrida insonlar hayotining juda ko‘p muammolariga yangicha, bag‘rikenglik bilan qaray boshladilar. Ularning amaliy, nazariy ilmlarga qiziqishi ortdi. Falsafa sohasida avvallari vujudni “o‘ldirib”, uni nafsning barcha xohishlaridan tiyib, faqat ruhni qudratli qilish asosiy yo‘l bo‘lsa, Uyg‘onish davrida vujud bilan ruh o‘rtasidagi mangu ziddiyat bartaraf etildi, vujud va ruh istaklarini uyg‘unlashtirish zaruratidan kelib chiquvchi panteizm falsafasi rivojlandi. Agar cherkov tushunchasida inson vujudi, tabiati faqat tashqi ko‘rinish, bu unchalik muhim emas deb hisoblansa, Uyg‘onish davrida Sharqda ham, G‘arbda ham tabiatdagi moddiy borliqlar, jumladan, inson vujudi, tabiati ham ilohning tajalliysi, ilohiylikning ko‘rinishlari, zuhur etishi deb tushunila boshlandi.

Demak, Sharq va G‘arb Uyg‘onish davrining yorqin alomatlaridan biri, uning mohiyatini ifoda qiluvchi xususiyati - gumanizm, insonparvarlikdir. Uyg‘onish davrining shu g‘oyasiga ko‘ra - insonning aqliy, ma’naviy salohiyati, imkoniyatlari cheksizdir. Uyg‘onish davri mutafakkirlari bu g‘oyani dalillash uchun ham qadimgi ma’naviy qadriyatlarga, ijtimoiy-madaniy yuksaklik, barkamollik an’analariga murojaat qiladilar. Ular mana shu nuqtayi nazardan o‘rta asrlardagi inson haqidagi g‘oyalarga yangicha yondashib, bu g‘oyalarni yangicha mazmun bilan boyitdilar.

Gumanizm iborasi mutafakkirlar tomonidan XIV asrdan boshlab, jamiyatning axloqiy-mafkuraviy ahvolini, holatini va ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarning qandayligini bildiruvchi asosiy mezon sifatida qo‘llanila boshlangan.

Franchesko Petrarkaning izdoshlari Kolyuchcho Salyutatti (1331-1406) va Leonardo Bruni (1374-1444) qadimgi zamonda Sitseron ishlatgan “humanistas” so‘ziga e’tibor berib, bu tushunchani o‘rta asrlar bilan yangi zamon o‘rtasidagi farqning mohiyatini ko‘rsatuvchi ijtimoiy hodisa sifatida qabul qildilar. Ularning fikricha, gumanizm tushunchasi qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim taraqqiyotining asosiy belgisi, xususiyatidir[2]. Ayni vaqtda Uyg‘onish davri mutafakkirlari “humanistas” - insonparvarlik so‘zini inson qadrini e’zozlash va bilimga, ma’rifatga intilishning ifodasi deb ham bildilar.

Aslini olganda insonparvarlik g‘oyasi faqat Italiya yoki Yevropaga xos hodisa bo‘lmay, butun insoniyatning madaniy taraqqiyoti davrlarini ham qamrab oluvchi tushunchadir. Ammo, har bir xalq va har bir tarixiy davrning o‘zicha insonparvarlik konsepsiyasi bo‘lgan.

Gumanizm tarixiy tushuncha bo‘lib, u insoniyat taraqqiyoti davomida doimo yangi mazmun bilan boyitilib, to‘ldirilib borilgan. Insonparvarlik g‘oyasining transformatsiyasi - kuchayishi, boyitilishi har bir davrda va har qaysi jamiyatning muayyan tabaqalari o‘rtasida shakllangan ijtimoiy ideal, gumanistik g‘oyalarning (muayyan) keng tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan. M.P.Petrosyan fikricha, insoniyat tarixiy va madaniy taraqqiyotining har bir bosqichida insonparvarlik g‘oyalari turlicha

talqin qilingan. Insoniyat bilimlari ko‘payib, sivilizatsiya yutuqlari ko‘payishi bilan birga gumanizm, insonparvarlik tushunchasining mazmuni yanada ravshanlashib, tobora revolyutsionlashib, chuqurlashib borgan[3]. Bizningcha, arman olimining bu konsepsiyasida haqiqat bo‘lsa ham unga to‘la qo‘shilish qiyin. Chunki, inson vijdoni pokligi tushunchasi, turli zamonlarda o‘zgarmaganidek, insonparvarlik ma’nosi ham sifat jihatidan, negizi, poydevori o‘zgarmaydi. Aks holda Uyg‘onish davri mutafakkirlari qadimgi davr gumanizmiga murojaat qilmasligi, o‘z zamonasiga xos gumanizmni o‘ylab topishlari mumkin edi.

Eng qadimgi zamonlarda, ibtidoiy jamoa bosqichi davridayoq, odamlar jon saqlash va tirikchilik o‘tkazish uchun tabiat kuchlari bilan olishar ekanlar, jamoa a’zolari bir-birlariga yordam berib, qo‘llab-quvvatlashgan. Insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichlaridagi gumanizm g‘oyalari afsona va asotirlarda, xalq og‘zaki ijodi asarlarida (Markaziy Osiyo, Eron xalqlarining qahramonlik eposlari, Alpomish, Manas, Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarda) xalq mafkurasida, keyinroq falsafiy-ijtimoiy ta’limotlarda o‘z ifodasini topgan[4].

To‘g‘ri, ibtidoiy jamoa davridagi odamlar ongida insonparvarlik hali nazariy jihatdan ifodalanmagan, ammo ular o‘zlarining kundalik hayotida insonparvarlik qoidalariga amal qilganlar. Boshqacha aytganda, insonparvarlik g‘oyalarining ildizlari ota-bobolarimiz, qadimgi ajdodlarimiz hayotida, kundalik turmushida amal qilinib kelgan qoidalariga borib taqaladi. Bu g‘oyalar xalq og‘zaki ijodida o‘z aksini topgan turli xurfikrlilik ta’limotlarda, insoniyatning Yer yuzida ijtimoiy tenglikka, baxt-saodatga erishish haqidagi orzu-umidlari, ideallarida ko‘rinadi. Feodalizmga, yer egalarining jabr-zulmiga qarshi kurash jarayonida paydo bo‘lgan yozma adabiyotlarda ham insonparvarlik g‘oyalari rivojlana bordi[5].

Insoniyat tarixida qadimgi zamon, o‘rta asrlar va yangi davrda yashagan barcha oqil va fozil odamlar gumanistik g‘oyalarni targ‘ib qilib keldilar. Qadimgi zamonlarda, yunon majusiylik diniy mafkurasida tabiatning qudratli kuchlari timsoli bo‘lgan ma’budlar boshlig‘i Zevsga qarshi isyon tarzida, ma’budlar olovini o‘g‘irlab, odamlarga bergan, xalqning og‘ir turmushini yengillashtirgan Prometey, xalqlarni turli yovuz maxluqlardan qutqazgan Gerakl haqidagi mifologik rivoyatlarda gumanizm g‘oyalarini uchratamiz.

“Tavrot” va “Injil”da ifodalangan “Tangri dargohida shoh-u gado barobar”, “yaqinlaringni sev”, “bechora, miskin, g‘ariblarga mehr-shafqat ko‘rgaz, yaxshilik qil” degan diniy shiorlarda ham gumanizm ideali kurtaklarini ko‘ramiz. Bu shiorlar barcha odamlarning tengligi va birodarligi haqidagi ijtimoiy-axloqiy idealning ifodasidir.

Yevropada Uyg‘onish davri mutafakkirlarining gumanizmi insoniyat tarixida uchinchi bosqichni tashkil etadi va bu davrda gumanizm g‘oyasi terak dunyoviy mazmun kasb etdi. Uyg‘onish davri gumanizmining asosiy ohangi - leytmotivi shunday: “inson hayotning barcha sohalarida o‘zining qadr- qimmati baland ekanligini bilishida, uning aql-idrokida, tabiiy istak-mayllari erkinligida, barcha ijobiy xohishlarini qadrlashda insonparvarlik g‘oyalariga suyanadi”[6].

G‘arbda Renessans gumanizmining ratsionalizmi - oqilona yo‘nalishi cherkov-klerikal madaniyati va falsafasidan mustaqil holdagi dunyoviy madaniyat va dunyoviy mafkuraning shakllanishida, qadimgi madaniy merosidan keng foydalanishda, tabiat hodisalarini, ayniqsa, inson tevarak-atrofni o‘rganishga qiziqish ortganida, shu asosda tabiiy fanlarning rivojlanishiga yo‘l ochilganida ko‘rinadi. Buning oqibatida panteistik falsafiy qarashlar keng tarqaldi[7].

Sharqda ham, G‘arbda ham Uyg‘onish davri gumanizmi inson muammolarini diqqat markaziga qo‘ydi. Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari inson kamolotini birinchi o‘ringa qo‘ya boshladilar. Ular kamolotga intilmagan insonni bu dunyoda hatto pokizalikdan yiroq deb hisobladilar. Navoiy bu haqida chiroyli bir o‘xshatish qiladi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq...[8]

Sharq mutafakkirlari insoniylik deganda odamning boshqa odamlarga va barcha mavjudotlarga mehr-muruvvat bilan qarashini tushunadilar. O‘rta asrlardagi Sharq Uyg‘onish mutafakkirlari inson qadr-qimmatini uning ko‘ngli pokligida, olijanobligi, bag‘rikengligida, do‘stlik va muhabbatda deb biladilar. Muhammad G‘azzoliyning fikricha, inson ma’naviy, ruhiy olamini kamol toptirish uchun Dil – podshoh, Aql – vazir, Ruh mamlakatini boshqarib turishi kerak[9].

Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari inson ruhiy olamida Aqlni podshoh deb biladilar va Insonni Aql-Idrok sohibi bo‘lgani uchun e’zozlash zarur, deb hisoblaydilar. Mohiyat e’tibori bilan, gumanizm ikki narsaga – Aql-Idrokka va qalbning go‘zal intilishlariga tayanadi. Bunday talqin qilinganda gumanizm – insoniylik – axloqiy tushunchadir: insonni, uning manfaatlarini himoya qilish, uning fazilatlarini va ruhiy erkinligini qadrlash asosiy o‘rin tutadi.

Insoniylik, gumanizmni mafkura, ijtimoiy-siyosiy qonuniyat (kategoriya) sifatida tushunish inson yashayotgan ijtimoiy muhitni, moddiy va ma’naviy hayot sharoitlarini takomillashni taqozo qiladi. Shu ma’noda gumanizm – insoniyatning ming yillar davomidagi taraqqiyoti jarayonida ilgari surgan buyuk g‘oyalarning eng a’losi, deb qarash zarur. Gumanizm g‘oyasi insoniyat o‘zining ijtimoiy vazifalarini, ideallarini, qadriyatlarini anglashdan kelib chiquvchi buyuk ma’naviy tajribasi mahsulidir. Gumanizm idealining mana shu xususiyatlari u yoki bu darajada o‘rta asrlar Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida mujassamlangan. Shu ma’noda ba’zi olimlarning gumanizm – XIV asrdagi G‘arbiy Yevropa kashfiyoti, degan qarashlariga qo‘shilib bo‘lmaydi[10].

G‘arb va Sharq Uyg‘onish davrida axloqiy kamolotga muhim e’tibor berilishi bejiz emas. Stoiklar, ritsarlar va javonmardlar falsafasida oliy fazilatlarni hosil qilish, ya’ni, axloqiy barkamollik asosiy o‘rin tutadi. Ma’naviyatning oliy ko‘rinishi bo‘lgan axloq faniga katta e’tibor berilishi – Renessans

gumanizmini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qilar edi. Axloqiy fazilatlar yuqorida ta’kidlaganimiz Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari Farobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Sa’diy, Xusrav Dehlaviy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy asarlarida markaziy o‘rin egallaydi. G‘arb Uyg‘onish davrida esa “o‘rta asrlarning so‘nggi va yangi davrning birinchi shoiri” Dante Aligeri ijodida bilim va ma’naviyat qoidalariga muvofiq nazorat qilinuvchi aql-idrok uyg‘unligi g‘oyasi ilgari suriladi. Dantening fikricha, falsafa yordamida aqlni kamolga yetkazish – yaxshilik va yomonlikni bilish, farqlash yo‘lidir. Binobarin, falsafani o‘rganish – ezgulik yo‘li, ma’naviy kamolot yo‘lidir. Yaxshi xulq-falsafaning go‘zalligi, axloq-etika esa fanlar malikasidir”[11].

Dante mutafakkir sifatida qadimiyatni xristianlik bilan sintez qilib, dinni yangilash, “yashartirish”ga intildi. Uning inson ruxini yangilashga intilishi xudo va inson munosabatlarining mohiyatini aniqlashda ham kishilarning bu dunyodagi hayot tarzini o‘zgartirish zarur, degan fikrida ham ko‘rinadi. Dantening ulug‘vor niyati “Ilohiy komediya” asarida amalga oshirildi. “Ilohiy komediya» din, falsafa, axloqdan boshlab, to siyosatgacha, hayotning barcha hodisalarini qamrab oladi. Dante bu asarida o‘rta asrlar sxolast olimlarining ta’limotlarini, huquqshunoslar o‘ylab topgan siyosiy doktrinalarni, Fransisk cherkovining mistikasi (ruhiy mo‘jizalari)ni, antik davr stoiklari falsafasini, provansal ishqiy lirikasini qayta ishlab chiqdi. “Ilohiy komediya” zamonasining barcha ilm va hikmatini o‘zida mujassam etgan, sof lirika tilida bitilgan davrning ulug‘vor manzarasidir.

Inson ruhiy hayoti muammolariga qiziqish Italiya va Yevropa gumanizmining asoschisi Franchesko Petrarka (1304-1374) ijodida ravshan ifodasini topdi. Petrarka o‘z ijodida falsafaning nazariy masalalari - hayot va borliqni tushuntirish, kosmogoniya, gnoselogiya va mantiq sohalari bilan juda kam shug‘ullangan. Uning ma’naviy izlanishlarida axloq masalalari, «yashash san’ati», ya’ni inson his-hayajonlaridan, ehtiroslaridan ayrilmagan holda qanday qilib shaxsiy erkinlikka, ruhiy xotirjamlikka erishish mumkinligi haqidagi mulohaza - o‘ylar asosiy o‘rin tutadi. Bu muammolarga javob topish uchun Petrarka qadimgi Rim stoiklari-Sitseron, Seneka asarlariga murojaat qiladi[12]. Petrarka fikricha, falsafa-ruh tarbiyasining vositasidir, inson ruhini sog‘lomlashtiruvchi ma’naviy omildir[12].

Petrarka ijodida falsafaning boshqa sohalariga nisbatan etika- axloqning asosiy o‘rin tutishi bu mutafakkirning inson kamolotiga juda terak qiziqishidan dalolat beradi. Shu ma’noda u falsafaning asosiy vazifasi – chinakam ma’naviyatli, axloqiy barkamol insonlarni tarbiyalashdir, deb tushunar edi. Petrarka faylasufning yetukligi mezoni deb uning axloqiy qarashlarini birinchi o‘ringa qo‘yar edi. Mutafakkir shoir fikricha, barcha fanlar olamni o‘rganadi, ammo olamni o‘rganishdan maqsad odamni o‘rganishdir. Ayniqsa, inson o‘zligini anglashi asosiy masaladir.

Petrarkaning insonlarni birlashtiruvchi, do‘stlashtiruvchi, hatto asrlardan asrlarga o‘tib, kelgusi avlodlarga meros qoldiradigan dilkash, samimiy so‘z, ma’naviy kamolotga yetaklovchi so‘z hikmati haqidagi fikr- mulohazalari

qiziqarlidir. Mutafakkir fikricha, insonni xilvatdagi shaxsiy o‘y-kechinmalariga nisbatan boshqalarga aytadigan so‘zi muhimroqdir: “Agar inson bo‘lib qolishni istasak, odamlar bilan suhbat, muomala qilishimiz zarur. Odamlarga foydali ishlar qilaylik, odamlarning ko‘ngliga (samimiy, hikmatli) so‘z bilan ham oliy darajada yordam berishimiz mumkin”[12].

Italiya Uyg‘onish davri mutafakkiri Petrarkaning bu fikrlari Sharqdagi o‘tmishdoshlari Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy va zamondoshi Bahouddin Naqshbandning “Anjumanda xilvat topish” (xilvat dar anjuman), suhbatda yaxshilik topish, “Dil ba yor-u dast bakor”, degan hikmatlari bilan hamohangdir. Ayniqsa, so‘z qudrati haqida Navoiyning “So‘z gavhari oldida chinakam gavhar bir tomchi suvday bo‘lib qolishi”, yaxshi so‘z – jon ozig‘i, dillarga malham ekanligi haqidagi fikrlari hayratlanarli darajada hamohangligi Uyg‘onish davrining butun dunyoda yaxlit jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Shunisi qiziqarliki, Franchesko Petrarkaning inson doimo “o‘limni, oxiratni o‘ylab ish tutishi zarur”ligi haqidagi, ajal har qanday insonning rangi-ro‘yini so‘ldirib, ko‘z nurini, barcha kuch-g‘ayratlarini, chegarasidagi go‘zalliklarini olib qo‘yishi haqidagi fikrlari imom G‘azzoliy va Ahmad Yassaviy [Avtoreferatdan iqtibos, Buxoro, Feruzning shogirdi fikrlariga juda yaqindir. “Inson o‘lgach, qo‘l-u-oyog‘idan, ko‘z-qulog‘idan va barcha a’zolarining xususiyatlaridan hamda xotin-u bola-chaqalaridan, mol-u amvolidan judo bo‘ladi. Agar insonning dilida biror narsaga mehru muhabbati bo‘lsa, ruxi ul narsaning firoqi azobiga mubtalo bo‘lg‘usidur” [13], degan edi imom G‘azzoliy italiyalik shoirdan uch asr avval.

Franchesko Petrarkaning tabiiy fanlarni o‘rganishga chaqirgan andalusiyalik arab mutafakkiri Ibn Rushd fikriga qarshi chiqishi va gumanitar-ma’naviyat fanlariga e’tiborni kuchaytirish zarurligi haqidagi fikrlari ham qiziqarlidir. Shoir aytadi: “Chindan ham so‘rayman o‘zimdan: agar inson tabiatini bilmasam yoki bilishga qiziqmasam, turli hayvonlar, qushlar, baliqlar va ilonlarning xususiyatlarini bilishimning ne keragi bor?” Bu yerda italyan mutafakkiri, tabiiy fanlarning ham foydali ekanligini inkor etmaydi, balki ulardan avval inson ruhiy olami, tabiatini bilish zarurroq ekanligini uqtiradi. Bu G‘azzoliy ruhidagi fikrdir.

Imom G‘azzoliyning “Taxofutul-falosifa” (Faylasuflarning noizchilligi) asariga qarshi “Taxofut al-taxofut” risolasini yozgan Ibn Rushd esa din arboblarining ilm-fanga, falsafani o‘rganishga qarshi chiqishlarini qoralaydi: Ibn Rushd bu asari bilan Yevropa Uyg‘onish davri olimlari o‘rtasida juda katta shov-shuv qo‘zg‘atgan edi. G‘azzoliyning aqlga nisbatan dilni, ruhni yuqori qo‘yishi Ibn Rushdga yoqmaydi. G‘azzoliy fikricha, aql yakka hodisa, ammo umumlashtirish uning xususiyatidir: “Aql uchun masalan Xolidning tirikligi va Zaydning tirikligi umuman o‘xshashdir”. Ibn Rushd esa bu fikrga qarshi chiqib, Ibn Sinoning aqlning moddiylikka, vujudga bog‘liqligi g‘oyasini himoya qiladi.

G‘arb Uyg‘onish davrida Ibn Sino, G‘azzoliy, Ibn Rushdning falsafiy qarashlariga doir kitoblari barcha ziyolilar orasida qo‘lma-qo‘l edi. Bu kitoblar G‘arb Uyg‘onish davri falsafasiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi.

Shu narsa e’tiborga molikki, G‘arb Renessansi tafakkurida insonning ma’naviy kamoloti xususida gumanistik g‘oyalar qadimgi rim-yunon stoiklar panteistik falsafasi qobig‘ida ifodalangan bo‘lsa, ilk Sharq Uyg‘onish tafakkurida insonparvarlik g‘oyalari, komil inson konsepsiyasi tasavvuf ta’limotida namoyon bo‘ladi. Yunon-rim stoiklari fikricha, barcha mavjudotlar Xudodandir va barchasi yana Xudoga qaytadi. Stoiklarning axloqiy qarashlaricha, insonning tabiat bilan uyg‘un holda yashashi oqilona, go‘zal yashashidir va bu ilohiy ko‘rsatmadir. Ammo, Petrarka qarashlarining masihiylik va islom ta’limotlaridan jiddiy farqi shundaki, uning fikricha, borliq mavjudotlar ilohiy zotning tajalliysi ekan, demak, tabiat qonunlarini o‘rganuvchi fizika fani rivojlanishi va bu fan axloq bilan yakunlanishi zarur.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Makiavelli. Hukmdor. Tarjimon.

1. Sokolov V.V. Yevropeyskaya filosofiya XV-XVII vv. M., 1984. - S. 8-9.

2. Petrosyan M.P. - Gumanizm. – Moskva, 1967. - S. 7-34.

3. Braginskiy I.S. Iz istorii tadjikskoy poezii., 1956.

4. Idei gumanizma v literaturax Vostoka. – Moskva, 1967.

5. Konrad N.I. Zapad i Vostok, -S. 233.

6. Sokolov V.V. Ocherki istorii filosofii epoxi Vozrojdeniya. - M., 1962.-S. 7-17.

7. Navoiy A. Ruboiylar. -T,: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 1968. 8-6.

8. G‘azzoliy Z.M. Kimyoi saodat. -T.: Kamalak, 1994. 13-6.

9. Aripov M.K. Gumanizm Alishera Navoiy. - T.: Uzbekiston, 1991. 29-31- 6.

10. De Sanktis, Franchesko. Istoriya italyanskoy literaturg - T.1. - Moskva, 1963. -S. 186.

11. Garen, Eudjenio. Problem1 Italyanskogo Vozrojdeniya. Progress. - Moskva, 1986. - S. 42.

12. G‘azzoliy. Abu Homid. “Qabr azobi” (“Kimibi Saodat”dan). Toshkent: “Cho‘lpon”, 1994, 7-6.

13. Tangirberdiyev, S. T. (2023). AN IMPORTANT SOURCE FOR THE STUDY OF SUFISM AND ITS TRADITIONS. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 3(07), 37-40.

Axmadjon Oripov,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Farg‘ona viloyat hududiy bo‘linmasi bosh mutaxassisi,
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

MILLIY QADRIYATLARNING GLOBALLASHUV SHAROITIDAGI TRANSFORMATSIYASI: AN’ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK O‘RTASIDAGI MUVOZANAT

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur ilmiy maqolada milliy qadriyatlarning globallashuv jarayonidagi transformatsiya masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotda globallashuvning milliy madaniyat va qadriyatlarga ta’siri, bu jarayonda yuzaga kelayotgan ijobiy va salbiy omillar, shuningdek, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish strategiyalari tahlil qilingan.*

♦ ***Abstract:*** *This scientific article analyzes the transformation of national values in the process of globalization. The research examines the impact of globalization on national culture and values, the positive and negative factors arising from this process, as well as strategies for preserving and developing national values.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *milliy qadriyatlar, globallashuv, transformatsiya, an’anaviylik, madaniy identifikatsiya, milliy o‘zlik, modernizatsiya, madaniy meros.*

♦ ***Keywords:*** *National values, globalization, transformation, tradition, cultural identification, national identity, modernization, cultural heritage.*

Bugungi kunda globallashuv jarayoni dunyoning barcha mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston uchun ham yangi imkoniyatlar taqdim etish bilan birga, ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu jarayon ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sohalarda chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, milliy qadriyatlarning transformatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy qadriyatlarning zamonaviylik bilan uyg‘unlashuvi, ularning yo‘qolib ketmasligi va yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashuvi bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar milliy qadriyatlarni saqlagan holda, mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan. Ushbu islohotlar jamiyatni yangilash, yosh avlodning milliy o‘zligini mustahkamlash va ularni zamonaviy bilim va madaniyat bilan boyitish maqsadini ko‘zlagan.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni dunyoda ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sohalarida chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Milliy qadriyatlarning shakllanishi, rivojlanishi va ularning zamonaviy jamiyatga moslashuvi

global jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu boisdan, an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash dolzarb masala hisoblanadi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “milliy qadriyatlar jamiyatning genetik kodi bo‘lib, uning o‘zligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi” [2. 122-b.]. Demak, milliy qadriyatlarni globallashuv sharoitida saqlab qolish nafaqat madaniy, balki siyosiy va iqtisodiy barqarorlik uchun ham muhimdir.

Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud bo‘lib, u milliy madaniyatning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar ochgan holda, ayrim an’anaviy qadriyatlarning zaiflashishiga ham sabab bo‘lmoqda. Xususan, milliy tillar, urf-odatlar va madaniy meroslar global madaniyat ta’sirida o‘zgarishga uchramoqda. Tadqiqotchi Z.Saidov: “globallashuv jarayonida milliy madaniyat va qadriyatlarning saqlanib qolishi va ularning yangicha shakllarga moslashuvi muhim ilmiy masalalardan biridir,” [3. 101-b.] - deb e’tirof etgan. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi rivojlanish bosqichida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy jamiyatga moslashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham bu masalaga alohida urg‘u berib, milliy o‘zlik va ma’naviy merosni saqlashning muhimligini qayd etgan: “O‘zbek xalqi o‘zining milliy an’analariga sodiq bo‘lib qolishi bilan birga, zamonaviy taraqqiyotga intilishi kerak. Bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘unlashgan holda rivojlanishi lozim” [1. 154-b.]. Ushbu fikr milliy qadriyatlar va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga asos solib, jamiyat hayotining barcha jabhalarida islohotlarni jadallashtirishga qaratilgan. Bu jarayonda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yangi sharoitlarga moslashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning fikricha, “milliy o‘zlikni anglash va uni modernizatsiya qilish jarayoni davlat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda yosh avlod tarbiyasi va ma’naviy yetukligi muhim rol o‘ynaydi” [4. 83-b.]. Shu boisdan, O‘zbekiston ta’lim tizimi, madaniy siyosati va ijtimoiy dasturlari milliy qadriyatlarni rivojlantirish va ularni zamonaviy dunyo bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi transformatsiyasini o‘rganishda bir qator ilmiy nazariyalar va olimlarning fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bo‘limda milliy o‘zlik, madaniy transformatsiya va globallashuv jarayonlari bo‘yicha ilgari surilgan konseptual yondashuvlar tahlil qilinadi.

Milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi o‘zgarishi. Globallashuv jarayonining milliy madaniyat va qadriyatlarga ta’siri haqida turli xil qarashlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar globallashuvni ijobiy hodisa sifatida ko‘rib, uni modernizatsiyaning tarkibiy qismi deb baholaydilar. Masalan, A.Giddens o‘zining “Modernity and Self-Identity” asarida ta’kidlaganidek, “globallashuv milliy identifikatsiyani zaiflashtirish o‘rniga, aksincha, uni yanada

mustahkamlaydi, chunki jamiyatlar global tendensiyalarga moslashish orqali o‘z madaniy o‘zligini mustahkamlashga intiladilar” [8. 58-b.].

Biroq, boshqa olimlar globallashuvni milliy madaniyatlarning yo‘qolishi va madaniy homogenizatsiya jarayoni sifatida baholaydilar. Masalan, S.Huntington “The Clash of Sivilizations” asarida “globallashuv jarayoni natijasida ayrim madaniyatlarning o‘ziga xosligi yo‘qolib borayotganligi va ular global madaniyat bilan aralashib, milliy identifikatsiya zaiflashayotganini” [6. 105-b.] ta’kidlaydi.

O‘zbekiston misolida olganda, globallashuv jarayoni milliy qadriyatlarning yo‘qolishiga emas, balki ularning yangicha talqin etilishiga olib kelmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi asarida ta’kidlaganidek, “milliy qadriyatlarimizni saqlagan holda taraqqiyotga erishish – Yangi O‘zbekistonning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” [1. 102-b.].

Madaniy identifikatsiya va transformatsiya. Madaniy identifikatsiya va uning o‘zgarishi masalasida Yu.Habermas “The Postnational Constillation” asarida “milliy identifikatsiya global ta’sirlar ostida transformatsiyaga uchraydi, biroq bu jarayon doimiy emas, aksincha, u yangi sharoitga moslashuvchi dinamik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi” [5. 42-b.] deb ta’kidlaydi. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, O‘zbekiston jamiyatida milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi va rivojlanishi tabiiy jarayondir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida milliy qadriyatlarning modernizatsiyalashuvi kuzatilmoqda. Masalan, oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosni asrash bo‘yicha davlat siyosati globallashuv ta’siriga moslashtirilmoqda. Xususan, “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi” tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, “milliy qadriyatlarning ommaviy madaniyat bilan uyg‘unligi ham ijobiy, ham salbiy ta’sirga ega bo‘lishi mumkin” [4. 38-b.].

Globallashuv va milliy qadriyatlarni muvozanatlash strategiyalari. Milliy qadriyatlarni globallashuv sharoitida saqlash uchun turli strategiyalar mavjud. M.Kastells “The Rise of the Network Society” asarida ta’kidlaganidek, “milliy madaniyatlarning omon qolishi texnologik rivojlanish va axborot jamiyati orqali ta’minlanadi” [9. 301-b.]. Shu boisdan, O‘zbekiston milliy qadriyatlarini asrab-avaylash uchun quyidagi yondashuvlarni qo‘llamoqda:

1. Ta’lim tizimidagi islohotlar – O‘zbekistonda ta’lim jarayoniga milliy qadriyatlarni singdirish orqali yosh avlodning milliy ongini shakllantirish.

2. Madaniyat va san’at rivojlanishi – an’anaviy musiqa, adabiyot va san’at turlarini zamonaviy formatlarga moslashtirish orqali xalqaro maydonda targ‘ib qilish.

3. Axborot texnologiyalari orqali milliy qadriyatlarni tarqatish – Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar yordamida milliy madaniyatni yoshlar orasida ommalashtirish.

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi transformatsiyasi quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Globallashuv milliy qadriyatlarning inkor etilishiga emas, balki ularning yangilanishiga olib keladi.

2. Milliy identifikatsiya va an’analar zamonaviylik bilan uyg‘unlashish orqali saqlanib qoladi.

3. Globallashuv sharoitida milliy madaniyatni rivojlantirish uchun strategik yondashuvlar zarur.

4. O‘zbekistonning Yangi taraqqiyot strategiyasi milliy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, milliy qadriyatlarni globallashuv sharoitida saqlash va rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni mustahkamlash.

2. Madaniy meros va san’at sohasini rivojlantirish.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali milliy qadriyatlarni rivojlantirish.

4. Turizm va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

5. Yoshlar orasida milliy qadriyatlarni mustahkamlash.

Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi transformatsiyasi jamiyat rivojlanishining tabiiy qismi ekanligi aniqlandi. Globallashuv jarayoni milliy o‘zlikni yo‘qotish emas, balki uni yangilash va zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston - bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. - Toshkent: O‘zbekiston. 1999.

3. Saidov Z. Globallashuv va milliy qadriyatlarning integratsion rivojlanish muammolari. - Toshkent: Fan.

4. Turdiev O. Zamonaviy jamiyatda milliy o‘zlikni anglash jarayonlari. - Toshkent: Ijtimoiy fanlar. 2022.

5. Habermas J. The Postnational Constellation: Political Essays. - Cambridge: MIT Press. 2000.

6. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. - New York: Simon & Schuster. 1996.

7. Smith A.D. Nationalism: Theory, Ideology, History. - Cambridge: Polity Press. 2001.

8. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. - Stanford: Stanford University Press. 1991.

9. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. Volume I: The Rise of the Network Society. - Oxford: Blackwell. 1996.

10. Bauman Z. Globalization: The Human Consequences. - New York: Columbia University Press. 1998.

Otabek Karimov,
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

MILLIY QADRIYATLAR VA SHAXSIY GIGIYENA MASALALARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqola insonlarning kundalik hayotida milliy an'analarning o'rni va ahamiyatini aniqlashga bag'ishlangan. Insonlarning milliy an'analar, urf-odatlar va milliy madaniyatdan xabardorlik darajasi va ahamiyatini, milliy madaniy merosni idrok etishi va yetkazish mexanizmlarini, milliy an'ana va urf-odatlarni yoshlarning kundalik hayotiga kiritish darajasini belgilaydigan misollar keltirilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article is dedicated to determining the role and importance of national traditions in people's daily lives. It presents examples that define the level of awareness and significance of national traditions, customs, and culture, as well as the mechanisms of perceiving and transmitting national cultural heritage, and the extent to which national traditions and customs are integrated into the daily lives of young people.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *milliy madaniyat, salomlashish odobi, urf-odatlar, shaxsiy gigiyena.*

♦ ***Keywords:*** *national culture, greeting etiquette, customs, personal hygiene.*

Hozirgi vaqtda sotsiologlar, ijtimoiy psixologlar, etnologlar, etnograflar, faylasuflar orasida an'anaviy milliy madaniyatni turli ijtimoiy guruhlar vakillari tomonidan idrok etish muammosi katta qiziqish uyg'otmoqda.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, ommaviy madaniyat va u bilan bog'liq bo'lgan globallashuv jarayonlari nafaqat an'anaviy milliy madaniyatni ijtimoiy munosabatlarning qiymat-me'yoriy tizimi hududiga siqib chiqargan, balki milliy an'analarga bo'lgan hurmatsizlik jarayonini ham keltirib chiqargan.

Boshqalar fikricha, zamonaviy ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tizimni axborotlashtirish turli jamiyatlarning an'anaviy madaniy namunalarini tanlash va aktuallashtirish jarayonini keltirib chiqaradi [1;2].

Milliy madaniyat – bu xalqning moddiy va ma'naviy qadriyatlari yig'indisi, shuningdek, tabiat va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarning asosiy usullaridan iborat bo'lib, u milliy an'analar, ma'naviy qadriyatlar, munosabatlar, me'yorlar, qoliplar, til va turmush tarzi xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Har bir milliy madaniyatning o'ziga xos belgilari va xususiyatlari mavjud.

Biz bugungi kunda ayrim insonlar tomonidan urfga aylanib

borayotgan, lekin shaxsiy gigiyena va ma’naviy qadriyatlarimizga umuman to‘g‘ri kelmaydigan ba’zi holatlar haqida fikrlashamiz.

O‘zbek xalqida ko‘rishish, salomlashish, xol-ahvol so‘rashish kishilarning bir-biriga mehr-oqibatini, hurmat-izzatini bildiradi. Albatta, ko‘rishish shakli turlicha bo‘lishi mumkin: kichiklarning qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib kattalarga salom berishi, yaqinligini bildirish ma’nosida ayollarning kift qoqib ko‘rishishi, qarindosh-urug‘lar va qadrdonlarning quchoqlashib salom-alik qilishi, yoshi ulug‘ otaxon-u onaxonlarimizning nabiralari boshini silab peshonasidan o‘pib qo‘yishi.

Agar e’tibor qiladigan bo‘lsak, qishin-yozin, issig‘u sovuq kunlarda ham to‘y marosimlarida ayrim kishilarning to‘y egasiyu boshqa tanish-bilishlar bilan, ularni ko‘rmaganlariga atigi ikki-uch kun o‘tgan bo‘lsa ham, quchoqlashib, hatto o‘pishib ko‘rishayotganlariga guvoh bo‘layapmiz.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi – to‘y-u ma’rakada hammaning tadbir egaci bilan va hammaning bir-birlari bilan yoppa quchoqlashib ko‘rishishi ham eckidan qolgan odatmi? O‘ o‘zimiz kashf etgan yangi udummi?

Ko‘p odamlar uchun quchoqlab ko‘rishish do‘stlik, mehr, sevgi kabi yoqimli his-tuyg‘ular bilan bog‘liq. Ammo shuni esda tutish kerakki, siz boshqa odam bilan quchoqlashib ko‘rishganingizda ma’lum bir infeksiyani yuqtirib olishingiz mumkin.

Albatta, nafas olish yo‘llari infeksiyalari xavf tug‘diradi. Yaqin aloqa orqali siz, masalan, gripp, parainfluyenza, adenovirus, enterovirus va koronavirus bilan kasallanishingiz mumkin. Patogen havo tomchilari orqali yuqadi. Shuning uchun kasallik belgilarini ko‘rsatadigan odamlardan masofani saqlash muhimdir.

Poliomiyelit tashuvchisi aksirganda yoki yo‘talganda havo orqali boshqalarga ham yuqishi mumkin.

Ichak infeksiyalari ba’zan teginish orqali yuqadi. Agar odam shaxsiy gigiyena qoidalarini e’tiborsiz qoldirsa, masalan, kasal odam bilan aloqa qilgandan keyin qo‘llarini yuvmasa, infeksiya xavfi yuqori. Agar ichak infeksiyasining qo‘zg‘atuvchisi virus bo‘lsa, u holda boshqa yuqish yo‘li bor – havo orqali.

O‘pishib ko‘rishish ham xavfli hisoblanib, shilliq qavat bilan aloqa qilish 1-turdagi gerpes simplex virusini yuborishi mumkin – bu deyarli hamma uchun tanish bo‘lgan lablardagi bir xil sovuq yara. Uning namoyon bo‘lishi ham estetik, ham jismoniy tabiatning noqulayligini keltirib chiqarishi mumkin.

Mononukleoz kasalligi “o‘pish kasalligi” deb bejiz aytilmagan. Kasallik Epshtein-Barr virusi (4-toifa gerpes virusi) bilan kasallanganida yuzaga keladi va isitma, tomoq og‘rig‘i, mushaklarning kuchsizligi va shishgan limfa tugunlari kabi kuchli charchoq va grippga o‘xshash alomatlar bilan tavsiflanadi.

Bu juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘z isbotini topgani uchun ham AQSH kasalliklarni nazorat qilish markazi tomonidan homilador ayollar uchun o‘pishishni ta’qiqlash bo‘yicha tavsiyalar qo‘llanmoqda. Negaki, ana shu taxlitda sitomegalovirus infeksiyasi yuqadigan bo‘lsa, homiladorlik jarayoni og‘ir

kechar ekan.

Sog‘lom turmush tarzi mezonlariga rioya etish, namunali tibbiy madaniyatni egallash orqali yuksak ma’naviy-axloqiy muhit yaratish va shunday muhitni barqaror etishga hissa qo‘shish hammamizning insoniy burchimiz.

Shunday ekan, biz millatimiz ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lgan salomlashish odobini xunuk ko‘rinishlardan asrashimiz lozim.

Madaniy an’analarni nafaqat asrab-avaylash, balki kelajak avlodlarga yetkazish ham muhim ahamiyatga ega. Millat madaniyatining darajasini uning milliy va etnik-konfessional an’analarning yo‘qolib borish jarayoniga qanchalik qarshilik ko‘rsatishi, ma’naviy va moddiy madaniyatini asrab-avaylash va boyitish yo‘llarini izlashga qanchalik ijodiy yondashayotgani bilan o‘lchash mumkin. Bu jarayonda yetakchi rol nafaqat ota-ona va pedagoglar, balki butun jamiyatga tegishli bo‘lishi kerak.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Abramyan N.Yu. Rol traditsiy v nravstvennom vospitanii studencheskoy molodeji: sotsialno-normativnыy aspekt // Izvestiya Volgogradskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. 2008. 2008. № 6. S. 27–31. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/rol-traditsiy-v-nravstvennomvospitanii-studencheskoy-molodezhisotsialno-normativnyy-aspekt/viewer

2. Alekseeva A.N. Natsionalnaya kultura v sovremennoy sotsiologii // Vestnik sovremennыx issledovaniy. – 2018. – № 12 (27). – S. 15–18.

3. Salomlashish odobi va odob- axloq qoidalari. Tafakkur manzili. Tafakkurfoiz20manzili-2022foiz20-MAYfoiz20(3)-333-335.pdf.

Sherzodbek Valiyev,
Andijon mashinasozlik instituti, doktorant

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA MILLIY QADRIYATLAR MUVOZANATI: SUN’IY INTELLEKTNING TA’SIRI

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tahlil qilingan. Sun’iy intellektning madaniy merosni raqamlashtirish, milliy san’atni targ‘ib qilish, ta’lim sohasida shaxsiylashtirilgan yondashuv yaratish va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashdagi ijobiy ta’siri yoritilgan. Muallif milliy qadriyatlarni himoya qilgan holda sun’iy intellektdan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the interaction between modern technologies, specifically artificial intelligence, and national values. It highlights the positive impact of artificial intelligence on digitizing cultural heritage, promoting*

national art, creating personalized approaches in education, and supporting handicrafts. The author emphasizes the need to develop strategies for effectively utilizing artificial intelligence while protecting national values.

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *Sun’iy intellekt, milliy qadriyatlar, madaniy meros, raqamlashtirish, texnologiya va jamiyat, madaniyatlararo almashinuv, axloqiy me’yorlar, ma’naviy meros, ijtimoiy o‘zgarishlar, ta’lim, hunarmandchilik.*
♦ ***Keywords:*** *Artificial intelligence, national values, cultural heritage, digitization, technology and society, intercultural exchange, ethical standards, spiritual heritage, social changes, education, handicrafts.*

Tezkor texnologik taraqqiyot davrida, sun’iy intellekt kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir paytda, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda. Milliy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy asosi bo‘lib, uning o‘ziga xosligini belgilab beradi, ijtimoiy birdamlikni va avlodlar davomiyligini ta’minlaydi [1, 22 b]. Hayotning turli sohalarini tubdan o‘zgartirish salohiyatiga ega sun’iy intellektning madaniy me’yorlar va an’analarga ta’siri diqqat bilan o‘rganilishi zarur.

Milliy qadriyatlar rivojlangan millat yoki etnik guruhning o‘ziga xosligini tavsiflovchi moddiy va ma’naviy ne’matlar majmuini ifodalaydi. Ular xalqning tarixiy yo‘li, madaniy merosi, urf-odatlari, an’analari, tili, dini va mentalitetini aks ettiradi [2].

Milliy qadriyatlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va avloddan avlodga o‘tadigan, shu orqali madaniy o‘ziga xoslik va jamiyat barqarorligini ta’minlaydigan o‘ziga xos xulq-atvor kodeksi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarga kattalarga hurmat, mehmondo‘stlik, oilaviy an’analar, jamoaviylik (ayniqsa, mahalla institutida namoyon bo‘ladi), milliy g‘urur, bag‘rikenglik, ma’naviyat va mehnatsevarlik kiradi [3]. Bu qadriyatlar asrlar davomida turli tarixiy, geografik va ijtimoiy-madaniy omillar, jumladan, Buyuk Ipak yo‘li va islom dinining tarqalishi ta’sirida shakllangan [4].

Sun’iy intellekt insonning kognitiv funksiyalariga taqlid qiluvchi tizimlarni yaratishga qaratilgan kompyuter fanining sohasi bo‘lib, mashinani o‘rganish, chuqur o‘rganish va tabiiy tilni qayta ishlash kabi yutuqlarga asoslanadi. Sun’iy intellektni rivojlantirishning hozirgi bosqichi mashinani o‘rganish, chuqur o‘rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash sohasida sezilarli yutuqlar bilan tavsiflanadi, bu esa uning turli sohalarda keng qo‘llanilishiga olib keldi. Sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari sog‘liqni saqlash (diagnostika, dori vositalarini ishlab chiqish), moliya (firibgarlikni aniqlash, xavflarni boshqarish), transport (avtonom avtomobillar, transportni optimallashtirish), ta’lim (shaxsiylashtirilgan ta’lim, virtual yordamchilar), ishlab chiqarish (avtomatlashtirish, sifat nazorati) va xizmat ko‘rsatish sektorini (chatbotlar, virtual yordamchilar) o‘z ichiga oladi.

Sun’iy intellektning jamiyat hayotining turli jabhalariga integratsiyalashuvi milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va targ‘ib qilish uchun qator imkoniyatlarni ochib beradi.

Birinchidan, sun’iy intellekt madaniy merosni raqamlashtirishni osonlashtirib, tarixiy artefaktlar, qo‘lyozmalar, folklor va madaniy o‘ziga xoslikning boshqa elementlarini saqlab qolish va kengroq auditoriya uchun tanishish imkonini beradi [5].

Ikkinchidan, sun’iy intellekt platformalari milliy san’at va madaniyatni xalqaro maydonda targ‘ib qilish, milliy g‘ururni mustahkamlash va madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirish uchun samarali vositaga aylanishi mumkin [6].

Uchinchidan, ta’limda sun’iy intellekt madaniy xususiyatlar va qadriyatlarni hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta’limni ta’minlaydi, bu ularni yosh avlodga yetkazishga yordam beradi . Masalan, o‘zbek madaniyati va tarixiga moslashtirilgan ta’lim dasturlari ishlab chiqilishi mumkin.

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt an’anaviy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash uchun elektron tijorat orqali yangi bozorlarni ochadi, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va an’anaviy dizaynlarga asoslangan yangi mahsulotlar yaratadi [7].

Nihoyat, sun’iy intellekt muloqot va qo‘shma faoliyatni muvofiqlashtirish uchun platformalar yaratish orqali mahalla kabi an’anaviy jamoalarda shaxslararo aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi [8].

Imkoniyatlar bilan bir qatorda sun’iy intellektni joriy etish milliy qadriyatlar uchun ham ma’lum xavflarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, global kontent ta’siri ostida madaniy o‘ziga xoslikning yo‘qolish xavfi mavjud, chunki sun’iy intellekt algoritmlari ko‘pincha G‘arb madaniy me’yorlarini aks ettiruvchi ma’lumotlarga asoslanadi [9].

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar kuchayishi ijtimoiy o‘zaro ta’sirning an’anaviy shakllari va shaxslararo aloqalarni zaiflashtirmoqda, bu ayniqsa kuchli jamoaviy qadriyatlarga ega bo‘lgan madaniyatlar uchun muhimdir [10].

Uchinchidan, sun’iy intellekt modellari noto‘g‘ri ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi mumkin, bu esa milliy madaniyat elementlarining noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt yordamida ish joylarini avtomatlashtirish qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik kabi an’anaviy iqtisodiyot tarmoqlarida ish o‘rinlarining yo‘qolishiga olib kelishi, bu esa ushbu faoliyat bilan bog‘liq madaniy an’analarni saqlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nihoyat, ko‘plab sun’iy intellekt tizimlarini ishlatish uchun zarur bo‘lgan katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog‘liq jiddiy muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Sun’iy intellektning milliy qadriyatlarga ta’siri kontekstida axloqiy masalalar alohida ahamiyatga ega. Madaniy sohaga ta’sir qiluvchi qarorlar qanday qabul qilinishini tushunish uchun sun’iy intellekt algoritmlarining shaffofligi va hisobdorligini ta’minlash kerak. Kichik madaniy guruhlarni kamsitish va

marginallashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun ma’lumotlar va algoritmlarda madaniy tarafkashlikka qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishda turli jamiyatlarning madaniy xususiyatlari va qadriyatlarini hisobga oladigan axloqiy me’yorlar va me’yoriy-huquqiy bazalarni ishlab chiqish zarur.

O‘zbekistonda ham milliy an’analar va me’yorlarni hisobga olgan holda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha mahalliy axloqiy me’yorlar ishlab chiqilishi zaruriyati ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va milliy qadriyatlarni saqlash o‘rtasidagi muvozanat muhim masalalardan biridir. Sun’iy intellekt ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun katta imkoniyatlar taqdim etsa-da, madaniy o‘ziga xoslik va ma’naviy merosni saqlashga e’tibor qaratish zarur.

Bu muvozanatni ta’minlash uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini nafaqat taraqqiyotga yo‘naltirilgan, balki milliy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va boyituvchi shaklda rivojlantirish lozim. Bu jarayonda olimlar, ishlab chiquvchilar, siyosatchilar va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlik zarur.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Kadyrov, B. A., Khaydarov, H. T., Abdirazzakov, A. A., & Akhrorov, S. U. (2022). National values as an integral part of spiritual heritage. Scholar Express Interdisciplinary Journal, 1(10), 22–26.

2. Irtuganova Diana Nailyevna, Morkhova Inessa Vyacheslavovna Basic national values of the uzbek people: traditions, customs and rituals // EJAR. 2024. №11-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/basic-national-values-of-the-uzbek-people-traditions-customs-and-rituals

3. https://www.advantour.com/uzbekistan/traditions.htm

4. Alsaleh, Abdullah. (2024). The impact of technological advancement on culture and society. Scientific Reports. 14. 10.1038/s41598-024-83995-z.

5. Sun’iy intellekt va sun’iy intellekt texnologiyalarining madaniy ta’siri https://www.francescatabor.com/articles/2024/8/3/ai-and-the-cultural-impact-of-ai-technologies

6. Mehmon blogi (SoftProdigy): sun’iy intellekt va jamiyat - ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlar bo‘yicha amaliy tadqiqot. https://www.techuk.org/resource/ai-and-society-a-case-study-on-positive-social-change.html

7. Sun’iy intellektning an’anaviy hunarmandchilik va hunarmandlarga ta’siri. https://geekpedia.com/ai-impact-traditional-crafts/

8. Onlayn hamjamiyatni rivojlantirish uchun sun’iy intellekt: hamjamiyatingizda sun’iy intellektdan foydalanishning 6 amaliy usuli. https://www.heightsplatform.com/blog/ai-to-grow-an-online-community-ways-to-use-ai-in-your-community

9. Sun’iy intellektda madaniyat muammosi bormi? https://news.theculturefactor.com/news/does-artificial-intelligence-have-a-culture-problem

III. O‘ZBEKISTONDA OILA INSTITUTI VA AYOLLAR NUFUZINING YUKSALISHI: TENGLIK VA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI

V.S.Alekseyeva,
“Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi direktori o‘rinbosari

ЖЕНЩИНЫ О СЕБЕ: ПОЛОЖЕНИЕ, ОЖИДАНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ

♦ ***Annotatsiya:*** *“Ijtimoiy fikr” markazi O‘zbekistonda ayollar ahvoliga bag‘ishlangan sotsiologik tadqiqot o‘tkazdi. So‘rov natijalariga ko‘ra, ayollar huquqlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, bandlik va ta’lim sohalarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan, biroq ayrim to‘siqlar hali ham saqlanib qolmoqda. Aksariyat ayollar o‘zlarini erkaklar bilan teng huquqli deb his qiladi va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda. Tadqiqot mamlakatda ayollarning an’anaviy va zamonaviy rollari o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiradi.*

♦ ***Аннотация:*** *Центр «Ижтимоий фикр» провёл социологическое исследование, посвящённое положению женщин в Узбекистане. Опрос выявил позитивные сдвиги в области прав женщин, социальной поддержки, занятости и образования, а также сохраняющиеся барьеры. Большинство женщин чувствуют равные права с мужчинами и уверенно участвуют в жизни общества. Исследование отражает баланс между традиционными и современными ролями женщин в стране.*

♦ ***Abstract:*** *The “Ijtimoiy Fikr” Public Opinion Research Center conducted a sociological study on the status of women in Uzbekistan. The survey revealed both positive developments in women's rights, employment, and education, and existing barriers. Most women feel equal to men and actively engage in public life. The research highlights a balance between traditional values and the evolving role of women in modern Uzbek society*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *ayollar, O‘zbekiston, gender tenglik, ijtimoiy yordam.*

♦ ***Ключевые слова:*** *женщины, Узбекистан, гендерное равенство, социальная поддержка.*

♦ ***Key words.*** *women, Uzbekistan, gender equality, social support.*

Республиканский центр изучения общественного мнения «Ижтимоий фикр» одним из первых в Узбекистане на постоянной основе изучает общественное мнение и на сегодняшний день проводит исследования, направленные на выявление мнений и представлений граждан страны по различным направлениям. Среди данных исследований особое место занимают исследования, проводимые среди женщин. Социологические исследования, опросы общественного мнения, посвящённые женщинам, — это ключ к пониманию самой сути общества, его перемен, вызовов и надежд, где опыт, стремления и вклад женщин становятся движущей силой прогресса. Проведенное исследование представляет многогранную картину положения женщин в современном Узбекистане, характеризующуюся сочетанием позитивных тенденций и сохраняющихся вызовов. Женщина, испокон веков являвшаяся опорой семьи и хранительницей традиций, теперь уверенно заявляет о себе в науке, бизнесе, политике и общественной жизни.

Цель исследования: выявить мнения и представления женщин о их роли и значении в современном узбекистанском обществе, определить уровень жизни женщин и ключевые факторы, оказывающие на него влияние; изучить сдерживающие факторы и барьеры, которые мешают женщинам полностью реализовать свой потенциал; определить потребности женщин в социальной и материальной поддержке, а также степень информированности и вовлеченности женщин в доступные механизмы социальной и материальной помощи; выявить наиболее эффективные меры для укрепления социально-экономической устойчивости женщин, повышения уровня вовлеченности в общественные и профессиональные процессы, а также формирования условий для всестороннего раскрытия их потенциала. **Общие сведения.** Опрос общественного мнения проведен с 17 по 28 февраля 2025 года. Были опрошены респонденты в возрасте от 18 лет и старше, опрос проводился среди женщин.

В нашей стране осуществляются широкомасштабные меры, направленные на улучшение положения женщин, расширение экономических, социальных и политических прав и возможностей женщин.

Права и интересы женщин занимают особое место в новой редакции Конституции Узбекистана. Статьи 42 и 58 предусматривают предотвращение нарушения трудовых прав женщин, создание им достойных условий жизни и труда, предоставление равных возможностей во всех сферах жизни общества.

В рамках Стратегии «Узбекистан-2030» активно продвигается повышение активности женщин, охрана материнства и детства, обеспечение гендерного равенства, защита прав и интересов женщин, а также увеличение доли женщин на руководящих должностях путем продолжения политики обеспечения гендерного равенства, повышения социально-политической активности женщин.

Принята Стратегия достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года.

Узбекистан сделал значительные шаги к улучшению положения женщин, благодаря чему наша страна вошла в пятерку государств с наиболее высоким результатом по индексу «Женщины, бизнес и закон 2024», который оценивает положение женщин в 190 странах по десяти ключевым показателям, включая трудовые отношения и защиту от домашнего насилия.

За последнее время были реализованы успешные реформы, которые положительно отразились на двух важных аспектах — «оплата труда» и «брак». Эти изменения позволили улучшить рейтинг страны на 11,9 пункта, Узбекистан набрал 82,5 балла из 100 возможных. Стоит отметить, что это достижение сопоставимо с показателями ведущих мировых держав и выделяет Узбекистан среди лучших в Центральной Азии.

Одним из ключевых аспектов реформ стало принятие норм, гарантирующих женщинам равную оплату труда с мужчинами за работу равной ценности. Кроме того, были сняты ограничения на трудоустройство женщин в определенных отраслях, что открыло новые возможности для их профессионального роста и карьерного развития.

Решительные шаги предприняты в борьбе с насилием по отношению к женщинам, в Уголовный кодекс и Кодекс об административной ответственности внесены изменения, которые направлены на защиту женщин от физического, психологического и экономического насилия, и теперь за такие преступления установлена уголовная ответственность.

В соответствии с Национальной программой по повышению активности женщин во всех сферах экономической, политической и социальной жизни страны на 2022-2026 годы приняты меры направленные на защиту прав и законных интересов женщин, повышению их роли в жизни страны и общества, охране здоровья, обучению профессиям и обеспечению занятости, широкому привлечению к предпринимательству, социальной поддержке нуждающихся женщин и обеспечению гендерного равенства.

Социологические исследования, опросы общественного мнения, посвящённые женщинам, — это ключ к пониманию самой сути общества, его перемен, вызовов и надежд, где опыт, стремления и вклад женщин становятся движущей силой прогресса. Проведенное исследование представляет многогранную картину положения женщин в современном Узбекистане, характеризующуюся сочетанием позитивных тенденций и сохраняющихся вызовов. Женщина, испокон веков являвшаяся опорой семьи и хранительницей традиций, теперь уверенно заявляет о себе в науке, бизнесе, политике и общественной жизни.

Данные опроса подтверждают, что сегодня перед женщинами

нашей страны открываются все двери. Усиленная правовая защита гарантирует безопасность и справедливость, государственная поддержка помогает женщинам раскрыть свой потенциал в предпринимательстве, творчестве, образовании, общественной деятельности. Женщины занимают руководящие посты, становятся законодательницами мод в сфере инноваций, вдохновляют и ведут за собой. Материнство — священная миссия, но теперь оно не ограничивает, а дополняет возможности. Развивающиеся социальные программы, доступное образование и здравоохранение позволяют каждой женщине уверенно смотреть в будущее, зная, что ее труд и самоотдача ценятся и поддерживаются.

Как показал опрос, большинство женщин - 60,2% убеждены, что обладают равными правами и возможностями с мужчинами. Полученные результаты подтверждают эффективность мер, направленных на расширение социальных и профессиональных перспектив, устранение формальных барьеров и укрепление позиций женщин в обществе. Проводимая в стране гендерная политика позволяет женщинам полноценно реализовываться в карьере, получать образование и свободно принимать решения о своей жизни.

По мнению 26,8% респонденток, несмотря на общий прогресс все еще существуют определенные трудности, которые препятствуют полноценной реализации. К ним относятся сложности с продвижением по карьерной лестнице, двойная нагрузка которая ложится на женщин в связи с необходимостью совмещения профессиональной и семейной сфер.

Доля женщин, которые сталкиваются с серьёзными ограничениями и ощущают неравноправие составляет 5,7% женщин, еще 3,4% респонденток считают, что их положение ухудшается. Таким образом суммарно 9,1% женщин, принявших участие в опросе дали негативные оценки положения женщин. Такие результаты указывают на сохраняющиеся в обществе стереотипы и традиционалистские взгляды относительно роли и предназначения женщин, приводящие к дискриминации и ущемлению их прав в различных сферах жизни.

Опрос показал, что почти половина женщин (48,3%) ожидает значительного улучшения своего положения в ближайшие пять лет благодаря расширению государственных программ, образовательных и профессиональных возможностей. Около трети женщин настроены более сдержанно, рассчитывая на умеренные изменения, в то время как 7,9% не ожидают улучшений, а 4,5% опасаются ухудшения ситуации из-за сохраняющихся социальных и экономических барьеров.

Исследование показало, что женщины в Узбекистане считают ключевыми мерами для улучшения своего положения доступ к бесплатному образованию (52,6%) и расширение возможностей трудоустройства (47,4%). Также важными считаются поддержка женского предпринимательства (32,6%), повышение правовой грамотности и защита прав женщин (24,7%), а также ужесточение законодательства против насилия и дискриминации

(9,1%). Респондентки также отмечают необходимость увеличения числа женщин в органах власти для более справедливого учёта их интересов в государственной политике.

Исследование выявило основные барьеры, препятствующие успеху женщин:

Финансовые ограничения (38,9%): нехватка средств затрудняет получение качественного образования, профессиональную подготовку и карьерный рост, заставляя женщин выбирать низкооплачиваемую работу или сосредотачиваться на бытовых задачах.

Недостаток поддержки (27,4%): отсутствие моральной и материальной помощи от семьи, общества или работодателей ограничивает профессиональный и личностный рост.

Двойная нагрузка (23,0%): совмещение работы и семейных обязанностей снижает шансы на успешную карьеру, так как женщины часто берут на себя основную часть домашних дел.

Неуверенность в себе (15,5%): страхи и низкая самооценка мешают проявлять инициативу и достигать профессиональных высот.

Ограниченный доступ к образованию (11,7%): нехватка финансовых и институциональных ресурсов затрудняет получение качественного образования и выход на рынок труда.

Кроме того, респондентки отмечали социальное давление, гендерные стереотипы и общественные ожидания как дополнительные барьеры, усложняющие профессиональную самореализацию.

Проведенный опрос общественного мнения ярко демонстрируют спектр общественных ожиданий, формирующих образ «идеальной» женщины в современном восприятии. Одним из наиболее предпочитаемых качеств участницы назвали «терпение и покладистость» (46,2%), подчёркивая традиционное представление о женской роли как выдержанной, уступчивой и готовой идти на компромисс. Более половины (50,4%) выделяет «интеллигентность и образованность», 49,4% отметили, что женины должны обладать таким качеством, как «ответственность за семью», подчеркивая значимость в нашем обществе семейных ценностей и традиционное представление о женском предназначении.

Современные женщины должны обладать «хозяйственностью» (37,4%), «красотой и ухоженностью» (34,3%), быть «заботливыми» (32,6%), «скромными» (21,7%) и «женственными» (20,2%), «независимыми и самостоятельными (19,1%).

В целом ответы участниц опроса отражают баланс между традиционными установками и стремлением к интеллектуальному развитию, мягкостью и женственностью, образованностью и самостоятельностью.

Согласно проведенному опросу 63% респонденток заявили, что в их семьях женщины принимают ключевые решения наравне с мужчинами. Проведенный опрос подтверждает, что значительная часть женщин

ощущает себя полноправными участницами обсуждения таких вопросов, как финансы, образование детей и выбор места жительства. Восприятие семейных отношений как равноправных может быть связано как с изменением общественных установок, так и с ростом личной и экономической независимости женщин. В то же время 30,2% опрошенных отметили, что решения в их семьях в основном принимают мужчины. Данный результат свидетельствует о том, что традиционная модель семьи, в которой мужчина играет ведущую роль, остаётся актуальной. Это отражает не только устойчивые культурные и социальные нормы, но и личные предпочтения самих респонденток, которые могут осознанно отдавать ведущую роль супругу.

Опрос выявил, что в общественном мнении преобладает представление о том, что женщины должны активно принимать участие в профессиональной деятельности. Подавляющее большинство респонденток - 62,3% считают, что женщина должна иметь постоянную оплачиваемую работу, 28,3% допускают, что трудовая занятость должна быть исключительно её личным выбором.

В целом, результаты проведенного исследования показали, что современные женщины Узбекистана уверенно сочетает традиционные ценности и новые возможности, активно участвуя в жизни семьи, общества и государства. Большинство женщин ощущают равные права с мужчинами, стремятся к профессиональному росту и успешно совмещают карьеру с семьей. Перед женщинами открываются новые горизонты – в науке, бизнесе, политике и общественной жизни. Государственные реформы создают благоприятные условия для их развития, женщины чувствует поддержку, признание и широкие возможности для самореализации, а сила, мудрость и стремление к успеху наших соотечественниц становятся движущей силой общества.

Aija Helena Elg,
Nordic International University, Master of Arts

HOW FINLAND SUPPORTS FAMILIES WITH CHILDREN

♦ ***Abstract:*** *This text examines Finland's comprehensive family policy and its impact on national well-being and gender equality. It highlights Finland's top ranking in global happiness reports, attributing it to strong public services and family-centered social policies.*

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Finlyandiyaning oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli siyosati hamda uning milliy farovonlik va gender tengligiga ta'siri tahlil qilinadi. Finlyandiyaning dunyodagi eng baxtli mamlakat sifatida e'tirof etilishi, asosan,*

kuchli davlat xizmatlari va oilaga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosat bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

♦ ***Key words:*** *Parental leave, Maternity leave, Childcare reform, Family policies, Finland.*
♦ ***Kalit so‘zlar:*** *ota-ona ta’tili, onalik ta’tili, bola parvarishi islohoti, oila siyosati, Finlyandiya.*

Finland has been named the happiest country in the world for eight years in a row [4]. Public services such as maternity and child health clinics, equal opportunities for a father and a mother to take care of the new born baby contribute to the happy life. Finnish society invests in the well-being, health and safety of children; the infant mortality rate among Finnish children is one of the lowest in the world [3].

The family policy in Finland includes parental leave, subsidized child care, monthly child benefit, and other forms of financial support for families. Table 1 shows an example of the child benefit [2, a]. Child benefit is a monthly sum of money to help with childcare costs and it continues until a child is 17. Single parent gets 73,30 euros more / child. All families receive the child benefit regardless of an income level of the family.

Table 1*: Child benefit*

For one child **EUR 94,88 per month**	
For the second child **EUR 104,84 per month**	For the third child **EUR 133,79 per month**
For the fourth child **EUR 173,24 per month**	For the fifth and each additional child **EUR 192,69 per month**

Source. The Social Insurance Institution of Finland (2025)

When a woman becomes pregnant care and practical guidance start at public maternity health clinics to monitor the health and wellbeing of mother and child. The baby box, a starter kit with necessities from clothing to accessories to help care for a newborn, arrives before the baby is born. The maternity package is a kit granted by the Finnish Social Insurance Institution Kela [2, b] to all expectant or adoptive parents who live in Finland or are covered by the Finnish social security system. Since 1949 it has been given to all mothers-to-be, if they visited a doctor or municipal pre-natal clinic before the end of their fourth month of pregnancy, and the pregnancy has lasted at least 154 days.


An important aim of the family policy of the Nordic welfare states including Finland is gender equality [1]. Several parental leave-reforms have been made in Finland over the previous decades to encourage equity in leave eligibility and use.

In 2022, major changes were made to fathers' involvement in childcare. The reform took effect on 4 September 2022 [2, c].

The aim of the family leave-reform was equal distribution of parental allowance days between the parents. This aim seems to have been achieved. Kela's statistics show that the fathers of children born after 4 September have on average taken out 78 parental allowance days. The fathers of children born while the old rules were still implemented, i.e. in 2021, have on average taken out 44 parental allowance days, and the fathers of children born in 2020 on average 41 parental allowance days. The updated law allows parents more flexibility to share childcare responsibilities.

Earlier leave policy was maternity-centred. The political agenda and family policy are trying to equalize home and work place responsibilities so that fathers can also involve in family management and mothers can continue working. The law allows parents to choose how they divide up their parental leave, instead of setting defined periods for maternity and paternity leave (table 2). Both parents receive a quota of 160 parental leave days before the child turns two. They can choose to transfer up to 63 days to the other parent or caregiver. Single-parent families will receive the full quotas of two parents [2, d].

Table 2: *Parental leave days*



Source. The Social Insurance Institution of Finland (2025)

Table 3*: Examples of amounts of parental leave allowance*

If your wage income is EUR 20,000 per year, the parental allowance is **EUR 42,66 per working day**	
Wage income EUR 30,000 per year **EUR 63,99 per working day**	Wage income EUR 40,000 per year **EUR 85,33 per working day**
Wage income EUR 50,000 per year **EUR 105,65 per working day**	

Source. The Social Insurance Institution of Finland (2025)

In addition to promote equality between parents, the 4 September 2022 reform aims to enhance equality in the working life. Women's salary levels and career prospects have been known to be adversely affected by long periods of maternal leave. Factors such as declining birth rates and shorter family leave for mothers have indeed influenced that the employment rate of women exceeded that of men for the first time ever in Finland in April 2023.

References / Adabiyotlar ro'yxati:

1. Eerola, P., Lammi-Taskula, J., O'Brien, M., Hietamäki, J., & Räikkönen, E. (2019). Fathers' Leave Take-Up in Finland: Motivations and Barriers in a Complex Nordic Leave Scheme. SAGE Open, 9(4). https://doi.org/10.1177/2158244019885389 (Original work published 2019)

2. KELA Social Insurance Institution

a. Child benefit. https://www.kela.fi/child-benefit

b. Maternity package. https://www.kela.fi/maternitypackage

c. Family leave reform. https://www.kela.fi/news/family-leave-reform-has-produced-desired-results-more-and-more-fathers-take-care-of-their-child-at-home-for-a-longer-period (Published 7/11/2024)

d. Parental leave. https://www.kela.fi/on-parental-leave

3. UNICEF Data Warehouse. Retrieved April 12, 2025 from https://data.unicef.org/resources/data_explorer/unicef_f/?ag=UNICEF&df=GLOBAL_DATAFLOW&ver=1.0&dq=FIN.CME_MRY0.&startPeriod=1970&endPeriod=2025&lastnobservations=1

4. World happiness report 2024. Retrieved April 12, 2025 from https://happiness-report.s3.amazonaws.com/2025/WHR+25.pdf

Daiho Kitaoka,
Doctorate in Philosophy (Linguistics),
Senior Lecturer Department of Japanese Philology,
Faculty of Oriental Philology
Uzbekistan State World Languages University

FAMILY VALUES IN JAPANESE AND UZBEK CULTURES

♦ ***Abstract:*** *This paper explores the historical development of family values in Japan and considers its implications for Uzbekistan. It examines how gender roles evolved from the Edo period to the postwar era, emphasizing that the rise of the housewife model resulted from structural and economic factors rather than enduring cultural traditions. Drawing lessons from Japan, the paper argues that challenges facing women in Uzbekistan should be addressed not*

by confronting individuals, but by reforming social systems. The aim is to support women's participation in society while preserving the integrity of family values that continue to shape cultural identity.

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola Yaponiyada oilaviy qadriyatlarning tarixiy rivojlanishini tahlil qiladi va uning O'zbekiston uchun qanday ahamiyatga ega ekanini ko'rib chiqadi. Unda Edo davridan boshlab, urushdan keyingi davrgacha bo'lgan gender rollarining evolyutsiyasi o'rganiladi. Xususan, uy bekasi modeli madaniy an'analar emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasida shakllangani ta'kidlanadi. Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, maqola O'zbekistonda ayollar duch kelayotgan muammolarni shaxslarga qarshi kurashish orqali emas, balki ijtimoiy tizimlarni isloh qilish orqali hal etish zarurligini ilgari suradi. Maqsad – oilaviy qadriyatlar saqlanib qolingan holda, ayollarning jamiyatda faol ishtirokini qo'llab-quvvatlashdir.*

♦ ***Key words:*** *family value, gender inequality, social systems, conventions, ideology.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *oilaviy qadriyat, gender tengsizligi, ijtimoiy tizimlar, an'analar, ideologiya.*

Introduction

"Women are human beings, too."

This is a remark made by a female college student in Uzbekistan in a cultural studies class focusing on family dynamics in Japan and the role of women. This remark appears to express her frustration toward men, and I have encountered several students who are likely to agree with her sentiment. For instance, some female students gave up pursuing study abroad opportunities due to disapproval from their parents (in particular, fathers). However, through examining shifts in family values in Japan and their implications to the situation in Uzbekistan, I have come to believe that we might be fighting against the wrong target. It is not individual men, but rather the underlying social structures and cultural expectations.

Family values in Japan

Pre-modern period: Prior to the onset of modernization in the middle of the 19th century, everyday life among the common people was characterized by a functional assignment of human power and labor, rather than rigid gender roles [1, 2]. Men and women worked collaboratively, often running family businesses together or sharing agricultural tasks. The right person was assigned to the right place depending on their skills, regardless of their gender. This era emphasized a belief on working that individuals should work for the good of society and others [3]. Within this social structure, women were not seen as secondary but as co-contributors to family and community well-being.

Meiji & Taisho period: During the Meiji and Taisho period, from the middle of the 19th century to the early 20th century, significant transformation was brought into surrounding women and family. As Japan sought to modernize and follow Western models, it adopted policies that reinforced patriarchal social order. This policy was adequately supported and validated by Confucian traditions, which were widespread among Samurai society and culture. During this period, although more and more women enjoy higher education and modern cultures, the belief that women did not need education was widespread, because their role was limited to the household or low-skilled labor at a large factory.

It is remarkable that the rate of homemakers among married women was, in fact, smaller than that observed after World War II. A number of women contributed to family business or took a job outside the household [4].

It is also noteworthy that during this period, as increasing numbers of women entered the workforce, a new cultural figure emerged, called *moga* (shortened from *modern girl*) [5]. Mogas cherished independence, urban sophistication, and resistance to traditional femininity.

World War II: During WWII, women's roles became established as keepers of the home, while males were dispatched to the frontline. This transition should not be interpreted as women assuming the role of housewives. Women contributed both domestically and externally to support their families, communities, and the country at large.

Post-war era: Following World War II, the proportion of housewives among married women increased. This transition did not originate from conventional or Confucian ideologies. A greater number of women became housewives during this period due to prevalent social developments. The media propagated the idealized image of housewives, which many women longed to become. Furthermore, social reform did not progress alongside the rapidly growing economy, resulting in numerous women having to resign from their positions upon marriage or childbirth. The 1970s marked the period in Japanese history when the rate of full-time housewives was at its highest [4]. At this point, the belief that Men work outside, women do the housework. This belief still holds now whether people, in particular women, like it or not.

It is crucial to note here that the rise of the dominant portrayal of women as homemakers (who otherwise had to assume the role of solitary career professionals), stemmed from the changes in economy and industry. In other words, the gender inequality in this regard is structural rather than ideological. This structural (often political) source of gender inequality can be observed in Western cultures [6].

Implications for Uzbekistan

In Uzbekistan, the tie between family members and relatives are substantially stronger than that in Japan. Gender inequality remains entrenched in everyday life in Uzbekistan, including education and the workforce, although

significant effort has been made. Drawing from Japan's historical experience discussed thus far, I propose that, beside properly evaluating and acknowledging the skills and potential or female individuals, we should distinguish ideologies from politically and/or economically introduced systems in order to improve the situation for women while sustaining the traditional family value

As the case in Japan, gender inequality can be established for a political and or economical reason. It is not as meaningful as expected to blame or fight against male individuals, but rather we must update the system to maximize the potential of women's contributions. Similarly, promoting recognition and acknowledgement of women's potential by itself is not likely to suffice, unless places to fit them in are prepared in the social and economic system.

In contrast to the situation in Japan, the attitudes of Uzbek people on family and gender values appear to remain consistent. It has surpassed the reforms attempted and implemented by the USSR and has been reinforced following Uzbekistan's independence [7]. Consequently, advocating for the reestablishment of mindset among individuals appears unproductive, or at least can/should not be introduced drastically and quickly. We must investigate how to integrate economic, political, and educational systems into the entrenched attitude that has denied women the opportunity for liberation.

Conclusion

The history of gender roles in Japan demonstrates that inequality is not inevitable, but socially, politically, and/or economically constructed and therefore changeable. By learning from Japan's journey, Uzbekistan can navigate its own path toward equity, and sustain the family value. This requires not only legal reforms, but a reimagining of social structures, cultural narratives, and the role of women as equal agents in national progress.

References / Adabiyotlar ro'yxati:

1. Masamura, K. (2005). Keizai-ga Shakai-o Hakaisuru – Ikani shite Ningen-ga Sodatsu Shakai-o Tsukureru Ka [How the economy destroys society: How can we build a society that fosters human development]. Tokyo: NTT Publishing.

2. Kawai, H. (2012). Kazoku Kankei-o Kangaeru [Thinking about family relationships]. Tokyo: Asahi Shimbun Publishing.

3. Koshikawa, R. (2007). Kurashi uruou Edo shigusa [Edo Customs That Enrich Everyday Life]. Asahi Shimbun Publishing.

4. Makino, M. (2023). Jendaa Kakusa: Jisshoo Keizai Gaku wa Nani-o Kataru Ka [Gender gap: What does empirical economics tell us?]. Tokyo: Chuuoo Kooron Shinsha.

5. Chūnichi S. (2018, August 24). Kagayakitakute: Joseishi taimu toraberu [Wanting to shine: A time travel through women's magazines]. Chūnichi Shimbun, Morning edition.

6. Saini, A. (2023). The Patriarchs: The Origins of Inequality. Boston: Beacon Press.

7. Wazaki, Seika. 2018. Kazoku to Jendaa [Family and Gender]. In Obitani, C. (Ed.). Uzubekisutan o shiru tame no 60 shō [60 chapters to understand Uzbekistan], 128-133. Tokyo: Akashi Shoten.

Dilmurod Safarov,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi direktor o‘rinbosari,
psixologiya fanlari doktori, DSc, professor

NIKOH – OILA MUNOSABATLARI MUSTAHKAMLIGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola ijtimoiy psixologiyada oila guruh sifatida o‘rganilishi va uning turli aspektlari, xususan, oila a’zolarining ijtimoiy rollari va ularning bir-biriga ta’siriga bag‘ishlangan. Oila tuzilishi, jans va gender munosabatlari, hamda milliy qadriyatlar oilaviy jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan. Ma’lumki, oiladagi har bir a’zo o‘z vazifasini bajarar ekan, bu jarayon ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar bilan mustahkamlanadi. Oila a’zolarining ijtimoiy rollari va ular orasidagi munosabatlar oila guruhining dinamikasini tashkil etadi.*

♦ ***Abstract:*** *This article is dedicated to the study of the family as a group in social psychology and its various aspects, particularly the social roles of family members and their mutual influence. The structure of the family, gender relations, and how national values affect family processes are analyzed. It is well known that each family member fulfills their role, and this process is reinforced by social norms and values. The social roles of family members and the relationships between them form the dynamics of the family group.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *Oila, ijtimoiy psixologiya, gender, ijtimoiy rol, milliy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar.*

♦ ***Key words:*** *Family, social psychology, gender, social role, national values, family relationships.*

Ijtimoiy psixologiyada oila guruh sifatida o‘rganiladi. Oilalar tuzilish jihatdan nuklear va ko‘p tabaqali oilalar sifatida farqlanadi. Oilaviy jarayonlar o‘rganilar ekan, albatta, milliy qadriyatlarning ularga ta’sir etishini ham e’tiborga olish kerak. Har bir oilaning tarkibi undagi a’zolarning har biri bajaradigan vazifasidan kelib chiqadi. Oilada hukm suradigan muhit, faoliyat har bir a’zoning vazifalari, ular o‘rtasidagi emotsional muloqotlar ham oilani guruh sifatida o‘rganishda ahamiyatga ega. G.Andreeva o‘zining “Ijtimoiy psixologiya” asarida oilani guruh sifatida o‘rganishni

murakkab va nisbatan kam o‘rganilganligini ta’kidlagan [1; 368-b.]. Ayniqsa, oilani guruh sifatida rivojlanishiga jamoaviy me’yorlar hamda qadriyatlarning ta’siri muammosi kam tadqiq etilgan. Mazkur muammo guruhning rivojlanish dinamikasi bilan bog‘liqdir. Oilada guruh a’zosining «o‘rni» uning jamoadagi shaxslararo munosabatlarini bildiruvchi bir jarayondir. Masalaning murakkabligi guruhdagi a’zolarning tutgan o‘rnini aniqlashdir, chunki nafaqat individning oiladagi o‘rni, balki individga nisbatan guruh a’zolarining muomalasi va munosabati o‘rganilishi lozim. Bu muammoni aniqlash uchun zarur metodik tavsiyalar mavjud emas. Chunki individga berilgan obyektiv baho va uning boshqa a’zolari tomonidan subyektiv idrok etilishi oila a’zosining “o‘rni”ni belgilab beradi. Ushbu jarayon oilada kamdan kam muhokama qilingani sababli ham, turli nizolar yuzaga kelishi mumkin. Oiladagi o‘zaro aloqalarni o‘rganish individning guruh a’zolariga bo‘lgan va aksincha holatdagi emotsional munosabatlarini anglash lozim. Bundan tashqari, oila a’zolaridan biri hisoblangan shaxsning guruhdagi o‘rnini aniqlash uchun umumiy holatda oilaning guruh sifatida jamiyatdagi o‘rnini ham o‘rganish kerak va tahlil uchun inobatga olish zarur.

Shaxsning ya’ni oila a’zosining guruhdagi o‘rni uning ijtimoiy roli bilan belgilanadi. Ijtimoiy rol bu statusni harakatlantiruvchi belgidir. Ijtimoiy rolning asosiy belgilaridan biri guruhning asosiy faoliyatidan kelib chiqqan holda yuklatilgan majburiyatlardir. Masalan, oila ijtimoiy guruh sifatida, aynan, pozitsiya va roli tushunchalarida farqini aniqlashtirishga yordam bo‘ladi. Oilaviy muhitda oilaning har bir oila a’zosining turli xil mavqeilari mavjud: ona, ota, katta farzand, kichik o‘g‘il va h.k. Ana endi har bir oila a’zolarining o‘zgalar oldida bajarayotgan vazifalari va ularni bajarayotgan paytda ijtimoiy rollari ham yuzaga keladi – ona roli, ota roli va h.k. Ijtimoiy rol o‘zgaruvchan va ijtimoiy hayoti o‘zgarishlaridan ham kelib chiqishi mumkin. Oila a’zosining oila guruhidagi o‘rni ularning bajargan vazifalariga beriladigan bahosiga ham bog‘liq. Har bitta a’zosi o‘z mavqeidan kelib chiqqan holda bajarayotgan vazifalaridan natijalar kutiladi, bundan tashqari, ularning bajarilish sifati ham inobatga olinadi. Kutilayotgan natijani oilada har bir guruh a’zosi faoliyati ustidan yana bir guruh nazorat qiladi. Ko‘pincha kutiladigan va real bajarilgan vazifalar o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin [2]. Bu borada guruhdagi me’yor tushunchasiga to‘xtalib o‘tish lozim. M.I.Bobneva ijtimoiy me’yor bo‘lgan har bitta guruhdagi me’yorlarni «jamiyatda qabul qilingan etalon, model» deb hisoblaydi[3; 3-b.]. Guruhda o‘rnatilgan tartiblar, me’yorlar – hamma birdek bo‘ysunuvchi qoidalardir. Qoidalar guruh a’zolari tomonidan qabul qilinib, inobatga olinadi va har bir a’zo o‘z xulq-atvorini ushbu qoidalarga moslashtiradi. Qoidalar regulyativ vazifa bajaradi va o‘z navbatida qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq ravishda ko‘rib chiqiladi.

Z.A.Rasulova o‘z tadqiqotlarida oilaviy ajralishlar va nikoh buzilishining bir nechta sabablarini keltirib o‘tgan. Ushbu sabablar tahlil qilinganda har biri er-xotinning o‘zaro munosabatlarida qadriyatlar tizimi buzilganligini ko‘rish mumkin. Shu sababdan biz ham o‘z tadqiqotimizda masalaning aynan mana

shu – oilaviy qadriyatlar tizimi buzilganligiga asosiy e’tiborni qaratishni lozim deb topdik.

Har bir kishilik jamiyatida va madaniyatida insonlarning ma’lum toifalar asosida bo‘lishning eng ko‘p uchraydigan turi bu ularni ayol va erkaklarga ajratib, jinsiy farqlashdir. Bu tabiiy holat, albatta. Hozirda mazkur bo‘linishga jiddiy muammo sifatida qaralib, alohida ahamiyat berilmoqda. Bu jihatdan ijtimoiy norma va ijtimoiy rollar tushunchalarini atroflicha o‘rganib, bu borada bahs yurituvchi ijtimoiy psixologik tadqiqotlarga ehtiyoj seziladi. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlar va ilmiy bahslar jarayonida jins va gen orasida aniq farq o‘rnatiladi[46]. Gender er-xotin munosabatlarida qanday namoyon bo‘lishini aniqlash uchun ularning o‘ziga xosligini ajratib olamiz. Biologik jins, asosan fiziologik xususiyatlar bilan bog‘liq (jinsiy organlarning tuzilishi, garmonlar, reproduktiv organlar va xromasomalar). Bundan tashqari, ijtimoiy jins tushunchasi ham mavjud. Ijtimoiy jins (gender) shaxsni maskulin va femin darajalarini anglatadi. Ijtimoiy jins har bir shaxsga mansub va jamiyatda namoyon bo‘ladi. Gender shaxsni ijtimoiy psixologik mavqeini namoyon qilishga imkon yaratadi va belgilab beradi. Obyektigaun ham jamiyatda xulq atvorning maskulin yoki femin ko‘rinishiga bo‘lgan munosabat ijtimoiy kutishlar va harakatlar gender rollar deb ataladi. Bu jarayonga biologik va ijtimoiy omillar ta’sir etganligi sababli qat’iy va aniq qoidalarga bo‘ysunmaydi. Lekin shaxs xulq-atvorini, turmush tarzini o‘ziga xosligini inobatga olgan holda tahlil qilish zarur. “Zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar gender konsepsiyalarga tayangan holda erkak va ayollar o‘rtasidagi munosabatlarga ijtimoiy-tashkiliy model sifatida qarab o‘rganadi” [4]. Ushbu munosabatlar ijtimoiy institutlarida shaxsga tayangan holda shakllanib keladi. Shuningdek, gender identifikatsiya jarayoniga ham e’tibor beriladi. Bu jarayonda qoidalarni qabul qilish va ularga rioya qilish shaxsning ongida shakllanib boradi. Ya’ni gender ongli ravishda jinsga oid bo‘lgan belgilarning shakllanishiga va shaxs harakatlarida namoyon bo‘lishiga ta’sir etadi. Bundan tashqari, “tabaqalash” nazariyasiga asoslangan holda erkak va ayollarni iyerarxiya asosida jamiyatda o‘z mavqei va ijtimoiy rollarni bajarishdagi o‘rni aniqlanib kelganligi asoslangan. Bu nazariyaning asosiy yo‘nalishi millat, elat, jins, yosh kabi kategoriyalarni tahlil etib jamiyatda erkak va ayollarning o‘rnini belgilashga qaratilgan bo‘lsa ham ular orasida nizolarni keltirib chiqarishi ham mumkin [5; 7-b.].

Madaniy metaforalar haqida fikr yuritilganda, jamiyatda shakllangan stereotiplar, to‘qima gaplar, yasama va “mif” tariqasidagi g‘oyalar haqida fikr yuritish o‘rinlidir. Ushbu nazariyalar asosini jinslar orasidagi farq tashkil qiladi. Jumladan, feminist yo‘nalishiga mansub tadqiqotchilar jamiyat erkaklarning o‘rni va ularning yuqori mavqeidan kelib chiqadi, deb hisoblashadi. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, salbiy fazilatlar ayollar bilan bog‘liq holatlarda ifodalanadi (V.Solanu, O.Lipovskaya, M.Arbatova). Shunisi e’tiborliki, yuqoridagi xulosalar gender tadqiqotlar olib borayotgan femenistik yo‘nalishdagi olima ayollar tomonidan olib borilmoqda [6]. Ushbu yo‘nalish ayniqsa, Ukraina, Rossiya va Qozog‘istonda keng tarqalgan. Femenizm va gender konsepsiyasini birlashtiruvchi holat bu gender tenglikka intilishdir.

Gender tenglikka erishsa bo‘ladimi, degan savolga G.Galkina tolerant va gender tomondan tenglikni o‘z rivojining asosi qilib olgan skandinav modelini asos qilib ko‘rsatgan. Gender munosabatlarni skandinav modeli asosini gender tenglik emas, gender sezuvchanlik tashkil qiladi. Amerikaning feminist yo‘nalishiga oid oqim ko‘proq ayollarga erkaklarga xos faoliyatni egallashga turtki bo‘lsa, skandinav modeli ham erkaklarda, ham ayollarda ijtimoiy hayotdagi zarur o‘rnini belgilab bera oladi.

Shvetsariyada bola parvarishida ham ota, ham ona teng ishtirok etadi. Shunda jamiyat ikkita yo‘nalishda rivojlanadi. Birinchidan, ayollar ijtimoiy hayotda o‘z faoliyatini davom ettiradilar, otalar esa ota rolini diskremenatsiyasidan ozod bo‘lishlari aniq. Erkaklarning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilsak, shunda gender tomondan ularning ham muammolari ko‘pligi ma’lum bo‘ladi.

Agar ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ajralishlar muammosini o‘rganib chiqsak, bu holatda sud qarorining aksariyatida, bolalar onasining qaromog‘ida qoldiriladi. Bunga asos esa gender stereotiplardan biri, ya’ni onaning yonida bolaga qulay bo‘lishi va ona otaga ko‘ra bolani ko‘proq yaxshi ko‘rishi bilan asoslash mumkin.

Bu gender stereotiplarga ko‘ra onalikning gender ko‘rinishlari ota roliga nisbatan salbiy ta’sir etishi aniq. Bu jiddiy muammo gender konsepsiyasida ham yoritiladi.

Biz tadqiqotimizda oila-nikoh masalalarini yoritishda yosh oilalarni ko‘proq o‘rganib, tadqiqotimiz obyektiga aylantirdik. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yosh oilalarda ajralishlar soni va uning salbiy asorati ko‘payib bormoqda.

Genderni ijtimoiy jins ijtimoiy tajriba, jamiyatdagi bor bo‘lgan ahloq normalaridan kelib chiqqan holda ularni nazorat etish vositalari bilan bog‘liq sifatida tushunish lozim.

Gender nazariyasini o‘zlashtirishda gender bilimlarni o‘zlashtirish lozim. “Jamiyatni o‘rganishda, zamonaviy millat vakillarining o‘ziga xosligini anglashda genderni alohida ahamiyatli jihatlari mavjudligi bilan gender konsepsiyalari mustaqillikning dastlabki-yillarida kirib keldi” [7]. Bu tadqiqotlarni asosiy maqsadi “har bir inson uchun qulay turmush tarzini yaratish va gender stereotiplarni o‘rganib gender sezgirlikni oshirishdan iborat bo‘ladi” [7,31].

I.Yudina tadqiqotlariga ko‘ra, gender sezgirlik jamiyatda jinslararo tenglik emas, balki har bir jamiyatda yashovchi shaxsni o‘ziga xos bo‘lgan va qonun bilan belgilangan haq-huquqiga erishishga sharoit yaratishga qaratilgan. Gender tomondan sezgir mutaxassis har bir fuqaro qiziqishlarini, manfaatini va ehtiyojlarini inobatga olgan holda qaror qabul qila oladi. Gender sezgirlikni va tolerantlikni yuqoriga ko‘tarishga qaratilgan yo‘nalishlaridan biri bu gender bilimlarni oshirishdir.

Bugungi kunda o‘zbek oilalarida nikoh-oila munosabatlarini mustahkamlashning omillarini o‘rganishda gender tadqiqotlarning alohida o‘rni mavjud. Oila kompozitsiyasi, ya’ni tarkibi jihatidan turlicha farqlanadi. Shunday klassifikatsiyalanishlardan biriga ko‘ra oilalar: nuklear va ko‘p bo‘g‘inli oilalarga ajratiladi. Bundan tashqari, milliy qadriyatlarni oilaviy jarayonlarga ta’sir etishini o‘ziga xosligini aniqlashda, guruhiy me’yor va qadriyatlar va guruhiy sanksiyalar ham nazarda tutilishi

kerak. Oilaning tarkibi uning har bir oila a’zosi bajarayotgan vazifasidan kelib chiqadi: ota, ona, bobo, buvi, farzandlar-siblinglar (opa, singil, aka, uka) xola, tog‘a, amma, amaki va h.k. Guruh strukturasi, kommunikatsiyasining o‘ziga xosligi, hukm, faoliyat va oilaning strukturasi, undagi emotsional holat va emotsional muloqot kabilar bilan ham farqlanadi. Oilani guruh sifatida o‘ziga yarasha “guruhiy jarayoni” va “guruhiy dinamikasi” mavjud. Yuqorida ta’kidlanganidek, eng qiyin va kam o‘rganilgan muammo bu oilani guruh sifatida o‘rganganligidir.

Har qanday qoidalar qabul qilingan yoki inkor etilgan ijtimoiy hodisalarga, bevosita qadriyatlarga tayanadi hamda har bitta guruhning qadriyatlari uning mavqedan, qiziqishlaridan jamiyatdagi o‘rindan va unga bo‘lgan munosabatlaridan kelib chiqadi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida guruhning mavqe, tajribasi va olib borayotgan faoliyatidan kelib chiqadi. Qadriyatlar tizimi alohida sotsiologiya fanida o‘rganib kelingan, ammo lekin ijtimoiy psixologiyasida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan dalillarni inobatga olish zarur. Avvalo, turli xil qadriyatlar jamiyat miqiyosidagi qadriyatlarning guruhga bo‘lgan ta’siri hamda oila muhitida turlicha ahamiyatga ega bo‘ladi. Jumladan mehr, oqibat, baxt, sog‘-salomatlik kabi qadriyatlar umumiy va jamoadagi turli xil guruhlarga to‘g‘ri keladi va bu qadriyatlar umuminsoniy jamoada qadriyatlar deb hisoblanadi. Lekin, jamoa hodisalarga oid bo‘lgan qadriyatlarga xos qadriyatlar: mehnat, ta’lim-tarbiya, madaniyat o‘zaro bir biridan farqlanadi va har xil baholanadi. Oila, umumiy holda bitta bir kichik jamoa bo‘lib, bir-biriga nisbatan er-xotin, aka-uka, ota-ona, qarindoshlik kabi rishtalar bilan bog‘liq bo‘lgan jamoadir. Turmush qurushdan oldin har bir inson jamiyatda o‘z mavqega ega bo‘lgan holda rol bajaradi (masalan, o‘g‘il, qiz, opa, singil, uka, aka, jiyan va h.k.). Nikoh - oila munosabatlarida erkak va ayol, er va xotin rolini bajarishga o‘rganadi va shu borada ma’suliyatni o‘z bo‘yniga olishga harakat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андреева Г.М. Социальная психология. - М.: 2013. – 368 с.

2. Niyazmetova G.I. O‘zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ...diss: 19.00.05. –T.: 2010. -163 b.

3. 3. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. М.:1978, -3 с.

4. Willyams J.E. Pancultural gender stereotypes revisited the Five Factor Model. //Sex Roles F Journal of Research, Issue April1999.

5. 5. Гендерное измэрение социальной и политической активности в пэреходный пэриод СПб., 1996, -7 с.

6. Eagle A.H. «Sex differences in social behavior. A social-role interpretation». Hillsdale, NJ. Erlbaum, 1987.

7. Гендер и культура. Учебное пособие для студентов гуманитарных факультетов. Душанбе. Информационное агенство «Азия-плюс».1999.

Yaxshibeka Abdullayeva,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy bo‘linmasi rahbari,
tarix fanlari doktori, professor

XORIJIY DAVLATLARDA GENDER MASALASIDAGI TENDENSIYALAR

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada xorijiy davlatlarda gender masalasida amalga oshirilayotgan strategik harakatlar aks ettirilgan. Yevropa davlatlari, Amerika, Niderlandiya, Afrika, Osiyo va boshqa davlatlarda rahbar ayollarning davlat boshqaruvidagi ulushi tahlil etilgan. Chet el ta’lim sohasidagi ayollarning ulushi bilan Qoraqalpog‘iston oliy ta’lim tizimidagi xotin-qizlarning soni taqqoslab o‘rganilgan. Davlat boshqaruvida, ilm-fanda ayollarning roli muhimligiga e’tibor qaratilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article reflects the strategic actions taken on gender issues in foreign countries. The share of women leaders in public administration in Europe, America, the Netherlands, Africa, Asia and other countries is analyzed. The number of women in higher education in Karakalpakstan is compared with the share of women in educatio- abroad. The role of women in science and public administration in general is emphasized.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim, gender, konstitutsiya, hokimiyat, feminizm, xotin-qizlar, huquq, Nobel mukofoti.*

♦ ***Key words:*** *education, gender, constitution, -ower,-feminism, women, law, Nobel Prize.*

Dolzarbligi. Jahon miqyosida hozirgi globallashuv sharoitida xalqaro tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, olimlar xotin-qizlar va gender masalalari bo‘yicha keng miqyosda shug‘ullanishmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlar masalasi borasidagi jamg‘armasi (YUNIFEM) rivojlanayotgan mamlakatlar xotin-qizlarining siyosiy va iqtisodiy rolini oshirishga ko‘maklashadigan ko‘ngilli jamg‘armadir. YUNIFEM asosan uch soha bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadi:

tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchi sinflari ishlashlari uchun xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish;

qarorlar qabul qilishda xotin-qizlar ishtirokini oshiruvchi boshqaruv va rahbarlikka yordamlashishish;

xotin-qizlar borasida inson huquqlariga amal qilinishining ta’minlanishida yaqindan yordam berish.

YUNIFEM 100 dan ortiq mamlakatdagi o‘n minglab xotin-qizlarning va oilalarning turmush saviyasini yaxshilashga yordamlashmoqda. U xotin-qizlar uchun foyda keltiradigan dasturlarni qo‘llab-quvvatlaydi; xotin-qizlar tashabbuslariga bevosita texnik va moliyaviy yordam ko‘rsatadi; xotin-qizlar birlashmalarga ularning turli-tuman dasturlarni bajarishlarida amaliy saboqlar, turli axborotlar taqdim etadi.

Markaziy Amerikaning olti mamlakatida xotin-qizlarning yuridik huquqlarining tan olinishiga erishishda YUNIFEM adliya organlarining mansabdor shaxslari, politsiya amaldorlari va sudyalar bilan bevosita hamkorlikda faoliyat yuritdi. Mazkur tadbirlar oila daromadini ko‘paytiradi va xotin-qizlar faoliyatiga dadil kirib borishlari uchun imkon yaratishi e’tirof etilgan[1].

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Mavzuni yoritish jarayonida umumqabul qilingan tarixiylik, qiyosiy tahlil, umumiylik va xususiylik, tarixiy tafakkurning asosiy metodologik tamoyillari, xolislik, tizimlilik uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Davlatlar va xalqaro hamjamiyatning ko‘p-yillik harakatlari ta’lim sohasidagi gender masalalarini o‘rganishning yangi istiqbollarini shakllantirdi. 2015-yilga kelib rivojlan-yotgan mintaqalardagi davlatlarning uchdan bir qismi boshlang‘ich ta’lim tizimida har bir jins vakillarining tengligiga erishildi. Ushbu mamlakatlarning ko‘pchiligi Osiyo va Tinch okeani mintaqasida joylashgan. O‘rta ta’lim miqyosida olib qaralganda ayol o‘qituvchilar soni avvallari ozchilikni tashkil etgan mamlakatlarda birmuncha oshgan. Ko‘plab mamlakatlar o‘rta va oliy ta’lim sohasidagi gender tenglik farqini tobora qisqartirgan holda boshlang‘ich ta’lim sektorida har ikki jins vakillarining tengligiga erishdi.

1975-yil Jahonda ayollar-yili deb nomlanishi ham xotin-qizlarga bo‘lgan e’tiborning dunyo darajasiga chiqqanligini bildiradi.

1985-yil Nayrobida Butunjahon xalqaro xotin-qizlar-yili deb nomlanganligining 10-yilligining hisoboti sifatida anjuman bo‘lib o‘tdi. Shu bilan parallel Xalqaro nohukumat tashkilotlarning ham anjumani tashkil etildi, unda 15 000 nohukumat tashkilotlar vakillari qatnashdi. 157 ta davlat xotin-qizlarning ahvolini bundan keyin yaxshilash bo‘yicha 2 000-yilgacha Istiqbolli strategik reja qabul qildi.

Ushbu tadbirlar “Global feminizm g‘oyasi”ning tug‘ilishiga sabab bo‘ldi. Gender aspektini yangi pog‘onoga ko‘tardi. Xotin-qizlarga tegishli barcha masalalarga e’tibor ortdi.

1948-yil 10-dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi 10-dekabrni Inson huquqlari kuni deb belgilandi.

1993-yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Ayollarga nisbatan barcha turdagi zulmga chek qo‘yish haqida” Deklaratsiya qabul qilindi[2].

1995-yil Pekinda xotin-qizlarning Butunjahon 4-anjumani bo‘lib o‘tdi. Pekin Deklaratsiyasi va xotin-qizlarning Platformasi qabul qilindi.

2010-yil 2-iyulda BMT Bosh Assambleyasida gender tenglik va xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalasi qo‘yildi.

2014-yil dunyoning 195 davlatidan 143 tasi o‘z Konstitutsiyasida ayollarning erkaklar bilan tengligiga kafolat berdi. Ammo 52 davlat hali bunday ijobiy qadamni qo‘ymadi.

2015-yil dunyo davlatlarining milliy parlamentida ayollar ulushi 22 foizni tashkil etdi (1995-yil 11,3 foiz edi. – Ya.A.)

Shuningdek, BMT tomonidan 25-noyabr “Ayollarga nisbatan zulmni yo‘q qilishga qarshi xalqaro kurash kuni”;

6-fevral – “Xotin-qizlarning jinsiy organlarini jarrohlik yo‘li bilan mayib (nogiron) qilishga qarshi xalqaro munosabat kuni”;

11-fevral – Xotin-qizlarning xalqaro ilm kuni;

19-iyun – “Qarama-qarshiliklar davrida xoti--qizlarni jinsiy majbur-ashga qarshi xalqaro kun” deb belgilangan “kunlar” mavjud.

Dunyoning ko‘pchilik davlatlarida davlat boshqaruvida ishtirok etayotgan ayollar soni sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi. Masalan, Shvetsiyada 1980 – 1984-yillarda parlamentda ayollar soni 25 foiz dan 40 foizgacha oshgan bo‘lsa, 1995-yilga kelib bu ko‘rsatkich 50 foizni tashkil etdi. Finlyandiya ijtimoiy siyosiy hayotida ayollarning roli tinimsiz oshmoqda. 1994-yildan buyon davlat xodimlari orasida ayollar 41 foizni tashkil etmoqda. Avstriya federal hokimiyatining 30 foizini ayollar tashkil etsa Kanadada federal xizmatdagi ayollar ulushi 1995-yilga kelib 42 foizni tashkil etgan. AQSH dagi hozirgi ma’muriyat uning tarixida ayollar soni eng ko‘p bo‘lgan ma’muriyatdir. Ayollar 2500 dan ziyod lavozimni egallaydi (40 foiz dan ko‘proq). Shuningdek, ulardan 27 nafari Prezident tomonidan yuqori lavozimlariga tayinlangan shaxslardir [3].

Ayollar huquqlarini cheklash ko‘pgina mamlakatlarda turli vaqtgacha davom etgan. Masalan, Yangi Zelandiyada 1893, Finlanliyada 1906, Buyuk Britaniya va Rossiyada 1918, Fransiyada 1944, Yaponiyada 1959, Shvetsariyada 1971, Lixtenshteynda 1976-yilda bunday cheklovlar bekor kilingan. Bu holat ayrim arab davlatlarida (Kuvayt, Saudiya Arabistonida) bugungi kungacha saqlanib qolgan[4].

Ta’lim sohasidagi gender landshaftida kuzatilayotgan ijobiy o‘zgarishlarga qar-masdan Osiyo va Tinch okeani mintaqasida hali ko‘p ishl-rni amalga oshirish k-rak. Ko‘plab mamlakatlarda qizlarning ta’lim olishiga ruxsat etilganiga qaramasdan ular boshlang‘ich va o‘rta maktablarga kirishda, maktabda, uyda va jamiyatda hali hamon shaxsini kamsituvchi ko‘plab to‘siqlarga uchramoqda. Xuddi shunday, gender to‘siqlari, kamsitilishlar o‘qituvchilar orasida, ko‘p joylarda keng tarqalgan holat bo‘lib qolmoqda. Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich maktab miqyosida, gumanitar fanlar va ijtimoiy predmetlar sohasidagi o‘qituvchilar tarkibida ayollar soni ustun bo‘lib turibdi, oliy ta’limda va tabiiy fanlar sohasida esa erkak o‘qituvchilar soni yetakchilik qilmoqda. Ayol o‘qituvchilar gender to‘siqlari ta’limning dastlabki bosqichidan boshlab to butun faoliyati davomida mavjud bo‘lgan muhitda muayyan qarshiliklarga duch kelmoqda. O‘qituvchilar doimiy ravishda keng tarqalgan gender to‘siq ta’sirida qolib, gender jihatlarni hisobga olishga qodir bo‘lmay qolganida, ularda

genderni tushunish pozitsiyasini egallash va gender masalalarida yetakchilik qilish murakkab kechadi.

Ta’lim tizimi jamiyatni yaxlit tarzda aks ettiruvchi ko‘zgu bo‘lib, unga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va o‘z navbatida ta’limda kechayotgan yangilanishlar ham jamiyat taraqqiyotiga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Gender tenglikda yutuqqa erishish uchun harakatni ta’limdan boshlash zarur. Ta’lim tizimi doirasida o‘qituvchilar kelajak avlodga o‘zining ish faoliyati, xulq-atvori, ularga munosabati orqali kuchli ta’sir etish imkoniyatiga ega. Ular gender tenglikni joriy etishdagi o‘zgarishlarning tashabbuskori bo‘lishlari kerak.

O‘qituvchilarni tayyorlashda gender jihatlarni ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Gender jihatlarni tushungan o‘qituvchi gender muammolaridan xabardorligi va his qila olishi asnosida yosh avlodni ongli fikrlash va harakat qilishiga imkon yarata oladi. Shunday ekan, ta’limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o‘qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak.

2017-yilning dekabr va 2018-yilning fevral oylari oralig‘ida YUNESKO – Xaynan “Qizlar va ayollar ta’limi uchun” hamkorlik doirasida beshta mamlakatda, ya’ni Kambodja, Myanma, Nepal, Shri Lanka va O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi siyosatni belgilovchi shaxslar va o‘qituvchilarni tayyorlashda gender masalalarini hisobga olish bo‘yicha yuzaga kelgan vaziyat va kasbiy tayyorgarlik ehtiyojini tahlil qildi. Ishtirokchi mamlakatlarning hisobotlari shuni ko‘rsatdiki, gender tengligi maqsadiga sekin erishishning asosiy omillari bu – ta’lim sohasidagi mas’ul shaxslar, o‘quv dasturlari va darsliklarni ishlab chiquvchilarning gender masalalaridan yaxshi xabardor emasligi hamda yetarli darajada qiziqmasligi hisoblanadi. Hisobotlardan ko‘rinadiki, o‘qituvchilarni tayyorlashda hal qiluvchi kuchga ega o‘quv dasturlari va darsliklarining tuzuvchilari hamda mas’ul shaxslarning imkoniyatlarini rivojlantirish uchun tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. Shundagina ular o‘qituvchilarni tayyorlashdagi gender tenglikda gender masalalari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy to‘siqlarni yaxshi tushuna oladi. O‘qituvchilarning kasbga tayyorlashda va ularning malaka oshirishidagi gender tengsizlikning tub mohiyatini tahlil qilish gender tengsizlikning dolzarb muammolarini bartaraf etishdagi yagona va hal qiluvchi bosqichdir.

Ilm-fan rivojida ham ayollarning roli katta. Agar Nobel mukofotining 1901-yildan boshlab tashkil etilganligidan boshlab hisoblaydigan bo‘lsak, birinchi Nobel mukofoti 1903-yili Mariya Skladovskaya Kyuriga berilgan. Demak, 1903-yildan boshlab, 2020-yilgacha 892 nafar odam va 24 tashkilot Nobel mukofotini olishga sazovor bo‘lgan. Shundan 58 nafari ayoldir -a ular 6,5 foizni tashkil qiladi. Hatto 4 nafar ayol 2 martadan Nobel mukofoti sovrindorlari bo‘lishga m-vaffaq bo‘lgan. Umumiy hisobda 77 davlat fuqarolari ushbu mukofotga sazovor bo‘lganlar. Eng ko‘p mukofot olgan davlat AQSH-383, Buyuk Britaniya-132, Rossiya-31, Yaponiya-28, Xitoy-8.

“Global harakatlarni qo‘lab-quvvatlash Parlamentariysi” dunyoning siyosiy lider ayollarini birlashtirishga ko‘mak berib kelmoqda. Yer yuzida 40 nafar ayol mashhur liderlar qatoridan o‘rin olgan[5].

Xorijiy davlatlarda xam xotin-qizlarning ta’lim, ilm-fandagi faoliyatiga e’tibor berilib kelinmoqda. Ammo shuni ta’kidlash joizki, Kanadada ilm fanni rivojlantirishda ayollar faoliyatiga qaratilgan aniq dastur mavjud emas. Asosan meditsina, gen injeneriyasi kabilarga ko‘proq e’tibor qaratilgan.

Quyida xalqaro miqyosda ta’lim, ilm-fanda rivojida ayollarning ulushini tahlil qilamiz:

YUNESKOning Statistika institutining 2015-yilgi Hisobotiga ko‘ra, ilm-fanda – qishloq xujaligi, texnologiya, meditsina, tabiiy fanlar, gumanitar fanlar bo‘yicha va ta’limda – ayollarning o‘rtacha ulushi 10 foizdan yuqori bo‘lgan davlatlar:

Koreya respublikasi, Yaponiyada – 10 foiz

Avstriya va Niderlandiyada – 20 foiz.

Shveysariyada, Shvetsiya, Irlandiya, Slovakiya, Germaniya, Finlyandiya, Fransiya, Slovakiya, Chexiya Respublikasi, Daniya, Avstraliya, Norvegiya, Belgiya, Kanada, AQSH, Islandiya, Gretsiya, Vengriya, Chilida ayollarning o‘rtacha ulushi 30 foizdan yuqoridir.

Portugaliya, Isroil, Ispaniya, Estoniya, Italiya, Polsha, Turkiya, Meksika, Yangi Zelandiyada ayollarning o‘rtacha ulushi 40 foizdan yuqoridir.

Ayollarning o‘rtacha ulushi sal kam 50 foiz va yuqorini tashkil qilgan davlatlar, bu Lyuksemburg (52,8 foiz) va Portugaliya (49,1 foiz) hisoblanadi.

Janubiy Afrika davlatida ilmiy kengash va milliy ilmiy tashkilotlardagi ayollar soni 19 foiz, Oliy ta’lim muassasalari rektorlari va prorektorlari 17 foiz, universitet professorlari 21 foiz, Fanlar akademiyasi a’zolari 22 foizni tashkil qiladi[6].

Lotin Amerikasi davlatlarining ilm-fanidagi xotin-qizlar ulushi foiz hisobida: Boliviya 62, Venesuela 56, Argentina 53, Paragvay 52, Urugvay 49, Braziliya 48, Gvatemala 45 foizni tashkil qiladi.

Yevropa Ittifoqida umuman olganda davlatlar rivojiga ulush qo‘shayotgan ayollar 33 foizni, professor-o‘qituvchilar 40 foizni, Hukumat a’zolari 40 foizni, yakka sektorlarda 19 foizni tashkil etadi.

Janubiy Osiyo davlatlaridan – Nepalda ayollar 8 foiz, Hindistonda 14 foiz, Shri-Lankada 32 foizni tashkil qiladi. Janubiy Sharqiy Osiyodagi davlatlar ichida Tailanda 52 foiz, Filippin, Malayziya, Vetnam, Indoneziya, Singapur, Kombodja davlatlarida 20-30 foizni tashkil qiladi.

Arab davlatlarida umumiy hisobda 37 foizni tashkil qiladi. Bahrayn, Bruney, Sudanda 40 foiz, Iordaniya, Liviya, Oman, Falestin, Qatarda 20-25 foiz, Saudiya Arabistonida 1,4 foiz, Birlashgan Arab Amirliklarida 83-84 fizni tashkil qiladi.

Saxaraning janubiy tomonida olima ayollar 30 foizni, Lesoto, Namibiyada 60 foizni, Janubiy Afrika va Zimbabveda 47 foizni, Burkina-Fasoda 18 foizni tashkil qiladi.

Afrikada xotin-qizlar uchun maxsus mukofotlar belgilangan. Keyingi-yillarda 5 nafar ayol Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Tadqiqot davomida shunday xulosaga keldikki, obyektiv, subyektiv sabablarni hisoblaganda xotin-qizlarning umumiy muammolaridan biri – bu oilasi, farzandlari tarbiyasi va boshqalar bilan band bo‘lib qolishi ekan. Ayrim sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, 75 foiz xotin-qizlar olim bo‘laman deb o‘qishga kiradi, ilmiy ishini boshlaydi, ammo shularning 35 foizigina olimlik darajasiga erisha olarkan.

Ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish uchun 2014-2020-yillarga rejalashtirilgan “GORIZONT 2020” Yevropa dasturi ishlab chiqilgan va moliyalashtirilgan.

AQSHda 1980-yil “Xotin-qizlarga ilm va texnikada teng imkoniyatlar” haqida Qonun qabul qilingan.

Xorij davlatlarida talaba qizlarning ulushini quyidagi faktlarda ko‘rishimiz mumkin. Shimoliy Amerikada 57 foiz, Janubiy Amerikada 49-67 foiz, Yevropa va G‘arbiy Osiyo davlatlarida (Turkiya va Shveysariyadan tashqari) 40 foiz, Afrika janubidagi davlatlarda 30-31 foiz, Osiyoda: Afg‘onistonda 24 foiz, Tojikistonda 38 foiz, Turkmanistonda 39 foizni tashkil qiladi.

18 ta Arab davlatlarining 11 tasida talabalar soni yuqori bo‘lib, 60-70 foizni tashkil qiladi.

Agar Yevropa va Shimoliy Amerikani qo‘shib hisoblasak, o‘rta hisobda 55 foiz, Italiya, Portugaliya, Ruminiyada 26 foizni tashkil qiladi.

Janubiy-Sharqiy Yevropa davlatlarida 48,5 foiz, Karib dengizi davlatlarida 44,4, Markaziy Osiyo davlatlari 44,3, Lotin Amerikasi 44,3, G‘arbiy Yevropa davlatlari 40,2, Arab davlatlari 36, 8, Yevropa erkin savdo Assotsiatsiyasi 34,2, Yevropa Ittifoqi 33,1, Afrikaning Saxara janubi 30,0, G‘arbiy Osiyo davlatlarida 27, 2, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida 29, 5, Janubiy Osiyo davlatlarida 16, 9 foizni tashkil qilgan.

Qoraqalpog‘iston Oliy ta’lim muassasalarida jami bakalavriat yo‘nalishidagi talabalar soni 66 662 nafar, shundan talaba qizlarning soni 36 209 nafar bo‘lib, 54,3 foizni tashkil qiladi. Magistrlar soni 1 397 nafar, 1 023 nafari qizlar bo‘lib, ular 73,2 foizni tashkil qiladi. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati 38, 2 foizni tashkil qiladi[7].

Qoraqalpog‘iston Oliy ta’lim tizimida ilmiy darajali xotin-qizlar soni 30 foizga yaqinini tashkil qiladi. Demak biz, Janubiy_Sharqiy Yevropa davlatlari qatoridamiz.

Xotin-qizlardan rektor, prorektorlar yo‘q. Dekanlar 2 nafarni, kafedra mudirlari 30-50 foizni tashkil qiladi[8]. Nobel mukofoti sovrindorlari yo‘q.

Talaba qizlar bo‘yicha hisoblaganda, Shimoliy Amerika (57 foiz), Janubiy Amerika (49-67 foiz), Yevropa davlatlari (55 foiz), Qoraqalpog‘istonda talaba qizlar soni 54,3 foizni tashkil qilgan. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki,

talaba qizlar soni bilan ham Qoraqalpog‘-ston Yevropa davlatlari qatorida turibdi.

Xulosa. Shunday qilib, dunyo ayollarining ta’lim, ilm-fandagi ulushini tadqiq etar ekanmiz, ularning ilmga, fanga bo‘lgan intilishlari cheksiz ekanliklarini ko‘ramiz. Shu bilan birga, ular nafaqat o‘z mamlakatlari, balki dunyo davlatlari ilmu-faniga ham o‘ziga xos ravishda munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Takliflar

- Ayollar masalasining bugungi holati va bu bilan bog‘liq muammolarni kompleks tarzda: demografik, huquqiy, milliy, psixologik, etnik va boshqa aspektlarni o‘rganadigan Oila markazini xalqaro, mintaqaviy va respublika miqyosida izlanishlar olib boradigan ilmiy-tadqiqot institutiga aylantirish;
- Angliya, Saudiya Arabistoni, Koreya, Yaponiya, Hindistonda qizlar uchun maxsus kollejlar, universitetlar faoliyat yuritmoqda va ushbu ta’lim muassasalari bilimlar reytingida yuqori pog‘onada turibdi.
- O‘zbekistonda ham qizlar uchun maxsus maktablar, kollejlar, universitetlar tashkil etilsa, ular nafaqat aniq va tabiiy, gumanitar fanlarni, balki ularda siyosiy rahbarlik, liderlik sifatlari shakllantirilsa, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanib, oqila, dono va ma’nan yetuk qizlar ichidan davlat arboblari, buyuk olimlar, fazilatli Onalar etishib chiqarmidi.
- Amalga oshirilayotgan tadbirlarga qaramay, ayollarning uy mehnatlari - ayolning onalik, farroshlik, oshpazlik, kir yuvuvchilik, murabbiylik kabi ishlariga to‘lanadigan haq masalalari ochiq qolmoqda.
- Xotin-qizlarning Kengashlari yuqoridan kelgan buyruqlarning ijrosini qisman bajarish bilan band bo‘lib qolmoqda, Xotin-qizlar bilan ishlashishning usul va shakllarini o‘zgartirib, takomillashtirib borsalar, yaxshi bo‘lar edi.
- O‘zbekiston aholisini “Yodamarin”, “Yodbalans”, foliy kislotasi kabi dorilar bilan bepul ta’minlash masalasiga e’tiborliroq qaralsa, shu bilan birga yoshi katta ayollar va erkaklarga ham arzonlashtirilgan narxda berilsa, bundan faqat millat, xalq yutar edi.
- Inson aql-idrokining kuchliligi, eslash qobiliyati va zehnining o‘tkirligi, sog‘lom va uzoq umr ko‘rishi mumkinligi kabilar odam organizmida yodning yetarli bo‘lishiga bog‘liq. Agar yod etishmasa, injiq, aqli zaif, ongi past, agressiv, urushqoq bo‘lib, jinoyatchilikka qo‘l urushi mumkin bo‘lib qoladi. Shuning uchun avlod tarbiyasida nafaqat xotin-qizlarga, balki erkaklarga ham e’tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Internet materiallari: ZiyoNET.uz. // Ta’lim jarayonida rahbar-ayollarning o‘quv jarayoni samarad-rligin- oshirishdagi ahamiyati (Internet materials: ZiyoNET.uz. // The role of women leaders in the educational process in increasing the effectiveness of the educational process).

2. www.un.org.

3. Wollsionecroft M.A.Vindication of the Reghts of Women. Harmondsworth, 1985, P. 67. // Qarang.- Enton- Giddens. Sotsiologiya., «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2002., B. 203.

4. Wollsionecroft M.A.Vindication of the Reghts of Women. Harmondsworth, 1985, P. 67. // Qarang.: Entoni Giddens. Sotsiologiya., «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2002., B. 203.

5. www.context.reverso.net. Sentr jenщiпы-liderы so vsego mira.

6. Doklad YUNESKO po nauke na puti k 2030 godu. Idz. YUNESKO. Izdatelskiy dom Magistr-Press. Organizatsiya OON. Po obrazovaniyu, nauke, meditsine. Rosiiya. Moskva. 2016. – S. 95-114. (UNESCO report on science towards 2030. Idz. UNESCO. Publishing House Master-Press. UN organization. Education, science, medicine. Russia. Moscow. 2016. – P. 95-114.)

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi joriy arxivi. 2024-yil (Current archive of the Council of Ministers of the Republic of Karakalpakstan. 2024.).

Faxriddin Ro‘ziqulov,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
psixologiya fanlari doktori, DCs, professor

AJRASHGAN OILALARDAGI ER-XOTINLAR OILAVIY QADRIYATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Oila institutini mustahkamlash, oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash. Oilalarga ta’sirchan metodik va amaliy yordam ko‘rsatishning samarali tizimini belgilash. Oilalarda ichki oilaviy va shaxsiy munosabatlarni, xususan ota-ona va farzandlar, er va xotin, qaynona va kelin o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oilada mojaroli va og‘ir turmush sharoitlarini amaliy hal qilish mexanizmlarini joriy etish.*

♦ ***Abstract.*** *This article explores the strengthening of the family institution, the enhancement of the family’s educational and upbringing potential, the preservation of traditional family values in society, and the improvement of the spiritual and moral environment within families. It also outlines the effective system of providing methodological and practical assistance to families. Special attention is given to improving internal family and personal relationships, particularly those between parents and children, husbands and wives, and mothers-in-law and daughters-in-law. Additionally, the article discusses mechanisms for resolving conflicts and difficult life situations*

within families, especially in cases of divorce.

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *oila, nikoh, ajralish, ijtimoiy-psixologik, etnopsixologiya, qadriyat, empirik qiymatlar, psixoterapevt roli.*
♦ ***Key words:*** *family, marriage, divorce, social-psychological, ethnopsychology, values, empirical values, role of the psychotherapist.*

Oilaviy ajralish masalasi xususida so‘z borganda uning sabablariga umumiy ijtimoiy hodisa sifatida ham qarash mumkin. Shu sababli ajralishlar borasida jamoatchilik tomonidan bildirilayotgan munosabatlarda “oilaviy ajralishlarning sabablari” tushunchasi qo‘llaniladi. Agar ajralish sabablari fan yo‘nalishlariga ko‘ra tahlil etilsa, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy va emotsional jihatlariga alohida urg‘u beriladi.

Oilaviy ajralishlar masalasining statistik mezonlariga e’tibor qaratilganda ham, umumiy holatda ajralishga olib keluvchi sabablardan etnopsixologik ta’sir doirasidagi omillarni kuzatish mumkin bo‘ladi. Ammo statistik ko‘rsatkichlar taqdim etilganda psixologik xossalar sifatida talqin etilmaydi. Sabablar umumiy talqinga ko‘ra sanab o‘tib ketiladi. Hozirgi kunda O‘zbekistondagi ajralishlarning ijtimoiy, etnopsixologik muammolarini aniqlashda etnopsixologiyaning vazifalarini ham inobatga olishga to‘g‘ri keladi. Etnopsixologiyaning aks yettiruvchi funksiyasiga ko‘ra, O‘zbekistondagi ajralishlarga sabab bo‘luvchilar etnosning rivojlanishi, tarixiy voqelik bilan bog‘liq ijtimoiy, tabiiy va iqlim muhiti bilan bog‘liq sharoitlarni ham inobatga olish kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning o‘zidayoq etnosga ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoit keskin oshganligini kuzatish mumkin. Ikkinchi tartibga solish funksiyasiga ko‘ra, oilaviy ajralishlarning oddiy holatga aylanishi o‘zbek oilalarida turli xil oilaviy munosabatlar va turmush tarzi normalarining shakllanayotganligi bilan ham bog‘liqdir.

Etnopsixologiyaning tarbiyaviy funksiyasiga ko‘ra, bugungi kunda o‘zbek etnosiga xos xulq-atvorda yangi qoida va me’yorlarning o‘zlashtirilishi, ularning milliy xarakter, milliy odatlar tarzida ijtimoiylashuviga sabab bo‘layotganidir. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda, O‘zbekistondagi oilaviy ajralishlarning ijtimoiy-psixologiya va etnopsixologik muammolarini talqin etishga harakat qilinadi.

Tadqiqotimizda O‘zbekistondagi ajralishlarning ijtimoiy-psixologik sabablarini o‘rganish borasidagi sa’y-harakatlarning dastlabki holati ajralish yuz bergan oilalardagi er-xotinlarning bir-birini juft sifatida e’tirof etishi va ular oilaviy qadriyatlarining mosligini o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Buning uchun A.N.Volkova va T.M.Trapeznikovaning O‘zbekistondagi oila muammosini o‘rganishda qo‘llanilayotgan “Nikohga da’vosi va rollar kutilmasi”ni o‘rganish metodikasidan foydalanildi. Metodika er-xotinning oilaviy hayotdagi jinsiy munosabatlarning ahamiyati, er va xotinning shaxs sifatida mosligi, ota-onalarning majburiyatlari, har bir turmush o‘rtoqning kasbiy qiziqishlari, maishiy xizmatlar, axloqiy va hissiy qo‘llab-

quvvatlash, juftlikning tashqi jozibadorligi haqidagi munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan. Oilaning asosiy funksiyalarini aks yettiruvchi ushbu ko‘rsatkichlar oilaviy qadriyatlar shkalasini tashkil qiladi.

Bundan tashqari, ushbu metodika er-xotinning oilaviy funksiyalarini amalga oshirishda er va xotin o‘rtasidagi rollarni istalgan shaklda taqsimlash haqidagi fikrlarini aniqlashtirishga imkon beradi, bu rollar kutish va da’volar ko‘lami bilan birlashtirilgan. Ushbu metodikaning natijalari oilaviy qadriyatlar iyerarxiyasini ko‘rsatadi. Bu esa oiladagi turmush o‘rtoqlarning ijtimoiy-psixologik muvofiqligi to‘g‘risida xulosa qilishga imkon beradi.

Tadqiqotda Toshkent, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridagi ajralishga yuz tutgan oilalar o‘rganildi. Buning uchun mahalla fuqarolar yig‘ini vakillari, FHDYO (Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish) va sud qarorlari bilan tanishish asosida ajrashayotgan va ajrashgan oilalarning er-xotinlar qadriyatlar tizimini o‘rganishga erishildi. Tadqiqotda ajralishga yuz tutgan oila vakillarining sobiq oilasidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan munosabatlari kelgusidagi ajralish muammosi profilaktikasi va uni bartaraf etish yuzasidan ijtimoiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Empirik qiymatlar dastlab metodikaning shkalalari bo‘yicha, so‘ngra esa qadriyatlar yo‘nalishiga asoslanib tahlil qilinadi. Tadqiqot metodikasi ko‘rsatkichlari normal taqsimot talablariga ko‘ra qayta ishlanganda noparametrik xarakterga egaligi aniqlandi. Shu sababli miqdoriy ko‘rsatkichlar tanlanma xususiyatiga asoslanib, Manna-Uitni (U), Kraskel Uoles (H) usullariga tayanildi. Shuningdek, O‘zbekistondagi ajralishlarning xususiyatiga ko‘ra, qadriyatlarning faktorli tahlili ham amalga oshirildi (1-jadval).

O‘zbekistondagi ajrashgan oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari asosida ushbu yo‘nalishga mansub bo‘lganlar to‘g‘risida ilmiy xulosalar chiqarishga to‘g‘ri keladi.

Jinsiy munosabatlar. Ushbu yo‘nalishdagi munosabatlar o‘z navbatida erlar (286,25) va xotinning intilishi (238,51), o‘z navbatida ayolning kutilmasi (272,32) va erning intilishi (218,90) o‘rtasidagi nomutanosiblik kuzatildi. Ularning tafovuti ($H=28,95$ $p\leq0,01$) ahamiyatli darajaga ega. Bundan ko‘rinadiki, oilalarning ajralishidagi asosiy sabablardan biri sifatida jinsiy nomutanosiblikning ta’siri ba’zida izohlanmayotgandek hamda o‘ta nozik masala sifatida e’tirof etiladi. Jinsiy nomutanosibliklar oilaviy ajralishning asosiy sababi sifatida ko‘rsatilmasa-da, oilaviy ziddiyatlarning asosiy sababi hisoblanadi. Natijalarni statistik mezon bo‘yicha tekshirganda ham farq kuzatildi. Islom dinida va o‘zbek etnosida er bilan xotin munosabatlarining nozik jihatlari quyidagi mulohazada keltiriladi: “Shu o‘rinda ayollarimizga ham bir narsani ta’kidlash kerakki, modomiki erlarining haloli bo‘lishgach, faqat ular bilan huzurlansin. Bu uning haqqi hisoblananuqtayining uchun ham erning ko‘zi tushadigan holatda orolanib, erlari uchun ziynatlanish joiz”[4, 5]. Ajrashgan oilalarda ko‘proq ziddiyat va

sabablarni boshqa tomonlardan izlanmoqda, jinsiy munosabat masalasi esa ochiq qolmoqda, deyish mumkin.

1-jadval

Ajralishgan er-xotinlarning nikohga da’vosi va rolli kutilmalarining jinsga ko‘ra ko‘rsatkichlari (Kraskel Uoles mezoni)

№	Qadriyatlar	O‘rtacha rang ko‘rsatkichi				H	p
		Kutilma		Intilish			
		Xotin n=295	Er n=146	Xotin n=295	Er n=146		
1.	Jinsiy munosabatlar	272,32	286,25	218,90	238,51	28,95	0,007**
2.	Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqligi	298,12	281,325	264,58	224,18	38,47	0,010*
3.	Maishiy-xo‘jalik yuritish	284,60	274.01	255,17	218,94	30,92	0,014*
4.	Ota-ona tarbiyachilik funksiyasi	312,28	293.12	286,45	223,25	40,87	0,000**
5.	Ijtimoiy faollik	272.24	267,27	219,55	221,72	11,32	0,865
6.	Emotsional-psixoterapevtik	288,35	271,11	254,67	221,43	37,85	0,005*
7.	Tashqi jozibadorlik	292.49	284,55	230,12	215,72	20,05	0,269

Izoh: *-p≤0,05; **-p≤0,01

Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqligi. Ushbu qadriyat oilada yeng muhim sanaladi. Erning rafiqasini yoki ayolning turmush o‘rtog‘ini inson sifatida e’tirof etishini belgilaydi. Oila qurishda birinchi qadam qo‘yayotgan vaqtda yigit bilan qiz, istisno holatlarda norozilik bilan qilinmasa, asosan, har ikkala tomonning o‘zaro rozilik qaroriga asoslaniladi. O‘z navbatida shaxs sifatida e’tirof etilish xotin va erning atrofdagilar orasidagi sotsial statusini ham belgilaydi. Oilada er yoki rafiqa sifatida e’tirof etilmaslikning asosiy sabablaridan biri sifatida qabul qilish mumkin.

Maishiy-xo‘jalik yuritish. Ajralishlarning statistik sabablari qayd qilingan manbalarda oilaning maishiy va moddiy ta’minlanganlik masalasi bo‘yicha kutilmalar va da’volarni baholashga erishildi. Ajralishgan oilalarning er bilan xotinlarini maishiy-xo‘jalik qadriyati bo‘yicha ham ajralishgan oilalarda xotin (kutilma – 284,60 va intilish – 255,17) bilan erning (kutilma – 274,01 va intilish – 218,94) o‘rtasida ham nomutanosiblik kuzatilmoqda (H=30,92 p≤0,05). Bu er va xotin o‘rtasida maishiy-xo‘jalik yuritishda nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli o‘zbek etnosida qizlarni uy bekasi; yigitlarni oila boshlig‘i sifatida tarbiyalashga katta e’tibor qaratiladi. Maishiy-xo‘jalik yuritish qadriyati bo‘yicha er bilan xotinning o‘zaro nomutanosibligi farzandlarni oilaviy hayotga tayyorlash bosqichidayoq xatoga yo‘l qo‘yilganligini ko‘rsatmoqda. Bir vaqtlar O‘zbekistonning qishloq hududlarida yigitlarni to‘yoldi sinovdan o‘tkazish uchun o‘tin yordirilgan va yigitlar bajarishi kerak

-o‘lgan yumushlar bilan sinovdan o‘tkazilgan. Bugungi kunda bunday sinovlar, qaysidir ma’noda, urfdan chiqib bo‘lgan. Ajralishgan er-xotinlarning munosabatiga qarab ham, oilada maishiy-xo‘jalik yuritish qadriyati yetarlicha tarkib topmaganligini ko‘rish mumkin.

Ota-ona tarbiyachilik funksiyasi. Erkak va ayolning oila qurishdagi ma’naviy vazifalaridan biri avlodni davom yettirishdir. Oilada ota-ona o‘zlari amalga oshira olmagan orzu-umidlarini farzandlari orqali amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Ajrashgan oiladagi er-xotinlarning munosabatiga qaralganda, bu qadriyatlar ham, erkak va ayolning fikricha, o‘zaro moslikka ega bo‘lmayapti. Keyingi-yillarda O‘zbekistonda ota-onaning tarbiyachi sifatida funksiyasini maqsadli amalga oshirmayotganligi sababli o‘z farzandining qotiliga aylangan ota-onalar paydo bo‘layotganligi va bunday noxush xabarlarning ommaviy-axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda katta tezlikda tarqalayotgani o‘zbek etnosiga nomunosibliklarni keltirib chiqarmoqda. Ota-onalarning bunday xatti-harakatlari va xulq-atvori aynan tadqiqot metodikasi shkalasidagi xususiyatlar bilan bog‘liq. Shu sababli ham ajralishgacha va ajralishdan keyingi holatdagi farzandlar ruhiyati bilan bog‘liq muammolar O‘zbekistondagi oilaviy ajralishlarning ajralmas ijtimoiy-psixologik muammolariga aylanmoqda.

Tadqiqotimizda ajrashgan er-xotinlarning “ijtimoiy faollik” va “tashqi jozibadorlik” qadriyatlari bo‘yicha tafovutlar aniqlanmadi. Ular borasida er-xotinlarning munosabatlarida nisbiy moslik kuzatildi. Er va xotinlarning turmushga qurishga qadar bir-birlarining kasb-kori, ijtimoiy faolligi, qiziqishlari va tashqi jozibadorligini hisobga olib yondashganliklari sababli ham statistik farqlar aks yetmagandir, balki.

O‘zbek xalqining “Er-xotinning urishi – doka ro‘molning qurishi” maqoliga ko‘ra, har bir oilada er bilan xotin munosabatlarida nizolar va ziddiyatlar kuzatiladi. Bunday sharoitda er yoki xotin nizolarni bartaraf etishda psixoterapevt rolini bajaradi va asta-sekinlik bilan nizolarning bartaraf etilishini ta’minlaydi. Ajralishgan oilada er-xotin nizoli vaziyatlarni bartaraf etishdan ko‘ra, uning avj olishiga turtki berish bilan cheklanmoqda. Oilaviy nizolarning avj olishi esa oxir-oqibat ajralishga sabab bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ro‘ziqulov F.R. O‘zbekistonda ajralishning ijtimoiy, etnopsixologik muammolari va ularni oldini olish yo‘llari [Matn]: monografiya / F.R.Ro‘ziqulov. – Navoiy: -cience Algorithm, 2023.-220 b.

2. Shoumarov G‘.B., Rasulova Z.A. Oila entsiklopediyasi. – T.:Ilm-Ziyo-Zakovat. 2016. - 416 b.

3. Shoumarov G‘.B. Muhabbat va oila. -Toshkent: Ibn Sino, 1994. - 28 b.

4. Qobusnoma. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1973. -123 b.

5. Qur’oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. -T.: Cho‘lpon nashriyoti, 1992. -3-237 b.

Ro‘zi Komilov,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
falsafa fanlari doktori, DSc

NIKOHDAN TASHQARI MUNOSABATLARNING AMORALISTIK SABABLARINI FALSAFIY TAHLILI

♦ ***Annotatsiya****: Nikohdan tashqari munosabatlar tarixan mavjud bo‘lib, ular oilaviy qadriyatlarni yo‘qqa chiqaradigan g‘ayriaxloqiy xatti-harakatlardir. Ushbu munosabatlar turli ijtimoiy, ma’naviy va psixo-emotsional sabablar bilan bog‘liq bo‘lib, oila va jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy munosabatlarning mustahkamligini ta’minlash uchun yoshlarga axloqiy va jinsiy tarbiyani shakllantirish, ularni oilaviy qadriyatlarga hamda muhabbatga asoslangan munosabatlarga yo‘naltirish muhimdir. Nikohdan tashqari munosabatlar oilaviy muhitni buzib, salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.*

♦ ***Abstract.*** *Extramarital relationships have historically existed and are considered immoral acts that undermine family values. These relationships are associated with various social, moral, and psycho-emotional causes, negatively impacting the family and society. To strengthen family relations, it is crucial to shape the moral and sexual education of the youth, guiding them toward relationships based on family values and love. Extramarital affairs can disrupt the family environment and lead to negative social consequences.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *nikohdan tashqari munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, jinsiy madaniyat, ijtimoiy oqibatlar.*

♦ ***Key words:*** *extramarital relationships, family values, moral education, sexual culture, social consequences.*

Nikohdan tashqari munosabatlar deyilganda diniy yoki huquqiy jihatdan belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tib, birga yashab kelayotgan er-xotinning begona shaxs bilan jinsiy-emotsional aloqada bo‘lishi yoki xiyonat qilishi tushuniladi. Nikohdan tashqari munosabatlar tarixan mavjud bo‘lib, oilaviy qadriyatlarni yo‘qqa chiqaradigan g‘ayriaxloqiy xatti-harakatdir. Insoniyat tarixidan xabar beruvchi mifologik, diniy, falsafiy manbalarni tahlil qilsak, nikohdan tashqari munosabatlar barcha davrlarda mavjud bo‘lganligini, hattoki ba’zi ta’limotlar ularni qo‘llab-quvvatlaganining guvohi bo‘lamiz. Lekin insoniyat kelajagi haqida qayg‘uradigan jamiyat bunday g‘ayriaxloqiy munosabatlardan jirkanib, unga qarshi kurashib kelmoqda.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida nikohdan tashqari munosabatlarning bir nechta sabablarini keltirib tahlil qilishga harakat qildik:

Buning asosiy sabablaridan biri voyaga etmagan yoshlar o‘rtasida

tuziladigan nikoh bo‘lib, buning natijasida insonlar oila, oilaviy munosabatlar va turmush o‘rtog‘idan tez to‘yinadi hamda ularda nikohdan tashqari munosabatlarga moyil deviant xulq shakllanadi;

Ikkinchidan, nikohlanayotgan kelin-kuyov bir-birlarini yaxshi bilmasdan, tanimasdan nikohdan o‘tadilar. Ularning nikohdan oldingi oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlari nikohdan keyingi real hayot bilan mos kelmaydi;

Uchinchidan, insoniyat hayotida bo‘layotgan turli xil o‘zgarishlar, ijobiy va salbiy ta’sirlar, ruhiy, moliyaviy, ma’naviy depressiyalar, mansab pillapoyasidan o‘sish yoki tushish, yaqin insonlarni yo‘qotish yoki turli xastaliklar stress yoki jo‘shqin kayfiyatni paydo qiladi. Bunday holatga tushgan inson uni haqiqatda tinglay oladigan, dardu-hasratlariga tushunadigan, qiynalganida ko‘mak beradigan sherik izlaydi. Turmush o‘rtog‘iga doimiy muammolarni aytish ham oilaviy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababdan ushbu holatlardan tashqarida bo‘lgan juft izlab topadi;

To‘rtinchidan, oilada farzandlarning dunyoga kelishi natijasida kelin-kuyovning asosiy e’tibori va mehri bolaga qaratiladi. Natijada bu juftlik bir-biriga kamroq vaqt ajratadi hamda oraga sovuqchilik tushadi. To‘ldirilmagan mehr nikohdan tashqari munosabatlardan izlanadi;

Beshinchidan, er yoki ayolning jismoniy yoinki aqliy mehnatga chuqur sho‘ng‘ib ketishi oqibatida oilaviy juftiga kamroq vaqt ajratadi. U bilan gaplashishga, kulishishga, shodlik lahzalarini tuyishga, qayg‘uli va quvonchli hissiyotlariga sherik bo‘lishga umuman vaqt topmaydi. Natijada ular orasida hissiy ajralish sodir bo‘ladi va ikkinchi tomon o‘ziga boshqa “g‘amxo‘r” axtaradi;

Oltinchidan, hayotning turli sinovlari davomida inson shaxsiy axloqiy-estetik ideali va qadriyatlari asosida qarorlar qabul qiladi. Bu qarorlar tabiiyki, turmush o‘rtog‘ining ideallariga mos tushmaydi. Kelib chiqqan nizolar natijasida asta-sekin oraga sovuqchilik tushib amoralizm hodisasi sodir bo‘ladi. “Ancha keng tarqalgan va ko‘pincha “buyuk muhabbat” sifatida talqin (kinofilmlar va romanlarda yana ham ko‘proq vasf) qilinadigan soxta muhabbat shakllaridan biri – ma’budaparastlik muhabbati. Agar odam kamoloti davomida kuch-qudrati, fahm-farosati, aql-idroki samarali kamol topishiga tayanuvchi obyektligini, individualligini anglaydigan, idrok qila oladigan darajaga yuksala olmasa, sevgan kishisini “ilohiylashtirishga”, undan ma’buda yasashga moyil bo‘ladi. U kuch-quvvati, imkoniyatidan yiroqlashib, ularni sevgan kishisiga saodat manbai nisbatini berib, unga har qanday muhabbat tajassumi, har qanday ro‘shnolik, har qanday rohat-farog‘at timsoli sifatida topinadi. Shu asno o‘z imkoniyatlarini his etishdan mahrum bo‘ladi, o‘zligiga ega bo‘lish o‘rniga, uni sevgan kishisi timsolida boy beradi. O‘ziga sig‘inuvchi kimsaning umidlarini uzoq muddat qondirish odatda hech kimning qo‘lidan kelmagani uchun, ertami-kechmi bunday “oshiq”ning ixlosi qaytadi va dardiga taskin axtarib, yangi ma’buda qidira boshlaydi, bunday qidirish ba’zan uzluksiz davom etaveradi” [1: 211];

Yettinchidan, uylanish yoshiga yetguncha mustaqil bo‘la olmagan,

mustaqil qarorlar qabul qilib, mustaqil faoliyat olib bora olmagan nikohlanuvchi to‘ydan keyin turmush o‘rtog‘iga suyanishni xohlaydi. Lekin hayotga yengil-yelpi qaragan, oilaviy qadriyatlarni tushunib anglab yetmagan yoshlarning birgalikda yashashlari qiyinlashadi. O‘z navbatida bu nikohdan tashqari munosabatlarga motiv bo‘ladi, tashqaridan suyanchiq izlanadi;

Sakkizinchidan, birga yashayotgan kelin-kuyovning umumiy qiziqish va manfaatlarining yo‘qligi ularni bir-biridan zeriktiradi. Umumiy qiziqishning yo‘qligi va manfaatlar uyg‘unlashmaganligi bir-birining estetik kechinmalarini hayajonli hissiyotlarini tushunmaslikka olib keladi. Uzoq vaqt birga shodlik lahzalarini tuymaslik begonalik kayfiyatini shakllantiradi va nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaradi;

To‘qqizinchidan, hayot qiyinchiliklarini tuymagan, oila va inson qadriga yetmagan, “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushib, umrini havaslar og‘ushida o‘tkazgan yosh nikohdan keyingi oilaviy qiyinchiliklarga chiday olmaydi. Ba’zan oiladagi tashvishlar va farzand tarbiyasiyu, turmush o‘rtog‘i bilan munosabatni bir xil deb hisoblaydi hamda bunday hayotdan unda zerikarlilik hissiyoti shakllanadi. Yoshlikdagi o‘yin-kulgularni xohlab qoladi va sarguzashtlar izlay boshlaydi. Bu yovuzlik, “...insoniylik holatidan ortga qaytish, insonga xos aql, muhabbat xususiyatlarini yo‘q qilishga bo‘lgan intilish. Ayni paytda, u fojeiy holatdir. Chunki inson, hayvoniy darajaga qaytsada, u biror bir soniya odam ekanini unutmaydi, demak, yovuzlik masalani hal qilishning yo‘li sifatida uni hech qachon qoniqtirmaydi. Insonning yovuzlik holati – o‘zini ezib turgan insoniy turmushi og‘irligidan ozod bo‘lishga fojiaviy urinishi tufayli ro‘y beradi, u o‘zini yo‘qotishdan iborat.” [2: 166-167]

Jamiyat va davlat barqaror taraqqiyoti har doim ta’kidlanganidek, oila mustahkamligi va farzandlar barkamolligiga bog‘liq. Tinch oilada axloqiy-ruhiy zo‘riqishlarsiz ulg‘aygan yoshlar nikoh va oila munosabatlarini to‘g‘ri anglab milliy hamda diniy qadriyatlarga mos holda hayot kechiradilar. Biz yoshlarimizda nikoh yoshiga yetgunlariga qadar axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz bilan birgalikda jinsiy tarbiya haqida ham gapirishimiz lozim. Oilaning asosi va insonning biologik ehtiyoji hisoblanmish jinsiy madaniyat haqida ota-ona umuman tushuntirishmaydi. Ota-onaning ulg‘ayib nikohlanishga tayyor bo‘layotgan farzandlariga bu mavzuda gapirishiga mentalitetimiz, milliy va diniy qadriyatlarimiz yo‘l qo‘ymaydi. Vaholanki yoshlar nikohdan keyin ushbu jarayonlarga yuzma-yuz keladi. Jinsiy madaniyat haqida ota-ona, yoshi kattalar indamasa, OAV da gapirilmasa, ta’lim tizimida bu haqda umuman ma’lumot bo‘lmasa, yosh kelin-kuyov nikohga qanday tayyor bo‘lsin?

“Yosh bolalardagi hirsiy hissiyot ota-ona tomonidan taqiqlanadi, natijada, bolalarda nevroz holati paydo bo‘ladi. Axloqiy normalar hirsiy hissiyotlarni taqiqlaydi. Natijada hissiyotlar inson ongida boshqa o‘zgarishga uchraydi. Bu o‘ziga xos psixik energiyadir. Bu energiya har xil nevroz kasalliklari orqali yuzaga chiqadi. Hirsiy hissiyotlar tug‘dirgan nervozlarni Freyd psixik rivojlanishning notabiiy,

zaruriy bosqichi deb ataydi. Agar inson taqiqlangan hirsiy tuyg‘ularni ongli ravishda anglasa, u tuzalishi mumkin.” [3: 800-801] Bunday mas’uliyatli vazifani albatta ota-onalar bajarishlari, nikoh tuzish ostonasida turgan yoshlarga ro‘zg‘or tutish odoblari bilan birgalikda oilaviy jinsiy madaniyatning nozik tomonlarini, nikohdan tashqari munosabatlarning g‘ayriaxloqiy sabablari va fojiali oqibatlari haqida tushunchalarni shakllantirishlari lozim.

Nikohdan so‘ng yoshlarni oilaviy qadriyatlar asosida bir-birini tushunishi, go‘zal xulq asosidagi o‘zaro hurmat, hayajonli hissiyotlar, emotsional yaqinlik jinsiy muhabbatni shakllantiruvchi motivlardan hisoblanadi. Bu oila mustahkamligi va farovonligi asosi. “Shu bois birga yashashning tizimini o‘zgartirishga, ya’ni ko‘pxotinlilik, jazmanbozlik, jamoaviy jinsiy aloqa va hokazolarga intilish – bor-yo‘g‘i haqiqiy muhabbat qiyinchiliklarini yengib o‘tish uchun yo‘l qidirish. Agar inson o‘z “yarmini” topish va sevish baxtiga erishsa, u boshqa juft izlashga hech qachon intilmaydi, butun borlig‘ini o‘z seviklisiga bo‘lgan muhabbatga bag‘ishlaydi.” [2: 169]

Nikohdan so‘ng yoshlar dunyoqarashida shakllangan oilaga va turmush o‘rtog‘iga nisbatan hurmatsizlik natijasida sodir bo‘lgan nikohdan tashqari munosabatlar natijasida bir qator zararli oqibatlar yuzaga keladi. Birinchidan, oila institutining zaiflashuvi yoki ajrimlar natijasida bolalarning yetim qolishi, ota-ona janjallari oqibatida ularning ma’naviy kamolotiga zarar etishi, nosog‘lom muhit natijasida axloqiy tarbiyaning zavol topishiga olib keladi; ikkinchidan, pala-partish va himoyalanmagan nikohdan tashqari munosabatlar natijasida OITS/OIV kabi tanosil kasalliklarning avj olishi hamda oila, jamiyat salomatligiga katta xavf tug‘dirishi; uchinchidan, aldanishlar, xiyonat va nikohdan tashqari munosabatlar natijasida kuzatiladigan ruhiy zo‘riqish, stress, tushkunlik holatlari inson salomatligiga katta xavf tug‘diradi. Avvalo ularning ishchanlik qobiliyatiga zarar yetkazsa, keyin ruhiy sog‘liq me’yorlari buziladi. Germaniyalik kardiolog shifokor aytganidek, agar erkaklar nikohdan tashqari munosabatga kirishmasalar yurak xastaligi bilan og‘rigan bemorlar soni yarmiga qisqarardi.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Blez Paskal, Xose Ortega De Gasset, Erix From,. Sevgi san’ati. Toshkenuqtayizbekiston”, 2011. B- 211.

2. A. Sher. Axloqshunoslik. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, Toshkent: 2010. B- 166-167.

3. O.To‘xliyev. Yevropa falsafasi. “Tafakkur”, Toshkent: 2016. B- 800-801

Baxodirjon Ganiyev,
Farg‘ona davlat universiteti
Sotsiologiya kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori, DSc

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA AYOLLAR TENGLIGI KONSEPSIYASINING MILLIY XUSUSIYATLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur tezisda yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida ayollar tengligi konsepsiyasining milliy xususiyatlari tahlil etilgan. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy islohotlari doirasida gender tengligiga erishish yo‘lidagi sa’y-harakatlar, milliy an’ana va zamonaviy tamoyillar uyg‘unligi asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This thesis analyzes the national characteristics of the concept of gender equality in the context of the changing Uzbekistan. Within the framework of Uzbekistan's socio-economic and legal reforms, efforts to achieve gender equality are highlighted, with measures being implemented based on the harmony of national traditions and modern principles.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *ayollar tengligi, gender siyosati, milliy xususiyatlar, huquqiy islohotlar, ijtimoiy rivojlanish, gender strategiyasi, xalqaro tajriba.*

♦ ***Key words:*** *gender equality, gender policy, national characteristics, legal reforms, social development, gender strategy, international experience.*

Ayollar tengligi masalasi bugungi kunda nafaqat ijtimoiy va huquqiy muammo, balki global miqyosda barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN) tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining (SDG) 5-moddasi aynan gender tengligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, unga ko‘ra: “Ayollar va qizlarning huquqlarini ilgari surish va ularni jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqaror rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi” [1.].

O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va gender siyosatini takomillashtirish” yo‘nalishi bo‘yicha muhim huquqiy asoslar yaratildi. Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 7 mart kuni Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki haqida shunday: “Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani ayniqsa e’tiborlidir” [2.].

“Gender tenglik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni [3.] gender tenglikni ta’minlash borasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab berdi. O‘zbekistonning gender tengligi sohasidagi xalqaro tajribani o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishi ham ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish zaruratini oshiradi.

Mazkur muammo bo‘yicha tadqiqotchilarning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: “Gender tengligi va ayollar huquqlarini ta’minlashga qaratilgan siyosatlarning samaradorligi ularning milliy xususiyatlari va madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi darajasiga bog‘liq” [4. 12-35-b.].

O‘zbekiston kontekstida gender tengligi konsepsiyasini yangicha talqin qilish va uning milliy xususiyatlarini ilmiy asoslash jamiyatda ayollarning faolligini oshirish hamda ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois ushbu mavzuni chuqur tadqiq etish nafaqat nazariy jihatdan muhim, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, mamlakatning modernizatsiya jarayonlari bilan hamohangdir.

Ayollar tengligi masalasi jahon miqyosida uzoq-yillardan beri ijtimoiy fanlar, huquqshunoslik, sotsiologiya, va gender tadqiqotlari doirasida keng o‘rganilib kelmoqda. Ushbu sohadagi muhim ilmiy asoslar quyidagi yo‘nalishlarda shakllangan:

Xalqaro huquqiy va institutsional asoslari. Ayollar tengligi masalasiga oid muhim xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, BMTning “Ayollar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasi” (*CEDAW*, 1979) [1.] hamda Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi (1995) [1.] gender tengligini ta’minlash yo‘nalishidagi asosiy xalqaro standartlardir.

Ilmiy tadqiqotlar va nazariy qarashlari. Zamonaviy tadqiqotlarda gender tengligi bo‘yicha turli nazariy yondashuvlar ilgari surilgan. Olib borilgan tadqiqotlar gender tengligi va madaniy o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. A.Sen esa gender adolati va iqtisodiy taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilgan [5. 102-125-b.].

Markaziy Osiyo (C5) va O‘zbekiston rakursi. O‘zbekiston gender tengligi bo‘yicha xalqaro standartlarni o‘z qonunchiligiga integratsiya qilish jarayonida Yangi taraqqiyot bosqichimizda qabul qilingan “Gender tenglik to‘g‘risidagi qonun” va “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash bo‘yicha davlat siyosati konsepsiyasi” ushbu sohaga oid milliy yondashuvni belgilaydi.

O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash borasida muhim yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hali ham ba’zi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu jarayonni quyidagi jihatlar orqali tahlil qilish mumkin:

- Yangilanayotgan O‘zbekiston gender siyosatini mustahkamlash bo‘yicha bir qancha islohotlarni amalga oshirdi.
- “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining Gender strategiyasi” qabul qilindi, bu esa gender tengligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

• O‘zbekiston ayollari bandligi sohasida sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Masalan, 2017-yildan 2023-yilga-a bo‘l-an davrda ayollar tadbirkorligi ikki barobarga oshgan.

• O‘zbekistonda ayollarning oliy ta’lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Ayollar uchun alohida grantlar va kvotalar joriy etilgan.

• So‘nggi-yillarda “Xotin-qizlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlar” qabul qilinib, gender zo‘ravonligiga qarshi kurash kuchaytirilmo-da.

Biroq, qonunlar ijrosi masalasida ba’zi muammolar mavjud.

• Mahalliy darajada ayollar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha huquqiy savodxonlik darajasi yetarli emas.

• Gender tengligi iqtisodiy sohada hali ham to‘liq ta’minlanmagan. Masalan, ayollar erkaklarga qaraganda pastroq maosh olishi va yuqori lavozimlarga erishish imkoniyatlari cheklangan bo‘lib qolmoqda.

• Texnika va muhandislik sohalarida ayollarning ishtiroki hali ham past darajada.

• Gender stereotiplari ta’lim tizimida ham sezilarli darajada saqlanib qolgan.

• Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar hali ham oilaviy va ijtimoiy bosimlar ostida qolmoqda. Xususan, gender asosida zo‘ravonlik holatlari kamdan-kam hollarda rasmiy ravishda qayd etiladi.

Mazkur mavzuni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish zarurati yuqori. O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga osh-rilayot-an islohotlar ijobiy natijalar bermoqda, biroq hali ham gender tengligi bo‘yicha to‘liq erkinlik va adolat ta’minlangan deb aytish qiyin. Gender teng-igi bo‘-icha ilmiy tadqiqotlarni davom ettir-sh, mavjud muammolarni amaliy tahlil qilish va xalqaro tajribani o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Olib borilgan tadqiqotimiz doirasida O‘zbekistonning modernizatsiya va yangilanish jarayonlari sharoitida ayollar tengligi konsepsiyasi milliy mentalitet, tarixiy an’analarga asoslangan holda shakllanayotkanlig- kuzatilmoqda. Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirmoqdamiz:

1. Huquqiy asoslarning mustahkamlanishi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qator qonunlar gender tengligini ta’minlashga qaratilgan. 2019-yilda qabul qilingan “Gender tenglikni ta’minlash to‘g‘risida”gi qonun huquqiy mexanizmlarni mustahkamladi.

2. Madaniy va an’anaviy omillari. An’anaviy jamiyatda ayollarning ijtimoiy roli nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, zamonaviy taraqqiyot ularning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy faoliyatini kengaytirishga turtki bermoqda. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar gender tengligini rivojlantirishda to‘siq emas, balki yordam beruvchi omil bo‘lishi mumkin.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy omillari. Ayollarning ta’lim va mehnat bozorida ishtirok etishi oshib bormoqda. Xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularga kredit va grantlar ajratish, ishbilarmonlik muhitida qo‘llab-quvvatlash jamiyatdagi ijtimoiy tenglik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

4. Ayollar siyosiy faolligining oshishi. Parlament va mahalliy hokimiyat organlarida ayollar sonining ortishi ijtimoiy siyosatda gender tenglik

masalasiga e’tiborni kuchaytirdi. Ayollar yetakchiligi gender muammolariga doir qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynamoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonning gender siyosati sohasidagi keyingi-yillarda quyidagi tendensiyalar kuzatilishi mumkin:

Birinchidan, ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki oshishi kutilmoqda. Ayollar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlik va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari kengayadi.

Ikkinchidan, ta’lim tizimidagi gender tengligiga to‘liq erishiladi. Ayollarning oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot sohalarida faolligi oshadi, ayniqsa STEM yo‘nalishlarida (fan, texnologiya, muhandislik va matematika).

Uchinchidan, oiladagi gender rollari o‘zgarishi kutilmoqda. Jamiyatda erkaklar va ayollar orasidagi majburiyatlar muvozanatlashib, gender stereotiplari zaiflashadi.

To‘rtinchidan, huquqiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasidagi islohotlar kengayadi. Gender tengligini mustahkamlash uchun yangi qonunchilik islohotlari amalga oshiriladi, shuningdek, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish tizimi takomillashtiriladi.

Beshinchidan, ayollar siyosiy faolligining ortishiga erishish kutilmoqda. Ayollar jamiyatda muhim qarorlar qabul qilish jarayonlarida ko‘proq ishtirok etadi, natijada gender tengligi institutsional mustahkamlanadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda gender tengligi borasidagi ijobiy o‘zgarishlar milliy xususiyatlar va zamonaviy taraqqiyot talablariga mos holda rivojlanmoqda. Kelgusi-yillarda bu jarayon yanada chuqurlashib, jamiyatning barcha sohalarida ayollarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://sdgs.un.org/2030agenda

2. https://president.uz/oz/lists/view/7076

3. https://lex.uz/uz/

4. Inglehart R., & Norris P. Rising Tide: Gender Equality and Cultural Change Around the World. - Cambridge University Press. 2003. - P. 12-35.

5. Sen Amartya. Development as Freedom. - New York: Alfred A. Knopf. 1999. - P. 102-125.

Kamoliddin Rustamov,
Toshkent davlat transport universiteti
Texnologik mashinalar muhandisligi kafedrasi mudiri, PhD, professor

O‘ZBEK JAMIYATIDA OILAVIY QADRIYATLARNING MODERNIZATSIYASI: GENDER ROLLARI, AN’ANAVIYLIK VA DAVLAT SIYOSATI O‘RTASIDAGI MUVOZANAT IZLANISHLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekiston jamiyatida oilaviy qadriyatlarning zamonaviy kontekstdagi o‘zgarishlari, ayniqsa gender rollari va an’anaviylik o‘rtasidagi muvozanat davlat siyosati doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari, so‘rovnoma va sifatli suhbatlar asosida oilaviy qadriyatlar qanday yangilanayotgani, lekin baribir an’anaviy negizda saqlanayotgani ko‘rsatib beriladi. Modernizatsiya va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi murakkab nisbat ilmiy asosda ochib beriladi.*

♦ ***Abstract.*** *This article analyzes the changes in family values within the context of modern Uzbekistan, particularly focusing on the balance between gender roles and tradition within the framework of state policy. The research highlights how family values are being renewed through legal documents, mass media, surveys, and qualitative interviews, yet still remain rooted in traditional foundations. The complex relationship between modernization and moral values is examined from an academic perspective.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *oilaviy qadriyatlar, gender rollari, an’anaviylik, modernizatsiya, davlat siyosati.*

♦ ***Key words:*** *Family values, gender roles, tradition, modernization, state policy.*

Kirish. Oila – har qanday jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo‘lib, uning barqarorligi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. O‘zbek jamiyatida oilaviy qadriyatlar ko‘p asrlik an’analarga tayangan holda shakllangan. Biroq zamonaviy dunyo, global madaniyat, ayollar huquqlari borasidagi xalqaro standartlar va ichki islohotlar bu qadriyatlar tizimida yangi muvozanat izlanishlariga olib kelmoqda.

Bugungi kunda gender tengligi, ayollarni qo‘llab-quvvatlash siyosati, oilaviy nizolarning oldini olish va ma’naviy tarbiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shu bilan birga, qadriyatlar tizimi zamonaviy hayot talablari bilan an’anaviy ijtimoiy normalar o‘rtasida kurash maydoniga aylanishi mumkin. Ushbu maqola shu kurash emas, balki muvozanatni izlash haqida.

Tadqiqot maqsadi O‘zbek jamiyatida oilaviy qadriyatlarning zamonaviy kontekstdagi transformatsiyasini, gender rollarining qayta talqin qilinishini

va davlat siyosatining bu jarayondagi rolini tahlil qilish.

Vazifalar:

1. O‘zbek oilasining qadriyat tizimini tarixiy-nazariy tahlil qilish;
2. Gender rollari haqidagi jamiyatdagi mavjud qarashlarni aniqlash;
3. Davlat siyosati va huquqiy asoslarning oilaviy qadriyatlarga ta’sirini o‘rganish;
4. Empirik ma’lumotlar asosida zamonaviy oilaviy model tendensiyalarini ko‘rsatish;
5. An’anaviylik va modernizatsiya o‘rtasidagi muvozanat modellarini ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kombinatsiyalashgan metod (Mixed Methods) yondashuvi qo‘llanilib, sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tadqiqot metodlari uyg‘unlashtirildi. Bu yondashuv orqali O‘zbekiston jamiyatida oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi, gender rollarining qayta talqin qilinishi va davlat siyosatining bu jarayondagi o‘rni ko‘p burchakli yondashuv asosida o‘rganildi. Metodlar tanlovi tadqiqot mavzusining murakkab sotsiomadaniy va siyosiy mohiyatidan kelib chiqib belgilandi.

Birinchi bosqichda sifatli tahlil amalga oshirildi. Xususan, 3 ta fokus-guruh intervyusi tashkil etildi. Har bir guruhda 5-6 ishtirokchi qatnashdi. Ular orasiga turli yoshdagi erkaklar va ayollar, oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari, ijtimoiy tarmoqlarda faol blogerlar va oilaviy mavzularda ishlovchi psixologlar kiritildi. Suhbatlar yarim tuzilgan shaklda olib borilib, ishtirokchilarga gender rollari, an’anaviy va zamonaviy oilaviy qarashlar, oila va jamiyat o‘rtasidagi muvozanat, hamda davlat siyosatining bu jarayondagi roli haqida fikr bildirish imkoniyati berildi. Fokus-guruhlar natijalari tematik kodlash orqali tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda miqdoriy tahlil uchun so‘rovnoma usulidan foydalanildi. So‘rov 250 nafar respondent o‘rtasida onlayn (Google Forms) va oflayn (anketalar orqali) shaklda o‘tkazildi. Respondentlar yosh, jins, kasb va oilaviy holat bo‘yicha tasodifiy tanlangan. So‘rovnoma savollari gender rollariga bo‘lgan qarashlar, erkak va ayolning oiladagi vazifalari, “zamonaviy oila” tushunchasining talqinlari, hamda gender tengligi borasida amalga oshirilayotgan davlat islohotlariga munosabatga qaratildi. Natijalar statistik dastur yordamida foizli tahlil asosida jamlandi.

Uchinchi bosqichda hujjat tahlili amalga oshirildi. 2017-2023-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan muhim normativ-huquqiy hujjatlar – jumladan, “Oila kodeksi” [3], O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 17 avgustda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni [7], O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28 maydagi SQ-297-IV-son “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori [6] asosiy tahlil obyekti sifatida tanlandi. Ushbu hujjatlarning qadriyatlar tizimiga ta’siri, ayollar huquqlari, oiladagi rollarning normativ talqini va davlatning ideologik

yondashuvi o‘rganildi.

Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida quyidagi yondashuvlardan foydalanildi:

• A.Giddensning Modern oilaning dinamikasi konsepsiyasi [2] – zamonaviy oila strukturasi va undagi refleksivlikni tushuntirish uchun;

• N.Eliasning Ijtimoiy transformatsiya nazariyasi – qadriyatlarning o‘zgaruvchanlik tabiatini tahlil qilish uchun [1];

• J.Skottning Gender va hokimiyat g‘oyalari [4] – gender rollarining ijtimoiy konstruksiyasi va siyosiy kontekstdagi o‘rnini ochib berish uchun asos bo‘ldi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning muvozanatli, chuqur va ijtimoiy-realistik ruhda olib borilishini ta’minladi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqotning empirik bosqichi natijalari oilaviy qadriyatlar, gender rollari va zamonaviy ijtimoiy tafakkur o‘rtasidagi murakkab o‘zgarishlarni yoritib berdi. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan fokus-guruhlar, so‘rovnoma va huquqiy hujjat tahlili zamonaviy O‘zbekistonda oilaviy qadriyatlarning qanday shakllanayotgani va qanday transformatsiyaga uchrayotganini aniq ko‘rsatdi.

Avvalo, fokus-guruhlarda qatnashgan ayollar (asosan 25–45 yosh oralig‘idagi faol va o‘rta yoshdagi ishtirokchilar) orasida 63 foiz ishtirokchi “ayol jamiyatda faqat tarbiyachi emas, balki iqtisodiy munosabatlarda ham faol qatnashishi lozim” degan fikrni bildirgan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, ayollar orasida o‘z roliga nisbatan yangicha, faol va teng huquqli yondashuv shakllanmoqda. Ishtirokchilarning ko‘pchiligi ayolning ish faoliyati, moliyaviy mustaqilligi va ijtimoiy hayotdagi o‘rni jamiyat barqarorligi uchun muhim omil deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, erkak ishtirokchilarning 47 foiz qismi “an’anaviy erkak roli zamonaviy talablarga moslashtirilishi kerak” degan fikrni ilgari surgan. Ular erkakning faqat “oziq topuvchi” yoki “oilaboshchi” sifatida emas, balki bolalarni tarbiyalash, ma’naviy muloqot, uy ishlarida ishtirok kabi yo‘nalishlarda ham faol bo‘lishi kerakligini tan olmoqda. Bu fikrlar gender rollarining ijtimoiy konstruksiya ekanligini anglatadi va zamonaviy ijtimoiy ongda bu konstruksiyalar sekin-asta o‘zgarayotganini tasdiqlaydi.

So‘rovnoma natijalari ham shunga mos tarzda jamiyatdagi stereotiplarga bo‘lgan munosabatda muayyan o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Respondentlm-uning 72 foiz qismi “ayol ishlasa, oila barbod bo‘ladi” degan keng tarqalgan stereotipni inkor etdi. Ularning fikricha, ayolning faoliyati oila barqarorligiga zid emas, balki uni mustahkamlashi mumkin. Bu natija gender tenglik borasida ijobiy tafakkur o‘sib borayotganini anglatadi.

Hujjat tahlili esa huquqiy me’yorlar va amaldagi qadriyatlar o‘rtasida ba’zi tafovutlar borligini ochib berdi. Xususan, “Oila kodeksi”dagi ayrim moddalar (masalan, er va xotinning o‘zaro majburiyatlari) zamonaviy gender rollar haqidagi qarashlar bilan to‘la mos emas. Bu esa huquqiy asoslar va ijtimoiy realiyat o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekiston jamiyatida oilaviy

qadriyatlar evolyutsiyasi nafaqat tashqi bosim yoki g‘arbona ta’sir natijasi, balki ichki ijtimoiy ehtiyojlar, ongdagi yangilanish va siyosiy strategiyalar asosida yuz berayotganini ko‘rsatdi.

Topilgan ilmiy yangiliklar:

1. O‘zbek jamiyatida oilaviy qadriyatlar transformatsiyasining genderlik kontekstdagi yangi ko‘rinishlari empirik asosda yoritildi.

2. An’anaviy ijtimoiy rollarning zamonaviy kontekstda qanday muvofiqlashtirilayotgani bo‘yicha lokal model ishlab chiqildi.

3. Davlat siyosatining qadriyatlar tizimidagi funksional roli birinchi marta tizimli tahlil asosida ko‘rsatildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi asosan gender rollari qayta talqin etilayotgani va davlat siyosatining faol ishtiroki bilan bog‘liq [5]. An’anaviylik va modernizatsiya o‘rtasida muvozanat izlanayotgani jamiyatda yangi oilaviy model shakllanishiga olib kelmoqda.

Biroq bu muvozanat har doim ham oson kechmayapti – ba’zan qarama-qarshiliklar, madaniy “ichki tortishuvlar” orqali amalga oshmoqda. Shu sababli, davlat siyosati – faqat normativ emas, balki tarbiyaviy va madaniy darajada ham faol bo‘lishi lozim.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Elias, N. Oila va jamiyat: ijtimoiy o‘zgarishlar nazariyasi, [Ingliz tilidan tarjima] – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022. – 256 b.

2. Giddens, A. Modernity and Self-Identity. – London: Polity Press, 2021. – 280 p.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adliya nashriyoti, 2022.

4. Scott, J. Gender and the Politics of History. – New York: Columbia University Press, 2020. – 304 p.

5. Sharipova, D. O‘zbek oilasida zamonaviy qadriyatlar va gender rollari // Ijtimoiy fanlar. – 2023. – №3. – B. 44–51.

6. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021-yildagi SQ-297-IV-son, 28.05.2021. URL: https://lex.uz/docs/-5466673

7. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma’qullangan, URL: https://lex.uz/mact/-4494849

Xolmurod Karimov,
Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari nomzodi

O‘ZBEK OILALARIDA SHAXSLARARO NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNING OQIBATLARI

♦ ***Annotatsiya.*** *Maqolada o‘zbek oilalarida shaxslararo nizolarning kelib chiqish sabablari va ularning oqibatlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan.*

♦ ***Abstract.*** *This article provides important information on the causes and consequences of interpersonal conflicts within Uzbek families. It discusses both the theoretical and practical aspects of the issue, as well as scientific research conducted by the author on this matter.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *oila, shaxslararo munosabat, nikoh, er-xotin munosabati, qaynona-kelin munosabati, nosog‘lom munosabat, nizo, ajralish.*

♦ ***Key words:*** *family, interpersonal relationships, marriage, husband-wife relationship, mother-in-law-daughter-in-law relationship, unhealthy relationships, conflict, divorce.*

Ma’lumki, o‘zbek oilalaridagi shaxslararo munosabatlar, ayniqsa undagi er-xotin va qaynona-kelin munosabatlari oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitni optimal ta’minlashga xizmat qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimiz oilalarida, ayniqsa yosh oilalarda mavjud yoki kutilayotgan psixologik inqirozlar shaxs kamoloti va shaxslararo munosabatlarda uchrayotgan kamchiliklar, yosh oilalar orasida qaror topayotgan salbiy ijtimoiy-psixologik muhit, undagi qadriyatlarning buzilishi va oilaga nisbatan ijtimoiy e’tiborning yetarli emasligi holatlari uchrab turmoqda. Shuning uchun ham oila muammolari bilan shug‘ullanuvchi barcha fanlar, jumladan oila psixologiyasida oilada shaxslararo munosabatlarni o‘rganish, ayniqsa, yosh kelin-kuyovlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, ular ongida oilaga qadriyat sifatida qarash g‘oyasini singdirish, ota-ona bilan farzandlar, qaynona-qaynota, qaynaka, qaynuka, qaynopa, qaynsingil va boshqa yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlar jarayonini tadqiq etish kabi muhim vazifalar yuklatilmoqda.

Bizning fikrimizcha, oila barqarorligi va mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri oilaviy nizolar hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy hayotda kishilar o‘rtasida oilaviy munosabatlarga doir turli xil anglashmovchiliklar, nizolar va o‘zaro kelishmovchiliklar uchrab turishi ayni haqiqatdir. Odatda, nizo deganda qarama-qarshi yo‘naltirilgan qarashlar, noxush hissiy kechinmalar bilan

bog‘liq shaxslararo munosabatlar orqali ifodalanuvchi to‘qnashuvlarga tushuniladi. Nizoni sof psixologik nuqtai nazardan talqin etganda, u odamlarga halokatli ta’sir etishi, mazkur jarayonda nizoning o‘zi emas, balki uning oqibatlari ayanchli bo‘lishi, har bir nizo va kelishmovchiliklar oqibatida odamlar ruhiyatida ba’zi salbiy hissiyotlar, jumladan vahima, xavotir, qo‘rquv va adovat kabi salbiy hislar yuzaga kelishi bir qator tajribalarimizda o‘z isbotini topgan. Shuni ham e’tirof etish mumkinki, agar odamlardagi ushbu kechinmalar kuchli bo‘lsa va uzoq muddat davom etsa, unda shaxsda himoya reaksiyasi paydo bo‘lishi va mustahkamlanishi mumkin bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlar bilan tanishish va olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalariga suyangan holda, o‘zbek oilalarida yuzaga keladigan nizolar va ularning namoyon bo‘lish sabablarini quyidagicha klassifikatsiya qilishni lozim topdik:

I. Sabablariga ko‘ra nizo turlari: 1) o‘z juftining ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish; 2) turmush o‘rtog‘ining ota-onasiga hurmatsiz munosabatda bo‘lish; 3) ishonchsizlik, rashk hissi; 4) nikohdan tashqari munosabatda bo‘lish; 5) farzand tarbiyasida murosaga kela olmaslik; 6) jinsiy madaniyatning pastligi yoki unga amal qilinmaslik; 7) moddiy qiyinchiliklar; 8) oila a’zolarining yoshlar turmush tarziga aralashuvi; 9) oilada rollarning noto‘g‘ri taqsimlanishi; 10) ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi zararli odatlar bilan shug‘ullanish; 11) bepushtlik; 12) asab yoki jinsiy kasalliklar; 13) qo‘pol munosabat; 14) kasbiy faoliyatining xususiyatlari.

II. Ko‘lamiga ko‘ra nizo turlari: 1) er-xotin o‘rtasidagi nizolar; 2) ota-onalar nizolariga bolalarning aralashuvi bilan bog‘liq nizolar; 3) er-xotin nizolariga qo‘shnilarning aralashuvi bilan bog‘liq nizolar; 4) er-xotin o‘rtasidagi nizoga ish joyi xodimlarining aralashuvi bilan bog‘liq nizolar; 5) er-xotinning nizolariga yaqin qarindoshlarning aralashuvi bilan bog‘liq nizolar.

III. Davomiyligiga ko‘ra nizo turlari: 1) tizimli nizolar; 2) tez-tez bo‘lib turadigan nizolar; 3) kamdan-kam hollarda uchraydigan nizolar; 4) juda kam uchraydigan nizolar.

IV. Ifodalanishiga ko‘ra nizo turlari: 1) juftliklarning bir-birining shaxsiyatiga tegmay amalga oshiradigan nizolar; 2) turmush o‘rtoqlar bir-birlarining shaxsiyatiga tegishi bilan bog‘liq nizolar; 3) er-xotinning bir-biriga jismoniy ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq nizolar; 4) er-xotinning bir-biriga tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq nizolar.

V. O‘chog‘iga ko‘ra nizo turlari: 1) xotin boshlagan nizolar; 2) er boshlagan nizolar; 3) qaynona bilan bog‘liq nizolar; 4) qaynotaga aloqador nizolar; 5) ta’sir qiluvchi qo‘zg‘atuvchiga qaratilgan nizolar; 6) bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolar; 7) turmush o‘rtoqning yaqin qarindoshlari aralashuvidagi nizolar.

VI. Yo‘nalishiga ko‘ra nizo turlari: 1) konstruktiv (qo‘shuvchi) nizolar; 2) destruktiv (ajratuvchi) nizolar.

VII. Bosqichlariga ko‘ra nizo turlari: 1) nizoning yashirin davri; 2) nizoning boshlanish davri; 3) nizoning eng oxirgi davri; 4) inqirozdan keyingi davr; 5) nizoning to‘liq yechim davri [2, 88-89 b.].

Ma’lumki, oiladagi shaxslararo munosabatlar milliy-hududiy

xususiyatlarga uzviy bog‘liq murakkab tizimga ega bo‘lib, uning asosiy bo‘g‘ini er bilan xotin o‘rtasidagi munosabat hisoblanadi. Ma’lumki, er-xotin munosabatlari bir tekis munosabatlar bo‘lmay,-yillar davomida bu munosabatlar ko‘p marotaba sinaladi, darz ketadi, hatto sinishi ham mumkin. O‘z navbatida o‘zbek oilalarida er-xotin orasida yuzaga keladigan nizolar boshqa millat vakillari, jumladan rus, ukrainlar oilalaridagi nizolardan keskin farqlanishi bilan ajralib turadi. Olib borgan tadqiqotlarimizda o‘zbek oilalari o‘ziga xos etnopsixologik xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turishi, bunda er-xotin orasida nizolarning kelib chiqishiga ko‘proq milliy-madaniy muhitga xos bo‘lgan nikoh oldi omillarining xususiyatlari, jumladan yoshlarda tanishish imkoniyatining bo‘lmasligi yoki bu jarayonning nisbatan qisqaligi, ushbu omillar natijada yuzaga keladigan nizolar sabablarini tomonlar o‘zidan qidirmasligi, uni bartaraf etishda ko‘p holatlarda ota-onalarga tayanish va ularning qarorlariga quloq solish, ba’zida oiladagi o‘zaro munosabatlar qo‘pollik asosiga qurilishi va boshqa bir qator salbiy holatlar aniqlandi. Bundan tashqari, oilaviy nizolar, ko‘p holatlarda, bir-birini tinglamaslik, ya’ni bir-birlarining istaklarini “eshitmaslik”, hayotga bo‘lgan qarashlarning farqlanishi, o‘ta qattiq nazorat, ta’bi ustidan kulish, e’tiborning etishmasligi, ish-xizmat faoliyatidagi muammolar tufayli ham yuzaga kelishi mumkinligi tajribalarimizda o‘z isbotini topdi.

Olib borgan tajriba-sinov ishlarimiz natijalariga ko‘ra, oilada er-xotin munosabatlarining buzilishida ko‘p holatlarda uchinchi shaxsning yoshlarning oilaviy hayotlariga zaruratsiz aralashuvi ham salbiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz natijalarining ko‘rsatishicha, o‘zbek milliy madaniy muhitida er-xotin munosabatlarining buzilishiga ko‘p hollarda qaynonaning hadeb yoshlarning turmush tarziga aralashuvi sababchi bo‘lar ekan. Tajriba-sinov ishlarimizda, oilada kelinning o‘z qaynonasi bilan munosabatlarini o‘rganganimizda, ular o‘rtasidagi munosabat 18,2 foiz holatlarda “juda yaxshi”, 49,8 foiz holatlarda “yaxshi” va 18,3 foiz holatlarda “qanoatlanarli” ekanligi aniqlandi. Shu bilan bir qatorda 10,4foiz qaynona-kelin munosabatlari hali ham “deyarli yomon”, 3,3 foiz holatlarda “yomon” ekanligi aniqlandi. Oilalarda qaynona-kelin munosabatlarining “juda yaxshi” va “yaxshi” ekanligi ko‘rsatkichi 68,0 foiz ni tashkil etsa-da, lekin ularda qaynona-kelin o‘rtasida sovuq-ziddiyatli munosabatlar hali ham yaxshi emasligi, jumladan respondentlar javoblarida “qanoatlanarli”, “deyarli yomon” va “yomon” ekanligi ko‘rsatkichi 32,0 foiz ni tashkil etgani aniqlandi. Bunday munosabatlar oxir-oqibatda qanona-kelin munosabatlarining buzilishiga, o‘zaro munosabatlar barqaror bo‘lishiga ma’lum darajada salbiy ta’sir etadi. Bu jarayon qaynona-kelin munosabatlarini yaxshilash bo‘yicha yana ham ishlash zarurligini bildiradi.

Ma’lumki, oilada sodir bo‘layotgan har qanday nizo oila a’zolari nufuziga putur yetkazishi mumkin. Sodir bo‘lgan nizodan so‘ng oiladagi shaxslararo munosabatlar ham keskin o‘zgaradi, oila jamoasida nosog‘lom muhit hukm suradi. Nizo natijasidagi salbiy holatlar shaxsning hissiyoti, xatti-harakatlari, tafakkur va hatto xarakterida ma’lum o‘zgarishlar sodir etadi. Bu o‘zgarishlar shaxsning

xulq-atvorida namoyon bo‘lib, mazkur subekt qatnashayotgan boshqa vaziyatlarga ham tarqaladi va o‘zaro munosabatlarning keng sohalarini egallay boshlaydi. Shuning uchun oila a’zolaridan nizolarning oldini olish tadbirlarini tashkillashtirish va sodir bo‘lgan paytda esa ularni malakali tarzda hal etish qobiliyati talab etiladi. Bunda er va xotinning bir-birlarini to‘g‘ri tushunishi, hurmat qilishi, oilaviy masalalarni birgalikda hal qilishga harakat qilishi oilada yuzaga keladigan har qanday nizo, ixtilof va muammolarni tinch yo‘l bilan bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi.

Biz ilmiy o‘zbek oilalarida shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganib, ularni samarali bartaraf etishda quyidagi amaliy takliflarni berishimizni lozim topdik:

1) oila quruvchi yoshlarning nikohdan oldingi tanishuv tajribasini va uning muddatini oshirish tavsiya etiladi;

2) maktab psixologlari, o‘qituvchilar va tarbiyachilar hamda mahalla faollari ota-onalar bilan ishlashda oilaviy nizolarning salbiy oqibatlari haqida suhbatlar o‘tkazishni ta’minlashi kerak;

3) oila quruvchi yoshlarning ruhiy salomatligi uchun ommaviy axborot vositalari orqali muloqot, shaxsiyat, jinsiy hayot, nizo psixologiyasi bo‘yicha psixologik bilimlarni targ‘ib qilish, suhbatlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir;

4) maktablarda, o‘quv yurtlarda, nikoh uylarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nafaqat yoshlarni, balki ularning ota-onalarini ham hayotga tayyorlash juda muhim hisoblanadi;

5) oliy o‘quv yurtlarida “Oila hayoti psixologiyasi” bo‘yicha maxsus kursni joriy etish, bu kursda oilaviy nizo psixologiyasi deb nomlangan maxsus bo‘lim bo‘lishi, ushbu bo‘limda oilaviy nizolarning etiologiyasi, omillari, sabablari, ifodalanish shakllari, turlari, yo‘nalishi, oqibatlari va oldini olish yo‘llari ko‘rsatilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tavsiya va takliflar e’tiborga olinsa, jamiyatda oilaviy munosabatlardagi muammolar o‘z yechimini topishida ma’lum miqdorda ijobiy natijalar berishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun. – T.: “Sharq” nashriyoti. 2008. – 296 b.

2. Karimov X. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi / Darslik / -Q.: “Qarshi davlat universiteti” nashriyoti, 2024. – 168 b.

3. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2007. –144 b.

Nigora Saydaliyeva,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
falsafa fanlari nomzodi

IJTIMOIY QADRIYATLARNING O‘ZGARISHI VA GENDER TENGLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada mamlakatimizda so‘nggi-yillarda gender tengligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan islohotlar, ijtimoiy qadriyatlar evolyutsiyasi va amaliy o‘zgarishlar keng tahlil qilinadi. Xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida teng huquq va imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar, davlat siyosatining o‘zgarishi, yangi huquqiy me’yorlar, shuningdek, gender stereotiplarini bartaraf etish borasida erishilgan yutuqlar ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy qadriyatlar va jamiyatda ro‘y berayotgan amaliy o‘zgarishlar misollar bilan keltirilgan, ayniqsa, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar ta’riflanadi. Maqola, shuningdek, gender tenglikning jamiyatda qanday o‘zgarishlarga olib kelayotganini, bu yo‘ldagi yutuqlarni va kelajakdagi istiqbollarni yoritadi.*

♦ ***Abstract:*** *This article provides an in-depth analysis of the reforms implemented in recent years in Uzbekistan to promote gender equality, the evolution of social values, and practical transformations. It examines measures aimed at ensuring equal rights and opportunities for women and men, changes in state policy, new legal norms, and the achievements in overcoming gender stereotypes. The paper presents examples of social value shifts and practical developments in society, particularly initiatives to enhance women’s political, economic, and social participation. It also highlights the impact of gender equality on societal transformation, the progress made so far, and future prospects.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *gender tengligi, islohotlar, ijtimoiy qadriyatlar, ayollar, erkaklar, huquqiy normativlar, stereotiplar, amaliy o‘zgarishlar.*

♦ ***Key words:*** *gender equality, reforms, social values, women, men, legal norms, stereotypes, practical changes.*

So‘nggi-yillarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga

qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi [1]. Bugun kun tartibida jamiyatdagi turli yuridik shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar, xususan, gender tengligi nuqtayi nazaridan dolzarb masalalar ko‘rib chiqilmoqda. Inson bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday munosabatlar – ularning biologik tabiatidan, tabiiy va ijtimoiy hayotidan kelib chiqadigan hollarda – huquqiy til orqali ifodalansa, u albatta o‘ziga xos konseptual nazariyaga ega bo‘lishi kerak. Bunday munosabatlar nafaqat so‘z darajasida ma’no kasb etishi, balki aniq huquqiy mazmunga ega bo‘lishi, qonun normalari shaklida yozilishi hamda butun jamiyat uchun tushunarli bo‘lishi zarur.

Ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishi va gender tengligi masalalari, ayniqsa o‘zgarayotgan jamiyatlar uchun muhim mavzulardan biridir. O‘zbekiston, o‘zining tarixiy, madaniy, va diniy an’analari bilan bir qatorda, gender tengligi masalalariga yangi qarashlar bilan yondashishni boshladi. O‘zbek adabiyotlarida gender tengligi va ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishi mavzusi, asosan, bir necha bosqichda, turli mualliflar tomonidan yoritilgan.

O‘zbek adabiyotida gender tengligi masalalariga oid tahlillar o‘zgarayotgan jamiyatda ayollarning o‘rni, ular uchun yaratilgan imkoniyatlar va muammolarni ko‘rsatishga qaratilgan. Shu bilan birga, adabiyotda jamiyatdagi an’anaviy qadriyatlar va gender roli haqidagi qarashlar tahlil qilinadi. Adabiy asarlarda, masalan, ayollarning jismoniy va ruhiy holati, ularning jamiyatdagi o‘rni va ular bilan bog‘liq stereotiplar aks etadi.

O‘zbekiston gender tengligini ta’minlash borasida mustahkam huquqiy bazaga ega. 2019-yilda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, Gender tengligi bo‘yicha komissiya tashkil etilib, davlat siyosatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan ayollarning ta’lim olishi, ish bilan band bo‘lishi, siyosiy faolligini oshirishga doir ko‘plab qarorlar hayotga tatbiq etilmoqda.

O‘zbek adabiyotida gender tengligi va ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishini o‘rganishga oid turli asarlar mavjud. Jumladan:

S.A.Azimovning “Ayol va Jamiyat” nomli adabiyotida, o‘zbek ayollarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy roli, shuningdek, gender tengligi masalalari muhokama qilinadi.

N.Ubaydullayevaning asarlarida ayollarning ijtimoiy mavqei, ta’lim va ishdagi imkoniyatlari, ular yuzaga kelgan muammolarni tasvirlash orqali gender tengligini ta’kidlaydi.

Ushbu adabiyotlarda gender tengligi va qadriyatlarning o‘zgarishi, ayniqsa, zamonaviy O‘zbekistonda ta’lim, mehnat, siyosat va oila kabi sohalarda qanchalik ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston jamiyatidagi ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishi, ayniqsa gender tengligi sohasida sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Buning sababi, bir

tomondan, O‘zbekistonning zamonaviylashuvi, ikkinchi tomondan esa global miqyosda gender tengligi mavzusining yanada ko‘proq dolzarblashganidir.

Adabiyotda ko‘rsatilganidek, ayollar uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratish, ular uchun ta’lim olish va mehnat bozori bilan integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Biroq, hali ham an’anaviy qadriyatlar, ijtimoiy stereotiplar va hukumat qarorlari gender tengligi yo‘lidagi ba’zi to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Bundan tashqari, gender tengligi faqat ayollarni emas, balki erkaklarni ham o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli ijtimoiy o‘zgarishlarni talab qiladi. Masalan, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikning faqat huquqiy va iqtisodiy jihatlari emas, balki madaniy va ijtimoiy jihatlari ham muhimdir.

Ko‘plab gender tenglikka oid jihatlar qonunchiligimiz tomonidan inobatga olingan va amaldagi huquqiy normalarda o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga, shuni ham tan olish kerakki, Sovet davrida davlatimiz va jamiyatimiz rivojlanish bosqichida, yoki mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki besh-yilliklarda huquqdagi gender masalalariga deyarli yetarli e’tibor qaratilmagan.

Bundan tashqari, hayot joyida turmaydi – qandaydir tarzda yangi tushunchalar kirib kelmoqda, yangi tendensiyalar paydo bo‘lmoqda, yangi mafkuraviy yo‘nalishlar jamiyatga singib bormoqda. Bunga har kim har xil munosabat bildirishi mumkin, ammo ularni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ayniqsa, qonunchilik sohasi gender tenglikga nisbatan juda sezgir sanaladi, chunki aynan shu sohaning qanday tartibga solinganligi, mubolag‘asiz aytganda, inson taqdirlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Gender tengligi – bu iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy tuzum erkaklar va ayollar uchun ijtimoiy ne’matlardan (masalan, ta’lim, bandlik, siyosiy ishtirok, xavfsizlik) teng foydalanishga to‘sqinlik qiluvchi tengsizlikni takrorlash o‘rniga, mavjud tengsizlikni tushunishi va tan olishi, shuningdek, ijtimoiy mexanizmlarni (shu jumladan gender stereotiplarini) qayta ko‘rib chiqib, teng huquq va imkoniyatlarni amalga oshirishga imkon beruvchi sharoitlarni yaratishga intilishi kerak degan tushunchadir. Bu yo‘lda mavjud to‘siqlarni bartaraf etish zarur[7].

So‘nggi-yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida jiddiy islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri gender tengligini ta’minlash, ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash va ularning siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy faolligini oshirishdir. Ijtimoiy qadriyatlarning evolyutsiyasi ham aynan shu yo‘nalishda sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi.

Ijtimoiy qadriyatlar – bu jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilingan axloqiy, madaniy va ijtimoiy me’yorlar majmuasidir. Ular avloddan avlodga o‘tadi, jamiyatning o‘ziga xosligini belgilaydi va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Gender tengligi esa bu qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq, chunki erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar, ularning jamiyatdagi roli va imkoniyatlari ko‘pincha an’anaviy qarashlar orqali belgilanadi.

An’anaviy o‘zbek jamiyatida erkaklar “oila boquvchisi”, “qaror qabul qiluvchisi”, “ta’minotchisi” sifatida tasvirlangan bo‘lsa, ayollar “uy bekasi”, “farzand tarbiyalovchisi”, “bo‘ysunuvchi” sifatida ko‘rilgan. Bu tushunchalar qadimdan madaniyatimiz, og‘zaki ijodimiz va kundalik hayotimizda chuqur ildiz otgan. Masalan, Qiz bolaga "turmushga chiqadi, o‘qimasa ham bo‘ladi" degan yondashuv hali-hanuz ba’zi hududlarda uchrab turadi.

Ayollarning ijtimoiy faoliyati ko‘pincha faqat ma’lum sohalar (ta’lim, sog‘liqni saqlash, xizmat ko‘rsatish) bilan cheklanadi. Erkakning “muqaddas vazifasi – ishlash”, ayolning esa “muqaddas vazifasi – xizmat qilish” degan stereotiplar hali jamiyat ongidan to‘liq chiqmagan.

Biroq, so‘nggi-yillarda ijtimoiy qadriyatlar asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Global axborot oqimi, yoshlarning xorijiy tajribalar bilan tanishuvi, davlat siyosatining o‘zgarishi ushbu stereotiplarga qarshi turadigan yangi qadriyatlar shakllanishiga turtki bermoqda.

Ayollarni qo‘llab-quvvatlash – “Ayol yetakchi bo‘lishi mumkin” degan qarash tobora kuchaymoqda. Misol uchun, ko‘plab qizlar hozirda “IT”, muhandislik, diplomatiya kabi ilgari erkaklarga xos deb qaralgan sohalarda muvaffaqiyat qozonmoqda. Erkaklar ham oilada ishtirok etadi – bolaga qarash, uy ishlariga yordam berish kabi faoliyatlar erkaklar tomonidan ham bajarilyapti. Bu qadriyatlarning moslashuvchanligidan dalolat beradi. Birgina Qoraqalpog‘iston Respublikasida amalga oshirilayotgan ishlar misolida ko‘radigan bo‘lsak, “Ayollar daftari” orqali minglab ayollar ish bilan ta’minlanmoqda, hunarli bo‘lib, mustaqil daromad topmoqda. Bu nafaqat iqtisodiy erkinlik, balki qadriyatlar o‘zgarishiga ham olib kelmoqda. Maktablarda esa qiz bolalarning STEM fanlariga qiziqishini oshirish uchun alohida grantlar va o‘quv loyihalari yo‘lga qo‘yilmoqda – bu ilgari faqat o‘g‘il bolalarga xos soha deb hisoblangan yo‘nalishlarga ayollarni jalb qilmoqda.

O‘zbekiston so‘nggi-yillarda gender tengligini ta’minlash borasida katta amaliy qadamlar tashlamoqda. Huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar natijasida genderga oid an’anaviy stereotiplar asta-sekin yemirilib, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi imkoniyatlar tenglashib bormoqda. Bu o‘zgarishlar jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarida yaqqol sezilmoqda.

O‘zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatda ayollar ulushi 2015-yilda 16 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 32 foizga yetdi[1]. Siyosiy partiyalar tarkibida ham ayollarning soni ortib bormoqda. Bu esa siyosiy qarorlar qabul qilishda ayollarning ovozi tobora muhimroq ahamiyat kasb etayotganini bildiradi. Qolaversa, qiz bolalarning oliy ta’limga kirish darajasi ortmoqda. Davlat tomonidan ajratilayotgan imtiyozlar, kvotalar, grantlar orqali qizlar (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) yo‘nalishlariga faol jalb qilinmoqda [3]. Bu esa ayollarning innovatsion sohalardagi ishtirokini oshiradi.

Ayollarni iqtisodiy jihatdan mustaqil qilish uchun ko‘plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Ayollar daftari” orqali ishsiz ayollar

aniqlanib, ularni hunarga o‘rgatish, mikrokredit ajratish orqali o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yishlariga sharoit yaratilmoqda [3].

Gender asosidagi zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish borasida muhim choralar ko‘rilmoqda. Ayollar uchun ishonch telefonlari, reabilitatsiya markazlari va yangi qonuniy asoslar shakllantirildi. Masalan, 2021-yilda “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi [2].

Jamiyatda ro‘y berayotgan ushbu amaliy o‘zgarishlar gender tengligining faqat nazariy g‘oya emas, balki amalda ham ro‘yobga chiqayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston gender tengligi yo‘lida qadamma-qadam harakat qilmoqda – qadriyatlar o‘zgarmoqda, stereotiplar yemirilmoqda, ayollarning o‘rni kuchaymoqda. Bu esa sog‘lom, adolatli va teng huquqli jamiyat sari muhim qadamdir.

O‘zbekiston tajribasi, ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishi va gender tengligi masalasida ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatda teng huquqlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Biroq, an’anaviy qadriyatlar, gender stereotiplari va o‘zgarishlarga qarshi turgan kuchlar hali ham mavjud. Shuning uchun, gender tengligini ta’minlashda ijtimoiy qadriyatlarning to‘liq o‘zgarishi zarur.

Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishi va gender tengligi O‘zbekistonda o‘zgaruvchan jamiyatning muhim qismiga aylanishi kerak, ammo bu jarayonni tezlashtirish va samarali qilish uchun hukumat va jamiyatning barcha qatlamlaridan harakatlar talab etiladi.

O‘zbekiston so‘nggi-yillarda gender tengligini ta’minlash bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishdi. Huquqiy va ijtimoiy islohotlar, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini oshirishga qaratilgan dasturlar muhim o‘zgarishlarga olib keldi. Jamiyatda gender stereotiplarining yemirilishi va qadriyatlar o‘zgarishi ijtimoiy ongni yangilashga yordam bermoqda. Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikka erishish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar jamiyatdagi adolat va barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Bu jarayon davom etib, kelajakda yanada samarali natijalarga erishish mumkin, bu esa sog‘lom, adolatli va teng huquqli jamiyat qurishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” 28.05.2021-yildagi SQ-297-IV-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi” 02.09.2019-yildagi O‘RQ-561-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: 2022–2024-yillarga mo‘ljallangan Gender tengligi strategiyasi – www.president.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi – www.mahalla.uz

5. UNDP Uzbekistan: Gender Equality Projects – www.uz.undp.org

6. Костикова И. В. и др. Введение в гендерные исследования. – 2-е изд.М.: Аспект Пресс, 2005. (Серия «Классический университетский учебник»).

7. Воронина О.А. Тендерное равенство в современном мире. Роль национальных механизмов. М. : МАКС Пресс, 2008. 772 с

Feruza Rajabova,
Xalqaro innovatsion universiteti
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, PhD, dotsent

O‘ZBEK OILALARIDA ER-XOTIN MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

♦ ***Annotatsiya.*** *Maqolada o‘zbek oilalarida er-xotin munosabatlarida gender tenglikni ta’minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda muammoning nazariy jihatlari, bu borada sharq mutafakkirlarining ilg‘or qarashlari va muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.*

♦ ***Abstract.*** *This article explores the socio-psychological aspects of ensuring gender equality in marital relations within Uzbek families. It discusses the theoretical aspects of the issue, the progressive views of Eastern thinkers on this matter, and the scientific research conducted by the author. The author’s academic investigations demonstrate that studying this issue remains highly relevant today.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *mustaqillik, ijtimoiy institut, oila, nikoh, shaxslararo munosabatlar, er-xotin munosabatlari, nizoli oilalar.*

♦ ***Key words.*** *Independence, social institutions, family, marriage, interpersonal relations, marital relations, conflict families.*

Mamlakatimiz o‘zining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach oila va uni himoya qilish masalalari davlat siyosatiga darajasiga ko‘tarildi va bu sohada juda katta ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Chunki, har bir davlat uchun, jumladan respublikamiz uchun oila deb ataluvchi ijtimoiy institutning jamiyat ma’naviy hayoti, uning

barqarorligidagi o‘rni va nufuzi yuqori bo‘lib borayotganligi hech kimga sir emas. Bizga ma’lumki, oila muhim ijtimoiy institut sifatida jamiyatning asosi, har bir insonning ongida, xatti-harakatida ilk yoshlik chog‘laridanoq shakllanib boradigan barcha insoniy fazilatlar, niyatlar va istaklar amalga oshadigan ulug‘ dargoh hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘zbek milliy ma’naviy muhitida azal-azaldan oila muqaddas maskan sifatida qaralgan, oilaviy munosabatlarni qadrlash, mehr bilan e’zozlash esa avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Ushbu jarayonda ajdodlardan avlodlarga ota-onaning birgalikdagi o‘zaro muhabbati asosiga qurilgan oilani doim muqaddas saqlash va e’zozlash, uning moddiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlashda er-xotinning doimo hamkor va hamfikr bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada shaxslararo munosabatlar masalalari, jumladan oilada barkamol shaxsni tarbiyalash va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon sharq ilm-fanining eng ilg‘or vakillari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazidagi asosiy masalalardan bo‘lib kelgan. Jumladan, sharq donishmandligining buyuk vakillari hisoblangan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshqariy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Mir Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat, Ubaydullo Solih o‘g‘li Zavqiy, Jahon otin Uvaysiy, Mohlarayim Nodira, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab mutafakkirlar, olimu yozuvchilar ushbu masalalar yuzasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Yuqorida nomlari keltirilgan ulug‘ ajdodlarimizning asarlarida oila munosabatlar muammolari, undagi er va xotinning tenglikka asoslangan ijtimoiy rollari. Yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, oilada nizo va kelishmovchiliklarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilish yo‘l-yo‘riqlari haqida muhim ma’lumotlar ilgari surilgan.

Bizga ma’lumki, oilaviy munosabatlar muammolari dastlab miloddan avvalgi II ming-yillik boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan Zardushtiylikning asosiy kitobi “Avesto”da ham keng o‘rganilgan bo‘lib, ushbu muqaddas kitobda nikoh-oila munosabatlari o‘zaro tenglik va adolat g‘oyalari asosida qurilishi kerakligiga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur kitobning ahamiyati shundaki, unda er-xotin munosabatlari, erning ayoliga munosabati, o‘z navbatida ayolning turmush o‘rtog‘iga munosabati, ayol va erkakning oiladagi rollari, vazifalari, shuningdek nikoh qurish uchun ma’qul bo‘lgan yosh davrlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Biz ushbu kitob bilan tanishganimizda nafaqat er-xotin munosabatlarini, balki insonlarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlari ko‘rinishlarini, shaxslararo muloqotning o‘ziga xos shakllari, qonun-qoidalari va tartiblari haqida ham muhim ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin [3;9-b].

Mashhur faylasuf Abu Nasr Farobiy bizga inson kamoloti, uning baxti, ta’lim va tarbiyasi, umuman axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlari bilan mashhur bo‘lgan qomusiy olim hisoblanadi. Abu Nasr Farobiyni dunyoga mashhur qilgan “Fozil odamlar shahri” va “Baxt-saodatga erishuv haqida” asarlarida

ko‘plab muammolar qatorida oilaviy munosabatlar masalalariga alohida e’tibor qaratilganligi diqqatga sazovordir. Ushbu asarlar o‘z mundarijasiga ko‘ra oiladagi muhit hamda baxtga erishi yo‘llari to‘g‘risida fikrlar bayon etilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Farobiy oila qurish istagida yurgan yoshlar va ayni paytda oilaviy turmushda yashayotgan er-xotinlarga murojaat qilib, ularni keraksiz urf-odatlardan voz kechishga chaqiradi, baxt-saodatga erishish yo‘llari haqida o‘z fikr-mulohazalarini bayon qiladi: “Rahbarlar (er yoki xotin) “yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda o‘tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o‘zgarish va o‘sish ham bo‘lmaydi”. Shuningdek, muallif “Baxt saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur”ligini ta’kidlaydi [2;15-b].

Abu Ali ibn Sino esa oilaviy munosabatlarni tahlil qilish barobarida oila boshlig‘i sifatida erkak shaxsiga, ya’ni erning oldidagi mas’uliyatli vazifalariga asosiy e’tiborini qaratadi. Muallif fikricha, oila ustuni bo‘lgan er birinchi navbatda oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lishi shart hisoblanadi. Agar erkak shaxsida ana shu sifatlar mavjud bo‘lsa, biz uni haqiqiy oila boshlig‘i sifatida tan olamiz, deydi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarga doir qarashlarida er-xotin munosabatlariga alohida e’tibor qaratadi hamda bunday munosabatlar o‘zaro tenglik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat asosida qurilishi kerakligini ta’kidlaydi: ”Erkak kishi oila boshlig‘idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog‘i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo‘ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir” [2;17-b]. Muallifning farzand tarbiyasi, tarbiya usullari, oilaviy munosabatlarda er-xotin shaxsiga qo‘yilgan muhim talablari o‘z zamonasi uchun qanchalik qadrli bo‘lsa, bizning bugungi kunimizda ham oilaviy munosabatlarni yaxshilash va barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Sharq ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan va o‘z qarashlari bilan XX asr Turkiston jadidchiligining ulkan namoyandalaridan biriga aylangan Abdurauf Fitrat ham o‘z ijodida oilaviy munosabatlar masalalariga alohida e’tibor bilan qaragan. Muallif “Oila” deb nomlangan asarida uylanish odoblari to‘g‘risida qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Fitrat uylanishda qanday xotin (turmush o‘rtoq) tanlash lozimligi mavzusida gapirib, “er-xotin mushkulotdan iborat bo‘lgan hayot safarida birga bo‘lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg‘u va umidsizlik damlarida g‘amxo‘r, saodat va baxtiyorlik chog‘lari bir-birlariga hamdam bo‘lishlari lozim. Shunday ekan, ular albatta, eng avvalo, bir-birlarini kamoli diqqat va tajriba yuzasidan imtihon qilishlari zarur. Xotin erkak holidan va yigit qiz ahvolidan yaxshigina xabardor bo‘lib, keyin turmush qurishlari lozim”, deb ogohlantiradi. Fitratning fikricha, uylanish uchun yana to‘rt narsaga alohida e’tibor berish lozim, bular mol, nasab, husn va imonu-e’tiqod hisoblanadi. “Uylanish orzusida bo‘lgan er bilan xotinning mol (boylik)lari va nasablari taqriban bir xil bo‘lishi lozim. Aks holda er bilan xotin bir-birlariga

teng bo‘lmay, hayotini mudom azobga qo‘yadi”, deydi [1;15-b].

Bizga ma’lumki, o‘zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar milliy-hududiy xususiyatlarga uzviy bog‘liq murakkab tizimga ega bo‘lib, uning asosiy bo‘g‘ini er bilan xotin o‘rtasidagi munosabatlar tashkil etadi. Darhaqiqat, er-xotin munosabatlari bir tekis munosabatlar bo‘lmay,-yillar davomida bu munosabatlar ko‘p marotaba sinaladi, darz ketadi, hatto sinishi ham mumkin. Afsuski, o‘zbek oilalarida ham keyingi-yillarda oila-nikoh munosabatlarining biroz zaiflashib borayotganligi, oilalarda har xil nizoli holatlar va kelishmovchiliklar tez-tez uchrab turganligi hech kimga sir emas. Bunda oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe’l-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, oilaning byudjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar hisoblanib, ro‘zg‘or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta’minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, juftliklar dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqishida muhim o‘rin tutadi.

Olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijalariga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘zbek oilalarida er-xotin munosabatlarining buzilishida ba’zi hollarda oilada rollarning to‘g‘ri taqsimlanmaganligi ham sabab bo‘lishi mumkinligiga guvoh bo‘ldik. Shuningdek, namunali o‘zbek oilalarida rollar taqsimlanishi an’anaviy ko‘rinishda ota-bobolarimizdan qolgan an’analarga asoslanib, oilada yashovchi har bir a’zoning biologik va ijtimoiy xususiyatidan kelib chiqib taqsimlanganligiga ham guvoh bo‘ldik. Atrofdagilar tomonidan namunali deb topilgan oilalarda shaxslararo munosabatlar ham jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalar asosida bo‘lib, bunda er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro sheriklik, o‘zaro bir-birini hurmat qilish, rollar taqsimotida o‘zaro hamkorlik o‘rnatishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Aksincha, biz tomonimizdan nizoli oilalar ustida olib borilgan tajriba-sinov ishlarida xuddi namunali oiladagidek o‘zaro munosabatlarda muvofiqlik kuzatilmadi. Aksina, namunali oilalarda oilaviy qadriyatlar, rolli kutilmalar, intilishlar va rollar adekvatligining muvofiqlik darajasini yuqoriligi isbotlandi.

Tajriba-sinov ishlarimizda namunali oilalarda er-xotinlarni shaxs sifatida muvofiqligi, maslaklari, qiziqishlari, manfaatlari, qadriyatlar yo‘nalishi, vaqtni birgalikda o‘tkazish kabi bir qator ustanovkalarini o‘zaro adekvatligi aniqlandi. Jumladan, ilmiy izlanishlarimizda er-xotinlarning tashqi ijtimoiy faolligi, kasbiy faoliyati va oilaviy hayotda shaxslararo munosabatlarning barqarorligi, maishiy-xo‘jalik va tarbiyachilik funksiyalarida ham sifat ko‘rsatkichlarining yuqori ekanligi kuzatildi. Bu omillar ijtimoiy hayotda oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta’minlash bilan birga o‘zaro munosabatlarda gender tenglikni ta’minlanishini kafolatlaydi. Aksincha, tajriba ishlarimizda nizoli oilalar er-xotinlar kutilmalari va intilishlari o‘rtasida oilaviy qadriyatlarning nomuvofiqlik ekanligi yaqqol ko‘zga tashlandi. Bu o‘z o‘rnida oilada er-xotin o‘rtasida gender tenglikning buzilishi, o‘zaro munosabatlarda

nizoli holatlarning yuzaga kelishida kuchli ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek oilalaridagi shaxslararo munosabatlar milliy-hududiy xususiyatlar bilan bog‘liq murakkab tizimga ega bo‘lib, uning asosiy bo‘g‘inini er bilan xotin o‘rtasidagi munosabatlar tashkil etadi. Bunda o‘zaro munosabatlarda muloqot madaniyatiga amal qilish, o‘zaro hurmat va ishonch, bir-birini yaxshi tushunishga erishish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy munosabatlarda o‘zaro tenglik va hamjihatlikni ta’minlashda er-xotinlarda onglilik, xushmuomalalik, hamfikrlilik, bir-birini ayash, rahmdillik, o‘ylab bir qarorga kelishlik, vafodorlik, fidokorlik joizligini e’tirof etish o‘rinli hisoblanadi. Shu o‘rinda, o‘zbek oilalarida shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda keksa avlodning ilmiy tafakkuri, bilimi va tajribasidan, katta avlodning hayot yo‘llari va tarbiya usullaridan samarali foydalanish orqali oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish va shaxslararo munosabatlarni yaxshilash mumkin bo‘ladi.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Arapbayeva D.K., Norkulova N.T. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari. // Metodik qo‘llanma // -T.: “GOLD-PRINT NASHR”, 2019. – 112 b.

2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma.) –T.: “Sharq”, 2008. –296 b.

3. Fayziyeva M.X., Jabborov A.M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2006. –144 b.

Abdulla Ruziqulov,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Navoiy viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari, PhD

O‘ZBEKISTONDA OILA INSTITUTI VA AYOLLAR NUFUZINING YUKSALISHI: TENGLIK VA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *O‘zbekistonda oila instituti va ayollar nufuzini yuksaltirishga qaratilgan siyosatlar va islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashdagi ahamiyatga hamda oila a’zolarining teng huquqlari, xotin-qizlarning jamiyatdagi nufuzini oshirishga qaratilgan davlatning ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan siyosat yuzasidan atroflicha yoritilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article examines the policies and reforms aimed at enhancing the family institution and the status of women in Uzbekistan, highlighting their significance in ensuring the socio-economic development of the country. It*

provides a comprehensive analysis of state policies based on the principles of social justice and equality, focusing on the equal rights of family members and the efforts to increase the influence of women in society.

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *huquq, strategiya, konsepsiya, oila instituti, tenglik, gender tengligi, siyosiy ishtirok, nufuz.*

♦ ***Key words:*** ***r****ights, strategy, concept, family institution, equality, gender equality, political participation, influence.*

O‘zbekistonda oila instituti va ayollar nufuzini yuksaltirishga qaratilgan siyosatlar va islohotlar, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Oila va ayollar mavzusi nafaqat har bir jamiyatning madaniyati va urf-odatlari bilan bog‘liq, balki mamlakatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta’minlashda ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda ayollar o‘rnining yuksalishi va oila institutiga oid islohotlar bugungi kunda hukumat, jamiyat va davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda oila instituti va ayollar nufuzini yanada oshirish davlat siyosati darajasida qaralib, bu borada bir qancha huquqiy me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son qarori bunga yaqqol misoldir.

Oila instituti va uning ahamiyati. Oila instituti har bir davlat va jamiyat uchun muhim tuzilma hisoblanadi. O‘zbekistonda oilaga bo‘lgan munosabat ana shuning uchun ham katta ahamiyatga ega. Oila, nafaqat kishilar shaxsiy hayotining aniq ramzi bo‘lib, balki jamiyatning ijtimoiy tartibini saqlash, aholi orasida tinchlikni ta’minlash va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun ham muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘ ish huquqiga ega” deb qayd etilgan.

O‘zbekistonda oilaga bo‘lgan munosabatning takomillashtirilishi, davlatning ijtimoiy siyosatida oila institutini qo‘llab-quvvatlashning yangi bosqichiga ko‘tarilishini ko‘rsatadi. Buning uchun oila a’zolarining teng huquqlarga ega bo‘lishi va oiladagi ijtimoiy roliga oid turli normalar va qonunlar qabul qilinmoqda.

O‘zbekistonda oila institutini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati aholi bandligini oshirish, fuqarolar farovonligini yaxshilash va ijtimoiy muhofaza qilishga yo‘naltirilgan. Davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektorning hamkorligi orqali oila instituti mustahkamlanadi.

Ammo, bu sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlar bir qator muammolarga duch kelmoqda. Masalan, tashkilotlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishning yo‘qligi, ilmiy tadqiqotlar etishmasligi va kadrlar malakasining pastligi shular jumlasidandir. Shuningdek, oilaviy ajrimlar soni oshishi, oiladagi salbiy ijtimoiy holatlar va madaniy-tarixiy merosdan sust foydalanish kabi muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori hamda ushbu qaror asosida O‘zbekistonda oila institutini mustahkamlashga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Bu konsepsiya oilaviy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy oila modelini shakllantirish, ijtimoiy yordam tizimini yaxshilash va tadqiqotlar natijalarini amalga oshirishga qaratilgan. Konsepsiyaning asosiy maqsadi oiladagi tinchlik, farovonlik va reproduktiv salomatlikni ta’minlash, shu bilan birga oila a’zolarining huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishdir.

Konsepsiyada oila a’zolarining farovonligini yaxshilash, reproduktiv salomatlik va oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish, shuningdek, oiladagi nizolarni kamaytirish uchun zamonaviy usullar va tadqiqotlardan foydalanish nazarda tutilgan.

Eng asosiysi oilaviy muammolar, uy joy kabi masalalar tufayli ayrim oilalar ajrimiga sabab bo‘layotgan muammolarning oldini olish maqsadida davlatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar belgilanayotganligi juda muhimdir. Respublikamiz rivojlanishini yangi bosqichlarga olib chiqishga mo‘ljallangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida hududlarda 1 million xonadonli uy-joylar qurish, “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazib, qo‘shimcha 200 mingta oilaga mo‘ljallangan uylarni barpo etish, respublikada kamida 140 ming oilaga mo‘ljallangan ijtimoiy uylarni barpo etish belgilangan. Bu ham o‘z navbatida oilalarni asrash va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayollar nufuzining yuksalishi. Ayollar tengligi, bir tomondan, jamiyatdagi ijtimoiy adolatning mustahkamlanishi, boshqa tomondan, ayollarning o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishiga imkoniyat yaratadi. O‘zbekistonda ayollar nufuzini yuksaltirish uchun qator islohotlar amalga oshirilgan. Bu islohotlar ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalardagi rolini oshirishga qaratilgan.

Jamiyatda ayollar huquqlarini himoya qilish va tenglikni ta’minlash, jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Ayollar orasida ta’lim, kasb-hunar va biznes sohalaridagi imkoniyatlarni kengaytirish, shuningdek, ayollarning siyosiy ishtiroki uchun qulay sharoitlarni yaratish mamlakatdagi ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan muhim qadamlarning biridir.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvidagi ayollar soni, ularning jamoat ishlarida ishtirok etishi va qarorlar qabul qilish darajasi -yildan-yilga oshib bormoqda. 2021-yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, mas’ul va boshqaruv lavozimlarida ayollarning vakolatlari 26,6 foizga yetgan. Hozirgi vaqtda bunday ko‘rsatkich bo‘yicha

O‘zbekiston parlamenti dunyo davlatlarining 190 ta qonun chiqaruvchi organlari orasida 37-o‘rinni egallab turibdi.

Yangicha yondashuv va olib borilayotgan islohotlar natijasida gender tengligi hamda xotin-qizlarning jamiyatdagi nufuzini yanada oshirish, ularning o‘z qobiliyatlarini barcha jabhalarda teng ko‘rsata olish imkoniyatlari yaratilmoqda.

2024-yil parlament saylovi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Qonunchilik palatasi ayol deputatlar soni bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni saqlab qoldi, dedi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlament quyi palatasidagi chiqishi chog‘ida.

Yangi chaqiriqda xotin-qizlar ulushi 38 foizga oshgan. 57 nafar ayol deputatlik mandatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, avvalgi chaqiriqda ular atigi 48 deputatlik mandatiga ega bo‘lgan. Shunday qilib, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda qonun chiqaruvchi organlarda gender tengligi bo‘yicha yetakchilikni mustahkamladi.

Qozog‘istonda parlament quyi palatasida ayollarning o‘rni atigi 27 foizini tashkil etadi. Tojikiston va Turkmanistonda – mos ravishda 26,6 va 25,6 foiz. Qirg‘izistonda Jogorku Kenesh (bir palatali parlament) deputatlari orasida ayollar ulushi 20 foizni tashkil qiladi.

Tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari. Tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari, O‘zbekistonning umummilliy huquqiy tizimining asosiy poydevorlaridan biridir. Davlatning siyosatini amalga oshirishda, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish, bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Tenglik, nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatlardan ham amalga oshirilishi lozim. O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy nufuzini yuksaltirish, ularning mehnat bozoriga qatnashi, ta’lim olish va hukumat organlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar doirasida amalga oshirilgan.

Tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini huquqiy asoslar bilan mustahkamlanganligi fikrimizni yanada mustahkamlaydi. O‘zbek-ston Respublikasi bosh qomusida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi va davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashi belgilab qo‘yilgan.

Qolaversa, Oila kodeksining 2 va 3-moddalariga ko‘ra, oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi ta’minlanadi. Nikoh er va ayolning ixtiyoriy tanlovi asosida tuziladi va ularning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari teng bo‘ladi. Oilaviy masalalar o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinadi, bolalar t-rbiyasi-va farovon hayotiga g‘amxo‘rlik qilinadi, shuningdek, oila a’zolarining huquqlari himoya qilinadi.

Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadir. Nikoh tuzishda jins, irq, din va boshqa xususiyatlarga qarab huquqlarni cheklash yoki afzalliklar belgilash taqiqlanadi. Fuqarolarning huquqlari faqat qonunga asosan va boshqa a’zolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida cheklanishi mumkin.

Ahamiyatli jihati shundaki, alohida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining mavjudligi bu borada davlatning e’tiborini yanada yaqqol namoyon etadi. Qonunda jins bo‘yicha tenglikni ta’minlash va jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishni maqsad qilib qo‘ygan. Davlat, jamiyat va iqtisodiyotning barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar va huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilingan. Shuningdek, sud jarayonlarida ayol sudyalarning ishtiroki va gender tenglikni ta’minlash borasidagi ishlarning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilayotgani ta’kidlangan.

Shuningdek, ijtimoiy adolat tamoyilining ta’minlanishi, ayollarni ish bilan ta’minlash, ularning salomatligini himoya qilish, huquqiy savodxonligini oshirish va ularni ijtimoiy hayotga keng jalb qilishga qaratilgan davlat siyosatining ajralmas qismidir.

Xulosa. O‘zbekistonda oila instituti va ayollar nufuzining yuksalishi, jamiyatning ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan tartibini mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlardan biridir. Buning uchun oila a’zolarining teng huquqlari va fuqarolik burchlari bilan ta’minlanishi, ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtiroki, ularning huquqlari va imkoniyatlarini ta’minlash yo‘llari kengaytirilmoqda. Bu islohotlar O‘zbekistonda oila institutini mustahkamlash va ayollarning ijtimoiy nufuzini yuksaltirishga xizmat qilmoqda, jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Alohida ta’kidlash lozimki “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining maqsadlaridan biri – xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish hamda gender tenglikni ta’minlash orqali xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada kuchaytirishdir. Shu yo‘l bilan boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish maqsad qilinganligi bu boradagi ishlar bardavom ekanligi va kelgusida oilani mustahkamlash va jamiyatda xotin-qizlarning nufuzini oshirishga qaratilgan ishlar ekanidan dalolatdir.

Davlatning oila va ayollar bilan bog‘liq siyosatlari kelajakda ham shunday ma’naviy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekistonda tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019-yil.

2. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – T.: O‘qituvchi, 1999-2000

3. Sharipova D. Ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirish –jamiyat taraqqiyotining asosi.–T.: Fan va texnologiya, 2002

4. Quronov M. Oila va barkamol avlod tarbiyasi.–T.:Ma’naviyat,2012 – 134 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 28 fevralda qabul qilingan “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni.

7. Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O.Musurmanova.-Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.-252 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz

Elyor Ulug‘murodov,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Samarqand viloyat hududiy bo‘linmasi rahbari,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Phd

YANGI O‘ZBEKISTONDA GENDER SIYOSATINING IJTIMOIY ASOSLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Gender tenglik jamiyat rivojida muhim ijtimoiy omil bo‘lib, bugungi kunda ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga katta e’tibor qaratilishi kutilgan ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash maqsadida qator qonunlar va tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lib, ayollarning huquqlari, imkoniyatlari va jamiyatdagi roli to‘g‘risidagi ishlar jadal rivojlanmoqda. Buning natijasida mamlakatda xotin-qizlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga yo‘naltirilgan izchil ishlar olib borilmoqda.*

♦ ***Abstract.*** *Gender equality is an important social factor in societal development, and today, increasing the activity of women in social life is leading to positive changes. In Uzbekistan, a number of laws and initiatives have been implemented to ensure gender equality, and efforts regarding women's rights, opportunities, and roles in society are rapidly developing. As a result, consistent measures are being taken to expand women's participation in political, economic, and social life in the country.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *gender tenglik, ayollar huquqlari, O‘zbekiston, jamiyat rivoji, ijtimoiy siyosat.*

♦ ***Key words:*** *gender equality, women's rights, Uzbekistan, societal development, social policy.*

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilayotgani tahsinga sazovor. Ayolga imkoniyat va vakolat berish, uni faollashtirish jamiyatni yanada rahm-shafqatli, insonparvar va ma’rifatli qiladi.

Aslini olganda, gender muammosi butun dunyoda global muammo bo‘lib, bu nafaqat ayollar muammosi, balki erkaklarning ham muammosi tushuniladi. Ularga gender tenglik nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, ularda ham juda ko‘p masalalarni qilishimiz kerak bo‘ladi. Siyosatning eng ustuvor yo‘nalishi bu ayollarga qaratilgan, chunki aynan ayollarga nisbattan tengsizlikning turli xil ko‘rinishdagi dunyo, global miqosida, mintaqaviy jarayonlarda va har bir mamlakatda, har bir hududda seziladi.

Markaziy Osiyoda ayollarning oila va ishdagi roliga madaniy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Uy yumushlari, norasmiy sektorda kam haq to‘lanadigan deyarli barcha ishlarga ayollarning ishi sifatida qaraladi. Tabiatiga ko‘ra, bu turdagi an’anaviy uy-ro‘zg‘or ishlari o‘qish va o‘rganishga ozgina vaqt ajratadigan ayollarni iqtisodiy zarbalarga himoyasiz qilib qo‘yadi. Ayollarning turmush qurish fakti ularni mehnat munosabatlarida kamsitilishiga olib keladi.

Taraqqiyotga jinsga asoslangan tengsizlikni bartaraf qilmasdan erishish mumkin emas. Mavjud gender muammolari ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tengsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Xotin-qizlarning ta’lim olishi va yaxshi ish o‘rinlari, mahalliy va milliy qarorlar qabul qilish imkoniyatlari kamroq bo‘lib, kamsitish va zo‘ravonlikdan aziyat chekishlari davom etmoqda. Gender muammolari ayollar va erkaklarning munosabatlariga ta’sir qilganligi sababli, gender stereotiplar va cheklovlar erkaklarga ham zarar yetkazadi, bu ularning kasbiy va shaxsiy hayotini cheklaydi.

Ayni vaqtda O‘zbekistonda gender tengligi masalasi ham davlat siyosatining muhim jihatini tashkil etadi. Xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha BMTning ayollar kamsitilishiga barham berishga oid qarorlari asosida qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” ga oid to‘qqizta vazifani

ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalari (Gender tenglik)ga muvofiq, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad turli darajalarda Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Respublika Prezidenti Sh. Mirziyoyevning bevosita rahbarligida ayol va erkaklar tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy normalar yanada takomillashtirilmoqda. Mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida ayol va erkaklar tengligini ta’minlash, ayollarning kamsitilishiga barham berish, bandlik sohasida, ma’rifiy sohada, sog‘liqni saqlash sohasida ayollarni kamsitishni bekor qilish, ayollarga erkaklar bilan tengma teng fuqarolikni saqlab qolish yoki o‘zgartirish bo‘yicha teng huquqni ta’minlash, ayollarning xalqaro hamkorligini ta’minlash bo‘yicha, qonun oldida erkak va ayol tengligini to‘laqonli ta’minlash bo‘yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi-yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas’ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me’yorlar asosida o‘qitish.

Mazkur sohadagi qonunchilik choralariga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019-yil sentabr oyida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” Qonunlar qabul qilindi.

O‘zbekistonda ayollar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo‘nalishlari qo‘yidagilar hisoblanadi:

birinchidan, ayollar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarining bajarilishini ta’minlash hamda huquqiy asosni yanada takomillashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

ikkinchidan, ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ishlarning ahvolini doimiy ravishda va kompleks monitoring qilish, ularning oilada, jamiyatda hamda jamoat va davlat ishlarini boshqarishdagi rolini oshirish;

uchinchidan, ayollarning bandligini ta’minlash bo‘yicha samarali choralar qabul qilish va amalga oshirish, ularni ishga joylashtirish uchun har tomonlama yordam ko‘rsatish, ayollar orasida, ayniqsa, qishloq joylarida tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirish;

to‘rtinchidan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish,

ayollar nodavlat notijorat tashkilotlarining mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun ko‘maklashish.

Dastur va loyihalar doirasidagi izchil sa’y-harakatlar O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imiji, xalqaro reyting va indekslardagi o‘rniga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jahon banki tahlillariga ko‘ra, O‘zbekiston so‘nggi-yillarda gender tenglikka erishish yo‘lidagi islohotlari bilan eng katta muvaffaqiyatga erishgan besh mamlakat – Iordaniya, Malayziya, Serra-Leone va Togo qatoridan o‘rin olgan.

Bu hammasi emas: “2022-yil oktabr oyidan buyon O‘zbekistonda xotin-qizlarning mavqeini oshirishga qaratilgan to‘rtta muhim huquqiy islohot amalga oshirildi”, deyiladi Jahon banki hisobotida. O‘zbekiston reytingda 11,9 punkt ko‘tarilib, mamlakat “Ayollar, biznes va qonun 2024” indeksida maksimal 100 balldan 82,5 ball to‘pladi.

O‘zbekiston Singapur, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari bilan bir xil ball to‘pladi, shuningdek, Markaziy Osiyoda eng yaxshi natija ko‘rsatdi”, deyiladi hisobotda.

Ochiq gender ma’lumotlari indeksi butun dunyo bo‘ylab genderga oid ma’lumotlar mavjudligi va ochiqligini baholaydi. “Open Data Watch” tashkilotining so‘nggi hisobotida O‘zbekiston 69,7 ball to‘plagan holda Ochiq gender ma’lumotlari indeksida jahondagi eng yaxshi 20 mamlakat orasidan joy olgani qayd etilgan. Vaholanki, 2023-yilda O‘zbekiston 37 ball to‘plagan holda 56-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2024-yilda 52 o‘ringa ko‘tarilgan. Mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarning nufuzli xorijiy tashkilotlar tomonidan xolis baholanishi kelgusida baland marralarni zabt etishga ruhlantiradi.

Bugun xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35, tadbirkorlik sohasida 45, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetdi. Boshqaruv xodimlari orasida xotin-qizlar ulushini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish talabi davlat korxonalarining ijro organlari, jumladan, direktorlar va kuzatuv kengashlari tarkibini shakllantirishga ham tatbiq etilishi belgilandi.

Ayni vaqtda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi, Senat a’zolarining 27 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlari deputatlarining 32,6 foizi ayollardan iborat.

Bu esa mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy maydonida xotin-qizlarga ishonch yuqori ekani, bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar samara berayotganining yorqin ifodasidir. Yangi deputatlar orasida ayollar va yoshlar ulushi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, xalq vakillarining 57 nafarini ayollar tashkil etgani mintaqa uchun eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning gender tenglik borasidagi ishlari haqiqiy yangilanish va jahon miqyosida tan olinishining tasdig‘idir.

Milliy parlamentlar bo‘yicha xalqaro reytingda (IPU Parline) O‘zbekiston parlamentdagi xotin-qizlar salmog‘i bo‘yicha jahondagi 193 davlat orasida 49-o‘rindan 34-o‘ringa ko‘tarilgani davlatimizning demokratiya va gender tenglik sohasidagi katta yutuqlaridan dalolat beradi.

Yangi O‘zbekistonning kelajagi yanada barqaror va tenglikka

asoslangan bo‘lishi uchun vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklarda gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlarning boshqaruvdagi ishtirokini oshirish amaliyoti davom etadi.

Yangi O‘zbekistonda ayollar va bolalar huquqlarini ta’minlash hamda har tomonlama himoya qilish uchun xalqaro standartlarga asoslangan huquqiy va institutsional baza shakllantirildi.

Mamlakatimizda “Ayolni e’zozlash – ezgulik va adolat mezoni” degan g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida ayollarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy, huquqiy, psixologik, tibbiy yordam berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka murosasiz muhit yaratish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash uchun izchil chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. “Zo‘ravonlikka qarshi 16 kun” kampaniyasi va xalqaro konvensiyalar asosida O‘zbekistonda jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash uchun kompleks ishlar bajarilmoqda.

“Ayolni e’zozlash – ezgulik va adolat mezoni” degan g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida ayollarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy, huquqiy, psixologik, tibbiy yordam berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. O‘tgan-yilning o‘zida tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish borasida 2 ta qonun, Prezidentimizning 1 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori qabul qilindi.

2024-yilda “Xavfsiz oila” moduli orqali 156 mingdan ortiq oiladagi nizolar hal etildi, 74 ming 278 oila yarashtirildi, 13 ming 57 xotin-qizga himoya orderi berildi. Yanvar oyida 42,5 mingga yaqin oiladagi nizolar tahlil qilinib, qariyb 11 ming oilaning muammolarini hal etish chorasi ko‘rildi, 579 nafariga himoya orderi taqdim etildi. Bu amaliy ishlar jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish va ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

Oilaning ta’lim-tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va farovonlik darajasini oshirish hamon jamiyatimizdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangicha yondashuv asosida olib borish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, huquqiy savodxonligini oshirish, psixologik yordam berish, mustahkam, totuv va baxtli oila yaratishga ko‘maklashish, oilaviy nizolarni hal etishda mediatorlik institutini rivojlantirish, tez daromad topadigan kasb-hunar o‘rgatish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida joylarda “Oila va xotin-qizlar maskanlari” tashkil qilinmoqda. Jumladan, Jalaquduq, Bag‘dod, Uychi, Oqdaryo, Shayxontohur, Vobkent, Olot, Qorovulbozor, Buxoro, Bandixon, Qumqo‘rg‘on, Amudaryo, Shumanay tumanlarida hamda Ohangaron, Olmaliq, Kogon shaharlarida “Oila va xotin-qizlar maskanlari” ochilib, faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimizda samarali gender siyosatini yuritilishi natijasida salmoqli natijalarga erishildi. Xususan, yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengaydi.

Gender nomutanosiblik mavjud bo‘lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi mutanosiblik ta’minlandi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan, ayniqsa qishloq joylaridagi oilalardagi xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish, shuningdek o‘zini o‘zi band qilishga erishildi. Eng asosiysi – xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldi olinib, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan salbiy qarashlarga barham berilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda gender tenglikka erishishda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada kuchaytirish masalasi davlat va jamiyatning doimiy diqqat markazida turibdi. Zero, bu muhim omil oilani mustahkamlash, yuqori intellektual darajadagi yosh avlodni voyaga yetkazish, jamiyat barqarorligini ta’minlashning asosiy poydevori hisoblanadi.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. BMT: Asosiy omillar. -T.: BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi. 2001.- 51-52 betlar.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti: Gender tenglik masalalari. T.: BMT vakolatxonasi. 2008. 272-273.

3. 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, 2017-yil.

4. Jamiyatda huquqiy tarbiyani yuksaltirish milliy dasturi. o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustda qabul qilgan 466-sonli qarori.

5. Egamberdiyeva T. Ayol va davr. T.: Mehnat. 1994. – 6-7 betlar.

Zebuniso Alimardonova,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Surxondaryo viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari, PhD

DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI VA ROLI SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA

♦ ***Annotatsiya:*** *Mamlakatimizda demokratik islohotlar natijasida davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning o‘rni va nufuzining yuksalayotgani, gender tengligining ta’minlanayotgani, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquq tizimining yaratilgani, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda xotin-qizlar ishtiroki va faolligi oshib borayotgani haqida ma’lumot berilgan.*

♦ ***Abstract:*** *As a result of democratic reforms in our country, the*

increasing role and influence of women in state and society governance, the assurance of gender equality, the creation of a national legal system aimed at protecting their legal rights and interests, and the growing participation and activism of women in the social, economic, and political spheres are discussed.

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *Huquqiy davlat va demokratik jamiyat, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, BMTning Bosh Assambleyasi, CEDAW, Gender tenglik faoli, Xalqaro qizlar kuni, “Ayollar qanotlari”, “Ayollar daftari”, NNTlar.*

♦ ***Key words:*** *rule of law and democratic society, Supreme Council of the Republic of Uzbekistan Senate, UN General Assembly, CEDAW, gender equality activists, International Day of the Girl, “Wings of Women”, “Women’s Register”, NGOs.*

Mamlakatimiz janubidagi eng serquyosh o‘lka, Surxondaryo viloyati ayollarini milliy qahramonimiz Barchinoyga qiyoslashadi. Bu bejizga emas albatta, bugun xotin-qizlar nafaqat oilada, balki davlat va jamiyat boshqaruvida ham faollik ko‘rsatmoqda.

So‘nggi-yillarda demokratik islohotlarning natijasi o‘laroq, huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo‘lida yurtimiz xotin-qizlari ham erkaklar bilan bir qatorda, barcha sohalarda teng faoliyat yuritmoqda. Bunga esa ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquq tizimining yaratilgani asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2 sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonunining qabul qilinishi va yangilangan Bosh qomusimizning 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi qonun bilan mustahkamlanganini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Shuningdek, 1979-yilda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya (CEDAW)ga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchilardan bo‘lib qo‘shildi va ayollar huquqini xalqaro me’yor hamda huquqiy standartlarga muvofiqligini ta’minladi.

Bugungi kunda mazkur hujjatlar asosida Prezidentimiz, hukumatimiz tomonidan 40 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, davlat va jamiyat hayotida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni qiynayotgan muammolarni bartaraf etish, gender tengligini ta’minlash, turli tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish, salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlarning siyosiy faolligini kuchaytirishga qaratilgan masalalar-davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 27- apreldagi “Yil ayoli” va “Gender tenglik faoli” Milliy tanlovlarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi KQ-340-IV-sonli Qarori hamda BMT Bosh

Assambleyasining 2011-yil 19-dekabrdagi rezolyutsiyasiga asosan 11 oktyabr – “Xalqaro qizlar kuni” deb e’lon qilingani ham xotin-qizlarga qaratilayotgan e’tiborning amaldagi ifodasidir.

Umuman, keyingi yillarda yurtimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarning ijobiy natijalarini birgina Surxondaryo viloyati misolida ham ko‘rish mumkin.

2023 – 2024-yillar davomida respublikamiz hayotida mamlakat kelajagi va yurt farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan 3 ta muhim siyosiy tadbir, ya’ni Referendum asosida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning qabul qilinishi, muddatidan avval O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovining o‘tkazilishi, unda xotin-qizlarning siyosiy faolligi muhim ahamiyat kasb etdi. Saylov jarayonlarida respublikamiz bo‘yicha hududiy saylov komissiyasi a’zolari tarkibining 44 foizini ayollar tashkil etgan bo‘lsa, Surxondaryo viloyati hududiy saylov komissiyasi a’zolari tarkibini ham 33 foizini ayollar tashkil etdi. Undan tashqari, shahar, tuman saylov komissiyasi a’zolari tarkibini respublika bo‘yicha ayollar 43 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich viloyat bo‘yicha 40 foizni tashkil etdi. Okrug saylov komissiyasi a’zolari tarkibini respublika bo‘yicha ayollar 48 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich viloyat bo‘yicha 40 foizni tashkil etdi. Uchastka saylov komissiyasi a’zolari tarkibini respublika bo‘yicha ayollar 47 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich viloyat bo‘yicha 47 foizni tashkil etdi. Saylov jarayonlarini adolat va tenglik prinsiplari asosida, ochiq, shaffof, yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilishini kuzatish maqsadida siyosiy partiyalardan ishtirok etgan mahalliy kuzatuvchilarning viloyat bo‘yicha 33,4 foizini ayollardan iborat mahalliy kuzatuvchilar tashkil etdi. Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari a’zolaridan iborat mahalliy kuzatuvchilar tarkibini viloyat bo‘yicha esa 21 foizni ayollar tashkil etdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari ichida saylangan ayol deputatlar 38 foizni, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari ichida saylangan ayol deputatlar 34 foizni, tuman va shahar Kengashi deputatlari ichida saylangan ayol deputatlar 31 foizni tashkil etdi.

Bundan tashqari, o‘tgan-yillar mobaynida siyosiy partiyalar qoshida “Ayollar qanoti tashkil etilishi natijada, siyosiy institutlar boshqaruvida ham salohiyatli xotin-qizlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi va bugungi kunda viloyatimizda siyosiy partiyalar boshqaruvida ayollar 15,78 foizni tashkil etmoqda.

Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashida faoliyat olib borayotgan 50 nafar deputatlarning 34 foizini ya’ni, 17 nafarini xotin-qizlardan iborat deputatlar tashkil etishi jamiyat boshqaruvida ayollarning alohida o‘rni borligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, viloyatdagi jami 599 ta NNTlarning 9,7 foizini ya’ni, 57 nafarini xotin-qizlardan iborat rahbarlar tashkil etib, ushbu NNT rahbarlari fuqarollik jamiyati institutlarini rivojlantirishda, aholining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy ongini oshirishda, jamiyatda ayollarning salohiyatini yuzaga

chiqarishda, barkamol avlodni tarbiyalashda, ularni kasbga o‘rgatishda, huquq va manfaatlarini himoya qilishda jonbozlik ko‘rsatmoqda.

Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalaridagi jarayonlarda xotin-qizlarning ishtiroki va faolligi tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-81-son farmoni bilan Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi raisi, viloyatlarda boshqarma boshliqlari bilan bir qatorda har bir shahar, qishloq, mahalla fuqarolar yig‘inlarida mahalla raislarining xotin-qizlar faoli lavozimlari ta’sis etildi. Bu, albatta, yurtimizda xotin-qizlarning o‘z salohiyatlarini to‘laqonli yuzaga chiqarishi uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar, umuman, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar samarasidir.

Bugungi kunda Surxondaryo viloyati aholisining 49,3 foizini ya’ni, 1 mln 454 ming 656 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. Ulardan, boshqaruvdagi rahbar xotin-qizlar 11,2 foizni, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohasida 10,2 foizni, moliya va sug‘urta sohasida 12,6 foizni, sanoat, savdo, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida 20,9 foiz ni, ta’lim sohasida 22,9 foizni, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 18,4 foizni, professional, ilmiy va texnik sohasida 2,5 foizni, axborot va aloqa sohasida 1,3 foizni tashkil etadi. Shuningdek, 19 ming 398 nafar yakka tartibdagi tadbirkordan 5 ming 426 nafari (27,9 foiz) xotin-qizlarga to‘g‘ri keladi.

O‘tgan davr mobaynida 24 ming 125 nafar ishsiz xotin-qizlarning (92 foiz) bandligi ta’minlandi, ehtiyojmand oilalardagi 3 668 nafar qizlar oliy ta’lim muassasalariga imtiyozli 4 foizli kvota asosida o‘qishga qabul qilinishi uchun tavsiyanomalar berildi. Mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5-yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish maqsadida jami 824 nafar xotin-qizlarga tavsiyanomalar berildi. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 1 ming 739 nafar faol xotin-qizlar zaxiraga olindi. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning 93 foiziga amaliy yordam berildi. Uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar bosqichma-bosqich uy-joy bilan ta’minlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ayollarning jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki ayollarning farovonligi – jamiyat farovonligi demakdir. Davlat ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda to‘liq ishtirok etishi uchun sharoit yaratib bermoqda. Endigi vazifa – ayollarning o‘zlari bu imkoniyatlardan foydalanib, mamlakat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim. Vaholanki, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti xotin-qizlarga munosabat va e’tiborga bog‘liq. Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanib, biz xotin-qizlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohot va yangilanishlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishimiz lozim.

Shu o‘rinda, muhtaram Prezidentimizning “Oilada bir nafar qiz o‘qib, oliy ma’lumotga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo‘lsa, xonadondagi muhit butunlay o‘zgaradi” deya biz xotin-qizlarga ishonch bilan aytgan so‘zlarini oqlash biz

xotin-qizlarning vazifamiz va burchimizdir!

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 1 aprel. 24-bet.*
2. *O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2 sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 27 apreldagi ““Yil ayoli” va “Gender tenglik faoli” Milliy tanlovlarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi KQ-340-IV-sonli Qarori.*
4. *1979-yilda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya (CEDAW).*
5. *BMT Bosh Assambleyasining 2011-yil 19 dekabrdagi rezolyutsiyasi.*
6. *Surxondaryo viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi hisoboti.*

Xamro Raxmonov,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY– SIYOSIY FAOLLIGI MASALALARI

♦ ***Annatotsiya:*** *O‘zbekistonda Respublikasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvidagi ishtiroki, siyosiy faolligini oshirish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shundan kelib chiqib mazkur maqolada O‘zbekistonda mustaqillik-yillarida parlamentiga bo‘lib o‘tgan saylovlarda xotin-qizlarning ishtiroki erishilgan yutuqlar bilan birga mavjud kamchiliklar-yillar kesimida tegishli adabiyotlar, statistik ma’lumotlar asosida tahlil etildi. Respublika viloyatlar kesimida ayollarning saylovlarda ishtiroki va ayrim davlatlar parlamentida ayollar o‘rinlari qiyosiy o‘rganildi. Mamlakatda so‘ngi-yillarda gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan amaliy ishlar, ijobiy natijalar bilan birga mavjud muammolar tahlil qilingan.*

♦ ***Abstract:*** *The social-political activity of women, their participation in state governance, and the issues of increasing their political activity in Uzbekistan have become highly relevant today. In this context, the article analyzes the participation of women in parliamentary elections during the years of independence, highlighting both the achievements and the existing shortcomings. The analysis is based on relevant literature and statistical data. The participation of women in elections across the regions of the Republic, as well as a comparative study of women's representation in the parliaments of*

certain countries, is examined. The article also analyzes the practical measures taken in recent years to ensure gender equality in the country, focusing on positive outcomes as well as existing problems.

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *xotin-qizlar, siyosiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayot, Oliy Majlis, parlament, saylov, gender tenglik, davlat boshqaruvi.*
♦ ***Key words:*** *women, political activity, social-political life, Oliy Majlis, parliament, elections, gender equality, state governance.*

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki-yillaridan boshlab, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning normativ-huquqiy asoslarini yaratishga kirishildi. 1995-yil 2-mart kuni Respublika Prezidentining “O‘zbekiston respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilindi. Mazkur farmon xotin-qizlar qo‘mitalari tizimi rivojini yangi bosqichga ko‘tardi va mamlakatda ayollar hayotining yanada yaxshilanishiga sharoitlar yaratdi. Bundan tashqari xalqaro tajribalar chuqur o‘rganilib, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib 1995-yil 6-mayda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Xotin-qizlarning huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi (Nyu-York, 1979-yil 18 dekabr) [1] va 1997-yil 30-avgustda “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaga (Nyu-York, 1952-yil 20 dekabr) qo‘shildi. Shuningdek, mamlakatimiz xotin-qizlari vakillari 1995-yil 6-mayda “Tinchlik, taraqqiyot va tenglik” shiori ostida o‘tkazilgan Butunjahon ayollarning IV Konferensiyasida ishtirok etib, O‘zbekiston xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan Pekin deklaratsiyasiga qo‘shildi[2,77-78 b.] Mazkur konferensiyada dunyoning 189 mamlakatidan 47 ming ayollar ishtirok etib, xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeini oshirishga qaratilgan bir qancha hujjatlar imzolangan hamda aniq maqsadlar belgilab olingan. Ana shu maqsadlardan biri Pekin deklaratsiyasiga ko‘ra qatnashuvchi mamlakatlar uchun xotin-qizlar har bir tashkilotda xodimlar tarkibining 30 foizini tashkil etishi kerakligi bo‘yicha xalqaro standartga amal qilishi masalasi belgilangan. O‘zbekistonda 1998-yilni “Oila”-yili, 1999-yilni esa “Ayollar-yili” deb e’lon qilinishi, davlat dasturlari qabul qilinishi jamiyatda ayollar mavqeini ko‘tarishga, xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarda faolligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, siyosiy boshqaruvda xotin-qizlar ishtirokini ta’minlash, xotin-qizlar huquqlarini himoya qiladigan xalqaro hamda mahalliy me’yoriy huquqiy hujjatlarni amaliyotga joriy qilishga qaratilgan edi. Gender tenglik borasida olib borilgan islohotlar ijobiy natijalari bo‘yicha O‘zbekiston BMTning ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish konvensiyasi qo‘mitasiga mazkur konvensiyaning bajarilishi yuzasidan 2001, 2005, 2008, 2011-yillarda to‘rtta milliy ma’ruzasini taqdim etdi va ular qo‘mita tomonidan yuksak e’tirof etildi[3, 91-93 b.].

Haqiqatdan ham jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollarning samarali mehnat qilib kelayotgani e’tibor va e’tirofga loyiq, ammo o‘tgan-yillar davomida respublika xotin-qizlarining mamlakat siyosiy jarayonlarida va davlat boshqaruvidagi ishtirokini qoniqarli baholab bo‘lmaydi. Xususan, 1994-yilgi Oliy Majlisga bo‘lib o‘tgan saylovlarda 634 nafar deputatlikka nomzodlardan 52 nafari ayol bo‘lsa, ular orasidan deputat etib saylanganlar 15 nafarni tashkil etgan. 1999-yilgi saylovlarda ham vaziyat deyarli o‘zgarishsiz qoldi. Masalan, 1242 nomzoddan 171 nafarini xotin-qizlar tashkil etgan bo‘lsa, ulardan 18 nafari deputat etib saylangan xalos. Bu holat viloyatlarda yanada sust ekanligini ko‘rish mumkin. Jumladan, Toshkent viloyatidan Oliy Majlisga deputatlikka da’vogar 24 nafar ayolning atigi 4 nafari deputat bo‘lgan bo‘lsa, ayrim viloyatlardan Oliy Majlisga deputatlik uchun ko‘rsatilgan ayol nomzodlardan birortasi yetarlicha ovozga ega bo‘lmagan. Masalan, Andijonda 16 ta, Namanganda 12 ta, Buxoroda 11 ta, Sirdaryoda 5 ta ayol nomzodlarning birortasi saylanmagan. Tadqiqotchilar fikricha xotin-qizlarning ko‘p hollarda saylov qonunchiligi, uning tartib-qoidalaridan bexabar bo‘lganligi, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, saylovoldi dasturlarini aholiga tushuntirish, jamoa bilan ishlash va nutq madaniyatiga yetarlicha e’tibor bermayotganligi uchun ham muvaffaqiyatga erisha olmagan[4, 47 b.] deb hisoblamoqda. 1994 hamda 1999-yillarda Oliy Majlisga bo‘lib o‘tgan saylovlarda deputatlikka nomzodini qo‘ygan xotin-qizlar uchun muvaffaqiyatli yakunlanmadi. Shu sababdan keyingi saylovlarda xotin-qizlarni faol ishtirokini ta’minlash, tashabbuslarini qo‘llab quvvatlash, jamiyat siyosiy hayotida ayollarning rolini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonunning 22-moddasi: “Ayollarning miqdori siyosiy partiyalardan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining 30 foizdan kam bo‘lmasligi lozim”, deb ko‘rsatildi [5, 56 b.].

Davlat va jamiyat siyosiy hayotida xotin-qizlarga munosabatning o‘zgarishi natijasida ayollarning ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va davlat boshqaruvidagi ishtiroki, faollashuvi nisbatan o‘sib bordi. Xususan, hukumatning oliy organlarida ayollar salmog‘i 2000-yilda 8,2 foiz, 2002-yilda 13,7 foiz, 2005-yildan boshlab esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 18 foiz, Senatda 15 foizni, 2015-yil holatiga ko‘ra Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 16 foiz, Senatda 15 foizni tashkil etdi. Xotin-qizlarning mamlakat siyosiy hayotida hamda davlat boshqaruvidagi ishtiroki dastlabki saylovlarga nisbatan ortgan bo‘lsada, bu ko‘rsatkichlar xalqaro belgilangan mezonlarga nisbatan qoniqarsiz natija hisoblanadi. Shu ma’noda ayollarning siyosiy faolligini oshirish ma’lum vaqt talab etadigan jarayondir. Masalan, jahonda o‘zini eng demokratik davlat hisoblangan AQSHda 1776-yil mustaqillik qo‘lga kiritilgan bo‘lsa ham 1926-yilga kelibgina ayollar saylash va saylanish huquqiga ega bo‘lishgan. Yoki Rossiya Federatsiyasi Federal Kengashining 178 a’zosidan faqatgina 2 tasini, davlat Dumasi a’zolarining esa 10,2 foizini ayollar tashkil qiladi[6, 21 b.]. Jahonda parlamentda ayollar salmog‘i yuqoriligi bo‘yicha yetakchi davlat Ruanda 61,3 foiz, keyingi o‘rinlarni esa Boliviya 53,1 foiz, Kuba 48,9 foiz, Islandiya 47,6 foiz, Nikaragua 45,7 foiz kabi mamlakatlar egallagan.

Xotin-qizlarni mamlakat parlamenti va siyosiy jarayonlarda ishtiroki bo‘yicha Janubiy Amerika mamlakatlari yetakchilik qilmoqda.

2015-yilda BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan mamlakatda gender balansi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazilib, unga ko‘ra quyidagi natijalar aniqlangan. Ayollar mehnat bilan band jami aholining 45,5 foizini, ishsizlarning 44 foizini tashkil etadi. Sog‘liqni saqlash, sport, ta’lim va san’at sohasida ayollarning ulushi 72,3 foiz, qurilish, transport va aloqa sohasida 10 foiz, jinoyatchilik va qonunni buzilishi bo‘yicha ayollarning ulushi 17 foiz ni ko‘rsatadi. Bundan tashqari mustaqillikni dastlabki 25-yilida respublika xotin-qizlarni davlat boshqaruvidagi faoliyatini tahliliga ko‘ra bu borada ayollarning ulushini ijobiy baholay olmaymiz. Jumladan, Vazirlar Mahkamasida 6,5 foiz, adliya sohasida 13,2 foiz, viloyat hokimlari 0 foiz, mahalliy hokimiyatlarda 19 foiz xalq deputatlari kengashlarida 16,6 foiz, iqtisodiyot boshqaruvi sektorida 26,8 foiz, mahalla raislarining 11,2 foizini ayollar ulushi tashkil etgan edi[7, 91-93 b.]. Mazkur ko‘rsatkichlarni respublika aholisi tarkibidagi ayollarni umumiy soniga taqqoslaganda xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtiroki qoniqarsiz ekanligi ma’lum bo‘ladi. O‘zbekistonda aholining yarmini xotin-qizlar tashkil etgan holda siyosiy partiyalar yetakchilari orasida haligacha birorta ayol kishi yo‘qligi xotin-qizlarni liderlikka, aholi bilan muloqot qilishga, muhim qarorlar qabul qilishga tayyorlash hamda boshqaruv va siyosiy sohaga oid bilimlarini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

2018-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etgan. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo‘lib, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritgan[8]. Ayni paytda respublikamiz xotin-qizlarining qariyb 80 foizi asosan, ikki ijtimoiy soha – ta’lim va sog‘liqni saqlashda faoliyat yuritadi[9]. Xususan, xalq ta’limi tizimi xodimlarining 71 foiz, sog‘liqni saqlash sohasi xodimlarining 62 foizi xotin-qizlardir. Endi davlat va jamiyat boshqaruvidagi ahamiyatga ega lavozimlarda, mamlakat parlamentida ham xotin-qizlarning sonini ko‘paytirish masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim.

So‘ngi yillarda Xotin-qizlarni davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning yigirmanchi yalpi majlisida so‘zlagan nutqida bildirilgan taklifiga [10] binoan Senatda yangi – Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha qo‘mita tuzildi. Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti respublika aholisini deyarli yarmini tashkil etadigan xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotidagi faoliyatini yetarli darajada emasligini qayd etib, shu majlisda Oliy Majlis Senati raisligiga mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan Tanzila Norboyevani nomzodi ilgari surildi. Ushbu taklif

deputatlar tomonidan bir ovozdan tasdiqlanishi mamlakatda gender tengligini ta’minlash yo‘lidagi muhim siyosiy qadam bo‘ldi. Senat raisligiga ayol kishining saylanishi orqali O‘zbekiston palata rahbari ayol kishi bo‘lgan sanoqli 56 ta davlat safiga kirdi.

2019-yilda “Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar” shiori ostida Oliy Majlisga bo‘lib o‘tgan saylovlar xalqaro demokratik tamoyillar asosida o‘tkazilib, bu saylov so‘ngi 28 yil ichida xotin-qizlarni parlament tarixida ko‘p o‘rin egallaganligi bilan muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Jumladan, 2019-yilgi saylov natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatlarning 48 nafari yoki 32 foizini, 100 nafar senatorlarning 23 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi [11].

Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlar-yildan-yilga xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortib, parlament tarkibida xam ayollar ulushi sezilarli oshib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Bunda so‘nggi besh-yilda davlat tomonidan xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlashga qaratilgan tizimli islohotlar, shuningdek, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid 80 ga yaqin normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlanib, gender tenglikka erishish bo‘yicha 61 ta maqsadli indikator belgilab olindi. Ularda 2030-yilgacha turli yo‘nalishlarda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadi qo‘yilgan. Xususan, belgilangan-yilgacha siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning ulushini 46 foizdan 50 foizga, Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda 5,7 nafardan 15 nafarga, boshqaruv lavozimlarida 28,2 foizdan 30 foizga, sudyalar orasidagi ulushini 13,8 foizdan 30 foizga, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida rahbarlik (hokimlar) lavozimidagi ulushini 5 nafardan 20 nafarga yetkazish kabi ko‘plab masalalar belgilab olingan[12, 4-5 b].

2020-yilning dastlabki choragidan ayrim tuman va shaharlarda hokimlik lavozimiga xotin-qizlarning tayinlangani ham jamiyat hayotida xotin-qizlarga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgarayotganligi, ishonchni ortayotganligi va mamlakatda gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasidir. Ammo bu yetarli emas, hali respublikada gender tenglikni ta’minlash borasida qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab muhim vazifalar, yechimini kutayotgan muammolar yetarlicha.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, respublikaning har bir hududlarida mavjud Xotin-qizlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar, siyosiy partiyalar va ularning hududiy bo‘limlari, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi hamda uning bo‘limlari tomonidan ijtimoiy siyosiy jihatdan faol, yetarli bilim va tajribaga ega, tashabbuskor xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlab, ularning nomzodni turli mas’ul lavozimlarga ilgari surish, davlat boshqaruvi sohasidagi turli bug‘inlarda rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishiga ko‘maklashish mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlarning muvaffaqqiyatli amalga oshirilishiga, belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 6-son, 135-modda // https://www.lex.uz/docs/2678973 (10.04.2020)

2. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari, 2016.№ 4.- B.77-78.

3. Abdimo‘minov O. O‘zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan munosabatlari tarixi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosphy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. Toshkent: 2018. – B. 91-93.

4. Urazaliyeva G Ayol – siyosat subyekti. Falsafa huquq jurnali. 2005-yil, 1-son, 47-bet.

5. Quvvatov N O‘zbekistonda o‘tish davri va jamiyat taraqqiyoti. T. 2003. -B.56

6. Ahrorova S. O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari. Fal. fan. nomz. Ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. Toshkent: 2005. – B. 21.

7. Abdimo‘minov O. O‘zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan munosabatlari tarixi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosphy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. Toshkent: 2018. – B. 91-93.

8. https://uz.fundamental-economic.uz/?page_id=1454 (2018-yil 7-mart)

9. https://human.uz/news/3/170/ (10.04.2020)

10. https://www.uz24.uz/politics/prezident-senatda-hotin-uizlar-va-gender-tenglik-masalalari-bgyicha-ugmita-tuzishni-taklif-uildi (24.06.2019)

11. Manba: http://elections.uz/uz/lists/view/2246 (27.02.2020)

12. O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlari nomli xalqaro forum materiallari. Samarqand, 2024-yil 13 – 14-may. –B.4-5.

Ra’no Alimardanova,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, PhD

O‘ZBEK OILALARIDAGI YOSH KELIN-KUYOV O‘RTASIDAGI SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNI TA’MINLASHDA KELIN-KUYOVLAR O‘RTASIDAGI OILAVIY NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada oila muammosiga aloqador masalalar, xususan, yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning ijtimoiy-etnik asoslarini tadqiq etish asosida barcha noxush bo‘lgan holatlar, oiladagi janjallarni oldini olish va muammolarni empirik o‘rganish natijalari, ularning psixologik tahlili va talqini xususida mulohaza yuritiladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article explores issues related to family problems, particularly focusing on the social-ethnic foundations of*

ensuring healthy psychological relationships between young brides and grooms. It discusses unpleasant situations, methods of preventing family conflicts, empirical research results on these issues, and provides psychological analysis and interpretation of the findings.

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *Ijtimoiy-etnik asos, Gumanistik psixologiya, empirik ko‘rsatkichlar, refleksivlik, maishiy-madaniy differensia-siyalash, “Axloqiy-kognitiv” omillar, “Ijtimoiy-psixologik”, “Hissiy-emotsional” kategoriya, “Tibbiy fiziologik” kategoriya.*

♦ ***Key words:*** *social-ethnic foundation, humanistic psychology, empirical indicators, reflectivity, household-cultural differentiation, “moral-cognitive” factors, “social-psychological”, “emotional” categories, “medical-physiological” category.*

O‘zbek oilalarida farzand, avlodlar davomiyligi muhim sanalib, unda tug‘ilib, voyaga yetadigan farzand, uni o‘sib ulg‘ayib ota-onasi va jamiyatga kerakli inson qilib etishtirish davlatimizning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Farzand qachon yetuk va mustaqil fikr yurita oladigan bo‘ladi, qachonki oila tinch bo‘lsa. Oilaning muhim funksiyalaridan biri hisoblangan relaksatsion, filitsitalagik vaziyatlarni yuqori darajada ta’minlanishi, shaxsning ham jismonan, ham ruhan kamol topishida muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan oilada yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning ijtimoiy-etnik asoslarini tadqiq etish, uning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Oiladagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlovchi omillarni aniqlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1. O‘zbek oilalarida yosh kelin-kuyov o‘rtasida, avvalo nizolar kelib chikish sabab va oqibatlari nimadan kelib chiqishini o‘rganish;

2. O‘zbek oilalarida yosh kelin-kuyov psixologik qiyofasini ifodalovchi xulq-atvorning empirik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va baholash;

3. O‘zbek oilalarida yosh kelin-kuyov munosabatlariga xos inqirozlarni o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash.

Hozirgi sharoitda oila muammosiga aloqador masalalar yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning ijtimoiy-etnik asoslarini tadqiq etish asosida barcha noxush bo‘lgan holatlar, oiladagi janjallarni oldini olishga da’vat etadi. Quyida ana shunday muammolarni empirik o‘rganish natijalari, ularning psixologik tahlili va talqini xususida mulohaza yuritiladi.

Mazkur tadqiqotni ilmiy izohlashda, natijalarni sharhlashda bir qancha metodologik g‘oyalarga murojaat qilamiz. Shulardan biri, gumanistik psixologiya tamoyillaridir. Gumanistik psixologiyada ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning asoschisi sifatida inson omilini chuqur o‘rganishga yoki aniqrog‘i, inson idealining empirik mohiyatini hayotning o‘zidan izlashga (topishga) harakat qiladilar. “Gumanistik

psixologiya tarafdorlari shaxs hayotida o‘zlarini o‘zlari va kasbiy faoliyatlarini yuksaltirishga nisbatan moyillik va aqliy imkoniyatlari namoyon bo‘lishining tadqiq qilinishi, shaxs sifatida rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishining ideal shakllari real hodisalar sifatida o‘rganilishi mumkinligini ko‘rsatganlar” [1; 59].

“Insonparvar psixologiya inson hayotining barcha tomonlariga ayniqsa, yoshlarni oila hayotiga tayyorlash, nikoh va oiladagi er-xotinning o‘zaro munosabatlar kontekstiga ham ko‘p e’tibor berib keladi. Unga ko‘ra nikohga kiruvchilar dastlab jamiyatda yashashni, turli ijtimoiy guruhlar doirasida shaxslararo muloqotning har xil zaruriy shakllari va usullarini o‘rganishi va unga amal qilishi zarur bo‘ladi” [2].

Oila farovonligini ta’minlashda er-xotinning gumanistik sifat va fazilatlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, emotsional munosabatlar negizida quriladi. Mazkur holat oiladagi er-xotin, qaynona-kelin munosabatlari uchun ham g‘oyat ahamiyatlidir.

Tadqiqot doirasida oilaning gumanistik ta’siridan foydalangan holda, milliy etnik xususiyatlardan kelib chiqib oila a’zolari o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq qiluvchi gumanistik psixologiyaga yuzlanamiz.

Dastlab, o‘zbek oilalarida yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlanishiga xalaqit beruvchi psixologik omillar o‘rganildi. Mazkur omillar shartli ravishda moddiy-ma’naviy, jismoniy-ruhiy, maishiy-madaniy differensiatsiyalash asosida (1-jadval) tahlil qilindi. Mazkur omillarni o‘rganishdan asosiy maqsad yosh kelin-kuyovlarning oilaviy hayot haqidagi ijtimoiy tasavvurlariga empatiyaviy o‘zaro ta’sir hissini singdirilishi ijtimoiy rollarni real va ideal “Men” asnosida refleksivlik tomonini altruizm (rahmdillik-ochiqlik) turtkilarini rivojlantirish natijasida oiladagi sog‘lom psixologik aloqalarni ta’minlashning milliy-psixologik asosi ekanligini isbotlashdan iborat edi.

Buning uchun oiladagi sog‘lom psixologik muhit haqidagi qarashlar IPS orqali aniqlab olindi. Tadqiqot uchun oilada yosh kelin-kuyov aloqalaridagi sog‘lom psixologik munosabatlarni psixologik jihatlarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ijtimoiy psixologik so‘rovnoma (IPS) savollariga javob berishda yosh oilali shaxslar (kelin-kuyovlar) tanlanishi (baholanishi) aytildi. Tanlanganlik darajasi 300 nafar yosh kelin-kuyovni tashkil etib, 100 foiz deb olindi va berilgan javoblarga qarab o‘rinlar ketma ketligi aniqlandi.

Milliyligimizga mos keladigan IPS (Ijtimoiy psixologik so‘rovnoma) ni natijalariga ahamiyat qaratmoq lozim. Bu ijtimoiy psixologik so‘rovnoma yordamida biz kelin-kuyovlarni etnik muhitidan kelib chiqqan holda tasavvuri, real qarashlari, tajribalariga tayanib, oilada kelib chiqadigan janjallarni yuzaga keltiruvchi zarur omillar haqida atroflicha bilib - fikrlab, aniq baho berishlari ham taklif etildi.

1-jadval

Oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida quyidagi omillarning baholanish ko‘rsatkichlari (n=300)

№	Omillar	Rang 1,2,3,4,5 o‘rni	Foiz
1.	Fe’l-atvorning mos kelmasligi (gap olmaslik, kelishmovchilik, o‘z pozitsiyasini asoslashga urinish va boshqalar)	1,20	96 foiz
2.	Farzandsizlik sababli	1,30	94 foiz
3.	Oila qurilguncha shakllangan tasavvurlarning yangi oila hayotiga xos reallikka mos kelmasligi	1,24	94 foiz
4.	Sevgi va mehr, ishq-muhabbatning sustligi, pisand qilmaslik, e’tiborsizlik	1,44	92 foiz
5.	Oila byudjetini ratsional boshqara olmaslik	1,49	91 foiz
6.	Hovli-joy va uy ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi	1,71	85 foiz
7.	Iqtisodiy-maishiy ta’minotdagi kamchiliklar	1,79	83 foiz
8.	Kelin-kuyov munosabatlariga ota-onalarning noo‘rin va asossiz aralashuvi	1,81	82 foiz
9.	Rashk va ishonchsizlik	1,81	82 foiz
10.	Jinsiy munosabatlarda tartib qoidalarga rioya etmaslik hamda jinsiy nomoslik	2,01	80 foiz
11.	Dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi (qiziqish, intilish, tushunish, anglash, baholash.)	2,00	80 foiz
12.	Bolalar tarbiyasiga munosabatning har xilligi	2,45	72 foiz
13.	Ota-ona va qarindosh-urug‘larga bo‘lgan munosabatda qadriyatli-me’yorlarga amal qilmaslik	2,50	70 foiz
14.	Mustaqil uy-joyning yo‘qligi yoki yashash sharoitining qulay emasligi	2,55	69 foiz
15.	Gap qaytarish, o‘zaro kelishmovchilik	2,60	68 foiz
16.	Ichish, chekish va boshqa muvaqqat noxush	2,79	65 foiz

	kayfiyatlarning ta’siri		
17.	Oiladagi vazifalar va uy ishlarining (rollar) taqsimotidagi kamchiliklar	3,05	58 foiz
18.	Oila hayotiga boshqa birovlarning aralashuvi	3,09	57 foiz

Hozirgi o‘zbek milliy madaniy muhitida oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish orqali yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning ijtimoiy-etnik asoslarini aniqlash pirovardida ilmiy izlanish ishlarini olib bordik. O‘tkazilgan mezonlar bo‘yicha fe’l-atvorning mos kelmasligi (gap olmaslik, kelishmovchilik, o‘z pozitsiyasini asoslashga urinish va boshqalar), (o‘rinlar yig‘indisi 1,20; 96 foiz), oila qurilguncha shakllangan tasavvurlarning yangi oila hayotiga xos reallikka to‘g‘ri kelmasligi (1,24; 94 foiz), farzandsizlik sababli (1,30; 94 foiz), kelin-kuyov o‘rtasidagi ishonchli muhabbatni yetarli darajada emasligi, bepisandlik (1,44; 92 foiz), oila iqtisodiyotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olmaslik (1,49; 91 foiz) kabi xususiyat va omillar oilada kelib chiqadigan nizolarni eng asosiy va muhim sabablari sifatida e’tirof etildi.

Yosh kelin-kuyov o‘rtasida oilaviy nizolarni shakllanib borishida hovli-joylarning notozaligi (1,71; 85 foiz), iqtisodiy ta’minotdagi kamchiliklar (1,79; 83 foiz), rashk va muhabbat o‘rtasida kesishuv (1,81; 82 foiz), qaynota-qaynonalarning o‘rinsiz aralashuvi (1,81; 82 foiz), qarashlarning muvofiqligi (xayrixohlik, intilish va hissiyot.) (2,00; 80 foiz), jinsiy munosabatlarga e’tiborsizlik, palapartishlik, tartib qoidalarga bo‘ysunmaslik (2,01; 80 foiz) kabi vaziyatlar ham eng ta’sirchan omil ekanini ko‘rsatib o‘tishgan.


Yosh er-xotinlarning fikricha, oilada bolalar tarbiyasiga munosabatning har xilligi (2,45; 72 foiz), ota-ona va qarindosh-urug‘larga bo‘lgan munosabatda qadriyatli-me’yorlarga amal qilmaslik (2,50; 70 foiz), mustaqil uy-joyning yo‘qligi yoki yashash sharoitining noqulayligi (2,55; 69 foiz), ichish, chekish va boshqa muvaqqat noxush kayfiyatlarning ta’siri (2,79; 65 foiz) ham oilaviy nizolar yuzaga kelishi va ularning muntazam kuchayib borishi oqibatida oilada sog‘lom psixologik munosabatlarning yo‘qolishi va oila buzilishiga olib kelishi respondentlar tomonidan e’tirof etildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilada er-xotin o‘rtasidagi vazifalar va uy ishlarining (rollar) taqsimoti sababli (3,05; 58 foiz), oila hayotiga boshqa birovlarning aralashuvi (3,10; 57 foiz) bilan ham u yoki bu darajada nizolar kelib chiqadi va bu farzandlar tarbiyasi, er-xotin o‘rtasida sovuq munosabatlar shakllanishiga sabab bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning ijtimoiy etnik asoslarini aniqlashda o‘tkazilgan anketa so‘rov natijalariga ko‘ra, oila qurilgungacha shakllangan tasavvurlarning yangi oila hayotida reallikka mos kelmasligi (96 foiz) ni ko‘rsatgan.

Demak, real tarzda nizoni boshdan kechirayotgan oilalarga

so‘rovnoma o‘tkazilganda “Ijtimoiy-psixologik” kategoriya eng muhim omil sifatida ta’kidlanganini ko‘rishimiz mumkin. Ijtimoiy kategoriyaga oila qurilguncha shakllangan tasavvurlarning yangi oila hayotiga xos reallikka mos kelmasligi, kelin-kuyov munosabatlariga ota-onalarning noo‘rin va asossiz aralashuvi, oila hayotiga boshqa birovlarning aralashuvi kiradi. Navbatdagi ko‘rsatgichlar bo‘yicha “Hissiy-emotsional” kategoriya yuqori o‘rinni egallagan. Hissiy-emotsional kategoriyaga – rashk va ishonchsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, bepisandlik, e’tiborsizlik kiradi. Keyingi o‘rinlarda esa “Tibbiy fiziologik” kategoriya yuqori foizlarni ko‘rsatmoqda. Tibbiy fiziologik kategoriyaga - farzandsizlik hamda jinsiy munosabatlarda zarur qoidalarga rioya qilmaslik yoki jinsiy nomosliklar kiradi. Natijalarga ko‘ra, “Axloqiy-kognitiv” omillar, ya’ni muloqot madaniyati, bir-birini tushunish darajasi, atrofdagilarga empatiyaviy munosabatda bo‘lish ham oila mustahkamligiga ta’sir etuvchi omillardan hisoblangan. Natijalarni qiyosiy tahlili quyidagi 1-rasmda aks etgan.



1-rasm. Yosh oilalarda nizolarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar

Qiyosiy jadvaldan shuni anglash mumkinki yosh kelin-kuyovlarning oilaviy hayot haqidagi ijtimoiy tasavvurlariga empatiyaviy o‘zaro ta’sir hissini singdirilishi oila mustahkamligini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanar ekan.

Xulosa qilib, oiladagi ajrimlarni oldini olishda avvalo oilada kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ziddiyat sabablarini o‘rganib chiqib, oilalarda sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashda eng muhim omillardan turmushgacha tasavvurlarni real hayotga mos kelmasligi, farzandsizlik, yoshlarni noo‘rin rashk-qizg‘anish tuyg‘ulari, qizlarni yoshlik chog‘idan tartibli, intizomli, hayotda zarur bo‘lgan qoidalarga amal qiladigan, bo‘ysunuvchan ruhda tarbiyalash bugungi kunda talab qilinadigan sifatlardan ekani dalillandi.

Oilalarda sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlaydigan qadriyatlarni me’yorida bo‘lmasligi, yosh er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimini shakllanmagani, turmush qurganiga besh-yil bo‘lmagan yoshlarda adaptiv xarakterni kuchaytirish kerak ekani, ulardagi “Real men” va “Ideal men”ni muvofiqlashtirish uchun ularga ota-onalar tomonidan yordam ko‘rsatish

kerakligini, zamonaviy oilalarda turli nizolarning kelib chiqishini bartaraf etishga xizmat qilishi aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimardanova R.N. Dissertatsiya. “Yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarning ijtimoiy-etnik asoslari” 2022-yil.

2. Teachmon J., Polonkok., Scanzony. J.Demografy of the family. // Handbook of Marriage and the famile. -N.Y.L., 1987.

3. Обозов Н.Н. Психология межличностных отношений. –Киев: изд-во Ун-та. 1990. -192 с..

4. Jabborov I.M. O‘zbeklar (An’anaviy xo‘jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashr. Toshkent: «Sharq», 2008. - 240 b.

5. Винивидова Е.П. Структура понимания конфликтной ситуации молодыми супругами с разным стажем совместной жизни: Диссертация кандидата психологических наук [Место защиты: Кур. гос. ун-т]. - Б. м., 2012. - 130 с.

Olmos Tursunova,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi dotsenti

O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASHDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING TA’MINLANISHI

♦ ***Annotatsiya.*** *Maqolada jamiyatning asosiy bo‘g‘inini xotin-qizlar tashkil etganligini hisobga olgan holda, respublikamiz ayollarga doir bir qancha xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilganligi yoritib berilgan. Xalqaro normalar bilan yurtimiz qonunchiligi taqqoslangan.*

♦ ***Abstract.*** *Taking into account that women represent a key pillar of society, this article highlights Uzbekistan’s ratification of several international documents related to women’s rights. It also presents a comparative analysis of international norms and national legislation in this area.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *xotin-qizlar, huquqlar, majburiyatlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ratifikatsiya.*

♦ ***Key words.*** *women, rights, obligations, normative legal documents, ratification.*

Bugungi kunda respublikamiz hayotida kechayotgan o‘zgarishlar har bir fuqaroni befarq qoldirmayapti. Yurtimiz demokratik huquqiy davlat qurish

yo‘lidan borar ekan, avvalo o‘sha jamiyatning huquqiy poydevori mustahkam bo‘lishi zarur. Jamiyatning asosiy bo‘g‘inini xotin-qizlar tashkil etganligini hisobga olgan holda, respublikamiz ayollarga doir bir qancha xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Bu haqda yurtboshimizning fikrlari buni tasdiqlaydi: “Bugungi tez o‘zgarayotgan, ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko‘plab murakkab savollarga javob topish qiyin” [3, 1].

Prezidentimizning bugungi kunda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida belgilab berilgan maqsad va vazifalarga erishish maqsadida ayollarning huquq, erkinliklariga alohida e’tibor berilganligi tahsinga loyiq. O‘zbekiston Respublikasi butun jahonga yuz tutdi, har sohada xorijiy davlatlar bilan aloqaga kirishyap-i. Xa-qaro munosabatlar nafaqat jamiyatga balki, har bir xotin-qizga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmayapti. Albatta bu munosabatlar xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi. Xotin-qizlarimizning o‘z huquqlarini bilishi bu obod turmushning kafolati, huquqiy demokratik davlatning poydevori, mustahkam oilaning tamal toshidir. Ushbu huquqiy hujjatlar bilan tanishish, bilish, targ‘ib qilish ayollarimizning yana bir karra huquqiy madaniyatini oshirishga ko‘maklashadi. Jumladan, 1952-yilning 28 iyunidagi “Onalikni himoya qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya, 1979-yilning 18-dekabridagi “Ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarni tugatish to‘g‘risida”gi Konvensiya, 1951-yilning 29 iyunidagi “Erkaklar va ayollar mehnatini bir xilda baholashni teng rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi №100 Konvensiya, “Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya shular jumlasidandir. Ushbu ratifikatsiya qilingan hujjatlarning barchasida xotin-qizlarimizning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy, ma’rifiy huquq va erkinliklari aks etgan.

Onalikni himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiyaning 2-moddasiga ko‘ra: “Ushbu konvensiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda “ayol” termini uning yoshi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va dini, nikohdan o‘tgan yoki o‘tmaganligidan qat’i nazar ayol jinsiga mansub har qanday ayol shaxsi, “bola” termini esa, uning ota-onasi nikohdan o‘tgan yoki o‘tmaganligidan qat’i nazar har qanday bola tushuniladi”.

Ushbu Konvensiyaning 5-moddasiga ko‘ra: “Agar ayol kishi o‘zining bolasini ko‘kragi bilan emizdirsa, u shu maqsadda ish kuni davomida bir yoki bir necha marta tanaffus qilish huquqiga ega, tanaffuslarning davomiyligi davlatning qonunchiligi bilan belgilanadi” [1, 397-b].

Ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarni tugatish to‘g‘risidagi Konvensiyaning 2-moddasi q) bandiga ko‘ra: “Jinoyat qonunchiligining ayollarga nisbatan kamsitishlar aks etgan barcha holatlari bekor qilinsin”. Shuningdek, 6-moddasi: “Qatnashuvchi-davlatlar ayollar savdosining barcha turlari va ayollar fohishabozligining ekspluatatsiyasini bekor qilish maqsadida barcha tegishli, jumladan qonunchilik choralarini amalga oshirsin”.

Ushbu Konvensiyaning 9-moddasi 2-bandiga ko‘ra: “Qatnashuvchi-davlatlar ayollarga ularning farzandlariga fuqarolik berish masalasida

erkaklar bilan teng huquqlar taqdim etadi”. 11-moddaning a) bandi: “Barcha kishilarning ajralmas huquqi bo‘lgan mehnat qilish huquqiga ega bo‘lish”, 13-moddaning a) bandi: “oilaviy ta’minot olish huquqi” va hokazolar[1, 419-b]. Erkaklar va ayollar mehnatini bir xilda baholashni teng rag‘batlantirish to‘g‘risidagi Konvensiya o‘z ichiga jinsidan qat’iy nazar barcha o‘z mehnatlari uchun teng taqdirlanishini bayon etadi. Ratifikatsiya qilingan ushbu Konvensiyada asosiy e’tibor, tashkilotning barcha a’zosi o‘z vositalari, rag‘batlantirishning tasdiqlangan mezonlari bilan, u yoki bu holda barcha mehnatkashlarni teng rag‘batlantirish prinsipi asosida, erkaklar va ayollarning mehnatini bir xilda baholanishini ta’minlashga qaratilgan. Ushbu prinsip quyidagi usullar bilan qo‘llanishi mumkin: a) milliy qonunchilik asosida; b) rag‘batlantirish aniqlangan, qonunchilik bilan tan olingan yoki tasdiqlangan tizim asosida; c) tadbirkorlar va xodimlar o‘rtasida tuzilgan jamoaviy shartnomalar asosida; d) ushbu turli xildagi usullarning birikmalari asosida [1, 520-b].

Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, BMT ustavida belgilangan, erkaklar va ayollarning teng huquqligini amalga oshirish maqsadida, ayollarning ham siyosiy huquqlardan foydalanish va ega bo‘lish erkinliklari ochib beriladi.

Jumladan, 1-moddada: “Ayollar hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng sharoitlarda barcha saylovlarda ovoz berish huquqiga ega”. 2-modda: “Ayollar ommaviy saylovlarni talab etadigan, milliy qonunchilik bilan belgilangan tashkilotlarga, hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng huquqda saylanishlari mumkin”. 3-modda: “Ayollar hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng huquqda ijtimoiy-davlat xizmatida lavozim egallashlari va milliy qonunchilik bilan belgilangan barcha ijtimoiy funksiyalarni bajarishlari mumkin”[1, 572-b].

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida o‘z aksini topgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 900 dan ortiq qonunlar qabul qilingani ma’lum. Ularning aksariyati jamiyatimizning mo‘tabar zotlariga tegishli. Avvalo, birinchi tamal tosh bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 58-moddasida: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi” [2, 36-b], deyiladi. Ayollarning shaxsiy huquqlariga oid bo‘lgan qonunlardan “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Sudlar to‘g‘risida”gi, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunlarni, siyosiy huquqlariga daxldor “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolik to‘g‘risida”gi, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarga oid “Yer to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi, “Bank va banklar to‘g‘risida”gi qonunlardir. Qonunlar O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlariga davlatimizning barcha jabhalarida ishtirokini ta’minlayapti.

Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatimiz hayotida nufuzini oshirish maqsadida “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish,

mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Prezident farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan Xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash belgilab qo‘yildi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga berish bo‘yicha yangi tartib joriy etildi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek xotin-qizlari huquqlariga doir normativ hujjatlarning eng asosiy xususiyati shundaki, ular birinchi navbatda ayollarga, bolalarga, umuman aholining barcha qatlamlariga siyosiy, huquqiy, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy yordam bermoqda. Zero, ushbu jarayonda respublikamiz olib borayotgan ichki va tashqi siyosat – davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, barcha sohalarda qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalqimiz turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak: “Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e’zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Chunki sizlar bilan hayotimiz go‘zal va mazmunli, xonadonlarimiz obod va nurafshondir” - Prezident Sh.M.Mirziyoyev.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. 1. Узбекистан и международные договора по правам человека. Т.: Адолат, 1998. – 600 с.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, O‘zbekiston: 2023. – 36-b

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. Zarafshon gazetasi, 2018-yil 8-mart, № 28 (22988). 1-b.

Y.T.Ismoilova,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Pedagogika kafedrasi dotsenti

KONFLIKTNI HAL ETISHDA OILANING IJTIMOIY-MA’NAVIY ROLI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning ijtimoiy-ma’naviy roli tahlil qilinadi. Oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari, ularning jamiyat va shaxs hayotiga ta’siri, shuningdek, oilaning tarbiyaviy hamda ma’naviy qadriyatlari asosida konfliktlarni bartaraf etish yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, oiladagi muhitning barkamol avlodni tarbiyalash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni ham muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari konfliktlarni samarali boshqarishda oilaning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the socio-spiritual role of the family in conflict resolution. The study highlights the causes of family conflicts, their impact on the life of society and individuals, as well as ways to overcome conflicts based on the educational and spiritual values of the family. The article also discusses the role of the family environment in fostering a harmonious generation and ensuring social stability. The results of the study show the importance of developing the spiritual and moral values of the family in effective conflict management.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *oila, konflikt, nizolarni hal etish, ijtimoiy-ma’naviy rol, oilaviy tarbiya, murosaga kelish, axloqiy qadriyatlar, nizolar sabablari, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy muhit.*

♦ ***Key words.*** *family, conflict, conflict resolution, socio-spiritual role, family education, compromise, moral v-lues, causes of conflict, social stability, spiritual environment.*

Jahon miqyosidagi o‘zgarishlar, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning ko‘plab asoslaridagi islohotlar, jahon miqyosida ijtimoiy taraqqiyotning ijtimoiy sohasidagi yangi tendentsiyalarga qaramay, O‘zbekistonda oila eng muhim hayotiy qadriyat, milliy an’ana va urf-odatlar e’tibor markazida bo‘lib, jamiyat hayotining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

Jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan oiladagi ma’naviy-ijtimoiy muhitga bog‘liq. Oila inson hayotining ilk shakllanish maydoni bo‘lib, unda shaxsning axloqiy va ijtimoiy xulq-atvori rivojlanadi. Biroq oilaviy munosabatlarda ham ba’zan turli nizolar va konfliktli vaziyatlar yuzaga kelishi tabiiy holatdir. Bunday holatlarda oilaning ma’naviy qadriyatlari va tarbiya tizimi murosaga kelish, nizolarni oldini olish hamda ularni konstruktiv hal etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda oila taraqqiyoti global miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari va 2022 – 2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi doirasida ko‘rib chiqilmoqda.[1]

Hozirgi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida jamiyatda, xususan, oilada yuzaga keladigan konfliktli vaziyatlar dolzarb ijtimoiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida nafaqat farzand tarbiyasida, balki shaxsning ijtimoiylashuvi va ruhiy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Oilaviy nizolar esa nafaqat oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni, balki keng ma’noda jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda turmush sharoitlarining o‘zgarishi, iqtisodiy muammolar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida avlodlar o‘rtasidagi tafovutlar va oilaviy mojarolar soni ortib bormoqda. Bunday holatlarda nizoni erta bosqichda aniqlash, to‘g‘ri tahlil qilish va samarali yechim topish, eng avvalo, oilaning o‘zida boshlanishi lozim. Oila ichidagi konfliktlarni hal etish usullarini o‘rganish, profilaktika va maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali jamiyatda

ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ushbu mavzuni tadqiq etish oila a’zolari o‘rtasida sog‘lom muhitni yaratish, farzand tarbiyasida ijobiy o‘zgarishlarga erishish va jamiyatdagi nizolarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar amaliyotda qo‘llaniladigan samarali strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

A.Ya.Antsupov va A.I.Shipilovning “Konfliktologiya” asarida oiladagi nizolarni tahlil qilish va ularni hal etish bo‘yicha quyidagi fikrlar keltirilgan: oiladagi nizolarni turli omillar, jumladan, kommunikatsiya muammolari, rollar va vazifalarning noaniqligi, shaxsiy ehtiyoj va qadriyatlarning to‘qnashuvi, ochiq muloqot, murosaga intilish va mediatorlik kabi usullar tavsiya etiladi.[2]

Ko‘pincha oilaning barcha funksiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilganda farovonlik deyiladi: reproduktiv, ta’lim, ijtimoiy, iqtisodiy, jinsiy, insonning hissiy, ma’naviy muloqot, sevgi va qo‘llab-quvvatlash ehtiyojlarini qondirish. Tadqiqotchilar farovon oilaga yanada chuqurroq ta’riflar berishadi.

Masalan G.M.Sinchenkoning fikricha, ijtimoiy yetim fenomenini har tomonlama tushunish,-chunki bu -jtimoiy hodisa jamiyat holatiga salbiy ta’sir qiladi umuman olganda, degradatsiyadan dalolat beradi asosiy ijtimoiy qadriyatlar bolalarni tarbiyalash va ijtimoiylashtirish uchun muhim bo‘lib, kompleks oilaviy siyosat oilaviy institutni inqirozdan olib chiqishi va yetim bolalar sonini kamayishini ta’kidlaydi [3].

Oila tarbiyasida sog‘lom muhit yaratish va bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ota-onaning o‘rni haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. Uning ta’kidlashicha, oila – shaxsning birinchi ijtimoiylashuv muhitidir va undagi tarbiya usullari farzandning ruhiy, axloqiy va aqliy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oila davlatning asosi, bola, mamlakatning bo‘lajak fuqarosi bo‘lib yetishadigan birinchi ijtimoiy institutdir. Uning butun kelajakdagi hayoti, maqsadlari, munosabati va faoliyati oilasining farovonligiga bog‘liq. Oila funksiyalari buzilganda, bolaning shaxsiyati deformatsiyalanadi, bu ko‘pincha nafaqat oila, balki jamiyat uchun ham salbiy oqibatlarga olib keladi.

Oilaning asosiy funksiyalari reproduktiv va ijtimoiylashish hisoblanadi, shuning uchun barcha ta’riflar oilada bolalarning mavjudligiga e’tibor beradi. Oila, birinchi navbatda, bola yoki bolalar tug‘ilishi va uning ijtimoiylashuviga qaratilgan. Bu ijtimoiy rollarning birinchi «maktabi» bo‘lib, birlamchi ijtimoiy moslashuvni amalga oshiradi. Bolaning to‘g‘ri va barkamol rivojlanishining asosiy omillaridan biri – farovon oila. Agar bolaning oilasida jismoniy yoki ruhiy nomutanosiblik bo‘lsa (ota-onadan biri, oila a’zolari bilan hissiy aloqani buzish va boshqalar), u holda bolaning ijtimoiy jihatdan to‘liq moslasha olmasligi ehtimoli yuqori. Bunday holda, oila bolali oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatadigan muassasaga murojaat qilishi mumkin.

Inqirozga uchragan oilalarda manfaatlar va ehtiyojlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik uzoq davom yetadi va oila uchun yeng muhim sohalarga

taalluqlidir. “Nevrotik oila” atamasi ko‘proq tibbiy xususiyatga ega, chunki bunday oila bir yoki bir nechta oila a’zolarida nevroz mavjudligi bilan tavsiflanadi, bu oila ichidagi munosabatlarga katta ta’sir qiladi. Agar oila munosabatlar barqarorligining buzilishiga olib keladigan qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolsa, masalan, oila a’zosining qamoqqa olinishi yoki uzoq muddatli kasallikka duchor bo‘lsa, oila muammoli bo‘ladi.

Bola uchun oila tug‘ilgan joyi va asosiy yashash joyidir. Aynan oilada bola atrofdagi dunyo haqidagi bilim asoslarini oladi va ota-onaning yuqori madaniy va ma’rifiy salohiyati bilan u nafaqat asosiy bilimlarni, balki madaniyatning o‘zini ham butun umri davomida olishda davom yetadi. Oila – bu ma’lum bir axloqiy va psixologik muhit, bu bola uchun odamlar bilan munosabatlarning birinchi maktabidir. Bolada yaxshilik va yomonlik, odob-axloq, moddiy va ma’naviy qadriyatlarni hurmat qilish haqidagi g‘oyalari oilada shakllanadi.

Ota-ona mehrini yetarlicha qabul qilmagan bola do‘stona, g‘azablangan, boshqa odamlarning tajribasiga qo‘pol, beadab, tengdoshlari bilan til topishish qiyin, ba’zan esa o‘zini tutib qo‘yadigan, bezovtalanmaydigan va haddan tashqari uyatchan bo‘lib ulg‘ayadi. Haddan tashqari mehr-muhabbat, mehr-oqibat, hurmat va yehtirom muhitida o‘sgan kichkina odam o‘zida xudbinlik, erkalash, takabburlik va ikkiyuzlamachilik kabi fazilatlarni erta rivojlantiradi.

Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar sifati nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki kengroq ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oilada ota-ona va farzandlar, oila a’zolari bir-birini tinglash, hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlash orqali kelajakdagi konfliktlarning oldini olishlari mumkin. Sog‘lom muhitda tarbiyalangan bolalar ham kelajakda ijtimoiy muammolarni hal etishda ancha samarador bo‘lishadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilada konfliktlar quyidagi asosiy omillar tufayli yuzaga keladi:

• Kommunikatsiya muammolari: Muloqotdagi xatoliklar, noto‘g‘ri tushunishlar, emotsional reaksiya va samarasiz axborot almashinuvi.

• Rollar va vazifalarning noaniqligi: Oila a’zolarining o‘zaro majburiyatlari va vazifalari borasida kelishmovchiliklar.

• Moliyaviy ziddiyatlar: Byudjetni taqsimlashdagi qarama-qarshiliklar va moliyaviy qarorlar bo‘yicha kelishmovchiliklar.

• Tarbiyaviy yondashuvlardagi farqlar: Farzand tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlar bo‘yicha fikrlar tafovuti.

Shaxsiy qadriyat va ehtiyojlarning to‘qnashuvi: Har bir a’zoning shaxsiy makoni, ehtiyojlari va xohishlarining e’tibordan chetda qolishi.sog’lom oilaviy muhitda tarbiyalangan shaxslar ijtimoiy hayotda ham samarali munosabatlar o‘rnatadi. Oila a’zolarining o‘zaro hurmati, ishonchi va qo‘llab-quvvatlashi konfliktlarni oldini olishda asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik treninglar, oila terapiyasi va maslahatlar yordamida konfliktlarni kamaytirish mumkin. [4]

Xulosa qilib aytganda, konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning

ijtimoiy-ma’naviy roli muhim ahamiyat kasb etadi. Oila insonning axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvorining shakllanishida asosiy institut sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilada sog‘lom ma’naviy muhit yaratilishi, o‘zaro hurmat va tushunish tamoyillarining qaror topishi nizolarni oldini olish va ularni samarali hal etishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, oilaviy tarbiya, kommunikativ ko‘nikmalar va murosaga kelish madaniyati bolalar va kattalar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Oila a’zolari o‘zaro hurmat, sabr-toqat va kechirimlilik kabi qadriyatlarni mustahkamlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shadilar. Shu sababli, oilada sog‘lom ma’naviy muhit shakllantirish nafaqat nizolarni hal qilishga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son

2. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ, 2000. - 551 с.

3. Possibilities of Using Social Marketing in the Prevention of Child Abuse in the Family

4. Y.T.Ismoilova. The Content of the Science of Pedagogical Conflict and its Importance in the Educational Process, Spanish Journal of Innovation and Integrity | ISSN 2792-8268 | Volume-38 | Jan -2025.

Davron Kesimov,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Qashqadaryo viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

O‘ZBEK OILALARIDA GENDER MUNOSABATLARNI TO‘G‘RI YO‘LGA QO‘YISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

♦ ***Annotatsiya.*** *Maqolada o‘zbek oilalarida gender munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda o‘zbek milliy jamiyatida gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish, oilaviy munosabatlar sohasida erkak va ayollarning tenglikka asoslagan huquq va majburiyatlarini ta’minlash haqida fikr yuritilgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.*

♦ ***Abstract.*** *This article examines the socio-psychological aspects of establishing proper gender relations in Uzbek families. It discusses the importance of ensuring gender equality in Uzbek society, enhancing the role*

of women in social and political life, and guaranteeing equal rights and obligations for both men and women in family relations. The research conducted by the author demonstrates that this issue remains highly relevant today.

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *jamiyat, oila, xotin-qizlar, erkaklar, stereotip, gender tenglik, gender munosabatlar, huquq, majburiyat.*
♦ ***Key words.*** *Society, family, women, men, stereotypes, gender equality, gender relations, rights, obligations.*

Ma’lumki, mustaqillikning dastlabki-yillaridanoq, respublikamizda adolatli huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish masalasi oldimizga qo‘yilgan ustuvor maqsadlardan biriga aylandi. O‘tgan davr mobaynida zamonaviy o‘zbek jamiyatida inson huquqlari, uning erki, sha’ni va qadr-qimmatiga oliy ne’mat sifatida qaralib, ularni amalda ta’minlash va himoya qilishda bosh qomusimiz va qonunlarning ustuvorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Mamlakatimiz hayotida amalga oshirilayotgan bunday islohotlar jamiyatda gender tenglikni ta’minlash masalalari bilan hamohang kechayotganligi diqqatga sazovordir. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida, “Shu o‘rinda meni ongimizda chuqur ildiz otgan bir aqida ko‘p o‘ylantiradi. Biz doimo ayol – bu ona, oilamiz bekasi, deb ularni ulug‘laymiz. Bu to‘g‘ri, albatta. Ammo hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘lmog‘i shart. Afsuski, biz uzoq vaqt bu masalaga yetarlicha e’tibor bermasdan, hurmatli opa-singillarimizning dardu tashvishlariga beparvo qarab kelganimiz tufayli-yillar davomida to‘planib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilish bugun, ochig‘ini aytish kerak, oson bo‘lmayapti. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, muhtaram opa-singillarimiz uchun munosib ish va turmush sharoitlarini yaratib berish bo‘yicha biz bor kuch va imkoniyatlarimizni to‘la safarbar etamiz. Chunki, takror aytaman, agar ayol, ona baxtli bo‘lsa, oila baxtli bo‘ladi, oila baxtli bo‘lsa, butun jamiyat, davlat mustahkam va barqaror bo‘ladi”, deya ta’kidlagan edilar [1].

Bu to‘g‘rida O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2 sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son qonunining qabul qilinishi ham muhim voqea bo‘lib, uning 24-moddasi aynan oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlariga bag‘ishlanganligi alohida e’tiborga loyiqdir. Hujjatda oila, onalik, otalik va bolalik davlat muhofazasida ekanligi, xotin-qizlar va erkaklar oilaviy munosabatlar sohasida teng huquq hamda majburiyatlarga egaligi keltirib o‘tilgan hamda oilaviy munosabatlar sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun huquq hamda imkoniyatlarning tengligi quyidagilarga asoslanishi belgilab berilgan: xotin-qizlar va erkaklar nikoh tuzishining ixtiyoriyligi; majburiy va erta

nikohlarga yo‘l qo‘yilmasligi; er va xotinning shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlari tengligi; oilaning ichki mojarolarini o‘zaro kelishuv bo‘yicha hal qilish; uy mehnatiga nisbatan xotin-qizlar va erkaklar huquq hamda majburiyatlarining tengligi; bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishda, voyaga yetmagan hamda mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashda teng ishtirok etish [2].

Ma’lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan “Qur’oni Karim” va hadislarda ham oilaviy turmush va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari, uning tengligi haqida qimmatli ma’lumotAb-u va shar’iy qonunlar berilgan. Islomda, qolaversa, ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham, nikohda ikki tomon teng va munosib bo‘lishi ta’kidlab o`tilgan. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko‘ra, kelin va kuyov nasl-nasabda, ijtimoiy mavqeda, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-e’tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga teng bo‘lishi ma’qul topilgan. Shu bois, Sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e’tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog‘liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilinadi [6, 9 b.].

Jamiyat hayotida gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish masalalari qadimdan yunon va sharq mutafakkirlarining asarlarida ham keng bayon qilib berilgan. Darhaqiqat, qadimgi yunon faylasuflari hisoblangan Suqrot, Arastu, Aflotun kabi olimlar o‘z zamonasida eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan, eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Erkak va ayollar tengligi g‘oyasini yunon olimi Antifont ham o‘z asarlarida qo‘llagan holda: “Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi”, deb ta’kidlagan. Sharqning qomusiy olimlaridan biri Abu Nasr Farobiy esa “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan. Amir Temurdek buyuk bobomizga ham davlat ishlarini boshqarishda Bibixonim doimo maslahatgo‘y bo‘lgani tarixdan ma’lumdir. Buyuk podshoh Zahiriddin Bobur ham butun umri davomida davlat boshqaruvida ayol shaxsiyatiga yuksak e’tibor bilan qaragan. Unda xotin-qizlar qadr-qimmatini joyiga qo‘yish, izzatlarini bajo keltirish ustun bo‘lgan, zarur bo‘lganda Qutlug‘ Nigorxonim, Esan Davlatbegim, Xonzodabegim va boshqa ayollar bilan davlat ishlari muammolariga oid masalalarni bamaslahat ado etgan va ularning fikrini inobatga olgan [4, 155 b.].

Bugungi kunda dunyo aholisining yarmini ayollar va qizlar tashkil etishi va bu insoniyat salohiyatining yarmiga teng ekanligini inobatga olsak, xotin-qizlar huquqlarini kafolatlash, qadr-qimmatini e’zozlash, qobiliyat va

imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularning bilim olishi, kasb egallashi uchun imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu bilan biz nafaqat jamiyat hayotida gender tenglikka erishamiz, balki jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitini ham barqarorlashtirishga erishamiz. Shaxslararo munosabatlarda sinchkovlik, kuzatuvchanlik, sezgirlik, ibrat-namuna bo‘lish, insonparvarlik, samimiylik va jonkuyarlikda ayollarga tenglashish ancha qiyinligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, ularga ishonch bildirilgan jamiyatda ayollarning davlat va jamoat ishlarida yuksak natijalarga erishayotganligi, o‘z oilalari, qolaversa ona vatani ravnaqi uchun muhim hissa qo‘shayotganligi, bu bilan oilasiga qo‘shimcha daromadlar keltirayotganligi, ish bilan band bo‘lish barobarida sog‘lom farzand tarbiyasida ham erkaklarga yaqin ko‘makchi bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Afsuski, jamiyatimizda ayollar va erkaklar huquqlari tengligi har doim ham bir xilda namoyon bimon-urmaydi, bunga erkaklarning ayol kishini ojiza deb bilishi va shunga mos munosabatda bo‘lishi, ba’zi oilalarda u hatto tarbiya orqali an’ana sifatida singdirilishi sabab bo‘ladi. Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ayrim erkaklarning o‘z turmush o‘rtog‘iga munosabati yoki ayollarning o‘zbek ayoliga xos bo‘lmagan o‘zini tutishi, muomalasi, haqoratu dashnomlardan iborat gap-so‘zlari kishi ko‘nglini xira qilmoqda. Bunday holatlar jamiyatda qabul qilingan turli meyorlar, qonun-qoidalarga mos kelmasligi sababli ijtimoiy nazorat tizimi orqali qoralanmoqda, ko‘pni ko‘rgan ayrim keksa avlod vakillari va o‘rta yoshli kishilarning norozi bo‘lib gapirishiga sababchi bo‘lmoqda. Shu o‘rinda erkak va ayolning oilaviy hayot muammolarini hal qilishda jamiyatdagi me’yorlar va milliy qadriyatlarga suyanishi, zimmasidagi burch va vazifalarni qonun doirasida, adolat tamoyillariga rioya qilgan holda bajarishi, oilada o‘ziga taalluqli vazifalarni sitqidildan bajarishi, ibratli xulq-atvori bilan yoshlarni o‘z ortidan ergashtira olishi oilada har qanday nizo va kelishmovchiliklarning oldini olishga sababchi bo‘ladi.

Gender tenglik tushunchasi har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligi haqidagi g‘oyalarni o‘zida ifodalaydi. Biroq ilmiy izlanishlarimiz natijalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, bugungi kunda o‘zbek oilalarida erkak va ayollar o‘rtasida ba’zi o‘rinlarda gender tenglikni buzilish holatlari kuzatilayotganligi ayni haqiqatdir. Bunga ko‘pchilik oilalarda ayollarning erkaklarga moliyaviy qaramligi, oilada uy yumushlari asosan ayollarga yuklatib qo‘yilganligi, bolalar tarbiyasi bilan ko‘proq ayollar shug‘ullanishi, xotin-qizlar maoshining erkaklarga nisbatan kamligi, oilalarda ayollarning ta’lim olishiga ba’zida to‘siqlarning mavjudligi va hokazolar sababchi bo‘lmoqda. Shuning uchun ham yurtimizda gender tadqiqotlarga keng yo‘l ochish, zamonaviy o‘zbek oilasidagi erkaklar va ayollarning o‘zaro munosabatlarida ayollar mavqeining mustahkamlanib borishiga erishish, ularning liderlik pozitsiyalarida hamda turmush o‘rtoqlarini hamkor va sherikchilik munosabatlari tizimida ko‘rishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar qilib aytganda, oilaviy hayotda er va xotinning birontasi

ikkinchisiga nisbatan biron-bir ustun huquqdan foydalanishi mumkin emas, deb hisoblaymiz. Er-xotin o‘rtasidagi tenglik oiladagi barcha masalalarni birgalikda hal qilish tamoyillariga asoslanishi, ular bir-biriga ham moddiy, ham ma’naviy o‘zaro yordam ko‘rsatishi, o‘zaro do‘stona qo‘llab-quvvatlashi juda muhim bo‘lib, bular oilaning mustahkamligi va farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, er va xotinning gender tenglik masalasida bir-birlarini tushunishi, hurmat qilishi, oilaviy masalalarni birgalikda hal qilishga harakat qilishi oilada yuzaga keladigan har qanday nizo, ixtilof va muammolarni tinch yo‘l bilan bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham bugungi kunda oilada gender tenglik masalasida o‘z yechimini kutib turgan qator muammolar borki, ularni o‘rganish, tahlil qilish hamda muhokamalar asosida yechimlar topish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Biz sohaga oid ilmiy adabiyotlar bilan tanishish va olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijalariga suyangan holda, o‘zbek oilalarida gender tenglikka erishish uchun quyidagi amaliy takliflarni berishni lozim topdik:

1) xotin-qizlarning oila hayoti va oilaviy munosabatlardagi gender tenglikka oid professional va funksional savodxonligini oshirish;

2) jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni va mavqeini oshirish, ularning iqtisodiy ta’minotini yanada yaxshilash;

3) xotin-qizlarning siyosiy hayotda ishtirok etishini kuchaytirish, bu borada xalqimiz ongida saqlanib qolgan noto‘g‘ri stereotiplarga barham berish;

4) xotin-qizlarning sifatli ta’lim olishlari va kasb egallashlarini qo‘llab-quvvatlash borasida maxsus dasturlar yaratish;

5) oilalarda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, ularni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;

6) ikki jins vakillarining tengligi, ularning tenglikka asoslagan huquq va majburiyatlari haqida gender tadqiqotlar o‘tkazish;

7) joylarda gender munosabatlarni ta’minlashga oid “yuridik maslahatxona”lar tashkil etish, ularda ikki jins vakillarining haq-huquqlarini buzilishiga xos muammolarni hal etishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

8) mamlakatimizda ayollarning maqomi va maqeini yaxshilash bo‘yicha milliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/2692.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2 sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son qonuni. https://lex.uz/docs/4494849

3. Akramova F., va bosh. Oila ensiklopediyasi. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. –240 b.

4. Yoziyev E. Boshqaruv psixologiyasi. - Q.: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2021. - 388 b.

5. Karimov X. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi / Darslik / -Q.: “Qarshi davlat universiteti” nashriyoti, 2024. – 168 b.

Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2007. –144 b.

Rayxon Raximova,
Surxondaryo viloyat hokimligi huzuridagi fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kursi, PhD

YANGI O‘ZBEKISTONNING BUNYODKOR AYOLLARI

♦ ***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida oila institutlarining o‘rni, mamlakatimizda ayollarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani, oila, ota-ona, farzand munosabatlarining yangi tahrirdagi konstitutsiyada alohida normalar bilan huquqiy mustahkamlangani, gender tengligi bo‘yicha xotin-qizlarga berilayotgan imtiyozlar va “Yangi O‘zbekistonning bunyodkor ayollari” deya e’tirof etilayotgan xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki haqida ma’lumot beriladi.*

♦ ***Abstract.*** *This article discusses the role of family institutions in the socialization process of individuals, the elevation of attention to women as a state policy in our country, the legal reinforcement of family, parent-child relationships through specific norms in the newly revised constitution, the privileges granted to women in terms of gender equality, and the active participation of women in socio-economic and political processes, who are recognized as the “Constructive Women of New Uzbekistan”.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *Oila instituti, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Konstitutsiya, “Yangi O‘zbekistonning bunyodkor ayollari”, Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo‘mitasi, gender strategiyasi, tadbirkor ayol, migratsiya.*

♦ ***Key words:*** *Family institution, “Uzbekistan – 2030” strategy, Constitution, “Constructive Women of New Uzbekistan”, Committee on Women and Gender Equality in the Senate of the Supreme Assembly, gender strategy, entrepreneurial women, migration.*

Jahonda oila nafaqat shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida muhim tizim sifatida xizmat qiladi, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni avlodlarga uzatish, jamiyatning barqarorligini ta’minlash va madaniy transformatsiyalarni boshqarishda asosiy omil bo‘lib qolmoqda. Oilaning eng muhim funksiyalaridan biri – yosh avlodga ma’naviy axloqiy qadriyatlarni yetkazishdir. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari davrida oila milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolishning asosiy kafolati sifatida ko‘riladi. Oila nafaqat shaxsiy farovonlikni ta’minlaydi, balki jamiyatning falsafiy-madaniy rivojlanishiga asos bo‘ladi. Shu bois oilaviy munosabatlarning holati va istiqbollarini tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Insoniyatning ma’naviy kamol topishida oilaning o‘rni muhim. Oila jamiyatning ajralmas qismi, unda inson dunyoga keladi va voyaga yetadi. Sog‘lom oila muhitini yaratish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirish esa sog‘lom kelajak demakdir.

Shuning uchun ham mamlakatimizda fuqarolar va ularning oilalari manfaatlarini himoya qilish, aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi-yillarda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, nikoh institutini mustahkamlash va rivojlantirish, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlarini samarali amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha milliy dastur tasdiqlandi. Mazkur hujjat bilan xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy huquqlarini ta’minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilab olindi va amaliy ijrosi ta’minlanayapti. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarda voyaga yetayotgan qizlarga oliy ta’lim muassasasida tahsil olishi uchun 4 foizli kvota ajratildi. Oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda o‘qiyotgan xotin-qizlar uchun foizsiz ta’lim kreditlari joriy qilindi, magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning shartnoma to‘lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida oilalarning ijtimoiy xizmatlar, moddiy resurslar, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridan har tomonlama foydalanish imkoniyati ta’minlanmoqda, gender tenglikni ta’minlashga, oiladagi zo‘ravonlikning oldini olishga va bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Amalga oshirilayotgan oila siyosati jamiyatga, oila va nikoh institutini mustahkamlashga, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlashga, onalik va bolalikni himoya qilishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, jamiyatning barqarorligi va izchil rivojlanishiga, ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolishga, baxtli va sog‘lom oilaviy hayot, bolalar tug‘ilishi va tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlarni

yaratishga, oilalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga yordam bermoqda.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, asrlar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy qiyofasi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilangan. Azal-azaldan ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek millatiga xos bo‘lgan ezgu xususiyat ekanini terak anglagan davlatimiz rahbari joriy-yil 8-mart Xalqaro-xotin-qizlar bayrami munosabati bilan tashkil etilgan tantanali anjumanda: “So‘nggi-yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to‘liq ta’minlash, ularning qadr-qimmatini ulug‘lash Yangi O‘zbekistonning davlat siyosatida yetakchi o‘ringa qo‘yilmoqda” – degan benazir so‘zlarida ham ana shu adoqsiz ehtirom namoyon bo‘lib turibdi. Bundan ko‘rinadiki, millatimizning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosligini anglagan holda mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Negaki, insonning eng sof va pokiza his-tuyg‘ulari, hayot haqidagi ilk tushuncha va tasavvurlari avvalo oilada shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar: yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham O‘zbekistonda oila, bolalar va yoshlar huquq va erkinliklari yangi Konstitutsiyada to‘liq o‘z aksini topgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oila, bolalarning sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi, shuningdek yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda yoshlarning barqaror rivojlantirish uchun-musta-kam huquqiy zamin yaratib berdi.

Yangidan tahrir qilingan Konstitutsiyamizning 14-bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan bo‘lib, beshta huquqiy normani o‘z ichiga olgan. 76-moddada, Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasida ekani; nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishi haqida belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, yuqorida aytib o‘tilgan moddaning uchinchi bandida Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi deb belgilab qo‘yilgan norma tom ma’noda aytib o‘tilgan fikrlarning tasdig‘i bo‘lib, jamiyatda oilaning mustaqil rivojlanishi uchun xizmat qilishi, shubhasiz!

Bugungi kunda otalik, onalik va bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa’y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi. Shu asnoda, Konstitutsiyaning 78-moddasida keltirilgan normalar tom ma’noda, Yangi O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat hisoblanib, davlat oilaning, bolalarning va yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishini faqat Konstitutsiya va qonunlar asosida

ta’minlaydi, degan tamoyil hayotga tatbiq etilishining kafolati ekanligidan yaqqol darak beradi.

Muxtasar qilib aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida oila, bolalar va yoshlar huquqlari kafolatlarini ta’minlashga qaratilgan normalardagi asosiy e’tibor, davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilganini ishonch bilan ta’kidlash mumkin.

Mamlakatimizda tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash borasida ham salmoqli islohotlar olib borilmoqda. Prezident tadbirkor ayollarning rolini alohida ta’kidlab, ularni “Yangi O‘zbekistonning bunyodkor ayollari” deb atadi hamda ularga chuqur minnatdorlik izhor etib, ular uchun qanday qo‘shimcha sharoit va yengilliklar kerak bo‘lsa, yaratib berish uchun tayyorligini bildirdi.

Davlat rahbari Savdo-sanoat palatasi huzurida Tadbirkor ayollar kengashini tashkil etishni taklif qildi. U “to‘g‘ridan-to‘g‘ri parlament oldida sohada tadbirkor ayollarni tashvishga soladigan hayotiy masalalarni ko‘taradi”. Endi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha 4 bosqichli yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi.

Birinchi bosqichda biznesga qiziqqan, lekin ko‘nikmasi bo‘lmagan 20 ming nafar xotin-qiz tadbirkorlikka o‘qitiladi. Ikkinchi bosqichda o‘zini-o‘zi band qilgan 100 ming nafar ayolning kichik tadbirkor bo‘lishi uchun ko‘maklashiladi. Uchinchi bosqichda har bir tumanda 2 tadan kichik korxona namunali o‘rta biznes darajasiga olib chiqiladi. To‘rtinchi bosqichda Savdo-sanoat palatasi eng faol 50 nafar ayol tadbirkorni-yillik aylanmasi 100 mlrd so‘mdan oshadigan “chempion tadbirkor”ga aylantiradi.

Hozirda xotin-qizlarning ilm-taraqqiyotdagi o‘rnini kengaytirish, ularning iqtidorlarini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizda xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining huquqiy vakolatlarini kengaytirish, faoliyat samaradorligini yanada oshirishga ham katta e’tibor berilmoqda. Bugungi kunda xotin-qizlarning salmoqli qismi ta’lim muassasalarida, nodavlat notijorat tashkilotlarining ta’lim, ayollar huquqlari, reproduktiv salomatlik, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, atrof-muhitni himoyalash kabi sohalarda samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Har qanday tuzum va har qanday ijtimoiy muhitda xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy faolligini oshirish orqali oila farovonligiga erishiladi. Oila farovon bo‘lsa, bu o‘z navbatida, jamiyatning ravnaqiga olib keladi. Shuning uchun xotin-qizlar masalasini olib chiqish orqali jamiyat miqyosida tahsinga loyiq juda ko‘p vazifalarni bajarish mumkin. Ayolga xos bo‘lgan ma’naviy fazilatlar uning tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne’mat va go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Ayol ma’naviyati ijtimoiy hayotning yorqin ko‘zgusi ekanligiga ishora qilib, Prezident Shavkat Mirziyoyev:

“Bitta qizni o‘qitsak, butun oilaga ta’lim bergan bo‘lamiz. Agar oila bilimli, ma’rifatli bo‘lsa, jamiyatning ongi, madaniy darajasi ham yuksaladi. Ayollari o‘qimishli va kasb-hunarli bo‘lgan yurtda tinchlik va taraqqiyot bo‘ladi. Ayollari ma’rifatli bo‘lgan xalq albatta baxtli bo‘ladi”, - deydi .

Chunki ayolda ham oilaviy turmush, ham iqtisodiy va siyosiy hayot o‘z aksini ko‘rsatadi. Ayol ma’naviyatining har bir qirrasi jamiyat ijtimoiy siyosiy hayoti bilan uzviylashadi. O‘zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug‘larimiz, faxriylarimizning, shu bilan birga mazkur ishga da’vat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, olimlarning va umuman barchaning asosiy vazifasi bo‘lib qoladi.

Ayolni ulug‘lash va uni himoya qilish borasida qabul qilingan muhim xujjatlar ayollarning barcha qatori mehnat va ijod qilishi, ijtimoiy hayotda va davlat qurilishida ishtirok etishi lozimligini isbotlab berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ayollarning turli soha va tarmoqlarda mamlakat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo‘shayotganini fakt va raqamlarda ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 2017-yilda boshqaruv sohasida xotin-qizlar o‘rtacha 20 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozirda bu raqam 35 foizga yetgani, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizini, Senat a’zolarining 27 foizini ayollar tashkil etganining o‘ziyoq O‘zbekistonda ayollarning ulug‘lanishiga yaqqol misol bo‘-a olad-.

O‘zbekistonda oila instituti va ayollar nufuzining yuksalishiga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotgan ekan, endi ayollarning gender tengligi, ya’ni erkaklar va ayollarning-teng huquqliligi borasida tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari masalalariga kengroq e’tibor qaratish lozim.

Modomiki gender tengligi, ya’ni erkaklar va ayollor teng huquqliligi - bu nafaqat insonning asosiy huquqlaridan biri, balki tinchlik, farovonlik va barqaror taraqqiyotga erishishning zarur negizidir. Gender tenglik mamlakatimizning barcha sohalarda rivoj topgan deya olamizmi? Gender teng imkoniyatlar ta’minlansagina, biz o‘zimiz ega bo‘lgan bebaho resurs - inson kapitalidan to‘laqonli foydalana olamiz. Aynan shu boisdan, hozirda gender tengligini ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ayni paytda Gender tenglik indeksida mamlakatimiz 188 ta davlat orasida 57-o‘rinni egallab turibdi. Bu ko‘rsatkichni yurtimizda xotin-qizlar ta’lim olishi va iqtisodiy faolligi yuqori darajada ekani bilan izohlash mumkin. Shu ma’noda, mamlakatda gender tenglikni ta’minlash borasida ham so‘nggi ikki-yilda juda katta qadam tashlandi. Sohaning xalqaro standartlarini o‘z ichiga olgan jiddiy qonunlar qabul qilindi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar shular jumlasidan bo‘lib, ularda gender tenglikka erishish sohasidagi tizimni takomillashtirish yuzasidan bir qator amaliy tadbirlar belgilab berildi.

Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasining faoliyati tashkil etilgani ham masalaning naqadar ahamiyatli ekanini ko‘rsatib turibdi. Shunday bo‘lsada, ushbu masalada birgina gender migratsiyasi misoliga e’tibor qarataylik. Agar gender nuqtai nazaridan

qaraydigan bo‘lsak, migrant xotin-qizlar duch kelayotgan o‘ziga xos muammolari bor. Masalan avvalo, ularning daromadlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, migrant xotin-qizlar erkaklarga nisbatan kam daromad topadilar. Ushbu masalaga chuqurroq kiradigan bo‘lsak, bu holat migrant xotin-qizlarning ruhiyatiga salbiy psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Migrant xotin-qizlar erkaklarga qaraganda, jamiyat va oilasiga qaytishi, oilaviy munosabatlarni yomonlashuv va uzilishi muammolarga ko‘proq to‘qnashadilar. Erkaklarning uzoq muddatli migratsiyasi ham oilaning parchalanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shunday vaziyatda Gender strategiyasi bir qator aniq maqsadlarni ilgari suradi. Misol uchun, ichki va tashqi mehnat migratsiyasini majmuaviy tahlil qilib, shu asosda me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi belgilanishi lozim. Xorijdagi ayol migrantlarni, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va huquqlarini himoyalashni ta’minlash bo‘yicha majmuaviy chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Xorijda oilaviy ishga joylashtirish, ya’ni bir oila a’zolari bo‘lgan erkaklar va ayollarni bitta ishga joylashtirishning tashkiliy tomonlari ko‘rib chiqilishi kerak. Bundan tashqari, mamlakatlar o‘rtasida samarali o‘zaro harakatlanishni qo‘llab-quvvatlash, mazkur yo‘nalishda davlat va xususiy bandlik agentliklari orqali xorijda ishga joylashishning afzalliklari to‘g‘risidagi keng qamrovli tadbirlar va axborot-targ‘ibot kampaniyalarini o‘tkazish lozimligini davr taqozo qilmoqda.

Eng muhim masalalardan yana biri shundaki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish va mehnat bozoriga kirib kelayotgan xotin-qizlarni, iqtisodiy faollik bilan qamrab olish uchun ishbilarmonlik, investitsion muhitni yaxshilashga alohida e’tibor berish kerak. Strategiyaga ko‘ra, xotin-qizlarning iqtisodiy resurslardan, shu jumladan, ko‘char va ko‘chmas mulk, er, moliyaviy kreditlar, jamoatchilik jamg‘armalari, shuningdek, erkin tanlangan tadbirkorlik faoliyati turlaridan teng foydalanish huquqi qo‘llab-quvvatlanishi zarur. Bu borada mamlakatimizning chekka va uzoq qishloq hududlardagi xotin-qizlarni munosib ish bilan ta’minlash bo‘yicha turli ijtimoiy dasturlar doirasida salmoqli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Demak, jamiyatda gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish kabi murakkab masalalar birgina davlat hamda jamoat tuzilmalari zimmasiga yuklatilgan vazifa emas. Bu jarayonda barcha fuqarolar, ya’ni sizu-biz, barcha opa-singillarimizning faol ishtirokini kuchaytirish muhim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 1-aprel. 30-bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 4-martdagi “Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi QQ-311/1-IV-

son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi “ Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-son qarori.

5. Raximova R.A. Dissertatsiya. “O‘zbekistonda oila axloqiy madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari”, 2025-yil.

Y.Xoliqov,
Samarqand davlat chet tillar instituti
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

NIKOHNING AXLOQIY-ESTETIK MOHIYATI, TASNIFI VA VAZIFALARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada nikoh marosimi, o‘zbek xalqi nikoh munosabatlari tushunchalari, uning boshqa turdosh tushunchalar bilan aloqasini qiyosiy tahlil qilishga, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqlarni ochib berishga harakat qilingan. Shu bilan birga nikoh marosimlarining rivojlanishini axloqiy-estetik obyekt sifatida tanlab, uning ijtimoiy xususiyatlari va nikoh marosimlarining estetik funksiyalari hamda evolyutsiyasi jarayoni yoritilgan.*

♦ ***Abstract:*** *In this article, we first try to make a comparative analysis of the concept of marriage, the relationship between the Uzbek people and their relationship with other related concepts, to reveal their relationship and differences. At the same time, we choose the development of wedding ceremonies as an ethical and aesthetic object, and seek to illuminate its social features and the aesthetic functions and evolution of marriage ceremonies.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *nikoh, jamiyat, marosim, axloq, estetika, shariat, urf-odat, Avesto, qonun.*

♦ ***Key words:*** *Marriage, society, ritual, ethics, aesthetics, sharia, tradition, Avesto, law.*

Nikoh so‘zining o‘zbek tilida ikki xil lug‘aviy ma’nosi bor. Nikoh (arab. – uylanish, er-xotinning qovushishi) – er-xotinlikni shariat yo‘li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domulla tomonidan o‘qiladigan shartnoma[1]. Ya’ni, erkak va ayol turmush qurishining islomga xos diniy shakli. Shariat oilaviy munosabatlarni tartibga soladi va nikohga, birinchi navbatda, ikki tomonning majburiyati va huquqlariga asoslangan shartnoma sifatida qaraydi[2].

Hozirgi vaqtda nikoh ikki xil – dunyoviy va diniy mazmunga ega. Dunyoviy ma’nosiga ko‘ra, nikoh – er-xotinning o‘zaro roziligi bilan huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoqi, er-xotinlik[3]. Boshqacha qilib aytganda,

dunyoviy mazmunda nikoh turmush qurayotgan erkak va ayolning fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida (FHDYO) ro‘yxatdan o‘tishini anglatadi. A.Fitratning ta’kidlashicha, nikoh – bu hayotda do‘st, baxt va baxtsizlikda sherik, g‘am-qayg‘u vaqtida hamdam, xushnud damlarda bir-birlariga yor bo‘lishni istagan erkak va ayolning shaxsiy va ijtimoiy vazifalarini birgalikda bajarishlari lozim bo‘lgan ittifoqdir[4]. Nikoh – er-xotin o‘rtasidagi tenglik va o‘zaro xohish asosida tuzilgan ahdu paymon bitimidir, muhabbat va mehr bilan hayotda sherik bo‘lish demakdir. Shu bilan birgalikda, nikoh jamiyat tomondan tasdiqlangan nasl va jinslar o‘rtasidagi munosabatlar shaklini o‘zida ifoda etadi, ya’ni jinsiy aloqa va nasl qoldirishni tartiblashtiradi[5].

Nikoh insoniyatning ijtimoiy munosabatlarga kirisha boshlaganidan paydo bo‘lgan maxsus urf-odat orqali oilaning bardam va mustahkam bo‘lishiga qaratilgan jamoatchilik tomonidan nishonlanib, dastavval, odat, keyinchalik yozma tarzda qonunlashtirilgan marosimdir.

Qadimgi ajdodlarimiz turmush tarzida oila va nikoh an’analarining alohida mezonlari ko‘hna Sharqning buyuk ma’naviy yozma merosi “Avesto” kitobida bayon qilingan[6]. “Avesto”da aytilishicha, zardushtiylar jamoasida oila muqaddas sanalgani bois ko‘p xotinlik qat’iy man qilingan va ayni paytda hayotni bo‘ydoq o‘tkazish ham qoralangan. Bundan tashqari, ushbu manbada nikoh va taloqning o‘ziga xos mezonlari ham keltirilgan[7]. Zardushtiylik dini qoidalariga ko‘ra, zardushtiy erkak kishi o‘n yetti yoshda uylanish huquqiga ega bo‘ladi. Ammo uylanmasa, unda tamg‘a bosilib, badnom qilish maqsadida, beliga maxsus zanjir bog‘lab yurishga majbur etilgan.

Turon zaminida qadimgi nikoh shartnomasi tuzish an’anasi mavjud bo‘lganligini so‘g‘diy yozma manbalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, Mug‘ tog‘idan topilgan so‘g‘diy hujjatlarda turk hoqoni Utteginning so‘g‘d ayoli Dudg‘uncha bilan tuzgan nikoh shartnomasi bayon qilinadi[8]. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda rasm bo‘layotgan nikoh shartnomasi tuzishga oid qarashlar bizning zaminimizda bundan bir necha yuz-yillar oldin, o‘rta asrlardayoq rasm bo‘lgan ekan.

Shu ma’noda olib qaralganda, “Nikoh – ikki jins vakillarining o‘zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoq”dir[9]. Bu faqat jismoniy juftlashish emas, balki, ma’naviy-ruhiy mushtaraklik hamdir. Insonning boshqa jonzotlardan farqli jihati ham ana shu bilan bog‘liq. Nikoh ijtimoiy hodisa bo‘lganligi uchun guvohlar ishtirokida amalga oshiriladi. Sababi, jamoatchilikka ikki jins vakilining oila qurayotganligini oshkor qilish hisoblanadi. Nikoh tushunchasiga ta’rif berishda uning ana shu jihatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Insonning shaxsiy ehtiyojlari tasnif qilinganda, uning nozik tuyg‘ulari va ijtimoiylikning ontologik mohiyatini ochib beruvchi nikoh marosimining alohida o‘rni borligini e’tirof etish kerak. Nikoh insonni munosib yashashga, hayotning ma’nosini anglashiga, jamiyat rivojlanishining ma’lum davrini institutsionallashtirishga qaratilgan etnoijtimoiy hodisadir. Nikoh insonga hayotda ma’lum tamoyillar asosida yashashga, ijtimoiy munosabatlarga tizimli, institutsional yondashishga olib kelgan. Nikoh marosimlari insonning real ehtiyojlarini quyidagi

tamoyillar asosida tartibga keltirgan va munosib yashash madaniyatini shakllantirgan. Bular: *1) o‘z-o‘zini saqlash ehtiyoji, 2) o‘z-o‘zini ko‘paytirish ehtiyoji, 3) shaxsni rivojlantirishni ta’minlash ehtiyoji, 4) o‘z mulkini ko‘paytirish va saqlash ehtiyoji, 5) o‘z hissiyoti va tuyg‘ularini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji*.

Mazkur ehtiyojlarni qondirish, manfaatlar ko‘pligi va yashash uchun kurash jarayoni insonlarni ma’lum qonun-qoidalar, ta’qiq va tabular asosida yashashini takomillashtirishga majbur qilgan. Nikoh marosimlari jamiyatning huquqiy rivojlanishi sharoitlarida o‘z ma’nosini saqlagan holda rivojlanib kelgan. Yuqorida sanab o‘tilgan ehtiyojlarning xilma-xilligi nikoh marosimini turli rakurslarda o‘rganishga asos bo‘lgan[10].

Nikoh marosimlariga estetik obyekt sifatida murojaat qilinmagani sababli, bu boradagi tadqiqotlar falsafiy, axloqiy qarashlar bilan birgalikda uchraydi. Binobarin, tadqiqotda nikoh marosimlarini estetik tadqiqot obyekti va mavzu predmeti sifatida nazariy asoslashga harakat qilinadi.

O‘zbekistonda nikoh tushunchasi, nikoh marosimlari va oilaviy marosimlarni etnologik va etnografik nuqtai-nazardan o‘rganishda faollik mavjud. Ushbu tadqiqotlarni Saidov shuni ko‘rsatdiki, nikohning kelib chiqishi, uning turlari, zamonaviy jamiyatdagi nikohning ko‘rinishlari, nikoh marosimlarining milliy xususiyatlari demografiya, etnomadaniyat, tarixshunoslik usullari orqali tahlil qilingan.

Huquqiy nuqtai nazardan nikofard-ua qurishga qaratilgan yuridik rasmiylashtirilgan erkak va ayolning erkin va xohishiy ittifoqi sifatida talqin qilinadi[11]. Bunda shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlar borligi o‘rtaga tashlanadi. Ko‘rinib turibdiki, bunday yondashuvda masalaning huquqiy jihatlariga alohida e’tibor berilgan. Jumladan, har bir shaxs uchun nikoh erkinligi, mulkiy masalalar va majburiyat nazarda tutiladi. Jamiyatda nikoh uchun falsafiy yondashuvning axloqiy normalari asos bo‘lmay, balki huquqiy me’yorlarga,ya’ni nikohdagi huquqiy majburiyatlarga asosiy e’tibor qaratiladi. Nikoh tushunchasiga qurilayotgan oilani rasmiylashtirilish vositasi sifatida va barchaning bu nikohni nazorat qilishi ana shu jarayonlarning huquqiy me’yorlar bilan yoritilishi sifatida yondashiladi.

Bunday yondashuvda oila o‘zining ijtimoiy tartibotlariga ega kichik jamiyat sifatida qaraladi. Nikoh esa, ana shu bo‘lajak kichik jamiyatning dastlabki ijtimoiy shartnomasi, ikki jins vakillarining kelishuvi sifatida ilgari suriladi. Lekin nikohdan maqsadi ikki jins o‘rtasida nafaqat ijtimoiy ittifoqni shakllantirish, balki o‘zaro hurmat va sevgi, muhabbatga asoslangan munosabatlar masalasi ochiq qoladi.

Falsafiy yondashuvda, avvalo, axloqiy normalar mas’uliyat, ishonch, hurmat va estetik normalar, sevgi, vafo, muhabbat markaziy o‘ringa chiqadi.Falsafiy qarashlarga ko‘ra, nikoh ijtimoiy mohiyatga ega bo‘lgan axloqiy- estetik hodisa hisoblanadi. Nikohda barcha ehtiroslar axloqiy me’yorlarga ega bo‘ladi. Har qanday nikohda ham tabiiy ehtiyojni amalga oshirish muhim sanaladi, unda axloqiy qadriyatlar va estetik qiymatlar keyingi o‘ringa qo‘yiladi. Shuningdek, nikoh oila qurish

uchun muqaddas sanalib, jamiyatda yuksak qadrlanadi. Agar huquqiy normalarga asoslangan nikoh qilinsa, unda oila barbod bo‘ladi. Shu boisdan nikoh diniy ko‘rinishda ham, dunyoviylikda ham bir-birini to‘ldirishi kerak. Ko‘pincha er yoki xotinning xiyonati tufayli ayrim oilalarda ajrimlar sodir bo‘ladi. O‘rtada oila barbod bo‘lib, er-xotinning jamiyatdagi mavqei tushadi yoki ko‘plab muammolar kelib chiqadi. Umuman nikohni tegishli davlat organlari bekor qilish huquqiga ega. Har bir jamiyat o‘zining kelajagi uchun oilalarning ajralishini oldini olishga intiladi. Oilalarning tinch-totuv yashashi mavjud jamiyatning barqaror qiladi.

Nikohdan maqsad jamiyatda oilali bo‘lib, farzand tarbiyalash hisoblansa, jamiyatning eng muhim yacheykasi ham oila sanaladi. Oila so‘zining o‘zbek tilida besh xil lug‘aviy ma’nosi mavjud. Oila – bu jamiyatda ota-ona, farzandlari va barcha yaqin qarindoshlaridan (tug‘ishganlari) iborat bo‘lgan birgalikda yashaydigan xonadon[12]. Uning bir-biriga yoqish boshqa ma’nolari ham mavjud bo‘lib, ko‘proq jamiyat, jamoa birliklari, xalq, mamlakatlar yoki o‘simlik va hayvonlarda guruhlarni, qardosh tillar guruhini aytish mumkin. Undan tashqari, lug‘atdagi oila so‘zlashuv tilida rafiqa, xotin ma’nolarini ham anglatadi[13].

Islom ensiklopediyasida nikoh tushunchasiga sharh keltirilgan, oilaga ta’rif berilmagan[14]. Ayrim manbalarda oila – nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan[15] bir tizim sifatida qarashlar mavjud. Ilmiy manbalarda ham nikoh va oila tushunchalarini bir xil tushunuvchilar ham uchraydi.

Inson jamiyatda axloqiy imperativlar qurshovida yashar ekan, avvalo, oila, jamiyat talablarini so‘zsiz ado etib boradi. Insonning juftlashish marosimi nikoh deb nomlanib, oila degan institut bilan mustahkamlanadi. U qanchalik axloqiy voqelik bo‘lmasin, unda insonning tuyg‘usini, hissiyotini ro‘yobga chiqarish, hissiyotini jilovlab, bir tizimga solish jarayoni aks etib turadi. Nikohdan o‘tish shartlari, avvalo, axloqiy mazmun kasb etadi, keyin huquqiy mezonlar asosida erkak va ayol o‘rtasidagi ittifoq tuziladi. Ikki qarama-qarshi jins vakilining uzoq muddatli birligini ta’minlovchi kelishuv hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillarni hisobga olib, nikoh tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: nikoh – ikki qarama-qarshi jins yoki kishilar o‘rtasida vujudga keladigan ittifoq bo‘lib, u o‘zida axloqiy imperativlar, estetik tuyg‘ular va huquqiy me’yorlarni jamlaydigan marosimlar majmuasidir.

Umume’tirof etilgan nikoh qurish tamoyillarini quyidagilar tashkil etishi mumkin:

- erkin nikoh. Bunda nikoh quruvchi tomonlarning nikohga nisbatan ixtiyor erkinligi, ya’ni erkin turmush qurish imkoniyati;
- tomonlarning tengligi. Bunda nikohlanuvchi tomonlarning irqiy, diniy jihatdan cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- er-xotinlik munosabatlarining umrbodligi;
- vorisiylik. Farzandlar dunyoga keltirish va tarbiyalash;
- nikohni belgilangan huquqiy normalar asosida qurish. Ma’lum yosh

senziga amal qilish. Qonunda belgilangan idoralarda rasmiy nikohni rasmiylashtirish.

Nikoh barcha davrlarda ham haqiqiy oilaning takomillashuvi va rivojlanishiga ma’naviy, huquqiy asos bo‘lib xizmat qilgan. Nikoh yangi qurilayotgan oilaning davlat, jamoat tomonidan rasmiy ravishda tan olinishidir. Shu sababli ham, nikohni qayd etish davlat organlarining vazifalaridan biri bo‘lgan, uning me’yor va maqsadlari qonunlar bilan belgilangan. Barcha diniy ta’limotlarda nikohning shakli va maqsadlari masalasiga befarq qaralmagan.

***Adabiyotlar ro‘yxati**:*

1. Nikoh // O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan or-iq so‘z va so‘z birikmalari. J. III. N – Tartibli // Tahrir hay’ati: T., Mirzayev (rahbar) va boshq. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilm. nashr., 2006. – B. 38.

2. Nikoh // Islom. Spravochnik / Usmonov M.A. Tahriri ostida – Toshkent: 1987. 2-nashri. – B. -39-140.

3. Niko- // O‘zbek tilining izohli lug‘ati… 2006, – B. 38.

4. Ergasheva M. Fitrat merosida nikoh va oila masalalari // Qonun himoyasida. – Toshkent, 2003. – № 4 (88). – B. 28.

5. Semya. Sotsialno-psixologicheskiye i eticheskiye problemы… –M., 2001, – S. 12.

6. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. –Toshkent:Sharq, 2001. – B.22.

7. Ashirov A. “Avesto”dan meros marosimlar. –T., 2001, -B. 8,24.

8. Ichoqov M. Unitilgan podsholikdan xatlar. –T., Fan, 1992. –B. 41.

9. “O‘zbekiston milliy enseklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.–T., 2003. 6-jild. –B. 355.

10. Tosheva G.S. XX asrda Qashqadaryo vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlari: Tarix fan. nomz... dis. – Toshkent, 2002. 24-25-betlar.

11. http: //.e-reading.club/chapter.php/98800/16.

12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.– Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2007. 3-jild, – B.97.

13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.– Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2007. 3-jild, – B.97.

14. Qarang: Oila // Islom. Ensiklopediya: A-H // Z. Husniddinov tahr. ost. – Toshke t: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashr., 2003. – B. 313.

15. Bo‘riyev O., Saidov A. Oila // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Miriy – Parxish Tahrir hay’ati A. Abduvohitov, A. Azizxo‘jayev, M. Aminov, T. Daminov va b. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 469.

Madina O‘rolova,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi roli jamiyatning barcha sohalaridagi o‘zgarishlarni va taraqqiyotlarni aks ettiruvchi muhim masalalardan ekanligi ilmiy adabiyotlar orqali tahlil qilingan hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan misollar keltirilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the role of women in social and political life as one of the key issues reflecting changes and progress in all spheres of society. The topic is examined through scientific literature and supported by examples from the experiences of developed countries.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *ayollar, jamiyat, xalqaro tashkilotlar, Konstitutsiya, qonunlar, mukofotlar, imkoniyatlar.*

♦ ***Key words:*** *women, society, international organizations, Constitution, laws, awards, opportunities.*

Ayollarning jamiyatdagi o‘rni tarixiy davrlar mobaynida doimo o‘zgarib borgan. Davlatlar demokratiya yo‘lini tanlab, fuqarolik jamiyatini qura boshlagan bugungi kunda ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatdagi ishtiroki juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Ayniqsa XX asr boshlaridan boshlab ayollarning siyosatdagi o‘rni oshib, ular o‘z huquqlari uchun kurashishda muhim qadamlar qo‘ya boshladi. Masalan, Hindistonda Indira Gandi, Buyuk Britaniyada esa Margaret Tetcher kabi Vatani taqdiri uchun befarq bo‘lmagan iste’dodli ayollar o‘z mamlakatlarining boshqaruvida faol ishtirok etdilar, bu esa ayollarning siyosatdagi o‘rnini yanada mustahkamlanishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari ayollarning jamiyatdagi rolini mustahkamlash uchun davlatlar va turli xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro va milliy tashabbuslar ishlab chiqildi va bu hozirgacha davom etmoqda.

Bugungi kunda dunyoda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi qator xalqaro tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Jumladan, BMTning Ayollarni qo‘llab-quvvatlash tashkiloti (The United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women) 2010-yil 2 iyulda tashkil etilgan. Ushbu tashkilot ayollarning siyosiy va ijtimoiy rolini mustahkamlashga e’tibor berib, ayollarni qo‘llab-quvvatlash va gender tengligini ta’minlashga qaratilgan global tashabbuslarni amalga oshiradi. Tashkilotning asosiy yo‘nalishlaridan biri ayollarga qarshi zo‘ravonliklarni kamaytirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash

xizmatlarini kengaytirish, shuningdek onalik huquqlarini kengaytirishdir [1].

Ayollar uchun global jamg‘arma (The Global Fund for Women) 1987-yilda Kaliforniyaning Palo Alto shahrida to‘rtta jasoratli ayol – Ann Firt Myurrey, Frensis Kissling, Loroy Lederer va Nito Barrou tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, u ayollar va qizlarga qaratilgan xayriya tashkiloti hisoblanadi hamda gender tengligi va ayollarning huquqlari sohasidagi tashabbuslarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi [2].

Ayollar milliy tashkiloti (National Organization for Women) 1966-yil 26 iyunda AQSH tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, dunyo bo‘ylab ayollarni siyosatga jalb etish maqsadida ayollar uchun maxsus kvotalar va mexanizmlar ishlab chiqish tashabbuskori bo‘lgan. Masalan, Ruandada ayollar parlamentda 60% ulushga ega bo‘lib, bu o‘zgarish gender tengligini ta’minlashga yordam berdi. Bundan tashqari bu tashkilot tomonidan bir nechta ayollar huquqlarini ta’minlashga qaratilgan loyihalar ishlab chiqilgan [3].

O‘zbekiston xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va manfaatlarini ilgari surish sohasidagi barcha asosiy xalqaro konvensiyalarga qo‘shilgan hamda BMTning tegishli komissiyasi ishida faol ishtirok etmoqda.

Yuqorida keltirilgan xalqaro tashkilotlar faoliyatini va tajribasini o‘rgangan holda respublikamizda ham ushbu sohaga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, davlat va jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash borasida qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 58-moddasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlilik kafolatlangan [4].

2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ham xotin-qizlar bo‘yicha alohida vazifalar va yo‘nalishlar belgilangan. Bu vazifalar ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan. Jumladan, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash [5].

Bu vazifalar O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlash uchun muhim qadamlar hisoblanadi. Strategiya ayollarni mustahkamlash va ularga o‘z salohiyatlarini to‘liq amalga oshirish imkoniyatini berishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2 sentabrdagi O‘RQ-561-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni [6] ayollar huquqini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda, avvalo, xotin-qizlarni nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik o‘tkazishga doir asosiy tushunchalar berilgan.

Shuningdek, jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko‘rsatgan, o‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shgan xotin-qizlarga beriladigan “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

Shu bilan birga, bugungi kunda respublikamizda ayollarga qarshi

zo‘ravonlikka qarshi kurashish, ularning ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi imkoniyatlarini kengaytirishga alohida urg‘u berilmoqda hamda buning amaldagi isboti sifatida Ayollar huquqini himoya qilishni ta’minlash sohasida umumiy vakolatli davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga mahalliy davlat hokimiyati organlari ham kiradi. Ularning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (100-modda), “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi (13-14-moddalar) qonunida mustahkamlangan. Ularga binoan, mahalliy davlat hokimiyati organlari ayollar huquqini ta’minlash bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, hududiy dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda amalga oshirish, ayollarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish kafolatlarini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish vakolatiga ega. Ayollar huquqini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi maxsus davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Ushbu Vazirlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18 fevraldagi PF-5938-son “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [7] farmoni asosida tashkil etildi.

Shuningdek, jamiyatda yangi ma’naviy makon yaratishda xotin-qizlarning faolligini qo‘llab-quvvatlash, farzand tarbiyasi, oila, xotin-qizlar ma’naviyatini yuksaltirishda jamoatchilikka, eng avvalo, yoshlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata oladigan obro‘-e’tiborli va katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, faol va tashabbuskor ayollarning say-harakatlarini birlashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2022-yilning 8 avgust kuni Vazirlar Mahkamasining “Oqila ayollar” harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu harakatning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi. Jumladan, jamiyatda ezgu g‘oyalar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, muqaddas an’analarni singdirishga qaratilgan tizimli targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish; ayollar, ayniqsa, yosh qizlarda oilaga va Vatanga sadoqat, fidoyilik, tashabbuskorlik tuyg‘ularini singdirish; farzand, ayniqsa, qizlar tarbiyasi, oila, onalar ma’naviyatini yuksaltirish, oilalarda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ‘ib etish, o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlikni shakllantirish, oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlashga ko‘maklashish; xotin-qizlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish, ularga qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqchil tilda tushuntirish kabilar [8].

Ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi rolini mustahkamlash uchun bugungi kunga qadar ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Dastlab, ko‘plab jamiyatlarda cheklangan huquqlarga ega bo‘lgan ayollarga jamiyat hayotiga kirish uchun bir muncha cheklangan imtiyozlar berildi, lekin bugungi kunda esa siyosat, iqtisodiyot va boshqa sohalarda faol ishtirok etib, jamiyatni rivojlantirishda

muhim rol o‘ynamoqda va ayni vaqtda esa cheklanmagan huquqlarga ega bo‘lishdi va bu tegishli qonunlar orqali mustahkamlandi. Masalan, xalqaro va milliy qonunlar, tashkilotlar va tashabbuslar yordamida ayollarning huquqlari himoya qilinmoqda, ularning jamiyatdagi o‘rni yanada mustahkamlanmoqda. Ayollarni siyosatga, iqtisodiyotga va jamiyatning boshqa sohalariga jalb qilish hamda ularning huquqlarini himoya qilish borasidagi islohotlarni yanada kuchaytirish zarurligi ta’kidlanmoqda va bu jarayonni qisqa fursatda amalga oshirish uchun tegishli choralar ko‘rilmoqda. Bu narsalar o‘z o‘rnida kelajakda faqat va faqat ayollarning jamiyatdagi rolini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. The United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women) // https://www.unwomen.org/en/about-us/about-un-women

2. The Global Fund of Women. https://www.globalfundforwomen.org/

3. National Organization For Women. https://now.org/about/

4. O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi 2023-yil 30-aprel. https://lex.uz/docs/-6445145

5. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi PF-158 sonli farmon. https://lex.uz/docs/-6600413

6. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi qonuni (2019-yil 2-sentabr) // https://lex.uz/docs/-4494709

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni (2020-yil 18-fevral) https://lex.uz/uz/docs/-4740345

8. Vazirlar Mahkamasining “Oqila ayollar” harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yilning 8-avgustdagi qarori. https://lex.uz/docs/6146271

IV. YOSHLAR QADRIYATLARIDAGI YANGILANISH: GLOBAL TA'SIRLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Ismoil Saifnazarov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,
falsafa fanlari doktori

TALABA YOSHLAR DUNYOQARASHIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY FANLARNING ROLI

♦ ***Annotatsiya:*** *Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Jumladan, yoshlar kattalardan: suvga tupurma, nonning uvog'i ham non, yoshi ulug'larning yo'lini kesib o'tma, ota-onangning gapini ikkita qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo'lma kabi nasihatlarni eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar. Yoshlar bizning kelajagimiz, ular ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz – milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir. Ayniqsa, globallashuv deb atalmish bugungi zamonamizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Bu vazifani uddalashda esa gumanitar fanlarning o'rni katta. Shu ma'noda ta'lim tizimi va yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini mustahkamlashda milliy qadriyatlarga oid boy ma'naviy merosimizdan va ijtimoiy fanlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maqolada ayni mavzu har tomonlama ochib berilgan. Shuningdek, maqolada Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida vatanparvarlik, milliy g'urur, bag'rikenglik, oilaparvalik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirish uchun, mustaqil ish sifatida "Mening mahallam – mening faxrim" mavzui bo'yicha loyiha yo'lga qo'yilgani, ularni taqdimot qilish jarayonlari talabaning dunyoqarashiga ijobiy ta'sir etayotgani, ularda ma'lum bir ma'naviy yuksalish sezilayotgani haqida ham so'z boradi.*

♦ ***Abstract:*** *In Eastern traditions, instilling national values into the minds and hearts of children begins within the family. Young people grow up hearing advice from elders such as: "Don't spit in the water", "Even a crumb of bread is bread", "Don't cut off an elder's path", "Always obey your parents", "Respect your teachers" and "Do not be indifferent to your surroundings". They also listen to stories, proverbs, and wise sayings that shape their memory and character. Youth are our future; they are the successors of their parents and ancestors. Our main goal is to educate a well-rounded person based on national and spiritual values. Especially in today's era of globalization,*

achieving harmony between national and universal values remains a top priority. Social sciences play a key role in fulfilling this task. In this context, the use of our rich spiritual heritage and social sciences to strengthen the education system and young people's moral worldview is highly appropriate. The article explores this topic in depth. It also discusses how a student project titled "My Mahalla – My Pride" has been launched at Tashkent State University of Economics to foster values such as patriotism, national pride, tolerance, family devotion, and compassion. The process of presenting these projects has positively influenced students' worldview, leading to noticeable spiritual growth.

♦ ***Kalit so'zlar:*** *milliy, umuminsoniy, ijtimoiy fanlar, ma'naviyat, yoshlar, mahalla, qadriyatlar, ta'lim-tarbiya.*

♦ ***Keywords:*** *national, universal, social sciences, spirituality, youth, mahalla (neighborhood community), values, education and upbringing.*

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlari, an'analarisiz tasavvur qilish qiyin. "Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim".[1,7 b.];

Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Keyingi vaqtlarda O'zbekistonda milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Ma'lumki, qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Shunday bo'lsa-da, qadriyatlarning eng oliysi insonning o'zi, hayoti, huquqi va erki, sog'lom va farovon turmushi hisoblanadi.

Ota-bobolarimiz ilm o'rgatish bilan birga farzandlarimizga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan mil iy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar. O'zbeklarning aksariyati yaqin odamlarning, qo'shnilarning omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir. Qadriyatlar – ma'naviy kamolot asosiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an'analarning ustuvorligiga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, – degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g‘ayrat bag‘ishlamoqda. [2,46 b.]

Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida yoshlarni milliy qadriyatlar asosida intellekti yuqori va vatanparvar qilib tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila” nomli asarida bolalarni “diqqatlari va zehnlari chuqur va jiddiy bo‘lishiga o‘rgating.... Ko‘rganlari ustidan tez xulosa chiqarmasinlar”, – deya ta’kidlab, farzand tarbiyasiga e’tibor berish lozimligini uqtiradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatimizning qomusiy hujjati bo‘lib, bu hujjat tahlil qilinganida unda yoshlar tarbiyasi, axloq-odobi, ijtimoiy himoyalangani ma’lum bo‘ldi. Jumladan, bunyodkorlik g‘oyalariga sodiqlik, yuksak mas’uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, demokratik-huquqiy davlat, fuqarolarning tinchligi, milliy totuvlik, xalqimizning urf-odatlari va an’analari, qadriyat-ari, ijtimoiy hayotda mafkuralar xilma-xilligi va erkinligi, inson va jamiyat munosabatlaridagi ijtimoiy adolat, dunyo hamjamiyatida xalqlar va millatlarning suveren tengligi, fuqarolarning e’tiqodi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar qonun oldidagi tengligi, sha’ni va obro‘sining daxlsizligi, fuqarolarning vijdon erkinligi, adolatli mehnat, ijod erkinligi va har bir shaxsning madaniy yutuqlardan foydalanish erkinligi, yosh avlodni tarbiyalash va bepul ta’lim olishi kabi fikrlar keltirilgan bo‘lib, ular Bosh Qomusimizda huquqiy jihatdan kafolatlangan. [3];

Erishilgan yutuqlar qatori yoshlarimizning ayrim qismida mavjud bo‘lgan, ba’zan yangidan paydo bo‘layotgan salbiy holatlar, ushbu vaziyatga ayrim kattalarning munosabati-yu o‘sha yoshlarning bunday illatlarga nisbatan yondashuvi xavotirli. Ba’zi yoshi ulug‘larning yoshlarimiz dunyoqarashidagi muayyan salbiy o‘zgarishlarga nisbatan “zamon o‘zgardi, yoshlar ham o‘zgardi-da yoki bunday holni “tabiiy jarayon” sifatida tahlil etishga urinishlar ham mavjudki, bu har qanday ilm ahlini tashvishga solishi tabiiy. Bugungi globallashuv va tezkor rivojlanish davrida insonlar o‘zgarmoqda, qadriyatlar transformatsiyasi yuz bermoqda. Bular “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi.

Davlatimiz rahbarining “Yoshlar, xususan, o‘smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo‘lyapti? Ba’zi yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani – achchiq bo‘lsa-da, haqiqat”, – degan fikrlari ham bejiz emas.

[4, 86 b.]; Bunday ma’lumotlar kishini beixtiyor o‘yga toldiradi. Xo‘sh, o‘smirlar ota-ona, maktab, mahallaning qurshovida, e’tiborida bo‘lsa-da, bunday guruhlarga qanday qo‘shilmoqdalar? Ma’lumki, inson huquqbuzarlik yo‘liga jamiyat, oila, maktab bilan uzviy aloqaning uzilishi tufayli kiradi. Prezidentimizning “Yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajrashishlar ko‘payib bormoqda. Begunoh bolalar yetim bo‘lib, mehr va e’tiborga eng tashna vaqtida ota ona tarbiyasidan chetda qolmoqda. Yana bir noxush holatni bugun afsus bilan aytmoqchiman: oilalarda nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda, – degan fikri barcha oilalar, ta’lim-tarbiya tizimi, oila bilan bog‘liq davlat va jamoat tashkilotlarining bu masalaga ilmiy, amaliy va innovatsion jihatdan yondashishlari zarurligini ko‘rsatmoqda. Bunday holatlarning oldini olishda bolani yoshligidanoq uning xulqi shakllanishiga, milliy-axloqiy, ma’naviy-madaniy qadriyatlar, milliy istiqlol mafkurasi asosida Vatanga sodiq qilib tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Bunday avlodni tarbiyalashda ijtimoiy fanlarning o‘rni katta. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham deyarli har bir chiqishida yoshlar va kadrlar tayyorlash mavzulariga to‘xtala-tgani hamda bunda ijtimoiy fanlar o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlayotgani bejiz emas, deb o‘ylaymiz. Davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ham ijtimoiy fanlarni o‘qitishni chuqurlashtirish masalasiga chuqur to‘xtalgan. [5, 231-233 b.]; Nega milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishishda ijtimoiy fanlarning o‘rni muhim? Chunki bizga aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o‘zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodi hozirgi sharoitda biz uchun nihoyatda muhim. Biz shunday avlodni etishtirmasak, yoshlarimiz bir tomonlama tarbiya topadi. Manqurtga aylanib qoladi agar ma’naviyatli bo‘lmasa.

Sovetlar davrida ham ijtimoiy fanlarni o‘qitishga e’tibor kuchli edi. Ayniqsa, falsafa, tarix, huquqshunoslik, siyosatshunoslik kabi gumanitar fanlardan darslar yo‘lga qo‘yilgan. Ammo ijtimoiy fanlarning barchasi marksizm-leninizm g‘oyalariga bo‘ysundirilgan bo‘lib, zamini puch bu g‘oyalar komil insonni tarbiyalay olmadi, kadrlarni boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘ydi. Oqibatda jamiyat tanazzulga yuz tutdi. Dapvlat parokanda bo‘ldi. Mustaqillikning ilk yillarida respublikamizda ijtimoiy fanlarni yangi prizmadan o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Biroq O‘zbekistonda 1990 yillar o‘rtalaridan ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texnokratik yondashuv, bu boradagi masalalarga “o‘gay” qarash shakllana boshladi. Afsus bilan ta’kidlash kerakki, haligacha uzluksiz ta’lim bosqichlarida, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni qancha hajmda va qanday yo‘nalishlarda, qay bir shaklda va qanday mazmunda o‘qitish va o‘rgatish bo‘yicha yaxlit konsepsiya yo‘q. Ayrim uzoqni ko‘ra olmaydigan “arboblar”ning “Ijtimoiy fanlardan foyda yo‘q” qabilidagi nojo‘ya qarashlari oqibatida ushbu fanlarning salmog‘i va sifatini tushirib yuborishga yo‘l qo‘yildi. [6, 230 b.]; Bu yo‘nalishda kimningdir subyektiv yondashuvi ta’sirida biror-bir fanni joriy

etish, boshqa birini esa yo‘qotish, kafedralarni qo‘shish va ularda professor-o‘qituvchilar sonining haddan ortib ketishi bilan bog‘liq tez-tez ro‘y berib turadigan “tajribalar”, ijtimoiy fanlar olimlari va mutaxassislari, professor-o‘qituvchilarning mehnatiga muttasil skeptik munosabatda bo‘lish holatlari sohaga jiddiy ziyon yetkazdi. Aynan ana shunday holat ushbu yo‘nalishning ayrim vakillarida “Biz va bizning fanlarimiz kerak emasmi, bizga ham hech narsa kerak emas. Shunchaki topshiriqlarni bajarib, fanlarimizni o‘qitib va darslarimizni o‘z vaqtida o‘tib yursak bo‘ldi”, degan tasavvur shakllanishiga sabab bo‘lgan. Vaholanki, ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, falsafa, huquqshunoslik, arxeologiya, sharqshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san’atshunoslik va boshqa sohalarda yuksak natijalarga erishilgan.

Bizning nazarimizda OTMlarda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni jiddiy qayta ko‘rib chiqib, ijtimoiy fanlarni mazmunan boyitgan holda ularni o‘qitishni yo‘lga qo‘yish uchun Prezidentning shu tavsiyasi va talabi yetarli asos deb hisoblaymiz. Zero, ijtimoiy soha boshqa texnik va iqtisodiy, tijorat, moliya, xo‘jalik sohalari kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri katta daromadlar keltirmaydi. Lekin, jamiyatning ma’naviy bo‘shlig‘i orqali yuz beradigan oqibatlar va ofatlar tuzatib bo‘lmaydigan kulfatlarga sabab bo‘lishi mumkinligini bugun hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Afsuski, bunday harakat tarafdorlari bizning yurtdoshlarimiz va dindoshlarimiz orasida ham uchrab turibdi. Yana bir global tahdid hisoblangan diniy mutaassiblik, uning oqibatlaridan biri bo‘lgan global terrorizm, johilona adovatkorlikka asoslangan diniy oqimlarning paydo bo‘lishi bizni ijtimoiy fanlar o‘rnida paydo bo‘lgan bo‘shliqni, savodi haminqadar bo‘lgan, chalamullalar va ularning xorijdagi gumashtalarining na dinga na insoniy ma’naviyatga mos kelmaydigan g‘oyalarning urchib ketishiga olib keldiki, buning oqibatini tasavvur qilish insonni dahshatga soladi. Ijtimoiy fanlarni kamaytirgan holda yetuk mutaxassislarni tayyorlash mumkindir. Ammo, haqiqiy vatanparvar, millat uchun g‘am chekadigan insonni tarbiyalash ancha mushkul ish. Uchinchi Renessans haqida qanchalik ko‘p gapirmaylik, harakat qilmaylik, uning tub mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlarning yordamisiz yoshlar ongiga singdirib bo‘lmaydi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar uchinchi Renessans boshlanishi va rivojlanishining “Katalizatori” hisoblanadi. Aynan, ijtimoiy-gumanitar fanlar xalqni va butun millatni uyg‘otishga qodir “yuksak kuch” hisoblanadi.

Kezi kelganda yana bir masalaga to‘xtalmoqchiman. Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida falsafa fanidan vatanparvarlik, milliy g‘urur, bag‘rikenglik, oilaparvalik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirish uchun, mustaqil ish sifatida **“Mening mahallam – mening faxrim”** mavzui bo‘yicha loyiha yo‘lga qo‘yilgan. Talabalar o‘z mahallasi tarixi, hurmatli insonlari, an’analari, zamonaviy hayot faoliyati haqida albom-taqdimot tayyorlaydilar, ularni guruhda, mahallada taqdimot qiladilar, mahalla rivoji bo‘yicha o‘z taklif va tavsiyalarini tayyorlaydilar. Ushbu loyiha Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2017 yildan beri davom etib kelmoqda, shu o‘tgan davrdagi kuzatuvimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, loyihalarni bajarish, izlanish olib borish, ularni taqdimot qilish jarayonlari talabaning dunyoqarashiga ijobiy

ta’sir etmoqda, ularda ma’lum bir ma’naviy yuksalish sezilmoqda. Ushbu tajribadan kelib chiqib, shunday xulosaga keldikki, tajribani butun respublikaga tarqatish zarur, buning uchun esa Oliy ta’lim vazirligi, Mahallalar uyushmasi va Yoshlar ittifoqi qo‘shma qaror qabul qilishi maqsadga muvofiq. “Mening mahallam-mening faxrim” loyihasini bajarishda ortiqcha dabdababozlik qilish yaramaydi, aksincha, bu oddiy kundalik ishimiz sifatida bo‘lishi kerak, ya’ni, Oliy ta’lim muassasalari majburiy fan hisoblangan Falsafa fanini o‘qitish jarayonida mustaqil ishni bajarish uchun talabalarni o‘z mahallalariga yo‘llaydi, tayyorlagan taqdimoti uchun tegishli balini beradi.

Mahallalar esa talabalarga loyihani bajarish uchun shart sharoit yaratadi, Yoshlar yetakchisi talaba bilan hamkorlik qiladi, talabani mahalla faoliyatiga jalb qiladi, xuddi shunday- mahalla xotin-qizlar faoli talaba qizlarimiz bilan hamkorlik qiladi. A’lochi, jamoat ishlarida faol talabalar va ularning ota onalari “Mahalla” uyushmasi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan moddiy va ma’naviy rag‘batlantiriladi, bu esa yoshlar, umuman aholining ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi, mahalla ham jonlanadi, yoshlar o‘z mahallasi bilan tanishadi, keyinchalik qayerda bo‘lishidan qatiy nazar, ozgina bo‘lsa ham mahallasini eslab turadi. Xullas, bu tashkilotlar hamkorligida ushbu loyihani bajarsak, har yili mahallalarga kamida 300-400 ming talaba boradi, bu esa katta muvaffaqiyat degani, bu – jamiyatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishishga katta hissa degani.

Xulosa. Ijtimoiy fanlarga e’tibor bermaslik oqibatida dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o‘zidan boshqani o‘ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona bo‘lgan va bugungi kunda chet ellarda “boy berilgan avlod” deya atalayotgan yoshlar avlodi bizda ham vujudga kelmaydimi? Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida “bundan 60-70 yil ilgari ikkinchi jahon urushidan keyingi qiyinchilik va moddiy taqchillik yillarida xorijda ishlab chiqilgan va asosan, ma’naviyat va gumanitar ta’limga pul sarflash zarur emas, deb hisoblangan va mutlaq g‘oyasizlikka asoslangan ijtimoiy konsepsiyaning oqibatlari qanday bo‘lganini bugun ko‘rib turibmiz, deya ta’kidlaydi. [7, 232 b.]; Demak, ijtimoiy fanlarni o‘qitishga pulni ayamasligimiz kerak. Besh yil o‘tar, o‘n yil o‘tar sarflangan mablag‘ izsiz ketmaganligining guvohi bo‘lamiz. Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur kabi davlatlar tajribasi ham ta’lim va tarbiyaga sarflangan moliya o‘zini oqlaganini butun dunyoga namoyon qildi. Agar ijtimoiy fanlarga pulni qissak, yana eski yo‘l o‘zanlariga tushib qolamiz. Bunga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Shunday ekan, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlarni qay tarzda taqsimlash, o‘qitish va amaliyot soatlarini qanday tashkil etishga doir maxsus konsepsiyani ishlab chiqish zarur ehtiyojga aylandi. Shu sababli Prezidentimiz o‘zining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida aytganidek, “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari to‘g‘risida” qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji mavjud. Bu jihatdan, 2022 – 2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi” yaratilishi va amalga oshirilishi maqsadga

muvofiq.[8,b.]; Shundagina biz iqtisod sohasida ham chinakam har tomonlama bilimli zamonaviy kadrlarni tayyorlashga erishamiz. Haqiqatdan ham, biz katta niyatlar bilan poydevorini qo‘yayotgan yangi Uyg‘onish – Renessans davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimiz hayotini farovon qilishga va kelgusi avlodlarga o‘zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to‘plami). –T; “O‘zbekiston”, 1997. B.7

2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016. -b.46.

3. https://constitution.uz/uz/clause/index

4. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016. –b.86

5. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.T.: 2022, 231-233 b.

6. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.T.: 2022, 230 b.

7. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.T.: 2022, 232 b.

8. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.T.: 2022, 234 b.

Assoc. Prof. Dr. Musa Y. Alptekin
Journalism and Mass Communication University,
Department of Sociology, Tashkent/Uzbekistan
Karadeniz Technical University,
Department of Sociology, Trabzon/Turkey

THE TRANSFORMATION OF VALUES AMONG CONTEMPORARY UZBEK YOUTH: A COMPARATIVE ANALYSIS WITH TURKEY

♦ ***Abstract:*** *This study explores the evolving value system of Uzbek youth in the post-Soviet era, emphasizing the impact of globalization, digitalization, education, and economic change. Through a comparative analysis with Turkey, it highlights shifts toward individualism, modern interpretations of Islam, the influence of social media, changing gender roles, and a growing focus on education and career development. The findings suggest a dynamic synthesis of tradition and modernity within contemporary Uzbek society.*

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu tadqiqot mustaqillikdan so‘nggi davrda o‘zbek yoshlari orasidagi qiymatlar tizimidagi o‘zgarishlarni o‘rganadi va globallashuv, raqamlilashuv, ta’lim hamda iqtisodiy o‘zgarishlarning ta’sirini ta’kidlaydi.*

Turkiya bilan qiyosiy tahlil orqali individualizmga intilish, Islomning zamonaviy talqinlari, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri, jinsiy rollardagi o'zgarishlar va ta'lim hamda kasb taraqqiyotiga bo'lgan ehtiyojning o'sishi kabi tendensiyalar yoritilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy o'zbek jamiyatida an'ana va zamonaviylik o'rtasida yangi bir sintez shakllanayotganini ko'rsatadi.

♦ ***Keywords:*** *Uzbek youth, value transformation, globalization, digitalization, education, career development, individualism, cultural change, tradition, modernity.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *o'zbek yoshlari, qiymatlar transformatsiyasi, globallashuv, raqamlilashuv, ta'lim, kasb taraqqiyoti, individualizm, madaniy o'zgarish, an'ana, zamonaviylik.*

Introduction

Following the dissolution of the Soviet Union, Uzbekistan, having gained its independence, has witnessed profound transformations in its social structure. One of the areas where this transformation is most clearly felt is the value world of the younger generations. Factors such as globalization, digitalization, educational opportunities, and economic transformation are reshaping traditional value systems. This study seeks to explain the fundamental trends and directions of the value system changes observed among Uzbek youth, through a comparative analysis with Turkey.

General Changes in Uzbek Society

It is possible to examine the value world of Uzbek society from historical, religious, and cultural perspectives. Throughout its history, Uzbekistan has been shaped by the presence and contributions of various ancient societies (Kandiyoti, 1998). Religiously, Islamic influence has been dominant over the past millennium, preceded by traces and effects of many other religions in the region. Culturally, there has been a shift from nomadism to settled life, from village life to urban adaptation. Thus, all these systems across time, space, belief, and culture have influenced Uzbek culture.

Today, in the value world of the Uzbek individual, it is possible to observe the essence of all these systems. Presently, Uzbek society is experiencing a transitional period from traditional culture to modern culture. The most significant factors of this transition are urbanization, globalization, mass media, the internet, and social media.

Within this general framework, if we were to draw a cultural X-ray of the Uzbek people by highlighting their characteristic features, certain key aspects could be identified. First, the Uzbek society is loyal to its own culture and is relatively conservative. This conservatism can be detected on a geographical basis, in cultural experience, and within a religious framework.

The second prominent feature of Uzbek society is its patience,

calmness, tolerance, and dignified demeanor. In hospitals, marketplaces, and bus stops, people can patiently wait their turn with remarkable maturity.

The third characteristic of Uzbek society is its hospitality. Uzbeks treat guests visiting their homes, villages, or neighborhoods with great hospitality and without the slightest shortcoming in generosity. Meals and offerings presented to guests are among the primary indicators of social prestige. The proverb “Mehmon keldi, devlet keldi” (“When a guest arrives, prosperity, fortune, and happiness arrive”) reflects this understanding. One notable manifestation of hospitality in Uzbek culture is through festive gatherings (toys). Uzbek weddings are notably grand and centered around lavish food and drink.

Here, one can observe traces of the potlatch culture, known among ancient Central Asian societies. The larger the toy one organizes and the more toy aşı (special wedding meals) they provide, the greater their prestige and respectability.

The fourth feature of Uzbek society is its strong sense of social responsibility. In contrast to the global trend towards individualism, Uzbeks are communitarian and society-oriented. Individualism never reaches the level of selfishness. This can best be observed in the way people hold or carefully release the swinging metal gates at metro entrances and exits, considering those who come after them.

Examples of altruism are common in public transportation. Young people, in particular, are sensitive to offering their seats to elders and assisting women with children in carrying strollers up or down stairs.

The fifth characteristic is the Uzbeks’ inclination toward commerce and trade. Their two-thousand-year-long experience along the Silk Road has cultivated their commercial skills, resulting in a nation of merchants.

The sixth feature is that Uzbeks are generally happy people. They dislike stress, hustle, and rush. When they meet daily, they greet each other in Uzbek by asking “Çerçemediniz mi?” (“Are you tired?”) and bid farewell by saying “Çerçemeyin” (“Don’t tire yourself”), expressing wishes for well-being.

The fundamental features of a society and culture are embedded not only in their stable behaviors but also in their language.

Trends in the Transformation of the Value World of Uzbek Youth and Comparison with Turkey

1)From a Strict Traditional Structure to a Measured Individualism:

In traditional Uzbek society, the identity of young people was largely defined by their status within the family, neighborhood, and community. Today, individual freedom, personal achievement, and career goals are increasingly prioritized. Young people are now acting more autonomously in matters such as marriage, profession, and lifestyle choices, moving away from the constraints of strict traditional and communal structures (UNFPA Uzbekistan, 2022).

Nevertheless, in Uzbekistan, there exists a form of individualism that

remains respectful to tradition. This could also be interpreted as a synthesis and blending of tradition and modernity.

By contrast, in Turkey, particularly in large cities, these boundaries have long been crossed, and a form of individualism that largely disregards tradition and spiritual values has become widespread.

2)Harmonization of Religious Beliefs with Modern Life:

Following the post-Soviet religious revival (Olcott, 1995), today's youth view Islam more as a component of cultural identity, living their faith through a more individualized interpretation. According to Khalid (2007), adherence to rigid traditional religious rituals is decreasing, and a phenomenon known as "cultural Islam" is becoming widespread among youth.

Cultural Islam can be understood as a religious interpretation compatible with modern conditions and national identity.

In Turkey, while some youth move closer to religious communities and orders, a significant and expanding segment of the youth population is becoming increasingly secular.

In contrast, Uzbekistan's youth, though individualistic and freedom-seeking, tend to practice a respectful and tradition-conscious religiosity.

3)Global Influences: The Role of Digitalization and Social Media in Identity Construction:

Social media has become a powerful platform shaping the social relationships, identity perceptions, and lifestyles of young people. Applications such as TikTok, Instagram, and Telegram play a decisive role in both accessing information and enabling cultural interactions.

78% of youth reportedly use social media daily and engage with content related to Western lifestyles (Mamatova & Dzhuraeva, 2023).

In Turkey, the prevalence of internet and social media use among young people is even higher, and they devote significantly more time to these platforms. Although internet and social media literacy courses have been introduced as elective subjects in primary education, the use remains largely uncritical and inefficient.

4)Transformation of Women's Social Roles:

Young Uzbek women are accessing greater educational and employment opportunities and emphasizing independence, career development, and social impact over traditional gender roles.

However, clear distinctions still exist between urban and rural areas regarding these dynamics (UNDP, 2021; Adams, 2010).

At the same time, Uzbek women continue to acknowledge the traditional view that men are the leading figures both at home and in the workplace, maintaining a distinctive and balanced stance on gender roles.

In contrast, young women in Turkey have largely embraced the

ideology of absolute gender equality, which has, in many cases, undermined family harmony.

In this respect, Uzbek young women can be considered to occupy a much healthier and more balanced position.

5)Migration, Overseas Experience, and Value Transfer:

Young people who migrate abroad for education or work—particularly to Russia, South Korea, and Turkey—encounter new value systems and, through these experiences, develop a more rational relationship with the rigid traditional structures back home.

Among returnees, a profile emerges that is more open-minded, pragmatic, and critically reflective towards strict traditional norms (Turaeva, 2010; Fathi, 2007).

For Turkish youth, this phenomenon is especially characteristic of the children of workers who migrated to Europe, particularly Germany, about sixty years ago.

Whereas in Uzbekistan, these processes are just beginning, it is likely that similar outcomes to those seen in Turkey will eventually be observed.

6) Strengthening of an Education- and Career-Oriented Lifestyle:

Among youth, obtaining a university education and securing a good job are seen as primary elements of gaining social status.

Compared to traditional values, professional success and economic independence are prioritized.

There is a particularly noticeable increase in orientation toward STEM fields (science, technology, engineering, and mathematics) (UNICEF Uzbekistan, 2022; World Bank & UNICEF, 2022).

In addition, language learning is extremely popular. Uzbek youth, who are highly adept at learning languages, often speak at least two or three languages.

In Turkey, a sense of public satisfaction with university education has developed, and young people are increasingly turning to alternative pathways.

Some pursue internet-based careers such as YouTubing, often seen by the older generation as “trivial work,” while others opt for more traditional vocational pathways directly after high school.

In contrast, Uzbek youth exhibit a strong desire to pursue university education, particularly in fields such as engineering, computer science, and foreign languages.

Conclusion

Contemporary Uzbek youth display a profile that is more individualistic, digitally integrated, and open to global values compared to the traditional societal structure. This transformation not only reshapes lifestyles but also affects religious practices, family relationships, gender roles, and future aspirations. It is evident that a new synthesis between tradition and modernity is developing in Uzbekistan.

References / Adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Adams, L. L. (2010). The Specter of Youth: The Politics of*

Modernity in Post-Soviet Uzbekistan. Slavic Review, 69(3), 533–558.

2. Fathi, H. (2007). Gendering the Uzbek State: Nation-Building and Social Change. Central Asian Survey, 26(1), 123–135.

3. Kandiyoti, D. (1998). Post-colonialism Compared: Potentials and Limitations in the Middle East and Central Asia. International Journal of Middle East Studies, 30(2), 211–227.

4. Kamp, M. (2006). The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. University of Washington Press.

5. Khalid, A. (2007). Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. University of California Press.

6. Northrop, D. (2004). Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. Cornell University Press.

7. Mamatova, S., & Dzhuraeva, M. (2023). Digital life and youth identity in Uzbekistan. Journal of Central Asian Studies, 30 (1), 44–61.

8. Olcott, M. B. (1995). Central Asia's new states: Independence, foreign policy, and regional security. United States Institute of Peace Press.

9. Turaeva, R. (2010). Migration and identity in Central Asia: The Uzbek experience. Routledge.

10. UNDP. (2021). Gender equality in Uzbekistan: Progress and challenges. https://www.uz.undp.org

11. UNFPA Uzbekistan. (2022). Youth and values: A sociological survey in Uzbekistan. https://www.unfpa.org

12. UNICEF Uzbekistan. (2022). Youth education and employment pathways in Uzbekistan. https://www.unicef.org/uzbekistan

13. World Bank & UNICEF. (2022). Pathways to Youth Employment in Uzbekistan. https://www.unicef.org/uzbekistan

Parveen Kumar,
Director of English Language and
Communication American University
of Technology, Tashkent (Uzbekistan)

YANGI UZBEKISTAN: A NEW SPIRIT IN PROFESSIONAL DEVELOPMENT AMONG YOUTH

♦ ***Abstract:*** *Uzbekistan with the rich cultural and historical heritage is a prominent country in the Central Asia region. The unprecedented growth in various sector has received global acknowledgement and open news areas of development for the citizens. The peaceful nature of the country along with a welcoming access to foreign specialists in*

education, research, IT, business and industry and medical domains has got Uzbekistan a good name. All these developments have become possible by having a young population who are coming to the mainstream to contribute to modern areas. While we see that there is a readiness and positive scope of growth, there comes a responsibility of preserving the celebrated Uzbek Identity of reverence to values. Globalization should not defer the principle of value-based learning and contribution. This paper reflects about how the PUCP Model (Positive Utilisation of Creative Potential) can strength the idea of consistent and sustainable professional growth among youth.

♦ ***Annotatsiya:*** *Boy madaniy va tarixiy merosga ega bo‘lgan O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining yetakchi davlatlaridan biri hisoblanadi. Turli sohalardagi mislsiz rivojlanish xalqaro miqyosda e’tirof etildi va fuqarolar uchun yangi rivojlanish yo‘nalishlarini ochdi. Mamlakatning tinch tabiati va ta’lim, tadqiqot, axborot texnologiyalari, biznes, sanoat va tibbiyot sohalarida xorijiy mutaxassislar uchun ochiq bo‘lishi O‘zbekistonning yaxshi obro‘-e’tibor qozonishiga xizmat qildi. Barcha bu yutuqlar, zamonaviy sohalarga hissa qo‘shish uchun asosiy maydonga chiqayotgan yosh avlodning ishtiroki orqali mumkin bo‘ldi. Rivojlanish uchun tayyorlik va ijobiy imkoniyat mavjud bo‘lgan bir paytda, qadriyatlarga sadoqatli o‘zbeklik shaxsiyatni asrab-avaylash mas’uliyati ham paydo bo‘ladi. Globallashuv qadriyatlarga asoslangan ta’lim va faoliyat tamoyillariga xalaqit bermasligi lozim. Ushbu maqolada yoshlar orasida barqaror va izchil professional rivojlanish g‘oyasini mustahkamlashda “Ijodiy Salohiyatdan Ijobiy Foydalanish” (PUCP) modeli qanday rol o‘ynashi mumkinligi muhokama qilinadi.*

♦ ***Key words:*** *PUCP, Values, Professional Development, Skillgogy, EduSoMedia and PodMOOCs*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *PUCP, qadriyatlar, professional rivojlanish, Skillgogy, EduSoMedia va PodMOOCs*

Introduction

Uzbekistan, the gateway to prosperous aspect of Central Asia, is leading in many domains of modern business and industry. With a high number of ynuqtayiers coming out from schools and joining the higher education domain, there are huge developments happening in certain areas of service-related businesses. Be it logistics or IT, the country has been a brilliant growth. The investments are coming not just in IT or logistics BPOs, but the renewable energy and tourism has become the more attractive horizon to explore. The youth of the country is the driving force here but at the same time they are the most vulnerable people as well. In the quest to earn

more money by overworking in a very young age they may neglect professional development of their profile.

Professional Knowledge and Professional Competence

Uzbekistan's transformation in terms of global respect and investment has created a demand for skilled professionals who have a flair to learn and excel. Multinational companies are outsourcing their businesses to Uzbekistan where the young population is working day and night to match the offers. Logistics, for example, has become the most celebrated job area now. Going ahead from import-export, this call-center format job has engaged thousands of youngsters who can burn the midnight oil and spend more time in the calls. English is certainly the most crucial key here. Uzbekistan has two major languages, Uzbek obyektlaridan

Being a former USSR country, Russian has remained as a dominant language with the legacy. With multiple attempts to introduce English as an alternative to Russian has resulted in a drastic change in the school education. Children in a very young age can be seen speaking in fluent English.

This acceptance and adaptation have resulted in more knowledge flowing towards the education sector. The social science domain of education has got a great transformation towards Technology and Innovation. Interdisciplinary studies are also coming to the forefront. With international unsubyektlarningning their campuses in Uzbekistan, the scenario is bound to change as the medium of instruction will turn into English and the outcome will be the gain of more professional knowledge.

This compilation of international expertise will certainty pose a challenge to the national values of being culturally connected to the roots, staying enterprising and traditionally unique. There will certainly be a challenge to moral values as well. The discussion can nosubyektningwhat possible changes we have seen and what Yangi Uzbekistan needs to deliver to the youth of the country. Do not forget that with any kind of professional development of youth, children or adult population in work, professional competence must be inculcated.

There is a need to have a profound movement to reshape the spirit of the youth towards professional excellence. It seems to be a call to create a Renaissance! The 'Yangi Uzbekistan' we are talking about is made on three aspects: openness, innovation, and empowerment. The openness is of expression and access to world class resources. One can travel to any part of the world and have access to various technologies as well. The next aspect of innovation, which should be understood as 'Transformation' is the core of this thought.

This transformation, creativity and imitativeness has come to all areas now. Moving ahead to the third aspect of being a New Uzbekistan, Empowerment – the policies and the mission to reach out to people to bring them on a strong platform of economic security and social confidence is worth appreciating.

This is a promising beginning where the community has a lot to

contribute. The deliberations done in this conference and the subsequent publications are also in the evidence of community supporting the country's empowerment. Uzbekistan's youth has become part of modernization of norms in legal system, expanded global presence, transformations in the domain of education. This has brought skills of becoming multilingual, entrepreneurial, and globally competitive to achieve more jobs and HigherEd opportunities in prestigious institutions.

Yoshlar are our future!

This fact cannot be denied anymore. The direction taken by youth will be the direction of the countries new-age development. This can even be called future. There is a three-segment structure of professional development here, based on the values that Uzbekistan's History (*Tarikh*) has preserved:



Fig. 1. Professional Development With Values

Providing Global and reliable support to the Professional Development

In India, there was a Literary Workshop started by Mr. Anoop Lather as the Director of Youth and Cultural Affairs, Kurukshetra University. He practiced the Positive Utilisation of Creative Potential Model by training hundreds of young students every year in these workshops. For more than three decades the PUCP Model developed simple young minds into determined presenters, flag-bearer of their culture, with a global outlook. It was a residential workshop and training concept where he would invite the best thinkers from various domains to deliver the sustainable and global skills. At the same time to ensure that the blast of modernization does not kill the cultural values, he guided the youth to stay loyal to the rich cultural heritage. Without making them obsessive or blind followers, the students were developed into global citizens who would ultimately contribute to the betterment of the world.

In the PUCP Model, there have been 04 side convergence of various learnings:

- Guidance, not control: Following A Liberal Supporting Teaching Style
- Bridges, not barriers: Psychological Maturity
- Faith, not fear: Celebrating the cultural values of 'teach by example'
- Global Skill Development

Along with the PUCP Model, the professional development can be secured by integrating the development of SKILLS at the basic levels of

learning in the classroom and outside classroom. This is based on a concept of SKILLGOGY, being developed by modifying the age-old Pedagogy.

All curriculum, be it global or national should mirror the ambition of the *Yangi Uzbekistan*. The Uzbekistan 2030 Strategy is one such full-fledged model of 100 goals which are distinct yet same in terms of-the commitments needed. These goals are based on the right number of required changes and at the same time preserving the traditional values of Uzbekistan. This balance between tradition and modernity can be achieved and then sustained if we go for a significant project of 'Mirroring the Uzbekistan 2030 Strategy' with the school and university level curricula.

This observation is based on the work done at the American University of Technology in terms of Skill Development and Career Readiness. Making the earn global skills, certificates and teaching them with the benchmarked curricula adds to the employability while it also gives a wide horizon to grow beyond countries.

Conclusion

Making Youth a Part of the Plans, not just audience!

Yangi Uzbekistan – is not a distant dream but a path on which the country is moving forward. The challenge is to sustain and keep the momentum going by going global. The subjects we teach should be considered SKILLS and must be delivered in that way. Certificates and Diplomas should be considered but Skill must be given priority so that the country can match the world. At the same time, providing the youngsters a good amount of responsible participation in designing policies and solution will keep them connected to their land.

The future of Yangi Uzbekistan is being written today — in classrooms, in the startups and communities, in research labs, and in global forums — by the vibrant energy of our youth, our Yoshlar!

Let us give them not just our knowledge, but our encourageme-t, trust, support and a chance -o make mistakes – to quickly learn from them!

Let us help them not just to succeed, but to inspire the future of Uzbekistan!

To the Impeccable Spirit o- Yangi Uzbekistan: BRAVO!

Keep Growing!

Rasulova Nodira Sardarovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

O‘ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDAGI O‘RNI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab yoshlarga oid davlat siyosatini shakllantirish va takomillashtirish yo‘lida amalga oshirilgan islohotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda siyosiy partiyalarning yoshlar bilan ishlashdagi o‘rni keng tahlil etiladi. Xususan, siyosiy partiyalarning “Yoshlar qanoti” faoliyati, uning yoshlarning siyosiy-huquqiy ongi va faolligini oshirishdagi vazifalari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan.*

♦ ***Abstract:*** *The article provides a comprehensive analysis of the reforms implemented in Uzbekistan since independence to develop and enhance the state policy on youth. It examines the role of civil society institutions and political parties in engaging with young people. In particular, the article focuses on the activities of the "Youth Wings" of political parties, their functions in raising the political and legal awareness and activism of youth, the existing challenges, and offers recommendations for addressing these issues.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *yoshlarga oid davlat siyosati, siyosiy partiyalar, Yoshlar qanoti, siyosiy faollik, fuqarolik jamiyati, siyosiy islohotlar, yoshlar siyosati, siyosiy ong, demokratik jarayonlar, O‘zbekiston yoshlari.*

♦ ***Key words:*** *youth state policy, political parties, youth wings, political activity, civil society, political reforms, youth policy, political awareness, democratic processes, youth of Uzbekistan.*

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq jamiyatning eng asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan yoshlarga alohida e’tibor qaratila boshlandi. 1991 yil 20 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinganligi, keyinchalik esa 2016 yil 14 sentabr kuni “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi fikrimizning isbotidir. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun bilan yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari yana bir kafolatlandi. Ma’lumki, bugungi kunda dunyoda yoshlar 2 milliarddan ortiqroqdir. Mamlakatimizda esa 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar aholining 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 64 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar esa O‘zbekistonning kelajagi unib-o‘sib kelayotgan yoshlar qo‘lida ekanligini bildiradi. Yoshlar

masalasida mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan fuqarolik jamiyati institutlari hamda yoshlarimizning o‘rni beqiyosdir. Zero, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga alohida e’tibor berilgani ham bejiz emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 30 iyunning “Yoshlar kuni” deb e’lon qilinishi, 2018 yil 27 iyunda imzolangan “Yoshlar kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining tashkil etilganligi ham mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e’tibor namunasidir.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida yoshlar tushunchasiga nisbatan turli xil yondashuvlar mavjud. Xususan, BMTning ixtisoslashgan tashkiloti YuNESKO 17 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lganlarni yoshlar qatlamiga kiritadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida 16 yoshdan 30 yoshgacha (ba’zan 35 yoshgacha) bo‘lgan aholi vakillari yoshlar sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, MDH davlatlarining aksariyatida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar yoshlar hisoblanadi, ammo Ukrainada 14–35 [2], Qozog‘istonda 14–29 yoshlilar [3] ushbu toifaga kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasida esa 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar hisoblanadi [4].

Ma’lumki, siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy qarashlarini anglash, mushtarak manfaatlarini birlashtirish, har bir oila va mahalla hududidagi tabiiy-siyosiy intilishlarni partiyaviy doiraga jamlash, o‘z a’zolari va xayrixohlarini siyosiy jarayonlarga safarbar etish kabi vazifalarni bajarar ekan, o‘z faoliyati davomida jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lmish yoshlarga ham alohida e’tibor qaratmoqdalar.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy partiyalar “Yoshlar qanoti” bo‘limlari orqali mamlakatimiz yoshlarini jipslashtirish, ularning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil qilish, ularning giyohvandlik, turli buzg‘unchi g‘oyalarga berilishining oldini olish, shu bilan birga sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan turli ommaviy tadbirlar – sport musobaqalari, konferensiyalar, seminar-treninglar o‘tkazib kelmoqdalar.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 12 iyulda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasida: “...Siyosiy partiyalarning yoshlar o‘rtasida olib borayotgan ishlari, partiyalar qoshida tashkil etilgan «Yoshlar qanotlari»ning faoliyatini, afsuski, qoniqarli, deb bo‘lmaydi. Vaholanki, bugun mamlakatimizda yashayotgan 10 milliondan ortiq yoshlar hayotida qanchadan-qancha yechilmagan ijtimoiy muammolar borligini barchangiz yaqinda bo‘lib o‘tgan yoshlar qurultoyida yaqqol ko‘rdingiz” [5], – deb ta’kidlab, respublikamizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning yoshlar bilan ishlash jarayonidagi qator kamchiliklarini aytib o‘tgan edi. Ayniqsa, siyosiy partiyalarning Yoshlar Ittifoqi, tuman hokimlarining yoshlar

masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari bilan hamkorlikni kuchaytirib, uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e’tibor qaratilishi kerakligi ta’kidlandi.

Bugungi kunda quyidagilar yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faollik darajasining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda:

- davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar;
- oila, mahalla, ta’lim muassasasi, yoshlar tashkilotining faoliyatida ijtimoiy sherikchilik mexanizmining faol ishlashi;
- yoshlar tashkilotlari tomonidan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlar;
- yoshlar iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar o‘z yoshlar qanotlari orqali mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy ongini oshirishga, ular siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanib borishida o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Ammo ularning bu jarayonlardagi faoliyatini yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish lozim. Siyosiy partiyalarning yoshlar qanotlari o‘z maqsad va vazifalarini yoshlar o‘rtasida kengroq tashviq va targ‘ib qilishlari kerak, chunki ayrim yoshlarimiz hanuzgacha respublikamizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, ularning maqsad va vazifalari, mafkurasidagi farqlar haqida to‘liq ma’lumotga ega emaslar.

A.Lyurmanning fikricha, siyosiy partiyalar tarkibidagi Yoshlar qanotlari odatda yoshlarning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan to‘rtta asosiy funksiyalarni bajaradi.

Birinchidan, yoshlar qanoti partiya a’zolari siyosiy tayanch hisoblanadi. Yoshlar qanoti hamkorlik tarmoqlari yaratishni hamda shaxsiy yoki mavzuiy uyushmalar shakllantirishni osonlashtiradi. Agar yoshlar tuzilmasi o‘z assambleyalari hamda a’zolar kengashiga ega bo‘lsa, yoshlar qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, o‘z ko‘nikmalari va siyosiy qarashlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, partiya tarkibidagi kuchli yoshlar seksiyasi, yoshlar qanotiing “bitiruvchilari” bo‘lib, yosh avlodga targ‘ibotchilar va murabbiylar sifatida ta’sir ko‘rsatishlari mumkin.

Yoshlar qanotining ikkinchi muhim funksiyasi uning a’zolarini o‘qitish, ularga ta’lim berishda namoyon bo‘ladi. Yoshlar qanoti siyosatni ishlab chiqish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish, mentor dasturlari va faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha seminarlar tashkil qiladi.

Aksariyat siyosiy partiyalar o‘z yoshlar qanotlarini o‘zlari moliyalashtiradi, bunda harakatchan yoshlar sho‘basiga ega partiya ko‘proq yosh a’zolarni jalb eta olishi mumkinligini anglaydi. Bir necha o‘n yillar mobaynida bu kumulyativ samara bermoqda.

Yoshlar qanotining uchinchi funksiyasini partiyaviy siyosatni ishlab chiqishga va yetakchilarni tanlashga ta’sir ko‘rsatishi tashkil etadi. Partiyaning yosh a’zolari va yoshlar seksiyalari yangi va ilg‘or g‘oyalar taklif etishi hamda eskirgan siyosiy kursni o‘zgartirishga harakat qilishlari mumkin. Masalan, Kanadada “Yosh liberallar” har qish faslida siyosiy lager tashkil qiladilar. U yerda ular yoshlar partiya anjumanlarida ustuvor tartibda ilgari surishni istagan rezolyusiyalarni ishlab

chiqadilar, shuningdek, yoshlarni yagona blok bo‘lib ovoz berishga safarbar etadilar.

Nihoyat, yoshlar seksiyalari yosh saylovchilarning qamrovini kengaytirishlari hamda ularning partiyalarga ishonchini oshirishlari mumkin. Yangi a’zolarni jalb qilish va saylov kompaniyalari o‘tkazilishida yoshlar seksiyalari, albatta, o‘z tengdoshlari bilan qaysi tilda so‘zlashish mumkinligini va ular uchun faoliyatning qaysi jihatlari eng jozibali ekanliklarini biladilar. Eski partiya a’zolarining yoshlarga murojaat qilishga qaratilgan say’-harakatlari ko‘pincha natija bermaydi. Buning o‘rniga yoshlar qanotiga yosh saylovchilarni va bo‘lg‘usi partiya a’zolarini qamrab olish uchun budjetning maxsus ulushini yoshlar qanotiga ajratish imkoniyatnii ko‘rib chiqish mumkin [6, 29-30].

Yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, yoshlarga oid siyosat nafaqat mamlakatimizda, balki jahonda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakat rivojlanishining eng muhim shartidir.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasidagi ishlarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni berish maqsadga muvofiqdir:

- yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi faoliyatlariga yo‘l ochish va uni ta’minlash uchun ularning o‘zlaridagi faollik, siyosiy va iqtisodiy islohotlar jarayonlariga kamarbastalik, islohotlarga ishonch, demokratik qadriyatlarning abadiyligiga suyanish fazilatlarini tarbiyalash;
- yoshlarning yangilikka intilishi, tashabbuskorligi, erkin bozor iqtisodiyotiga tez ko‘nikishi, yangi yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlashi kabi mavjud yuqori saviyadagi va ijobiy yo‘naltirilgan salohiyatidan o‘z vaqtida xolis va rag‘bat asosida foydalanishga erishish, yoshlar tashabbuslarining “cho‘kib” qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- siyosiy partiyalarning yoshlar qanotlari o‘rtasida ma’lum bir mavzular doirasida (masalan, qonun loyihalari, elektorat manfaatlari, saylovoldi dasturlar va boshqalar borasida) bahs-munozaralar uyushtirish;
- siyosiy partiyalarning matbuot organlari va Internetdagi saytlarida e’lon qilib boriladigan maqolalar va xabarlarni doimiy ravishda yangilash, shuningdek partiya hisobotlari hamda statistik ma’lumotlarini keng ommaga taqdim etib borish;
- siyosiy partiyalarning markaziy organlariga ekskursiyalar uyushtirish va bu tadbirlar orqali yoshlarning siyosiy jarayonlarga qiziqishi va faolligini yanada oshirish;
- partiya fraksiyalarining a’zolari, shuningdek tajribali deputatlar bilan “Yoshlar qanoti” a’zolarining doimiy uchrashuvlarini, mahorat maktablarini tashkil etish, Ustoz-shogird tizimini yo‘lga qo‘yish;
- yoshlar o‘rtasida siyosiy ong va siyosiy tafakkur tamoyillarini keng singdirish, ularda siyosiy, huquqiy madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlarning o‘z siyosiy ongini oshirishi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun tabiiy rivojlanish tizimlarini yaratish va ulardan unumli foydalanish.

- yoshlar kayfiyatlari, manfaatlari va ijtimoiy-siyosiy ahvolini o‘rganish va ilmiy tahlil etish bo‘yicha turli sotsiologik tizimlar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli monitoringini amalga joriy etish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bugungi kunning eng muhim talabidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // www.gov.uz

2. Закон Украины “О содействие социальному становлению и развитию молодежи в Украине” от 5 февраля 1993 года № 2998-XII // uazakon.ru

3. Закон Республики Казахстан «О государственной молодежной политике» от 9 февраля 2015 года № 285-V ЗРК // online.zakon.kz

4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016 yil 14 sentabr // www.lex.uz

5. Mirziyoev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak // 2017 yil 12 iyul. www.prezident.uz

6. Расширение политического участия молодежи на всех этапах электоролного цикла (ПРООН). – Ню Йорк, 2013. – С. 29-30.

Marhabo Pardayeva,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Buxoro viloyati bo'limi rahbari, falsafa fanlari doktori, DSc

YOSHLAR QADRIYATLARINING O'ZGARISHIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BARTARAF ETISHNING INNOVATSION USULLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada O'zbekistonda zamonaviy jamiyatda axloqiy qadriyatlar va ma'naviy madaniyat rivojlanishining ahamiyati tahlil qilingan. Globallashuv jarayonida yoshlar qadriyatlari va dunyoqarashining o'zgarishi, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotga ta'siri yoritilgan. Maqolada zamonaviy texnologiyalar ta'sirida milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ma'naviy tarbiyaning ahamiyati, shuningdek, yoshlar ma'naviyatini mustahkamlashga qaratilgan amaliy takliflar keltirilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the importance of moral values and spiritual culture development in modern society in Uzbekistan. The transformation of youth values and worldview in the process of globalization, as well as the impact of information technologies and social networks on social and spiritual life, are discussed. The article highlights the preservation of national values under the influence of modern technologies, the significance of spiritual education, and practical proposals for strengthening the spiritual values of youth.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *zamonaviy jamiyat, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy madaniyat, yoshlar, globallashuv, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, ma'naviy tarbiya.*

♦ ***Key words:*** *modern society, moral values, spiritual culture, youth, globalization, information technologies, social networks, spiritual education.*

Ma'lumki, o'zbek xalqining tarixi, madaniyati va an'analarining yanada rivojlanishi, zamonaviy qadriyatlarning shakllanishi ijtimoiy jarayonlarning dinamikasini o'zgartirishga qaratilgan muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda globallashuv o'z ta'sirini o'tkazishi sababli qadriyatlar tizimi o'zgarib boradi. Qadriyatlar evolyutsiyasi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ularni qabul qilish va namoyon etish jarayonida davlat va jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda bu o'zgarishlar ta'lim, axborot texnologiyalari, gender tenglik va inson huquqlari sohalarida sezilarli bo'lmoqda. Qolaversa, yoshlarning milliy qadriyatlarni saqlashdagi o'rinlari, ularni hayotda qo'llashga harakat qilishlari va yangi innovatsion yondashuvlar bilan

jamiyatni rivojlantirishda faol ishtirok etishlariga muhim ahamiyat berilmoqda.

Yoshlar dunyoqarashida ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar, avvalo, oila va ta’lim muhitida shakllanadi. O‘zbekistonda yoshlarning qadriyatlari milliy an’analar, madaniyat, diniy va axloqiy me’yorlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning rivojlanishiga zamonaviy talablar ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Jamiyatdagi globallashuv jarayonlari, internetning rivojlanishi va texnik inqiloblar yoshlar qadriyatlarining shakllanishida muhim omillardan biri bo‘lib, yangi qarashlar, his-tuyg‘ular, manfaatlarni keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning ixtiro qilinishi insonning ma’naviy tarbiyasiga turli darajada ta’sir etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar aslida kimlarga va nima uchun kerak? degan savolga aniq javob yo‘q.

Ilgarilari internet va ijtimoiy tarmoqlardan vaqtni tejash, kerakli axborotlarni qidirib topish, ma’lumotlarni yuborish va yaqin do‘stlar bilan aloqani bog‘lash uchun foydalanilgan bo‘linsa, hozirda butun umrni unga baxshida qilinmoqda. Buning natijasida bugungi kunda kompyuter va mobil qurilmalar kundalik hayotning muhim bir bo‘lagiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar va media internetning bir qismi sifatida butun dunyo bo‘ylab odamlarning o‘zaro aloqasida yangi bosqichni ochib berdi.

Shuni ta’kidlash lozimki, zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalari katta rol o‘ynamoqda. Internet va raqamli texnologiyalarning rivoji, yangi media vositalari zamonaviy qadriyatlarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Inson va uning necha ming yillik ijod mahsuli bo‘lgan texnika o‘rtasidagi munosabatlar ham salbiy, ham ijobiy jihatlariga ega. Aslida, u ham inson tafakkuri mahsuli, ijodiy yutuqlaridan biri. Oxir-oqibat, insoniyatning o‘ziga qarshi ishlatilishi mumkin bo‘lgan quroldir.Ma’lumki, yoshlar ma’naviy tahdidlarga bardoshliligi sust, taqlidga moyilligi kuchli bo‘lgan demografik qatlamdir. Texnika inson tomonidan yo ezgulikka, yo yovuzlikka mudom yo‘naltirilib turiladi, ya’ni u o‘z holicha o‘ziga maqsad qo‘ya olmaydi, qandaydir faoliyatni mustaqil amalga oshirishga ham qodir emas. Bundan kelib chiqadiki, insonning o‘zi texnikani yaratuvchi va o‘z navbatida, uning faoliyatiga mazmun bag‘ishlovchidir. Lekin, hayotda yoshlarning texnik progress ta’siriga berilib, chuqurlashib o‘zining hayotiy maqsadlarini amalga oshirishdan yiroqlashib texnika va texnologiyalar qurboniga aylanayotganiga guvoh bo‘lyapmiz.

Insoniyat tarixida, xususan, globallashib borayotgan bugungi dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatar ekanmiz, jahondagi barcha voqelikning yaratuvchisi sifatida ma’naviyat va axloqning birlamchi omil ekanligini his qilish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, yangi pedagogik usullar va ijtimoiy aloqa kanallari yoshlarning o‘z hayotini tashkil qilishda muhim omillardan biri bo‘lib, ularning ijtimoiy, ma’naviy va shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning natijasida quyidagilar kuzatiladi:

1. ***Qadriyatlarning o‘zgarishi.*** Darhaqiqat, yoshlar uchun ahamiyatli qadriyatlar globallashuv jarayonida o‘zgarmoqda. Yoshlar milliy qadriyatlar

va an’analarga qaraganda asosan yangi, innovatsion g‘oyalarga e’tibor bermoqda. Bunda yangi texnologiyalar va madaniyatning ta’siri asosiy omil bo‘lib, yoshlar turli xil davlatlar va madaniyatlar orasida aloqa o‘rnatishda faol ishtirok etmoqda.

2. ***Ma’naviy-ma’rifiy rivojlanish.*** Innovatsion yondashuvlar yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishiga ham yordam bermoqda. Ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan yangi uslublar va raqamli resurslar yoshlarning axloqiy qadriyatlarga oid bilimlarini mustahkamlamoqda.

3. ***Shaxsiy rivojlanish.*** Yoshlarning shaxsiy rivojlanishida innovatsion yondashuvlar juda muhim. Interaktiv ta’lim usullari, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga qaratilgan treninglar, innovatsion dasturlar yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasining muhimligini tan olish bilan birga, yoshlarga yot bo‘lgan va jamiyatning ijtimoiy tuzilishini buzadigan ta’sirlardan himoya qilishga ham e’tibor qaratilmoqda. Afsuski, yoshlar dunyoqarashiga, qadriyatlariga ta’sir qiladigan salbiy holatlar ham jamiyatimizda ko‘p uchramoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning pirovard natijasi yoshlarning ongu-shuuri, ma’naviyatiga, ijtimoiy faolligiga bog‘liqdir.

Tarbiya shunday bir murakkab jarayonki, uning asosini xalq og‘zaki ijodi - pand-nasihatlar, o‘gitlar, rivoyat, maqol va boshqalar tashkil qiladi. Bularning barchasi ma’naviy merosimiz bisoti hisoblanib, asrlar osha o‘zining qimmatini saqlab qolgan va sayqallashgan. Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda manfaatlar to‘qnashuvi tobora kuchaymoqda [5, 82-b]. Globallashuv insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda. Mazkur vaziyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o‘zi talab etmoqda. Yoshlar ma’naviy tarbiyasida milliy merosning roli kattadir. Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarda ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik davomiyligini saqlashda, albatta, buyuk ajdodlarimiz, mutafakkirlarimizning ma’naviy merosini o‘rganish, targ‘ib qilish, amaliy hayotida qo‘llash katta ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Afsuski, ba’zi bir yoshlar tez va oson pul topish, boylikni ko‘z-ko‘z qilish, namoyishkorona hayot tarzi yuritish, birovga qilgan yaxshiliklarini “reklama qilish”ni hozirgi kunning “qadriyati” sifatida tan olmoqdalar. Bu esa o‘z navbatida yoshlar dunyoqarashida halol va harom, gunoh va savob, yaxshilik va yomonlikni farqlashda nuqsonlar vujudga kelganligini ko‘rsatmoqda.

Globallashuv jarayonida qadriyatlarning o‘zgarishi milliy qadriyatlarni hurmat qilish, uni qo‘llash barobarida namoyon bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham hozirgi kunda aynan ko‘p uchraydigan salbiy illatlarning oldini olishda tarixiy taraqqiyot davomida sinovdan o‘tgan qadriyatlarimizni saqlab qolish, buyuk mutafakkirlarimiz asarlarini targ‘ibot-tashviqot qilish davr talabidir. Xususan, bu borada so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning naqshbandiyona qarashlari muhim

o‘rin tutadi. Hammamizga ma’lumki, barkamollik, yetuklik Sharq madaniyatidagi eng ezgu orzu, maslak bo‘lib kelgan. Aslini olganda inson hech qachon komil bo‘lib tug‘ilmaydi yoki boshqacha qilib aytganda, birdaniga kamolotga erishmaydi. Komillikka erishish uchun inson ketma-ket kamolot bosqichlarni bosib o‘tmog‘i kerak [6, 44-b]. Tasavvufda bu kamolot bosqichlari maqomot, ya’ni maqomlar deb yuritiladi. Mutafakkir Navoiy o‘z asarlarida Bahouddin Naqshband asoslagan naqshbandiya kamolot yo‘li maqomlari haqida ma’lumot bergan [4, 9-b]. Naqshbandiya ta’limotining asosiy talablari bo‘lgan nafsni tiyish, halol luqma, insof, vijdon, diyonat kabi tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, buning natijasida farovon hayotga eltuvchi bag‘rikenglik, sabr-qanoatlilik, mehnatsevarlik, mehribonlik kabi insonparvarlik fazilatlari shakllanadi. Hozirgi kunda korrupsiya, ya’ni mehnatsiz daromadga ega bo‘lishga intilish jamiyat va davlat rivojidagi asosiy illat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimizda unga qarshi kurashning huquqiy bazasi takomillashmoqda. Fikrimizcha, bunday illatni oldini olishning eng to‘g‘ri va maqbul usuli naqshbandiya ta’limotining nafsni tarbiyalash, halol luqma talabida bo‘lish, mehnatsevarlik g‘oyalarini o‘ziga asos deb bilgan ma’naviy tarbiyani kuchaytirishdir. Ma’naviy tarbiyaning asosi esa, milliy-ma’naviy merosdir.

Ta’kidlash joizki, qadriyatlar evolyutsiyasida inson qadr-qimmati, ijtimoiy himoyasi sohasidagi islohotlar alohida ahamiyatga ega. Jamiyatda har kimga tenglikni, erkinlikni ta’minlash va inson huquqlariga hurmat bilan qarash davlat siyosatidagi eng muhim tamoyillarga aylangan. Ayniqsa, kam ta’minlanganlarga ijtimoiy himoyani kuchaytirish yo‘lidagi qadamlar O‘zbekistonda ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning ajralmas qismidir. Bu borada E.Ochilov Mehru-muruvvat, xuyru-saxovatda o‘zi namuna bo‘lgan Navoiy yozgan asarlari orqali kishilarni yaxshilik qilishga, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga chaqirganligini o‘rnak olishga arziydigan fazilatlardan biri sifatida keltirishimiz mumkin deydi [7, 74-b].

Navoiy qarashlaridagi komillikning muhim xislati sanalgan saxiylik, insonparvarlik xususida to‘xtalib o‘tish zarur. Odamiylik insonni inson qiladigan, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan nodir fazilatdir [3, 52-b]. Saxiylik esa, odamiylik, insonparvarlikning tarkibiy qismidir. Hazrat Navoiy saxiylikni hammaga ham qilavermaslikni, uni haqiqiy muhtojlarga, g‘arib, beva-bechoralarga qilish zarurligini maqsadga muvofiq, deb biladi. Mutafakkir fikricha, birovlarga saxiylik qilib, keyin minnat qiladiganlarni ham saxiylar qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi [2, 105-b]. Hozirgi kunda o‘zini ko‘z-ko‘z qilib, dasturxon yozib, noz-ne’matlar bilan to‘ldirib, kambag‘al-bechora, muhtojga emas, balki o‘ziga to‘q, badavlat insonlarga ziyofat berib, o‘zini saxovatpesha qilib ko‘rsatadiganlar yo‘q emas. Aslida bu riyo, tamagirlik, tilyog‘lamalik, xushomadgo‘ylik, kibr, hashamatga o‘chlik va isrofgarchilikdir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek oliyjanob maqsad mujassam ekanini ko‘ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ allomalar, Alisher Navoiy,

Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma’rifatparvarlar badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz. Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug‘ bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo‘lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir” [1, 252-b.].

Hozirgi kunda ba’zi yoshlarimiz kitob o‘qish, ilm izlash, o‘zida ezgu fazilatlarni shakllantirish o‘rniga xorij “san’ati”ga taqlid qilib, kino-qo‘shiqlar, bema’ni eshittirishlarni eshitib vaqtini o‘tkazishni xush ko‘rmoqda. Shuningdek, aslida begonalardan maxfiy tutish lozim bo‘lgan shaxsiy hayoti va qarashlariga oid vayn hamda videolarni tasvirga olib uni targ‘ibot-tashviqot qilishyapti. Bunday salbiy illat tobora urchib, ko‘payib ketmasligi uchun yoshlarga axborot sohasidagi islohotlarni va ma’naviy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish muhim rol o‘ynaydi. Bu borada quyidagi takliflarni berish o‘rinlidir:

1. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan tayyorlanadigan “Yo‘l xaritalari” rejalariga yoshlar qadriyatlariga global salbiy ta’sirlarni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy roliklar tayyorlash vazifalarini kiritish;

2. Hozirgi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil qilgan asosiy tushuncha va istilohlarining elektron izohli lug‘atini yaratish;

3. Buyuk mutafakkirlar asarlarini ingliz, fransuz va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda axloqiy qadriyatlar va ma’naviy madaniyat rivojlanishini ta’minlash Yangi O‘zbekiston yoshlarining dunyoqarashini kengaytirish, ular uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlarning milliy ma’naviyatimizga xos va mosligini ta’minlashdagi muhim omildir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev. Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O`zbekiston, 2022. – B. 252.

2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (To‘liq nasriy tabdil). – T.: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 105.

3. Xayrullayev M.M. Navoiy dunyoqarashining g‘oyaviy manbalarini o‘rganish haqida // Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. –Toshkent: Fan, 1968.

4. Navro‘zova G. Bahouddin Naqshband (manbalar tahlili). – Toshkent: Sano-standart, 2019.

5. Ochilov E. Komillikning ikki yo‘li // Navoiyning ijod olami. –Toshkent: Fan, 2001.

6. Pardayeva M. Alisher Navoiy asarlarida islomiy falsafa va ilohiyot ilmi. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi” MCHJ. – Buxoro.: 2020.

7. Ochilov E. Alisher Navoiy. –Toshkent: O‘zbekiston. 2015. – 74 B.

Alisher Yunusov,
sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR QADRIYATLARINING SOTSIOLOGIIK TAHLILI

♦ ***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlar qadriyatlarining shakllanishi va o‘zgarish dinamikasi sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Muallif yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qarashlari, hayotiy ustuvorliklari, oila va jamiyatning ta’sir omillari, shuningdek, tashqi ta’sirlar, ayniqsa internet va ommaviy axborot vositalarining roliga e’tibor qaratadi. Tadqiqot natijalari yoshlar orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi saqlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda davlat va jamiyat institutlarining mas’uliyati ta’kidlanadi.*

♦ ***Abstract.*** *This article presents a sociological analysis of the formation and transformation dynamics of youth values in New Uzbekistan. The author focuses on the moral and ethical views of the younger generation, their life priorities, the influence of family and society, as well as external factors– particularly the role of the internet and mass media. Research findings indicate that national and universal values remain dominant among youth. At the same time, the responsibility of state and public institutions in the moral education of young people is emphasized.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *yoshlar qadriyatlari, sotsiologik tahlil, ma’naviy tarbiya, internet ta’siri, Yangi O‘zbekiston.*

♦ ***Key words.*** *youth values, sociological analysis, moral education, internet influence, New Uzbekistan.*

Shaxsning qadriyat mo‘ljallari sotsiologiyaning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Boisi har bir inson o‘zi uchun qadrli bo‘lgan narsa-hodisaga qarab intiladi. O‘z vaqtida Maks Veber inson xatti-harakatining turlari haqida yozganida asosiy ko‘rinishlardan biri bo‘lgan – qadriyatga yo‘naltirilgan ratsional harakat eng ko‘p tarqalgan, insonni harakatlantiruvchi kuchlardan biri ekanligi haqida yozib qoldirgan edi. Keyinchalik Parsons ham, o‘zining xulq-atvor haqidagi qarashlarini yoritganda, shaxsni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlardan biri sifatida aynan qadriyatga qarab harakatlanishini ko‘rsatib o‘tgan edi. Bugungi sotsiologiyada qadriyat mo‘ljallari ijtimoiy subyektlarning ijtimoiy xulq-atvorini tartibga soluvchi vosita sifatida o‘rganiladi.

Fanda qadriyat mo‘ljallari deganda shaxsning (guruhning) moddiy va

ma’naviy ne’matlar yig‘indisiga nisbatan baholovchi munosabati tushuniladi, ne’matlar esa, ushbu shaxs (guruh) ehtiyojlarini qondiruvchi predmetlar (yoki ularning xususiyatlari), maqsadlar va vositalardir. Ular ideallarda, shaxsning hayotiy mazmunida ifodalanadi va shaxsning (guruhning) ijtimoiy xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Mo‘ljallar subyektning o‘zi uchun ahamiyatli narsa-hodisalarga ongli, baholovchi yondashuvi natijasida shakllangan mavjudligi shartlarini aks ettiradi. Moddiy va ma’naviy ne’matlar yig‘indisi ma’lum qadriyatlar tizimining mavjudligi uchun asosdir . Oddiy qilib aytganda, har bir shaxs yoki ijtimoiy guruh o‘zi uchun qadrli bo‘lgan narsa-hodisa tomon intiladi, o‘zi uchun qadrli bo‘lgan me’yorlarga amal qilib yashaydi. Ushbu qadriyat mo‘ljallari insonlararo munosabatlar yo‘nalishi va mazmunini belgilab beruvchi asosiy ijtimoiy hodisalardan biri bo‘lib, sotsiologlarni shu jihatlari bilan qiziqtiradi.

Shaxs va ijtimoiy guruhning qadriyat mo‘ljallarini uni harakatlantiruvchi kuch sifatida o‘rganish XX va XXI asrlar sotsiologlarini ham qiziqtirib kelmoqda. Shu boisdan, zamonaviy sotsiologiyada ushbu hodisani o‘rganishga qaratilgan bir qancha tadqiqot yondashuvlari ishlab chiqilgan. Ulardan birinchisi sifatida K.Klakxon hamda F.Strodbeklarning (*Kluckhohn*, *Strodbeck* 1961) madaniyatda qadriyat mo‘ljallari nazariyasini ko‘rsatish mumkin. Mazkur tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, qadriyat mo‘ljallari “umuminsoniy muammolarni hal qilish yo‘lida inson tafakkuri va faoliyati motivlarini tartibga soluvchi hamda yo‘naltiruvchi turli guruhlarga ajratilgan murakkab tamoyillar”dir .

Ko‘plab madaniyatlarni taqqoslagan holda, amerikalik tadqiqotchilar o‘z konsepsiyalarining uchta asosiy xulosalarini ilgari suradilar:

1. Barcha makonlar va zamonlarda yashayotgan odamlar uchun umumiy bo‘lgan bir nechta muammolar bor;

2. Har bir muammo faqat bir nechta muqobil yechimlar orqali hal qilinishi mumkin;

3. Har bir jamiyat muammoni hal qilishning o‘z muqobilini ilgari suradi va bunda o‘z madaniyatiga xos bo‘lgan qadriyatlar iyerarxiyasiga tayanadi. Vaholanki, ushbu yechimlar jamlanmasi, barcha madaniyatlarda mavjud.

Ushbu taxminlarga tayangan holda, F.Klakxon hamda F.Strodbek beshta asosiy muammo-savolni ilgari suradilar. Ushbu savolga har bir madaniyat javob topishga harakat qiladi va bunda o‘zining qadriyat mo‘ljallariga tayanadi:

1. Inson tabiatining mazmuni nima (human nature oriyentation)?

2. Inson va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlar qanday (man-nature oriyentation)?

3. Inson hayotida vaqt qanday ahamiyatga ega (time oriyentation)?

4. Inson faoliyati qanday yo‘nalishga ega (activity oriyentation)?

5. Kishilarni qaysi munosabatlar bog‘lab turadi (relational oriyentation)?

Madaniyatlararo kommunikatsiyani tadqiq etishga yo‘naltirilgan modelida niderlandiyalik sotsiolog Xofstede turli milliy madaniyatlarga xos qadriyatlar tizimlarini taqqoslagan holda o‘zining parametrik modelini ilgari suradi. U

tadqiqot o‘tkazishda kishilarning ishlab chiqarish faoliyatlariga doir xulq-atvorlarini belgilab beruvchi hamda inson borlig‘ining asosiy savollariga javob topuvchi to‘rtta o‘lchamni ajratib oladi. O‘lcham deganda olim barcha madaniyatlarda taqqoslash mumkin bo‘lgan jihatlarni nazarda tutgan. Ushbu o‘lchamlar hokimiyat bilan oraliq masofani saqlashga munosabat, jamoaviylik/individuallik, noaniqlikka chidamlilik hamda jinslarga xos bo‘linish .

Mazkur to‘rt jihat turli madaniyatlarda turlicha bo‘lib, har bir madaniyat o‘zining qadriyat mo‘ljallaridan kelib chiqqan holda o‘z yechimini muvaffaqiyatli himoya qila oladi. Madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunmaslik va kommunikatsiyadagi muvaffaqiyatsizliklarning yechimlari ham aynan mana shundadir. Ya’ni, o‘zga madaniyat vakillari bilan hamkorlikka kirishayotgan har bir shaxs, Xofstede ta’kidlagan o‘lchamlarga munosabatda o‘z madaniy qadriyatlariga tayangan holda yondashishini e’tiborga olib, o‘zga madaniyat vakillarining ushbu jihatlarini alohida o‘rganishi madaniyatlararo aloqalarni muvaffaqiyatli amalga oshishiga imkon beradi.

Xofstede yondashuviga o‘xshash, aholining qadriyat mo‘ljallarini o‘lchashga qaratilgan navbatdagi yondashuvni Inglxart ishlab chiqdi. Bugungi kunda butun dunyoning yuzdan oshiq mamlakatlari sotsiologlarini birlashtirgan “Butunjahon qadriyatlari sharhi” (*World Values Survey, WVS*) loyihasi 1981 yildan bugungi kunga qadar 7 marta o‘tkazildi va dunyo xalqlarining qadriyatlarini o‘rganishga qaratilgandir.

Ushbu yondashuvda qadriyatlar ikkita katta toifaga ajratilgan holda, mamlakatlar tasniflanadi:

Yashab qolish/o‘zini namoyon qilish qadriyatlari; bu yerda yashab qolish qadriyatlari sifatida iqtisodiy va jismoniy xavfsizlik, moddiy qadriyatlar, o‘zgacha fikrga toqat qilmaslik, ksenofobiya, erkinlik va inson huquqlariga past baho berish, avtoritarizmni qabul qilishga tayyorlik, kamtarlik, fan va texnologiyalarning hamma narsaga qodirligiga ishonish; o‘z-o‘zini namoyon qilish qadriyatlari - shaxs, erkinlik, inson huquqlari, moddiy boylik, muvaffaqiyat, iqtisodiyotga g‘amxo‘rlik, gender tengligiga yuksak baho.

An’anaviy/dunyoviy-ratsional qadriyatlar. An’anaviy/Dunyoviy-ratsional qadriyatlar toifasida an’anaviy qadriyatlarga din, oila, hokimiyatga hurmat, mutlaq standartlar, ijtimoiy muvofiqlik kiradi, ochiq siyosiy ziddiyatlarga rozilik afzal ko‘riladi; dunyoviy-ratsional - oqilona xulq-atvor, muvaffaqiyat, dunyoviy davlatni afzal ko‘rish, dinning past roli xos bo‘ladi.

Ushbu yondashuvlarni qo‘llagan holda O‘zbekistonda ham aholining qadriyat mo‘ljallari o‘rganib kelinmoqda va undagi o‘zgarishlar dinamikasi keng tahlil qilinib, ijtimoiy tizimda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni bashorat qilishda foydalanilmoqda.

Ma’lumki, Yangi O‘zbekistonda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda, jamiyat butunlay yangi taraqqiyot yo‘liga o‘tdi. Bu holatlar aholining qadriyat mo‘ljallarida ham ko‘zga tashlanmoqda. Masalan,

aholining siyosiy qadriyatlarni muhimlik darajasiga munosabati 2011 yilga nisbatan ancha o‘sgan. 2011 yilda o‘tkazilgan tadqiqotlarda siyosiy qadriyatlarni o‘zi uchun juda muhim deb hisoblaganlar respondentlarning atiga 16,3 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 31,8 foizga ega bo‘lgan. Bunga asosiy sabab – Yangi O‘zbekistonda xalq bilan muloqotning kuchayganligi, OAV, ayniqsa elektron axborot tarqatish manbalarining to‘liq erkinlashtirilganligi sabab bo‘ldi va keng aholi qatlamlarida o‘zini mamlakat taqdiriga daxldorligini his qilish kuchayib, siyosiy jarayonlarga ham qiziqish ortganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jamiyatdagi transformatsion o‘zgarishlar uning eng faol qatlami bo‘lgan yoshlarning qadriyatlar tizimida ham kuzatilmoqda. Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi va bevosita rahnamoligida yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarni hayotimizning boshqa so-alari -ilan o‘zaro chambarchas bog‘langan hamda tizimli ravishda olib borish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.


Shunga qaramay, yoshlar o‘rtasida turli salbiy holatlar – huquqbuzarlik va jinoyatlar, turli bezoriliklar, tarbiyasidagi og‘ishlar (deviant xulq), **milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bepisandlik**, ijtimoiy-siyosiy islohotlarga nisbatan loqaydlik va boshqalar hali hanuz kuzatilmoqda. Mazkur omillar yoshlar orasida ma’naviy muhit, qadriyatlar, oiladagi o‘zgarishlar va tashqi ta’sirlarni muntazam o‘rganib borishni taqozo etadi.

O‘rganishlar yoshlarning – ma’naviy yetuk insonning hayotiy qadriyatlari va sifatlari xususidagi qarashlarida **insonparvarlik** (71%), **mas’uliyatlilik** (49%) va **halollik** (45%) kabi jihatlar ustuvor ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, yoshlar – **haqiqatgo‘ylik** (21%), **tashabbuskorlik** (20%), **mehnatsevarlik** (18%), **faollik** (12%), **ijodkorlik** (11%), **poklik** (10%), **erksevarlik** (10%), **kamtarlik** (9%) va **saxong-uk** (7%) insonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda ma’naviy yetuklik belgilari hisoblanadi deb biladi. Bundan ko‘rinadiki, yoshlarda o‘zbek xalqiga xos milliy-madaniy qadriyatlar ustuvorlik qilmoqda.

Yoshlarning muhim **hayotiy qadriyatlari** yuzasidan fikrlari o‘rganilganda, ularning **82%** uchun oilaviy baxt barcha narsadan ustunligi e’tirof etilgan. Shuningdek, ular **adolatlilik va vijdonlilik** (6%), **do‘stlik** (5%), mamlakat **tinchligi va barqarorligi** (3%), **moliyaviy barqarorlik** (2%), **muvaffaqiyatli martaba** (1%), **sevgi va muhabbat** (1%) ular hayotida muhimligini ta’kidlashgan (1-diagramma).

1-diagramma

Muhim hayotiy qadriyatlar



Aksariyat yoshlar **oilaviy baxt**ga erishish ularning **hayotiy qadriyatlari qatorida birinchi o‘rinda** turishini ma’lum qilishgan. Ta’kidlash joizki, shaxsning **ilk ma’naviy-axloqiy qarashlari** shakllanishida **oila institutining o‘rni muhim** bo‘lib, jamiyatning ma’naviy barqarorligi oiladagi sog‘lom muhit bilan chambarchas bog‘liqdir.


Ma’lumki, oilalarda yoshlar tarbiyasi uchun ota-ona birday javobgar bo‘lib, boshqa yaqin qarindoshlarning ta’siri ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan, yoshlarning **73% farzand tarbiyasida** ota muhim o‘rin tutishini qayd etgan bo‘lsa, 20% ona, 4% yaqin qarindoshlar, 3% aka-uka va opa-singillarning o‘rni yuqoriligini ma’lum qilgan.

Shuningdek, inson qadriyatlarining shakllanishida oila bilan bir qatorda, mahalla, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalarining ham o‘rni beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash zarur.

27% respondentlarning fikriga ko‘ra, yoshlar ma’naviy dunyosini shakllantirishobyektivla isubyektiving o‘rni pasayganligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, **oila instituti** (20%), **ta’lim muassasalari** (18%), **OAV** (16%), **diniy idoralar** (4%) va **boshqa jamoat tashkilotlari**ning (6%) bu boradagi faoliyati sust baholangan (2-diagramma).

2-diagramma

Yoshlar qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan institutlar faoliyatining sustligi



Mahalla instituti – jamiyatda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda, yoshlarni ma’naviy boy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalashda, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda eng muhim tashkilotlardan biri hisoblanadi.


Bugungi globallashuv davrida yoshlar qadriyatlarining shakllanishiga tashqi omillar, yot g‘oyalar, buzg‘unchi va zararli mafkuralar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Internet tarmog‘idan faol foydalanish, unga kirish imkoniyatlarining kengayishi bir qator ijobiy jihatlar bilan birga, yoshlar tarbiyasida turli salbiy omillarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Yoshlarning 85% ularda qadriyatlarning o‘zgarishiga Internet va ijtimoiy tarmoqlar sabab bo‘layotganini ta’kidlashgan. Shuningdek, bunga do‘stlar va tanishlar (7%), oiladagi muhit (5%) va OAV (3%) (xorijiy kinofilmlar, seriallar va musiqiy kliplar) salbiy ta’sir ko‘rsatishi ma’lum qilingan (3-diagramma).

3-diagramma

Yoshlar ma’naviy dunyosi va qadriyatlarining shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar



Shu o‘rinda ekspertlar, soha mutaxassislari bilan bo‘lgan suhbatlarda bildirilgan ayrim fikrlarni keltirib o‘tish o‘rinli.

Xususan, aksariyat yigit-qizlarda Internet tarmog‘idan foydalanish madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, ularning ulkan axborot maydonidagi ma’lumotlarga nisbatan ishonuvchanligining yuqoriligi ham bu boradagi muammolarga sabab bo‘lmoqda.

Xususiy telekanallarda berib borilayotgan xorijiy seriallarda “ommaviy madaniyat” unsurlarining ko‘pligi, g‘arb hayotiga taqlid holatlarining shakllanishi yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlarga nisbatan loqaydlik hissining shakllanishiga olib kelmoqda.

Ikkinchi tomondan, bunga yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ota-onalar, o‘qituvchi va murabbiylar, mas’ul davlat va jamoat tashkilotlari, mahalladagi yoshlar yetakchilari tomonidan yetarlicha e’tibor bermaslik holatlari ham ularning aksariyatida bo‘sh vaqtni tartibsiz ravishda, Internet va televizor qarshisida o‘tkazishlariga sabab bo‘lmoqda.


Holbuki, bo‘sh vaqt inson uchun – o‘z ustida ishlash, salomatlikni mustahkamlash, dunyoqarashni boyitishi hamda ijodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga xizmat qilishi zarur. Afsuski, bugungi kunda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasi hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatni oshirish, Vatanga sadoqat, yurt kelajagiga mas’uliyat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. O‘z taqdirini yurt kelajagi bilan bog‘lagan yoshlargina mamlakat rivojining mustahkam asosidir.

Respondentlarning 98% o‘z kelajagini O‘zbekiston bilan bog‘lashini ta’kidlab, faqatgina 2% yoshlar bu borada salbiy javob qaytargan (4-diagramma).

4-diagramma

Yoshlarning o‘z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog‘laganligiga munosabati



Shu bilan birga, yoshlar o‘z kelajagini O‘zbekiston bilan bog‘lashining bir qancha sabablarini ko‘rsatib, 69% bu ulajahl-u yurti bo‘lganligini, 16% yaqin insonlari istiqomat qilishini, 5% biznes yuritish uchun barcha imkoniyat mavjudligini, 4% qulay iqlim, 3% yaxshi turmush sharoitlarini, 2% bolalar va yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlar yaratilganligini va atigi 1% ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimi mavjudligini e’tirof etishgan (5-diagramma).

5-diagramma

Yoshlar o‘z taqdirini O‘zbekiston bilan bog‘lashining sabablari



O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib – mahalliy hokimliklar, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va mahalladagi mas’ullar tomonidan – yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ijodiy imkoniyatlari, iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni, jumladan, mahallalarda yoshlar bilan individual ishlashni yanada kuchaytirish talab etiladi.

Abidjon Xudaybergenov,
Urganch Ranch texnologiya universiteti,
yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, PhD

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARGA NISBATAN O'ZGARISHLAR MASALALARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada globallashuv sharoitida tobora kuchayib borayotgan g'oyaviy tahdidlar, ularning zararli ta'sirlaridan yoshlar ongini himoyalash masalalari o'z aksini topgan. Shuningdek, bunda G'arb davlatlarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ma'naviy muammolar, bularning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article reflects the issues of protecting the consciousness of young people from growing ideological threats in the context of globalization and their harmful consequences. In addition, a number of proposals and recommendations were put forward to improve the effectiveness of measures aimed at preventing social and moral problems in Western countries.*

♦ ***Kalit so'zlar:*** *globallashuv, axborotlashuv, axborot-psixologik xavfsizlik, "ommaviy madaniyat", oila, egotsentrizm, nigilizm.*

♦ ***Key words:*** *globalization, informatization, information-psychological security, "mass culture", family, egocentrism, nihilism.*

Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohot va o'zgarishlarning taqdiri, ular qaysi soha bilan bog'liqligidan qat'iy nazar, oxir-oqibatda bitta asosiy masalaga, ya'ni, bizning qanday jamiyat qurishimiz va shu jamiyatga munosib barkamol avlodni tarbiyalashimizga borib taqaladi. Shu boisdan ham, globallashuv va axborotlashuv davri deya ta'riflanayotgan davrda jamiyat a'zolarini va ayniqsa yoshlarni axborot- psixologik xavfsizligini ta'minlash nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Globallashuv sharoitlarida yoshlar ongida milliy qadriyatlarni saqlab qolish masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ma'lumki, G'arb dunyosida ustivor hisoblanadigan qadriyatlar sifatida, shaxsiy erkinlik va individual huquqlar, shuningdek, o'zligini namoyon qilish erkinligi ustun qo'yilsa, Sharq madaniyatida ustivorlik jamoa manfaatlari, oila sha'ni va muqaddasligi, ijtimoiy an'ana va tartibotlar, kattalarga hurmat kabi qadriyatlarga ajratiladi. Ayniqsa, oila muhitining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o'rni benihoya yuqori hisoblanadi.

Bugun G'arb mamlakatlarida oila ijtimoiy institut sifatida o'zining

an’anaviy aќamiyatini yo‘qotib bormoqda. G‘arb mamlakatlarining ko‘pchiligida nikohga kirishadiganlar soniga qaraganda nikohdan chiqayotganlar soni ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Oila o‘zining ijtimoiy, tarbiyaviy funksiyalarini bajarishga ojizlik qilmoqda. Natijada, AQSHda ajralishlar soni 1962-yil bilan taqqoslaganda 350 foizga oshgan, bolalarning uchdan bir qismi to‘liqsiz oilada yashamoqda, tug‘ilayotgan chaqaloqlarning har to‘rttasidan bittasi nikohsiz tug‘ilmoqda[2].

2022-yilda Amerikaning rasmiy statistikasi 84 milliondan sal ko‘proq oila mavjudligini qayd etdi. 2022-yilda amerikalik oilaning o‘rtacha soni 3,13 kishini tashkil etdi va bu ko‘rsatkich taxminan 1980-yillarning oxiridan beri o‘zgarmay kelmoqda. Shunday qilib, so‘nggi 60 yil ichida bitta oilaga to‘g‘ri keladigan bolalar soni ikki baravar kamaydi, bu oila institutining reproduktiv funksiyasi inqirozini aniq ko‘rsatadi. Oila maqsadining tubdan o‘zgarishini farzandsiz oilalar sonining ko‘payganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham tasdiqlashi mumkin. 2022-yilda amerikalik oilalarning qariyb 60 foizi yoki 50,3 millioni farzandsiz edi [3].

Afsuski, bugun yoshlarimizning asosiy qiziqish manbaiga aylangan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizga yot bo‘lgan “erkin munosabatlar”, “fuqarolik nikohi” kabi g‘oyalarning kirib kelishi tobora kuchayib bormoqda.

Butunjahon internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali taklif etilayotgan g‘oyalar ko‘p hollarda yoshlarimizni o‘zimizning milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo‘ymoqda, boshqacha qilib aytganda o‘ziga xos “ildizi yo‘q individ”larning shakllanishiga olib kelmoqda. G‘arb madaniyati qadriyatlarini o‘zida ifoda etayotgan “ommaviy madaniyat” yoshlarimizda g‘arbona individualizm, egotsentrizm, nigilizm, andishasizlik, behayolik va zo‘ravonlik, mas’uliyatsizlik, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bunday sharoitda, ta’lim – tarbiya sohasida quyidagilarga e’tibor berish muhim deb hisoblaymiz:

birinchidan, globallashuv va axborotlashuv ta’sirida jamiyat hayotidagi yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda tarbiyaviy ish rejalarini qayta ko‘rib chiqish. Tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo‘rlik va majburlovlardan, rasmiyatchilikdan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqishi va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarni tarbiya jarayonida to‘liq qamrab olish. O‘tkazilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar soniga emas, balki ularning sifatiga, yoshlar ongi va dunyoqarashiga o‘tkazayotgan ijobiy ta’siriga e’tibor qaratilishi lozim;

ikkinchidan, globallashuv muammolarini kompleks o‘rganish imkoniyatini beradigan fanlararo dars mashg‘ulotlarini o‘tkazib borish. Bunda yoshlar ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o‘rganish, hamda ulardan samarali foydalanish, boshqa millat va din vakillarni hurmat qilish, ularning madaniyati va milliy qadriyatlariga ongli yondashish, ijtimoiy munosabatlarda

insonparvarlik, tolerantlik va demokratiya tamoyillariga sodiq qolish;

uchinchidan, globallashuv va axborotlashuv jarayonlarining zamonaviy bosqichdagi namoyon bo‘lishini tadqiq etish yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish. Ayniqsa mazkur jarayonlarning milliy qadriyatlarga nisbatan o‘tkazayotgan ta’sirlarini aniqlab borishga e’tiborni oshirish zarur;

to‘rtinchidan, “g‘oyaga qarshi g‘oya” tamoyilidan kelib chiqib yoshlarimizni O‘zbekistonning qadimiy va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot kontentlarini ko‘proq rivojlantirish va zamonaviy shakllarda uzatish, intellektual potensialdan oqilona va samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirib borish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, - 464 b.

2. P.Byukenen. (2007). Smert Zapada. http ://libereya.ru/biblus/bukenen/.

3. Duffin E. (2022). Number of families in the United States by number of children under 18 living in the household from 2000 to 2022 // Statista. 12.12.2022.

Abdug‘affor Tolipov,
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra mudiri,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

YOSHLAR XULQ-ATVORIDA DEVIANT VA KRIMINAL SUBMADANIYATNING NAMOYON BO‘LISHI

♦ ***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish hozirgi davrning muhim aspekti sifatida baholanganligi, yoshlar jinoyatchiligi yoki huquqbuzarligi muayyan vaqt o‘tib kattalar jinoyatchiligiga aylanishi, bu ijtimoiy hodisa mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta’siri haqida so‘z yuritilgan.*

♦ ***Abstract.*** *The article evaluates the prevention of youth crime as an important aspect of the present time. It discusses how juvenile delinquency or offenses among young people may eventually develop into adult criminality, and highlights the negative impact of this social phenomenon on the country's development.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *jinoyatchilik, deviant xulq-atvor, xalqaro terrorizm, submadaniyat, deviatsiya.*

♦ ***Key words:*** *crime, youth behavior, international terrorism, subculture, deviation.*

Yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish hozirgi davrimizda hal etilishidan butunjahon hamjamiyati obyektiga daxldor bo‘lgan global muammolar obyektiga kiradi. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodning jamiyatning yashovchanligini ta’minlashdagi muayyan roli bilan izohlanadi. Voyaga yetmagan yoshlar jinoyatchiligi hattoki eng demokratlashgan va iqtisodiy rivojlangan davlatlar uchun ham xosdir [1, 348]. Bu voyaga yetmagan yoshlar jinoyatchiligi muammolarini faqat milliy vositalar orqaligina hal etish mumkin emasligini isbotlab beradi va butun dunyo hamjamiyati kuchlarini birlashtirish zarurligini ifodalaydi hamda ushbu muammoni hal etishga yo‘naltirilgan normalar va standartlar tizimining yuzaga kelishiga va rivojlanishiga imkon beradi. Ayni shu munosabat bilan 2017 yil 19 sentabrda AQSHning Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev, ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida “Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya”ni qabul qilishni taklif qilgan edi. [2]. Shu sababli ham yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ular ongidagi mafkuraviy bo‘shliqni bartaraf etish bo‘yicha aniq amaliy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Zero, Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki, insonning qalbi, miyasi, ongu-tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlardan to‘xtamaydi. Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘lishini aytinglar? Bunday oziqani u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz kerak” [3, 484].

Deviant xulq-atvor insonning asosan jinoiy xulq-atvor xususiyatlari bilan bog‘liq turli ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga ham qamrab oladi. Deviant xulq atvor, eng avvalo, odamning tarbiya topgan ijtimoiy muhiti bilan belgilanadi. Lekin, ayni vaqtda, u shaxsning muayyan hayotiy maqsadlari, mayllari, intilishlari, xulq-atvor motivlari va maqsadlarini ham o‘zida ifoda etadi. Tabiiyki, odamga qanday salbiy xususiyatlar xos bo‘lmasin, agar u jinoyat sodir etmagan bo‘lsa, uni jinoyatchi deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Jinoyat sodir etganlik holati muayyan odamni g‘ayriijtimoiy shaxs sifatida namoyon etadi, lekin uning deviant xulq-atvorining asl mazmun-mohiyatini to‘liq ochib bermaydi.

Deviant xulq-atvor sotsiologiyasida yoshlar jinoyatchiligi birlamchi ijtimoiylashuv jarayonida bo‘lgan individlarning ijtimoiy xavfli xulq-atvori sifatida o‘rganiladi. Deviant xulq-atvor ijtimoiy nazoratga loyiq ekan, yoshlar jinoyatchiligini kompleks jihatdan aniqlash mumkin bo‘ladi. Ayni shu ma’noda, yoshlar jinoyatchiligining ijtimoiy nazorati – bu birlamchi ijtimoiylashuvdan o‘tuvchi individlarning ijtimoiy xavfli xulq-atvorini ijtimoiylashtiruvchi jamoalar va davlatning ijtimoiy-huquqiy organlarining qarshi harakatlanish jarayonidir. U yoshlar jinoyatchiligiga qarshi harakatlanar ekan, preventiv va reabilitatsion vazifalarni bajaradi, jinoyatchilarni jazolaydi va konformizmni rag‘batlantiradi. Rossiyalik olim Ya.I.Gilinskiy tomonidan

deviant xulq-atvorning madaniylashtirilgan jihati o‘rganilib, «deviant xulq-atvor» tushunchasini fanga kiritgan va hozirgi kunda bu atama «og‘uvchi xulq-atvor» atamasi bilan bir xil ma’noda qo‘llaniladi. Ya.Gilinskiy fikriga ko‘ra, “Deviant xulq-atvor, mavjud rasmiy me’yor va qoidalarga mos kelmaslikdir” [4, 7,167].

Amerikalik olim E.Sazerlend «jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydilar, balki individ (o‘smir)ning uning uchun referent bo‘lgan guruh – submadaniy jinoyat tashuvchilari a’zolari bilan doimiy muloqot qilish jarayonida jinoyatchiga aylanadilar», deya taxmin qilar ekan, deviant xulq-atvorni izohlash uchun differensiyalashgan assotsiatsiya tushunchasini kiritdi [5, 78]. Ushbu yondashuv deviatsiyani jinoyatchilikning rivojlanishi uchun qulay asoslarni yaratuvchi kriminal submadaniyat eskalatsiyasining asorati sifatida belgilovchiligi U.Miller asarlarida ham kuzatiladi. Uning fikriga ko‘ra, xatarli ishlar va boshqalar murosagarlik, guruh bo‘lib kafil bo‘lish – ushbu submadaniyatdagi ustuvor qadriyatlardan sanaladi. Chunki bunday guruh ko‘z oldimizda biz uchun o‘ziga xos submadaniyat yoki kontrmadaniyat tashuvchisi, ya’ni o‘ziga xos me’yor va qadriyatlar yig‘indisi sifatida gavdalanishi mumkin. Bizning nazarimizda jamiyatda mavjud ijtimoiy tizimlarning vazifa bajarishi davomida insonning faoliyati undan ajralmagan holatda qayd qilinib, ijtimoiy o‘zgarishlar deviant xulq-atvor shaklida, ya’ni tabiiy ravishda va talab qilingan tarzda xulq-atvor me’yorlaridagi og‘ishlar shaklida amalga oshishi mumkin bo‘ladi. Bu holatlar individual tajribaning kengayishiga xizmat qilishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Chunki aynan insonning ruhiy-jismoniy, ijtimoiy madaniy, ma’naviy-axloqiy va ularning xulq-atvoridagi holatlar bevosita jamiyatning rivojlanishi shartlari, ijtimoiy taraqqiyotning amalga oshishini belgilab beradi.

Xorijda deviant xulq-atvor bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ko‘pgina holatlarda guruh tarkibiga turli xildagi ko‘plab xulq-atvor shakllari – giyohvand moddalarni qabul qilishga ruju qo‘yishdan futbol musobaqasida bezorilik qilishgacha va hatto sehrgarlik, jodugarlik bilan shug‘ullanish kabilar ham kiritilib, bu xulq-atvor shakllariga deviantlik yoki delikventlik yorlig‘i yopishtiriladi. Shu boisdan ham deviant sotsiologiyasi ushbu ko‘rinishda, xulq-atvorning an’anaviy kriminologiyada qonun yo‘li bilan ta’qib qilinishga qaraganda nisbatan keng ko‘lamdagi, bir jinsli bo‘lmagan kategoriyalarini tadqiqot obyekti sifatida qabul qiladi.

Shunday qilib, deviant (og‘uvchan) xulq-atvorning yuksaluvchi dinamikasi huquqiy-madaniy qadriyatlar va axloq normalari tizimi orqali mafkuraviy jihatdan qat’iy belgilanmagan va beqaror jamiyatdagi ijtimoiylashtirish natijasi sanaladi. Mazkur jarayon ma’naviy-ruhiy begonalashuv tendensiyasining avj olishiga, alal oqibat, o‘z milliy qiyofasidan mahrum, deviant xulq-atvorga moyil jamoalarning shakllanishiga zamin hozirlamoqda. Mazkur holat ham jamiyatdagi milliy munosabatlar barqarorligiga jiddiy xavf tug‘dirishi muqarrar. Ta’sir etishning nozik va qudratli quroliga aylangan reklama, moda kabi vositalarning millat ongiga, ayniqsa yoshlarga salbiy ta’siri har qadamda ko‘zga tashlanmoqda. Grafitiya, tatuirovka kabi deviant xulq-atvorning subyektlariga yoshlarning taqlidi va qo‘shilishib jazavaga tushishi ma’naviy

qaramlikdan dalolat bermaydimi? Qolaversa, keyingi paytlarda ba’zi yoshlarimizning xorijiy mamlakatlarning davlat bayroqlari tushirilgan yoki ularning nomlari yozilgan ko‘ylaklarni kiyib yurishlari ommaviylashib ketayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, ularning ko‘pchiligi o‘quv dargohlarining o‘quvchisi yoki talabalari ekanligi kishini ajablantiradi. Chunki mamlakatimizning ta’lim tizimida asosiy e’tibor, yoshlarda milliy g‘urur, iftixor, vatanparvarlik kabi tuyg‘ularni uyg‘otishga qaratilgan [6, 166]. Bu kabi holatlarda yoshlar bilib-bilmasdan o‘sha mamlakat turmush tarzini ommaviylashtirib yuboradi. Bu yozuvlar orqali inson qalbiga, ongiga, ma’naviy qiyofasiga o‘sha mamlakatlarning hayoti, kiyinishi, turmush tarzi, odob-axloqi, an’ana va qadriyatlari singib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, yoshlar jinoyatchiligi holat va rivojlanishning o‘ziga xos miqdoriy va sifatga oid ko‘rsatkichlariga ega. Yoshlar jinoyatchiligining miqdoriy tasniflari uning holati va dinamikasini aniqlashga imkon beruvchi keng ko‘lamdagi statistik material negizida beriladi. Jinoyatchilikning sifatga oid ko‘rsatkichlari yoshlarning ijtimoiy guruh sifatidagi deviant va delinkvent xulq-atvori shakllanishining xususiyatlarini belgilab beradi. Binobarin, yoshlar jinoyatchiligi o‘zining miqdoriy va sifatga oid spetsifik ko‘rsatkichlariga ega va ilmiy tadqiqotning mustaqil predmeti sifatida o‘rganilishi mumkin. Ikkinchidan, yoshlarning deviant va delinkvent xulq-atvori ijtimoiy nazorat qilinadi. Binobarin, yoshlar jinoyatchiligining ijtimoiy nazorati – bu ijtimoiylashuvni o‘zlashtiruvchi individning jamiyat uchun xavfli bo‘lgan xulq-atvorini ijtimoiylashtiruvchi jamoalar va davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlarining qarama-qarshi harakatlanish jarayonidir. U yoshlar jinoyatchiligiga qarshi harakatlanar ekan, preventiv va reabilitatsion vazifalarni bajaradi, jinoyatchilarni jazolaydi va konformizmni rag‘batlantiradi. Deprivatsiya, marginallashgan, submadaniyat nazariyalarida yoshlar jinoyatchiligining kontekstini hosil qiluvchi salbiy ijtimoiy jarayonlar o‘rganiladi. Ushbu nazariyalarning asosiy kamchiligi shundaki, ular ijtimoiy nazoratning ikki darajali tasnifini hisobga olmaydi. Uchinchidan, yoshlar jinoyatchiligining ijtimoiy nazorati tarbiyaviy va intizomiy vositalar orqali yoshlarning jamiyat uchun xavfli bo‘lgan xulq-atvoridan ogohlantiruvchi shartli nazorat va davlat organlarining ixtisoslashgan faoliyati vositasida yoshlar jinoiy tajovuzkorligidan himoyalovchi jinoiy-huquqiy nazorat kabi ikki darajaga ega**.**

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Problemы preduprejdeniya i rassledovaniya prestupleniy: proshloye i nastoyaщee. Professoru Gennadiyu Fedorovichu Gorskomu posvyaщayetsya / pod red. V. A. Panyushkina. – Voronej: Izdatelskiy dom VGU, 2014.

2. http://www.uzbekembassy.in/address-by-the-president-of-the-republic-of-uzbekistan-shavkat-mirziyoyev-at-the-international-conference-on-afghanistan-peace-process-security-cooperation-and-regional-collaboration/

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1–jild. – T.: O‘zbekiston, 2017.

4. Gilinskiy Ya.I. Deviantnoye povedeniye podrostkov: sostoyaniye, problemы, perspektivы // Byulleten zaщitы prav rebenka. – SPb.: Piter, 1994.

5. Sutherlend E. Principles of criminology. N. Y, 1939.

6. Otamurotov S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.

Nilufar Achilova,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

JAHOLATPARASTLIK – MA’RIFATLI JAMIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA TO‘SQINLIK QILUVCHI KUCH

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu ilmiy maqolada Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi kuch hisoblanadigan jaholatparastlikning ma’no-mazmuni, obyektiv va subyektiv omillar, g‘ayriinsoniylikdan iborat vazifalari, namoyon bo‘lish shakllari, ularni bartaraf etish uslub va vositalari atroflicha yoritilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This scientific article explores the concept of ignorance as a force hindering the formation and development of an enlightened society in the context of the Renewing Uzbekistan. It provides an in-depth analysis of the meaning and content of ignorance, its objective and subjective factors, its inhumane objectives, forms of manifestation, as well as the methods and means of combating it.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *Yangilanayotgan O‘zbekiston, ma’rifat, ma’rifatli jamiyat, ma’rifatli inson, ma’rifatparvarlik, jahl, jaholat, jaholatparstlik, johillar, g‘azab, dunyoviy va diniy dunyoqarash, jahl va aql.*

♦ ***Key words:*** *Renewing Uzbekistan, enlightenment, enlightened society, enlightened person, enlightenment movement, anger, ignorance, obscurantism, ignorant people, rage, secular and religious worldview, anger and reason.*

Yangi O‘zbekiston – bu ma’rifatli insonlar aql-zakovati bilan shakllanib, rivojlanib boradigan, har bir fuqaroning adolatlilik prinsiplari asosida barcha tabiiy yashash, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy huquqlarini kafolatlaydigan bir ma’naviy-ma’rifiy makon zaminiga quriladigan “suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir”[1.4.]. Ma’rifatli jamiyat esa bu har tomonlama dunyoviy va diniy ilmlar ziyosini o‘zida mujassamlashtirgan, ana shu ziyoni

quyosh nuri kabi ijtimoiy borliqqa taratadigan ma’rifatli insonlar hamjamiyatidir.

Globallashuv sharoitida ma’rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishning oson kechmasligi, tabiiy holdir. Chunki, olamdagi sirli sinoatlardan biri bu ma’rifat bilan bir qatorda uning ziddi bo‘lgan jaholatning ham mavjudligidir. Jaholatni insoniyat rivoji tarixidagi voqealar silsilasida hamma vaqt g‘ayriinsoniy ruhiy-axloqiy fenomen sifatida baholab kelishgan. Chunki, u o‘zining g‘ayri tabiiy ko‘rinishdagi xatti-harakatlari bilan shaxslar, jamoalar, elat, millat va xalqlar boshiga ko‘plab kulfatlarni yog‘dirgan. Bu xususda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev:” ...turli xalqlar o‘rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishga urinayotgan kuchlar ham afsuski, yo‘q emas. Bunday xatarlar ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda, avvalo doimiy hushyorlik va ogohlik, butun xalqimizning birligi va hamjihatligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish lozim”[2.288-289.], - deb yozgan edi.

Xo‘sh, shunday ekan jaholat nima, degan savol tug‘iladi? “Jaholot” so‘zi kundalik ma’noda nojo‘ya xatti-harakatdan, gapdan yoki voqea-hodisadan ranjish, achchiqlanish, g‘azablanish tuyg‘usi, degan ma’noni anglatuvchi “jahl” (arabcha – nodonlik, aqlsizlik; ilmsizlik) so‘zidan olingan bo‘lib[3.78.], biron bir kimsaning ilmsizligini, qoloqligini, madaniyatsizligini, nodonligini anglatish uchun ishlatiladi. Bunda, shuni unutmaslik kerakki, “jahl” so‘zi kundalik hayotda bir tomondan ijobiy, ya’ni mavjud voqelikni chuqur anglagan holda, uni o‘rganish va o‘zgartirish borasidagi fikr va xatti-harakatlarga qarshi chiquvchilarga qarshi jahlu-g‘azab orqali, ikkinchi tomondan salbiy, ya’ni mavjud narsa, voqea, hodisalarning tub mohiyatini tushunmasdan ularga nisbatan ilmsizlarcha, nodonlik bilan munosabat bildirish sifatida qo‘llanilishi mumkin.

“Jaholot” tushunchasi o‘z ichiga “jahl” so‘zining o‘zagi asosida qurilgan, jahldorlik, jahillanmoq, jahlli, johil, johillik, jaholotparasitlik kabi tushunchalarni qamrab oladi. Masalan, jahldor – salga jahli chiqaveradigan, hadeb jahl qilaveradigan, serjahl, achchig‘i tez odamning salbiy fazilatini; jahlli – odamning g‘azabi kelganligini, g‘azab bilan to‘lganlikni; johillik – odamning nodonlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, o‘jarliligini, johil – odamning jaholatda qolgan, ilm-ma’rifatdan mahrum, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlikni anglatadi. Bunda, shunga alohida e’tibor berish kerakki, jah- – bu odamdagi ko‘proq ruhiy holatni, aniqrog‘i o‘zini tutolmasdan xatti-harakat sodir qilishni bildiradi. Jaholat esa keng odamlar, ijtimoiy guruhlardan tashkil topgan jaholatparastlar tomonidan sodir etiladigan g‘ayriinsoniy xatti-harakatlarni aks ettiruvchi axloqiy-falsafiy kategoriyalar jumlasiga kiradi. Demak, yuqorida keltirilgan so‘zlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda jaholat tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta’rif berish mumkin.

Jaholat – bu odamning eskilikka yopishib ilm-ma’rifatdan mahrum bo‘lib qolgan holda, o‘zini idora qilolmasdan o‘zgalarga nisbatan ilmsiz tarzda qiladigan nodonlarcha g‘ayriinsoniy ruhiy-axloqiy xatti-harakatlarining

muayyan tizimidir.

Jaholat ma’rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishga zarar yetkazuvchi g‘ayriinsoniy ruhiy-axloqiy hodisa sifatida o‘z obyekti va subyektiga egadir. Bunda jaholatning obyektini jaholatparastlarning diqqat e’tibori qaratilgan narsa, hodisa va jarayonlar, uning subyektini esa jaholatparaslikka asoslangan buzg‘unchi vayronkor g‘oyalarni amalga oshirish ilinjida yurgan johil odamlar va ularning uyushmalari tashkil qiladi.

Jaholatning obyektiga ko‘ra ko‘rinishlari. Jaholat obyektiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarda, ya’ni jaholatparastlarning:

1) ich-ichidan mavjud ma’rifatli jamiyat rivojini ko‘rolmasdan, unga nisbatan ilmsizlarcha, ya’ni uning moddiy va ma’naviy hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarga nodonlarcha salbiy munosabatda bo‘lishida;

2) davlat hokimiyati tomonidan amalga oshirayotgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’rifiy-madaniy-ma’naviy islohotlarning mohiyatini tushunmasdan, ularga jahl bilan aqlsizlarcha qarshilik ko‘rsatayotganligida;

3) uzoq va yaqin qo‘shni davlatlar bilan tenglik va o‘zaro yordam tarzida o‘rnatilayotgan munosabatlarga rahna solishga urinishlarida;

4) elat, millat va xalqlarning qadriyatlarini mensimasdan, ularni vaxshiylarcha vayron qilishga harakat qilayotganliklarida;

5) ilm-fan yutuqlarini tan olmasdan taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotganliklarida;

6) din niqobi ostida xalqlar o‘rtasida nizo chiqarib, mavjud hokimiyatni ag‘darib tashlab o‘zlarining hokimiyatini o‘rnatishni avj oldirayotganliklarida;

7) insonni oliy qadriyat deb hisoblamasdan, bolalar va ayollarning haq-huquqlarini paymol qilib, ularni sotib yuborish evaziga katta mablag‘ to‘playotganliklari kabi xatti-harakatlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Jaholatning subyektiga ko‘ra ko‘rinishlari. Jaholat subyektiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarda, ya’ni jaholatparastlarning:

1) jamiyat hayotida vujudga kelgan muammolarni aql, ilm bilan emas, balki jismoniy kuch ishlatish yo‘li bilan hal etishga urinishida;

2) o‘ziga-o‘zi mahliyo bo‘lib ma’rifatgo‘y donishmandlarning maslahatlariga quloq solmasdan o‘ta o‘jarlik bilan ish bajarishida;

3) mansabparastlik balosiga chalinib barcha odamlar unga bo‘ysunishini, o‘zi hech kimga bo‘ysunmaslikni xohlashida, bo‘ysunmaganlarni o‘ziga va jamiyatga dushman deb bilishida;

4) o‘tkinchi, yuzaki narsalar, mol-dunyo, jismoniy lazzatlar, hirsu shahvat, obro‘, amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o‘ylashida va bilishida;

5) obro‘parastlik balosiga yo‘liqib, o‘zaro bir- birlarini maqtash, ko‘kka ko‘tarishni yaxshi ko‘rishida, ularni boshqalar so‘zda ham, ishda ham ulug‘lashlarini istashlarida;

6) mutloq hokimiyatga ega bo‘lib, o‘zga xalqlarni qurol kuchi bilan

qo‘rqitib o‘ziga tobe qilib olishga, ya’ni yakka hukmronlik gashtini shurishga bo‘lgan xatti-harakatlari va shu kabilarda o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Professor N.E.Muhammadiyevning yozishicha: “Jaholatparastlikning ikki xil ko‘rinishini farqlash zarur. Birinchi ko‘rinishi bu kundalik xarakterga ega bo‘lib, u odamlarning bir biriga, oilasiga, ish joyidagilarga, boshliq yoki qo‘l ostidagilarga qiladigan qo‘polligi, baqir-chaqirlari, janjallari, jismoniy kuch ishlatishi, o‘zini tutolmasligi, nodonligi, ilmsizligi, madaniyatsizligi orqali sodir etadigan xatti-harakatlaridan iborat bo‘lib, ular jamiyatning rivojlanishiga jiddiy ta’sir yetkazmaydigan, oldini olsa bo‘ladigan ruhiy-axloqiy holatlar jumlasiga kiradi.

Ikkinchi ko‘rinishi – bu jahonda yuzaga kelgan ijimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy ahamiyatga molik bo‘lgan masalalarni hal etishda biron bir elat, millat va xalqlarning ichki ishlariga qo‘pol tarzda aralashib, tinchligini buzib, ularni qurol kuchi bilan o‘zlariga tobe qilishga qaratilgan ilmsizlik, achchiqlanish, ranjish, g‘azablanish bilan qiladigan nodonlarcha, tajovvuzkorona xatti-harakatlari shaklida ifodalanadi”[4.16-17.]. Bugungi kundagi ana shunday ko‘rinishdagi jaholatparast kuchlar va ularning elat, millat va xalqlarning tinch-osuda hayotiga solayotgan tahdidlari haqida Sh.M.Mirziyoyev: “Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, ommaviy madaniyat kabi xaf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotganligi – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi”[5.505.],– degan edi.

Jahl va aql. Jaholat bu hissiyotni jilovlay bilmas-ik oqi-atida kelib chiqadigan xatti-harakat, boshqalarga nisbatan beshafqat va vahshiyona munosabatda namoyon bo‘ladi. Jahl esa insonning his-tuyg‘uga berilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy xususiyat sifatida o‘zgalarga nisbatan murosai-madora qilishga to‘siq bo‘ladi. Jahlga berilish boshqalar bilan kelisha olmaslik, ziddiyatning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Inson hayotida aql va jahl yonma-yon turadi. Aql insonning do‘sti bulsa, jahl esa uning ashaddiy dushmanidir. Jahl inson tabiatining yengilligidan dalolat beradi. Yengil tabiatlilik, irodasizlik insonda jahl uchun zamin yaratadi, jahl g‘olib kelsa uni falokatga eltadi. Jahl shunday zararli illatki, u johilnigina emas, hatto uning atrofidagi kishilarning ham umrini egovlaydi. Jahlning eng yomon tomoni shundaki, u nozik tabiatli, pok insonga ham, bad-xulq insonga ham bir xil tarzda yo‘naltirilishi mumkin. Jahlning tildagi ifodasi insondagi barcha ezgu fazilatlarni yo‘qqa chiqaradi, uni tiya bilish esa, jamoatchilik oldida ezgu fazilatlarni saqlab qolish demakdir. “Jahl xatoga yul ochib beradi, u yaqin kishilar o‘rtasiga nifoq soladi, parokandalikka sabab bo‘ladi”[6.169-170.].

Insoniyatni jaholatdan qutqazish uchun ma’rifat bilan shug‘ullanuvchilarni “Ma’rifatchi”lar, aksincha, kishilarning tinchligini buzib, ularning boshlariga har xil balo-qazolarni yog‘dirish bilan shug‘ullanuvchi, nodon, ilm-

ma’rifatning dushmani bo‘lgan madaniyatsiz, johillikni odat qilib olgan kimsalarni “Johillar”lar deb ataymiz. Bunda ma’rifatchilar tomonidan odamlar orasida olib boradigan ma’rifat ishlari “Ma’rifatchilik”, jahl, g‘azab bilan sodir etadigan xatti-harakatlari “Jaholatparastlik” deb baholash orqali ifodalash mumkin.

Shunday qilib ma’rifatning asl mohiyatini M.Behbudiyning quyidagi:” “Ilm-ma’rifatsiz hech bir millat ...hayot maydonida tura olmas. Xoh ul millat hokim, xoh ui millat mahkum bo‘lsin, ilm ma’rifatdan mahrum bo‘lganligi uchun boshqa san’at va hunar toji bo‘lgan millatlarning oyog‘i ostida ezilishga majburdirlar... Boy bo‘lgan millat albatta dunyoda yashay oladur. Ul millatning diniga emas, hatto milliyatiga va shaxsiyatiga hech kim tega olmaydir... Hunarlik va boy bo‘lmoq uchun nima lozimdir? Albatta, ilm va ma’rifat lozimdir... Hunarli va ma’rifatli bo‘lgan millatlarning xalqlari faqir va bechora bo‘lib, darvishlar qiyofasiga kirib, gadoylik qilib yurmaydilar”[7.452],– degan so‘zlaridan anglab olish mumkin. M.Behbudiyning mazkur fikrlari o‘z ahamiyatini hozir ham yo‘qotgani yo‘q.

Ma’rifatli jamiyatni bunyod etishda jaholatparastlikka yul qo‘ymaslik uchun quyidagi omillarni rivojlantirish lozim:

Bunda yoshlarning: 1) dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘unlashtirish asosida, buzg‘unchi g‘oya va mafkuralarning oldini olib, risoladagidek ma’naviy-ma’rifiy muhitni yaratish; 2) ma’rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishga bo‘lgan daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish, ayni vaqtda jaholatparastlikka nisbatan bo‘lgan nafratini tizimli tarzda oshirib borish; 3) huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni kuchaytirish evaziga jaholatparastlikka qarshi turaoladigan axloqiy-huquqiy madaniyatli insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishning innovatsion kreativ usul va vositalarini ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- Toshkent:”Adolat” milliy huquqiy axborot markazi,2023 y. – B.4.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri.- Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti - B.288-289.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-jild.- T.: “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,2006. - B.78.

4. Muhammadiyev N.E.Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurash – jamiyatni tinch va barqaror rivojlantirish omili. Monografiya. – T.: ToshPTI nashriyoti. – B.16-17.

5. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir// Uning o‘zi. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild,–T.: “O‘zbekiston” NMIU,2017. – B.505.

6. Ma’naviyat:asosiy tushunchalar lug‘ati. – Toshkent.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti,2021. – B.169-170.

7. *O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Ikki jildli. J. 1. – T.: O‘qituvchi, 1995. –B.*

Munavvara Kurbanbayeva,
“Tamaddun nuri” ilmiy jurnali bosh muharriri,
UrDU o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘istonda
xizmat ko‘rsatgan jurnalist

YOSHLAR QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada o‘zbekistonlik yoshlarning bugungi qadriyatlari bilan milliy qadriyatlar o‘rtasidagi hamohang va farqli jihatlar, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.*

♦ ***Abstract:*** *The article analyzes the similarities and differences between the current values of Uzbek youth and national values, the role and importance of national values in the upbringing of youth.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *yoshlar, yoshlar mamlakati, qadriyatlar, Sharq demokratiyasi, jo‘shqinlik, serg‘ayrat, intellektual, ma’naviy, jismoniy rivojlanish, maqsadlar, orzular, hayotiy rejalar, kelajak, yuksalish.*

♦ ***Key words:*** *youth, country of youth, values, Eastern democracy, enthusiasm, energy, intellectual, spiritual, physical development, goals, dreams, life plans, future, progress.*

Yer sharida istiqomat qiladigan 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan insonlar soni 1 milliard 200 million nafardan ortiq bo‘lib, bu dunyo jami aholisining 16 foizi, deganidir. 2030 yilda ushbu ko‘rsatkich 7 foiz ko‘payib, salkam 1 milliard 300 million nafarga yetishi kutilmoqda.

Mamlakatimizning “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan o‘zbekistonliklar yoshlar toifasiga kiradi. Bu yoshda, qoida tariqasida, mamlakat yoshlari umumta’lim maktablari va oliy o‘quv yurtlarida tahsil oladi.

Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 19 million 600 ming nafardan ziyodni yoki aholining 55,6 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili o‘rtacha 600 ming nafar yoshlar kirib kelmoqda va kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetishi kutilmoqda. Shulardan kelib chiqqan holda aytish joizki, O‘zbekiston yoshlar mamlakati va albatta, aholining ushbu qatlamiga alohida e’tibor berilishi vatan istiqbolini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston yoshlarini intellektual, jismoniy va ma’naviy-ruhiy jihatdan barkamol etib tarbiyalash uchun davlat va

jamiyatning kuch-salohiyati, mablag‘i va boshqa zarur imkoniyatlari tobora ko‘p, izchil hamda tizimli asosda yo‘naltirilayotgani bejiz emas. O‘zbekistonda yoshlarga har tomonlama va yuksak g‘amxo‘rlik ko‘rsatish masalasi davlat siyosatining ustuvor sohalaridan biri hisoblanadi. Aholining teng yarmidan ko‘pini tashkil etuvchi jo‘shqin va serg‘ayrat yoshlar mamlakatimizning zamonaviy asoslarda yanada taraqqiy etishining tayanchidir. Shu sabablarga ko‘ra yosh avlodga yurtimizda alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida navqiron avlod vakillarining huquqlarini ta’minlash va qonuniy manfaatlarini kafolatlashga qaratilgan izchil va ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayni yo‘nalishdagi davlat siyosatining asosi hisoblanuvchi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonunda davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi huquqiy negizda mustahkamlangan.

Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama qamrab olish hamda keng kafolatlashga alohida bob ajratilishi, Asosiy qonunimizga yoshlarning ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, uy-joyga ega bo‘lish, ishga joylashish, hordiq chiqarishga oid huquqlarini himoya qilish hamda shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoyasini ta’minlash, shuningdek, ularning jamiyat hayoti va davlat ishlarida faol ishtirok etishiga zarur sharoitlar yaratish yuzasidan davlat zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklaydigan yangi normalar kiritilgani yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

O‘zbekiston Prezidenti so‘nggi yillarda yoshlar masalasi bo‘yicha 20 dan ortiq milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslarni ilgari surganligini alohida ta’kidlash lozim. Bu bejiz emas albatta. Negaki yoshlar tobora jamiyatimizning eng katta kuchiga, tayanchiga aylanib bormoqda. Shunday ekan, ushbu ulkan kuch, qudratni to‘g‘ri yo‘naltirishga, albatta katta avlod vakillari mas’ul va javobgardir. Negaki, yoshlar jo‘shqin va serg‘ayrat bo‘lish bilan birga hayotiy tajribasi kam, hissiyotlarga beriluvchan va ishonuvchandir. Butun dunyoda globallashuv jarayonlari tobora jadallik kasb etayotgan bugungi kunda yoshlarni zararli g‘oya, oqim yoki harakatlardan ogoh etish va asrash albatta katta avlod vakillari zimmasidagi vazifadir. Balki bu gaplarimiz G‘arb yoki Yevropa kishisiga demokratik tamoyillarga zid fikrlar sifatida biroz erish tuyulishi mumkin. Lekin, shuni ta’kidlash lozimki, Sharq demokratiyasi o‘ziga xos bo‘lib, bunda yosh iyerarxiyasi muhim o‘rin tutadi. Ya’ni yoshi ulug‘larga hurmat, yoshi kichiklarga izzat ko‘rsatish avloddan avlodga o‘tib kelayotgan, ming yillar davomida hayotiy tajribada sinalgan qadriyatlarimizdir.

Modomiki, yoshlarimiz bizning ertanggi kunimiz, yurtimiz egalari ekan, bugungi daqiqa sayin qadriyatlari o‘zgarayotgan tezkor zamonda ularning xavfsizligini ta’minlash, rivojlantirish, dunyoning eng ilg‘or yoshlariga

aylantirish choralarini ko‘rmog‘imiz lozim. Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekistonda yoshlarning intellektual, ma’naviy, jismoniy rivojlanishi uchun barcha huquqiy asoslar yaratilgan. Ularni hayotga izchil tatbiq etish eng dolzarb masalalardandir.

Dunyoning qaysi qismida bo‘lmasin, yoshlar yanada adolatli va teng huquqli muhitda yashashni hamda eng zamonaviy imkoniyatlar va qulayliklardan foydalanishni, qolaversa, o‘zlari mansub jamiyatlardagi qarorlar qabul qilish jarayonlarida erkin ishtirok etishni xohlaydilar.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida, boshqa masalalar bilan bir qatorda yoshlarning dolzarb masalalariga, jumladan, zamonaviy kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratishga, yigit-qizlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirishga, yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini pasaytirishga, axborot texnologiyalari sohasini ommalashtirish, yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan qamrovini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan.

2024-yilda “Ijtimoiy fikr” RJFO‘M monitoring tartibida “O‘zbekiston yoshlari – 2024: qadriyatlar, muammolar va kutilmalar haqida” mavzusida jamoatchilik fikri so‘rovini o‘tkazgan bo‘lib, uning maqsadi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi to‘g‘risida yoshlarning fikrini aniqlash, amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati natijalaridan yoshlarning qoniqish darajasini o‘rganish, ulg‘ayish jarayonida yigit-qizlar duch kelayotgan dolzarb muammolarni aniqlashdan iborat edi. So‘rov davomida 18dan 35 yoshgacha bo‘lgan respondentlar so‘ralgan, ularning 57,6 foizi shaharlarda, 42,4 foizi qishloq joylarida istiqomat qiladigan yoshlardir.

So‘rovning ko‘rsatishicha, yosh respondentlarning aksariyati mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatiga ijobiy baho berganlar: 85,7% yoshlarning hisoblashicha, bu siyosat mamlakatda yoshlar salohiyatini rivojlantirish va ro‘yobga chiqarish uchun yaratilgan shart-sharoitlar tufayli yoshlarning yanada ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga ta’kidlash kerakki, so‘rov natijasida yoshlar mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yosh fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va amalga oshirish, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni va faolligini oshirish, sog‘lom va barkamol rivojlangan avlodni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni ko‘proq tanqidiy ruhda baholay boshlaganlari ham ko‘ringan.

Ushbu so‘rov bugungi kun yoshlarining qadriyatlari nimalar ekanligini aniqlashga imkon bergani bilan ahamiyatlidir.

So‘rov ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lganki, yoshlar tanlagan eng muhim qadriyatlar orasida birinchi o‘rinda oila, baxtli oilaviy hayot turadi, ikkinchi o‘rinda – ota-onalar, ularning salomatligi va farovonligi, o‘zbekistonlik yoshlar uchun uchinchi o‘rindagi qadriyat jismoniy va ruhiy salomatlik bo‘lib hisoblanadi.

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatganki, ko‘pchilik yosh

o‘zbekistonliklar o‘zining maqsadlari, orzulari, hayotiy rejalariga ega. So‘rov aksariyat yoshlar uchun hayotdagi asosiy maqsad o‘zini kasbiy jihatdan ro‘yobga chiqarish, martaba cho‘qqilariga erishish hisoblanishini ko‘rsatgan. Aksariyat yoshlar mustaqil ravishda bilim olish, martabada va moliyaviy jihatdan muvaffaqiyatlarga erishish, mustahkam va baxtli oila qurish niyatidalar.

Yoshlarning eng muhim qadriyatlarini aniqlashga qaratilgan boshqa tadqiqotlar ham o‘tkazilgan. Yoshlarning ma’naviy qarashlari milliy, diniy, o‘z-o‘zini anglash holatlari, talablari, hayotdagi faoliyati orqali o‘z aksini ifoda etadi. Shu yo‘nalishda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarning fikricha, odamning ma’navmo‘jizaviygilab beruvchi asosiy sifatlar bu – “Haqgo‘ylik” (60,8%), “Milliy qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi bo‘lgan qadriyatlarni hurmat qilish” (55,5%), “O‘z xalqining tarixini yaxshi bilish”, “Milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish” (44,2%), “Qalb pokligi” (39,1%), “Kamtarlik” (39,5%), “Millatlararo va hududlararo bag‘rikenglik” (29,6%), “Ekstremistlarga salbiy munosabat” (19,5%), “Mehnatsevarlik” (0,5%), “Madaniylik” (0,9%), “Bilimdonlik” (0,7%) ko‘rsatilgan. So‘rov-tadqiqotlarda qatnashgan respondentlar fikriga ko‘ra, yoshlarimizning yarmidan ko‘pi poraxo‘rlikni – 54%, takabburlikni – 52,7%, shu bilan birga, ikkiyuzlamachilikni – 17,3%, beparvolikni – 14,5%, tekinxo‘rlikni – 10,4%, yolg‘onchilikni – 1,7%, hasadni – 0,5%, g‘iybatni – 0,6%, tuhmat, dangasalik va qo‘pollikni – 0,2% yoqtirmas ekan. Yoshlarning fikri bo‘yicha xalqning kuchi millatning birdamligida, uning olamshumul ahamiyati, avvalo, iqtisodiyotida – 69,7%, qurolli kuchlarida – 44,6%, ilmda – 44,4%, siyosatda – 41,5%, odobliligida – 37,7% deb ta’kidlashgan. Natijalardan ko‘rinadiki, yoshlardan “odamning ma’naviyatini belgilab beruvchi asosiy sifatlar” so‘ralganida, salbiy axloqiy qarashlarga juda kam foiz berilgan, axloqiy qadriyat sifatlari esa yuqori baholangan. Inson ma’naviyati esa, albatta, uning qadriyatlarini belgilaydi.

Biz bilamizki, butun dunyoda o‘ta darajada globallashuv, ommaviy madaniyat, iste’molchilik kayfiyatining shiddat bilan o‘sib borishi fonida insoniyatning asriy an’ana, udum, qadriyatlari o‘zgarmoqda, bu o‘zgarish ko‘proq ijobiy emas, salbiy xarakterda bo‘lib, qadriyatlarga putur yetmoqda. Bozor munosabatlari insoniy munosabatlarga ham tatbiq etilmoqda. Shunday bir sharoitda bizning yoshlarimizning aksariyat qismi uchun eng muhim qadriyatlar oila, baxtli oilaviy hayot, ota-onalar, ularning salomatligi va farovonligi, jismoniy va ruhiy salomatlik deb topilgani quvonarli hol. Ushbu milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiq qolgan xalq albatta o‘z taraqqiyot yo‘lida ildam odimlaydi. Shu maqsadda yoshlarimizni ma’rifatli, ilg‘or, zamonaviy ilmlar, kasb-hunarlar egasi qilib yetishishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz lozim. Biz ilg‘or texnologiyalar iste’molchisi emas, yaratuvchisi bo‘lsakkina, mustahkam milliy va umumbashariy qadriyatlarni asrab, ularga rioya qilib, ularga sodiq bo‘lsakkina jamiyatimiz moddiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy yuksalishlarga erishadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qiAb-u mexanizmlari. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2023 yil 21 oktabr. 219 (1008)-soni.

2. Muzayyamxon Farmonova. Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. TASVIR NASHRIYOT UYI. Toshkent, 2019. – B.10-11.

3. Mamanazarov S.I. Yoshlar ongini shakllantirishda qadriyatlarning o‘rni.// Ekonomika i sotsium. №9 (100) 2022.

Murot Sayidov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

GLOBALLASHUV YOSHLAR QADRIYATLARIGA AXLOQIY TAHDID SIFATIDA

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada globallashuv davrida ijtimoiy tarmoŭlarda, axborot xurujlari yoshlar ongida g‘ayri axloqiy tahdidlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari va ularning shakllarini ko‘rsatib berishga harakat qilingan.*

♦ ***Abstract:*** *In this article, an attempt is made to show the characteristics and forms of the manifestation of unethical threats in the minds of young people in social networks, information attacks during globalization.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *glabollashuv,kompyuter savodxonligi, tahdid, axloqiy tahdid,*

♦ ***Key words:*** *globalization, computer literacy, threat, moral threat.*

Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalari dan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar[2,42].

Ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida AQSH dunyodagi eng qudratli davlat sifatida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohada globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylanib borayotganligidan kelib chiqib, mafkuraviy xurujlarda uning yetakchilik qilayotganligi ham sezilib qolmoqda.

Parijdagi siyosiy tadqiqotlar institutining professori A.Valladao Fransiyada chop etilgan “Ijtimoiy fikr” jurnalidagi maqolasida ta’kidlashicha,

turli xalq va millatlar sintezi negizida shakllangan Amerika jamiyatining madaniy qadriyatlari o‘zga mamlakatlar qabul qilishi uchun oson kechadi. Qolaversa, ushbu davlat madaniy mahsulot ishlab chiqarish industriyasining (kino, videofilmlar, shou biznes va h.k.) bozor sharoitiga moslashuvchanligi uning deyarli butun dunyoda sherik va hamkorini topishga imkon yaratdi. Hozirda turli mamlakatlarda namoyish etilayotgan kino hamda videofilmlarning to‘rtdan uch qismi Amerika mahsuloti ekani ham shundan dalolat beradi.[3,29]

Mafkuraviy tahdid yoki mafkuraviy tajovuzning “ma’naviyat” niqobi ostidagi bunday xurujlari har qanday yosh, mustaqil davlatlarning barqaror taraqqiyotiga putur yetkazadi. Eksport qilinayotgan amerikacha madaniyat yoki ma’naviyatning salbiy oqibatlari nafaqat mustaqillikni endigina qo‘lga kiritgan davlatlarda, balki Amerikaning o‘zida ham jiddiy kuzatilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning tez sur’atlarda o‘sishiga qaramay, ba’zan odamlar ulardan qanday oqilona foydalanish kerakligini to‘liq anglab yetmaydi. Kompyuter va internetgacha bo‘lgan davrda o‘sib-ulg‘aygan aksariyat ota-onalar va muallimlar agar bola internetdan foydalana boshlasa, albatta, foydasidan zarari ko‘proq, deb o‘ylaydi. Bolani kompyuter yoki Internetdan chalg‘itish harakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya’ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o‘zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo‘yish to‘g‘ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e’tiborga loyiq: bolalarda kibernetik do‘stga nisbatan munosabat aynan kattalarning tutgan yo‘lidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo‘lmaydi. Foydalanuvchilar ma’lumotlarning to‘g‘riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etilardi. Buning uchun bolalarga internetda xohlagan odam o‘z sahifasini ochishi, unga har qanday ma’lumotni joylashtirishi, bu borada unga hech kim to‘sqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo‘naltirish jarayonida faktlarni fikrlardan farqlashga, to‘g‘riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanishga ularni o‘rgatish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Internetning xavflilik jihati shundaki, unda muayyan ma’naviy axloqiy me’yorlar yo‘q bo‘lib millionlab mijozlarning maishiy ko‘zini ochmoqda. Ilgari bu tarmoqdan xavfsirash nisbatan kamroq edi, endilikda esa ikki jihatdan xavf otrgan. Birinchisi, xajm va qamrov (gorizontal) jihatdan bo‘lib internetdan foydalanish arzonlashib deyarli kompyuteri bor ko‘p xonadonlarda kuzatish mumkin. Kompyuter ilgarigidek tasavvurdagi biror moddiy mulk belgisi sifatida emas, balki oddiy ish quroli sifatida ko‘rinmoqda. Shuningdek, unga ega bo‘lish xuddi televizor sotib olishdek bo‘lib qoldi. Qolaversa, internet mahsulotlaridan foydalanish nafaqat kompyuterda

balki qandaydir chegirmalar bilan mobil aloqa vositalarida ham kechmoqda. Demak xajm va qamrov juda tezlikda o‘smoqda. Ikkinchisi, internet tarmog‘ining ichida qiziqishni, moyillikni oshiruvchi vositalar o‘ylab topilishidir. Masalan, ba’zi o‘yinlarning yutug‘iga pul qo‘yilgan bo‘lib, ular ko‘proq sovrinli musobaqani emas, balki haqiqiy ma’noda qimorni eslatadi.

Undagi o‘yinlarni xavflilik darajasiga qarab shunday tavsiflash mumkin: Axloqan buzuqlikka targ‘ib qiluvchi, maishiy ko‘zni ochuvchi o‘yinlar quyidagilar – Sniper ops, Red alert, SPOR, strip-shashki, strip-nardi, Vovichka; ko‘ngil qattiqligi va shafqatsizlik tuyg‘ularini kuchaytiruvchi jangovar o‘yinlar – Star craft, Line age, GTA, Catwoman, Spiderman, Transformers, Lift4dead, Sims sity, Mortal combat, War Craft, Call of Duty; psixosomatik, kishida salbiy ruhiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaruvchi o‘yinlar – Line age, Lift4dead, NeighboursFromHell; qimor o‘yinlari – Poker onlayn, joker onlayn, ochko, va h.k.; zararsiz o‘yinlar – Wonders, Komen Mak, Ralli...

Internetdan foydalanish go‘yoki tikonzor ichidan gul terishdek bo‘lib qoldi. Star sraft, Line age, GTA, Catwoman, Transformers, Lift for dead, Sims sity, Mortal combat, War Craft, Duty 3, Call of Duty, Sniper ops Red alert, SPOR, Nud for spaig kabi o‘yinlar bolalarga yovuzlik ruhida ertak aytishdan tashqari ularni “qahramon” sifatida o‘z yovuz olamiga olib kirib ketadi. Endi kompyuter qarshisidagi bola saytda o‘z virtual qiyofasini yaratib turli ko‘ngilsiz voqealarga to‘la hayot ichiga kiradi. Ayniqsa, olis masofadagi “admin”lar nazorat qilayotgan Internetaro o‘ynalayotgan Line age o‘yini xavflilik jihatdan yuqori darajadadir. Bunda bola “shafqatsiz hayot” qo‘yniga sinnuqtayi avval virtual qahramoniga, ya’ni o‘ziga qilich tanlaydi. U turli bonuslarni (hadyalarni) yutgani sari qirg‘in quroli mukammallashib boravtradi. Masalan, qurollari – xom, som, arka, luk (kamon), bolg‘a, shina, qilich (drakonik), qilich (destrnыy), sochma miltiq va hokazolar virtual qiyofaga kuch beradi. Bundan tashqari birinchi leybllarda jonni ko‘paytiruvchi baflar, o‘q teshib o‘tmas BIJA kiyimlar, zirhlar D, A, S kategoriyalarda saqlanadi. Ularga ega chiqish uchun turli “mashaqqatli sinovlar”dan o‘tiladi. Turli qasrlarni kuch bilan egallaydi. Unda G‘arbdagi afsona-asotir obrazlari – oq-qora elflar, orklar, gnomlar, titanlar, aldoqchi “farishtalar”, badbashara odamlar bilan shafqatsizlarcha urush olib boriladi. Bunda rahm-shafqat ko‘rsatilmaydi, chunki, rahmdillik ko‘rsatadigan “qahramon” shu rahmdilligi qurboniga aylanadi. O‘yin shunday qurilganki, bunda ozgina rahmdillikni mahv qiluvchi yuzlab makrlar ishlatiladi.

Mazkur tarmoqlararo o‘yinda har bir qatnashuvchining bonuslari, joni, ximoya kiyimi kabi ashqol-dashqollari yashirilgan o‘z kodlari bo‘lib uni tasodifan topib olgan boshqa qatnashuvchi bemalol tap tortmay o‘g‘irlaydi va buning oqibatida o‘g‘irlik, behayolik, shafqatsizlik real hayotga ko‘chadi. Chunki, bunday bonuslaridan ajralgan bola admin orqali “o‘g‘ri”ning kimligini topib jazolamoqchi bo‘ladi. Albatta, jazolash faqat virtual olamdagina emas, balki mana shu real hayotda yuz berishi ham mumkin.

Afsuski, ma’lumotga ko‘ra, shu o‘yin oqibatida MDHda ikki marta qotillik jinoyati bo‘lgan. Bizda esa, bir marta bezorilik (mushtlashuv) yuz

berdi. Achinarlisi shundaki, ba’zi katta yoshdagilar ham bu o‘yinni qiziqib o‘ynayotganidir. “Shafqatsiz qahramon” o‘rni kelganida boshqa begona chorasiz “qahramonlar” bilan uyushib harakat qilishiga ham to‘g‘ri keladi. Qiyin vaziyatdan chiqib olgach esa, ular bir-biriga qarshi urishadi. Chunki, “sen o‘ldirmasang, seni o‘ldiradilar” aqidasi o‘yinning -oidasi-ir. Boyagina bir-biriga “yordam” bergan hamkor-ar bir-birini “o‘ldiradi”. Mana sizga mantiqsizlik, mana sizga maqsadsizlik, g‘ayriinsoniylik.[4,52]

Mamlakatimizda ma’naviy – ruhiy poklanish, milliy qadriyatlarni tiklash, vorislik an’analariga sadoqatli avlodni tarbiyalash va amaliyotga joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g‘oyasi atrofida birlashtirishdek ezgu maqsad yo‘lidagi izlanishlarni kelgusida ham zarracha susaytirmasligimiz lozim” [1.127-128].

Darhaqiqat, ma’naviy o‘zgarishlar jarayonlarining natijasida ijtimoiy ong mazmunida odamlar tafakkurida, xulq atvorida yangi qadriyatlar qaror topdi. Hayotga munosabatlar tizimi o‘zgardi. Yurt tinchli-i, Vatan ravnaqi, mamlakat barqarorligi kabi tinchlikparvarlik g‘oyalari qadriyat d-rajasiga ko‘tarildi. Bugungi jahon hamjamiyatida bunday qadriyatlarga kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston – Toshkent; ”O‘zbekiston” 2024-y. 560-b.

2.Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar T. “Muxarrir nashriyoti” , 2009. 20-b

3.Zokirov B. Globallashuv ziddiyatlari “Tafakkur” 1-son.2014, 29-b

4.”Jamiyat” gazetasi, 2017-yil 28-dekabr 52-son

G‘ulomjon Sapayev,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Xorazm hududiy bo‘linmasi rahbari, PhD, dotsent

GLOBALLASHUV VA AXBOROT MAKONIDA YoSHLAR MA’NAVIYATIGA TAHDIDLAR: MUAMMO VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

- ***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada globallashuv va axborot makonida yoshlar ma’naviyati va tarbiyasiga bo‘layotgan tahdidlar, mavjud muammolar va ularning sabablari haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, globallashuvning yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini oldini olish va unga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlar haqida so‘z yuritiladi*

- ***Abstract.*** *This article presents reflections on the threats to youth's spirituality and upbringing in the context of globalization and the information space, as well as the existing problems and their underlying causes. It also discusses modern approaches to preventing and counteracting the negative impact of globalization on the spiritual development of young people.*

- ***Kalit so‘zlar.*** *Globallashuv, internet, qadriyatlar, ijtimoiy tarmoq, mediamakon, OAV, tahdid, jamiyat, “Ommaviy madaniyat”, manipulyatsiya.*
- ***Key words.*** *globalization, internet, values, social networks, media space, mass media, threat, society, “mass culture”, manipulation.*

Avvalo aytish kerakki, globallashuv (lot. globus – er kurrasi) bu – jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo‘lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir. Shu bilan birga global makonning tutashligi, yagona jahon xo‘jaligi, umumiy o‘zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining rivojlanishi yoshlarning ma’naviy qadriyatlari, madaniyati, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Buning salbiy va ijobiy jihatlari bo‘lib, jahon miqyosida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy va axborot almashinuvini tezlashtiradi. Shu bilan birga yosh avlod global miqyosdagi yangiliklarga duch kelmoqda

Xususan, globallashuv natijasida yoshlar dunyoda bo‘layotgan o‘zgarish va yangiliklardan tezda xabardor bo‘ladi, rivojlanishdan orqada qolmaslik, hayotda katta yutuqlarga erishish uchun ko‘proq o‘z ustida ishlaydi, yangi bilim va kasblarni egallaydi, umuman yoshlar dunyo miqyosidagi yangi g‘oyalar va bilimlarga ega bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi. Qolaversa, shakllangan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi madaniy muloqot maydoni, qadriyatlarni integratsiyalashtiradi, turli xalqlar madaniyatlari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Ammo kuzatuv va o‘tkazilayotgan tadqiqotlar globallashuvning ijobiy tomonlari bilan birga, yoshlarning ma’naviyati va qadriyatlariga tahdid soladigan muammolar ham mavjud. Ayniqsa, globallashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydigan ommaviy axborot vositalari va yangi texnologiyalar rivoji, maxsus internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi yoshlar dunyoqarashi, g‘oya va qadriyatlarini salbiy tomonga o‘zgartirmoqda. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Globallashuv jarayonida axborot maydonidagi yangilanishlar ta’siri kuchayib, ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati ham tobora ortib bormoqda.” [1, 383 b]

Darhaqiqat, bugun ma’lumotlar almashinuvi osonlashdi, yoshlar orasida yangi global madaniyatlar shakllanib uning tarqalishi tezlashdi. Bunga turli “ommaviy madaniyat” turlari, egoizm, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, mehnat qilmay oson boyish, mustaqillik intilish kabilar yoshlar uchun muhim qadriyatlarga aylanmoqda.

Chunki, bugungi globallashuv sharoitida “ommaviy madaniyat” mafkuraviy tazyiq va ma’naviy tahdidlarning muhim quroliga aylangan.

“Ommaviy madaniyat”ning asosiy targ‘ibotchisi ommaviy axborot vositalari va internet bo‘ladigan bo‘lsa, uning asosiy vositasi madaniy mahsulotlardir, ya’ni kino, videofilm, multfilm, klip, qo‘shiq va boshqa shou-biznes namoyishlaridir. Olimlarning fikricha, ushbu mahsulotlarning asosiy mualliflari AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari bo‘lib, bu globallashuv jarayoni Sharq jamiyatining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga salbiy ta’sir qilmoqda. [2, 126 b]

Shundan kelib chiqib, globallashuv va erkin axborot makonining yoshlar ma’naviy hayotiga tahdid va salbiy oqibatlarini quyidagilar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, globallashuv madaniy qadriyatlarini buzadi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zgartirib, turli illatlarni normal qabul qilinishiga olib keladi. Masalan, bugungi yoshlar uchun jamoatchilik ko‘z o‘ngida o‘pishish, yarim yalang‘och kiyinish, badanlariga turli tatuirovkalar chizish va jamiyatning normalarini pisand qilmay axloqsiz hatti-harakatlari oddiy holga aylanib qolmoqda.

Ikkinchidan, axborot manipulyatsiyasi, ya’ni turli axborot manbalari orqali tahdidlar ortib, yoshlarni manipulyatsiya qilish xavfi, tarqalayotgan feyk ma’lumotlar ular dunyoqarashi va psixologiyasiga salbiy ta’siri kuchaydi. Chunki OAV, internet va “ommaviy madaniyat” iste’molchilarining katta qismini yoshlar tashkil qilmoqda.

Globallashuv dunyo miqyosidagi axborotning oson va erkin tarqalishi, turli madaniy ta’sirlarning kuchayishi, yoshlarda milliy va ma’naviy qadriyatlarning susayishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki, ushbu ma’lumotlarda milliy qadriyatlarga zid bo‘lgan g‘oyalar, uslub va xulq atvorlar ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar buni “axborot ekspansiyasi” deb baholaydilar.

Uchinchidan, ma’naviy inqiroz yuzaga keladi, ya’ni yashirin axloqiy qadriyatlar va ular bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, bir xil jinsli nikoh va noan’anaviy jinsiy oriyentatsiyalarning paydo bo‘lishi hamda ularning ommalashishda muhim rol o‘ynamoqda.

Internetdagi zararli kontentlar, yot g‘oyalar va ekstremizm ham bugungi kunda yoshlarning ma’naviyatini zaiflashtiradigan muammolardan biridir. Chunki internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan negativ kontentlar (axloqiy buzuq videolar, feyk xabarlar), turli negativ va radikal mafkuralar yoshlarda noto‘g‘ri tushunchalarni shakllantiradi. Bu axborot asimmetriyasi bo‘lib, ya’ni yoshlar ma’lumotlarni anglashdagi noto‘g‘ri tushunchalar va soxta yangiliklar ta’siri tushib qolish ehtimoli kuchayadi.

To‘rtinchidan, milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kuchayadi, aniqroq aytganda yoshlarning o‘z tarixi va madaniyatidan uzoqlashib, o‘zligini unutib boradi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, globallashuv va axborot makonidagi salbiy illatlarning tarqalishiga, axborot maydonida ma’naviy bo‘shliqlarga yo‘l qo‘yilishi ham sabab bo‘lmoqda. Biz ko‘pincha OAVlar va internetdagi yoshlar tarbiyasi va dunyoqarashini buzuvchi ma’lumotlarni tanqid qilamiz. Lekin bugungi

yoshlarning asosiy axborot manbai hisoblangan ushbu maydonni foydali, tarbiyaviy ahamiyatga ega va qiziqarli ma’lumotlar bilan to‘ldirilmaydi. Bu bo‘shliq esa zamonaviy madaniyat va yangicha qadriyatlar targ‘iboti oid axborotlar egallamoqda.

Shu sababli, globallashuvning tahdidlarini aniqlash va ularga qarshi samarali choralarni belgilash muhimdir. Ushbu xavflarning oldini olishdagi asosiy muammolar targ‘ibot vositalari hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bilan bog‘liq bo‘lib, bunga qarshi kurashishda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash talab etiladi.

Eng avvalo, mediamakonda yoshlar ishtirokida milliy kontentlar yaratish, ularda yoshlarbop, qiziqarli va tarbiyaviy mazmunga ega mavzularni ko‘tarib chiqish hamda zamonaviy usulda targ‘ib qilishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy, ommaviy tadbirlar samaradorligini oshirish, ularda milliy qadriyatlarni namoyish etish orqali milliy identifikatsiyani mustahkamlash. Ayniqsa yoshlarning faolligini oshirish, ularda milliy tarbiyani mustahkamlash maqsadida turli loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bularga qo‘shimcha ravishda chekka hududlarga borib, muntazam milliy kino va teatr gastrol tomoshalarini yo‘lga qo‘yish ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida milliy g‘oya va qadriyatlarni o‘rgatilishini kuchaytirish lozim. Qolaversa, ta’lim tizimini takomillashtirish, ya’ni alohida ta’lim dasturlari ishlab chiqish orqali yoshlarda media savodxonlikni oshirish, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, feyk va salbiy xarakterdagi xabarlarga qarshi kurashish usullari o‘rgatish kerak. Chunki globallashuv jarayonining asosiy vositalari OAVlar va internat hisoblanib, bugungi yoshlarning axborot olish, izlash, tarqatish bilim hamda madaniyatini yuqori emas. Prezident Sh.Mirziyoyev aytganidek, “Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, global internet tarmog‘i orqali tarqatilayotgan buzg‘unchi g‘oyalar, g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi “jozibador” tasvirlar va media mahsulotlar tarqalishining oldini olishga qaratilgan ishlarning natijadorligi sezilmayapti” [1, 278 b].

To‘rtinchidan, mahalla va keng jamoatchilikning yoshlar hayoti va taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish lozim. Uzoq o‘tmishda shakllangan noyob jamoat instituti bo‘lgan mahalla bugungi kunda jamiyatimizdagi ma’naviy islohotlar uchun ham mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. “Mahalla – xalq vijdoni” degan munosib ta’rifga javob berishi uchun ham zamonaviy yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga, dunyoqarashi va madaniyatining shakllanishiga bevosita mas’uldir [3, 39 b].

Xulosa o‘rnida aytganda, hozirgi globallashuv va axborot zamoni yoshlarning ma’naviyati va qadriyatlari uchun katta imkoniyatlar bersa, boshqa tomondan jiddiy tahdid ham tug‘dirmoqda. Bu muammolar bilan kurashish, yoshlar ma’naviyati va milliy qadriyatlarni saqlab qolish uchun zamonaviy yondashuvlar asosida chora-tadbirlarni amalga oshirish, axborot madaniyatini oshirish, yoshlarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamoatchilikka integratsiyalangan harakat zarur. Bu borada davlat, jamiyat va oila hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021. 464 b.

2. Globallashuv va milliy-madaniy taraqqiyot tendensiyalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent, “Fan va texnologiyalar” 2015. 126-bet.

3. “Dunyo globallashuv jarayoni va O‘zbekiston yoshlari” mavzusidagi onlayn xalqaro yoshlar ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyasi maqolalar to‘plami – Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. 163 bet.

Umidjon Musayev,
Ma’mun universiteti dotsenti, PhD

GLOBAL O‘ZGARISHLAR DAVRIDA YOSHLARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada yoshlar o‘zining kreativ va ijodiy tafakkur imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hamda ularni g‘ayritabiiy fikrlash qobiliyati hisoblanmish kreativ tafakkurlashni shakllantirishga e’tibor qaratilgan.*

♦ ***Abstrac:*** *This article focuses on the development of young people’s skills to fully utilize their creative and imaginative thinking potential. Special attention is given to fostering creative thinking, which is considered an essential ability for non-standard and innovative thought processes.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *Yoshlar, kreativ qobiliyat, kreativ tafakkur, kreativlik ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi, o‘quvchi, talaba, yoshlar, rivojlanish va innovatsiya.*

♦ ***Key words:*** *youth, creative ability, creative thinking, creativity in education, upbringing, teacher, student, learner, development, innovation.*

Globallashayotgan dunyoda o‘zimizning munosib o‘rnimizni egallash, mamlakatimizning har bir fuqarosi, ayniqsa, yosh avlodning hartomonlama bilimli, jismonan sog‘lom, ruhan tetik, terak fikrlovchi, ongi va tafakkuri yuksak darajada shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida ko‘plab sohalarda bo‘layotgan yangiliklar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyoti ko‘p jihatdan yoshlarning ilmiy salohiyatini darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Shunday ekan yoshlarda kreativ, ijodiy va innovatsion fikrlashni shakllantira olsak, bu bora bora o‘z mevasini beradi. Maqolada aynan kreativ qobiliyat va kreativ

tafakkurni shakllantirish haqidagi fikr va mulohazalarini tahlil qilib o‘tilgan.

Kreativ qobiliyat haqida yanada kengroq fikr yuritilganda, inson ma’lumotlarni faol aks ettiruvchi organizm bo‘lib, ma’lumotlarning algoritmik joylashuvi va strategiyalarni analiz – sintezini fikran aks ettirish yordamida sistemalashtirish asnosida yodida saqlaydi. Shu tariqa, kreativ tafakkurda ma’lumotlarni qayta ishlash hamda uzatilishi va javob berishgacha bo‘lgan jarayon mohiyati o‘rganiladi. Rus olimi I.A.Ponamaryov tadqiqotlarida inson va mashina tafakkurining farqli tomonlarini ochib berishga harakat qiladi[1]. Mashinaga biriktirilgan sun’iy tafakkur ma’lum belgilar va buyruqlarga tayanib aniq sxemalashgan amallar yoki buyruqlarni bajaradi hamda harqanday vaziyatda ham ulardan chetlashmaydi, inson esa amaliy yoki nazariy, ijodiy yoki tasodifiy muammolarda aqli hamda o‘zi (vijdoni)ga tayanadi, shunisi bilan mashinadan farq qiladi. Mazkur yondashuv orqali shuni bilib olish mumkinki harqanday aqlli sun’iy intellekt ham inson kabi fikr yurita olmaydi.

Mohiyat e’tibori bilan qaraydigan bo‘lsak, mashinacha tafakkurga ega “mashina inson” tafakkuri faqat bir jihati – simvolik fikrlashni amalga oshiradi, vaholanki, insonning fikrlash jarayoni amalda falsafiy jihatdan iroda, emotsiyalar, intuitsiya, orzu, fantaziya va hokazolardir. Inson ichki dunyosining boyligi uning ijtimoiy aloqalari boyligi va serqirraligining mahsuli hisoblanadi[2, 305]. Insonning tafakkur olami ba’zi jihatlarda xatoliklarga yo‘l qo‘ysada, mashina tafakkuridan ustun hisoblanadi. Bu mashina insonga xos ijodiy tafakkur mahsulidir. Mashinada esa bunday tafakkurning o‘zi yo‘q, sxemalashgan va qolipga solingan amallar va buyruqlarni o‘z ichiga oladi.

Yoshlarda kreativ va ijodiy tafakkur qachon o‘zining cho‘qqisiga chiqadi, u ijodiy qobiliyat bilan birgalikda kreativ jilokorlikni ham shakllantira olsa. Yoshlarda bolalik davrda obrazli tafakkur yetakchi xususiyatga ega bo‘ladi. Bu qobiliyat obrazda bolalarda hayoliy ijod birinchi o‘ringa chiqib oladi. Umuman har bir shaxsni ijodiy qobiliyatga ega, ammo uni shakllantirish motivatsiya va harakatga bog‘liq.

Agarda yoshlarda aqliy qobiliyat yuqori bo‘lsa, ijodkorligi va kreativ qobiliyati samarali bo‘ladi. Barcha yoshlar kreativ va intellektual qobiliyatini shakllantira oladi, lekin ammo kreativ qobiliyatlarini shakllantira olmasligi ham mumkin. Jahon ilm-fanida tafakkurning turlari juda ko‘p talqin etilgan bo‘lib, ularning shaxs kamolotiga bevosita ta’siri amaliy va nazariy jihatdan izohlanib-kelingan. Tafakkurning serqirraligi bundan keyingi ixtirolar, kashfiyotlar, innovatsiyalar va o‘zgarishlar davom etishiga zamin yaratgan. Shaxs o‘z menini, o‘zligini kashf etishida kreativ tafakkurning o‘rni qanchalik beqiyos bo‘lsa, tashqi olamni anglab etish va o‘zgartirishda kreativ tafakkurning o‘rni beqiyosdir.

Aynan biror bir predmetdan turli xil maqsaddan foydalana olish ya’ni naqqoshlik hunarini egallayotgan bolaga turli shakllarni, gullarni hamda barglarni aylana va targ‘il chiziqlarni o‘rgatilsa bola asta sekinlik bilan yangi naqsh kompozitsiyalarni yarata boshlashi bilan, shaxmat o‘yinini endi o‘rganayotgan bolaga shaxmat donachalarini qanday yurishini o‘rgatib raqibini mot qilish uchun kichik

birlamchi kombinatsiyalarini o‘rgatilsa u asta sekinlik bilan murrakab kombinatsiyalarni o‘zi ijod qila boshlaydi. Ana shunday aqliy faoliyat orqali yoshlarda kreativ tafakkur o‘zini namoyon qilib boradi.

Bilimlarni o‘zlashtirishda kreativ tafakkur asnosida yondoshish orqali yangi ilmiy kashfiyotlar yoshlar tomonidan kashf etiladi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning intellektual salohiyat va innovatsion tafakkur darajasini ko‘rsatadi. Demak, yoshlarning barkamol shaxs bo‘lib etishlarida intellektual salohiyati yuqori bo‘lishi kreativ tafakkurning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Buning uchun esa yoshlarning imkoniyatini, qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi ta’lim maskanlari, oila hamda uni qurshab turgan ijtimoiy muhitning ta’siri beqiyosdir.

Kreativlik – hozirgi vaqtga kelib barchaning tafakkuri, ongi, fikri-hayoli va ohangida yangrayotgan so‘z bo‘lib, uni turli-tuman kasb egalari bo‘lgan (adabiyotshunoslar, rassomlar va nafaqat ijod sohasidagi) insonlarning faoliyatida shaxsiy, ijodiy va aqliy xususiyat sifatida ko‘rish mumkin. Kreativ tafakkurga ega odamlarni katta-katta kompaniyalar, muassasa va tashkilotlar doimiy mijoz sifatida hamkorlik qilishga intilishadi. Kreativ tafakkur sohiblarini yuksaklarga ko‘tarib misli ko‘rilmagan oylik maoshlari, yashash va istiqomat qilishlari, ishlash va faoliyat olib borishlari uchun zarur qulay sharoitlar yaratib beradi. Ular mabodo ishini boshqa joyga ko‘chiradigan bo‘lsalar, bu davrni shirin xotiralarda qo‘msab yuradilar.

“Kreativlik”, “kreativ tafakkur”ni soddaroq tushuntiradigan bo‘lsak, kashfiyotlar va noodatiy yoki oddiy vaqtda o‘z davrida orginallikni kasb etuvchi g‘oyalarni yaratish, topish, jamiyatda tafakkur uchun qabul qilingan qolib va formalardan chetlashgan holda o‘z oldida turgan vazifalarni nostandart usullarda ijobiy, muvaffaqiyatli hal etish, hal etilmagan taqdirda ham harsafar yangicha g‘oyalar va yondashuvlar bilan yechishga urinish qobiliyatiga aytiladi. Bu degani o‘ziga yuklatilgan vazifa va yechimini topishi kerak bo‘lgan muammolarni boshqa burchak ostida ko‘rishdan iboratdir. Kreativ tafakkur – bu jo‘shqin, fantazion tabiatga ega bo‘lgan sevish va sevilish, yaratuvchanlik, ijodkorlikni birinchi o‘ringa ko‘taruvchi tafakkur shaklidir.

Kreat-v tafakkurni innovatsion tafakkurning asosi deb qabul qilishimiz mu-kin. Shu o‘rinda, faylasuf Sh.Qo‘shoqov innovatsion tafakkur haqida shunday fikrlar bildirgan. Bu haqda muallif: “innovatsion tafakkur insonning o‘sib va takomillashib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga, yangidan-yangi g‘oyalar, loyihalar va qadriyatlarni ixtisoslashgan jamoalar va kasb sohalarida muntazam ravishda ishlab chiqarishga qaratilgan ijodiy tafakkur” [3, 17], ekanligini ta’kidlaydi.

Kreativlik – bu oldindan aytib bo‘lmaydigan, original va noyob narsalarni tasavvur qilish qobiliyatidir. Bu ifodali, hayajonli va ijodiy bo‘lishi kerak. Bu inson harqanday sharoitda ham qanchalik yaxshi fikrlay olishining ko‘zgusidir. Demak, kreativlik ko‘proq tafakkurda kechadigan ruhiy kognitiv jarayon bo‘lsa, innovatsiya esa uning tatbiqi va natijasidir. Kreativlik nazariya desak, innovatsiya esa uning amaliyotidir. Noodatiy fikrlovchi kreativ tafakkur egalari o‘z taqdirlarini

ro‘yobga chiqarish yo‘lida o‘ziga xos uslublari bilan tinimsiz ravishda izlanadi. [4, 13].

Hayotiy faoliyatida muvaffaqiyat qozongan insonlarning tarjimai holi va tarixini tadqiq etar ekansiz, kreativ tafakkur hamda kreativlik imkoniyatlar cho‘qqisiga harqanday yoshda, harqanday sharoitlarda erishish mumkin, degan xulosaga kelish mumkin. Kreativ tafakkur shaxslarning uch turini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchilari, o‘spirinlik vaqtigacha bo‘lgan davrida o‘zining ijodkorlik cho‘qqisiga chiqishi mumkin, kimlardir o‘zlaring ijodkorlik fazilatlarining barchasini 20-30 yoshidayoq to‘liq namoyon qila oladilar, boshqalari esa juda sekin, asta-sekinlik bilan ularning eng oliy ijodlari va g‘oyalari hayotining ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi ya’ni yetuklik davrida. Boshqalari esa o‘zlarining kreativ kashfiyotchilik qobiliyatlarni yuzaga chiqarmay so‘ndirib yuborishadi.

Xulosa qilib aytganda, tafakkurning o‘ziga xos qobiliyatlari va kreativ tafakkurni, ijodiy qobiliyatlarni, kreativ tafakkurni va kreativlikni harqanday yoshda ham rivojlantirishi mumkin hisoblanadi. Biroq, bizlarning ko‘pchiligimiz o‘zimizdagi kreativ qobiliyat va ijodiy iste’dodni tan olishga tayyor emasmizmi yoki tayyor bo‘lsak ham dangasalik, loqaydlik illatlari domiga tushib, undan xalos bo‘la olmaymiz, vaholanki kreativ tafakkur va ijodkorlik ko‘plab insonlarga xos tushunchadir.

Bizning maqsadimiz, kelajagi buyuk davlat poydevori bo‘lmish yosh avlodni hartomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash va bu borada sa’y-harakatlarni amalga oshirib kelayotgan davlatimiz rahbari va xalqimiz, buyuk ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ilin Ye. P. «Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti» // http://parksgt.tsu.ru/upload/iblock/ aa9/aa9d04efbc67703011c9623eb383db15.pdf

2. Shermuxamedova N. Falsafa o‘quv-uslubiy majmua. –Toshkent: Noshir, 2012. – B. 305.

3. Qo‘shoqov Sh.S. Innovatsion tafakkur konsepsiyasi // Fan va falsafada innovatsion tafakkur muammolari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand: SamDU, 2010. – B. 17.

4. Tereza M. Amabayl. Kreativnoye мышleniye v biznese / Per. s angl. – M: Alpina Biznes Buks. Seriya «Klassika Harvard Business Review»), 2006. – S.13.

Jamshed Jurayev,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari, dotsent

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING MARGINALLASHUVI VA UNING JAMIYAT XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI

♦ ***Annotatsiya.*** *Maqolada globallashuv jarayonida yoshlar muhitida yuzaga kelayotgan radikallashuv, ekstremizm va terrorizm kabi xavflar tahlil qilingan. Zamonaviy jamiyatda yot mafkuraviy g‘oyalar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilishi, yoshlarning axloqiy va ma’naviy qadriyatlaridan uzoqlashuvi, marginal guruhlarning paydo bo‘lishi kabi muammolar ochib berilgan. Shuningdek, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni radikal g‘oyalardan himoya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

♦ ***Abstract.*** *The article analyzes threats such as radicalization, extremism, and terrorism emerging among young people in the context of globalization. It discusses issues including the spread of foreign ideological ideas via social networks, the distancing of youth from moral and spiritual values, and the emergence of marginal groups in modern society. Practical recommendations are also provided for the spiritual and moral education of the younger generation, as well as for protecting them from radical ideas.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *globallashuv, radikallashuv, ekstremizm, terrorizm, marginallashuv, axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, mafkuraviy immunitet, kiberterrorizm, ijtimoiy tadqiqotlar, g‘arb madaniyati, milliy qadriyatlar, ijtimoiy tahdidlar.*

♦ ***Key words.*** *globalization, radicalization, extremism, terrorism, marginalization, information security, social networks, spiritual and moral education, ideological immunity, cyberterrorism, social research, Western culture, national values, social threats.*

Globallashuv sharoitida dunyo hamjamiyatida ham tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ayniqsa, har qanday mamlakat o‘z xavfsizligi ta’minlashda, eng avvalo, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy izlanishlarni olib borishni talab qiladi.

Yoshlardagi radikallashuv umumiy qabul qilingan axloq normalari va huquqiy normalarga qarshi chiqish, uning qadriyatlariga mos kelmaydigan xatti-harakatlarni amalga oshirish kabi holatlar tushuniladi. Yoshlar muhitidagi buzg‘unchi hodisalar, yoshlarning turli radikal va ruxsat etilmagan ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy guruhlar, mitinglar, yurishlarga jalb etuvchi noqonuniy hodisalarga bo‘lgan

qiziqishini uyg‘otish kabi keskin o‘zgarishlar davrida yashab kelmoqdamiz.

Ma’lumki, ayrim tashqi, ichki kuchlar va shaxslar davlatga oid negativ ma’lumotlarni asos qilib, o‘zaro kichik jamoalar o‘rtasida nizo, tartibsizliklarga da’vat etish holatlari kuzatilmoqda.

Kuzatuvlarga ko‘ra, zamonaviy dunyo turli xil radikal uyushmalar, harakatlar, guruhlar, submadaniyatlar va ekstremistik yo‘nalishdagi tashkilotlarning ham rasmiy guruhlar sifatida paydo bo‘lishi, ham ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ib qilinayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Bunday radikallashuvning yuzaga kelishi tashqi kuchlarning o‘rni va roli yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Davom etayotgan globallashuv jarayonlariga qaramay, zamonaviy davlatlar yoshlarning marginallashuvi natijasida radikal g‘oyalar keltirib chiqarayotgan muammolarga o‘z vaqtida javob bera olmasligini isbotladi. Buning sababi globallashayotgan jamiyatda jadal rivojlanayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlarni aks ettirishga tayyor bo‘lmagan davlat institutlarining konservativ tabiati misol bo‘la oladi.[5, 75 b.] Ushbu fojiali oqibatlarni ijtimoiy tarmoqlar va jahon OAVlari orqali kuzatib turibmiz.

Hayratlanarlisi shundaki, bu kabi holatlar hali ham mavjud. Lekin bilishimiz kerakki, qurolning o‘zi emas, balki uni ishlatgan odam o‘q uzadi. Dinlarning o‘zi emas, balki insonlar bir-biri bilan mojaroga boradi. Hatto din nomidan qilingan urushlarda ham, ayb dinda emas, balki uni noto‘g‘ri talqin ong-ub ishlatgan insonlardadir. Chunki aslida din insonlarni doim yaxshilik va taraqqiyot tomon chorlaydi.

Shu o‘rinda, Marginallashuv – bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning o‘z jamiyatining asosiy qadriyatlari, ijtimoiy me’yorlari va madaniy an’analaridan uzoqlashib, ijtimoiy hayotdan chetlashishi jarayonidir. Bunday holatlarda inson yoki guruh jamiyatdagi o‘z mavqeini yo‘qotib, ijtimoiy munosabatlar tizimidan tashqarida qoladi.[3, 114 b.]

Marginallashgan odam yoki guruhlar jamiyatning umumiy me’yorlari va qadriyatlariga qarshi chiqib, radikal g‘oyalarga moyil bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning turli ekstremistik harakatlarga jalb etilishiga va natijada ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka sabab bo‘ladi.[4, 196 b.]

XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida diniy mutaassiblik, ekstremizm, terrorizm, missionerlik, ommaviy madaniyat kabi tahdidlar davlat va jamiyat xavfsizligi, fuqarolar tinchligiga jiddiy xatar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning marginallashuvi natijasida radikalizm g‘oyalariga ta’sirli bo‘lish kabi yangi tendensiyalar yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda dunyoda marginal guruhlar tomonidan radikallashuv oqibatida yuzaga kelayotgan terrorizmning quyidagi asosiy ko‘rinishlarini kuzatish mumkin:

- davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va ichki siyosatni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan marginal guruhlar – **siyosiy terrorizm**ni keltirib chiqaradi;

- tashkilot va ayrim shaxslarning strategik ahamiyatga ega mulklari, korxonalar va inshootlarni qo‘lga kiritish orqali iqtisodiyotni izdan chiqarishga yo‘naltirilgan marginal guruhlar **iqtisodiy terrorizm**ni keltirib chiqaradi;

- ma’lum millat vakillari va milliy guruhlarning bir hududda yashaydigan boshqa millat va milliy guruhlarga qarshi qaratilgan marginal guruhlar – **etnik-milliy terrorizm**ni keltirib chiqaradi;

- davlat xizmatchilari tartibsizligini yuzaga keltirishga qaratilgan va jamiyatning kuch ishlatar, harbiy tuzilmalarini izdan chiqarishga yo‘naltirilgan marginal guruhlar – **funksional yoki tizimli terrorizm**ni keltirib chiqaradi;

- ayrim ekstremistik guruhlarning turli dinlar niqobi ostida hokimiyatni egallab olish maqsadini ko‘zlagan marginal guruhlar - **diniy terrorizm**ni keltirib chiqaradi;

- turli uyushgan jinoyatchi elementlardan iborat bosqinchi guruhlar o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik orqali hukumatni obro‘sizlantirish, jamiyatda qo‘rquv va ishonchsizlik muhitini vujudga keltirish, anarxiyani yoyiga yo‘naltirilgan marginal guruhlar **jinoiy (kriminal) terrorizm**ni keltirib chiqaradi;

- kibermakonda vahimani yuzaga keltirish, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarda iste’molchilik madaniyatini shakllantirish, axborot-psixologik qurol orqali yoshlarni ongini buzish, turli onlayn o‘yinlar orqali *“axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar”*ni sodir etuvchi marginal qatlam – **kiber yoki axborot terrorizm**ni keltirib chiqaradi.

Shiddat bilan kuchayayotgan axborot globallashuvi natijasida, yot mafkuraviy ta’sirlar, ayniqsa, yoshlar tafakkurini egallashga qaratilgan g‘arazli radikal tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi davrda bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashash, har birimizning burchimizdir. Yurtimizda yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirish borasida, ularni turli tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, tafakkurini yuksaltirish, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Tahlillarga ko‘ra, madaniyatlar to‘qnashuvi oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy noaniqlik yoshlar tarbiyasi va xulq-atvoriga o‘tkazayotgan salbiMehr-udikal) marginallashuvning yuzaga kelishi quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

1. G‘arbning rivojlangan mamlakatlarida ommaviy axborot industriyasining rivojlanishi natijasida tezkor internet, mobil aloqa va undagi dasturlar va turli tuman ijtimoiy tarmoqlar ortidan «bloger»lar va yangi turdagi ijtimoiy tarmoq faollari (agentlari, ishtirokchilari) kirib keldi. Ularning ba’zilari tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda tarqatayotgan, **filtrlanmagan video roliklar**, o‘sib kelayotgan yosh avlodga iste’molchilik madaniyatini shakllantirish, milliy qadriyatlar, an’analar va tarixiy ildizlardan uzoqlashtirish kabi xufyona axborot siyosatini amalga oshirmoqda.[9, 3 b.]

2. Yoshlar qatlamiga kirib kelayotgan yot madaniyat va uning radikal ko‘rinishlarining tobora keng tarqalishi, xususan, ularning kiyinishlarida, qiziqishlarida, bo‘sh vaqtni o‘tkazishida, milliy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘layotgan munosabatlarida namoyon bo‘lmoqda. Marginallashuv ketidan yuzaga kelayotgan radikallashuv yoshlarimizda **egotsentrizm va individualizm, andishasizlik va behayolik, zo‘ravonlik va irodasizlik**, tarixan shakllangan qadriyatlarga hamda jamoaviy ijtimoiy manfaatlarga **bepisandlik** bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlarni yuzaga chiqarmoqda.[10, 4 b.]

3. Yoshlar qatlamida keng yoyilayotgan **g‘arbona posmodernga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish** kabi jarayonlar ham kuzatilmoqda. E’tiborli jihati shundaki, G‘arb madaniyatida keng tarqalayotgan yurish-turish, moda va tAb-ui xil tarmoqlar orqali yoshlarimizning psixikasini egallab olayotganini, ularning xatti-harakatlaridan sezish mumkin. Natijada, yoshlarning kitob o‘qishidan ko‘ra kompyuter o‘yinlari oldida samarali vaqtini o‘tkazish, mazmun mohiyatan sayoz bo‘lgan turli janrdagi anime multfilm va badiiy filmlarni tomosha qilishlari, odat tusiga kirmoqda. Mazkur masala yuzasidan internet tarmoqlarida alohida hamjamiyatlar, forumlar va muhokamalar tashkil qilinib, yoshlarni ushbu jarayonlaridagi faolligini kuzatish mumkin.[11, 59 b.]

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, mamlakatimizda *“Vatan kelajagi yoshlar qo‘lida”* loyihasi asosida “*Internet madaniyati va axborot xavfsizligi – muhim vazifamizdir”* hamda 2*Biz vayronkor g‘oyalarga qarshimiz”*, *“Jaholatga qarshi ma’rifat”* kabi mavzularida tadbirlar ko‘p joylarda o‘tkazilib kelinmoqda. Bu kabi tadbirlar yurtimiz aholisi, xususan, yoshlar va ayollar ongini zaharlashga urinayotgan kuchlarga aldanmaslik uchun g‘oyaviy immunitetni oshirish va ogoh bo‘lishga xizmat qilishi shubhasiz. Biroq, ko‘lam jihatidan marginal qatlam bo‘lgan yoshlar targ‘ibot tadbirlari qamrovidan chetda qolishi, ular G‘arb talabi bo‘yicha tadbirlar mazmunini istashi sabab, oraliq ya’ni marginal holatga tushishgan.

4. Yoshlarni ma’nan ilm asosida tarbiyalash deganda, ularni manfaatli bilimlar sohibi sifatida tarbiyalash, aqlan yetuk shaxs qilib jamiyatga integratsiya qilish nazarda tutiladi. Ilm-ma’rifatli fazilat egasi bo‘lish nechog‘lik yuksak ekanligini barchamiz bilamiz. Manfaatli ilm bilan davlat obod, odamlar hayoti farovon, qo‘ygan qadami doimo barakali bo‘ladi. Shuning uchun ham hadisi sharifda: *“Sizlarning eng yaxshilaringiz bu dunyoni deb oxiratini unutmagan, oxiratini deb bu dunyosini unutmagan va o‘zgalarga qaram bo‘lmaganingizdir”*, - deyilgan.[12.]

5. Yoshlarni tarbiyasida ustuvorlik sifatida rostgo‘ylik, kattaga hurmat, kichikka izzat, omonatdorlik, ilmni qadrlash, mas’uliyat, va’daga vafo, barchaga mehr-oqibatli bo‘lish kabi xislatlar sohibi sifatida voyaga yetkazishga e’tibor qaratiladi. Shuning uchun ham Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: *“Ota o‘z bolasiga chiroyli odobdan ko‘ra yaxshiroq narsa bera olmaydi”*, - deganlar (Imom at-Termiziy rivoyati).[13.] Odobli, axloqli farzandgina, avvalo, ota-onaning qadrini ulug‘laydi va xalq va Vatan uchun manfaatli ishlar qiladi. Uning qo‘lidan va tilidan boshqalar zarar ko‘rmaydi. Shuning uchun boshqa bir hadisda: *“Allohga qasamki, mo‘min*

emas, mo‘min emas, mo‘min emas, dedilar. Yo, Rasulullоh! Kim mo‘min emas?”, - deb so‘radilar. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “*Yomonligidan qo‘shni ozor chekadigan kishi mo‘min emas”*, - dedilar” (Imom al-Buxoriy rivoyati). Bugun yoshlarimizni yot g‘oyalardan himoya qilishni maqsad qilar ekanmiz, avvalo, ularni axloqiy tarbiyasini, jamiyatdagi har bir insonni qadri, haq-hurmatini o‘z joyiga qo‘yishni o‘rgatishimiz lozim.

6. Yoshlarni ham aqlan, ham jismonan sog‘lom, shijoatli va g‘ayratli bo‘lishlarida jismoniy tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Muqaddas islom dinida ham jismoniy tarbiya tushunchasi zamirida nafaqat badan tarbiya mashqlarini doimiy amalga oshirish, balki, yoshlarni sog‘lom bo‘lishi uchun zarur barcha tartib tamoyilga rioya qilish, ularni xavfli bo‘lgan salbiy illatlardan asrash nazarda tutiladi. Xalqimiz o‘zining hikmatli so‘zida “Sog‘ tanda - sog‘lom aql”, - deb bejizga aytmagan. Yoshlarimiz o‘z sog‘lig‘ini saqlash uchun harakat qilishlari, ularni turli behuda ishlardan va yot g‘oyalardan uzoq bo‘lishlariga omil bo‘la oladi.

“Yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko‘lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutadi. Ma’lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz”, - deya fikr bildirgan mamlakatimiz rahbari.[14.]

Bugun biz jadal sur’atlar bilan o‘sib kelayotgan yangi axborot-texnologiyalar asrida yashayapmiz. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlar yoshlarga radikal g‘oyalarni singdirishga oid axborot-psixologik quroliga aylanib, turli (ichki va tashqi) siyosiy kuchlar manfaatlariga ham xizmat qilayotganini inkor etib bo‘lmaydi.

Umuman olganda, global axborot asrida yoshlarni marginallashuviga qaratilgan yovuz va yot radikal maqsadlarni qayerdan va qanday yo‘llar bilan insonlar ongini egallab olayotganligini maxsus ijtimoiy tadqiqotlarsiz osonlikcha bilib bo‘lmaydi. Axborot iste’molchisi mavjud bo‘lgan har qanday davlatga va jamiyatga nisbatan uning siyosiy mustaqilligi va iqtisodiy erkiga, axloqiy qadriyat va urf-odatlariga, ongi va shuuriga tahdid soladigan, o‘z manfaatlari doirasida hukmronlik qilishdek harakatlar saqlanib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2021. B.26.

2. . O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 30 iyun kuni bo‘lib o‘tgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi.

3. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. –T.: 2013, B.114.

4. Jurayev , J. . (2023). The Marginalization Of Modern Youth In The Context Of Social Change. Eurasian Journal of Academic Research, 3(2), 191–198. https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/10084

5. Patrick Mendis. Glocalization: The Human Side of Globalization as If the Washington Consensus Mattered. – Lulu.com, 2007-01-01. – 442 p.

6. Djurayev Dj.R. (2023). Marginalizatsiya sovremennoy molodeji v kontekste sotsialnых izmeneniy. Yevraziyskiy Jurnal Sotsialnых Nauk, Filosofii I Kulturы, 3 (1), 58-66. https://doi.org/10.5281/zenodo.7563712

7. Djurayev, D. (2023). Theoretical basis youth marginalization. Obщestvo i innovatsii, 4(2/S), 387-394.

8. Jurayev, J. (2023). G‘arb olimlarining marginal shaxs va marginallik tushunchalariga oid ilmiy qarashlari. sentr nauchnых publikatsiy (buxdu. uz), 29(29)..

9. Jurayev, J. (2023). Ilmiy ommada marginallashuv atamasiga oid turli yondashuvlar. Sentr nauchnых publikatsiy (buxdu. uz), 29(29).

10. Jurayev, J. R. (2022). Kulturnaya transformatsiya: teoreticheskiye voprosы ponimaniya termina «marginalnost». Jurnal sotsialnых issledovaniy, (si-2).

11. Djurayev, D. (2023). Marginalizatsiya sovremennoy molodeji v kontekste sotsialnых izmeneniy. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 3(1 Part 2), 58-66.

12. https://xs.uz/uzkr/post/ilm-marifat-ogohlik-hushyorlik-zhaholatga-qarshi-kurashishda-mustahkam-pojdevordir

13. https://www.naqshband.uz/makolalar/dinimizda_yoshlar_tarbiyasi

14. https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda

Nodira Rustamova,
ISFT Instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti, PhD,
Mediatadqiqotlar bo‘yicha xorijiy ilmiy ekspert

MILLIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA RAQAMLI AVLOD: O‘ZBEKISTON YOSHLARINING IJTIMOIY-MADANIY IDENTITETI SHAKLLANISHIDA TIKTOK VA INSTAGRAM OMILI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-madaniy identiteti shakllanishida TikTok va Instagram kabi raqamli platformalarning ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida milliy qadriyatlarning raqamli maydonda transformatsiyalanish holatlari kontent-tahlil, so‘rovnoma va fokus-guruhlar orqali o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy qadriyatlar zamonaviy ifoda shakllarida namoyon bo‘lib, “raqamli identitet” tushunchasi paydo bo‘lmoqda. Tadqiqot O‘zbekistonga xos tipologik modelni ishlab chiqish hamda zamonaviy axborot makonida qadriyatlar evolyutsiyasini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the influence of digital platforms such as TikTok and Instagram on the formation of the socio-cultural identity of youth in Uzbekistan. The study explores the transformation of national values in the digital space through content analysis, surveys, and focus groups. The findings reveal that traditional values are being expressed in modern forms, leading to the emergence of the concept of a "digital identity." The research contributes to the development of a typological model specific to Uzbekistan and provides a scientific basis for understanding the evolution of values in the modern information space.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *milliy qadriyatlar, raqamli identitet, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar madaniyati, transformatsiya.*

♦ ***Key words:*** *national values, digital identity, social networks, youth culture, transformation.*

Zamonaviy axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi ijtimoiy ong va madaniy qadriyatlarning shakllanishiga keskin ta’sir ko‘rsatmoqda [1]. Ayniqsa, raqamli maydon – TikTok, Instagram kabi platformalar orqali o‘zbek yoshlarining dunyoqarashi, ijtimoiy normalarga munosabati va milliy identiteti yangi, ilgari kuzatilmagan shakllarda evolyutsiyalanmoqda [6].

Mazkur jarayonda qadriyatlarning transformatsiyasi faqat tashqi ta’sirlar natijasi bo‘lib qolmasdan, balki ichki islohotlar – ta’lim, madaniyat va

axborot siyosatining tub o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liqdir [2]. Bu esa milliy o‘zlik, an’anaviy madaniyat va globallashuv o‘rtasida o‘ziga xos “raqamli identitet”ning shakllanishiga olib kelmoqda [3].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi, avvalo, O‘zbekiston jamiyatida yosh avlodning axborot texnologiyalari vositasida qanday axloqiy va madaniy qarashlarni shakllantirayotgani, qanday qadriyatlarni qabul etayotgani yoki rad etayotgani ustidan ilmiy tahlil olib borish zaruratida namoyon bo‘ladi [4].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-madaniy identiteti shakllanishida TikTok va Instagram kabi raqamli platformalarning o‘rnini tahlil qilish, hamda bu platformalar orqali milliy qadriyatlarning transformatsiyaga uchrashi mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Vazifalar:

1. Milliy qadriyatlarning tarixiy shakllanishi va ularning zamonaviy kontekstdagi o‘zgarishlarini nazariy tahlil qilish;
2. Raqamli platformalarning yoshlar ongiga psixologik va madaniy ta’sirini aniqlash;
3. TikTok va Instagram'dagi kontentlar orqali tarqalayotgan qadriyatlar tipologiyasini ishlab chiqish;
4. Yoshlar orasida ijtimoiy so‘rov va kontent tahlili asosida real tendensiyalarni aniqlash;
5. Transformatsiyalashayotgan qadriyatlar asosida yangi “raqamli identitet” modelini taklif etish.

Mazkur tadqiqotda zamonaviy ilmiy yondashuvlardan biri bo‘lgan kombinatsiyalashgan metod (**Mixed Methods**) qo‘llanildi. Bu yondashuv orqali sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tadqiqot uslublari birgalikda qo‘llanilib, masalaning har tomonlama chuqur tahlil etilishi ta’minlandi. Raqamli avlod vakillarining qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlarini chuqur tushunish uchun turli metodlardan foydalanish zarur bo‘ldi.

Avvalo, **kontent-tahlil** usuli asosida TikTok va Instagram platformalaridagi eng ommabop (ko‘p ko‘rilgan, layk va izohlar soni yuqori bo‘lgan) **100 ta post va videorolik** tanlab olindi. Ushbu kontentlar tematik filtrlar asosida tanlandi: **#madaniyat, #uzbekculture, #modernlife, #an’ana** kabi heshteglar orqali izlanildi. Kontentlar estetik ifoda, milliy unsurlar ishtiroki, qadriyatlar talqini va trendlarning zamonaviy ko‘rinishlari bo‘yicha kodlangan va tipologik jihatdan tasniflangan.

Shuningdek, miqdoriy tahlil doirasida 300 nafar 18-25 yoshdagi o‘zbek talaba-yoshlari o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi. Respondentlar turli oliy ta’lim muassasalaridan va ijtimoiy tarmoqlardagi ochiq chaqiriqlar orqali jalb qilindi. So‘rovnoma savollari ularning raqamli platformalardan foydalanish odatlari, milliy qadriyatlarga munosabati, zamonaviy axloqiy mezonlarga yondashuvi kabi jihatlarga qaratilgan.

Tadqiqotning sifatli qismida esa fokus-guruh intervyulari o‘tkazildi. To‘rtta fokus-guruh shakllantirildi, har birida 8-10 nafar ishtirokchi qatnashdi. Guruhlar tarkibida oliy ta’lim talabalari, blogerlar, yosh o‘qituvchilar va faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari bo‘ldi. Ular bilan qadriyatlar, raqamli muhitdagi shaxsiy tajriba, milliylik va global trendlar haqidagi qarashlar bo‘yicha chuqur muloqotlar olib borildi.

Tadqiqotning nazariy poydevori sifatida quyidagi yondashuvlar tanlandi: J.Baudrillardning simulyakrlik nazariyasi – raqamli kontent orqali yuzaga kelayotgan real va sun’iy obrazlar qarama-qarshiligi; A. Giddensning modernlik va identitet nazariyasi – yoshlarning o‘zligini shakllantirishdagi refleksiv jarayonlar; hamda G.Hofstedening madaniy o‘lchovlar modeli – turli madaniy kontekstlarda qadriyatlar shakllanishi va ularning o‘zgarish darajalarini ko`rish imkonini berdi.

Ushbu kompleks metodologik yondashuv orqali milliy qadriyatlarning raqamli platformalarda qanday qayta ishlab chiqilayotgani, yoshlar ongida qanday o‘zgarishlar yuz berayotgani aniqlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqotning empirik bosqichida TikTok va Instagram platformalaridagi kontentlar, talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma va fokus-guruh intervyulari asosida milliy qadriyatlarning transformatsiyasi turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘layotgani aniqlandi.

1-misol. TikTok kontent tahlili. Tahlil qilingan 100 ta ommabop video asosida TikTok platformasida milliy qadriyatlar estetik jihatdan saqlanayotgan bo‘lsa-da, ularning mazmuniy yuklamasi zamonaviy kontekstda qayta talqin qilinayotgani kuzatildi. Masalan, “Kelinlar Challenge” deb nomlangan videolar seriyasida o‘zbek milliy libosidagi qizlar raqsga tushayotgan bo‘lishiga qaramay, raqsning dinamizmi, sahnalashtirilganligi va fon musiqasi g‘arbona uslubda bo‘lib, bu qadriyatlarning zamonaviylashtirilayotganini anglatadi.

Yana bir namunada, “Yangi yil sovg‘alarim” deb nomlangan videoroliklar seriyasida materialistik qadriyatlar – telefon, kosmetika, kiyim-kechak singari buyumlar orqali shaxsiy baxt va qadriyat tushunchalari ifoda etilgan. Bu esa g‘arbona iste’mol madaniyatining raqamli makon orqali yoshlar ongiga qanday singib borayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, umumiy kontentlar tahliliga ko‘ra, 67foiz videolarda milliy simvollar – do‘ppi, atlas mato, o‘zbekcha raqs harakatlari mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati zamonaviy shakllantirish va kontekstual o‘zgarishlarga duch kelgan.

2-misol. So‘rovnoma natijalari. 300 nafar respondent orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma shuni ko‘rsatdiki, yoshlar raqamli platformalarni nafaqat vaqt o‘tkazish vositasi sifatida, balki dunyoqarash va qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi omil sifatida ko‘rmoqda. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 74 foiz respondent TikTok va Instagram'dagi kontent ularning ijtimoiy qarashlariga ta’sir qilayotganini tan olgan. 58 foiz ishtirokchi milliy qadriyatlarning zamonaviy shaklga moslashtirilishi tarafdori ekanligini bildirgan bo‘lsa, 35 foiz esa TikTok’dagi ayrim

trendlarni an’anaviy tarbiya va odob-axloq me’yorlariga tahdid sifatida baholagan.

3-misol. Fokus-guruhdan iqtibos. Sifatli tahlilning eng yorqin jihati – yoshlarning o‘z og‘zidan aytilgan, zamonaviy madaniyat va an’anaviylik o‘rtasidagi ichki ziddiyatni aks ettiruvchi fikrlardir. Bir ishtirokchi quyidagi tarzda fikr bildirgan:

“Biz onamizdan “or-nomus” haqidagi fikrlarni eshitamiz, TikTok esa bizga munosabatlardagi “freedom” (“erkinlik”)ni o‘rgatmoqda. Ikkalasi bir odam ichida yashayapti.”

Bu iqtibos orqali yosh avlod ongida shakllanayotgan gibrid identitet – ya’ni an’anaviy axloqiy qadriyatlar bilan zamonaviy raqamli madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlik yoki ziddiyat aniq ko‘zga tashlanadi. Bu holat “raqamli identitet” fenomenining asosiy psixologik va sotsiokulturniy ko‘rinishini ifodalaydi.

Topilgan ilmiy yangiliklar:

1. O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy identiteti shakllanishida TikTok va Instagram orqali tarqaluvchi kontentlarning qadriyatlar transformatsiyasiga ta’siri birinchi marotaba chuqur tahlil qilindi.

2. “Raqamli identitet” tushunchasining lokal modeliga asoslangan holda O‘zbekistonga xos tipologik yondashuv ishlab chiqildi.

3. An’anaviy qadriyatlarning raqamli muhitda qanday “rebranding” qilinayotgani haqidagi empirik dalillar keltirildi.

Xulosa. O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-madaniy identiteti shakllanishida raqamli platformalar tobora kuchliroq o‘rin egallamoqda. TikTok va Instagram orqali tarqalayotgan kontentlar nafaqat axborot vositasi, balki qadriyatlar konstruksiyasi maydoniga aylangan [5, 6]. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalarda milliy qadriyatlarning transformatsiyasi ikkiyoqlama xarakterga ega: bir tomondan – an’anaviy qadriyatlar zamonaviy formatda qayta taqdim etilmoqda, boshqa tomondan esa – globallashuv ta’sirida ayrim qadriyatlar sustlashmoqda yoki yangi “gibrid” qadriyatlar paydo bo‘lmoqda [7].

Bu holat yoshlarning “raqamli identitet”ini shakllantiradi – u an’anaviy madaniyat, zamonaviy trendlar va shaxsiy ijtimoiy tajribaning murakkab sintezi sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston ijtimoiy va madaniy islohotlari jarayonida ushbu yangi identitetni tan olish va uni milliy taraqqiyot strategiyalariga integratsiyalash zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bauman, Z. Individualizirovannoye obuęstvo. – Moskva: Ves mir, 2020. – 336 s.

2. Gofman, E. Predstavleniye sebya drugim v povsednevnoy jizni. – Moskva: Kanon+, 2021. – 352 s.

3. Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 200 b.

4. Mamatqulova, N. Raqamli madaniyat va yoshlar: milliy qadriyatlarga ta’sir tahlili // Ijtimoiy fanlar. – 2023. – №2. – B. 55–63.

5. Sharipova, D. O‘zbekiston yoshlari va global raqamli madaniyat: ijtimoiy identifikatsiya masalalari // Jamiyat va boshqaruv. – 2022. – №4. – B. 77–85.

6. TikTok va Instagram platformalaridagi eng ko‘p kuzatilgan 100 ta videolar tahlili (2023–2024). – Muallif tomonidan tuzilgan empirik bazasi. – Arxivlangan PDF hujjat.

7. Xofstede, G. Posledstviya kulturы: Sravneniye sennostey, povedeniya, institutov i organizatsiy. – Sankt-Peterburg: Piter, 2020. – 560 s.

Zoyira Nadirova,
TIIAME National Research University
candidate of philosophical sciences, docent

NON-LINEAR THINKING AND INTUITION

♦ ***Abstract****. Intuition is a part of the unconscious psyche. It manifests as a super-consciousness, figurative thinking, an unconscious connection with the fundamental patterns of nature, the collective spirit, shared knowledge, as well as the ability to perceive a situation as a whole without analyzing its details– the ability to recognize the quality of the surrounding world without differentiated analysis, through oneself (a connection with introversion). Intuition determines a person's survival in the spiritual environment, which is why it can conditionally be called the spirit. Intuition (intuitively perceived images) can be partially realized by a person through their logic, and in this case, it becomes a conscious psychic process.*

♦ ***Annotatsiya.*** *Intuitsiya ongsiz psixikaning bir qismi hisoblanadi. U ulkan ong, obrazli tafakkur, tabiatning qonuniy asoslari, umumiy ruh, jamoaviy bilim bilan ongsiz aloqa, shuningdek, vaziyatni tafsilotlarni tahlil qilmasdan to‘liq idrok etish qobiliyati, atrof-muhitning sifatini differensial tahlilsiz, o‘zini his qilish orqali anglash (introversiya bilan bog‘liqlik) sifatida namoyon bo‘ladi. Intuitsiya insonning ma’naviy muhitda yashab qolishini belgilaydi, shuning uchun shartli ravishda uni "ruh" deb atash mumkin. Intuitsiya (intuitiv ravishda qabul qilingan obrazlar) qisman inson tomonidan uning logikasi orqali anglanishi mumkin va bunda u ongli psixik jarayonga aylanadi.*

♦ ***Key words.*** *intuition, superficial thinking, brain, brain function, problem and way to solve it.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *intuitsiya, nochiziqli tafakkur fikrlash, miya, miya funksiyasi, muammo va yechim.*

Nonlinear thinking is a way of thinking in which a person analyzes information not according to the traditional consistent logical method (linear thinking), but in a coherent, multifaceted, interconnected way. In this process, new approaches, associations, and unusual ideas may arise. Its characteristics include: a) it is not tied to a linear logical chain, that is, the transition from one step to another in thinking is voluntary; b) a creative and innovative approach - creates the opportunity to think outside the standard schemes; c) relies on associations and figurative thinking - creates new connections between existing knowledge and ideas in the brain when solving problems. d) coherence, that is, it allows you to evaluate a problem from several points of view. Based on these characteristics, you can find many examples in the history of science. In particular, Leonardo da Vinci was an engineer, artist, and scientist at the same time.

The ability to think outside the box gives young scientists the ability to be creative, including artists, writers, inventors, and others. In addition, the ability to find solutions to problems and problematic situations in a non-standard way is also important. Steve Jobs's innovative approach to Apple technologies is an example of this.

Intuition is a person's ability to make the right decision based on subconscious experience and knowledge. A person can find a direction or feel the right decision even without clear logical thinking. Its characteristics include a) quick decision-making, that is, making a decision without logical analysis; b) based on subconscious experience - formed on the basis of a person's previous experience and knowledge; c) not ratioyem-u, but emotional approach - understanding informatnem-uthrough feelings, rather than deep thinking. There are many examples of this in everyday and mental activyem-u. For example, when meeting someone, feeling whether they are trustworthy or not, skilled chess grandmasters can quickly understand certain moves without conscious calculation, and quick decision-making in business (some entrepreneurs intuitively find the right decision without analyzing the market).

We can see the difference and connection between non-linear thinking and intuition in the following case.

Feature	Non-linear thinking	Intuition
How does it work?	Connects ideas and thoughts in a non-standard way	Uses subconscious experiences
Main feature	Associations, innovative approach	Quick and intuitive understanding
How is the decision made?	By processing ideas and	Based on subconscious

	taking a new approach	feelings and experiences
What areas are important?	Creative problem solving, science, technology	Situations that require quick decision-making

Intuition can be a part of abstract thinking. If a person has abstract thinking, he can intuitively make the right decisions in many situations. Because his brain looks for connections that go beyond standard logical paths and uses knowledge that is already in the subconscious through memory and imagination.

Abstract thinking can be developed using the following methods:

- Creative exercises - creating new concepts based on existing innovative ideas.
- Finding several approaches to a problem - thinking about not only one, but several solutions.
- Association exercises - finding connections between two different concepts.
- Metaphorical thinking - comparing one situation with another and looking for a new approach.
- Interdisciplinary study - studying several disciplines or areas and finding connections between them.

Result.

In our opinion, the unity, opposites of rational and irrational thinking are the cause, source of action and development. In the study of the essence and process of action of these concepts, it is necessary to distinguish between internal and external, fundamental and non fundamental aspects, but there is also no absolute limit between them. In the process of cognition, they rot among themselves, switch to each other and have a different effect on thinking. Therefore, it is necessary to take into account a clear approach to each of the conflicts, the conditions in which the conflict is manifested, the environment, the situation. Intuition is a solid expression of this thoughtful and mindful mind. Logic and intuition have an inextricable connection. This opinion was expressed by A.We had also seen Bergson in his thoughts. Bergson evaluates logic and intuitiveness as special complementary means of knowledge and intelligence and intuition as forms of objective reality and cognition. Intuition is a socialized instinct that moves in the direction of creative evolution of life and understands its essence. Intelligence is action. In Fixte's eyes, intuition is an inner movement. Lue de Broyle points out that if the foundations of science were purely rational, then development and even, often, radical exchange would not have occurred, he gave a high assessment of the place of irrational thinking. F.V.Schelling considered the connection of the object and the subject in the idea of absolute intelligence.

Conclusion. In conclusion we can write, critical thinking is a creative, innovative, and unconventional thinking process. Intuition is the ability to make decisions quickly and based on subconscious experience. They are interconnected: critical thinking facilitates intuitive decisions. By developing both, a person can be successful in solving complex problems. In critical thinking, information and ideas are not

organized into an orderly, consistent (linear) logical chain, but in a complex, multifaceted, interconnected way. Intuition is a quick, conscious process of thinking based on experience and knowledge accumulated subconsciously. A person can make the right decision even without his own clear logical thinking. That is, if intuition is the ability to come to the right decision that suddenly appears, then critical thinking deepens this process and allows you to solve complex problems with non-consistent, new approaches. Intuition can be a part of critical thinking, but they are not entirely the same.

References:

1. Uaylder Penfild. Mozg. Taynы razuma. Seriya «Taynы nauki», Princeton university press, 1975. OOO «Izdatelstvo AST» perevod na angliyskiy. S. 10-11.

2. Kris Fritt. Mozg i dusha. Kak nervnaya deyatelnost formiruyet nash vnutrenniy mir? – M.: Astrel: CORPUS, 2010. – 336 s.

3. Daniel Kaneman. «Dumay medlenno… reshay bыstro»: AST; Moskva; 2014.

4.Kurpatov.A.V. Chertogo razuma. Mыsl. 2018.

G‘ayrat Abdiyev,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

YANGI O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MA’NAVIY OMILLARI

♦ ***Annotatsiya.*** *Maqolada yangi O‘zbekiston yoshlari siyosiy ongini yuksaltirishga qaratilgan falsafiy qarashlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida ochib berilgan. Unda yoshlar davlat boshqaruvida o‘zlarining faolligi bilan o‘zgarayotgan jamiyatdagi islohotlarda islohotchiga aylanishi, bugungi davrning ruhini siyosiy jihatdan ifodalashlari falsafiy tarzda tadqiq etilgan.*

♦ ***Abstract.*** *The article reveals the role of philosophical views aimed at raising the political consciousness of young people of Uzbekistan in the development of society based on the achievements of modern science. It philosophically researched how young people become reformers in the changing society through their activeness in public administration, politically express the spirit of today’s era.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *siyosat, yoshlar, jamiyat, davlat, inson qadri, boshqaruv, inson, madaniyat, islohot, siyosiy ong, axloq.*

♦ ***Key words.*** *politics, youth, society, state, human value, management, human, culture, reform, political consciousness, ethics.*

Demokratik jamiyat rivojida yoshlar faolligini oshirishning ma’naviy omillarini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Davlat boshqaruvida yoshlarning faol ishtirok etishi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Bu avvalo, davlatning maqsad va vazifalari, yoshlarga bo‘lgan munosabati va siyosati orqali amalga oshadi hamda yoshlar faolligini belgilaydigan muhim mezoni va asosi hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, har qanday mamlakatdagi ilmiy asoslangan va zamonaviy tamoyillarga tayanadigan yoshlarga doir davlat siyosatini samarali shakllantirish jarayoni jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy, madaniy sohalarda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ushbu yo‘nalishdagi xorij tajribasini o‘rganish, xususan, G‘arbda chop etilayotgan asarlar tahlili mazkur jarayonning iqtisodiy, huquqiy vanuqtayiy jihatlariga ko‘proq e’tibor berilib, ma’naviy-axloqiy asoslariga yetarli darajada e’tibor qaratilmayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Jamiyatning iqtisodiy ta’minlanganligi bilan yoki tegishli qonunlar qabul qilinishining o‘ziyoq davlatning samarali yoshlar siyosatini to‘la-to‘kis shakllantirib qo‘ya olmaydi. Bu siyosatning eng muhim vazifalaridan biri yoshlar ongini, ma’naviyatini o‘zgartirish va ularning yangi zamonga mos tafakkurini dunyoga keltirishdan iboratdir. Bunday nihoyatda murakkab va serqirra vazifani amalga oshirishda aynan ma’naviy omillarning o‘rni va ahamiyati ayniqsa, beqiyosdir.

O‘tmishdan ma’lumki, insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida ma’naviyat sohasi hamisha dolzarb masala sifatida e’tibor qaratilgan. Aslini olganda, ma’naviyat insonni o‘zligini anglatuvchi betakror mo‘jizaviy kuch- qudratga egadir. Ma’naviyat shunday qudratli kuchdirki, u millatimiz, xalqimizni buyuk va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtiruvchi bayroqdir.

Bugun dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda.

Sobiq ittifoq o‘rnida shakllangan ba’zi yaqin va uzoqdagi davlatlarning ayrim mutaxassis-olimlari o‘z istiqlollarining dastlabki yillaridanoq ushbu yo‘nalishda ham G‘arb tajribasini ko‘klarga ko‘tarib maqtab va uni o‘z mamlakatiga ko‘chirib o‘rnatishga intilayotganlarida G‘arb jamiyatida namoyon bo‘layotgan ma’naviy tanazzulning ildizlari va negizlari nimalarga kuch berayotgani va qanday natijalarga olib kelayotganini unutib qo‘ygan edilar. Bu esa qanday ayanchli oqibatlarga sabab bo‘lganini ana shu mamlakatlarning yaqin tarixi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Bugungi zamon shiddati inson hayotida ma’naviyatni naqadar muhim ekanligini taqozo etmoqda. Zero, axloqsizlik, odobsizlik, ma’naviy qashshoqlik insonni tubanlik girdobiga giriftor etib, keng miqyosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltiradi. Ma’naviyat yo‘qolgan joyda

insonda hayvoniy xislatlar ildiz otib, yovvoyilik, vahshiylik, jaholat va xurofot kuchayadi. Natijada inson o‘z aslini yo‘qotish orqali qadriyat sifatidagi maqomidan judo bo‘ladi.

Globallashuv jarayonlarining shiddatli tus olishi dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlarni tobora kuchayayotganligini namoyon etmoqda. Zero, dunyoda sodir etilayotgan bunday murakkab va tahlikali vaziyatni keskin tus olishi har qanday xalq, millat, jamiyat va davlat hayotida muntazam sezgir, hushyor hamda ogoh bo‘lish borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida xalq va millatning madaniyati hamda ma’naviyatiga raxna solish orqali uni izdan chiqarishga bo‘lgan harakatlar tobora oydinlashmoqda.

Shu bois, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ma’naviyat va ma’rifatning yoshlar tarbiyasi, inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy shartlaridan biri deb, bilganlari bejiz bo‘lmagan. “Hujjatul Islom” Imom Abu Homid al-G‘azzoliy “Kimyoi saodat” asarida ta’kidlaganidek: “Inson farishta va hayvon orasidagi maxluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo‘q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o‘zi pok ilohiy nurdan iborat, Chunki insonlardagina rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud” .

Ma’naviy tarbiya – taraqqiyot taqozosi, jamiyat rivojining o‘ziga xos omili ekani shubhasiz. Ammo ayni vaqtda u yoshlarning axloqiy qiyofasi, qalbi va ongini egallayotgan tamoyillar mazmun-mohiyatini belgilaydigan, ya’ni, shakllanib kelayotgan avlodning ma’naviyatiga katta ta’sir qiladigan, bu sohadagi ma’naviy mezonlarni shakllantiradigan va mustahkamlaydigan eng muhim omillardan biridir.

Uzluksiz va keng qamrovli bu jarayon tufayli mamlakatimiz aholisi, endigina hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizni yot va begona g‘oyalar ta’siridan himoyalash, ularda mustaqillik tafakkuri va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish davlatimiz siyosatining nihoyatda dolzarb jabhalaridan biriga aylantirmoqda. Ammo, bu sohada muammolar yo‘q, deb bo‘lmaydi, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar ham talaygina.

Shu ma’noda, 2021-yil 26-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-5040 sonli Qarorida ta’kidlanganidek mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isobyektiv va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda .

Aynan, bugungi kunda mamlakatimizda “Milliy tiklanishdan – milliy-yuksalish sari” g‘oyasi asosida O‘zbekiston taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘ygani, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi islohotlar eng avvallo, yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratmoqda. Yurtdoshlarimiz, ayniqsa yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni

shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tizimi shakllandi.

O‘tmishdan ma’lumki, bir xalqni o‘ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo uni o‘zligi, tarixi, ma’naviyati va madaniyatidan judo qilishga alohida e’tibor qaratishgan. Zero, ma’naviy jihatdan zabt etilgan har qanday xalqni madaniy-ma’naviy taraqqiyotini bo‘g‘ib qo‘yish istilochi, bosqinchi mamlakatlarning mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o‘tgan an’anaviy usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni bora-bora o‘ziga singdirib yuborishni, buning uchun o‘z mafkurasi va g‘oyalarini ularga majburan joriy etish, madaniyatiga raxna solish orqali ma’naviy jihatdan taraqqiy etishiga yo‘l qo‘ymaslikni o‘z siyosatining “asosiy maqsadi” sifatida e’tibor qaratgan.

Mazkur fikrlarni bundan 2700 yil oldin yashagan qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy o‘z imperatoriga shunday “maslahat” bergan ekan: “Hoqonim, agar biror mamlakatni zabt etib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo‘lsangiz, dastavval o‘sha yerda yashayotgan xalqni o‘z tarixi madaniyatidan mahrum eting, ma’naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘raladi, sizga qarshilik ko‘rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi” , – deya ta’kidlab o‘tgani e’tiborga molikdir. Binobarin, madaniyat va ma’naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlarni taraqqiy etishiga izn bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo‘llaridan biri ekanligini istilochilar juda yaxshi anglagan. Aynan, mazkur omillarni doimo e’tiborda tutgan mustamlakachi va bosqinchilar Xitoy donishmandi aytgan “maslahat”ni oldindan rejalashtirib qo‘yishadi. Zero, madaniyat, ma’naviyat va ma’rifatga tahdid solish orqali xalqning, mamlakatning ma’naviyati va ma’rifatini barbod etishi oqibatida har qanday xalq, millat e’tiqodsizlik girdobiga mahkum bo‘ladi. Shu tariqa, ma’naviyati izdan chiqqan bunday o‘lkada, mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik avj olishi oqibatda xalqning mentaliteti milliy g‘urur, iftixor, milliy qadriyatlar asta-sekin zaiflasha boshlaydi.

Vaholanki, ana shunday o‘lkani, mamlakatni, uning xalqini mustamlakachilik kishanlarda ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish ancha oson va “silliq” kechadi. Bugun dunyo shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, mafkura poligonlarida g‘oyaviy – mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya (zabt etish) etishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, ma’naviy tubanlik ta’siri oqibatida madaniyatsizlik, e’tiqodsizlik kabi bir qator “ta’limotlari” oshkora ba’zan esa yashirin tarzda targ‘ib etilmoqda. Natijada, milliy ruh, millatning o‘ziga xosligi va uning asriy qadriyatlariga raxna solish orqali zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda.

Globallashuv sharoitida mazkur illatning ijtimoiy namoyon bo‘lishi muayyan mintaqa va mamlakat aholisi ongi, qalbini zabt etmoqda. Natijada, mazkur illat asl ma’naviy qadriyatlarni tanazzul sari yetaklab, har bir xalq va millatning o‘z madaniyati, ma’naviyati va qadriyatlarini inkor etishi orqali yo-lar ongida bir-biriga mutlaqo zid bo‘lgan dunyoqarashni shakllantirmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, ma’naviyat – xalqimiz or-nomusini uyg‘otuvchi beqiyos kuch, ozodlik,

Vatanni sevishga undovchi da’vatkor tug‘yondir. Bugungi zamon shiddati har qaysi millat, xalqni kelajakda o‘zligini saqlab qolish uchun eng avvalo, ma’naviyat masalasiga bo‘ladigan tahdidlardan muntazam ogoh, sezgir va hushyor bo‘lish borasida kechiktirib bo‘lmas asosiy masalasi sifatida dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Yosh avlodning ma’naviy olamini yuksaltirish, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, uning qiyofasida yuksak axloqiy tamoyillarni shakllantirish masalasi davlatning yoshlarga doir siyosatidagi eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ayni paytda, bugungi kunda ushbu siyosat doirasida zamonaviy bilim, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirgan barkamol avlodni shakllantirishda ko‘plab omillar qatori, ma’naviy ta’sir usullari va axloqiy tarbiya vositalaridan samarali foydalanish masalalari ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning bilan bir qatorda, barcha ta’lim muassasalari qatori maktablarda ham “O‘quvchi-yoshlarni turli ma’naviy tahdidlardan asrash uchun u shakllanayotgan oilaviy muhitning ta’sirini kuchaytirish lozim. Oila muhitida ota-onalarning mas’uliyatini yanada oshirish, o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda barcha ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari, sinf rahbarlari hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlarining rolini oshirish ayni axborotlashgan davrda o‘ta muhim hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim muassasasi, oila va mahalla ijtimoiy institutlarining ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini kuchaytirish lozim” .

Ayni paytda, dunyoda yoshlarning jamiyatdagi mavjud tartibotlar va qadriyatlarga bo‘lgan munosabati har xil ekanligini ta’kidlash lozim. Shu nuqtai nazardan yondashganda, bizningcha, yoshlarning faollik darajasi, ularning ma’naviy dunyosi bilan bog‘liq holda turli xil ekanligini ta’kidlash lozim. Jamiyat boshqaruvida ishtirokda faol yoshlar va faollik darajasi o‘rtacha va quyi bo‘lgan yoshlar, uyushgan yoshlar va uyushmagan yoshlar va ularga xos xususiyatlar alohida o‘rganilmoqda. Yoshlarning faolligini bunday o‘rganishni belgilovchi mezonlar ular tomonidan fuqarolar va jamiyat oldida turgan umummilliy manfaatlarni anglashi, unga daxldorlik hissining mavjudligi bilan belgilanadi, deb aytish mumkin.

Mustaqillik tufayli yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga nisbatan O‘zbekiston davlatining maqsadi va mohiyati ham o‘zgardi. Bu davlatning maqsadlarini o‘zgarganligi, davlat monopoliyasiga barham berilganligi va huquqiy davlat mezonlari asosida davlatni bosh islohotchiga aylanganligi bilan bog‘liq hamda uning yangicha g‘oyaviy asosga qo‘yilganligi, davlat mafkurasining ta’siridan xalos bo‘lish imkoniyati yaratilganligi bilan aloqador.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, “O‘zbekistonda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi. Hech qaysi mafkurasini davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”ligi belgilab qo‘yilganligi , uning huquqiy asosini tashkil etadi.

Natijada yoshlar yakka hukmron mafkuraning ta’siridan xalos bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Davlatning huquqiy asosida muhim o‘zgarishlar

sodir bo‘ldi. Bugun O‘zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish bosh strategik vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlatda qonun ustuvor, fuqarolarning erkinligi va huquq-manfaatlari kafolatlangan. Jamiyat a’zolari, xususan yoshlar oldida yangi talablarni qo‘yadi hamda tegishli zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan siyosat olib bordi. Jamiyatning ma’naviy hayoti negizlari o‘zgardi. Ma’naviyat yoshlar faolligini oshirishda muhim omilga aylandi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 12 avgustda qabul qilinib, Senat tomonidan 2016 yil 24 avgustda ma’qullangan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonun bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta’lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish o‘tgan davrda 9-10 foiz darajasida bo‘lib kelayotgan edi. So‘nggi ikki yilda ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli, biz bu raqamni 15 foizga oshirishga erishdik . 2019 yilda bu ko‘rsatkich 20 foizga yetdi. Bugun O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi. Unga ko‘ra yoshlarni oliy ta’limga jalb etish kvotasini 50 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Bu yoshlarni boshqaruvda faol ishtirok etishi uchun yangi imkoniyatdir.

Davlat hokimiyati va boshqaruvni oqilona tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, zamonaviy ilm-fan va tafakkur yutuqlarini joriy etishda yosh rahbar kadrlarning ma’naviyati va bilimiga tayanish muhim. Mustaqil milliy davlatchiligimiz taraqqiyoti yillar mobaynida izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinayotgan islohotlar tufayli bugungi kunda mamlakatimizda milliy va umuminsoniy demokratik qadriyatlar asosida shakllanayotgan davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini qaror toptirishda yoshlarning faolligini oshirishning ma’naviy omillarini yanada boyitish va undan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Buni yoshlarning aholi tarkibidagi ulushida ham ko‘rish mumkin. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda . Bu esa ularning nufuzli qatlam ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shuning uchun, har bir davlat o‘z siyosatida yoshlarga alohida e’tibor qaratadi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekiston jamiyati hayotida ham yoshlar nufuzli qatlam sifatida o‘z salohiyatiga ega. Aholining 60 foiz yoshlardan iborat ekanligi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Bu yoshlarning O‘zbekistondagi jamiyat boshqaruvidagi holatini, dinamikasini baholashda yetarli asos bo‘la oladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va mahalliy kengashlarda bo‘lib o‘tgan saylovda yoshlarga alohida e’tibor berilganligi va siyosiy partiyalar dasturlarida “Yoshlar qanoti” ning mavjudligi ularga berilayotgan muhim e’tibordir. Jamiyat boshqaruvida yoshlarning yangi avlodiga mansub bo‘lgan kadrlarni kirib kelishi o‘z istiqboliga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish haqidagi taklifi xalqaro miqyosda keng qo‘llab-quvvat-andi.

Mustaqillik tufayli yoshlar faolligini oshirishning yangicha ma’naviy omillari shakllandi va qaror topmoqda. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ma’naviy yuksalishga erishish jamiyat boshqaruvida yoshlar faolligini oshirish bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Bu yerda ma’naviy yuksaklik yoshlar faolligini belgilovchi muhim mezondir. Yoshlarning ma’naviy yuksakligi deganda, tuzilmaviy nuqtai nazardan yondashib, quyidagicha belgilarini ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan, yoshlar ongi va tafakkurining o‘zgarib, mustaqillik tafakkuriga xos xususiyatlarga ega bo‘lib borayotganligi. Buni mustaqillik to‘g‘risida o‘ylash, mustaqillikni asrab-avaylash va mamlakat taraqqiyoti to‘g‘risida qayg‘urish tuyg‘ularida ko‘rish mumkin.

Ikkinchidan, yoshlar ma’naviy salohiyatining oshib borayotganligi va boshqaruvda iqtidorli, bugungi boshqaruvning qonuniyatlarini yaxshi bilgan AKT yutuqlaridan xabardor bo‘lgan yoshlarni boshqaruvga jalb etilayotganligi bu o‘zgarishlarni xarakterlaydigan muhim jihatlardir.

Shuningdek, yoshlarni boshqaruvdagi faolligini yana quyidagi yo‘nalishlar orqali ko‘rish mumkin bo‘ladi:

1. Davlat hokimiyati boshqaruvining ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari tubdan o‘zgardi. U milliy g‘oya negizlariga tayangan holda davlat boshqaruvida yangicha ma’no-mazmun baxsh etmoqda hamda yoshlar muhim demokratik prinsiplarga tayanmoqda.

2. Yoshlarning jamiyat hayotiga qarashi o‘zgardi. Jamiyat rivojlanishida ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligiga tayanish boshqaruvni amalga oshirishda yangicha mazmun kasb etmoqda.

Yoshlarning ong va tafakkurining o‘zgarishi, uni jamiyat hayotida faol ta’sir etuvchi omilga aylandi. Ong va tafakkur o‘zgarmasa, hayot o‘zgarmaydi va yoshlar faollashmaydi. Jamiyat boshqaruvida oldingi totalitar ong va tafakkurga mos yondashuv, maqsad va prinsiplar saqlanib qoladi. Bugun ong tafakkurdagi demokratik o‘zgarishlar tufayli uning o‘rnida yangicha mafkuralar xilma-xilligiga asoslangan, fikrlar xilma-xilligini namoyon etadigan, yangi maqsadlar bilan yashash hamda boshqaruvni amalga oshirish ustuvor bo‘lmoqda. Buni amalga oshirishda yoshlar o‘ziga xos yangi kuch va qatlamdir. Chunki, boshqaruv sohasidagi o‘zgarishlar va yangiliklarni tushunishda ular o‘ziga xos iqtidorga ega. Shu o‘rinda, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov fikrlariga asoslanib aytish mumkinki: “Bugungi kunda katta umid orzu-maqsadlar bilan Vatanim taraqqiyotiga hissa qo‘shaman, deb belini mahkam bog‘lab maydonga chiqayotgan, azmu-shijoatli yoshlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimizga aylanishi kerak”.

Darhaqiqat, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan amaliy islohotlar tufayli yoshlarning ma’naviy salohiyatini o‘zgartirish va undan oqilona foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu yoshlarning boshqaruvga jalb etish va ularni faolligini oshirishga qaratilgan yangi beshta tashabbusda aniq namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlar faolligini oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Unga ko‘ra:

- yoshlar bilan ishlash samaradorligini bahosharm-uo‘yicha yagona ko‘rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish;
- O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi “O‘zbekiston yoshlari – 2025” konsepsiyasini ishlab chiqishi, unda ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi;
- jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda hech kim chetda turmasligi, “O‘z bolangizni, o‘z uyingizni, o‘z Vataningizni ko‘z qorachig‘idek asrang!” degan shior odamlarimiz qalbidan chuqur joy olishi;
- jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egaligini hisobga olgan holda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish shular jumlasidandir.

Zero, ma’naviyat shaxs, jamiyat va millat, binobarin, mamlakat ravnaqining asosiy omili va poydevoridir. Ma’naviyati yuksak yoshlar har qanday damda, turli qaltis, sinovli pallalarda ham yo‘lini yo‘qotmaydi, boshqalarga pand bermaydi. O‘z manfaatini umumxalq, yurt manfaatidan hech qachon ustun qo‘ymaydi. Davlat va jamiyat boshqaruvining qaysi tarmog‘ida, qanday pog‘onada bo‘lmasin, rahbarlik lavozimda xizmat qilayotgan shaxsning ma’naviy barkamolligi uning faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Bu masalalarning yechimi, ishlarning samarasi, birinchi galda, kadrlarning boshqaruvchilik qobiliyatiga, yangicha fikrlash va yangicha ishlash layoqatiga, ma’naviy takomil darajasiga bog‘liq.

Bugun bunday xususiyatlar yoshlar faolligini oshirishning yangicha mezon va prinsiplariga aylanmoqda. Bugungi yoshlar tayyor bo‘lishi va o‘zlarining ma’naviy salohiyatlarini safarbar etishlari zarur. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotini va davlat hokimiyati tizimini demokratlashtirish hamda zamonaviy asoslarda modernizatsiya qilish bugungi taraqqiyotimizning ustuvor yo‘nalishini tashkil etmoqda. Davlatchilik tizimi, hokimiyatning mazmuni, faoliyat shakllari jamiyatning obyektiv taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq amalga oshirilmoqda. Davlat hokimiyatini boshqarish demokratiya talablariga mos yaqinlashib bormoqda. Bu qonuniyat jamiyat hayoti, ijtimoiy boshqaruv shakllarining tobora yangilanib, yangi bosqichda rivojlanish, yo‘lidan borishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil

7 fevralda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlar va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning rolini yanada kuchaytirishga, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilgani, ayniqsa, e’tiborga molik. Bu tarixiy hujjatda mamlakatning yaqin istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari belgilab berildi.

Bunda insonlar manfaati, xalqning xohish irodasi davlat hokimiyati boshqaruvida hisobga olinmoqda. Davlat idoralarini xalq uchun xizmat qilishi hozirgi bosqichning o‘ziga xos muhim xususiyatidir. Boshqaruvda yoshlarning ishtiroki, ularning muammolarini hal etishda hozirgi zamon ilm-fan yutuqlariga tayanish, boshqaruvda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish, davlat xizmati agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan yangi xizmat turlari, xalq bilan muloqotning yangi shakllari, joylarda sektorlarga bo‘linib olib borilayotgan ishlar, hokimiyatni yoshlar bilan ishlashda ularni bandligini ta’minlash maqsadida yoshlar uchun er ajratib berilayotganligi xayrli natijalar beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks masalalarni hal etish, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi”, – deb ta’kidlaydi.

Mamlakatimizda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili asosida yosh rahbar kadrlar qatlamini faqat davlat boshqaruvi sohasidagina emas, balki fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zlarini mustaqil boshqarish sohasida ham shakllanishiga muhim e’tibor berildi. El-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligi, xalqimizning farovon hayoti, har bir xonadonning totuvligini, farzandlarimizning baxtu-kamolini ko‘rishimiz uchun eng avvalo, el-yurtimizga insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali yosh rahbarlar, faollar kerak, el-yurt obro‘si uchun, Vatanimiz manfaati uchun jonini tikkan jonkuyar, kamarbasta rahbarlar kerak. Mana shunday yosh rahbar kadrlarni tayyorlash va tarbiyalash har birimizning asosiy maqsadimiz bo‘lmog‘i lozim.

Shu o‘rinda, “Yuksalish” umummilliy harakati tomonidan “Jamoatchilik fikri” kanali orqali Telegram foydalanuvchilarining 6781 nafari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov yakunlariga to‘xtalib o‘tsak.

So‘rovda fuqarolardan O‘zbekistonda yoshlar salohiyatidan unumli foydalanish uchun yana qanday qo‘shimcha choralar ko‘rish zarurligi so‘ralib, respondentlarning 34 foizi (2 336 kishi) majburiy a’zoli-ka bar-am berib, son emas sifatga e’tibor qaratish kerakligini ta’kidladilar. 916 kishining (14 foiz) fikriga ko‘ra esa bildirilayotgan tashabbuslar yuqoridan emas, yoshlarning o‘zidan chiqishi kerakligini ko‘rsatilgan. 13 foiz (910 kishi) esa yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar faoliyatini isloh qilish lozim, deb hisoblaydilar. O‘z navbatida, respondentlarning 11 foizi (758 kishi) yoshlar bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqishda yoshlarning bevosita ishtirokini oshirish zarurligini ko‘rsatgan bo‘lsa, 9 foizi (603 kishi) yoshlar bilan

ishlash yondashuvini o‘zgartirish lozimligini ta’kidladilar. 580 nafar ishtirokchilar yoshlar bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqishda yoshlarning bevosita ishtirokini oshirish zarur, degan fikrda. 5 foiz respondentlar yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi boshqa NNT larni ham qo‘llab-quvvatlash hamda yana shuncha ishtirokchilar sohada 5 yoki 10 yillik aniq maqsad va ko‘rsatkichlar bo‘lishi lozimligini bildirdilar.

Yoshlarni jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishini ta’minlashda ma’naviy omillarni yanada vazifalarni amalga oshirish strategik ahamiyatga ega. Bu yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvida yangi avlodini tayyorlashga va tarbiyalashga yo‘naltirib boradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning jamiyat boshqaruvidagi ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy fazilatlari, avvalo, ularning milliy g‘oyamizga bo‘lgan ishonch va e’tiqodi, yot va zararli g‘oyalarga nisbatan g‘oyaviy kurashchanligi, fuqarolik pozitsiyasi, o‘z ona tili, tarixi, milliy urf-odatlari, an’analariga, qadriyatlarga bo‘lgan ishonch va e’tiqodi hamda e’tiborida ko‘rinadi. Buning uchun, yoshlar jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini yaxshi bilishlari, o‘z fikrlarini ona tilida ravon, turli tillarda mustaqil va lo‘nda ifoda eta olishlari muhim.

Ayni paytda xorij tillarini bilishlari jamiyat boshqaruvida dunyo mamlakatlari erishgan yutuqlarni qo‘llashda va ularni ma’naviy salohiyatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu dunyoda boshqaruv sohasida erishilayotgan yutuqlardagi yangiliklarni bilishga imkoniyat yaratadi. Yangiliklarni qabul qilmasdan esa taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi.

H.X. Ashirmatov
Jizzax davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

YOSHLAR QADRIYATLARIDAGI YANGILANISH: GLOBAL TA’SIRLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada bugungi kunda yoshlar qadriyatlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar, bularga ta’sir etuvchi eng asosiy texnogen va antropogen omillar hamda global ta’sirlar, ularga qarshi turishning chora-tadbirlari xus-sida to‘xtalib o‘tiladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article discusses the current transformations taking place in youth values, the main technogenic and anthropogenic factors influencing these changes, as well as global impacts. It also addresses the measures and strategies to counteract these influences.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *qadriyatlar, globallashuv, “Ommaviy madaniyat”,*

milliy ma’naviyat, ta’lim va tarbiya.

♦ ***Key words:*** *values, globalization, “mass culture,” national spirituality, education and upbringing.*

Dunyo globallashib borayotgan va u bilan bog‘liq turli muammolar ko‘lami kengayayotgan bugungi kunda umumaksiologik qonuniyat amalga oshmoqda va bir tomondan butun insoniyat taraqqiyotining, ikkinchi tomondan esa, tobor- yangilanib borayotgan O‘zbekiston hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘z navbatida, bunday murakkab ijtimoiy-aksiologik jarayonlarning global qadriyatlar tizimi va mamlakatimizdagi mavjud qadriyatlar majmuiga nisbatan intensiv ta’sirini ta’minlaydigan umumiy qonuniyatlar va uning milliy xususiyatlari bilan bog‘liq ilmiy izlanishlarga e’tibor ortib bormoqda. Bu jihatdan, dunyo miqyosida nihoyatda murakkab tarzda ro‘y berayotgan global aksiologik jarayonlarning bugungi Yangi O‘zbekiston jamiyatiga xos ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar tizimiga ta’sirini chuqur o‘rganish, bu sohada paydo bo‘layotgan muammolarning samarali yechimlarini topish ehtiyoji kuchayib, ushbu yo‘nalishdagi masalalarni tizimli tadqiq qilish vazifalari nihoyatda dolzarblashib bormoqda. Mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarning bu yo‘nalishdagi samarasini yanada oshirish uchun hozirgi davrdagi mavjud qadriyatlar tizimini yanada takomillashtirish va uning yangilanish mexanizmini optimallashtirishga doir yaxlit konseptual ilmiy ishlanmalarga ehtiyoj paydo bo‘lmoqda.

Shu ma’noda yoshlarimiz hayotidagi o‘zgarishlarga eng avvalo global ta’sirlarning, shuningdek bugungi kunda jamiyatimiz hayotida ro‘z berayotgan muhim o‘zgarishlar, barcha innovatsion yondashuvlar o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. “Yoshlarimizning aksariyati davrning ruhini to‘g‘ri his etmoqda. Ayni paytda yoshlarda aql va farosatning mutanosibligini ta’minlashga bo‘lgan intilish jamiyat barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatida baholanishi mumkin. Erishilgan yutuqlar qatori yoshlarimizning ayrim qismida mavjud bo‘lgan, ba’zan yangidan paydo bo‘layotgan salbiy holatlar, ushbu vaziyatga ayrim kattalarning munosabati-yu o‘sha yoshlarning bunday illatlarga nisbatan yondashuvi xavotirli. Ba’zi yoshi ulug‘larning yoshlarimiz dunyoqarashidagi muayyan salbiy o‘zgarishlarga nisbatan “zamon o‘zgardi, yoshlar ham o‘zgardi-da yoki bunday holni “tabiiy jarayon” sifatida tahlil etishga urinishlar ham mavjudki, bu har qanday ilm ahlini tashvishga solishi tabiiy”[1,46]. Bugungi globallashuv va tezkor rivojlanish davrida insonlar o‘zgarmoqda, qadriyatlar transformatsiyasi yuz bermoqda.

Bular “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tar-ining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi. “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladi-an turli ijtimoiy harakatlar va guruhlar

(“xippi”lar, “prank”lar, “roker”lar h-mda “gey”lar (besoqolbozlar) harakati, antiglobalistlar va sh.k.), fahsh va zo‘ravonlikni, “vampir”lik va jodugarlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, ochiqchasiga pornografik sahnalardan iborat video lavhalar, disklar va boshqalar ta’siri esa inson shaxsini yemirishga, jamiyatni degumanizatsiya qilishga olib keladi. Bunday sharoitda yosh avlodni, milliy madaniyatni qanday himoya qilish kerak, degan masalaning o‘zi jiddiy siyosiy, ma’naviy va ilmiy muammoga aylanadi”[2,13-14].

Prezidentimizning “Yoshlar, xususan, o‘smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo‘lyapti? Ba’zi yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani – achchiq bo‘lsa-da, haqiqat”[3,486], – degan fikrlari ham bejiz emas.

Mamlakat-mizda yoshlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun olib borilayotgan islohotlar, avvalo, o‘sib kelayotgan yosh avlodni kelajagi, buguni va ertasi uchun qaratilmog‘i lozim, buning uchun esa bizgacha etib kelgan qadriyatlarimizni avaylab, asrab ularga yetkazish bizning asosiy vazifamiz bo‘lishi bugungi kunning talabi bo‘lmoqda. Bejizga davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tmadilar. “Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb hunarga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir. Yetuk mutaxassis milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida shakllanishi, oila, jamiyat, Vatan oldidagi ma’suliyatni terak anglaydigan shaxslar bo‘lib etishishi katta ahamiyatga ega va bugunning talabidir. Xususan, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish haqida alohida to‘xtalib o‘tiladi. Unda yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta-limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish bilan birga, yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, ba-rikeng-ik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash kabi masalalarga alohida o‘rin ajratilgan. Yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan va ta’lim sohasida katta islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda yoshlar tarbiyasi uchun qilayotgan ishlarimiz yetarlimi, taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan milliy qadriyatlar asosida tarbiyalay olyapmizmi, degan haqli savol tug‘iladi. Afsuski, bu savolga ijobiy javob berish qiyin. Negaki, farzand tarbiyasida faqat mahallayu ta’lim dargohlarining sa’y-harakatlari yetarli emas. Butun dunyo jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan b-r paytda farzand tarbiyasida, yosh avlodni kamol toptirishda ijtimoiy tarmoqlar va internet sahifalari, ko‘chalarimizdagi xilma-xil reklamalarning o‘rni ahamiyatli bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda, xalqimizga bo‘layotgan xavf va tahdidlar ichki va tashqi xavflar bo‘lib,ular quyidagilardan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tish joizdir:

Ichki xavflar – g‘oyaviy bo‘shliq, tarixiy xotiraga to‘liq ega emaslik, o‘g‘il va qizlar tarbiyasiga mutanosib yondashmaslik, yo‘l qo‘yilgan xato, kamchiliklardan o‘kinmaslik va xulosa chiqarmaslik, g‘iybat qilib huzurlanish, so‘zl-shuv madaniyatiga, ona tilimiz qoidalariga e’tiborsizlik, noshukurlik, ikkiyuzlamachilik, dangasalik, shaxsiyatparastlik, mahalliychilik. Tashqi xavf – ma’naviyatimizga zid, yot diniy oqimlar ta’siri, soxta demokratiya shakllarini singdirishga urinish, g‘arbona gedonizm, g‘oyaviy tazyiqlar, yengil-yelpi san’at turlariga mahliyolik (rok, rep, metall, breyk dans va hokazo), siyosiy-mafkuraviy ta’sirlar, odobsizlik, uyatsizlik targ‘iboti, egoizm va individualizm, aqidaparastlik, ekstremizm, boshqa madaniyat, urf-odatlarga beriluvchanlik (Valentin kuni, Xevolin bayrami, g‘arbona va sharqona kiyinishga moyillik).

Bunday xavflardan yoshlarni himoya qilish maqsadida yosh avlodni quyidagi milliy istiqlol va qadriyatlar asosida tarbiyalash zarur:

- Mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish;
- hur fikrli, jur’atsizlikdan xoli, o‘z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalash;
- odamlar, ayniqsa, yoshlarning irodasini baquv-at qilish, iymon-e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma’naviy muhit yaratish;
- vatandoshlar tafakkurida o‘zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarni asrash, vatanparvarlik-tuyg‘usini kamol toptirish;
- xalqimizga xos iymon-e’tiqod, insof-diyonat, saxovat, halollik, mehr-oqibat, sharmu hayo kabi fazilatlarni yanada yuksaltirish;
- mamlakatning ko‘p millatli xalqi ongi va qalbida “O‘zbekiston – yagona Vatan”[4,12] – degan tushunchani shakllantirish va rivojlantirish.

Yosh avlodni ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, allomalarning o‘giti, dono so‘zlari, fikrlarini qadrlash, o‘rganish, hayotda qo‘llash yoshlarlari fikr va-dunyoqarashini kengaytiradi. Bugungi yoshlar – kelajak poydevori. Shunday ekan, ularni har tomonlama yetuk, komil, vatanparvar, yurt tinchligi va ravnaqi yo‘lida fidokor bo‘ladigan farzandlar qilib tarbiyalash zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mavrulov A. Vatanni sevish mas’uliyati. T:“Sano-standart” B. 46.

2. G‘oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat T; “O‘zbekiston”, 2012. B.13-14.

3. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016.B.486

4. Milliy istiqlol g‘oyasi: ko‘rgazmali vositalar T; “Ma’naviyat”, 2001, B.12.

Xislat Xolmurotov,
O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti, Yoshlar masalalari

ma’naviy ma’rifiy ishlari bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i

YOSHLAR QADRIYATLARIDAGI YANGILANISH: GLOBAL TA’SIRLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada “ommaviy madaniyat”ning O‘zbekiston yoshlari ma’naviyati, kiyinish madaniyati va ijtimoiy ongiga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yoshlar tarbiyasida qo‘llash orqali “ommaviy madaniyat” xatarlariga qarshi kurashish yo‘llari ko‘rsatiladi. Shuningdek, davlat siyosatining yoshlarga bo‘lgan e’tibori va milliy ma’naviyatni mustahkamlashdagi o‘rni yoritiladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the impact of “mass culture” on the spirituality, dress culture, and social consciousness of Uzbek youth. It explores ways to counter the threats of “mass culture” through the preservation and promotion of national values in youth education. The article also highlights the role of state policy in supporting youth and strengthening national spirituality.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *ommaviy madaniyat, milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, yoshlar ongi, madaniy tahdid.*

♦ ***Key word:*** *mass culture, national values, spiritual education, youth consciousness, cultural threat.*

Vatanimiz mustaqilligi xalqimizga milliy g‘urur tuyg‘usini his etish baxtini qaytarib berdi. Shu bilan birga qalbimizda hech kimdan kam emasligimizni idrok etish, o‘zligimizni anglash tuyg‘usini uyg‘otdi, milliy va ma’naviy qadriyatlarmiz qaytarib berdi. Biroq, ayni paytda “ommaviy madaniyat” iborasi qulog‘imizga tez-tez chalinadigan, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’siri haqida ko‘p gapiriladigan bo‘ldi. Xo‘sh, muammoning o‘q ildizi nimada? Ana shu savolga javob topsakkina biz bu kabi illatlarga qarshi kurasha olamiz.

Yoshlarga shu muqaddas ona zamindan etishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz haqida ma’lumot berish sodiq va fidoyi insonlarni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Bu ularning ichki dunyosini boyitadi, Vatan va millat sha’niga dog‘ tushiruvchi yaramas illatlarga moyilligining oldini oladi, taffakurini kengaytirib, tubanlikdan ogoh etadi. Yoshlarda g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashish ko‘nikmasini shakllantirish uchun, ana shu buyuk alloma va sarkardalar, ularning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi, jasorati haqida boy va haqqoniy ma’lumotlarni taqdim etish orqali ular ongidagi manbasi noaniq, xom va sayoz tushunchalardan iborat bo‘shliqni ilmiy asosda to‘ldirishimiz darkor.

Bugungi globallashayotgan dunyoda “ommaviy madaniyat” degan illat tobora ildiz otib hatto yoshlarimizning ruhiyatiga odob-axloqiga, turmush tarziga shiddat bilan salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ularni yot g‘oyalardan

himoya qilish, baxtli kelajagimizni ta’minlashning poydevori hisoblanadi. Zero, ma’naviyati buzuq, o‘ziga g‘oyalar ta’sirida qolgan milliy qadriyatlaridan uzoq yoshlar hech qachon biz orzu qilgan baxtli kelajakni barpo eta olmaydi. Ana shu haqiqatni eng avvalo birinchi navbatda yoshlarimizga to‘g‘ri yetkazishimiz, mustaqilligimizni asrab avaylashni o‘rganishimiz kerak. Bu borada ayniqsa, yoshlarning milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish zarur.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” asarlarida “ommaviy madaniyat”ning zararli xatarlaridan ogohlantirib, jumladan, shunday deydilar: Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holat bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasliligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko‘pchilik but-n jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujga qarshli kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda”.

“Ommav-y madaniyat” bu – bizning qayerda yashayotganligimizni va tarixiy an’anaviy urf-odatlarimizni qisman chetga surishdir! Bugun yoshlar ma’naviyati va madaniyati bilan bog‘liq muammolardan biri kiyinish madaniyati va unda g‘arb madaniyatiga taqlid, ergashish masalasi dolzarb mavzu bo‘lib turibdi. Milliy ta’lim tarbiya olgan, ma’naviyatida milliy madaniya-imizga-hurmat va e’tiqod shakllangan, kiyinishda ham o‘z milliy qiyofasini yo‘qotmagan yoshlarimiz ko‘p, albatta. Lekin ba’zan ko‘chada, jamoat joylarida ochiq-sochiq kiyinib yurgan yoshlarimizni uchratish mumkin. Bu uning uchun moda, zamonaviylik yoki ochiq aytadigan bo‘lsak, bugun “ommaviy madaniyat” deb atalgan tushuncha g‘arb madaniyatiga taqliddir. Zamonaviy yashash yaxshi, dunyo taraqqiyotidan orqada qolish kerakmas, ammo biz kim, qaysi millat vakili ekanligimizni unutmasligimiz kerak.

“Ommaviy madaniyat” shaxs madaniy ongini noto‘g‘ri shakllantiradi, milliy madaniyatni buzadi, umuminsoniy madaniy qadriyatlarni shubha ostida qoldiradi. Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solib kelmoqda. Xalqimizning ma’naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, o‘ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev masalaning shu jihatiga alohida to‘xtalib shunday deganlar: - “Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat tahdidi” faqat chetdan G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy”. “Ommaviy madaniyat”ning ijobiy

va salbiy ta’sirlarini tushunish va ular bilan ongli ravishda munosabatda bo‘lish zarur. Shuningdek, uning ijtimoiy va madaniy o‘zgar-shlarga-qanday ta’sir qilayotganini tahlil qilish muhimdir. Hozirgi zamonda inson o‘zini har qanday illatlardan asrashi, nafaqat o‘zini, balki yosh avlodni ham benuqson ulg‘ayishiga ko‘maklashishi bugungi kun insoniyatning tengi yo‘q bo‘lgan javohirlaridan biridir. Shuningdek, chetdan kirib keladigan har qanday illatni ham “madaniyat ekan”deb qabul qilaverish butun jamiyatni jar yoqasiga olib kelishi bilan birga, uni halokatga uchratishi turgan gap. Chunki o‘zga davlatni madaniyatini to‘laqonli qabul qildimi, bo‘ldi uni o‘zining madaniyati o‘ldi degani, yoki unutildi. Shuning uchun ham bugungi davr, zamon insoniyatdan so‘raladigan narsa “ogohlik va fikrlab ish ko‘rishdir” Islom dini odob-axloqni, poklikni va halollikni targ‘ib qiladi. Madaniyat va san’at, agar ular Islomning yetuk va axloqiy me’yorlariga muvofiq bo‘lsa, jamiyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Yurtimizga chetdan kirib kelayotgan axborot oqimi natijasida nafaqat yangiliklardan xabardor bo‘layapmiz, balki ularda yashiringan, mentalitetimiz, qadriyatlarimizga zid g‘oyalarga ham duch kelayotganimiz bor gap. Oqibatda “Ommaviy madaniyat” san’atimizga, kiyinish madaniyatimizga, tarbiyamizga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ishonchimiz komilki, bugungi intellektual darajasi, salohiyati baland yoshlar kelajak baxtli hayotimiz asoschilaridandir.Ularning izlanishlari, ilm fan, texnika taraqqiyoti sohasida erishayotgan yutuqlari kelajak avlodlar uchun ulkan meros bo‘lib qolishi, kelgusida O‘zbekiston salohiyatini yanada ko‘tarishga xizmat qiladi. Kelajak bugundan boshlanadi degan gap bor. Shu ma’noda, har birimizning bugungi kundan yaxshi amallarimiz kelgusidagi baxtli hayot uchun tamal toshi bo‘lishi muqarrar. Shu ma’noda mustaqillik tufayli mamlakatimizda xalq baxtu iqboli, farovon turmush tarzini qo‘llab-quvvatlab amalga oshirilayotgan jahonshumul ishlar kelajakda ham bardavom bo‘lishi, kelgusi avlodlarimiz ham mustaqillik bergan baxtu saodatdan, hayot ne’matlaridan bahramand bo‘lishlari lozim. Albatta orzusiga etishgan insonga ham o‘qishga kira olgan talabayu mansab pilla poyasidan ko‘tarilgan vazifadorlarga ham baxt tushunchasini o‘zlari bilgan ma’noda talqin etadi.

Ulug‘ ajdodlarimiz ona zamini muqaddas bilganlar, milliy an’analarimizni asrab avaylab yangi mazmun mohiyati bilan boyitganlar, ularni kelgusi avlodga yetkazishga harakat qilganlar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqimiz madaniy va ma’rifiy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg‘unlashishi mamlakatimizni kelajakda yanada ravnaq topishi xalqaro maydondagi o‘rni va nufuzini mustahkamlashda muhim omillardan biridir. Shu bois yoshlar tarbiyasida xalqimiz qadim qadimdan e’zozlab kelgan ezgu qadriyatlarga boy ilmiy ma’naviy meros juda katta ahamiyatga ega.

O‘zga xalqlar tili, urf-odat va an’analariga hurmat bilan qarash, ularning o‘zligini saqlab qolish, madaniy-ma’rifiy ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va har tomonlama yordam ko‘rsatish o‘zbekona bag‘rikenglikning yorqin namunasidir. Aynan mana shunday bag‘rikenglik madaniyatimizning

benazir namunalarini saqlab qolish, asirlar sinovidan olib o‘tish, kamol toptirish hamda milliy madaniyatimizni boshqa xalqlar madaniyatlarining umuminsoniy qadriyatlari bilan boyitishga keng imkon yaratadi.

Yurtboshimiz rahnamoligida yoshlarga ko‘rsatilayotgan otalarcha g‘amxo‘rlik, yaratilgan keng imkoniyatlar – o‘g‘il qizlarimiz fan, ta’lim, madaniyat va sport sohasida xalqaro miqyosida ham katta yutuqlarni qulga kiritishiga sabab bo‘lmoqda. Albatta, buningdek katta natijalarga erishish uchun yoshlarimizdagi axloqiy, ma’naviy tarbiya ham muhim rol o‘ynaydi. O‘z navbatida yoshlarimizning qo‘lga kiritayotgan yutuqlari, xalqimizga xos bo‘lgan odob-axloq me’yorlari, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarimizning globallashuv davrida saqlanib qolayotganiga qo‘shni xalqlar tomonidan havas bilan qaralayotgani ham ayni haqiqatdir. Ana shunday xalqimizga xos bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish, yutuqlarimizning bardavomligini ta’minlash uchun “ommaviy madaniyat” xurujlariga yo‘l bermaslik har bir O‘zbekiston fuqarosining muqaddas burchidir.

Xurshida Dusbekova,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Xalqaro munosabatlar” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI YOSHLAR SIYOSATIDA IT TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI: MINTAQA YOSHLARI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR (O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON TAJRIBASI)

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasidagi raqamli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan jadal islohotlar O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘zaro hamkorligi tajribasida ochib berildi. Shuningdek, mintaqada kechayotgan jiddiy siyosiy transformatsiya jarayonida ayniqsa raqamli ta’limni rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan tashqi siyosiy hamkorlik, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar va undan kutilayotgan natijalar, istiqbollar va bu yo‘nalishdagi hamkorlikni yanada mustahkamlash borasida muammolar va ularning yechimiga oid takliflar yoritib berilgan.*

♦ ***Abstract:*** *The article reveals rapid reforms aimed at developing digital education in the Central Asian region using the experience of cooperation between Uzbekistan and Kazakhstan as an example. It also highlights the problems and proposals for solving foreign policy cooperation, especially in the field of digital education development, opportunities provided to young people and expected results, prospects and further strengthening of cooperation in this area in the context of serious*

political transformations taking place in the region.

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *Markaziy Osiyo, “IT park”, “yoshlar IT park”lari, migratsiya, IT ta’lim, “Uz-koders”, “Koursera”, raqamli avlod, Beta avlod, forsayt, Alfa avlod, sun’iy intellekt, transformatsiya, “Digital Kazakhstan”", “1 million dasturchi”.*

♦ ***Key words.*** *Central Asia, IT Park, youth IT Parks, migration, IT education, “Uz-koders”, “Coursera”, digital generation, Beta generation, forsight, Alpha generation, solar intelligence, transformation, “Digital Kazakhstan”, “One million uzbek coders”.*

XXI asr – raqamli texnologiyalar davri jahon ta’lim standartlari oldiga global tarixiy burilish shartini qo‘ydi. Texnologiya avlodlar almashinuvining belgilovchi kuchlaridan biri ekan, demak shakllanib kelayotgan raqamli avlodga mutanosib ravishda hayotning barcha jabhalari standartlari unga hamohang takomillashib, rivojlanib boradi.

Shu bois bugun O‘zbekistonning va Markaziy Osiyo mintaqasidek yosh demografiyaga ega mamlakatlarning ta’lim tizimlari oldida turgan eng birinchi vazifa to‘liq raqamli ta’lim tizimiga o‘tishdir. Chunki, “raqamli avlodlar shakllanadigan davrda ularning ulg‘ayish yillari shaxsiylashtirishga ko‘proq e’tibor qaratilishi bilan ajralib turadi – sun’iy intellekt algoritmlari ularning o‘rganish, xarid qilish va ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarini bugungi kunda biz tasavvur qila boshlagan usullarga moslashtiradi”, – deya bashorat beradi Makkindli.

Biroq, mana shunday forsayt oldida turgan bo‘lsak-da, bugun mintaqaning IT ta’limni rivojlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari qanchalik realizatsiyaga kirdi yoki natija bera boshlagani qay darajada bizga ma’lum?

Aytish joizki, bugun Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekiston va Qozog‘iston ham an’anaviy ta’limni raqamli ta’lim bilan integratsiya qilish va uni maksimal rivojlantirishga dadil kirib boryapti.

Avvalo, Markaziy Osiyoda IT ta’limga ehtiyoj:

- Alfa – Beta avlodlarning ta’lim olish ehtiyojlari talabini qondirish;
- Global raqamli ta’lim standartlariga yoshlarni mutanosib integratsiyalash;
- Mehnat bozorida raqamlashtirilgan tizimlar bilan ishlovchi yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabning oshishi;
- Masofaviy ishlash imkoniyatlari va xalqaro IT-kompaniyalar bilan hamkorlik kabilar bilan asoslanadi.

Bu borada mintaqa mamlakatlarining so‘nggi yillarda ilgari surayotgan hukumat siyosati va loyihalari:

- O‘zbekiston: IT Park, "Bir million dasturchi", “Uz.coders” va zamonaviy IT universitetlar;
- Qozog‘iston: “Digital Kazakhstan” dasturi;

O‘zbekiston avvalo so‘nggi 7 yillikda IT sohani rivojlantirishda “katta sakrash” qilgan davlatlardan biri bo‘ldi. Birgina ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan 10 ga yaqin Prezident farmoni va hukumat qarorlari tasdiqlandi. Xususan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-yanvardagi “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 17 son qarori;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-sonli Qarori;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-son qarori;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 15 maydagi “Hududlarda yoshlarga raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarni o‘rganish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan “IT-shaharcha»lar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-178-son qarori;

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori;

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 oktabrdagi “Yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash imkoniyatlari kengaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 617-son qarorlari qabul qilingan va amaliyotga joriy etilgan.

Ushbu asoslarning amaliy natijasi sifatida bugun O‘zbekistonda quyidagi natijalar qo‘lga kiritildi:

1. 2019 yilning 21 noyabr kuni Toshkent shahridagi Inha universitetida “Bir million dasturchi” loyihasiga start berildi. Loyihaning I bosqichi doirasida ta’lim olganlar soni 2 million nafardan oshgan (2 503 060). Shu jumladan, 1 million (1 175 933) nafardan ortiq tinglovchilar sertifikatlarni qo‘lga kiritgan, isihtirokchilarning 90 foiz ulushi umumta’lim maktab o‘quvchilari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2. Loyihaning 2-bosqichida “uzbekcoders.uz” platformasi orqali AQSHning “Coursera” kompaniyasining onlayn ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Bunda 8 turdagi onlayn kurslardan bepul ta’lim olish imkoniyatini yaratildi, hamda professional resurslardan foydalanish imkoniyatini beruvchi jami 10 ming dona litsenziyalar sotib olingan. “Coursera” doirasida 2023-2025 yillarda 1,2 mln. nafar yoshlarni qamrab olish maqsad qilingan.

Ma’lumot uchun: “Coursera” masofaviy ta’lim platformasi bo‘lib, unda dunyoning 300 ga yaqin yetakchi universitetlar va kompaniyalarining (Google, Amazon, Meta, IBM, Stanford, Yale va b.) 8 ta yo‘nalishdagi 12 mingta professional ta’lim resurslari joylashtirilgan.

IT sohasiga bog‘liq 5 ta asosiy yo‘nalish mavjud bo‘lib, ular Axborot texnologiyalari, Kompyuter ilmlari (Computer science), Ma’lumotlar tahlili (Data science), Xorijiy tillar va Shaxsiy rivojlanishni o‘z ichiga oladi.

“Bir million dasturchi” loyihasining navbatdagi bosqichi sifatida “Coursera” onlayn platformasida yoshlarni xalqaro sertifikatlarga o‘qitishni amalga oshirish jarayonida, 2025 yilda Respublika bo‘ylab uzbekcoders.uz platfromasidan

161 295 nafar foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ulardan 93 050 nafari bepul kurslarda, 300 nafari esa professional kurslarda o‘qib xalqaro IT sertifikatlarni qo‘lga kiritishgan.

Eng talabgir yo‘nalishlar dasturlash, Data science, kompyuter savodxonligi, grafika va dizayn hamda xorijiy tillarni o‘rganish ekani aniqlangan.

“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o‘quv platformasi imkoniyatlari bo‘yicha targ‘ibot ishlari muntazam ravishda olib borilmoqda. Kurslar dasturi, xalqaro sertifikat olgan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, xalqaro IT bozorida talab yuqori bo‘lgan kurslar yoritilmoqda. Targ‘ibot ishlari hududlardagi ta’lim muassasalariga ham masofaviy ham joylarga chiqqan holda amalga oshirilmoqda.

“Coursera”ning oltinchi yillik Global Skills hisobotiga muvofiq O‘zbekiston mehnat bozori uchun zaruriy ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga sarmoya kiritayotgan mamlakatlar reytingida birinchi o‘rinni egallagan. Shu bilan birga, “Coursera” platformasida O‘zbekiston foydalanuvchilar soni bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinda turadi.

3. Shuningdek, mamlakatda IT ta’limning eng so‘nggi standartlari bilan o‘qitishni yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 yanvardagi PQ-4097-son qarori bilan Toshkent shahridagi Amity universiteti, “PDP University” (2022), “IT-Park University” (2022), “Cyber university” davlat universiteti (2025) kabilar tashkil etilgan bo‘lib, ularning o‘tgan yillarda faoliyati yo‘lga qo‘yilganlarining yiliga 5000 ga yaqin (umumiy IT mutaxassislar yiliga 15 mingga yaqin) bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari sifatida mamlakatda raqamli rivojlanish jarayonlarining mutaxassisi sifatida mehnat bozoriga kirib kelmoqda.

Birgina 2022 yil yakunida 2023 yil dasturi bo‘yicha O‘zbekistonda IT xizmatlar eksportini kelgusida 1 milliard dollargacha oshirish reja qilingan, buning uchun:

- kamida 100 ming nafar malakali dasturchi, IT arxitektorlari, operatorlari va muhandislari kerakligi;
- hududlarda yuqori tezlikdagi internet va mutaxassislar uchun shart-sharoitlarni kengaytirish lozimligi;
- xorijiy IT kompaniyalar ko‘payishi uchun yanada qulay muhit

yaratish zarurligi;

- zamonaviy IT kasblarga o‘qitish tizimini yaratish kerakligi;

- aholi va tadbirkorlar uchun eng zarur bo‘lgan kamida 200 ta yangi elektron xizmatlarni ishga tushirish shartligi belgilangan.

Shuningdek, 2020-2022 yillar davomida mamlakatda IT sohasiga qaratilgan jiddiy e’tibor natijasida ma’lum o‘zgarishlarga erishilgan: 2022 yilda IT Park rezidentlari 5 trillion so‘mlik xizmatlar ko‘rsatgan (2021 yilda 2,5 trillion so‘m), 140 million dollarlik xizmatlarni eksport qildi (2021 yilda 50 million dollar), mavjud 715 ta davlat xizmatidan 370 tasi raqamli platformaga o‘tkazilib, bu xizmatlardan 2022 yili 12 million aholi foydalandi (2021 yilda 9 million bo‘lgan).

Raqamlashtirish natijasida 70 dan ortiq turdagi ma’lumot va hujjatlar aholidan talab qilinishi bekor qilingan.

“Digital Kazakhstan”

Qozog‘iston raqamli transformatsiyaga o‘tishning tashkiliy asoslari:

1. Qozog‘iston Respublikasi Hukumatining 2016 yil 20 dekabrdagi 832-sonli “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi yagona talablarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori;

2. Qozog‘iston Respublikasi Hukumatining 2021 yil 30 dekabrdagi 961-sonli “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli sohani rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori;

3. Qozog‘iston Respublikasi Hukumatining 2023 yil 28 martdagi 269-sonli “2023-2029 yillarda raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kiberxavfsizlik tarmog‘ini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori;

4. Qozog‘iston Respublikasi Hukumatining 2024 yil 24 iyuldagi 592-sonli “2024-2029 yillarda sun’iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

Umuman Qozog‘iston 2000 yillar boshidan boshlab IT ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan. Hozirda Qozog‘iston IT-ta’lim faol rivojlanish bosqichida. Mamlakatda axborot texnologiyalari bo‘yicha kurslar va dasturlarni taklif qiluvchi ko‘plab ta’lim muassasalari mavjud.

Qozog‘istonda har yili 20 ming nafar IT mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar bitiradi. Biroq, bu ko‘rsatkich ham sanoatdagi bo‘sh joylarni to‘ldirmaydi. Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Tokayev Tengrinews.kz internet nashriga bergan intervyusida shunday dedi: “Atigi ikki yil oldin jahon IT-bozoriga 30 million mutaxassis kerak edi. Bugungi kunda ehtiyoj 100 millionni tashkil etgan, 2025 yyut-ua borib esa 200 millionga ko‘tariladi. Albatta, bu ko‘rsatkich vaqt o‘tishi bilan ortib boradi”.

Shu bois mamlakatda bir nechta davlat va xususiy ta’lim tizimlari, IT universitetlari raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun mutaxassislar etishtirmoqda.

Qozog‘iston Respublikasi Hukumatining 2024 yil 24 iyuldagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan “2024-2029 yillarga mo‘ljallangan sun’iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi”ni tahlil qilsak, sun’iy intellekt yaqin kelajakda mamlakat mehnat bozoriga sezilarli ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Milliy konsepsiyaga ko‘ra:

- o‘rta ta’lim o‘quv rejasiga “Sun’iy intellekt asoslari” modulini kiritish;
- oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim muassasalarida SI sohasida ta’lim dasturlarini joriy etish;
- davlat xizmatchilari uchun sun’iy intellekt asoslari bo‘yicha kurslarni ishlab chiqish va o‘tkazish.

Mamlakatda sun’iy intellekt sohasida kadrlar tayyorlash va o‘qitish uchun “TechOrda” dasturi ishlab chiqilgan va u IT, sun’iy intellekt sohasida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. 2022-2024 yillar davomida ushbu dastur orqali 82 mingdan ortiq IT-mutaxassislari o‘qitilgan.

Shuningdek, sun’iy intellekt sohasida kadrlar tayyorlash va undan kundalik hayotda foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun TechOrda, Tomorrow School va TUMO kabi yirik dasturlar ta’lim tizimi kelgusi besh yil ichida 1 million kishini tayyorlash maqsadini amalga oshirishni istiqbolli reja qilgan.

Qozog‘istonda IT-mutaxassislarning etishmasligi haqida Inson resurslarini rivojlantirish markazi hisobotiga ko‘ra , 2021-2022 yillarda elektron mehnat birjasi portaliga 16 500 ta bo‘sh ish o‘rni joylashtirilgani va bunda asosiy talab reytingning eng yaxshi beshta kasbi: dasturiy ta’minot, veb va ilovalarni ishlab chiquvchilar va testerlar (4 625 ta bo‘sh ish o‘rinlari); Grafik va multimedia dizaynerlari (2 549); Dasturiy ta’minot va ilovalarni ishlab chiquvchilar va tahlilchilar (2 314); Kompyuter tarmoqlari va infratuzilmasi mutaxassislari (1 535); Tizim va tarmoq administratorlari (1 175) kabi ma’lumotda ko‘rinib turibdi.

Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti (Axborot texnologiyalari fakulteti 2018), Astana IT unversity (2021), Tolyatti davlat universiteti (2017) kabilar so‘nggi 10 yillikda IT mutaxassislarni etishtirish maqsadida tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalari.

Mamlakatda xususiy IT-maktablarni rag‘batlantirish orqali 2025 yilgacha 20 ming IT-mutaxassisni tayyorlashga qaratilgan “Tech Orda” dasturi ishga tushirilgan.

2024 yilning 15-20 sentabr kunlari Qozog‘istonda ICPC raqobatbardosh dasturlash bo‘yicha eng yirik talabalar jahon chempionati bo‘lib o‘tdi. Bunda 110 ta davlat vakillari ishtirok etgan.

Bundan tashqari, 2018 yildan buyon “Digital Bridge” va “Digital Almaty” xalqaro forumi kabi muhim tadbirlar o‘tkazilmoqda. Ular har yili 30 mingdan ortiq ishtirokchilarni jalb qiladi.

Ta’kidlash kerak, O‘zbekiston va Qozog‘iston Markaziy Osiyoning IT transformatsiyani avvalo raqamli ta’limdan boshlab startap kompaniyalar va IT xizmatlarni eksport qilishdek keng miqyosli ishlarda mustahkam hamkorlik

qilayotgan yetakchi mamlakatlaridir. Jumladan, 2022 yil 28-29 sentabr kunlari Qozog‘iston Respublikasi poytaxti Ostona shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida “Raqamli ko‘prik 20222 (Digital Bridge 2022) xalqaro IT Forumi bo‘lib o‘tdi va bunda “Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasida hamkorlik to‘g‘risida Bitim” tuzish va uni 24 – 27-oktabrda Samarqand shahrida imzolanishiga kelishildi.

Xalqaro mustaqil IT ekspertlar alyansi boshqaruvi raisi Amir Erjanov guvohlik berishicha qozog‘istonlik IT kompaniyalar O‘zbekistonga faol ko‘chib o‘tayotganini, u yerda o‘z IT mahsulotlarini ishlab chiqarayotgani va ularni xorijda muvaffaqiyatli sotayotgani yo‘lga qo‘yilgan. Bozorning boshqa ishtirokchilari bu taklifga rozi bo‘lib, Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida O‘zbekiston ITning tez o‘sishini qo‘llab-quvvatlamoqda.

“Digital Bridge”, “ICT-week” kabi xalqaro loyihalar ikkala mamlakatning raqamli transformatsiya siyosati yo‘lidagi muhim loyihalari hisoblanadi.

Mamlakatlarning raqamli ta’limdagi muammolari va imkoniyatlari:

• Infratuzilma va internet tarmog‘iga kirish imkoniyatlarini yaxshilash (ayniqsa ikkala mamlakatning ham chekka hududlarida);

• Oliy ta’lim va kasbiy o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish (robototexnika bilan ishlashning ilg‘or texnikalarini OTM talabalariga yetarlicha joriy etish (bugun raqamlardagi to‘garaklar soni ko‘p bo‘lsa-da ular texnika anjomlari bilan to‘liq ta’minlanmagan);

• IT-ta’limni mahalliy va xalqaro talablarga moslashtirish (xorijdan jalb etilgan professorlar faoliyatini infratuzilma bilan ham ta’minlash);

• Xalqaro ta’lim platformalari va sertifikat dasturlaridan foydalanish (Koursera kabi IT kurslar faoliyatini hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi sohalar bo‘yicha o‘qitish);

• Raqamli ta’lim olishni qo‘llab-quvvatlovchi yoshlarni Markaziy Osiyo bo‘yicha bitta IT ta’lim oilasiga birlashtirish;

• Mintaqaning 5 ta davlati yoshlari uchun yangi imkoniyatlar beruvchi an’anaviy “Digital week” haftaliklarini o‘tkazib borish;

• Yoshlarga dasturlash va kiberxavfsizlik sohasida yuqori daromadli kasblarni egallashi uchun qo‘shma grantlar tashkil etish;.

• Mintaqa bo‘ylab Global IT startaplarga qo‘shilish va innovatsion ekotizimni rivojlantirish.

• Onlayn ta’lim platformalari orqali masofaviy o‘qish imkoniyatlarini yanada kengaytirish;

• Ish beruvchilar tomonidan tan olingan mintaqaviy raqamli diplomlarni yaratish;

Xulosa.

Markaziy Osiyo davlatlari IT ta’limni rivojlantirish orqali yoshlar

uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy infratuzilma, davlat qo‘llab-quvvatlashi va xalqaro hamkorlik yoshlarning raqamli texnologiyalar sohasida muvaffaqiyatli karera qurishlariga imkon beradi. Shuningdek, mintaqaning raqamli iqtisodiy integratsiyasini tezlashtiradi.

Xususan:

- Avvalo Qozog‘iston va O‘zbekistonning mintaqaviy raqamli ta’lim markazlari sifatidagi mavqei mustahkamlanadi;
- global ta’lim standartlariga muvofiq mintaqa yoshlarining raqamli savodxonligini oshadi;
- Mintaqada IT va raqamli texnologiyalar sohasidagi mutaxassislar soni oshadi va mehnat bozorida sifatli ishchi kuchi kengayadi;
- Raqamli iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratiladi;
- IT ta’lim dasturlari rivojlangani sayin raqamli ta’limni arzonlashishiga erishilib, startap yosh mualliflar va mutaxassislar ko‘payadi, natijada investitsiya keltiruvchi loyihalar bilan jahon bozoriga yanada kengroq chiqiladi;
- Dasturlovchi yoshlari orqali mintaqalarning jahon raqamli iqtisodiyotiga integratsiya bo‘lishi mustahkamlanadi

Adabiyotlar ro‘yxati:

2. O‘zR VMning 2019-yil 10-yanvardagi “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 17-son qarori.

3. O‘zR Prezidentining 2020-yil 05-oktabrdagi «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.

4. O‘zR Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-sonli Qarori.

5. O‘zR Prezidentining 2023 yil 24-maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-son qarori.

6. O‘zR Prezidentining 2024-yil 15-maydagi “Hududlarda yoshlarga raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarni o‘rganish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan «IT-shaharcha»lar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-178-son qarori.

7. O‘zR Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori.

8. Jarasqan Nuribayev. https://oz.inform.kz/news/suniy-intellekt-kasblarga-kanday-tasir-kiladi

9. Lyubov Berdыcheves. https://postupi.kz/news/abiturientu/it-obrazovanie-v-kazahstane. “IT-obrazovaniye v Kazaxstane: top vuzov.

O.O Yusupaliyev,
Guliston davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

MILLIY QADRIYATLAR VA YOSHLAR MA’NAVIY KAMOLOTI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada urf-odat, an’ana va marosimlar ularning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati haqida atroflicha ma’lumotlar berib o‘tilgan. Qolaversa, urf-odat, an’ana va marosimlarning tarixi, buguni va kelajagi xususida ham o‘ziga xos yondashuvlar va gipotezalar ilgari surilgan.*

♦ ***Abstract:*** *In this article, customs, traditions and ceremonies are given detailed information about their role and importance in the life of a person and society. In addition, specific approaches and hypotheses have been put forward regarding the history, present and future of customs, traditions and rituals.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *urf-odat, an’ana, marosim, qadriyat, umuminsoniylik, insonparvarlik, udum,milliy, millat.*

♦ ***Key words:*** *tradition, ceremony, value, universality, humanitarianism, national, nation.*

O‘zbekistonning kuch-qudrat manbai xalqimizning milliy qadriyatlarimizga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo‘yi avaylab-asrab kelmoqda. O‘zbekistonni ma’naviy yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun shart-sharoit yaratishdir[1]”.

Falsafiy tafakkur asosidagina bu muammolar bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, mafkuraviy masalalarni chuqur ilmiy umumlashtirish, asosiy qonunlari va qonuniyatlarini ochib berish mumkin. Bu boradagi falsafiy umumlashmalar o‘tmishning ilmiy yakuni hamda istiqlolni to‘g‘ri anglash, taraqqiyotga yo‘naltirilgan mafkura uchun zarur bo‘lgan muhim dastur hamdir.

Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma’naviy qiyofamiz, o‘zligimizni anglash, davlatchilik an’analarimizni tiklashga, xalqimizning istiqlol to‘g‘risidagi asriy orzularini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi va bu borada xalqni xalq, millatni millat sifatida birlashtiradi. O‘z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq

olomonga aylanmaydi, buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolini omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg‘uradi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilanishiga xizmat qiluvchi ma’naviy omil hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarga e’tibor hozirgi kunda yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan, xalqimizni ma’naviy poklanishga yetaklaydigan asoslardan biridir. Xalqimizning avlodlardan-avlodlarga meros qolib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ularning o‘tmishi uch ming yildan ortiq davrni o‘zida mujassamlashtiradi. Ular Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi. Bizning milliy qadriyatlarimiz ana shu sivilizatsiyaga xos jihatlar: tug‘ilgan makon va ona yurtga ehtirosi, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham harakterlanadi.

“Jamiyatning ma’naviy yangilanishida, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri har xil “izm” lardan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo‘lgan insonlargina fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo‘ladi.

Ta’lim modelidan ko‘zlangan bir maqsad bor. Uning vositasida biz dunyodan munosib o‘rin olishga, o‘zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishamiz.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harb-y qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg‘or texnologiyalar har qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amir Temur bobomizning “Kuch-adolatda” degan mashhur ta’birini bugungi kunga nisbatan qo‘llab aytadigan bo‘lsak, men unga qo‘shimcha qilib “Kuch - bilim va tafakkurda” - degan bo‘lardim”.

Ushbu jarayonlar yoshlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Xo‘sh yoshlar kim? Ularga qanday xususiyatlar xos? Yoshlar jamiyat a’zolarining eng aktiv qismi bo‘lib, ular o‘zlarining bunyodkorlik ishlari bilan ijtimoiy hayotning hamma sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, mamlakatimizning sotsial-iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shmoqdalar. Bugungi kun hammamizni ijtimoiy ishlarda aktiv bo‘lishga, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligini uzluksiz oshirishga da’vat etadi. Binobarin, jamiyatimizni takomillashtirish yo‘lidan muvaffaqiyatli olg‘a qarab borishi ko‘p jihatdan yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, ularning ijtimoiy aktivligiga bog‘liqdir.

Hozirgi avlodning, ayniqsa yoshlarning Vatan oldidagi, tarix oldidagi xizmatlari eng avvalo, mamlakatimizda qurilayotgan demokratik jamiyatni yanada takomillashtirish vazifasini qay darajada muvaffaqiyatli uddalashi bilan o‘lchanadi.

Yoshlar tarbiyasi haqida qayg‘urish - ertangi kun, yorqin kelajak haqida qayg‘urish demakdir. Yosh avlodning mamlakat iqtisodi va madaniyatini rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasi qanchalik salmoqli bo‘lsa, jamiyat ularga shunchalik ko‘p ne’matlar beradi. Jamiyat-yoshlarga, yoshlar-jamiyatga! Yoshlarning huquq va vazifalarining birligi ana shunday o‘zaro munosabatda o‘z ifodasini topadi. Yoshlarning aktiv faoliyati ularni har tomonlama kamol toptirish bilan bog‘liqdir. Shu sababdan yoshlarda yuksak g‘oyaviylik, e’tiqodni, mehnatga ijodiy munosabat,

axlokiy poklikni tarbiyalash, ijtimoiy aktivlikning shakllanishi va takomillashuviga ta’sir etadigan omillarni ishlab chiqish, barkamol avlodning voyaga etishida oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv jarayoni bilan bir qatorda tarbiyaning boshqa shakllari ahamiyatini oshirish, yoshlarda aktiv hayotiy pozitsiyani, ijtimoiy aktivlikni shakllantirish va takomillashtirish kabi masalalar katta ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni va roli murakkab masaladir. Demokratik jamiyat qurilishi davrida yoshlarning sotsial-siyosiy, njtimoiy aktivligi tobora kuchayib bormoqda. Mamlakatimizda yoshlarning o‘qish va ijodiy mehnatda, jamiyat hayotida faol qatnashishlari uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlarni yaratib berish haqida doimo g‘amxo‘rlik qilib kelinmoqda.

Talabalik yillari-yoshlar hayotining eng muhim, rivojlanish davridir. Bu davrda yoshlar jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetadilar, hayot ma’nosini chuqurroq anglaydilar, jamiyatda o‘z o‘rnini topish yo‘lida izlanadilar. Xuddi ana shu davrda yuksak ideallar uchun faol kurashchining xususiyatlari shakllanadi, tajribasi ortadi. Binobarin, talabalik davri-orzu va ishonchlar, kelajakka intilishlar, bo‘lajak rejalarning shakllanish davridir. Ana shu davrda yoshlar ijtimoiy mehnatni to‘g‘ri baholay oladigan, mamlakat oldidagi vazifalarini, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg‘unligini, jamiyat boyliklarining qiymatini, davlatimiz belgilab berayotgan vazifalarni to‘g‘ri anglashga intiladigan barkamol shaxsga aylanadilar. Shu boisdan ham ijtimoiy taraqqiyot talaba yoshlarning ijtimoiy faoliyatining hamma sohalarida faol bo‘lishini, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlikni talab etadi.

Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan yoshlar bu xususiyatlarni ijtimoiy hayotda to‘la namoyon etish imkoniyatiga egadirlar.

Talaba yoshlar deganimizda, ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan 18-27 yoshlardagi yigit va qizlar tushuniladi. Mamlakatimizda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan yoshlarning umumiy safi yildan-yilga tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda inson ma’naviy yuksaldi, uning umumiy ta’lim va madaniy qiyofasi o‘zgardi. Respublikamizda faqatgina umumiy o‘rta ta’limgina amalga oshirilib qolmay, balki mehnatkashlar uchun hozirgi fan va madaniyatning barcha yutuqlaridan bahramand bo‘lishga imkoniyatlar ochildi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 10 mingdan ortiq umum ta’lim maktablarida 5 mln. ga yaqin o‘g‘il-qizlar ta’lim olmoqda. Yuzlab litsey-kollejlarda 360 ming dan ortiq o‘quvchi ixtisos o‘rganmoqda. 82 ta oliy o‘quv yurtlarida har yili 60 mingga yaqin malakali mutaxassis tayyorlanib, hayotga yo‘llanma olmoqda. Ular xalq xo‘jaligining barcha sohalarida muvaffaqiyatli mehnat qilmoqdalar.

Har tomonlama yetuk kishini kamol toptirish o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, albatta. Buning uchun ko‘p yillar davomida tinimsiz g‘oyaviy-siyosiy tarbiya jarayonini amalga oshirish – yoshlarda, jumladan, talabalarda yuksak e’tiqodni, demokratik ideallarga cheksiz ishonchni, g‘oyaviy matonatni, siyosiy

hushyorlikni, buzg‘unchi g‘oya va mafkuralarning zararli ta’siriga qarshi kurashish ko‘nikmasini shakllantirish kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘rayev N. Milliy istiqlol mafkurasi, shakllanish jarayoni. // “Sharq mash’ali”. 1998. 3 - 4 son. - B. 6.

2. Barkamol avlod orzusi. - T. “Sharq”, 1999. - B. 80.

Abdushokir Abduraxmonov,
Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi kotibiyati mudiri,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

YANGI O‘ZBEKISTON O‘QUVCHI – YOSHLARIDA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYASIDA OILAVIY QADRIYATLARNING O‘RNI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarida vatanparvarlikni shakllantirish strategiyasida oilaviy qadriyatlarning o‘rni ochib berilgan, globallashuv jarayonida oilada vatanparvarlik tarbiyasini olib borish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralib, uning asosiy yechimi sifatida tarixiy materiallar, ya’ni moddiy va ma’naviy merosimizni o‘rganishga yangicha yondashuv, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy shakl va vositalar asosida o‘rgatish, metodlari tahlil qilingan.*

♦ ***Abstract:*** *This article reveals the role of family values in the strategy of fostering patriotism among students. It examines the process of patriotic upbringing within the family as a pressing pedagogical issue in the context of globalization. As a key solution, the article analyzes innovative approaches to studying historical materials-namely, our tangible and intangible heritage-through modern methods, technologies, and tools.*

♦ ***Kalit so‘zlar.*** *o‘quvchi-yoshlar, vatanparvarlik, oila, vatanparvarlik tarbiyasi, metod, “oila-mahalla-ta’lim muassasasi”.*

♦ ***Key words:*** *students, patriotism, family, patriotic upbringing, method, “family–mahalla–educational institution”.*

Har qanday davlat o‘z istiqbolini sog‘lom va barkamol avlod timsolida ko‘radi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro‘yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yoshlarni zamon talablari darajasida ta’lim–tarbiya oldirish, vatanparvar, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini qat’iy shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifasidir.

Jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni umumlashtira oladigan yangi so‘z, ya’ni globallashuv-tarbiya tizimimiz jarayoniga noan’anaviy, kreativ yondashish zaruratini keltirib chiqardi, bunda eng muhim vazifa o‘zligimizni yo‘qotmasligimiz, xalqimizning milliy ruhiyatini nafaqat asrab qolishimiz, balki uni yanada kuchaytirishimiz uchun tarbiyaning eng muhim bo‘lagi bo‘lgan vatanparvarlik tarbiyasini mutloqo yangi yo‘nalish va ruhda tashkil etishimiz talab etilmoqda.

“Bugungi shiddatli, murakkab zamon shuni ko‘rsatmoqdaki, bu borada faqat ta’lim-tarbiya tizimining o‘zi mavjud ma’naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki, hozirgi kunda o‘quvchi-yoshlarimizni ota-ona, bog‘cha. maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo‘lidagi telefon “tarbiyalamoqda” [1].

Ayni vaqtda mamlakatimiz aholisining 6,2 million nafari yoki 17 foizi o‘quvchi-yoshlardan iborat. Ularning kelajagi uchun har tomonlama investitsiya kiritish ko‘p karra ta’sir kuchiga ega ekanini, bu sarmoya ertaga yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida mislsiz naf keltirishini barchamiz yaxshi bilamiz.

Bugungi maktab o‘quvchilari bilan tizimli ish olib borish uchun ularning psixologik holatiga baho berishimiz kerak.

Albatta, butun respublika bo‘yicha bir xil baho berib bo‘lmaydi, ammo ommaviy axborot vositalari, chet el tadqiqotchilarining fikricha har 15 yilda yangi avlod vakillari paydo bo‘lmoqda. Ya’ni, keyingi asrda paydo bo‘lgan 6 ta avlod bo‘yicha puxta tadqiqotlar qilingan.

Bular: “Ovozsiz avlod” (1925-1945), “Bolajon avlod” (1945-1964), “X” avlod (1964-1979) , “Y” avlod (1980-1995), “Z” avlod (1996-2010) va hozirgi kun avlodi – “Alfa” avlod. [2].

Tadqiqotchilarning fikricha, hozir maktablarimizda “Alfa” avlod vakillari ta’lim-tarbiya olishmoqda. Bu avlodning o‘ziga xosligi shundaki, ular texnika, kompyuter davrida voyaga etmoqda. Bu avlodni ertak aytib, pand-nasihat bilan yoki shapaloq bilan tarbiyalay olmaysiz, bu avlod virtual olamda tarbiyalanyapti. Pandemiya tufayli umumta’lim maktablarida 2020-2021 o‘quv yilida masofaviy ta’limni yo‘lga qo‘yilishi ham bu avlodni rag‘batlantirdi.

Qadim-qadimdan dono xalqimiz yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor bilan qarab, ularda Vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat, vatanparvarlik kabi tuyg‘ularni shakllantirishda turli usul va vositalardan foydalanishgan.

Ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat, vatanparvarlik tarbiyasiga daxldor bu fikr-mulohazalar kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgan emas. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, 30 yildan ko‘proq o‘zimizga ko‘rinmas dushman deb bilgan “ommaviy madaniyat” bilan “kurashib” kelamiz, yoshlardan, umuman vatandoshlarimizdan ma’naviyatni, milliy mentalitetimizga xos qadriyatlarga hurmatni talab qilamiz. Atrofda umumiy madaniyat va ma’naviyat pasaygan sari turli turli ta’qiqlarni kuchaytiryapmiz, hatti-harakatlarni, fikrlarni tanqid qilamiz. Ma’naviyat

haqida soatlab yig‘ilishlar, son-sanoqsiz tadbirlar o‘tkazamiz va ortidan shuncha odam, shuncha yosh ma’naviyatga oshno bo‘ldi, deya hisobot ham tirkab qo‘yamiz. Ammo, natijadorlik kam, faoliyatimiz samaradorligi talabga javob bermayapti.

Haqiqatan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi eng qiyin, dolzarb va ahamiyatli masalaga aylangan. “Ommaviy madaniyat”, global dunyo mafkurasi yoshlarning eng himoyasiz qismi bo‘lgan-o‘quvchilarni allaqachon qamrab olgan.

Aynan vatanparvarlik, ya’ni o‘z Vataniga, uning tarixiy merosi va an’analariga muhabbat ularning har qanday tahdidlardan himoya qilishga ishonchli asosdir.

Tadqiqot so‘rovnomasida “Sizning fikringizcha, bizning jamiyatda inson ma’naviyatiga nima eng ko‘p darajada ta’sir ko‘rsatadi?” degan savolga 77 foiz respondent “oila” deb javob qaytargan. [3]

Ammo, kuzatishlarimiz bo‘yicha, quyidagi holatlar ham oilaviy tarbiyaga putur yetkazmoqda: ota-ona va farzandlarning shaxsiy qiziqishlari bir-biriga mos tushmasligi, oilada iste’molchilik ruhiyatining ustunligi, ota-onalarning bilim va madaniy saviyalari talab darajada emasligi, oilada milliy an’analar va urf-odatlarga emas, balki ma’lum bir qolipdagi hatti-harakatlarga rioya qilinishi. Natijada, ota-onalar o‘z farzandlari bilan chin yurakdan, samimiy gaplasha olmayaptilar. Olib borilgan tadqiqotlar, ular o‘z bolasi tarbiyasiga kuniga faqat 8 daqiqa vaqt ajratganlarini ko‘rsatgan. [4]

Buyuk jadidchi, mutafakkir Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila” asarida: ”Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir.... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi” deb yozgan. [5]

Haqiqatan, farzand tarbiyasida oilaning o‘rni birinchi darajada ekanligi aksioma, ayniqsa, vatanparvarlik tarbiyasida. “Vatan ostonadan boshlanadi” degan chuqur ma’noli ibora mavjud. Bundan Vatan tuyg‘usini oiladan shakllanishi kelib chiqadi. Haqiqatan, vatanparvarlik tushunchasining negizi bolaning kindik qoni to‘kilgan yerdan boshlanadi. Shunday ekan, Vatan tuyg‘usini tarbiyalashni oiladan boshlashishimiz zarur, chunki, inson avvalo oila bag‘rida unib-o‘sadi va shaxs sifatida shakllanadi. Oiladagi ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida, mahallada, ta’lim muassasalarida sayqal topadi. Oilani insonga yashash uchun qulay sharoit yaratib bergan kichkina vatan, desak ayni haqiqat bo‘ladi.

Har bir oilada o‘ziga xos an’analar mavjud. Bu an’analar bolaning ongiga, xulq-atvoriga juda kuchli ta’sir o‘tkazadi. Masalan, oila a’zolarining tug‘ilgan kunlarini o‘tkazish, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olish va hokazo. Eng muhimi ota-onalarning hurmatini farzand doimo sezib turishi kerak.

Shu o‘rinda har bir oilada farzand tarbiyasida oilaviy shajarani tuzish uslubini qo‘llash zaruratiga alohida to‘xtalib o‘tsak, bu bejizga emas. Chingiz Aytmatov bolalik paytlarini eslab, nuroniylar to‘y-tomoshalarda bolalardan yetti bobosining nomini aytib berishini so‘raganliklarini qayd etib, shu yo‘sinda

yosh avlod qalbida avlod-ajdod, qon-qardoshlik tushunchalari singdirib borilganini xulosa qiladi. [6].

Ma’lumki, “shajara” arabcha so‘z bo‘lib, “daraxt” degan ma’noni anglatadi. Fanda shajarani o‘rganish – “geneologiya”, ya’ni kishilarning kelib chiqishi, o‘tgan avlodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmuini anglatadi.

Shajarasini tuzish, ya’ni “7 pusht” (farzand, nabira, chevara, evara, duvara, ovora, begona)ni bilish – yoshlarda o‘z ajdodlari. sulolasi, ota-onasi bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantiradi. Bu tuyg‘u yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning muhim omili. O‘z shajarasini bilgan yoshlarda xotira bo‘ladi. Xotirasi bo‘lgan yoshlar irodali bo‘lishadi, undaylar turli yot yo‘llarga kirib ketib, vataniga, xalqiga xiyonat qilmaydi. Bu bugungi turli mafkuraviy tahdidlar kuchaygan davrda biz uchun yoshlarda immunitetini shakllantirish va kuchaytirishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir kishi ota shajarasini bilishi va uni chuqur o‘rganishga intilishi kerak. Ayrim oilalar bor, shajara u yoqda tursin, o‘z oilasidan naryog‘ini bilmaydi, pasportiga millati yozilgani uchun men shu millatning vakiliman, deydi. Shu o‘rinda ma’rifatparvar, jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi so‘zini keltirish joiz: “Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmay turg‘onlarni qul-marquq derlar”. [7]

Unutmasligimiz kerakki, farzand tarbiyasida oilaviy an’analar o‘ta muhim o‘rin tutadi. Biz o‘rgangan vodiy viloyatlari oilalarida xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi bilan ko‘proq shug‘ullanishadi, shu qadriyatni bolalarga o‘rgatish avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Oilalarda o‘ymakorlik (ganch, mis va yog‘och o‘ymakorligi), zardo‘zlik, kulolchilik, milliy liboslar tikish kabi mashg‘ulotlar ham yosh avlod dunyoqarashini shakllantirmoqda.

Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyat sifatida muhim manbaa bo‘la oladi. Xususan, ertak va dostonlardagi obrazlar bolaning jismonan baquvvat, botir, qo‘rqmas, shijoatli va eng muhimi o‘z Vatani va yurti uchun jon fido qilishga tayyor farzandlarni etishtirishda juda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, Alpomish, Rustam, Siyovush, Shiroq, To‘maris obrazlari bolalarni juda tez o‘ziga rom qilib qo‘yadi va ularning ma’naviy dunyosini boyitadi.

Xalqimizning kiyinish madaniyati, pazandalik, alla aytish san’ati, milliy kuylar va cholg‘u asboblaridan foydalanishi, kashta, do‘ppi, qiyiq tikish kabi urf-odatlari ham oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi.

Hozirgi davrdagi ma’naviy-ijtimoiy makon talablarini inobatga olib, alohida qayd etish lozimki, farzandlarimizda vatanparvarlik ruhini qat’iy tarkib toptirish uchun noan’anaviy yo‘llarni qo‘llashimiz dolzarb bo‘lib turibdi.

Shunday usullardan foydalanishimiz kerakki, yosh avlod Vatanni qalb amri bilan seva olsin. Ammo, biz ko‘pincha oilada bu haqda gapirmaymiz, gapira olmaymiz, ba’zi hollarda bolalarimizga vatanparvarlik haqida gapirishni- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash deb o‘ylaymiz. To‘g‘ri, vatanparvarlik

haqida rivoyatlar aytish orqali uning mazmun-mohiyatini anglatish kerak. Lekin bu vatanparvarlik tushunchasini to‘liq ifodalamaydi. Hozir bolalarga ta’sir ko‘rsatayotgan tarbiyaviy omillar bundan

30 yil oldingilaridan mutlaqo farq qilyapti. Chunki, bugungi maktab o‘quvchisi-bundan 10 yil yoki 5 yil oldingi o‘quvchi emas. Uning ongida yangi narsa singdirish uchun avvalo uni hayratlantira olishimiz zarur.

Islom madaniyati ham ana shunday qudratga ega. Oilalarda islomiy aqidalarga katta o‘rin berish jarayoni ketayotgan hozirgi davrda bolalar tarbiyasida muqaddas dinimizning madaniy va ma’naviy merosidan foydalana olishimiz ayni muddao, deb o‘ylaymiz.

O‘zbekistonda aholining aksariyat qismi muqaddas islom diniga itoat qilishadi. Farzand dunyoga kelgach, uning qulog‘iga, avvalo Alloh kalomi eshittiriladi. Musulmonning butun hayoti davomida, kundalik turmushda islomiy an’analar doimo hamroh.

Islom – vatanparvar din. “Vatan” atamasi ham arabcha so‘z bo‘lib, “ona yurt” degan ma’noni anglatadi. “Qur’oni Karim”da Vatan, diyor, mamlakat, yashash manzili kabi iboralar 47 marta tilga olingan ekan.

Muqaddas hadisda “Vatanni sevmoq – iymondandir” deyilgan. Darhaqiqat, Islomda Vatanga muhabbat bu – tug‘ilib o‘sgan yurtini e’zozlash, uning ravnaqi uchun bor imkoniyatini sarf qilishdir!

O‘zbekistonda islom madaniyatiga oid juda boy tarixiy (yozma va moddiy) materiallar mavjud. Yozma manbalarni sanaydigan bo‘lsak, Qur’oni Karimdan boshlab, “Hadis”lar va yana adoqsiz diniy-ma’rifiy kitoblarni, moddiy manbaalar qatorida esa ko‘plab me’moriy obidalar, muqaddas qadamjolar, maqbaralarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Yurtimizda Samarqand, Buxoro, Xivadek qadimiy shaharlar, butun dunyo musulmonlarining ma’naviy maskaniga aylanib ulgurgan “Ismoil al-Buxoriy” majmuasi, Surxondaryo viloyatidagi “Imom Termiziy” va “Abu Muso Termiziy” qadamjolari, Samarqanddagi “Imom Moturidiy”, “Shohi Zinda”, Toshkent viloyatidagi “Zangi ota” kabi ziyoratgohlar mavjud.

Ma’lumotlarga qaraganda, O‘zbekistonda 8208 ta moddiy-madaniy ko‘chmas mulk obyekti mavjud. Ularning 4748 tasi arxeologik obyektlar, 2 250 tasi me’moriy yodgorliklar, 678 tasi monumental san’at yodgorliklari, 532 tasi esa diqqatga sazovor joylardir [8].

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistondagi muzeylar soni 105 tani tashkil etadi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyalar natijasida 80 ta tashkilotda arab imlosidagi 43 081 ta qo‘lyozma, 70 323 ta bosma kitob va 42 870 dona tarixiy hujjat saqlanayotganligi aniqlandi[9].

Pedagogikada o‘z isbotini topgan ilmiy xulosaga ko‘ra o‘rganilayotgan narsani ko‘rsatish, namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o‘zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib

qabul qilish samarasi 15 foiz, ko‘rib qabul qilish esa – 25 foizni tashkil etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma’lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 foizgacha ortadi [10].

Shunday ulkan madaniy merosdan farzandlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda juda katta imkoniyatlar mavjud. Agar, oilaviy bo‘lib, bolalarimizni tarixiy shaharlarga, muqaddas qadamjolarga tashrifini uyushtirsak, maqsadimizga tezroq etisha olamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – T.: “O‘zbekiston” 2016-yil.- 464 b.

2. Burgutboyev I. “Qarshingizda “Alfa” avlod”. (“Ishonch” gazetasi, 2022-yil 10-fevral №18 (4614)

3. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent shahri, 2022 yil 3 iyun, 247-bet

4. Quronov M. “O‘zbek xarakteri va milliy g‘oya”. T., 2005. 67-bet.

5. Fitrat. “Oila”. – T., “Ma’naviyat”, 1998. – B.8.

6. “Ma’naviy hayot” jurnali, 2021, №4 “Chingiz Aytmatov ogohlantiradi” maqolasi. 101-bet.

7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T., 1999, 194-195-betlar)

8. “O‘zbekiston” jurnali, 2020 yil, 2-3-son, 3-bet.

9. Alimov A. “Madaniy merosni asrashga har birimiz mas’ulmiz”. (“Xalq so‘zi” 2022 yil 22 fevral № 39(8101)

10. Xodjayev B.X. “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. – T.: 2017. 360 b.

Gulchexra Niyetova,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqotlar universiteti Gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

ATROF-MUHIT MUHOFAZASINING TARBIYAVIY ASOSLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada, tabiat va jamiyat o‘rtasida keyingi davrlarda vujudga kelayotgan ziddiyatlarning asosiy sabablari, ularni anglab etish va tartibga solishda ma’naviyatning, dunyoqarashning o‘rni nimalardan iborat ekanligini aniqlashga harakat qilingan.*

♦ ***Abstract:*** *This article attempts to identify the main causes of the conflicts between nature and society that have arisen in recent times, the role of spirituality and worldview in understanding and regulating them.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *ekologik optimizm, ekologik pessimizm, “Texnokratik texnik” “oila-mahalla-ta’lim maskani”, ekotizim, ekologik muammolarning tasnifi, ekologik-yurist, ekolog-jurnalist.*

♦ ***Key words”*** *ecological optimism, ecological pessimism, “Technocratic technician”, “family-neighborhood-place of education”, ecosystem, classification of ecological problems, ecological lawyer, ecological journalist.*

So‘nggi vaqtlarda ekologik muammolar haqida so‘z borganda asosiy e’tibor inson omiliga qaratilib ko‘plab konsepsiyalar va modellar yuzaga kelmoqda. Jumladan, hozirgi vaqtda butun olamda ekologik muammolarni hal qilish masalasida o‘zaro zid bo‘lgan “Ekologik optimizm” va “Ekologik pessimizm” konsepsiyalari mavjud. Shartli ravishda “Texnokratik texnik” deb ataladigan konsepsiya tarafdorlari fikricha, ishlab chiqarishga ekologik-texnologik madaniyatni joriy qilish orqaligina ekologik inqirozni bartaraf etish mumkin.[1,5b] Yana bir qarash tarafdorlari texnika va moddiy ishlab chiqarishni ekologik talablarga bo‘ysundirish bilangina ekologik muammolarni hal etib bo‘lmaydi, buning uchun barcha imkoniyatlarni “ekologik model” asosida “ekologik insonni” tarbiyalashga qaratish zarur, degan g‘oyani ilgari suradi.

Pessimistik yo‘nalish tarafdorlari ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida vujudga kelgan ekologik muammolarni mutloqlashtiradi. Shuning uchun ham bugungi kungacha bulgan barcha sivilizatsiya natijalardan voz kechib, yangi bir dunyo – “Ekologik madaniyat”, “Ekologik sivilizatsiya” yaratish masalasini asosiy o‘ringa quyadi. [2, 11b]

Umuman olganda yuqoridagi konsepsiya va modellar ekologik muammolarni bartaraf etish uchun taraqqiyotning umumiy qirralarini aks ettirib ularga asoslangan. Shaxsda ekologik madaniyatni shakllantirishda bunday qarashlar umumiy yunalish beruvchi va konseptual ahamiyatga egadir shu sababli ularni

birlashtirish kutilayotgan natijalarga olib kelishi mumkin. Bu yondoshuv ming yillar davomida inson va tabiat o‘rtasidagi barqaror muvozanatni ta’minlab kelgan tarixiy, milliy ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tizimlarni e’tiborga olishni talab qiladi.

Bundan ma’lumki, ekologik muammolarning yechimi nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy yoki demografik omillar, balki, insonda ekologik ong darajasi, ekologik bilim va ekologik dunyoqarashning yuksak rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun mazkur masala yanada dolzarblashib mamlakat aholisining ekologik madaniyatini, ekologik birdamligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. “O‘zbekiston-2030 strategiyasi” da “Atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohotlar” bo‘limida Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan «Yashil makon» umummilliy loyihasini kengaytirish, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta’sirini yumshatish, iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirining oldini olish, biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo‘yicha keskin choralar ko‘rish kabi ustuvor vazifa etib qo‘yilganligi bunga misol bo‘la oladi. [3, 43b]

Islom ta’limotining yetuk namoyandalaridan biri “Al Jome’ as-sahih” hadislarini yozgan Imom Ismoil al-Buxoriy ham tabiat va uning ne’matlari haqida, tabiat in’omlarining inson uchun yaratilganligi va ulardan oqilona foydalanish, ko‘chat ekish, yer haydash va ijaraga berish, o`lik yerni jonlantitirish, suvni e’zozlash haqidagi hadislarni ham o`z kitoblarida keltirib o`tgan. Uning “Al-adab al-mufrat” (“Adab durdonalari”) hadislar to‘plamidan quyidagi 482-hadisni keltirish mumkin: “Ey, Alloh yerning boyligidan rizqimizni ber! Bizning mada va sa’larimizga barokat ber, - deb so‘raganlarini eshitdik” [4, 68b]

Forobiyning qarashlarida insonning har bir narsaga me’yor bilan yondashishi, tabiatga mehr bilan munosabatda bo‘lishi insonning o‘ziga xos fazilati hamda baxtga erishishning birdan bir yo‘li sifatida talqin qilinadi. Abu Rayhon Beruniy insonning tabiat oldidagi va umuman jamiyatdagi axloqiy mas’uliyati, borliqqa munosabati masalasiga doir “Geodeziya” asarining kirish qismida shunday yozadi: “Aql mavjud ekan va ruhiyatimda izlanishga ehtiyoj bor ekan, men aql yordamida barcha narsalarni joy-joyiga qo`yishni ko‘p sohalarda yangi kashfiyotlar yaratishim va noaniq, mavhum narsalarga aniqlik kiritishimga to‘g‘ri keladi” [5, 76b]

Ona tabiat bilan munosabat o‘rnatishda o‘ziga yarasha qonun qoidalari to‘g‘risida qadimdan pandnomalar yozilib bizga qoldirilgan, ular o‘z asarlarida o‘zlari yashagan davrdan so‘ngi ming yillik kelajakni - ya’ni hozirgi davrni ko‘zda tutgan holda fikr yuritgan. Buyuk bobokalonimiz Yusuf Xos Hojibning XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilig” – “Saodatga boshlovchi-bilim” asarida shunday deydi – “Odamzod nasli - aslida yer yuzidagi jonlilar orasida eng ulug`idir, ammo-bu ulug‘lik bilim

bilangina to‘liqdir, mukammallik kasb etadi. Tabiat kimga zakovat, akl-idrok bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo‘l uradi”. Ma’lumki, inson mavjudotlar orasida eng mukammal aql idrokka ega ekan, demak har bir xatti – harakatini, munosabatini aql idrok va adolat bilan olib borishga ma’suldir.

Xassos shoir, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy tabiatga o‘zgacha mehr bilan yondoshgan va deyarli barcha asarlarida g‘oya va nolishlari atrof muhit bilan bog‘lanadi. A.Navoiy insonning tabiatga va tirik jonzodga xiyonatni do‘stga xiyonat qilishdek qoralagan.

U o‘zining “Layli va Majnun” dostonidagi obraz Qays sahro jonivorlarini Nafal singari ovchilar zulmidan chiqib bo`lgan Kays sahroga chiqib, “vaxshatlik eldin ulfat rishtasini o‘zib, vahshiylar bilan do`stlashadi”1. Sahro jonivorlarini Nafal singari ovchilar zulmidan qutqarib himoya qiladi. Qaysni odamlar “majnun – telba” deb atashsa-da, uning qalbida borliqka, tabiatga, uning jonzotlariga mehr-muhabbat, rahm-shafqat, achinish hissi o‘zi yashagan jamiyat odamlariga nisbatan baland va cheksiz. Shuningdek, “Farhod va Shirin” dostonining bosh qahramoni Farhodning ariq qazib, elga suv keltirish epizodi, yoki “G‘urbatda g‘arib shodmon bo`lmas emish” ruboyisining falsafiy g‘oyasi mohiyatida ham sof insoniylikka xos ekologik idrok va tafakkur, his tuyg‘u o‘z ifodasini topgan. Umuman olganda Alisher Navoiy tabiatga eng qimmatli, noyob boylik sifatida qaragan uni o‘rganish, avaylab-asrash kishini baxtli qiladi, deb hisoblagan. Yuqoridagi fikrlardan ma’lumki, tabiatga bo‘lgan munosabat, ekologik dunyoqarashlarning zamini shaxsning borliq, tabiat va tirik jonzodlarga bo‘lgan axloqiy ma’sulligidan boshlanar ekan. Bugun butun yer yuzida sodir bo‘layotgan tabiat yuqotishlar va ofatlar zamirida insonda ekologik bilim katta kemtikligi yoki tabiatga bo‘lgan mensimaslik oqibatidir.

Tabiatning barcha unsurlari kishilik jamiyatiga xizmat qiladi, ular tabiat va moddiy narsalar taraqqiyotining asosiy sababchisi hisoblanadi. Shunday ekan, insonning ana shu unsurlarga ongli munosabatda bo‘lishi, ularni asrab avaylashi va ratsional foydalanishi davr talabi ekan shaxsning tabiatga oqilona munosabati eng avvalo oila muhitida shakllanadi. Oila va undagi voyaga yetayotgan inson bolasi jamiyat va tabiatning o‘zaro ekologik munosabatining ijobiy jihatlarini mustahkamlashda asosiy o‘rindadir. Xalqimizda “yaxshidan bog‘ qoladi”, “o‘zing ko‘karay desang daraxt ek”, “bir tup tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi”, “birni kessang, o‘nni ek” kabi hikmatli so‘zlar bekorga ming yildan buyon ishlatilib kelayotgani yo‘q. Yosh avlodda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishda ulkan ahamiyatga ega. So‘ngi yillarda bu hikmatlarning darajasi kundalikli ijtimoiy hayotimizga kirib keldi. Atrof muhitni ifloslanishning oldini olishga xizmat qiluvchi “Eng obod maxalla”, “Eng go‘zal ko‘cha” “Eng obod hovli” kabi ko‘rik tanlovlar oila va mahallada ekologik tarbiya va ekologik madaniyatni takomillashtirishda o‘z kuchiga ega bo‘ladi.

Ekologiya va atrof muhitni asrashda ekotizim barqarorligini yo‘lga qo‘yishda “Oila – mahalla –ta’lim maskani” tizimi joriy etilib, ta’lim muassasalarida ekologik dunyoqarash, ekologik madaniyat kabi fanlarni yo‘lga qo‘yi- orqali

singlirib borish lozim. Mamlakatimizda milliy kadrlarni zaxirasini shakllantirish maqsadida ekolog-huquqshunoslar, ekolog-yuristlar, ekolog-jurnalistlar va xalqaro miqyosdagi ekolog-yurist mutaxassislarni tayyorlab chiqarish zamon talabidir. Zero, barcha muammoning yechimi to‘g‘ri yo‘naltirilgan bilim va ko‘nikmalardir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. Ochilova. Ekologik dunyoqarash. O‘quv qo‘llanma. Tafakkur nashriyomanbaiga2023.

2. Rasulov D. Ekologik madaniyat shartlari. Tafakkur, 2017, №1.-B-118

3. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-son. 11.09.2023.

4. Imom Ismoil Al-Buxoriy Al-adab al-mufrat (Adab durdonalari)-T-O‘zbekiston, 1990-B140.

5. *Timofeev I. B. Jizn zamechatelnых lyudey.* - *M.: Molodaya gvardiya. 1986.* - *S.* 225.

Jamshid To‘xtayev,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Buxoro viloyat hududiy bo‘linmasi bosh mutaxassisi

YOSHLAR QADRIYATLARIGA GLOBAL TA’SIRLAR: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA IMKONIYATLAR

♦ ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada yoshlar qadriyatlari va ijtimoiy madaniyatida yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida milliy qadriyatlarning transformatsiyasi, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoyilayotgan axloqiy qadriyatlarga zid kontentlar hamda noqonuniy mahsulotlar savdosi kabi xavfli holatlar misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Yoshlar ongida ijobiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va samarali yechimlar taklif etiladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the changes occurring in the values and social culture of youth. It examines the transformation of national values under the influence of globalization, digital technologies, and social networks. The study highlights dangerous phenomena such as the dissemination of content contradicting moral values and the illegal trade of products through the internet and social networks, providing specific examples. Innovative approaches and effective solutions are proposed to foster positive values in the consciousness of young people.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *yoshlar qadriyatlari, global ta’sir, internet va ijtimoiy tarmoq, milliy an’ana, axloqiy me’yor, innovatsion yondashuv, media savodxonlik, ta’lim va tarbiya, feyk axborot va axborot xavfsizligi, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, ekstremizm va kiberjinoyat.*

♦ ***Key words:*** *youth values, global influence, internet and social networks, national traditions, moral norms, innovative approach, media literacy, education and upbringing, fake information and information security, patriotism, social activity, extremism, cybercrime.*

Hozirgi globallashgan dunyo sharoitida yoshlar qadriyatlarida sezilarli yangilanish va o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Yangi avlodning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga turli global ta’sirlar internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat chuqur ta’sir etmoqda. Bu jarayonda yoshlar bir tomondan ulkan imkoniyat va axborot manbalariga ega bo‘lishsa, ikkinchi tomondan milliy an’ana va axloqiy mezonlarga zid keluvchi ta’sirlarga ham duch kelmoqda.

Davlat rahbariyati bu masalaga alohida e’tibor qaratib, yoshlar tarbiyasi va qadriyatini mustahkamlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab bergan. Jumladan, prezident Sh.Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga doir har qanday vazifani *“birlamchi ahamiyatga ega”*, - deb ta’kidlab, yosh avlodni xalqimizning *“oltin fondi”*, - deya e’tirof etgani bejiz emas.[2, 1 b.]

Mamlakat rahbari 2025 yil 14-fevraldagi yoshlar bilan uchrashuvda g‘oyaviy tahdidlar va zararli axborotlar xavfiga urg‘u berib, yosh avlodni bunday ta’sirlardan asrash muhimligiga e’tibor qaratgan. [3, 1-2 b.]

Shu o‘rinda, davlat rahbari ta’kidlaganidek, global o‘zgarishlar yoshlarga yangi imkoniyatlar yaratishi barobarida, ularning ongiga individualizm, oila va mehnatga yengil qarash kabi salbiy ta’sirlarni ham singdirmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, kiberjinoyatchilik va narkotrafik kabi global tahdidlar yoshlar uchun katta xavf tug‘dirmoqda.[4, 1 b.]

Mahalliy tadqiqotchilar o‘z tahlillarida milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ijobiy ta’sirini ilmiy asosda yoritib bergan. Ularning fikricha, milliy qadriyatlar barqaror saqlanib, zamonaviy mazmun bilan boyib bormoqda. Shu bilan birga, an’anaviy qadriyatlar qatorida qonunga itoat qilish, ekologik ong va “multikulturalizm” kabi tushunchalar ham muhim o‘rin egallamoqda. [5, 65-70 b.]

Shunday bo‘lsa-da, mamlakatda yoshlarga qaratilgan e’tibor va olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan, global tarmoqlar ta’siri orqali ularning qadriyatlarida yangi va turli tendensiyalar paydo bo‘layotgani kuzatilgan.

Jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy me’yorlarga zid kontentlar yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir qilib, virtual hayotga berilish va trendlar ortidan yurish real qadriyatlarni susaytirmoqda.

Global axborot makonidagi ba’zi ideologiyalar an’anaviy qadriyatlar

bilan to‘qnashishi kuzatilgan. Xususan, feminizm g‘oyalari mamlakat yoshlari o‘rtasida turlicha talqin qilingan. Feminizm asli maqsadi ayollar huquqlarini ta’minlash bo‘lsa-da, ayrimlar buni g‘arbdan kelgan ta’sir deb hisoblagan.[7, 1-2 b.] Ayrim holatlarda bu g‘oyalar radikal ko‘rinishga kasb etib, feministik qarashlarga ega qizlar orasida “qizil bayroq” trend ommalashayotgani kuzatilgan.[11]

Shu bilan birga, yoshlar orasida noodatiy jinsiy tanlov (oriyentatsiya)[12], qizlarga xos xatti-harakatlar va intim mahsulotlar savdosi[13], yoshlar orasida deviant xulq-atvor, beparvolik, submadaniyatlar va zararli tendensiyalar kvadroberlik harakati[14], ayrim blogerlar va vaynerlar orqali jinsiy mazmundagi materiallar, fohishalik targ‘iboti hamda yoshlarga xos bo‘lmagan kontentlar keng tarqalayotgani kuzatilgan. Shuningdek, ba’zi xorijiy seriallar va shou dasturlar ham yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani xususida fikr yuritilgan.[8, 1-2 b.]

Bundan tashqari, iffat masalalariga bo‘lgan radikal yondashuvlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani ayrim platformalar orqali iffat va munosabatlarning savdoga aylantirilishi milliy an’analar va axloqiy me’yorlarga tahdid solayotgani qayd etilgan.[15]

Global internet tarmog‘i faqat axborot emas, balki noqonuniy mahsulotlar savdosining manbaiga ham aylanganini ko‘rish mumkin. Xususan, psixotrop moddalar va giyohvandlik vositalarini internet orqali sotish holatlari ortgani qayd etilgan. Oliy Majlis Senati ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-2023 yillarda giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarning 22-25 foizi, 2024 yilning birinchi yarmida esa 33 foizidan ortig‘i yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Tarmoqlarda 52 ta onlayn manba shunday faoliyat bilan shug‘ullangani, shulardan 38 tasi telegram orqali 120 ming foydalanuvchiga ega bo‘lgani aniqlangan.[9, 1-2 b.]

Soha mutaxassislari ta’kidlaganidek, milliy tarbiya usullarini innovatsion shaklda joriy etish orqali yoshlarni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash va ularni yot ta’sirlardan asrash mumkin. U o‘z tahlilida yoshlar qadriyatiga global ta’sirlarga qarshi turish hamda raqobatbardosh avlodni tarbiyalash uchun an’anaviy usullar bilan birga zamon talabiga mos yangicha va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash muhim ekanini alohida ta’kidlagan.[1, 34-37 b.]

Shu bilan birga, yoshlarni global axborot oqimida yo‘naltirish uchun media madaniyatini shakllantirish, ta’lim muassasalarida media savodxonlik dasturlarini joriy etish, yoshlarni axborotni tahlil qilish va feyk yangiliklarni aniqlashga o‘rgatish muhim hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda “Digital Literacy” darslari orqali bu ishlar amalga oshirilayotgani ko‘rish mumkin.[10, 1-2 b.]

Psixologlar media savodxonlikni oshirish yoshlarni himoya qilishning samarali usuli deb hisoblashgan. Jumladan, AQSHda o‘quvchilar uchun manipulyativ kontentni aniqlashga qaratilgan maxsus dasturlar joriy etilgan.[6, 1-2 b.] Shu o‘rinda, ijtimoiy tarmoqlarda yod g‘oyalarga qarshi kurashning eng samarali yo‘li ma’rifiy va ijobiy kontentni ko‘paytirish muhimligi ekspertlar tomonidan qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarining qadriyatlar tizimi global ta’sirlar,

axborot makoni va zamonaviy hayot talablari ta’sirida jadal yangilanmoqda. Bu jarayonda ham ijobiy, ham salbiy ta’sirlar mavjud bo‘lib, yoshlarni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda davlat, jamiyat va oila zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarni uyg‘unlashtirgan holda yoshlar ongiga ezgu g‘oyalarni singdirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Prezident ta’kidlaganidek, yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, ularni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash barcha uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va salbiy ta’sirlarga qarshi kurashish maqsadida milliy qadriyatlarni mustahkamlash va targ‘ib qilish, ijtimoiy tarmoqlarda ma’rifatli kontent yaratish, ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligini kuchaytirish hamda oila va jamiyatda ma’naviy tarbiyani chuqurlashtirish muhim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aminova M. “Innovative approach to modern youth education” International Journal on Integrated Education Volume 4, Issue 6, June 2021

2. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar forumida so‘zlagan nutqi. «Xalq so‘zi» gazetasi № 273 26.12.2020

3. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar bilan uchrashuvdagi nutqi. «Xalq so‘zi» gazetasi № 33 15.02.2025

4. Mirziyoyev Sh.M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Prezident ma’ruzasi. «Xalq so‘zi» gazetasi № 13 20.01.2021

5. Shodiyev X.H. Milliy qadriyatlar – Yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasining o‘zagidir. Inter Education & Global Study jurnali. 2024, №3, 65-70 b.

6. https://www.apa.org/monitor/2024/09/media-literacy misinformation#:~:text=Howfoiz20tofoiz20teachfoiz20studentsfoiz20critical,recognizefoiz20contentfoiz20intendedfoiz20tofoiz20manipulate

7. https://www.uzanalytics.com/jamiyat/7887/#:

8. https://www.ishonch.uz/ru/news/seriallar-arsisidagi-savollar-hala-n

9. https://xabar.uz/mahalliy/narkotik-bilan-bogliq-jinoyatlarning-chorak-qismi-yoshlar-to#

10. https://link.springer.com/article/10.1007/s10639-024-12953-z#:~:text=Relationshipfoiz20betweenfoiz20socialfoiz20mediafoiz20use,forfoiz20developingfoiz20studentsfoiz27foiz20criticalfoiz20thinking

11. https://www.facebook.com/reel/1202566608207751

12. https://t.me/BUXORO_TEMASI_N3

13. https://t.me/TYUZBEK/98163

14. https://t.me/oblakouz/13065

15. https://first-night.com/ru/uzbekistan

Yulduzxon Ismoilova,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
pedagogika kafedrasi dots.v.b.
Nozima Normurodova,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti 1-kurs talabasi

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI TARBIYALASHDA OILANING O‘RNI

♦ ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda oilaning tutgan o‘rni va uning ta’lim-tarbiyadagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaning bolalar rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri, psixologik va pedagogik yondashuvlar hamda samarali hamkorlik tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyati, ularning maxsus pedagoglar bilan hamkorligi va inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishdagi roli muhokama etiladi. Maqolada alohida ehtiyojga ega bolalarni tarbiyalash jarayonida oilaning qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishdagi o‘rni hamda jamiyatning bu boradagi mas’uliyati xususida ilmiy-tahliliy fikrlar keltirilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the role of the family in the upbringing of children with special needs and its importance in education. The study highlights the influence of the family on the development of children, psychological and pedagogical approaches and principles of effective cooperation. The responsibility of parents for the upbringing of children, their cooperation with special educators and their role in shaping an inclusive educational environment are also discussed. The article presents scientific and analytical considerations concerning the role of the family in creating a favorable environment in the process of raising children with special needs, as well as the responsibility of society in this matter.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *alohida yordamga muhtoj bolalar, tarbiya, oila, inklyuziv ta’lim, pedagogik yondashuvlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ota-onalar hamkorligi, maxsus pedagogika, ijtimoiy moslashuv, ta’lim-tarbiya.*

♦ ***Key words:*** *children in need of special assistance, upbringing, family, inclusive education, pedagogical approaches, psychological support, Parent cooperation, special pedagogy, social adaptation, education.*

Bugungi kunda jamiyatda alohida yordamga muhtoj bolalarning ta’lim olishi va ijtimoiy hayotga moslashuvi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday bolalarning har tomonlama rivojlanishi va jamiyatga

integratsiyalashuvi ko‘p jihatdan oilaning qo‘llab-quvvatlashi va ta’lim muassasalari bilan samarali hamkorligiga bog‘liq. Oila – bolaning ilk tarbiya maskani bo‘lib, uning shaxs sifatida shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun oilaviy muhitning iliqligi, ota-onalarning tushunishi va pedagogik yondashuvlarning to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy ma’naviy qiyofasini ko‘radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi. Ma’lumki, oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir. Ushbu munosabatlar bolalarning aqliy, ruhiy kamolotini ta’minlab, ota-onalarda o‘ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta’siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o‘zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya’ni farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o‘z umri davomiyligini qurish holati ro‘y beradi.

Shaxsning ma’naviy sifatlarga ega bo‘lishi, unda ma’naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo‘lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo‘lib voyaga etishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Darhaqiqat, oilaning farzandlar o‘quv faoliyatiga g‘amhurlik qilishi tarbiyadagi bosh masalalardan biri bo‘lib, ota-onalar farzandlarining ta’lim jarayonida bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari yo‘lida mas’uliyatni chuqur his etishlari zarur. Bolaning maktabgacha rivojlanishida bosib o‘tadigan yo‘li juda katta. Bola yetti yoshga qadam qo‘ygan yil – uning hayotida juda mas’uliyatli davr. Bola uchun betashvish hayot tugab, oldinda hiyla murakkab va jiddiy sinov turadi. Ya’ni, bola endi yangi maktab jamoasiga kirib borishi lozim. Endi u shu jamoaning a’zosi ekanligini his etishga, intizomga bo‘ysunishga, yangi tartibga moslashishi kerak. Bola hali kichkina, bajaradigan burchlari ko‘p, o‘quv yuki esa katta.

Bular maktabda o‘qish, uy vazifalarini bajarish, ustiga-ustak dastlabki jamoat topshiriqlari. Bola hayotida maktab bilan bog‘liq tub burilish yuz beradi. Bundagi muhim narsa o‘yindan mehnatga, kundalik, majburiy va uzoq mehnatga o‘tishdan iboratdir. Buning o‘zi bo‘lmaydi, hatto u maktabgacha ta’lim muassasasida tayyorlangan bolalarga ham oson emas. Uydan maktabga kelgan bolalarga bundan ham qiyin. Bu davrda ota-onalardan katta diqqat-e’tibor talab etiladi. Muhimi esa qayta qurishni yengillashtirish, mumkin qadar beozor qilish uchun bolani bunday qayta qurishga oldindan tayyorlashdir.

Buning uchun nima qilish kerak? Avvalo, burch haqidagi tushuncha mumkin qadar ertaroq singdiriladi. Bola uydagi ma’lum bir vazifani

bajarishga, uning kattalar mehnatini qadrlashiga erishiladi. Bolalarni maktabga tayyorlay boshlaganda asta-sekin ularning bilimlarini tizimga solib borish lozim. Bu yoshga kelib bolalar tabiat va jamiyatda ro‘y beradigan hodisalar haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Biroq bu tasavvur hali yuzaki, ba’zan esa aniq bo‘lmaydi. Shu sababli bo‘lg‘usi maktab o‘quvchisiga u duch kelgan hodisalarning mohiyatini tushuntirish zarur. Unga madaniy-maishiy muassasalar – kutubxona, do‘kon va boshqalar haqida ma’lumot berish kerak. Bolani maktab bilan alohida tanishtiriladi, uning umumiy ko‘rinishi, xonalari bilangina emas, muhimi – nimaga mo‘ljallanganligi, vazifasi bilan ham tanishtiriladi.

Eng avvalo, uyda maktab o‘quvchisi shug‘ullanishi uchun alohida joy ajratilishi, o‘z stoli bo‘lishi lozim. Buning uchun sekreter ham qulay. Stol yoshga moslab tanlanishi shart. Bola stol yonida turganida u tirsagidan 2-3 sm baland bo‘lsa, mos hisoblanadi. Stol past bo‘lsa, bola o‘tirganida bukilib qoladi. Baland stol umurtqa pog‘onasining qiyshayishiga, qomatining buzilishiga olib keladi. Stolni o‘yinchoq va boshqa narsalar bilan to‘ldirib yubormaslik kerak. Avval ota-onalarning o‘zlari daftar, kitob, qalamlarga joy belgilab berishlari, keyin bolaga nima qayerda turishini eslab qolishiga yordam berishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarni saranjom sarishtalikka ham o‘rgatish lozim.

Mashg‘ulotlar uchun yoritilishning ham ahamiyati katta. Agar yorug‘lik kam bo‘lsa, bola beixtiyor boshini egadi, ko‘ziga zo‘r keladi, tez toliqadi. Kunduzgi yorug‘lik chap tomondan tushgani ma’qul, shunda qo‘lning soyasi daftar-kitobga tushmaydi. Kechqurun umumiy yorug‘lik manbaidan tashqari, yopiq stol lampasini ham yoqib qo‘yish foydali. Uni ham chap tomonga qo‘yish kerak. Shunda daftar va kitobga ko‘proq yorug‘lik tushadi. Bolani maktabga tayyorlashda u bilan birga ko‘cha harakati qoidasini o‘rganish, keyin esa uni bevosita ko‘chada, chorraha va ayrilishlarda, albatta, sinab ko‘rish kerak. Bolaning noma’qul xatti-harakatlari ota-onalar e’tiboridan chetda qolmasligi lozim. Biroq ular muhokama qilinayotganda do‘stona ishonch ruhi o‘rtadan ko‘tarilmasligi lozim.

Bolalarning xatti-harakatini nazorat qilib borish kerak, albatta, ammo nazoratni ularning butun xatti-harakatini qat’iy reglament asosida tekshirishga aylantirib yubormaslik lozim. Bu bolalarning mustaqilligi va tashabbusini bo‘g‘ib qo‘yishi, so‘zga kirmaydigan bo‘lib qolishlariga sabab bo‘lishi mumkin. Nazorat va talabchanlik deb, erkalash va rag‘batlashtirishni cheklab qo‘yish yaramaydi. Ishonch va oqilona talabchanlik bilan birgalikdagi erkalovchi, samimiy munosabat bolaga o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonch bag‘ishlaydi.

Ma’lumki, o‘g‘il bolalar bilan qiz bolalarning psixologik farqini hisobga olmay turib ularni tarbiyalab bo‘lmaydi. Qiz bolalar yoshligidanoq odamlarga, ularning munosabatiga, kerakli buyumlar (kiyim-kechak, idish-tovoq va boshqalar)ga ko‘proq qiziqadilar. Qiz bolalar ko‘proq ta’sirlanuvchan, o‘ziga olaveradigan, o‘zini-o‘zi ishontiruvchan, nisbatan beqaror bo‘ladilar. Qiyinchilik va qarama-qarshilik yuz berdimi, darrov kattalarga yordam so‘rab murojaat qiladilar. Ular o‘ta

bajaruvchan, bardoshli, shuning bilan birga arazchi, o‘zini-o‘zi yaxshi ko‘radigan bo‘ladilar. Ular maqtov, rag‘batlashtirishni kuchliroq qabul qiladilar, muvaffaqiyatsizlik, tanbehdan ko‘proq qayg‘uradilar. Qizlar kam harakatroq bo‘lib, odatdan tashqari sharoitda, o‘zlariga ma’qul mashg‘ulot topishga qiynaladilar, muayyan maqsadsiz sayr qilishni yoqtirmaydilar. O‘g‘il bolalar dadil, yaratuvchan, ularning qiziqish doiralari ham keng va xilma-xil bo‘ladi.

Mashg‘ulotlarda xilma-xil ijobiy misollardan foydalanish, bolalarda ularga bo‘lgan qiziqishni, taqlid qilishga intilishni rivojlantirish, taqlid qilish uchun namuna tanlashga yordamlashish ma’qul. Bu bolaning o‘ziga xos ijobiy inson bo‘lib etishiga imkon beradi. Agar bola MTTga bormasa, unda bola nutqining rivojlanishiga imkon beradigan mashg‘ulotlar o‘tkazilishi zarur. Bu mashg‘ulotlardan maqsad bolalarning o‘zlari tushunishi oson so‘zlarni ongli o‘zlashtirishlari, so‘zlarning ma’nosini nozik idrok etish, ularni obrazli qo‘llanishlariga erishishdan iborat.

Bolani o‘zi yoqtirmagan ishni bajarishga va oldin o‘rganib qolgan odatini qilmaslikka o‘rgatish kerak. Yurish, sayr, uyda qilinadigan jismoniy mehnat bolalarning deyarli butun bo‘sh vaqtini egallashi lozim. Ota-onalar quyidagilarga rioya etishlari maqsadga muvofiqdir:

- bolalarning mashg‘ulotlarga kechikishlari va uyga o‘z vaqtida qaytmasliklariga yo‘l qo‘ymasliklari;
- ularning dars tayyorlashlari uchun uyda qulay sharoitni yaratib berishlari;
- bolalarda uy vazifalarini bajarishga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni qaror toptirishlari;
- bolalarga o‘quv topshiriqlarini bajarish hayotiy zaruriyat ekanligini uqtirishlari, vazifalarni mustaqil, vijdonan bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga e’tibor qaratishlari;
- bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishlarini nazorat qilib borishlari.

Xulosa qilib aytganda, alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalash jarayonida oilaning roli beqiyos ahamiyatga ega. Ota-onalar va oila a’zolarining mehr-muhabbati, qo‘llab-quvvatlashi hamda psixologik-emotsional yordami bu bolalarning ijtimoiylashuvi, mustaqil hayotga tayyorlanishi va to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhit qanchalik ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lsa, bolalarning rivojlanish jarayoni shunchalik samarali kechadi. Shu bilan birga, maktab va jamiyat bilan hamkorlikda olib borilgan kompleks yondashuv alohida ehtiyojga ega bolalarga yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, davlat siyosati, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari oilalarga metodik, psixologik va moddiy jihatdan ko‘mak berishi zarur. Shuningdek, maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar hamda inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, alohida yordamga muhtoj bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun oilaning

roli hal qiluvchi omil bo‘lib, bunda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi Toshkent 2023 y.

2. Ayupova M. Logopediya: Darslik.- T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2007.- 560 b

3. L.Sh.Nurmuhammedova, M.Ziyavuddinova. O‘quv uslubiy qo‘llanma “Alohida ehtiyojli bolalarni oilada tarbiyalash usullari”, 2016.-77 b.

4. Po‘latova P.M. Maxsus Pedagogika: Darslik.- T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi”, 2005-224 b.

Zayir Rakhimov,
Navoi University of innovation,
Head of the Department of quality control of Education

EDUCATOR-METOCOGNITIVE IN MANAGEMENT OF EMPLOYEES PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS

- ***Abstract.*** *In this article is spoken about psychological quality in management pedagogical society in secondary schods and pay attention to these qualities in educational process.*
- ***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o‘rta maktablarda pedagogik jamiyatni boshqarishdagi psixologik sifatlar haqida so‘z yuritiladi va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatiga e’tibor qaratiladi.*

- ***Key words:*** *Method, creative environment, motivation, psychological process, social- psychological, attention.*
- ***Kalit so‘zlar.*** *Metod, ijodiy muhit, motivatsiya, psixologik jarayon, ijtimoiy-psixologik, e’tibor.*

When talking about the metacognitive pedagogical-psychological mechanisms of pedagogical staff in management", this topic is studied in teaching in the fields of pedagogy and psychology, and metacognitive approaches and mechanisms to improve the effectiveness of management.

About metacognition, we can say that this is the ability of a person to understand and control his own thinking process, that is, to analyze his own methods of teaching and learning and improve them. In pedagogical management, metacognitive mechanisms included such methods that develop the ability of the teacher or leader to analyze his activities, increase his effectiveness and self-control.

Moving on to the analysis of the pedagogical and psychological foundations of metacognitive mechanisms.

We see self-analysis as the first factor. A teacher or employee can regularly assess their performance and determine its effectiveness. On the basis of this process, the teacher must understand how he can develop his knowledge and skills. Data processing and storage – metacognitive approaches help the teacher or employee develop their own strategies on how to teach or remember information. In doing so, teachers determine the most effective teaching methods for their students. The fact that they have metacognitive behavior studies how teachers choose approaches and techniques to deal with complex situations in their activities. This is especially important in meeting the different needs of students.

Educators think about their experiences over and over again, which helps them improve their work and build effective relationships with their students. In this place, it is very important that we also get to know psychological mechanisms.

Psychological mechanisms-pedagogical psychology also plays an important role in this process, since the psychological state and emotional intelligence of the employee himself are important in choosing teaching methods. The teacher must control his emotions, overcome stress and apply effective pedagogical approaches.

Metacognitive pedagogical mechanisms in management:

Teacher and employee self-assessment processes: by evaluating their activities, teachers develop more effective management strategies.

Experience-based learning: teachers and staff update their knowledge and skills based on their experiences.

Cooperative approaches: teamwork and mutual feedback in management processes also develop metacognitive mechanisms. Critical thinking: teachers and staff master systematic and analytical approaches to the effective implementation of management.

These mechanisms contribute to the successful implementation of management and stimulate the development of the pedagogical system.

Responsible and comprehensive tasks in public school management implementation requires strategic Education Management. Because, effective the prestige, potential of the educational institution on the basis of Management, in this educational institution the younger generation studying in every field (knowledge competition in science, sports, arts, etc.) as their achievements occupy the main place the head of the educational institution and pedagogic, who stood at the beginning of these achievements in Qatar it is important how the team is also doing activities.

First of all, the head who conducts management activities in secondary schools have extensive pedagogical-psychological knowledge, competently, self-perpetually legal and regulatory, which can control, exist in the process of leadership activities to innovative processes that rely on criteria and today it is advisable to be a substantiated specialist. These processes are universal also with the creative

activity of educators working in their schools.

Innovative processes without the creative activity of Educators of the educational institution and in this it cannot be done without psychological approaches. For this Psychological of creating a creative environment in the management of the managerial pedagogical team knowledge of aspects and rational from management techniques to do so must also have the skill of being able to use.

Effective use of management techniques creative of the pedagogical community it helps to develop performance skills by expanding activity.

P.X.Dzhurayev, S.T.Turgunov, N.Q.“Educational management”of the Ahmedovs in modern socio - economic conditions in the title manual suitable to a large extent in the management of general secondary educational institutions four main groups of methods are shown. These are: economic, organizational, administrative, social psychological and information collection methods are considered. Economic method in management in creating a creative environment in the team the dependence is that through this method the economic of the institution in addition to describing the sum of its indicators, it is also used by educators to provides conditions for them to operate at the level of modern requirements. That is, improving the activities of the educational institution and innovative processes strengthening, Organization of innovative activities of employees, education the process is used in the development of the activities of its participants.

The second method is the organizational-administrative method. Decisions while through this method, preparation of orders, orders and instructions, relevant them in time with effect by controlling the delivery and execution of individuals it is necessary to be present in the team in achieving the goals set together relationships, relationships, organizational stability, discipline, interaction law on proportionality and concordance, orderliness and continuous development and consists in ensuring compliance with regulatory documents. Jody environment in the team and for it to be, the relationship is very important. And socio-psychological methods in the management of the pedagogical community are in the team there will be no exaggeration to say that a creative environment will be the basis of creation. Because, it is the method is the leisurely, free movement of team personnel, self-expression conditions to make, freely participate in the relevant processes, express an opinion creates and cultivates their creative activities. Hence, in a healthy environment, Common Sense and a healthy worldview and belief are formed.

From the feedback above, the pedagogical community is represented by own opinion on the psychological aspects of creating a creative environment in management and we describe our recommendations. These are:

- using material and spiritual stimulation in its place;
- Organization of competitions, examination competitions among the pedagogical team;
- be able to effectively use the mechanisms of management circulation;
- strengthening the activity motives of pedagogical employees.

In conclusion, it can be said that creative in the management of the pedagogical community attention to the psychological aspects of creating an environment, from management techniques rational and effective use creative by increasing work productivity in the pedagogical team serves as the basis for the expansion of their activities.

References:

1. Islam Karimov. "High morale-invincible strength", Tashkent "Spirituality" 2010 (87-page)

2. R.S.Nemov. "Psychology", Kniga 2. Moscow, Vlados, IMPE im. A.S.Griboyedova, 2001 (29-page)

3. Dzhurayev R.X., Turgunov S.T., Akhmedova N.Q. Educational management (theory). (56-page).

Rashidova Shahnoza Bahodirovna,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti

O'SMIRLARDA ME'YORIY IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDAN OG'ISH OMILLARI

♦ ***Annotatsiya:*** *maqolada o'smir yoshdagi shaxslarning me'yoriy ijtimoiylashuv jarayonidan og'ishiga sabab bo'luvchi asosiy ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar tahlil qilinadi. Jamiyatda qabul qilingan qoidalar va qonunlarga mos ravishda shakllanish lozim bo'lgan ijtimoiylashuv jarayoni ayrim holatlarda buzilishi mumkin. Ayniqsa, o'smirlik davrida shaxsda mustaqillikka intilish, o'zligini anglash, guruh ta'siriga moyillik kabi xususiyatlar kuchaygani bois, ularning deviant va delinkvent xulq-atvor namoyon etish ehtimoli ortishi kuzatiladi. Maqolada oilaviy muhit, ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy muhit, ommaviy axborot vositalari ta'siri, tengdoshlar guruhi va iqtisodiy sharoitlar kabi bir qator omillarning o'smirlarning ijtimoiy normalarga mos ravishda ijtimoiylashuviga to'sqinlik qilishi yoki undan og'ishga sabab bo'lishi yoritiladi. Shuningdek, bu jarayonda profilaktik choralar hamda ijtimoiy xizmatlar va ta'lim muassasalarining rolini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Tahlillar sotsiologik va psixologiyaviy yondashuvlar asosida olib borilib, aniq tavsiyalar ilgari suriladi.*

♦ ***Abstract:*** *This article analyzes the main social, psychological, and cultural factors that contribute to adolescents deviating from the process of normative socialization. Socialization, which should develop in accordance with the rules and laws accepted by society, can be disrupted under the influence of various conditions. In adolescence, the increased desire for independence, self-*

awareness, and susceptibility to peer influence raise the likelihood of deviant and delinquent behavior. The article examines the impact of factors such as family environment, the educational and disciplinary climate in schools, the influence of mass media, peer groups, and economic conditions that may hinder or distort the process of adolescents' socialization in line with societal norms. It also highlights the importance of preventive measures and the role of social services and educational institutions in supporting proper social development and preventing deviant behavior.

- ***Kalit so'zlar:*** *ijtimoiy xulq-atvor, o'smirlik, og'ish, submadaniyat.*
- ***Key words:*** *social bevavior, adolescence, deviation, subculture.*

Ma'lumki, har bir jamiyat o'zining qat'iy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, an'analar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega. Qabul qilingan me'yorlar xulq-atvorning tarixan shakllangan qoidalari sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, u baholovchi mazmunga ham ega. Unga muvofiq ravishda har qanday harakat 'to'g'ri" yoki "noto'g'ri", "yaxshi" yoki "yomon" deb tavsiflanadi. Bunday tushunishda me'yorning tabiiy korrelyati, ya'ni, unga bog'liq tushuncha "og'ish" atamasi qo'llaniladi. Odatda, "og'ish" termini har qanday "kasal" va "kasallik" xususida mulohaza yuritilganida ham ishlatiladi. Chunki, og'ish aniq termin bo'lmasdan, balki bu so'z orqali xulq-atvor yoki uning simptomlari bilan bog'liq belgilar tushuniladi.

Ijtimoiy og'ishning keng tarqalgan turlari asosan inson umrining dastlabki bosqichlarida, xususan, o'smirlik davrida ko'p kuzatiladi. O'smirlik davri o'ziga xos nomlanishlarga ega bo'ladi: "o'tish davri", "keskin o'zgarish davri", "portlovchi davr", "qiyinchiliklar davri", "tanqidga uchrash davri" va hokazo. Ushbu holatni quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, shu davrda yuz beruvchi ko'p qirrali sifat o'zgarishlari (ularning qiziqishlari doirasidagi, o'zaro munosabatlari tizimidagi va boshqalar) juda qisqa vaqt oralig'ida, ko'pincha to'satdan, favqulodda sodir bo'lishi oqibatida rivojlanish "sakrash" tarzida ro'y beradi hamda jo'shqin xususiyatga ega bo'ladi.

ikkinchidan, yuz berayotgan o'zgarishlar, bir tomondan, o'smirlarning aynan o'ziga xos va turli tartibdagi subyektiv qiyinchiliklari, boshqa tomondan esa uning shakllanishi jarayonidagi murakkabliklar orqali kechadi.

Voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilikdagi portlash XX asrning 60 yillari oxiri va 70 yillarining boshlariga to'g'ri keldi. Sababi xuddi shu davrda aholi umumiy miqdorida o'smirlar salmog'i oshib bordi. Gap shundaki, 1945-1948 yillarda Ikkinchi jahon urushidan qaytgan millionlab erkaklar tinch hayotga qaytdilar. Ularning ko'pchiligi oila qurgan bo'lsalar, oilali erkaklar farzandlari sonini ko'paytirdilar. Natijada 60-70 yillarga kelib ularning farzandlari jinoiy

javobgarlikka tortilish yoshiga yetdilar. Natijada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilikning ajralmas qismi sifatida davlat organlari hamda olimlar diqqatini torta boshladi. Shu davrdan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi borasidagi qator fundamental tadqiqotlar va ilmiy asarlar paydo bo‘ldi. Albatta, ular o‘sha davrdagi tuzum xususiyatlaridan kelib chiqib g‘oyaviy qobiqqa o‘ralgan bo‘lsa-da ular jinoyatchi shaxsiyatini shakllanishiga turtki bo‘luvchi omillarni anglashda katta rol o‘ynadi.

XX asrning 60-70 yillarida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini anglashda A.B.Saxarov, G.M. Minkov, K.Ye. Igoshev kabi olimlarning faoliyati samarali bo‘ldi. Keyingi o‘n yillikda esa voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi o‘sib bordi. Kriminolog ekspertlarning fikricha voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilik qayd qilingan holatidan amalda 4-5 barobar ko‘p sodir etiladi. Ularni ozodlikdan mahrum etish kabi og‘ir jazolar bilan jazolanishiga qaramasdan ushbu jinoyatchilik turi doimiy tarzda o‘sib bordi. Bu ayniqsa 1970-80 yillarda ko‘p kuzatilib, og‘ir jazolar qo‘llanishiga qaramasdan jinoyatchilikning bu turi kengayib borishining oldini olishni imkoni bo‘lmadi.

XX asrning 90 yillariga kelib iqtisodiyotining keskin tanazzulga uchrashi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Bu davrda bola hayoti va uning barqaror ijtimoiylashuvidagi birlamchi omil bo‘lgan ota-ona oilasi o‘zining an’anaviy ahamiyatini yo‘qotib boshladi. Xuddi shu davrdagi olimlar tadqiqotlarining natijalariga ko‘ra voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilikning asosiy sabablari aynan oila va oilaviy qadriyatlar ahamiyatining keskin tushib ketishi bo‘ldi. Natijada tanazzulga duch kelgan noqobil oila bolalari orasida jinoyatchilikka moyillik o‘sib bordi.

O‘smirlik davriga yetgan har bir bola uchta kuchli va inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oqimga duch keladi. Ular quyidagilardir:

1. Jismoniy - biologik.
2. Ijtimoiy-ma’naviy - sotsiologik.
3. Ruhiy-hissiy - psixologik.

O‘smirlik yoshi 11-12 dan 14-15 yoshgacha avvalo biologik ma’noda o‘tish davri hisoblanadi, chunki bu jinsiy yetilish yoshidir. Bunga parallel ravishda organizmning boshqa biologik tomonlari ham asosan yetiladi. Ushbu davrning erta boshlangan yoshlik 14-15 dan 18 yoshgacha qismi – tom ma’noda “uchinchi olamdir”, bolalik va yetuklik o‘rtasi. Bu davr biologik jihatdan jismoniy yetuklikning nihoyasiga yetishidir.

Sotsiologik jihatdan o‘smirlik fazasi – birlamchi sotsializatsiyaning davomidir. Bu yoshdagi barcha o‘smirlar – ota-onalar yoki davlat qaramog‘ida bo‘lgan maktab o‘quvchilaridir. O‘smirning ijtimoiy mavqei bolalikdan kam farq qiladi. 16-18 yoshdagi ishlaydigan yoshlar (ba’zi huquqiy aktlarda ular «o‘smirlar» deb ataladi) alohida huquqiy mavqega ega va butun bir qator imtiyozlarga egadir (to‘liq sifatida to‘lanadigan qisqartirilgan ish vaqti, ish vaqtidan tashqari va tungi va dam olish kunida ishlashning ta’qiqlanishi, bir taqvim oyi bo‘yicha davom etadigan ish ta’tili va hokazo). Shu bilan birga, shaxsning bu bosqichdagi faoliyati va roli strukturasi allaqachon bir qator yangi, yetuklik sifatlariga ega bo‘la boshlaydi.

O‘smirlik yoshida ko‘p uchraydigan, sababsiz deb ataladigan hatti-harakatlar aslida sababsiz emasdir. Shunchaki bu turtki u yoki bu vaziyatlar oqibati bo‘lishi mumkin, bular o‘spirin tomonidan anglanmaydi va mantiqiy tahlilga berilmaydi. Ularni tushunish uchun, keskinlikni, ko‘pincha o‘smirning psixikasidagi ichki ziddiyatlilikni va hatti-harakatning ijtimoiy ziddiyatliligini aniq chegaralab qo‘yish kerak bo‘ladi.

Psixologik jihatdan bu yosh ziddiyatli davr hisoblanadi. Uning uchun rivojlanishning darajasi va sur’atlaridagi maksimal disproporsiyalar xosdir. O‘smirlikning “kattalik hissi” - o‘smir haqiqatda hali erishmagan vaziyatni oldindan biluvchi intilishlarning, da’volarning yangi darajasi. Tipik bo‘lgan yosh ziddiyatlari va ularning o‘smirning o‘z-o‘zini anglashida boshqacha tus olishi shundandir. Umuman bu bolalikning tugashi va undan “ulg‘ayib chiqish” davridir.

O‘smir muammolari nazariyasiga psixoanaliz kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Uning asoschisi – Avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd (1856-1939) hisoblanadi. O‘smirlik yoshi konsepsiyasini tizimli tarzda yaratmadi, lekin butun o‘smir tabiati muhim holatlari va o‘smirlik shahvoniyati, emotsional jarayonlar va o‘smir shaxsiyatining rivojlanish xususiyatlarini ko‘tardi. Psixologiyadagi o‘smirlik yoshining rivojlanishi xususida psixolog Erik Erikson g‘oyalari ahamiyatlidir. Erikson bo‘yicha, o‘smirlik davri bir qator ijtimoiy va individiual shaxsiy tanlamalardan, tenglashishlardan va o‘z-o‘zini anglashdan iborat identiklik (aynan bir xil, teng deb bilish) inqirozi atrofida quriladi. Agar o‘smir bu vazifalarni uddalay olmasa unda noadekvat identiklik shakllanadi, buning rivojlanishi 4 ta yo‘l bilan boradi: 1) psixologik yaqinlikdan ketish, shaxslararo zid munosabatlardan qochish; 2) vaqtni his etishning yo‘qligi, hayotiy rejalarni tuzishga noqobillik, katta bo‘lish va o‘zgarishlardan qo‘rqish; 3) unumli, ijodiy qobiliyatning yo‘qolishi, o‘z ichki resurslarini safarbar qilishni va qandaydir muhim faoliyatga diqqatini jam qilishni uddalay olmaslik; 4) “salbiy identiklik” ning shakllanishi, o‘z-o‘zini namoyon qilishdan voz kechish va taqlid uchun salbiy qahramonlarni tanlash.

O‘smirlarda ichki quvvatni yo‘naltirish muammosi keskin turadi. Ularda o‘zini o‘zi anglash borasida intilishlari sezilarsiz qoldirilsa bu ularning nafsoniyatiga qattiq tegishi, oqibatda esa ijtimoiy zid xatti-harakatlarga undashi mumkin. Bu faollikning salbiy shakllari hisoblanib fanda “Gerostat kompleksi” deb nom olgan. Shuningdek, zo‘ravonlik, jinoyatlarni sodir etilishi, hattoki, retretizm – ya’ni alkogoli ichimliklar, giyohvand moddalar, hattoki o‘z joniga qasd qilish orqali ijtimoiy hayotdan “uzoqlashish, tark etish” sodir bo‘ladi. Xovining yozishicha “O‘smirlardagi agressivlik o‘zini himoyalash vositasidir”. Aksincha, “jinoyatlar, xuliganlik – deb yozadi Dj.Ueyn - yoshlarning sarf etilmagan ichki quvvatini chiqarish yo‘lidir”. Bu holat, ayniqsa, ichki his-tuyg‘ularini so‘z bilan ifoda etishda qiynaladigan o‘smirlarda yaqqol kuzatiladi. Masalan, oilasida muntazam zo‘ravonlikka duch kelayotgan yoki maktabda masxara qilinayotgan o‘smir, o‘zining zaifligini yashirish hamda xavfsizlikni ta’minlash maqsadida agressiv xulqni tanlaydi — jangari, yon bermaydigan, hatto tahdidli ko‘rinishda harakat qiladi. Bu shakldagi himoyaviy agressiya ular uchun yopiq va nohaq

dunyoda “kurash vositasi”ga aylanadi.

G.Zabryanskiy ta’kidlashicha, “Zamonaviy jamiyatlarda ilgari surilayotgan maqsadlar va ularga erishish imkoniyatlari orasidagi ziddiyatlar o‘sib kelayotgan avlodda ijtimoiy farovon hayotga rasmiy yo‘l bilan erishishda to‘siqlar ushbu hayotga qonuniy yo‘l bilan erishishni ilojsiz qilib qo‘yayotgandek”. Bu fikrni hayotiy misollar bilan tushuntiradigan bo‘lsak, masalan, ommaviy axborot vositalari va internet orqali o‘smirlarga muvaffaqiyat, boylik, moddiy farovonlik, ijtimoiy tan olish kabi maqsadlar doimiy ravishda targ‘ib qilinadi. Lekin o‘sha maqsadlarga yetishish uchun real imkoniyatlar – sifatli ta’lim, barobar mehnat sharoiti, adolatli raqobat muhiti – har doim ham mavjud bo‘lavermaydi. Natijada, ayrim o‘smirlar qonuniy yo‘llar bilan bu maqsadlarga yetisha olmasligini his qilib, noqonuniy yo‘llarni izlashga moyil bo‘lib qoladi. Masalan, iqtisodiy qiyinchiliklar va ishsizlikdan aziyat chekuvchi manbaiga muvaffaqiyatga erishish uchun jinoyatchilik, firibgarlik yoki deviant guruhlarga qo‘shilishni o‘zicha “alternativa” sifatida qabul qilishi mumkin. Bu holatda jamiyat tomonidan targ‘ib qilingan maqsadlar va hayotdagi imkoniyatlar o‘rtasidagi asimmetriya, ularda norozilik va o‘ziga ishonmaslik hislarini shakllantiradi. Bu esa deviant xulq-atvorning ijtimoiy ildizlaridan biriga aylanadi. Misol sifatida aytishimiz mumkinki, ayrim o‘smirlar internetdagi blogerlar va inflyuyenserlarning tez boyish, brend kiyimlar, lyuks hayot tarzini ko‘rib, shunday turmushni maqsad qilib oladi. Lekin bu maqsadga o‘ziga xos qobiliyat yoki moliyaviy imkoniyatsiz yetisha olmasligi, unda tushkunlik yoki norozilik uyg‘otib, o‘g‘rilik, qalloblik yoki ijtimoiy rad etish (ijtimoiy izolyatsiya) orqali “chiqish yo‘li” izlay boshlashga sabab bo‘ladi.

Ushbu ziddiyat – ya’ni maqsad va imkoniyatlar o‘rtasidagi tafovut – Robert Merton tomonidan ham anomiya nazariyasida tushuntirilgan. Uning ta’kidlashicha, jamiyatdagi qabul qilingan maqsadlar va ularga yetib borishning qonuniy vositalari o‘rtasida muvozanat buzilganda, shaxslar og‘ish (deviatsiya) orqali harakat qiladi.

V.Axadovning yozishicha “Go‘yoki istiqbolsiz yoshlar davri keldi. Barcha imkoniyatlar allaqachon taqsimlanib bo‘lgan. Bundan buyon farzandlar ota-onalari erishgan imkoniyatlardan ortig‘iga ega bo‘la olmaydilar. Ammo, hayotiy istiqbolsiz ulkan miqdordagi yoshlar biror narsaga erishishga ko‘zlari yetmasada o‘z kuchlarini nimagadir sarflashlari shart”. Kattalar tomonidan anglanmagan o‘smirlar guruhlarga birlashadilar va o‘ziga xos qadriyatlar, me’yorlar, ehtiyoj, til, ramzlarga ega submadaniyatlarni shakllantiradilar. Bu guruhlar esa odatda qonunga itoatkorlikni rad etadilar.

A.N.Yefremov, Y.Y. Pudovochkinlarning yozishicha, “Kattalar o‘sib kelayotgan avlodga yuqori talablarni qo‘yar ekan, ularning o‘zlari ko‘pincha ularga nisbatan yaxshi munosabatni namoyon eta olmaydilar. Agarda biz o‘smirlar jinoyatchiligini haqqoniy ta’qib qilar ekanmiz, bolalarning qarovsiz qolishi, tashlab qo‘yilganligi, ba’zida esa kattalar, jumladan, ota-onalar, qarindoshlari va o‘qituvchilar tomonidan bolalarga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘ravonlikni qanday izohlashimiz mumkin. O‘smirlarga kattalar – ota-onalar, o‘qituvchilar, huquqni muhofaza qilish

organlari xodimlari, umuman aholining o‘smirlarga munosabati o‘zgarmas ekan, hech qanday cheklovlar va talablar o‘smirlar orasidagi salbiy deviantlik va jinoyatchilikni oldini olmaydi. Mutaxassislar “Qiyin bolalar bo‘lmaydi, qiyin kattalar bo‘ladi” deganlari bejiz emas” . Bu ibora, avvalo, o‘smir yoshdagi bolalarning deviant yoki “og‘ma” xulq-atvorini faqat ularning shaxsiy kamchiliklari yoki ichki xususiyatlari bilan izohlash noto‘g‘ri ekanini ta’kidlaydi. Aksincha, bolaning shakllanishida kattalar – ya’ni ota-ona, pedagoglar, mahalladoshlar va keng jamiyat – hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Voyaga yetmaganlar submadaniyatlari odatda jamiyatda o‘rnatilgan ustuvor qadriyatlarga zid faoliyat va turmush tarziga ega o‘smirlarning birlashuvi natijasida shakllanadi. Submadaniyatlarni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar – ijtimoiy xilma-xillik, tengsizlik, adolatsizlik, individlarning ijtimoiy shakllanmaganligidir. Ijtimoiy shakllanmaganlik tushunchasi individning shaxsiy xususiyatlari va tafsilotlarining u egallab turgan ijtimoiy o‘ringa mos emasligi nazarda tutiladi.

Submadaniyatlarni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar – o‘smirlarning jipslashuv, ruhiy himoya, anglanganlikka bo‘lgan ehtiyoj, o‘zi kabilar orasida bo‘lish ehtiyojlaridir. A Strugatskiy va B.Strugatskiylarning yozishicha “Aslida ular qayoqqadir emas “allaqayerdan” qochadilar. Ular bizning dunyomizda o‘z dunyosiga qochadilar. Ularning dunyosi biznikiga o‘xshamaydi ham o‘xshash bo‘lish ham mumkin emas. Chunki ularning dunyosi bizning dunyomizga qasddan tashkil etiladi”. Strugatskiylarning bu iborasi nafaqat adabiy, balki sotsiologik nuqtai nazardan ham muhim tushunchani aks ettiradi: jamiyat bilan integratsiyada muvaffaqiyatsizlikka uchragan shaxs, ayniqsa o‘smir, atrofdagilardan qochib, o‘ziga mos keladigan real yoki simvolik “dunyo” yaratadi. Bu dunyo og‘ish, izolyatsiya va deviantlik manbaiga aylanishi mumkin.

Submadaniyatlar qanchalik jips va ustuvor madaniyatdan keskin farqlanuvchan bo‘lsa jamiyat tomonidan shunchalik ta’qib ostiga olinadi. Ammo, o‘smirlar orasidagi delikvent submadaniyatlarning o‘ziga xosligi mavjud. O‘smirlar submadaniyatlarida kattalarga nisbatan isyon ramzi bo‘lgan qo‘pol va ehtiyotsiz muloqot, bo‘sh vaqtni tashkil etishdagi faoliyatning o‘ziga xosligi, kiyinish, ovqatlanish, hatto turli ichimliklarga ro‘ju qo‘yishdagi umumiyliklar kuzatiladi. Delikvent submadaniyatlar bir xil emas. R. Klauord va L. Oulinlar retretik (odatda – giyohvandlikka asosanlangan), konfliktli va jinoiy submadaniyatlarni ajratadilar.

G.Zabryanskiy esa o‘smirlar guruhlarini turkumlashning murakkab usulini taklif etadi. Unga ko‘ra, jamiyatga munosabat belgisi bo‘yicha ijobiy yo‘naltirilgan, neytral va salbiy (asotsial) yo‘naltirilgan guruhlar farqlanadi. Ular asosan asotsial faoliyat mazmuniga ko‘ra farqlanadi, bularga: ma’naviy me’yorlarni buzuvchi, huquqiy me’yorlarga zid, jinoiy arafasidagi va jinoiy. Ikkilamchi turkumlash mezonlari sifatida shakllanish hududi olinadi: masalan, shahar va qishloq, shaharning ma’lum tumanlari va h.k. Guruhga mansublik bo‘yicha ochiq, yarim ochiq, yopiq guruhlarga ajratiladi.

Ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan fikrlar o‘smirlik davridagi

bolalarda namoyon bo‘luvchi tarbiyasi qiyinlik fenomeni nazariy nuqtai nazardan tushuntirishga qaratilgan bo‘lsa-da, ular bu yoshdagi bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda uslubiy-amaliy tavsiya sifatida ham xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, “muammoli” o‘smirlar xulqining o‘ziga xosligini tushunish va unga samarali yondashish yo‘llarini belgilash imkonini beradi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi jahon huquq me’yorlariga ko‘ra 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lganlar orasida sodir etilgan jinoyatchilik yig‘indisidan iborat. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida inson 18 yoshdan huquqiy munosabatlarning to‘laqonli subyekti bo‘lishi belgilangan bo‘lsa, Jinoyat Kodeksiga muvofiq esa o‘n uch yoshdan o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar voyaga yetmaganlar hisoblanadi.

Ulardan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab 16 yoshga to‘lganlar jinoiy javobgarlikka tortiladilar. 20 xildagi jinoyatlar uchun esa 14 yoshdan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilik jami 23-25 xildagi jinoyatlardan iborat bo‘lib, jinoyatchilikning umumiy salmog‘ining 10-15% ni tashkil qiladi. Voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilikning aniqlangan holatlariga ko‘ra ularni sodir etgan o‘smirlarning har yettinchisida bu qayta jinoyatlar bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortilganlarning har beshinchisi qayta jinoyat sodir etganlardan iborat.
Ularning 80% mulkka nisbatan jinoyatlar sodir etish tashkil etsa (masalan, o‘g‘irlik, talonchilik va zo‘ravonlik bilan mulkni tortib olish), 7% jamoatchilik tartibini buzishga sabab bo‘luvchi jinoyatlardan iborat. Aholi salomatligi vva ma’naviyatga zarar yetkazuvchi jinoyatlar – 6% ni, shaxsga nisbatan jinoyatlar esa 3% ni tashkil qilar ekan.

Amalda sodir etilgan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi tarkibiga ko‘ra:

1. Shaxsiyatga nisbatan (qotillik, sog‘liqqa qasddan ziyon yetkazish, affekt holatida sog‘liqqa ziyon yetkazish, zo‘rlash) – 2,5% - 3,5%;
2. Mulkka nisbatan sodir etilgan jinoyatlar (o‘g‘irlik, tovlamachilik, talonchilik, bosim o‘tkazish, avtomobilni noqonuniy boshqarish, mulkka qasddan zarar yetkazish yoki uni vayron qilish) – 85% - 87,5%;
3. Jamoatchilik xavfsizligi yoki aholi salomatligiga qasddan zarar yetkazish (xuliganlik, giyoxvand va psixotrop moddalarni noqonuniy aylanmasi bilan shug‘ullanish, ularni sotib olish, uzatish, sotish, saqlash, qurol, qurol-aslaha, portlovchi moddalar yoki qurilmalarni tashish yoki olib yurish) – 10,5% - 12,5%.

Voyaga yetmaganlar orasidagi jinoiy xulq-atvorning muqimligi ushbu jinoyatchilik turining “yosharib” borayotganligini ko‘rsatadi. Amaliy tadqiqotlar aksilijtimoiy jinoiy xulq-atvorga moyillik 14-15 yoshli o‘smirlarda 16-17 yoshlilarga nisbatan balandligini ko‘rsatmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, har yili zo‘ravonlik oqibatida 31 000 bola 15 yoshga to‘lmasdan hayotdan ko‘z yumar ekan.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan yoshlar ta’lim- tarbiyasi, ularning ma’naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning hayotimizning boshqa sohalari bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan holda, tizimli,

bosqichma - bosqich amalga oshiriladigan strategiyasi belgilab olindi. Bugungi kunda aholi umumiy sonining 40% 18 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlar, 64% i esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardan iborat ekanligi e’tiborga olinib respublikamizning turli mintaqalarida voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlarinng faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. 2024 yil davomida ushbu markazlar xizmatlaridan 7000 dan ortiq voyaga yetmaganlar foydalangan. Ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish maqsadida yakka tartibdagi profilaktik ishlari amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 78-moddasida “Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir” - deb belgilangan bo‘lib, ushbu norma orqali mamlakatimizda yosh avlodning barkamol rivoj topishi hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun kafolatlar tizimi belgilangan. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoyalashda BMT tomonidan ishlab chiqilgan me’yorlarning roli kattadir. Ushbu me’yorlar voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarining muhofazasida adolat tamoyillariga bo‘ysunishda yuridik kadrlar kasbiy ta’limi va malakasini oshirish masalalari muhimligini ko‘rsatadi. Bu albatta, ushbu soha mutaxassislarining kasbiy kompetentligi va bilimdonligini oshirishga qaratilgan muhim masalalarni qamrab oladi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan me’yoriy hujjatlar va tashkilotlar xalqaro ahamiyatga ega bo‘lib, ular milliy davlatlarda voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlari muhofazasining tamal toshi hisoblanadi. Xususan, respublikamizda voyaga yetmaganlarning qonuniy huquq va erkinlari kuchli himoya ostiga olingan. Voyaga yetmaganlar qarovsizligi va jinoyatlarining oldini olish davlat siyosati darajasida hal etilishi amaldagi qonun va qonun osti me’yoriy hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Lichko A.Ye. Psixopatii i aksentuatsii xaraktera u podrostkov. — SPb.: Piter, 2007.

2. Bem S. Gendernaya psixologiya. — M.: Genezis, 2004.

3. Erikson E. Identichnost: yunost i krizis. — M.: Izdatelstvo Aprel Press, 2000.

4. Parsons T., Bales R. Family, Socialization and Interaction Process. — New York: Free Press, 1955.

5. Grigoreva Ye.A. Gendernыe osobennosti deviantnogo povedeniya podrostkov // Voprosы psixologii. – 2021. – №2. – S. 58–67.

6. Lukina N.Yu. Podrostkovaya deviatsiya: sotsiokulturnыe determinantы. – M.: Nauka, 2019.

7. Giddens E. Sotsiologiya. — M.: Editorial URSS, 2009.

8. Mann Dj. Gender i psixika: formirovaniye identichnosti. — SPb.: Rech, 2005.

9. Zaxarova Ye.I. Psixologiya podrostkovogo vozrasta. — M.: Akademiya, 2016.

10. Burmistrova A.A. Profilaktika deviantnogo povedeniya v podrostkovoy srede. — Kazan: Sentr detskoy psixologii, 2022.

Sayra Janadilova,
Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi

O‘ZBEKISTON YOSHLARINING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH DAVR TALABI

♦ ***Annotatsiya:*** *Maqolada bugungi kundagi O‘zbekiston yoshlarining siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati haqida ma’lumotlar taqdim etilgan va bu boradagi jahon hamjamiyatining tajribalaridan misollar keltirilgan hamda takliflar berilgan.*

♦ ***Abstract:*** *This article presents information on the current state policy aimed at increasing the political engagement of youth in Uzbekistan. It also provides examples from international experiences and offers suggestions for further improvement in this area.*

♦ ***Kalit so‘zlar:*** *Yoshlarga oid davlat siyosati, Yoshlar Parlamenti, Parlamentlararo ittifoq, Milliy Parlamentlarda yoshlarning ishtirokini, “Yoshlar-2030”, “Yoshlar va inson huquqlari”.*

♦ ***Key words:*** *State youth policy, Youth Parliament, Inter-Parliamentary Union, youth participation in national parliaments, “Youth-2030”, “Youth and Human Rights”.*

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq jamiyatning eng asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan yoshlarga alohida e’tibor qaratila boshlandi. 1991 yil 20 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, keyinchalik 2016-yil 14-sentabr kuni esa “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi fikrimizning isbotidir. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun bilan yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari yana bir kafolatlandi. Ushbu qonunda yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, yoshlar ijtimoiy xizmatiga oid normalar o‘z aksini topdi..

Bugungi kunda respublikamizda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishida ishtirokini keng ta’minlash maqsadida keng ko‘lamda islohotlar amalga oshirilmoqda. Aynan ushbu islohotlarning

yoshlar qatlamiga qaratilishining bir qancha sabablari mavjud. Birinchidan, yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi hisoblanib, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali amalga oshirilishida ular hal qiluvchi kuch hisoblanadi. Aynan, zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunar va innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutadi. Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 19 million 600 ming nafardan ziyodini yoki aholining 55,6 foizini tashkil qilmoqdabu esa xalqning asosiy kuch demakdir [1]. Har bir mamlakatning ertangi kunini belgilash mamlakatdagi yoshlarga munosabat bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, yoshlarni jamiyat va davlat ishlarida faol ishtirok etishlarini ta’minlash va rag‘batlantirish kelajagiga befarq bo‘lmagan har qanday davlat taraqqiyotining kafolati hisoblanadi. Zero, mamlakat yoshlarida shu Vatan taqdiri uchun daxldorlik hissini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, jahonning rivojlangan davlatlaridan biri hisoblangan Hindiston tajribasiga yuzlanadigan bo‘lsak, davlatning har qanday islohotlari, ayniqsa, siyosiy sohadagi yo‘nalishlarda yoshlarni ko‘proq jalb etish muhimdir. Buning asosiy sababi shundaki, yoshlarning siyosiy islohotlarda faol bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazalarini erkin bildirishi ularning demokratiyaga bo‘lgan ishonchsizligini kamaytiradi hamda boshlang‘ich liderlik qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi [2].

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2018 yil 27 iyunda imzolangan “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan yana bir muhim hujjatlardan biri bo‘ldi. 2021 yilni – “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, 2024 yilni esa “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilinishi bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirdi. Jumladan, 2024 yil 28 iyun kuni Prezident Sh.Mirziyoyev va yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda so‘nggi yillar davomida yoshlarga oid 100 dan ortiq qonun va qarorlar qabul qilinib, ularga 200 dan ortiq imtiyoz berilganligi ta’kidlandi [3]. Qolaversa, yoshlarning iqtidoridan to‘g‘ri foydalanish maqsadida “Yoshlar bandligi dasturi” ishlab chiqildi [4].

2023 yil 11 sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 1.4-bandi yoshlarga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, unda yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish, ularning intellektual salohiyatini oshirish, ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish kabilar islohotlarning asosiy mezonlaridan biri sifatida belgilandi [5]. Yaratilgan imkoniyatlar va sharoitlarga yoshlarning ham befarq emasligi, birgina Konstitutsiyamizni umumxalq muhomasida ko‘rib chiqib, uni takomillashtirish bo‘yicha juda muhim siyosiy islohotlar amalga oshirildi.Bu borada kelib tushgan taklif va tashabbuslarning 70 foizidan ortig‘i aynan yoshlar tomonidan bildirilgani quvonarli [6].

Demografik jihatdan turkiy mamlakatlar aholisining 25 foizini tashkil etuvchi yoshlarga tayangan holda, bu hududda birgalikdagi taraqqiyotga

asos bo‘luvchi qadriyatlar va manfaatlar uyg‘unligini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan 20 dan ortiq xalqaro tashabbus yoshlar mavzusining nafaqat ichki siyosatda, balki xalqaro maydonda ham dolzarb masalaga aylanganini tasdiqlaydi.

Haqiqatdan ham, yoshlar – davlatning energiyasidir. Har bir energiyani, kuchni to‘g‘ri yo‘naltira bilish kerak. Shu sababli davlat hokimiyatida yoshlar bilan bog‘liq yangi institut “Yoshlar Parlamenti” yaqin yillardan boshlab o‘z faoliyatini boshladi va ko‘pgina yutuqlarga erishdi. Oliy Majlis palatalari huzurida tashkil topgan Yoshlar parlamenti ham jamiyatdan alohida kuchli energiyaga ega yoshlarni saylab olib ulardan yangi liderlarni tayyorlamoqda. “Yoshlar Parlamentidan Oliy Majlis Parlamentigacha” shiori ostida harakat qilib, deputatlik faoliyatini muvaffaqiyatli boshlagan Yoshlar Parlamenti Raisi Shaxnoza Joldasovani ham ana shunday yoshlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Yoshlar parlamenti a’zolari orasidan Sobitov Otabekxoja, Murodov Nodirbek, Suyarov Komiljon, Axadova Husnora, Komilov Akbarshoxlar 2024 yil 25 dekabrda “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, “Yosh rahbar kadrlar zaxirasi” shakllantirilib, uning 30 foizi yoshlar yetakchilari hisobidan to‘ldiriladi.

Yoshlarni mamlakat boshqaruviga keng jalb qilish hamda siyosiy hayotga, amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini rivojlantirishda “eski” yoki sinalgan usullarni qo‘llash va “yangi” usullarni o‘ylab topish muhimdir. Jumladan, “eski” usullar biri saylovchilar yoshini yoshartirish hisoblanadi. Masalan, Braziliyada saylovda ishtirok etish huquqining 16 yoshdan boshlab berilishi fuqarolar ko‘pchiligining saylovlarda ishtirok etishiga sabab bo‘ladi. Siyosiy partiyalar faoliyatida yoshlar ishtirokining qo‘llab-quvvatlanishiga qaratilgan siyosat Gana kabi mamlakatlarda o‘z samarasini bermoqda.

Yangi usullarga keladigan bo‘lsak, Slovakiyada yoshlarning saylov jarayonlarida faol ovoz berishga imkon beradigan qator onlayn vositalar mavjud. Biroq, bu onlayn vositalar yoshlarning ishtiroki uchun katta imkoniyatlarni taqdim etishiga qaramay, noto‘g‘ri ma’lumotlar, manipulyatsiya va polyarizatsiya kabi katta tahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Kosta-Rika va Finlyandiya bu tahdidlarga qarshi kurashish uchun ijtimoiy media savodxonligini rivojlantirishga intilmoqda [7].

Dunyo davlatlarida, xususan, Yaponiyada ham yoshlarning saylovlardagi faol ishtiroki muhim va katta siyosiy jarayon hisoblanadi. Yaponiyada saylovchilar orasida yoshlar ulushining tobora tushib ketishi bois, mamlakat saylov yoshini 20 yoshdan 18 yoshga tushirish borasida qaror qabul qildi. Lekin, bu qaror ham samarali natija bermagach, hukumat yoshlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali jalb qilishga kirishdi. “Youtube” platformasiga joylashtirilgan “#Iamvotingtoo” heshtegi ostidagi video 200 000 ga yaqin ko‘rishlarga ega bo‘ldi va saylov jarayonlariga yoshlarni faol jalb qilish borasida ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Ammo xalqaro miqyosda yoshlarning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan qator islohotlar o‘tkazilayotganiga qaramay, ko‘plab davlatlarda siyosatga bo‘lgan ishonchsizlikni his qiluvchi yoshlar ulushi ham talaygina. Ayniqsa, Sharq davlatlari, jumladan, Yaponiya yoshlari orasida siyosiy faollikning

passivligi borasidagi muammoning negizi sifatida yosh senzi ko‘rsatiladi. Saylovchilarning asosiy qismi, shuningdek, siyosiy elita ham yoshi katta amaldorlarning ish tajribasi kattaligiga ishonishadi va yoshlarning mehnat va aqliy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholamaydilar [7].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “maktablar parlamentga ko‘prik bo‘lishi kerak” degan g‘oyani respublikamizda ham qo‘llash mumkin. Bugungi kunda respublikamizda “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya asosida maktab ta’limi tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yuqoridagi tahlillar natijasida yoshlarni maktabdan boshlab siyosatga qiziqtirish va ularning siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha quyidagicha takliflarni berish mumkin:

- maktablarda “maktab yoshlari prezidentligiga saylovlar” o‘tkazish;
- maktablarda tuman yoki viloyat miqyosida “exchange programlar” asosida bir-biri bilan o‘quvchilarni almashish;
- nodavlat va davlat oliy ta’lim tashkilotlariga talabalarni motivatsion xat va yutuqlari ko‘rsatilgan hujjatlar orqali qabul qilish yoshlarimiz o‘rtasida har qanday jabhada faolligini oshirish.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan takliflar faqatgina maktablarda emas, balki oliy ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida samarali natija ko‘rsata oladi. Zero, yoshlar masalasidagi har bir muammo o‘ta dolzarbdir va birinchilar qatorida yechilishi shart.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari. Yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro anjuman, 23.10.2023. https://parliament.gov.uz/news/yoshlar-huquqlari-imkoniyatlar-va-himoya-qilish-mexanizmlari

2. Megxna D. Dxanvani, “Kristu Jayanti” nomidagi yuridika kolleji. https://www.kristujayantilaw.edu.in/Youth-Political-Participation.php

3. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 102908 sonli nashri https://yuz.uz/a/oz/102908

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi. “Yoshlar bandligini ta’minlash”ga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi, 23 iyun 2023 yil. https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/Yoshlar_bandligi_dasturi.pdf

5. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Prezident farmoni, PF–158.

6. Saidov A. Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari. Yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro anjuman, 23.10.2023 // https://parliament.gov.uz/news/yoshlar-huquqlari-imkoniyatlar-va-himoya-qilish-mexanizmlari

Kumi-Milliken. Young People in Japan Changing the Political Landscape (2022-yil 10-iyun “Linkedin” sayti) // https://www.linkedin.com/pulse/young-people-japan-changing-political-landscape-kumi-milliken

QAYDLAR UCHUN